


H. Mamedov, N. Muminov, A. Umarov, A. Ismailov

# IQTISODIYOT NAZARIYASI

I



**ALFRAGANUS UNIVERSITY**

**H. Mamedov, N. Muminov, A. Umarov, A. Ismailov**

# **IQTISODIYOT NAZARIYASI**

**(darslik)**

**I tom**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan  
“Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan barcha yo‘nalishlar uchun darslik sifatida  
tavsiya etiladi

**“BOOKMANY PRINT”  
TOSHKENT – 2022**

**UO‘K: 330(075)**

**KBK: 65.9ya7**

**M 23**

**ISBN 978-9943-8628-5-2**

Mamedov, H., Muminov, N., Umarov, A., Ismailov, A.

Iqtisodiyot nazariyasi I tom [Matn] : darslik / H. Mamedov, N. Muminov, A. Umarov., Ismailov, A.– Toshkent: Bookmany print, 2022. – 440 b.

**Taqrizchilar:**

**H.P.Abdulqosimov**

O‘zMU Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası  
professori, iqtisod fanlari doktori

**M.A.Mahkamova**

ToshDTU Iqtisodiyot va marketing kafedrası  
mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor

**K.Q.Ismoilov**

ToshFI Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, iqtisod  
fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur darslikda predmet, bilish metodlari, rivojlanish davrlari, jamiyatda iqtisodiy munosabatlarning tuzilishi va bozorning harakat qilishi; butun jahon va alohida mamlakatlar miqyosida mikro-, mezo-, makro-, mega iqtisodiyotning asosiy muammolari ko‘rib chiqilgan.

Material ommabop, yaqqol, keng va ko‘p sonli sxemalar, jadvallar, grafik-rasmlar orqali bayon etilgan.

Mualliflar o‘ziga xos dizayn orqali o‘quvchi tomonidan kitob mazmunini qabul qilish va asosiy jihatlarini yodda saqlashni yengillashtirishni ko‘zda tutadi. Mazkur darslik oxirida iqtisodiy tarixni xronologiyasi, jahon davlatlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari, iqtisodiyot fani bo‘yicha A.Nobel mukofoti sovrindorlari ro‘yxati keltirilgan.

© ALFRAGANUS UNIVERSITY

© Mamedov, H., Muminov, N., Umarov, A., Ismailov, A.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2022.

## KITOBXONLARGA

*Kitob - barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va  
aql-idrokning, ilmu donishning asosidir,  
hayotni o'rgatuvchi murabbiydir  
Amir Temur*

Butun dunyo iqtisodiy sivilizatsiyasining tarixan tajribasi guvohlik qilmoqdaki, iqtisodiyot fani doimo hamma har xil sistemalarida yo'l qo'ygan kamchiliklari, xatoliklari va yanglishganlarida jamiyatga, insoniyatga, ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rni almashinuvida, millat, elatlarining shakllanishida va rivojlanishida o'zining bebaho, qimmatli xizmat ko'rsatib kelmoqda. U siyosatchilarga, iqtisodchilarga, davlat – millat rahbarlariga, ishbilarmonlarga, tadbirkor – biznesmenlarga va oddiy fuqarolarga xususan aqlli va samarali hal qilishni, tanlovga yordam berib kelmoqda.

Albatta bu ham tabiiy ravishda o'z-o'zidan tushunilmoq bilan qabul qilindi va qilinmoqda. Ammo qachonki, qayerda va nima uchun halokatli xatoliklar, jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy yo'qotishlarga olib kelgan qarorlar qabul qilinganda, hamma ayb, gunoh, jinoyatlar, moliyaviy – iqtisodiy inqirozlar iqtisodchilarga va iqtisodiyot fanlari zimmasiga yuklangan edi. Bunday hollarda, qanday nazariya foydalanilgan, qanday axborotlar asosida bu halokatli qarorlar qabul qilinganligiga hech kim hech qanday ahamiyat bermaganlar.

Javobgarlik davlat qarorlari ko'pincha iqtisodiyot vakillarining tafakkurlarini hisobga olmasdan noto'g'ri axborotlar va begonalarning tajribasi asosida, tanqidiy ko'z bilan qaralmasdan qabul qilinadi.

O'zbekistonda murakkab va noyob tadbirkorlik birlashmalarining faoliyati nafaqat qiyin va ziddiyatli kechmoqda, balki bu jarayon ijtimoiy-iqtisodiy hayotining transformatsiyasi bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga qaratilganligidadir.

Barcha sivilizatsiyalashgan dunyo, endi milliy ishlab chiqarishda va jahon xo'jaligida umumiy inqilobiy bo'sag'ada bosib o'tilmoqda. Bu so'zsiz jamiyatni iqtisodiy tashkil qilishdagi tubdan qayta qurishga olib boradi.

O'zbekiston kelajagi buyuk davlat bo'lishi uchun, yuksak darajada samarali iqtisodiy o'sish asosida aholining farovon hayotini ta'minlab berishi shart, bu albatta birinchi navbatda yuksak fan – texnika, texnologiya, yangi investitsiya va innovatsiyalar orqali erishiladi va bu erishish faqat xalq xo'jaligini bozor munosabatlari sharoitida tashkil qilish yo'li bilan mumkin.

O'zbekiston tarixiy qisqa vaqt ichida bozor iqtisodini shakllantirishi kerak va industrial rivojlangan davlatlar bilan birga industriyadan keyingi

qimmatbaholi bosqich sari harakatini ochib beradi, bu axborotlar jamiyatiga o'tishni anglatadi.

Amaliyotni mukammallashtirishni hojlaydigan, yangi milliy mafkuralarni realizatsiya qilishga loyiq darsliklarsiz o'tib bo'lmaydi.

Ushbu darslik albatta kamchiliklarsiz emas. Lekin, bu darslik hozirgi ko'p nashr etiladigan darsliklardan foydali farq qiladi, o'quvchilarga nafaqat buning boblarida, paragraflarida va betlarida yozilganlarni o'zlashtirishda qo'llash variantlarini o'rganishga ijozat beradi.

Bu darslikning kitobxon – o'quvchilariga muvaffaqiyatlar tilaymiz. Bu darslik ularga bilim sistemasini olishga yordam berib, ishonchli yo'l ko'rsatkich bo'lib, murakkab, ammo qiziqarli biznes dunyosiga xizmat qilsin.

Ushbu darslikni yozishda o'zbek modeli tamoyillarining kivitessensiyasini, ya'ni eng muhim, asosiy mag'zini o'z ichiga olgan iqtisodiy yo'nalishlar ifoda etilgan iqtisodiy islohotlar konsepsiyasida ijobiy yoritilgan erkin bozor iqtisodiyotining asosiy prinsiplarini himoyalashdan iborat bo'lgan muammolar:

- Xususiy mulkchilikni keng rivojlantirish;
- Erkin tadbirkorlikni qo'llab – quvvatlash;
- Bandlikni ish bilan ta'minlab, ishsizlar sonini kamaytirish;
- Korxonalarni texnika – texnologiyalarini rivojlantirish;
- O'zbekistonda mahsulot ishlab chiqarishni yaxshi yo'lga qo'yish;
- Xorijiy mamlakatlar investitsiyasini va innovatsiyasini keng qo'llash;
- Iqtisodiy o'sish va mehnat unumdorligini oshirish;
- Soliq tizimini va davlat xarajatlarini yo'lga solish;
- Kambag'allik darajasini pasaytirish va aholi daromadlar miqdorini oshishini qo'llab – quvvatlash;
- Minimal yashash savatini to'liq, real darajada aniqlash;
- To'lov balansi va xalqaro valyuta sistemasini, halqaro kredit sohasini rivojlantirish;
- Eksport va import mahsulotlarini mukammallashtirish;
- Hozirgi zamon iqtisodiyot fani talabiga binoan aynan iqtisodiyotda ishlab chiqarishni diversifatsiya qilish;
- Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish;
- Iqtisodiyotni innovatsiyalash;
- Iqtisodiyotga investitsiyalar yo'naltirish;

Shu bilan birga milliy iqtisodiyotni yangi texnologiyalar bilan ta'minlash zarurdir. Raqobat va antitrestlar qonunini tartibga solish va boshqa – boshqa bozor iqtisodiga oid asosiy muammolar taqdiri hal qilinib kelmoqda va bularni yoritishda juda katta yordam berdi.

## FANIMIZ HAQIDA

**Yigitlik chog‘ida yig‘ ilmning mag‘zini,  
Qarilik chog‘i xarj qilg‘il ani**

**Alisher Navoiy**

O‘rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta‘lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san‘at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi yangi-yangi iste‘dodli avlodlar to‘lqinining paydo bo‘lishi va voyaga yetishi – bularning barchasi, birinchi navbatda, iqtisodiyot, qishloq va shahar xo‘jaligining ancha jadal o‘shishi, hunarmandlik va savdo-sotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo‘llar qurilishi, yangi karvon yo‘llarining ochilishi va avvalambor nisbiy barqarorlikning ta‘minlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Bu eng avvalo, o‘rta asrlarda yashab, ijod etgan buyuk Sharq alloma va mutafakkirlarining tengsiz asarlari va ilmiy me‘rosi faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma‘naviy mulki ekanini yana bir bor ta‘kidlaydi. Bu bebaho boylik, yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, kerak bo‘lsa, yangi kashfiyotlar uchun ajoyib zamindir. Bizning davrimizgacha yetib kelgan bu boy merosdan butun bashariyat ravnaqi yo‘lida oqilona va samarali foydalanish – bu siz bilan bizning vazifamiz, siz bilan bizning burchimizdir.

Bu borada fidoyi olimlarning roli alohida diqqat-e‘tiborga munosib bo‘lib, aynan ularning mehnati tufayli biz o‘tmishning bebaho merosini qaytadan kashf etmoqdamiz.

*Islom Karimov*

Mantiq ilmini tanqid qiluvchilar, bu odat bo‘lib qolgan, sizni siyosiy iqtisoddan ehtiyot bo‘l, deb ogohlantirishadi. Mazkur fan toshbag‘ir, noxush faktlarni e‘tiborga oladi va ular bilan muomala qiladi, deb ta‘kidlashadi. Menga kelsak, ko‘p eshitgan eng toshbag‘ir narsa, bu – yerning tortishish qonunidir: bir soniyaga bo‘lsa ham ana shu qonunni unutadigan bo‘lsak, u hatto eng yaxshi, eng aziz insonni ham mayib-majruh qiladi, vijdoni aslo azoblanmaydi. Shamol va to‘lqinlar ham o‘ta shafqatsiz. Dengizga yo‘l olayotganlarga siz shamol va to‘lqinlarni pisand qilmaslikni maslahat berarmidingiz yoki ulardan foydalanishni, yoki ularda yashirinib yotgan havf-xatardan qutulish yo‘lini izlashni maslahat bergan bo‘larmidingiz? Mening sizlarga maslahatim – siyosiy iqtisodning buyuk vakillari asarlarini o‘rganing, ularning ta‘limotlaridagi nimaiki sizning nazaringizda to‘g‘ri bo‘lsa, shularga og‘ishmay amal qiling: hali xudbinga aylanganim yo‘q, hali yuragim tosh

qotgani yo‘q, degan fikrdan kelib chiqing. Siyosiy iqtisod hech qachon sizni bunday holga solmaydi.

**Jon Styuart Mill**

Iqtisodiyot nazariyasini muntazam o‘rganib bormagan odam uchun nafaqat savollarga javob berish, xatto ana shu savollar ustida puxta fikr yuritishga urinish ham g‘oyat katta mushkulliklarni yaratadi. Uni musiqa asariga o‘z bahosini berishga intilayotgan kar-soqovga qiyoslasa bo‘ladi. Ana shu odamga eshitish imkonini beringchi, shunda u iste’dodi bo‘lmasa ham, ana shu yetishmovchilik o‘rnini tajriba bilan to‘ldirishga qodir bo‘lmasa ham, musiqa ohanglari va tuzilishini tushunmasa ham, kuy va maqomdan huzur qilish holida bo‘lsa, hech bo‘lmaganda musiqa nima ekanligini his eta oladi.

**Pol Samuelson**

Siyosiy iqtisod sohasidagi erkin ilmiy tadqiqot boshqa sohalar bo‘yicha o‘ziga tanish bo‘lgan dushmanlargagina duch kelmaydi. Siyosiy iqtisodiyot ish olib boradigan materialning o‘ziga xos tabiati erkin ilmiy tadqiqotga qarshi kurash maydoniga inson qalbining eng qahrli, eng pastkash va eng jirkanch ehtirosalarini – shaxsiy manfaatning rahmsiz yosumanlarini chorlaydi.

**Karl Marks**

Iqtisodchilar va siyosiy mutafakkirlarning g‘oyalari – ular haq bo‘lganida ham, adashganida ham – odatda biz o‘ylaganimizdan kattaroq ahamiyatga ega bo‘ladi. Aslini olganda, dunyoni faqat shulargina boshqaradi. O‘zini ma’naviy taassurotlarga o‘ta bardoshli deb hisoblovchi amaliyot vakillari, odatda, o‘tmishdagi qandaydir bir iqtisodchining qullari hisoblanadi. Hokimiyat tepasida turgan, go‘yo ilohiy ovozlarni eshituvchi tentaklar o‘zlarining telba-teskari g‘oyalarini aslida bundan bir necha yillar ilgari ijod qilgan sof nazariyotchi adibning asarlaridan olishadi. Men aminman, g‘oyalar ta’siri asta-sekin kuchayib borishiga nisbatan olib qaraganda, g‘arazli manfaatlar kuchi anchagina mubolag‘a qilib ko‘rsatiladi. To‘g‘ri, darhol emas, oradan ma’lum muddat vaqt o‘tgandan so‘ng ro‘y beradi.

**Jon M. Keynes**

Aslida iqtisodiy g‘oyalar hamisha o‘z davri va vujudga kelgan makonining mahsuli hisoblanadi. Ular ana shu davr va makon bilan uzviy bog‘liq, ularni mustaqil ravishda, o‘zi izoh berayotgan olamdan ayri holda ko‘rib chiqish mumkin emas, bu olam esa muntazam o‘zgarib turadi. Bu

demak, iqtisodiy nazariyalar ham, agar ular o‘z maqsadlariga javob berishga da’vat etilgan bo‘lsa, o‘zgarib turishi lozim.

**Jon K.Gelbreyt**

Biz, men sof nazariyotchi iqtisodchi olimlarni nazarda tutyapman, kimda – kim bizni tinglashga tayyor bo‘lsa, davlat siyosati muammolariga doir o‘z nuqtai nazarlarimizni bayon etishga, ish bilan bandlikni qanday qilib yaxshiroq ta’minlash, inflyatsiyaga qarshi kurashish, iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish haqida maslahatlar berishga tayyormiz. Bundan tashqari, biz g‘oyatda og‘ir, ammo hamisha his-hayajonga soluvchi ma’naviyat sohasida bizga hamroh bo‘lib kelayotgan orzu-niyatlar va umidsizliklarni keng jamoatchilik bilan birga baham ko‘rishga tayyor bo‘lishimiz lozim.

**Vasiliy Leontev**



## O‘ZBEKISTON HAQIDA UMUMIY MA’LUMOTLAR

*O‘zbekiston - kelajagi buyuk davlat!*

*Islom Karimov*

Yer qurrasining umumiy maydoni 510,2 mln.km<sup>2</sup>, shu jumladan, suv manbalari – 361,06 mln.km<sup>2</sup>. yer maydoni 148,6 mln.km<sup>2</sup>.

Tinch okeani (dengizlari bilan) – 179,7 mln.km<sup>2</sup>;

Atlantika okeani (dengizlari bilan) – 93,36 mln.km<sup>2</sup>;

Hind okeani (dengizlari bilan) – 74,9 mln.km<sup>2</sup>;

Shimoliy muz okeani (dengizlari bilan) – 13,1 mln.km<sup>2</sup>;

Yer yuzi aholisi 7,94 mlrd. kishi

Yer yuzida 197 ta yirik, o‘rta va kichik mamlakatlar mavjud.

### **Geografik o‘rni**

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning o‘rta va shimoliy qismida joylashgan. Shimoliy - sharqda Qirg‘iziston, shimol va shimoli-g‘arbda Qozog‘iston Respublikasi, janubi-g‘arbda Turkmaniston, janubi-sharqda Tojikiston Respublikasi, janubda qisman Afg‘oniston bilan chegaradosh. O‘zbekistonning eng shimoliy nuqtasi shimoli- sharqda Ustyurt platosi, Orol dengizining g‘arbiy sohilida (45° 36 shimoliy kenglik), eng janubiy nuqtasi – Surxondaryo viloyatining Termiz shahri yonida (37° 11 shimoliy kenglik), g‘arbiy nuqtasi – Ustyurt platosida (56° sharqiy uzunlik), sharqiy nuqtasi – Farg‘ona vodiysining janubi-sharqida va Qirg‘iziston Respublikasi chegarasida (37° 10 sharqiy uzunlik). Shimoliy va janubiy chekka nuqtalar orasidagi masofa 925 km, g‘arbiy va sharqiy nuqtalar orasi esa 1400 km.

O‘zbekiston Respublikasi maydoni 447,4 ming kv.km. Respublika hududi janubi-sharqdan shimoli-g‘arbgacha cho‘zilgan bo‘lib, shu yo‘nalishda yirik daryolar oqimiga mos pasayib boradi. Mamlakatning shimoli-g‘arbiy chekkasida – Ustyurt bilan Qizilqum oralig‘ida Orol dengizi joylashgan. Respublika maydonining qariyb 4/5 qismi tekislik, oz qismi tog‘, adir va tog‘ oldi hududlaridan iborat. O‘zbekiston hududidan Markaziy Osiyoning eng katta daryolari – Amudaryo va Sirdaryo oqib o‘tib, Orol dengiziga quyiladi. Bu ikki azim daryo oralig‘idagi hudud Turon pasttekisligi deb ataladi. Bu tekislikning ko‘p qismi Qizilqumdan iborat, ba’zi joylarda qirlar uchraydi. Respublikaning sharqiy va janubi-sharqiy qismida Tyanshan, Oloy, Turkiston, Zarafshon va Hisor tog‘lari bor. Bu tog‘lar orasida Farg‘ona, Zarafshon, Kitob-Shahrisabz, Surxon-Sherobod, Chirchiq-Ohangaron kabi vodiylar joylashgan. Vodiylar sug‘oriladigan yerlar bo‘lib, aholining asosiy qismi shu yerlarda yashaydi. Tog‘larning cho‘qqilari muzliklar, doimiy qor qatlamlari bilan

qoplangan. Respublikaning g'arbiy va shimoli-g'arbiy qismiga borgan sari ulkan tog'lar pasayib, tog' yon bag'ri tekisliklari go'zal, hushmanzara vodiylarga aylanadi. So'ng vodiylar tugab, asta-sekin cho'llar, poyonsiz qumliklar boshlanadi.

**Ma'muriy-hududiy bo'linishi** Hozirgi O'zbekiston hududi 1917 yilning oktabr inqilobiga qadar ma'muriy jihatdan Turkiston general-gubernatorligi (Turkiston o'lkasi), hamda Rossiyaning yarim mustamlakalari bo'lmish Buxoro amirligi va Xiva xonligiga bo'lingan edi. Asosiy ma'muriy-hududiy birliklar viloyat, uyezd, volost va qishloq jamoalaridan iborat bo'lgan. Xususan, Xiva xonligi 20 beklik, 2 noiblik va Xiva shahriga bo'lingan. Beklik va noibliklar o'z navbatida amirlik va masjidlariga bo'lingan. Buxoro amirligi hududi 28 beklikdan iborat bo'lib, ular amlak va amirliklarga bo'lingan.

1917 yilgi oktabr inqilobidan keyin chor Rossiyasi mustamlakachilari o'rnini egallagan sobiq ittifoq respublikalar tuzish niqobi ostida amirlik va xonliklarni mahv etib, yaxlit Turkiston o'lkasini parchalab tashladi.

1918 yil 30 aprelda Sho'rolar – O'lka s'ezdida tasdiqlangan Rossiya Federatsiyasining «Turkiston Sovetlar Respublikasi to'g'risida Nizom» da Turkiston Respublikasining davlat tuzumi, uning hududiy chegaralari belgilandi. 1924 yilga kelib Turkiston ASSR 6 viloyatga: Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Zakaspiy (Turkmaniston), Yettisuv, Amudaryo viloyatlari, 30 uyezd va 473 volostga bo'lib tashlandi.

1920 yil aprelda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi e'lon qilinib, konstitutsiya qabul qilindi. Respublikaning butun hududi 28 tumanga bo'lindi.

1924 yili respublika 3 viloyat (Qozoq – Qoraqalpoq, Yangi Urganch, Toshhovuz) va Xiva tumaniga bo'lindi. Viloyatlar sho'ro (volost) larga taqsimlandi. 1920 yil 8 oktyabrda sobiq Buxoro amirligi Buxoro Xalq Sovet Respublikasi deb e'lon qilindi. Respublika hududi 15 viloyat, 58 tuman va 197 kengashga bo'lindi. Shunday qilib, O'rta Osiyoda sotsialistik deb atalgan uch davlat: Turkiston ASSR, BXR va XXSR paydo bo'ldi. Ammo yangi mustamlakachilarni bu ham qanoatlantirmadi. Endi ular mustamlakani boshqarishning ancha qulay shakliga – «Milliy-hududiy chegaralanish» deyilgan keyingi bosqichiga o'tdilar.

1924 yilda milliy hududiy chegaralanish natijasida O'rta Osiyoda O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi (O'zSSR) tuzildi. 1924 yildan 1929 yilgacha Tojikiston ASSR ham O'zSSR tarkibida bo'lgan.

1925 yil 29 yanvardan respublikada yagona ma'muriy bo'linish joriy qilindi. Markazi Samarqand shahri bo'lgan O'zSSR 7 viloyat (Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazm) ga, 22

uyezd va 241 volostga bo‘lindi. 1926 yilda ma‘muriy-iqtisodiy rayonlashtirilish amalga oshirildi. 1927 yil 1 yanvarida O‘zSSR hududi 10 okrug, 87 tuman va 1746 qishloq kengashidan iborat edi.

1930 yil 17 avgustda okrugga bo‘linish bekor qilindi. 1930 yilning oxirida O‘zSSR tarkibida 9 shahar (respublika poytaxti – Toshkent shahri), 73 tuman, 1696 qishloq kengashi bor edi. 1932 yil 27 iyunda Xorazm okrugi, 1935 yil fevralda esa Qashqadaryo va Surxondaryo okruglari qayta tiklandi.

1936 yilda Qoraqalpog‘iston ASSR RSFSR dan olinib, O‘zSSR tarkibiga kiritildi.

O‘zSSRning ma‘muriy-hududiy bo‘linishi uning 1937 yilgi Konstitutsiyasida rasmiylashtirildi. Bu vaqtga kelib O‘zSSR tarkibida bir avtonom respublika, 3 okrug, 109 tuman, 22 shahar, 16 shaharcha va 1392 qishloq kengashi bo‘lgan.

1938 yil 14 fevralda O‘zSSR tarkibida Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlari tuzildi. 1941 yil 6 martda Andijon, Namangan va Surxondaryo viloyatlari, 1943 yil 20 yanvarda Qashqadaryo viloyati tashkil etildi. Barcha viloyatlarda bir qancha tumanlar tuzildi. 1954 yil iyunda 447 qishloq kengashi tarqatilib yuborildi. 1957 yil 1 yanvarda O‘zSSR tarkibida: 1 avtonom respublika, 9 viloyat, 6 shahar tumani, 155 qishloq tumani, 29 shahar, 57 shaharcha va 993 qishloq kengashi bo‘lgan.

1957-1961 yillarda ma‘muriy-hududiy birliklar bir qadar yiriklashtirildi, viloyat, tuman, qishloq kengashlari soni kamaytirildi. Bu davrda Namangan va Qashqadaryo viloyatlari bekor qilindi. Natijada O‘zSSR tarkibida 1 avtonom respublika, 7 viloyat, 117 qishloq tumani, 754 qishloq kengashi qoldi.

Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi munosabati bilan 1963 yil 16 fevralda Sirdaryo viloyati tuzildi. 1964 yil 7 fevralda Qashqadaryo viloyati, 1967 yil 18 dekabrda Namangan viloyati tuzildi, shuningdek, ilgari bekor qilingan tumanlar qayta tiklandi, yangilari tuzildi, 1973 yil 29 dekabrda Jizzax viloyati, 1982 yil 20 aprelda Navoiy viloyati tuzildi. 1988 yil 6 sentyabrda viloyatlarni yiriklashtirish maqsadida Jizzax viloyati Sirdaryo viloyatiga, 1989 yil may oyida Navoiy viloyati Samarqand va Buxoro viloyatlariga qo‘shib yuborildi.

1990 yil 16 fevralda Jizzax va Sirdaryo viloyatlari avvalgi chegarasida, 1992 yil 27 yanvarda Navoiy viloyati qayta tiklandi. O‘tgan davrda ko‘pgina aholi yashaydigan joylar shahar va shaharcha (shahar tipidagi posyolka)larga aylandi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, sho‘rolar davrida ommaviy tus olgan va sho‘rolar tuzumini madh etuvchi joylarning nomlari bekor qilinib, aholi yashaydigan joylarning tarixiy nomlari tiklandi yoki yangi nomlar berildi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi (1992) Konstitutsiyasida (68-modda) O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iboratligi mustahkamlab qo‘yilgan.

### O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy bo‘linishi (2020)

	Maydoni (ming km <sup>2</sup> )	Aholisi (ming kishi)	Qishloq tumanlari soni	Shaharlar soni	Shaharchalar soni	Ma‘muriy markazi	Qishloq (ovul) soni
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	166.6	1 923.7	14	10	26	Nukus	138
Andijon viloyati	4.3	3 188.1	14	11	78	Andijon	90
Buxoro viloyati	40.2	1 947.1	11	11	62	Buxoro	120
Jizzax viloyati	21.2	1 410.5	12	6	42	Jizzax	100
Navoiy viloyati	111.1	1 013.6	8	6	36	Navoiy	58
Namangan viloyati	7.4	2 867.5	11	7	120	Namangan	99
Samarqand viloyati	16.8	3 947.7	14	11	88	Samarqand	125
Sirdaryo viloyati	4.3	860.9	8	5	21	Guliston	68
Surxondaryo viloyati	20.1	2 680.8	13	8	114	Termiz	865
Toshkent viloyati	15.2	2 975.9	14	16	97	Toshkent	146
Farg‘ona viloyati	6.8	3 820.0	15	9	197	Farg‘ona	161
Xorazm viloyati	6.1	1 893.3	10	3	58	Urganch	98
Qashqadaryo viloyati	28.6	3 335.4	13	11	123	Qarshi	148
Toshkent shahri	0.36	2 694.4	11		1	Toshkent	
O‘zbekiston Respublikasi	448.9	34.6 mln.	157	114	1062	Toshkent (poytaxt)	2216

Markaziy Osiyoda, xususan O‘zbekistonda davlat rahbari bo‘lgan, uning ichki va tashqi siyosatini o‘tkazib, shu millat, davlatning har tomonlama rivojlanishida o‘zlarining katta hissasini qo‘shgan shaxslar quyidagilar:

**Islom Karimov** (1938-2016) – Davlat va siyosat arbobi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti. 1960 yildan «TashSelMash» zavodida avval master yordamchisi, so‘ng master, texnolog bo‘lib ishlagan. 1961 yildan V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida muhandis, yetakchi muhandis-konstruktor lavozimlarida faoliyat olib borgan. 1966 yildan O‘zbekiston Davlat plan komitetida fan va yangi texnikani joriy etish bo‘limining bosh mutaxassisligidan respublika Davlat plan komiteti raisining birinchi o‘rinbosarigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. 1983 yilda

O‘zbekiston moliya vaziri, 1986 yilda esa O‘zbekiston Ministrlar Soveti raisining o‘rinbosari, respublika Davlat plan komitetining raisi bo‘ldi.

1986 yil dekabrda O‘zbekiston KP Qashqadaryo viloyati partiya komitetining birinchi kotibi, 1989 yil iyundan O‘zbekiston KP MK birinchi kotibi lavozimlarida ishladi. 1990 yil 24 martdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangan bo‘lsa, 1991 yil 29 dekabrda birinchi bor muqobillik asosida o‘tkazilgan umumxalq saylovida ham eng ko‘p ovoz olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasiga muvofiq ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining raisi ham bo‘ldi. I.A.Karimov 1991 yil 31 avgustda Toshkentda O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qildi. I.A.Karimov O‘zbekiston davlat tuzumini mustaxkamlashda, respublikaning ichki va tashqi siyosatini o‘tkazish, tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashda jonbozlik ko‘rsatmoqda. 1995 yil 26 martda umumxalq ovozi (referendumi) bilan I.A.Karimovning Prezidentlik kafolati 2000 yilgacha uzaytirildi. 2000 yil 9 yanvarda o‘tkazilgan saylovda esa I.A.Karimov yangi muddatga O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi.

Sobiq SSSR siyosiy va iqtisodiy jihatdan parchalangandan keyin, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov shaxsan bozor iqtisodiyotiga o‘tishda “O‘zbek modeli” deb dunyoviy nom olgan iqtisodiy modelning muallifi, ilmiy asoschisi bo‘lib qoldi.

I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, madaniy va ma‘naviy rivojlanishiga bag‘ishlangan qator asarlarning muallifidir. «Istiqlol yo‘li: muammolar va rejalar», «O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li», «O‘zbekiston - kelajagi buyuk davlat», «O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li», «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida», «Istiqlol va madaniyat», «O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda», «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz», «Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch», «Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi. O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralari», «O‘zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida» va boshqa o‘nlab asarlar shular jumlasidandir. Islom Abdug‘aniyevich Karimov O‘zbekiston Qaxramoni, O‘zbekiston FA akademigi (XII bobda batafsil berilgan) kabi unvonlar sohibidir.

## **Shavkat Miromonovich Mirziyoyev**

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 1957 yilda 24 iyulda Jizzax viloyatining Zomin tumanida shifokor oilasida tugʻilgan. Millati- Oʻzbek. Oliy maʼlumotli, 1981 yil Toshkent Irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mehanizatsiyalash muhandislari Institutini tugatgan. Muhandis-mexanik mutaxassisligiga ega. Texnika fanlari nomzodi, dotsent.

Mehnat faoliyatini 1981 yilda Toshket Irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mehanizatsiyalash muhandislari institutida boshlab, kichik ilmiy xodim, katta oʻqituvchi, dotsent, oʻquv ishlari boʻyicha prorektor lavozimlarida ishladi.

1990 yilda Respublika Oliy Soveti deputatligiga saylanib, ayni vaqtda Mandat komissiyasining raisi sifatida ham faoliyat koʻrsatdi.

1992 yilda Toshkent shahrining Mirzo Ulugʻbek tumani xokimi lavozimiga tayinlandi. 1996-2001 yillarda Jizzax viloyati xokimi, 2001-2003 yillar mobaynida Samarqand viloyati xokimi lavozimlarida ishlab, mazkur tuman va viloyatlarni ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga katta hissa qoʻshdi.

Ijro hokimiyatidagi faoliyati bilan bir paytda 1995-2003 yillarda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati sifatida ham samarali faoliyat olib bordi.

Shavkat Mirziyoyev 2003 yilda Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri etib tasdiqlandi va ushbu lavozimga yana uch marta-2005, 2010, 2015 yillarda Oliy Majlis palatalari tomonidan qayta tasdiqlandi.

2016 yil dekabr oyidan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangan.

**Sharof Rashidov** (1917 – 1983) – Davlat va siyosat arbobi. 1949 – 1950 yillarda Oʻzbekiston yozuvchilar uyushmasi boshqaruvi raisi boʻlgan. 1950 yildan OʻzSSR Oliy Kengashi Prezidiumi raisi, SSSR Oliy Kengashi Prezidiumi raisining oʻrinbosari, 1959 yildan Oʻzbekiston KP MK birinchi kotibi, KPSS MK aʼzosi. 1961 yildan KPSS MK siyosiy byurosi aʼzolidigiga nomzod. 1950 yildan SSSR Oliy Kengashi Prezidiumi aʼzosi. U Oʻzbekiston iqtisodiyoti, fani, madaniyati va ijtimoiy hayotini rivojlantirish masalalariga katta eʼtibor berdi va qaygʻurdi. Sharof Rashidovich Rashidov 2 marta Mehnat Qahramoni boʻlgan.

**Usmon Yusupov** (1900 – 1966) – Davlat va siyosat arbobi. 1929 yilda OʻzKP (b) MK aʼzosi va MK kotibi. 1931 yilda VSSPS Oʻrta Osiyo Byurosi raisi. 1937 yilda OʻzKP (b) MK birinchi kotibi. 1950 yilda SSSR paxtachilik ministri boʻlgan. 1953-1955 yillarda OʻzSSR Ministrlar Kengashi raisi lavozimida ishlagan. 1939 – 1956 yillarda KPSS MK aʼzosi, (1937 – 1954), OʻzSSR Oliy Kengashi deputati (1938 – 1955) boʻlgan. U.Yusupov

O'zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarini, madaniyatni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan.

**Fayzulla Xo'jayev** (1896 – 1938) – Davlat va siyosat arbobi. 1917 yildan yosh buxoroliklar partiyasi MK a'zosi. 1920 yilda inqilobchi yosh buxoroliklar Turkiston markaziy byurosi raisi bo'lgan. Buxoro amiriga qarshi xalq qurolli qo'zg'oloni rahbarlaridan biri. 1920 – 1924 yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Nozirlar kengashi raisi. Ayni vaqtda tashqi ishlar komissari, so'ngra harbiy komissari, Turkiston Fronti revolyutsion harbiy Kengashi raisi va Buxoro KP MK a'zosi. 1922 yildan RKP (b) MK O'rta Osiyo byurosi a'zosi, 1925 yildan O'zSSR XKS raisi. 1938 yilda qatag'on qurboniga aylangan.

## SO‘Z BOSHI

Ushbu kitob jamiyatimizning yuqori sur‘atlar bilan rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shayotgan eng asosiy fanlardan biri - iqtisodiyot nazariyasi fanidan darslikdir. Ma‘lumki, XX asr tabiat, jamiyat, insoniyat bosib o‘tgan oldingi davrlardan tarixiy o‘zgarishlari jihatidan katta farq qiladi. Bizning yangi eramizgacha bo‘lgan davr va yangi eramizning har bir asri, o‘tmishi o‘zining asosiy tarixiy voqeligiga egadir. Buni hech qachon, hech qanday mohiyat, shakl-mazmun bilan inkor etib bo‘lmaydi, ya‘ni o‘tgan har bir asr, davr, o‘tmish o‘ziga xos xususiyatga ega. Masalan, ilk jamoa ishlab chiqarish usuli, urug‘-aymoqlik ishlab chiqarish usuli, ibtidoiy jamoa ishlab chiqarish usuli, osiyoviy ishlab chiqarish usuli, quldorlik jamiyati ishlab chiqarish usuli, feodalizm ishlab chiqarish usuli, absolyutizm davridagi ishlab chiqarish usuli, kapitalizm, imperializm, davlat monopolizmi, sotsializm davridagi ishlab chiqarish usullari - bularning hammasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan va natijada fan-texnika, madaniyat ya‘ni dunyoviy sivilizatsiyaning rivojlanishiga olib kelgan.

Shu bilan birga izohlanayotgan mazkur fanimizning tarixi ham boshqa fanlar kabi uzoq o‘tmishdagi boy tafakkurni, g‘oyaviy, ilmiy-nazariy xazinani o‘z ichiga oladi. Bu an‘anaviy siyosiy iqtisod, keyinchalik iqtisod nazariyasi fanining tarixan shakllanish jarayoniga muvofiq ketma-ket mantiqiy ravishda ishlab chiqarish usullarining o‘zgarishi, yangilanib turishi yuz bergan, ya‘ni yetuk ishlab chiqarish munosabatlari va rivojlangan ishlab chiqarish kuchlari yuzaga kelgan. Iqtisodiy kategoriya va qonunlar paydo bo‘lgan. O‘tgan davrlar ichida kishilik jamiyatida katta o‘zgarishlar ro‘y bergan.

An‘anaviy siyosiy iqtisod - iqtisod nazariyasi fanining asoschilari sifatida avvalo, Ksenofont (eramizdan avvalgi 430 - 354 yillar), Platon (Aflotun) eramizdan avvalgi 427 - 347 yillar, Aristotel (Arastu) eramizdan avvalgi 384 - 322 yillar va boshqalarni keltirish mumkin.

**Merkantilizm** XV - XVI asrlar o‘rtalarida yuzaga kelgan, uning vakillari – U.Stafford (Angliya), G.Skaruffi (Italiya), T. Man (Angliya), A.Serra (Italiya), A.Monkreten (Fransiya)lar bo‘lgan. Umuman «Siyosiy iqtisod - iqtisod nazariyasi» atamasining paydo bo‘lishi **merkantilizm** bilan bog‘liq. Bu ibora fransuz merkantilisti A.Monkreten tomonidan 1615 yilda «Siyosiy iqtisod traktati» degan kitobi bilan muomalaga kiritilgan. **Merkantilistlar** asosiy e‘tiborni muomala sohasiga qaratgan. Shu sababdan ular «Siyosiy iqtisod - iqtisod nazariyasi» fanini savdo balansi to‘g‘risidagi fan, uning asosiy vazifasi «ko‘proq sotmoq-kamroq xarid qilmoq» deganlar. **Fizokratlar yo‘nalishining vakili Fransua Kene** (1694-1774), asosiy ixtisosligi vrach-tibbiyot xodimi bo‘lishiga qaramasdan, 60 yoshida o‘z amaliyotini davom



ettira borib, siyosiy iqtisod bilan ham shug'ullandi va XVIII asrda uni iqtisodiy rivojlantirib, yangi ilmiy fiziokratiya maktabining asoschisi bo'ldi. Bu harakatning paydo bo'lishi oddiy tovar ishlab chiqarishga keng imkoniyat yaratib berdi. Natural xo'jalikni barbod qilib, kapitalistik iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi. Bu o'z navbatida burjuaziyaning klassik ilmiy siyosiy iqtisod maktabi paydo bo'lishiga olib keldi. Yangi iqtisodiy maktabning asoschilari Uilyam Petti, Adam Smit va David Rikardolar bo'lishdi, ular **merkantilistlar va fiziokratlar** yo'nalishlarida sodir etilgan ilmiy va nazariy xatolarni to'g'irladilar.

Iqtisodiy tafaukkur tarixida, ehtimol, **Adam Smit** (1723 - 790) kabi dunyo miqyosida shon-sharafga erishgan olim bo'lmaganligi tufayli mana ikki asrdan ko'proq vaqt mobaynida uning hulosalari ko'p tanqidga uchragani va amaliyotda hayotning o'zi rad qilganiga qaramay yashab kelmoqda.

Klassik burjuaziya siyosiy iqtisodining asoschilaridan biri **Uilyam Petti** (1623-1687) bo'lib, u A.Smitdan avval boylik manbai muomala sohasi emas, balki ishlab chiqarish sohasi deb, **qiymatning mehnat nazariyasiga** asos solgan, siyosiy va tabiiy baholar o'rtasidagi farqni ko'rsatib bergan edi, ya'ni siyosiy baho deganda u bozor bahosini, tabiiy baho deganda tovar ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat miqdorini nazarda tutgan. Uning aniqlashicha, boylikning otasi - **mehnat**, onasi - yer bo'lgan.

A.Smitning munosib izdoshi **David Rikardo** (1772-1823) bo'lib, u ingliz klassik siyosiy iqtisodini nihoyasiga yetkazgan va ingliz siyosiy iqtisodining asoschisi deb tanilgan. U qiymatning mehnat nazariyasini ta'riflab bergan.

Jan Batist Sey (1767 - 1832), Jan Sharl Leonar Simond de Sismondi (1773 - 1842), Anri Sen-Simon (1760 - 1825), Sharl Fure (1772 - 1837) o'z vaqtida «Siyosiy iqtisod - iqtisod nazariyasi» fanining asoschilari bo'lishgan. Keyingi tamoyildagi iqtisodiyot nazariyasi bu - markscha siyosiy iqtisoddir. Bu tizimning asoschilari - Karl Genrix Marks (1818 - 1883) va Fridrix Engels (1820 - 1895)lar hisoblanishadi. Qiymatning, mehnat nazariyasining shakllanishini mantiqiy ravishda davom ettirib, K.Marks shunday xulosa chiqargan: “agar boylikning yagona manbai mehnat bo'lsa, unda ishlab chiqarishda qatnashmaydigan kapitalistlarning foydasi va yer egalarining foydasi ham, rentasi ham ishchilar yaratgan qiymatning bir qismi bo'lib, ishlab chiqarish vositalarining va yer egalarining tekin o'zlashtiruvidir”. Qiymatning bu qismini K.Marks **qo'shimcha qiymat**, deb atagan va o'z konsepsiyasida **ishlab chiqarish bahosi** nazariyasini yaratgan, tovar muomalasidagi ziddiyatlarni, tovarda mujassam bo'lgan mehnatning ikki yoqlama xarakteri, tovar ishlab chiqarishda harakat qonuni sifatida qiymat qonunini va boshqalarni shakllantirgan edi. K.Marks **qiymat** va **almashuv qiymati**

o'rtasidagi farqni tushuntirib, qiymat shaklining evolyutsiyasiga o'z tavsifini berdi. XIX asrning ikkinchi yarmida eng yuksak nafli va eng yuksak ishlab chiqarish unumdorligi nazariyasi (marjinalizm) shakllandi. Bu nazariyaning asoschilari Avstriya maktabining vakillari Karl Menger, Fridrix fon Vizer, Oygeng fon Byom-Baaverk bo'lgan. Keyinchalik Alfred Marshal, Leon Valras, Eduard Bernshteyn va boshqa iqtisodchilar o'zlarining nazariyalari bilan iqtisodiyot nazariyasi fanini yanada rivojlantirdilar.

**Jon Meynard Keyns** (1883 -1946) o'zining «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» asarida iqtisodiyot nazariyasining yangi yo'nalishlarini asoslab bergan. XX asrda institutsionalizm konsepsiyasi ham o'zining har xil modifikatsiyasini topdi. Ularning asosiy vakillari amerikalik B.Veblen, Djon R.Kommons, Ronald Kouz, Jeyms Byukenen va boshqalar bo'lgan. Iqtisodiyot nazariyasi fanining rivojlanishiga XX asrdagi iqtisodiy liberalizm vakillari, jumladan: avstriyalik professor Lyudvich fon Mizes, amerikalik professor Fridrix Avgusto fon Xayeklar ham o'zlarining munosib ulushlarini qo'shishgan.

Amerikalik Vasiliy Leontev ham iqtisodiyot nazariyasi fanining rivojlanishiga o'zining «xarajat - ishlab chiqarish» modeli bilan salmoqli hissa qo'shgan.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasi fanining rivojlanishida Monetarizm konsepsiyasining ahamiyati kattadir.

Umuman, dunyo miqyosida ko'zga ko'ringan uchta taniqli iqtisodchi: Adam Smit, Karl Marks va Jon Meynard Keynslar iqtisodiyot nazariyasi fanining shakllanishi hamda rivojlanishida asosiy rol o'ynagan shaxslardir. Shulardan Karl Marks eng ko'p, asosiy ilmiy taraqqiyotga erishdi va o'zining «Kapital» (1867) asarida iqtisodiyot nazariyasi fanining hamma savollariga javob bergan.

Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyo tarixida ham siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk allomalar ko'p bo'lgan.

Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa buyuk ajdodlarimiz o'zlarining dunyoqarashlari, ilm-tafakkurlari bilan jahon rivojiga munosib hissa qo'shganlar va xalqimizning milliy iftihori bo'lib qolganlar.

Uzoq o'tmishda o'zbek xalqining ilg'or mutafakkirlari olib borgan tadqiqotlar, ularning kashfiyotlari jahon umuminsoniyat fani va madaniyatining oltin xazinasini tashkil etadi. Bilimlar xazinasini ochgan

buyuk ajdodlarimizning nomlari butun dunyoga mashhur. Buyuk matematik va astronomlar - al-Xorazmiy, Farg‘oniy, Javhariy, Marvaziy, Mirzo Ulug‘bek; faylasuf va islohiyotchi huquqshunoslar – al-Forobiy, Marg‘iloniy, Nasafiy; tilshunos va shoirlar – Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Xojib, Zamahshariy, Alisher Navoiy va boshqa ko‘pgina ulug‘ zotlar shular jumlasidandir. Ularning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan buyuk hissalar hozirgi kunda ham butun dunyoga ma‘lum va mashhur.

Albatta, ularning bu hissalarini iqtisodiyot nazariyasi fanining shakllanishiga, boyitilishiga, iqtisodiy sivilizatsiyaga, iqtisodiy taraqqiyotga qo‘shgan katta ulushlari, deb bemalol aytsa bo‘ladi.

Yuqorida nomlari keltirilgan “Siyosiy iqtisod - iqtisodiyot nazariyasi” fani asoschilari mazkur darslikning kerakli boblarida har tomonlama, keng ko‘lamda talqin qilingan.

Iqtisodiyot nazariyasi fanida asosiy o‘rin shu fanning predmetini tadqiq qilishga, aniqlashga qaratilgan. Ammo shuni ham aytish zarurki, ba‘zan qarama-qarshi nuqtai nazarlarga duch kelinadi. Shu sababli, avvalo, asosiy e‘tiborni iqtisodiyot nazariyasi fanining an‘anaviy tushunchasini aniqlashga qaratish kerak. Buning mohiyati - iqtisodiyot nazariyasi moddiy farovonlik sababini o‘rganishga qaratilganligini anglatadi. Bu yerda «moddiy» va «iqtisodiy» degan so‘zlar sinonim sifatida foydalaniladi, ya‘ni, millat moddiy farovonligining o‘rishiga olib keluvchi hamma narsa iqtisodiyot nazariyasi fanining predmetiga kiritilishi shart, qolganlari esa uning doirasidan tashqarida qoladi. Ammo bu chindan ham shundaymi? Masalan, duradgorning va musiqachining ish haqini oliylik. Birinchisining mehnati moddiy boylikni oshirishga da‘vat etilgan . ikkinchisining mehnati esa bunday emas. Lekin ikkalasining ham mehnati ish haqi olishga qaratilgan va ayirboshlash doiraviy aylanishiga kiradi. Ish haqi nazariyasi ham ikki holda qo‘llaniladi. Bu yerda ikkala kasb egasining ham mehnati talab ob‘ekti bo‘lgani sababli iqtisodiy sub‘ektlar uchun qiymatga ega bo‘ladi. Bunday holda «iqtisodiy» va «noiqtisodiy» tushunchalar shunday **«moddiy farovonlikka yetaklovchi»** va shunday **«nomoddiy farovonlikka yetaklovchi»** deb izohlash mumkin.

Moddiy maqsadlarga yetishish uchun jamiyat qancha ko‘p resurslar ajratsa, millat shuncha boy bo‘ladi. Ammo jamiyat mutlaqo aniq moddiy muvoffaqiyatga erishish vazifasini hal etishda hamisha cheklangan resurslarni «iqtisodiy» va «noiqtisodiy» munosabatlar o‘rtasida taqsimlash bilan bog‘liq muammolarga duch keladi. Agar «nomoddiy ishlab chiqarish» iqtisodiy tadqiqot doirasidan chetda bo‘lsa, unda, ishlab chiqarish nazariyasining asosiy muammolaridan biri - **tanlash muammosi** iqtisodiy tahlil doirasidan chetda qolardi.

Agar iqtisodiyot nazariyasi fanining manfaati faqat moddiy boylik bilan cheklansa, real amaliyotga qarama-qarshi bo'ladi. Hozirgi dunyoning rivojlangan mamlakatlarida moddiy boyliklarni ishlab chiqarish bozor uchun ishlaydiganlarning yarmidan kamrog'i band bo'lgan nomoddiy xizmat sohasi o'zining ishlab chiqarish qiymatiga ko'ra, tovarlarni ishlab chiqarish sohasidan allaqachon o'zib ketgan. Ko'pincha «moddiylik»ka kamroq kuch bilan yondashilganda ilmiy ishlab chiqarishga munosabat namoyon bo'ladi. Buning natijasida moddiy shakl emas, balki g'oya, tamoyil, model haqidagi tushuncha vujudga keladi. Lekin, moddiy va nomoddiy boyliklarning ishlab chiqarishga va iste'molga taqsimlanishi, ko'proq xilma-xil «moddiylashuvi» bu –ilmiy mahsulotning nomoddiyligi tufayli emasmikan?

Ilmiy asosda rivojlangan ishchi kuchini shakllantirishda, turli xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi, har xil qobiliyatga ega bo'lgan inson va uning bizni o'rab turgan turli-tuman moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishida ta'lim, tibbiyot va madaniyatning ahamiyati katta.

Albatta, iqtisodiyot nazariyasi faqat moddiy ishlab chiqarish sohasi bilan chegaralanib qolmaydi. Balki hamma ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar qimmatbaho narsalarni yaratish bilan bog'liq, u tovar shaklini qabul qiladimi-yo'qmi, hammasini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, iqtisod fanini qandaydir universal ijtimoiy fan sifatida e'tirof qilib bo'lmaydi, lekin bu fanning ilmiy-tadqiqot usullari hamma gumanitar fanlar sohasida, shubhasiz, katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishda iqtisod fani asosiy o'rin egallaydi, lekin bu qat'iy va uzil-kesil, degani emas.

Agar insoniyat tarixiga odamlar turmush darajasi o'sishini ta'minlash nuqtai nazaridan qaralsa, ming yillar davomida ular bu murakkab vazifani hal etishning zarur shakl va uslublariga ega bo'lganligini, tajriba va bilim to'plaganligini sezish mumkin. Natijada, odamlar va ularning fe'l-atvori o'rtasida murakkab tizim munosabatlari shakllangan, insoniyatning yashashi va taraqqiyoti uchu sharoitlar yaratilgan. Bunday tizim iqtisod deb atalgan. **Iqtisod** - bu odamlarni moddiy sharoit, ma'naviy boyliklar bilan ta'minlash imkonini beradigan faoliyat turidir. Unga ijtimoiy tizim shakllanadigan, tabiat in'om etgan resurslar, mehnat resurslari va ehtiyojlar, ishlab chiqarilgan mahsulot sifati va miqdoriy tavsifi oldindan belgilanib qo'yiladi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining asosiy burchi, birinchidan, ishlab chiqarish va muomala jarayonlarini ta'riflash va tushuntirishdan, ikkinchidan, xo'jalik sub'ektlarining iqtisodiy fe'l-atvorini izohlashdan iboratdir. Har ikkala holda ham biz, avvalo, iqtisodiyot nazariyasi me'yoriy iqtisod bilan ish yuritamiz. Iqtisodiyot nazariyasi faktlarni, sharoitlarni, iqtisodiy sohadagi munosabatlarni, ularning o'zaro bog'liqligini ko'proq xo'jalik faoliyati,

boshqa iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar bilan ta'riflaydi. Bir so'z bilan aytganda, iqtisodiy nazariya (pozitiv) jamiyatning xo'jalik hayotidagi hodisa va jarayonlar mazmunini, iqtisodiy qonun va qonuniyatlarini ochib beradi. Me'yoriy iqtisod siyosiy iqtisod bilimini qo'llab, iqtisodiy hodisalarni va jarayonlarni ma'naviy hamda qiymat jihatidan baholashni o'z ichiga oladi. Faraz qilaylik: **Inflyatsiya ko'lami yoki foiz me'yori qanday bo'lishi mumkin?** Soliq solish tizimi orqali davlat budjetining daromadlar qismini ham ta'minlanganlar foydasiga qayta taqsimlash kerakmi? Mudofaa uchun sarf-xarajatlarga javob siyosiy tanlov yo'li bilan beriladi. Natijada, shunday xulosaga kelish mumkin, ya'ni nazariy (pozitiv) iqtisod bilim va iqtisodiy qonunlar harakati bilan shug'ullansa, me'yoriy iqtisod ulardan foydalanish bilan shug'ullanadi.

Iqtisodiy tizim tabiiy resurslarni jamiyat iste'moli uchun yaroqli moddiy boylik sifatida o'zgartirib turadi. Bu degani, iqtisod birinchi navbatda tabiat va inson o'rtasida bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Aslida esa, insonning o'zi tabiatning bir parchasidir, ayni vaqtda iqtisodiy-ijtimoiy tizimning bir qismi, u jamiyatdagi ob'ektiv ehtiyojlarga muvofiq harakat qiladi. Ikkinchidan, tamaddunning rivojlanishi uchun moddiy va ma'naviy boylik yaratadi, ishlab chiqarish jarayoni mehnat faoliyatini realizatsiya qilish sifatida uzluksiz davom etishini ikki yoqlama, ya'ni shaxslarning jismoniy imkoniyatlarini takror ishlab chiqarish sifatida va ularning hayoti hamda faoliyatining aniq usuli sifatida ko'rib chiqamiz.

Insonlarning atrof-muhitga qaramlikdan chiqishiga, rivojlanishiga, jasorat ko'rsatishiga iqtisodiy faoliyat katta yordam beradi. Bunda hamma narsa birinchi navbatda fan-texnika taraqqiyotiga asoslangandek ko'rinadi. Lekin bu ham to'g'ri emas. Fan va texnika taraqqiyotining o'zi jamiyat ko'lamida, atigi iqtisodiy mexanizmlarning harakati doirasida ro'y beradi. **Iqtisodiy mexanizm** - bu kishilarning o'z turmush darajasini oshirish vazifasini hal etishdagi usul va shakllarning o'zaro harakatidir.

Iqtisod butun tamaddun ustuni yaratgan, sababi insoniyat jamiyatdagi qolgan hamma institutlarni ushlab turibdi. Fan, madaniyat, davlat o'zining son-sanoqsiz vazifalarini bajarishida-insoniyatning o'ziga ijozat berib turgan hamma narsaning asosiy sababi iqtisodiyotdir, kerakli moddiy va nomoddiy sharoitlarning borligi yaratilganligidir. Shuning uchun ham aytadilar, dunyodagi barcha buyuk iztiroblarning ildizi iqtisodiyotga borib taqaladi. Hozirgi davr tarixining markazida barcha o'tmishdagi voqea va tarix hodisalari guvohlik qiladi: ya'ni davrli, (universal) har tamonlama ahamiyatga ega bo'lganlikni olish uchun, ijtimoiy-siyosiy ta'limot undan yoki boshqa tarixiy butunlik davrni o'z ichiga olishi shart. Faqat shunday jamiyat rivojlanishining

nazariyasi davri deb aytilishi huquqiga ega, bu o'z navbatida aynan bir xil o'xshash haqiqatni aks ettiradi, ilmiy ifoda etadi va tarixiy davrida barcha asosiy harakat qiluvchi kuchlari. Uning rivojlanish yo'nalishining mazmunini va unga xos qadriyatlar xususiyatlarni tahlil etadi. Bunday ta'limotsiz yo umumiylikni, yo xususiylkni, yo butunlikni, yo qismanlikni, yo mantiqiyliqi, yo hozirgi, yo kelajakda jamiyat rivojlanish va uning asosiy xususiyatlaridagi xarakterini tushunib bo'lmaydi.

Agar iqtisodiyot insonlarning hamma talablarini bajarmaganida, ehtimol ular boshqa turdagi fan va texnika faoliyati bilan mashg'ul bo'larmidi. Ammo, shuni esdan chiqarmaslik kerakki, madaniyat, ma'naviy boylik insonlar mavjudligining ajralmas qismigina emas, balki farovonligining dastlabka eng zarur tarkibiy qismi hamdir.

Ma'lumki, yuqorida aytib o'tilganidek, tarixga aylangan XX asr (bu asrda faqat hozirgi jamiyat va biz yashaganimiz uchun emas) avval barcha asrlardan o'zining muhim voqealari va hodisalari bilan ajralib turadi. XIX asrning ikkinchi yarmidan to XX asrning boshigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan har biri o'zining shartliliqi, nisbiyligi, yuvilib, o'yilib ketgan qirralari bilan bir-biridan ajralib turuvchi uch davr ko'zga tashlanadi. Yangi tarixning birinchi davri ulug' fransuz burjua inqilobi bilan boshlanib, (1789 yildan 1871 yilgacha) Parij kommunasi arafasida tugallanadi.

Shundan so'ng yangi tarixning ikkinchi davri boshlanadi. Bu davr burjuaziya siyosatining kuchsizlanishi, ya'ni burjuaziyaning davri bilan tavsiflanadi. Bu davr yangi sinflarga, demokratik o'zgarishlarga asta-sekin kuch to'plab, tayyorgarlik ko'rish davri bo'lgan. Yangi tarixning uchinchi davri - XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari bo'lib, bu davr kapitalistik jamiyat hayotining negizidan ustqurmasigacha bo'lgan hamma tomonlariga xos ob'ektiv qonunlarini –jamiyatning rivojlanishi, insoniyat tarixining o'tmishi hozirgi kuni hamda kelajagini o'z ichiga oladi va bu **davr nazariyasi**, deb ataladi.

XX asr o'zining chuqur voqeligi, hodisalari bilan o'tgan asrlardan anchagina farq qiladi, buning sabablaridan biri shu asrda sobiq sotsialistik davlat - SSSR yuzaga kelgan. Bu davlatning hududiy jihatdan dunyoda tengi bo'lmagan, u 22,4 mln.km dan ko'proq juda katta yer osti va yer usti boyliklariga ega bo'lgan 15 ta respublikani o'z ichiga olgan. U o'zining iqtisodiy rivojlanishida birinchi marotaba markazlashgan reja tizimini qo'llagan davlatdir. Bu tizimning ijobiy va salbiy tomonlari ko'p bo'lgan. Katta qurbonlar va qon to'kishlar evaziga yuzaga kelgan davlat o'tgan asrning 90 yillariga kelib tanazzulga yuz tutdi. Shu tariqa O'zbekistonimiz ham

mustaqillikka erishdi. 1991 yil 1 sentabr sanasi O‘zbekistonning Mustaqillik kuni sifatida tarix sahifalaridan munosib o‘rin oldi.

Biz hozir juda qiziqarli va murakkab davrda yashamoqdamiz, sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan mustaqil hamdo‘stlik davlatlarida keskin va chuqur iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. O‘zbekistonning iqtisod fani ham qotib qolgan, turg‘unlik davrining quruq safsatabozliklaridan, dunyo iqtisodiy tafakkurining to‘g‘ri yo‘liga chiqib oldi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti XXI asr bo‘sag‘asida yangi bosqich - bozor iqtisodiyoti munosabatlariga sobit qadamlar bilan kirib bordi. Ma’lumki, sobiq ittifoq barbod bo‘lganidan keyin uning tarkibidan chiqqan mustaqil davlatlarga o‘ttiz yildan oshdi. Shu o‘tgan davr ichida ancha katta ahamiyatga ega bo‘lgan ijobiy ish - transformatsiyalashuv yuz berdi. Dunyo yangi ming yillikka va yangi asrga qadam qo‘ydi. Globallashuvning o‘ziga xos ijobiy tomonlari va ziddiyatlari paydo bo‘lmoqda, yangidan yuzaga kelgan mustaqil davlatlar milliy iqtisodiy tizimining shakllanishi ro‘y bermoqda. Shu yerda ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston mustaqil davlatining shu qisqa davr ichida endogen va ekzogen xolati borasida erishgan katta yutuqlari dunyoning Yevropa, Amerika, Afrika, Osiyo hamda Avstraliya va Okeaniya qit’alaridagi bir qancha mamlakatlarda asrlar davomida erisholmagan, transformatsiyalashuv rivojlanishi yuz bermagan. O‘zbekiston shu qisqa mustaqillik davrida bozor iqtisodiga o‘tishda o‘zining tarkibiy ichki dunyosidan, urf-odatlaridan, timsolidan, xususiyatlaridan, qolaversa o‘zining milliy mentalitetidan kelib chiqqan holda: davlat ramzlari, iqtisodiyot va boshqa sohalaridagi islohot, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish kabi masalalarni qaytadan zamon talabiga javob beradigan holatga keltirdi.

Bularning barchasini ijobiy amalga oshirish buyuk, mehnatkash, vatanparvar va erksevar o‘zbek xalqining g‘ayrati va xatti-harakati natijasida yuz berdi.

Iqtisodiyot nazariyasining roli juda buyukdir. Dunyodagi ulkan yutuqlarning ham, iztiroblarning ham ildizi iqtisodiyotga kelib taqaladi. U, o‘z navbatida, iqtisodiy siyosat va xo‘jalik faoliyatining asosi bo‘laturib, jamiyat to‘g‘risida tizimlashgan bo‘limlar, ilmiy tadqiqotlar, uning iqtisodiy strukturasi va harakat qilishini ishlab chiqishga chaqiradi.

O‘tish davri iqtisodiyoti uchun ko‘pincha iqtisod fanining o‘sha tomoni juda katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Ulardan asosan iqtisodiyotning milliy modelini ishlab chiqishga yordam beradi, yangi iqtisodiy tizimlar shakllanishining ko‘pincha samarali yo‘lini ifoda etadi.

Fan tabiat, jamiyat va inson tafakkuri hamda shunday bilimlarning aloxida tarmoqlari rivojlanishining qonun va qonuniyatlari xaqidagi bilimlar tizimidir.

Boshqacha aytganda, fan xaqiqatni umumiy tadqiqot qilib, uning maqsadi esa tabiat va jamiyatning sirini anglashga, faxmlashga qaratilgan, xamda ularning rivojlanishidagi qonun va qonuniyatlarning xaqiqatini ochish bilan bog‘liqdir.

Olimlarning shunday asosiy prinsipi bo‘lib ob‘ektivlik xizmat qiladi. Ob‘ektivlik yondashuvni haqqoniyat bilan, oldindan bichib-to‘qimasdan, haqiqatni buzib ko‘rsatish ta‘siridan qaytarishni, rad etishni, ya‘ni siyosiy, mafkuraviy, shaxsiy manfaatni yoki aniq ijtimoiy guruhlar, partiyalar va boshqalarning manfaatlarini bildiradi.

Hozirgi zamon fani yutuqlari juda ham ko‘p olimlar, avlodlar kuchlarining natijasidir. Hayot, amaliyot ular erishgan bilimlarning xaqiqatligini sinab ko‘rib, nimalarnidir olib tashlamoqda, nimalarnidir qoldirmoqda va yangi avlodlarning ilmiy tadqiqotlari bilan boyitib bormoqda.

Olimlarning kashf qilayotgan qonunlari ularga xatolikka yo‘l qo‘ymasdan va ko‘zlangan maqsadlarga kamroq vaqt va energiyalar sarflash bilan erishishga imkon berilmoqda.

Barcha fanlar ikki katta guruxga bo‘linadi: tabiiy va ijtimoiy (jamiyatshunoslik) fanlarga. O‘z navbatida tabiiy fanlar tabiatni va insonlarni uning elementi sifatida (fizika, kimyo, biologiya, meditsina va boshqalar) o‘rgatadi. Ijtimoiy (jamiyatshunos) fanlar jamiyat va insonlarni bu jamiyatning elementi sifatida ro‘y bergan jarayonlar (falsafa, sotsiologiya, huquq, pedogogika, tarix, siyosatshunoslik va boshqalar) sifatida o‘rgatadi.

O‘z navbatida tabiiy fanlar ham, ijtimoiy (jamiyatshunos) fanlar ham fundamental va amaliy fanlarga bo‘linadi.

Fundamental (lotincha *fundamentum* - asosiy) bilimlar amaliy bilimlar uchun tayanch asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular nazariy tadqiqotlarga asoslanib, amaliy bilimlarda amalga oshiriladi, amaliy bilimlar esa insonlarning hayotiy faoliyatida amalga oshiriladi. Fundamental va amaliy fanlar orasida nafaqat bevosita bog‘liqlar mavjud, balki teskari, qarama-qarshi bog‘liqlik ham mavjud: amaliy fan fundamental fanlarning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratadi, yo‘l ochib beradi.

Mamlakatda fundamental fanlarning rivojlanish darajasi uning unumli iqtisodiy rivojlanish darajasiga va ushbu daraja bilan aniqlangan aholining unum va oliy ta‘limning sifatiga bog‘liq bo‘ladi. Qanchalik fundamental ishlarning rivojlanish darajasi yuqori bo‘lsa, shunchalik amaliy bilimlarning rivojlanish darajasi va mamlakatning jahon rivojlanishiga ta‘siri yuqori bo‘ladi. Iqtisodiyot nazariyasi ijtimoiy fanlar nazariyasiga kiradi. Insoniyatning ijtimoiy hayoti murakkab va xilma-xildir. Jamiyat kishilarning o‘zaro harakatini tasavvur etadi. Har bir inson doimo davlat, jamoa, ma‘muriyat va bir-biri bilan munosabatda bo‘ladi.



Barcha ijtimoiy munosabatlar tizimidan iqtisodiyot fani jamiyatda kishilarning, har bir jamiyat a'zolarining moddiy (oziq-ovqat, kiyim-kechak, boshpana va boshqalar) va ijtimoiy (sog'liqni saqlash, ta'lim-tarbiya, sport, madaniyat va boshqalar) ehtiyojini ta'minlaydi. Ehtiyojlarning cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklangan, noyob sharoitida moddiy boyliklarni va hizmatlarni ishlab chiqarishda ro'y beradigan iqtisodiy munosabatlarni ajratadi.

Shu bilan birga, mehnat, xo'jalik inson hayotini saqlab qolish uchun hamma vaqt mavjud bo'lgan iqtisodiyot fani nisbatan yoshroqdir. U kapitalistik xo'jalik tizimining rivojlanishi bilan paydo bo'ldi va u bilan birga faol rivojlanib kelmoqda. Kapitalizm natural xo'jalikni, uni ixtisoslashgan tovar xo'jaligiga aylantirib, tamomila vayron qildi, ishlab chiqarish umumiy xarakterga ega bo'lib, xar bir tovar ishlab chiqaruvchi boshqalar uchun, ya'ni sotish uchun ishlab chiqaradi.

Kapitalizmning asosiy xususiyati nafaqat jamiyatda ro'y bergan mehnat taqsimoti bo'ladi, balki bozorda yangicha asosiy tovar - ish kuchining paydo bo'lishi ham, ya'ni bu o'z navbatida mahsulotlarga talabning o'sishiga hamda jamiyatda yangi iqtisodiy o'zaro munosabatdagi tizimning paydo bo'lishiga yordam beradi: ishlab chiqarish vositalariga ega – ish beruvchi bilan va ishlab chiqarish vositalaridan ozod hamda ish o'rinlarini olishga muhtoj bo'lgan yollangan ishchilar orasida ham. Ushbu ikki asosiy xo'jalik sub'ektlari orasida paydo bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy bog'liqlik kapitalistik xo'jalik tizimining va bir vaqtda unumli mehnat taqsimotidagi yangi bosqich ko'pincha mavjud xususiyatga ega bo'ladi. Agarda jamiyatda kapitalizmga bo'lgan mehnat taqsimoti tovar ishlab chiqaruvchilarning o'zida mehnatga ixtisoslashuv asosida ro'y bergan bo'lsa, unda jamiyatda oddiy tovar ishlab chiqarishning vayron bo'lishi bilan mehnat taqsimoti sub'ektlarining va ularning xo'jalik faoliyati vazifalarining belgilanishi bo'yicha yuzaga kelgan.

Shunday qilib, mustaqil iqtisodiyot fani kapitalistik iqtisodiy munosabatlarning yuzaga kelishi bilan bir vaqtda paydo bo'lgan.

Hozirgi zamon iqtisodiyot fanining asoschisi ko'pchilik iqtisodiyotchilarning tan olishicha, shotlandiya iqtisodchisi va faylasufi Adam Smit (1723-1790)dir. Shunday bo'lsa ham, Adam Smitga bo'lgan kapitalistik xo'jalik tizimi tushunchasiga o'zlarining jiddiy hissalarini qo'shgan iqtisodchi-olimlar ma'lum, ammo faqat Adam Smit birinchi bo'lib 1776 yilda o'zining asosiy «Xalqlarning boy bo'lish tabiati va sabablari

to'g'risidagi tadqiqot»<sup>1</sup> asarida iqtisodiyot nazariyasi asosiy tushunchalar, kategoriyalarning mazmun-mohiyati tahlili bilan bilimlarning tizimga solinishi sifatida taqdim etilgan. Kapitalizm tizimi itisodiyoti haqida jamlangan bilimlarning deyarli 100 yilligini umumlashtirgan Adam Smit bundan bilishga berilgan ob'ektiv iqtisodiy qonunlarning xarakatini tizim sifatida taqdim etdi. Adam Smit iqtisodiy nazariyasini fan sifatida ifoda etdi va unga «Siyosiy iqtisod» nomini berdi.

Ma'lumki, «Siyosiy iqtisod» atamasi faylasuf Aristotel tomonidan grekcha uchta so'zdan iborat ekanligi dalillab bergan: «politsiya» - jamiyat tizimi; «oykos» - uy xo'jaligi; «nomos» – qonun. Demak, «Siyosiy iqtisod» - har qanday jamiyat tizimida xo'jalik yurgizish va boshqarishni o'rgatadigan fan.

Hozirgi zamonda iqtisodiyot nazariyasining tushunchasi kelgusi bloklardan iborat:

1. Ko'pincha hammaga ma'lum Adam Smit va David Rikardolar kabi vakillardan iborat klassik siyosiy iqtisod;

2. Undan keyin o'tmishdoshlarining yutuqlariga asoslangan iqtisodiyot nazariyasi fani kapitalistik xo'jalik, iqtisodiy qonunlar, kategoriyalar, umuman, bu fanni jiddiy oldinga surgan;

3. Ingliz siyosiy iqtisod maktabining vakili A.Marshall, u qiymatning mehnat nazariyasini eng yuksak naflilik nazariyasi bilan yaqinlashtirishga, «murosaga keltirishga» uringan;

4. J.Keynsning iqtisodiy ta'limoti, bu yerda davlatning tartibga solishi, bu albatta bugungi kunlarda ham o'zining ahamiyatini yo'qotgani yo'q;

5. Hozirgi zamon iqtisodiy o'sish nazariyasi maktabi;

6. Hozirgi vaqtda mamlakat iqtisodiyot fanining yutuqlari, ayniqsa, metodologik xarakterga ega bo'lgan nazariyalarni ishlab chiqish.

Shu o'rinda, alohida aytish joizki, O'zbekiston xalqi milliy g'ururining, milliy iftixorining asosiy negizi, bu uning 100-150 yillar davomida yarim mustamlaka va shundan 70 yildan ortiq vaqtni to'liq mustamlaka tizimida, bozor iqtisodiyotiga aloqasi bo'lmagan iqtisodni yaratishiga urinib ko'rgan sobiq SSSR dunyosida yashab kelganligidir. Ikkinchisi hozirgi yangi bozor munosabatlariga o'tish davridagi qiyinchiliklardir. Hech bir narsa o'z-o'zidan bo'layotgani va tekin kelayotgani yo'q, shu sababli narx-navoning erkinlashishi, inflyatsiya, ba'zi sohalardagi vaqtincha bo'layotgan iqtisodiy

---

<sup>1</sup> А.Смит. «Исследование о природе и причинах богатства народов». М.: Директ-Медиа, [https://biblioclub.ru/index.php?page=book\\_red&id=560822014](https://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=560822014)

qiyinchiliklarni tan olib, sabr-toqat bilan, hayotimizning barcha sohalaridagi o'zgarishlarni tinch-totuvlikda ma'qullab, uni e'tirof etib kelinayotganligidir. Albatta, bir sakrash bilan yangi bozor munosabatlariga o'tib bo'lmaydi. Bu juda murakkab jarayon, bugungi qiyinchiliklar buyuk kelajak yo'lidagi vaqtincha to'siqlardir.

Endi, shu yerda shunday savol tug'ilishi mumkin: nima uchun O'zbekistonni butun dunyo e'tirof etmoqda? Buning javoblari quyidagilardir:

1) uning qulay geografik-siyosiy mavqega egaligi; 2) yer osti va yer usti qazilma boyliklarning mo'lligi; 3) qisqa vaqt ichida og'ir sanoatning yangi texnika-texnologiya bilan ta'minlanishi va uning rivojlanishi, qator yirik korxonalarining qurilishi va ishga tushirilishi; 4) faqat o'z salohiyatiga ishonch bildirib ish boshlaganligi, bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyili o'z vaqtida to'g'ri aniqlangani va qo'llanilishi; 5) dunyo hamjamiyati bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalar o'rnatilib, samarali natijalar berayotgani; 6) eng asosiysi - o'zbek xalqi - mehnatkash, mehmondo'st xalq ekanligi va davlat rahbarining yuksak aql-zakovati, ishchanligi va uning o'z xalqi, millati, davlati uchun fidoyiligidir.

Ushbu darslik hozirgi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida «Iqtisodiyot nazariyasi» fani bo'yicha foydalaniladigan o'quv dasturlari asosida yozildi. Unga fan bo'yicha o'quv dasturidagi mavzular va savollar mazmun-mohiyatiga va qo'yilgan talablarga muvofiq bob bo'yicha alohida-alohida berilgan. Darslik oliy ta'lim muassasalarida shu fan bo'yicha qo'yilgan talablarning ancha qismiga javob beradi, deb o'ylaymiz.

Biz taklif qilayotgan «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligi «Iqtisodiyot nazariyasi» fanini fan sifatida asoslashdan boshlab, natural tovar ishlab chiqarishidan to hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining umumiy qonuniyatlarini, harakatini, xo'jaliklarning dunyo davlatlaridagi turli mehnat taqsimoti asosida rivojlanishini planetamizning g'arbiy va sharqiy yarim sharlarida faoliyat yuritayotgan har xil milliy xo'jalik tizimini qamrab olgan. Dunyoning turli hududlarida bu xilma-xillik bozor iqtisodiyotining u yoki bu mamlakatdagi tarixiy, demografik, madaniy, ijtimoiy, siyosiy va tabiiy xususiyatlari bilan bog'liq. Mazkur darslikda mamlakatimizning hozirgi zamon bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishi, shu davrda milliy xo'jaligimizning rivojlanishi va uning xususiyatlari keng yoritilgan.

Xulosa qilib aytganda, ushbu darslikda hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasi fanining mazmun-mohiyati keng yoritilgan. Shu zamondagi xo'jalik tizimi hamma turlarining ahvoli va tamoyillari ochib berilgan. XX yuz

yillikning ikkinchi yarmi alohida davlatlar ichida va dunyo miqyosida, iqtisodiy munosabatlarning har tomonlama tuzilishida katta o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Fan-texnikaning rivojlanishi, jamiyatning keng miqyosda axborotlashuvi misli ko'rilmagan darajada ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga olib keldi. Iqtisodiy munosabatlar ko'proq sivilizatsiyalashgan va ijtimoiy yo'naltirilgan xususiyatga ega bo'lmoqda. G'arb mamlakatlari aralash iqtisodiyotga, davlat ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajaradigan milliy xo'jaliklarga va iqtisodiyotning yangi tarkibiy tuzilishiga olib boradigan o'tish davriga qadam qo'ydi.

Darslikda muqaddas kitoblardan oligan ibratli iboralar ham mavjud. Shunday qarasangiz iqtisodiyot bilan qandaydir o'xshash bog'liq bor. Masalan, muqaddas kitoblarda mehnat va unga haq to'lash, mehnatsevarlik va yalqovlik, dangasalik, hafsalasizlik, boylik va kambag'allik, faqirlik, soliq to'lash, pul va qarzdorlik xavfliligi, ixtisoslik, xo'jalik faoliyatida kooperatsiya va diversifikatsiya ishlari va boshqalar tilga olingan.

Shuningdek, darslikda matnlarni o'zlashtirishni tezlashtirish hamda yengillashtirish maqsadida ko'p sonli jadvallar, sxemalar turli xil shakllarda berildi.

Kitobda iqtisodiyot nazariyasi fani, uning o'tmishi va hozirgi kuni bayon qilinib, iqtisodiy g'oyalarning rivojlanish yutuqlarini umumlashtirishga imkon beradigan yangi fikrlar izchillik bilan boyitilgan. Shu bilan birga darslik iqtisodiy ta'lim tarixi bilan ham tanishtiradi. Bu darslikda iqtisodiyot nazariyasining asosiy yo'nalishlari, yutuqlari, hal etilmagan muammolari ko'rib chiqilgan. Xususan, asosiy qiymatning mehnat nazariyasi va ularning eng yuksak unumdorligi konsepsiyalari solishtirilgan, tahlil qilingan. Darslikda iqtisodiy hayotning hamma qirralarini o'z ichiga olgan yangi nazariya ham ishlab chiqilgan bo'lib, bu boradagi katta muammolar tahlil qilingan. Kitobga ishlab chiqarishning va iste'molning uch bosqichi, mulkchilik tiplarining iqtisodiy mazmuni, sotsialistik iqtisodiyotdan keyingi ishlab chiqarish jarayonining yangi qiymati, erkin va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotida daromadlarning taqsimlanishi to'g'risidagi bo'limlar kiritilgan. Ularda, asosan, hozirgi zamon bozor xo'jaligi to'g'risidagi masalalar, bozor turlari va tuzilish xususiyatlari, bozorni ijtimoiy institut sifatida tushunish, raqobat qonun-qoidalari, firma-monopoliyalar xulqi, monopoliya va raqobat faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish tajribasi tahlil etilgan. Darslikda hozirgi zamon O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishiga alohida e'tibor berilgan, iqtisodiy islohotlarni o'tkazishning ob'ektiv zaruriyati, mulkchilik munosabatlarini mazmunan qayta o'zgartirish, bozor xo'jaligini shakllantirish va iqtisodiyot boshqaruvini takomillashtirish

masalalari ham ko‘rib chiqilgan. Hozirgi kunning muhim muammolari inflyatsiya, ishsizlik, iqtisodiy tanazzul, davlat budjeti va ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi va hokazolar tahlil qilingan.

Darslikda tahlil asosida quyidagi mantiqiy o‘rganishlardan foydalanilgan:

**Birinchi bo‘limda** iqtisodiy nazariya fanining asoslari, predmeti va uslublari, jamiyatning har xil xo‘jalik yuritish jarayoni, umuman qonuniyatlari, iqtisodiy faoliyat va ishlab chiqarishning iqtisodiy ehtiyojlari va iqtisodiy formatsiyalar ko‘rib chiqilgan.

**Ikkinchi bo‘limda** mikroiqtisodiy tahlillar, ya’ni iqtisodiy tanlash muammolari. Bozor iqtisodiyotining umumiy tavsiflari mohiyati, mazmuni, tuzilishi, har xil shakllari va rivojlanish jarayoni o‘tish xususiyatlari berilgan.

**Uchinchi bo‘lim** mezoiqtisodiyot deb nomlanib, mikroiqtisodiyot bilan makroiqtisodiyot o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘lanish munosabatlarni ifoda etishga qaratilgan.

**To‘rtinchi bo‘limda** makroiqtisodiy rivojlanish, umuman, milliy xo‘jalik yuritish ko‘rib chiqilib, bozor mexanizmlarini shakllantirish va rivojlanish jarayonida davlatning roli, makroiqtisodiy muammolar, muvozanat va beqarorlik tahlil qilinadi. Pul-kereditlari va qimmatbaho qog‘ozlar, moliya va bank tizimlari va hokazolar xususida fikr yuritilgan.

**Beshinchi bo‘limda** megaiqtisodiyot – iqtisodiyot nazariyasi fanining xalqaro jihatlari, tashqi iqtisodiy aloqalarning shartlari va xususiyatlari berilgan.

Mazkur darslikda mamlakatimiz xamda chet el olimlarining iqtisodiyotga asoslangan fikrlari ham inobatga olingan. Ular qatoriga G‘arb va Sharq iqtisodchi olimlari Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Xojib, A.Navoiy, A.Smitt, D.Rikardo, J.S.Mill, K.Marks, F.Kene, A.Marshall, L.Valras, J.M.Keyns, P.Samuelson, M.Fridman, F.Xayek, J.Gelbreyt, K.R.Makkonnell, S.L.Bryu, I.T.Pososhkov, M.I.Tugan-Baranovskiy, N.D.Kondratev, N.A.Sagolov, G.P.Juravlyova, L.M.Kulikov, V.D.Kamayev, M.Z.Ilchikov, T.A.Borisovskaya, A.G.Gryaznova, N.N.Dumnaya, I.A.Karimov, A.O‘lmasov, A.Rasulev, K.Abduraxmonov, B.Xodiyev, A.Voxobov, S.S.G‘ulomov, A.Abdug‘aniyev, E.G‘aniyev, A.Qodirov, M.Tursunxodjayev, V.Ivonin, Sh.Shodmonov va U.G‘ulomov kabilarni kiritish mumkin.

Shu bilan birga, ushbu darslik ustida ishlashda muallif chet elda, asosan g‘arb mamlakatlarida, Rossiya va O‘zbekistondagi adabiyotlarda iqtisodiy nazariya fani asoslarini izohlash tajribalariga e’tibor bergan. Jumladan:

P.Samuelson, V.Nordhaus<sup>2</sup>, P.Keynes<sup>3</sup>, K.Eklund<sup>4</sup>, K.R.Makkonnell, L.Bryu<sup>5</sup>, R.Pindayk., D. Rabinfeld<sup>6</sup>, P. Lindert<sup>7</sup>, S.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenzi<sup>8</sup>. G'arb iqtisodiyot nazariyasi asoschilarining klassiklar, neoklassiklar, keynschilar, monetaristlar, institutsional yo'nalishdagi iqtisodchilarning rus tiliga tarjima qilingan asarlari. Jumladan: A.Smit<sup>9</sup>, K.Marks<sup>10</sup>, A.Marshall<sup>11</sup>, A.M. Volkov<sup>12</sup>, J.B.Klark<sup>13</sup>, A.Pigu<sup>14</sup>, Avstriya siyosiy iqtisod maktabi Oygен fon Bem-Baverk, Karl Menger, F. Vizer<sup>15</sup>, Dj.Robinson<sup>16</sup>, Dj. Xiks<sup>17</sup>, J.M. Keynes<sup>18</sup>, Y.Shumpeter<sup>19</sup>, L.Xarris<sup>20</sup>, F.Xayek<sup>21</sup>, Ya. Kornai<sup>22</sup>, Lyudovig fon Mizes<sup>23</sup>, R.Kouz<sup>24</sup>, V. Leontev<sup>25</sup>.

---

<sup>2</sup> Пол А. Самуэльсон, Вильям Д. Нордхаус. Экономика: Пер. с англ. — М.: «БИНОМ», «Лаборатория Базовых Знаний», 1997. — 800 с.

<sup>3</sup> Пол Хейне. Экономический образ мышления. М.:Новости, 1991

<sup>4</sup> Клас Эклунд. Эффективная экономика. Шведская модель. М.: Экономика, 1991

<sup>5</sup> Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономика: Принципы, пробелы и политика. т.1-2. Пер. с англ. - М., Республика. 1992

<sup>6</sup> Пиндайк Р., Рабинфельд Д. Микроэкономика. / Пер. с англ. - СПб.: Питер, 2002. - 608 с

<sup>7</sup> П. Х. Линдерт. Экономика мирохозяйственных связей. М.: Прогресс, 1992.- 518 с.

<sup>8</sup> С. Фишер, Р. Дорнбуш, Р. Шмалензи. Экономика (ECONOMICS). М.: ДЕЛО Лтд, 1995. – 864 с.

<sup>9</sup> А.Смит. «Исследование о природе и причинах богатства народов». М.: Директ-Медиа, [https://biblioclub.ru/index.php?page=book\\_red&id=560822014](https://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=560822014)

<sup>10</sup> К.Маркс. Капитал. Т.,1983

<sup>11</sup> Альфред Маршалл. Принципы политической экономии. В трех книгах. М.: Прогресс, 1983

<sup>12</sup> Алексей Михайлович Волков. Швеция: социально-экономическая модель. Справочник. М.: Мысл, 1991

<sup>13</sup> Джон Бейтс Кларк. Распределение богатства. М.: Гелиос АРВ, 2000

<sup>14</sup> Артур Сесил Пигу. Экономическая теория благосостояния. В двух томах. М.: Прогресс, 1985

<sup>15</sup> Ойген фон Bem-Баверк, Карл Менгер, Ф. Визер. Австрийская школа в политической экономии. М.: Экономика, 1992. – 496 с.

<sup>16</sup> Дж.Робинсон. Экономическая теория несовершенной конкуренции. М., 1986

<sup>17</sup> Джон Р. Хикс. Стоимость и капитал. М., 1988

<sup>18</sup> Кейнс, Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег.-М.: Гелиос,2002

<sup>19</sup> Й. Шумпетер. Теория экономического развития. М. — «Эксмо», 2007.

<sup>20</sup> Л. Харрис. Денежная теория. М.: Прогресс, 1990. – 728 с.

<sup>21</sup> Хайек, Фридрих Август фон Дорога к рабству / Пер. с англ. М.: Новое издательство, 2005. — 264 с.; Фридрих Август фон Хайек. Пагубная самонадеянность. Ошибки социализма. М.: Новости, 1992. – 304 с.

<sup>22</sup> Корнай Я. Путь к свободной экономике: страстное слово в защиту экономических преобразований. Пер. с англ. М.: Экономика, 1990

<sup>23</sup> Людвиг фон Мизес. Бюрократия. Запланированный хаос. Антикапиталистическая ментальность. — М.: Дело, Catallaxu, 1993 Бюрократия. — Челябинск: Социум, 2006

<sup>24</sup> Коуз Р. Фирма, рынок и право / пер. с англ. Б. Пинскера. - М.: Дело ЛТД, 1993. - 192 с.

<sup>25</sup> Василий Васильевич Леонтьев. Экономические эссе: Теории, исследования, факты и политика. М.: Издательство политической литературы, 1990.

Mualliflar ushbu darslikni yozayotganida so‘nggi yillarda Rossiya va O‘zbekistonda nashr etilgan iqtisod va bozor iqtisodiyoti muammolari bo‘yicha adabiyotlarga ham alohida e‘tibor bergan, ulardan foydalangan: M.N.Chepurin., Ye.A.Kiseleva<sup>26</sup>, Ye.F. Borisov<sup>27</sup>, A.P.Kazakov, N.V.Minayeva<sup>28</sup>, A.O‘lmasov, M.Sharifxo‘jayev<sup>29</sup>, A.Qodirov<sup>30</sup>, Sh.Shodmonov, M.Rahmatov<sup>31</sup>, Tojiboyeva D.<sup>32</sup>, A.O‘lmasov, A.Vaxobov<sup>33</sup>.

Darslik uch tomdan iborat bo‘lib, ularning har bir bobi oxirida qisqacha xulosa, asosiy tushunchalar, mustaqil o‘qish uchun savollar, mavzuning namunali rejalari, seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar berilgan.

Darslikning uchinchi qismining oxirida iqtisodiyot tarixining xronologiyasi; O‘zbekistonning mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotiga oid qabul qilgan qonunlari ro‘yxati; izohli lug‘at; iqtisodiyot fani bo‘yicha Nobel mukofoti sovrindorlari ro‘yxati; jahon davlatlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari; iqtisodiyot fanida qo‘llaniladigan o‘lchovlar; Iqtisodiy ta‘limot tarixi; butun jahon davlatlarining o‘zaro savdo munosabatlarida qo‘llaniladigan metrlanmagan o‘lchovlar berilgan.

Ushbu darslik barcha iqtisodiyot mutaxassislari, siyosatchilar, biznes va tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchilar, doktorantlar va boshqa shaxslarga har tomonlama iqtisodiy ta‘lim olish uchun yordam beradi.

Mualliflar ushbu darslikni yozishda har tomonlama yordam bergan, qo‘llab-quvvatlagan shaxslarga o‘z minnatdorchiligini bildiradilar.

---

<sup>26</sup> Курс экономической теории: учебник – Под общей редакцией проф. Чепурина М.Н., проф.Киселевой Е.А. 6-е исправленное, дополненное и переработанное издание – Киров: «АСА», 2009 г. - 848 с.

<sup>27</sup> Борисов, Е. Ф. Основы экономики: учебник и практикум для СПО / Е. Ф. Борисов. — 7-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2017. — 383 с.

<sup>28</sup> Казаков А.П., Минаева Н.В. – «Экономика». Курс лекций. Упражнения. Тесты и тренинги.М.: Изд-во ЦИПКК АП, 1996 г., 392 стр.

<sup>29</sup> А.Ўлмасов, М.Шарифхўжаев. Иқтисодиёт назарияси. Т.: Мехнат, 1995. - 265 б.

<sup>30</sup> Қодиров А. ва бошқалар. Иқтисодиёт назарияси. ТДТУ. 1997.

<sup>31</sup> Ш.Шодмонов, М.Раҳматов. Иқтисодиёт назарияси: Дарслик.-Т.: Замин нашр, 2021.-856 б.

<sup>32</sup> Тожибоева Д. Иқтисодиёт назарияси. -Т.: «Шарк» 2003.

<sup>33</sup> Iqtisod nazariyasi. Vahobov A., O‘lmasov A. 2014.

# I-BO‘LIM

## IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

### 1-BOB.IQTISODIY NAZARIYAGA MUQADDIMA. INSON IQTISODIYOT DUNYOSIDA

#### 1.1. Inson va iqtisod

Insonning paydo bo‘lish tarixi bizdan uzoq, noma’lum o‘tmishda qoldi. Hozirgi zamon antropologiyasi «ongli inson» ning qanday va qaysi vaqtda paydo bo‘lganligining haqiqiy sababini, uning tadrijiy taraqqiyotini aytib bera olmaydi. Inson o‘zining biologik va ijtimoiy rivojlanishida juda ham uzoq yo‘l bosib o‘tgan. Hozirgi olimlarning faraz qilishicha, inson ongli mavjudot sifatida birinchi navbatda mehnat tufayli yuzaga kelgan. Mehnat uning ongini rivojlantirgan, insonni hayvonot dunyosidan ajratib olgan va uni fikr yuritish qobiliyatiga, ijtimoiy tushunchalarga ega qilgan.

Inson hayotining iqtisodiy va ijtimoiy, moddiy va ma’naviy tomonlarini, uning hayoti va faoliyatini iqtisodiyot nazariyasi tahlil qiladi. Iqtisodiyot resurslar cheklangan sharoitda moddiy boyliklarni ishlab chiqarish va taqsimlashni anglatadi, usiz shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarining xilma-xil shakllarini tasavvur qilish mumkin emas.

Iqtisodiyot nazariyasi insoniyat jamiyatini o‘rganishda dastlabki muhim asoslardan biridir. Inson ayni vaqtning o‘zida iqtisodiy boyliklarni ham ishlab chiqaruvchi, ham iste’mol qiluvchi hisoblanadi. Inson nafaqat yaratadi, u omillarni harakatga keltiradi, texnika-texnologiyadan foydalanish usulini aniqlaydi, bu o‘z navbatida insonning oldiga yangi jismoniy va intellektual talablarni qo‘yadi.

Inson nima uchun mehnat qiladi, degan savol tug‘iladi. Mehnat hayotiy ehtiyojmi yoki og‘ir zaruriyatmi? Ehtimol, bu savolga javob topish qiyin bo‘lmasa kerak. Agar ibtidoiy jamoa davriga e’tibor qilsak, u davr odamlari oziq-ovqat topish uchun kam kuch sarflagan bo‘lishi mumkin. Insonning kamroq kuch-g‘ayrat sarflashga intilishi uni yangi mehnat vositalarini ixtiro qilishga majbur etgan. Sinchkovlik bilan e’tibor bersak, mashaqqatli og‘ir mehnatdan (birinchi navbatda jismoniy mehnatdan) qochish kishilarni yuqori unumdorlikka ega mehnat qurollarini ixtiro qilishiga, keng moddiy boylik yaratishga undagan. Shunday qilib, piyoda yurmaslik uchun g‘ildirak kashf



etilgan, yerni qo‘l bilan qazimaslik uchun belkurak, keyinchalik zamonaviy ekskavator va boshqalar ixtiro qilingan.

Umuman, bozor xo‘jaligi nazariyasida inson mehnati birinchi hayotiy ehtiyoj bo‘lganmi, degan savol qaralmaydi. Bozor nazariyasi mehnatni o‘ziga xos xarajat turi, deb talqin qiladi. Inson kerakli ne‘matlarni qo‘lga kiritish uchun avval sarf-harajatlar qiladi.

Shuni aytish kerakki, hamma orzu qilingan va mustabid tuzumlarning ham orzusi xalqni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan edi, ya‘ni inson pul bilan haq to‘lashni, mukofotlashni xayoliga keltirmasligi kerak edi. Lekin bu oddiy vazifa emasdi. Targ‘ibot-tashviqot ham, zo‘ravonlik ham uning uddasidan chiqqan olmadi.

Shunday qilib, biz mehnatga undovchi sabablar muammosiga to‘xtalamiz. Har xil xo‘jalik tizimlarida mehnatga rag‘batlantirish qanday bo‘lgan? Ko‘pincha bu hol ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalariga munosabatlaridan kelib chiqadi.

Ma‘lumki, ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalaridan ajralishi mehnatdan uzoqlashishga olib keladi, deb hisoblanadi.

O‘ylaymizki, mehnatdan uzoqlashish birgina ishlab chiqaruvchilar va ishlab chiqarish vositalarining alohidalashuviga bog‘liq emas. Albatta, bu ularning bir-biri bilan qanday ijtimoiy tizimlarda bevosita bog‘langanligiga ham dahldor. Ehtimol, faqat ibtidoiy jamiyatdagi hunarmandchilik xo‘jaligi (oddiy tovar ishlab chiqaruvchilar) istisno bo‘lsa kerak. Qolgan hamma - quldorlik, feodal, kapitalistik, sotsialistik jamiyatlarda mehnatdan uzoqlashish nafaqat ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalaridan alohidalashuvi fakti bilan, balki mehnatga noiqtisodiy majbur qilish fakti bilan bog‘lansa kerak. Agarda shu jihat inobatga olinsa, bu hol ko‘proq quldorlik, feodalizm, mustabid jamiyatlarda «sotsializm» shiori ostida yuz beradi.

## **1.2. Iqtisodiyot nazariyasida inson modeli**

Inson shaxsi, uning yagonaligi, xilma-xil faoliyati, iqtisodiy hayotini ilmiy tahlil qilish, uning tarixiy shakllanishidan, harakat qilishidan kelib chiqqan holda inson modelini tuzish mumkin. Bu model o‘z ichiga quyidagi asosiy o‘lchamlarni oladi, ya‘ni uning shaxs sifatidagi xarakterini, iqtisodiy faoliyatini, maqsadini, jismoniy xususiyatini, psixologiyasini, aql-zakovatini, umuman, insonlarning o‘z maqsadiga erishish yo‘lida namoyish etadigan hamma jihatlarini hisobga oladi.

Shu o'rinda muhim bir narsani eslatmoq lozim, ya'ni hamma ijtimoiy-gumanitar fanlar, jumladan, insonni, jamiyatni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan fanlarning (falsafa, tarix, sotsiologiya va hokazo) hammasi o'z predmeti, o'z nuqtai nazari, o'z maqsad-vazifasidan kelib chiqqan holda ularni tavsiflay oladi, shuning uchun ham bu fanlar ma'lum darajada bir tomonlamali xususiyati bilan ajralib turadi. Shu o'rinda hammaga ma'lum bir oddiy haqiqatni eslash joizdir. Masalan, qo'li bilan filning oyog'iga tekkan so'qir kishi uni daraxt, ya'ni mening oldimda daraxt turibdi, deb faraz qilishi, filning xartumidan ushlasa, bu ilon deb ishonishi mumkin. Inson–shaxs to'g'risidagi aniq, to'g'ri tasnifni hamma gumanitar fanlar berishi mumkin, ammo ular o'zlari erishgan bilim doirasidan tashqari chiqolmaydi.

Albatta, «iqtisodiy inson» obrazini yoki «homo–economicus»ni bir tomonlama o'rganish qandaydir kamchiliklarga yo'l qo'yadi, sababi u faqat «iqtisodiy inson» emas. Shunga qaramasdan kishilarning iqtisodiy faoliyati–insonning shaxs sifatida o'zini namoyish etishining muhim sohasidir. Chunki mehnat sharoiti, asosi hamda turli tomonlari ham alohida inson, ham butun jamiyat uchun xosdir.

Shu o'rinda insonlarning iqtisodiy faoliyatida muhim bo'lgan psixologik holatlarni eslatib o'tish lozim. Axir o'tmish va hozirgi zamon nazariyotchilarining hammasi bo'lmasa ham, aksariyati insonlarning iqtisodiy xulqini tushuntirishda «havas», «orzu», «afzallik», «niyat» degan tushunchalarga bekorga urg'u berishmagan.

Misol uchun, sobiq ittifoqdan ajralib chiqqan mustaqil davlatlar 70 yildan ko'proq kommunistik mafkura muhitida, mustabid tizmda yashadilar. Hozirgi vaqtda ular bozor islohotlarini o'tkazishda juda katta siyosiy va iqtisodiy to'siqlarga duch kelishmoqda, sababi ular uzoq vaqt markazlashgan reja munosabatlarida bo'lganlar. Endi esa, iqtisodiy alohidalik va iqtisodiy hamkorlik zarur.

Hozirgi zamon inson modelining ko'p yo'nalishlari ichidan to'rttasini ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchi yo'nalish–bu ingliz klassik maktabi, marjinalizm (eng yuksak naflilik) va neoklassik yo'nalish bo'lib, bu yo'nalish doirasida inson xudbin bo'lib, moddiy boylikka, ya'ni pulga intiladi. Uning pulga qiziqishi sababli, rag'bat «iqtisodiy inson» modelida asosiy o'rin egallaydi. XVIII asrda ishlab chiqilgan bu modelning bugungi kungacha yetib kelishining sababi bor, hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasi darsligida ham uning o'z o'rni bor.

Bunday model keng ko‘lamli tushuncha, fikr, axborot olish, chuqur bilimga ega bo‘lish imkoniyatini, ya’ni erkin raqobat sharoitida biron maqsad ommalashishini ta’minlashdan iboratdir. Insonning bunday harakatida iqtisodiy tizim hech qanday boshqa tomonning (asosan, davlatning) aralashishi ortiqcha, aks holda, bozor tizimi deformatsiyaga uchraydi, bundan tashqari, erkin bozor muvozanatini saqlash qoidasiga rioya qilish talab etiladi.

«Iqtisodiy inson» modeli doirasida kishilarning iqtisodiy xulqini tahlil qilishda ularning ratsional xulqidan foydalanish mo‘ljallanadi.

Bunday harakat asosida cheklangan iqtisodiy resurslar sharoitida shaxslarning minimal sarf-harajatlar qilib, maksimal natija olishga intilishi yotadi. Kishilar o‘zlarining sub’ektiv manfaatlarini qoniqtirish uchun har safar, hamma joyda cheklangan iqtisodiy boyliklardan foydalanishning muqobil usullarini tanlashga majbur bo‘ladi. Shaxslar o‘zlarining ratsional xulqini amalga oshirishda erkin tanlov imkoniga ega bo‘lishlari shart. Kishilarning erkin tanlov darajasi rivojlanishi bilan iqtisodiy xulqi o‘sib boradi, bu sekin-asta siyosiy, mafkuraviy, huquqiy, qat’iy tabaqalashgan va boshqa cheklangan erkinliklarning tugatilishiga olib keladi.

Ikkinchi yo‘nalish – bu Keynsning institutsionalizm tarixiy maktabiga xos yo‘nalish. Unda inson modeli ancha murakkab ravishda berilgan. Rag‘batlantirish asosi o‘ziga faqat moddiy, pul boyliklariga intilishni emas, balki aniq psixologik xarakterga ega bo‘lgan elementlarni, ya’ni rahmdillik, biror maqsadga erishish bilan bog‘liq bo‘lgan an’analarni, obro‘-e’tibor, ta’sir va bo‘sh vaqtdan foydalanishni ham o‘z ichiga oladi. Bu modelga erishishdagi qiyinchiliklar xo‘jalik sub’ektlarida kerakli darajadagi har xil axborotlarning yetarli emasligi, ular aql–zakovatlarining turli saviyasidan, xulqlarining bir xildaligi bilan bog‘liq odatlaridan, diniy tushunchalari va hokazolardan iborat.

Bu sharoitlarda xo‘jalik sub’ektlarining erkin raqobat orqali o‘z maqsadlariga erishishining qiyinchiligi va iloji yo‘qligi, ayniqsa, shaxslardan tashqari guruhlar manfaatlarini, xo‘jalik agentlarining o‘z maqsadiga intilishida guruhlar manfaatining ustunligini o‘zaro tashkillashtirish yo‘li bilan «iqtisodiy xudbinlik»ning cheklanganligiga barham berish kerakligi bilan xarakterlanadi.

Bu maqsadlarda jamiyat ancha murakkab tuzilishga ega bo‘ladi, uning muvozanatini qo‘llab-quvvatlash uchun iqtisodiy munosabatlarga davlatning aralashishi talab etiladi.

Uchinchi yo‘nalish - bunda hozirgi zamon voqeligini aks ettiradigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar sub’ekti modeli mutlaqo yangicha berilgan. Bu

modelda nafaqat moddiy boylik, balki pullik rag‘batlantirish asosiy o‘rin egallaydi. Bu modelning o‘zgarishida, yangicha o‘shida shaxslarning ma‘naviy, ruhiy, madaniy ehtiyoji (mehnat jarayonlaridagi ijtimoiy ahamiyati, murakkabligidan rozi bo‘lmoq) yotadi. Bundan tashqari bu modelga dunyo, jahon taraqqiyoti to‘g‘risida axborot olmoq–jahonda yashayotgan hamma kishilarning yuqori darajadagi ma‘lumotga, madaniyatga ega bo‘lishi, ma‘naviy, ruhiy erkinlikka erishish, har xil ehtiyojlarning qondirilishi, kishilarning ijtimoiy–siyosiy dunyoqarashlarining o‘zgarishi xos hisoblanadi. Muhimi O‘zbekiston Respublikasida, mustaqillikka erishganimizdan keyin insonlarning dunyoqarashi umuman o‘zgardi, vatan, millat, davlat bilan bog‘liq yangicha milliy g‘urur, milliy g‘oya, yangi fikrlar tug‘ildi. Misli ko‘rilmagan, tengi yo‘q yangi mafkura yaratildi. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni–xalq, millatni–millat qilishga xizmat etmoqda. Shundan ma‘lum bo‘ladiki, g‘oyaga qarshi faqat kuchli g‘oya, fikrga qarshi faqat kuchli fikr, jaholatga qarshi faqat so‘nmas, charaqlab nur sochib turgan ma‘rifat bilan baxsga kirishish, kurashish mumkin. Bu model ijtimoiy o‘ziga xos insonning jamiyat tushunchasida demokratik–mustaqil poydevorga asoslangan, rivojlangan guruhlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va yuvilib ketgan, qotib qolmagan ijtimoiy jamiyat o‘rtasidagi chegaradir.

To‘rtinchi yo‘nalish – bu o‘ziga xos xususiyatga ega sobiq «sovet iqtisodiy insoni» modeli bo‘lib, o‘zining ildizi bilan eski mustabid, qatag‘on davrlarini o‘z ichiga oluvchi, inson iqtisodiy xulqining asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi, ma‘muriy buyruqbozlik tizimidagi xo‘jalikdir. Bu model, avvalo shaxsning iqtisodiy xulqini, butun funksiyasini, shaxsiy farovonlikka intilishini aniqlashtiradi. Unda mehnat davlat uchun sarflangan, uning natijalari davlat tomonidan taqsimlangan. Shuning uchun mehnat xarajatlarini minimallashtirishga intilish ustun bo‘lgan, kayfichog‘lik, boqimandalik ilohiylashtirilgan, ko‘pincha davlat mulkini o‘g‘irlash, soxta kamtarinlik mehnat natijasiga ko‘ra emas, faqat o‘z ish joyida bo‘lganligini mukofotlash qat’iy kafolatlangan.

Albatta, har qanday inson iqtisodiyot nazariyasini o‘rganishni boshlar ekan, xohlaydimi yo‘qmi, uni shunday savol qiziqtiradi: shaxsan uning iqtisodiyot bilan qanday bog‘liqligi bor? Haqiqatan ham bu muhim ahamiyatga ega, chunki, insonning xo‘jalik bilan aloqasi uning turmushini va shaxsiy farovonligini ta‘minlaydi. Iqtisodiyot–oilaning, korxonaning, firmaning, davlatning, umuman jamiyatning xo‘jalik yuritish faoliyatidir. Asosiy vazifasi

kishilarni, jamiyat a'zolarini hayotiy zarur moddiy boyliklar bilan ta'minlashdilar. Moddiy boylik deganda biz – mahsulot, tovar va xizmatlar majmuasini, ya'ni kishilarning qandaydir ehtiyoji qondirilishini, mehnat natijasini tushunamiz.

Inson hayotining muhim o'lchovi bor: ya'ni, inson o'zi uchun oiladan, jamiyatdan har xil moddiy boyliklarni oladi va yana qaytarib beradi. Insonlarni har xil yoshda solishtirib qaraganda, qiziq bir xususiyat ko'zga tashlanadi: u o'zicha nimani o'zlashtiradi va nimani boshqalar foydasiga qoldiradi, bu bir xil emas. Shuning uchun har qanday inson jamiyat menga nima berdi deb emas, men jamiyatga nima berdim, deb yashashi kerak.

Olimlar ishlab chiqarishda band bo'lganlar o'rtasida tekshiruv o'tkazdilar. Ular hisoblab chiqqanlarida har qaysi inson har yili qancha milliy daromad yaratishi va qancha iste'mol qilishi ma'lum bo'ldi.

Yosh bolalarni rivojlanish davrida (16 yoshgacha) umuman, oila va jamiyat ta'minlaydi. Respublikamiz Konstitutsiyasiga binoan bolalarning mehnatidan ishlab chiqarishda foydalanish qat'iy man etilgan, shuning uchun ham bolalar faqat iste'mol qiladilar.

Yigit-qizlar taxminan 20 yoshdan boshlab o'zlarini o'z mehnati bilan qisman bo'lsada ta'minlaydilar. Bu vaqtda ularning mehnati natijasida yaratilgan milliy daromad ularning shu vaqtda iste'mol qiladigan summasidan ancha ortib ketadi. Insonlarning ehtiyoji kengayib boradi va uni qondirish xohishi tezlashadi. Bu ularning ishlab chiqarish mahsulotini ko'paytirish, ish sifatini yaxshilash va ish haqi miqdorini oshirishga imkoniyat yaratadi.

30–40 yoshga yetgach, ular eng yuqori mehnat unumdorligiga va ehtiyojiga erishadilar. Eng ko'p mahsulot ishlab chiqarish tufayli ishchilarning yaratgan daromadi, ularning shaxsiy o'zlashtirish miqdoridan 3–4 marotaba oshib ketadi.

Agar, bunga sof iqtisodiy nuqtai nazardan qaralsa, shuni sezish mumkinki, inson umrining ikkinchi va uchinchi davrida oilaga va jamiyatga yosh vaqtlarida olgan «qarzlar»ini qaytaryapti. Bundan tashqari, u «avans» sifatida o'zining qarilik chog'i uchun moddiy zamin yaratmoqda. Mana endi, biz yuqorida aytganlarimizni umumlashtiramiz. Bir ishchining, oilasining va umuman. jamiyatning hayotiy sharoitini yaxshilash, mehnatga qobiliyatli yoshida yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga erishishini bildiradi. Bunday natijaga erishish tufayli ishchilar jamiyatdan o'zlarining ehtiyojini qondirish uchun qayta–qayta katta miqdorda moddiy boyliklar va xizmatlar oladilar.

Shu o‘rinda yana bir hayotiy muhim shartni eslash kerak. Oila jamiyatning ilk bo‘g‘ini hisoblanadi. Oila boyligining asosiy manbai ikki yo‘l bilan to‘planadi.

1. Mehnat uchun korxonalar va idoralarda beradigan mukofot;
2. Ijtimoiy fondlardan tushadigan to‘lovlar (stipendiya, nafaqa, davlatning moddiy yordami va hokazolar).

O‘zbekistonda ham boshqa davlatlardagi kabi mehnat haqi deganda hamma pul tushumlari: ish haqi, pul mukofoti, mualliflik va boshqa gonorarlar, individual mehnat faoliyatidan tushadigan daromadlar va boshqalar tushuniladi. Yalpi daromadga tekin ta‘lim qiymati, tibbiyot xizmati va boshqalar kirmaydi.

Shu o‘rinda, bir narsa ma‘lum bo‘ladiki, har qaysi inson va oilasining farovon hayoti–inson mehnati natijasi va birgalikdagi xo‘jalik faoliyati, umuman, jamiyatdagi iqtisodiy mavqei qandayligi bilan bog‘liq. Shu yo‘l bilan har bir hayotiy manfaat aniqlanadi. Albatta, biz juda ham muhim narsani aytib o‘tishimiz lozim, ya‘ni har yili O‘zbekistonda aholiga pul ifodasida beriladigan ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar oshib bormoqda. Lekin o‘z navbatida bozordagi narx-navo, oziq-ovqat bahosi, transport haqi noo‘rin ravishda oshib ketmoqda. Buni iqtisodiyot, inson turmush darajasi, umuman, jamiyatning, davlatning obod va ozod rivojlanishi, kelajagi nuqtai nazaridan to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Yana shuni qo‘shimcha qilib aytish kerak: 1994 yilning 1 iyunidan o‘zimizning milliy valyutamiz joriy etildi, bu davlatimiz, fuqarolarimiz hayotida misli ko‘rilmagan, tengi yo‘q tarixiy voqea bo‘ldi.

Pul islohotida oldingi so‘m-kupon 1000: 1 qilib almashtirildi, lekin narx-navo o‘z holida qoldi va yanada oshib ketdi. Agar narx-navo ham shu nisbatda kamayganida, qimmatchilikka yo‘l qo‘yilmagan bo‘lar edi. Har qanday islohotni o‘tkazish vaqtida albatta, davlat tomonidan kuchli nazorat bo‘lishi kerak. Shuningdek, bozor munosabatiga to‘liq o‘tmaguncha narx-navoni erkinlashtirib bo‘lmaydi. Bu aholi turmush darajasini pasayishiga olib kelishi mumkin.

Ishchilarning aql–zakovati, qobiliyatini suiste‘mol qilish, amaldorlar, boshqaruvchilar nazoratidan o‘zlarini muhofaza qilish maqsadida, ularning buyruqlarini chetlab o‘tish, yolg‘onchilik va qo‘shib yozish, xudbinlik, alohida jamoalar manfaatining davlat manfaatiga qarama–qarshi qo‘yilishi mustabid tizim uchun tabiiy hol edi.

«Sovet iqtisodiy insoni» modelining ikki yoqlama xususiyatga egaligi iqtisodiy rivojlanishining umumiy samarasini pasaytiribgina qolmay, shu bilan birga ahloq sohasida qo‘shimcha sarf-xarajatlarga olib kelgan.

Qiziqarli tomoni shundaki, maqsadlarning ikki yoqlamaligini inson xususiyatlarining «homo economicus» modelida cheksiz ekanligidir. Xatto totalitar tizim doirasida ham inson o‘zining sarf-xarajatlarini minimallashtirishga va foydani maksimallashtirishga intilgan. Bu mutlaqo ratsional iqtisodiy xulq deganidir.

Inson o‘zining nimalarni afzal ko‘rishini cheklangan resurslar dunyosida yuzaga chiqaradi, u har qanday xo‘jalik tizimida o‘zining sarf-xarajatlarini minimallashtirishga va foyda olishni maksimallashtirishga intiladi. Bu tamoyil har tomonlama izlanuvchi olimlarga uni nafaqat iqtisodiyot nazariyasida qo‘llash, balki odamlarning harakat qilish sababi boshqa noiqtisodiy hayot sohasiga ham bog‘liq, deb xulosa chiqarishlariga imkon berdi.

Iqtisodiyot nazariyasida inson modelining qisqacha, asosiy tavsifi shulardan iborat. Albatta, ushbu darslikning hamma boblarida asosiy o‘rinni inson egallaydi. Shuning uchun kelgusi ikkinchi bobda iqtisodiyot nazariyasi fanining asosi va asoschilari to‘g‘risida va bu fanning fan sifatida paydo bo‘lishi tarixini o‘rganamiz.

### **1.3.Iqtisodiyot nazariyasi fanining paydo bo‘lishi**

Asosiy davrlari. Iqtisodiy tafakkurning yuzaga kelishi, paydo bo‘lishi, shu fanning tarixiy manbalari dalolat berishiga qaraganda, insoniyat jamiyati yuzaga kelishi bilan teng. Inson paydo bo‘lishi bilan oziq-ovqatga, kiyim-kechakka, boshpanaga va boshqa hayotiy noz-ne‘matlarga muhtoj bo‘lgan. Shuning uchun ham iqtisodiy tafakkur iqtisodiy rivojlanish bilan birgalikda yuzaga kelgan, desak xato qilmaymiz. Yana shuni aytib o‘tish kerakki, tabiatda hech narsa tayyor holda berilmagan, tabiat in‘om etgan boyliklarni inson o‘zi uchun, o‘z ehtiyojini qondirish uchun xizmat qildirish maqsadida, tabiatga nisbatan iqtisodiy tafakkur alohida fikr shaklida bo‘lmagan. Va boshlang‘ich natijalarni sof, aniq qilib isbotlab berish juda murakkab bo‘lgan. Tarixda eng dastlabki, birinchi manba qadimgi Misr papirusi va shoh Xammurapi qonunlari hamda qadimgi Hindiston «Artxashastra»si hisoblanadi. Albatta, qiziqarli va nihoyatda ibratli iqtisodiy hodisalar diniy kitoblarda, jumladan, Qur‘oni Karim va Injilda keltirilgan. Bundan tashqari kapitalistik davrgacha bo‘lgan ishlab chiqarish uslublari ham ancha keng ma‘lumot beradi.

Iqtisodiy ta'limot ildizi qadimgi dunyoga borib taqaladi. Quldorlik jamiyati birinchi sinfiy antagonistik ijtimoiy- iqtisodiy formatsiya deb hisoblanadi.

Sharqda quldorlik eramizdan avvalgi IV ming yillikda paydo bo'lgan. Sharqdagi quldorlikning o'ziga hos xususiyati shundaki, u xususiy mulk bilan baravar vujudga kelgan, xalqning aksariyat qismi davlatga qaram bo'lgan. Irrigatsiya tarmoqlari davlat qo'lida bo'lgan va qullarni qarzga berish tarqalgan edi. Xitoyda birinchi quldorlik davlati eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillikda paydo bo'lgan bo'lsa, quldorlik o'zining sinfiy shaklida qadimiy Gretsiyada va Rimda birinchi ming yillikdan to bizning eramizgacha yetib kelgan o'zining ravnaqiga esa eramizdan avvalgi V asrda ko'tarilgan.

Sharqdagi quldorlik jamiyati shakllanishini solishtirganda, ishlab chiqarish kuchlari Gretsiyada ancha yuqori darajada rivojlanganligi ma'lum bo'ladi.

Qadimgi dunyo iqtisodiy fikri ilohiylashgan natural quldorlar xo'jaligini himoya qilishi bilan tavsiflanadi.

Qadimgi Osiyodagi iqtisodiy ta'limotga Bobil, yuqorida aytib o'tilgan shoh Xammurapi (eramizdan avvalgi 1792 - 1750 yillar) qonunlari. Xammurapi qonunlari quldorlik jamiyatini himoya qilish va uni kuchaytirish maqsadida sinfiy kurashni yumshatishni ko'zlagan edi. Bu qonun quldorlar davlati manfaatini himoya qilgan uning mohiyati sudxo'rlikni va qullarning qarzga berilishini cheklashdan iborat bo'lgan.

Xitoy. Konfutsiy (eramizdan avvalgi 552-479 yillar) ta'limoti. Jamoa asari «Guan - tszi» eramizdan avvalgi IV-III asrlar. Bu davrda Xitoyda dehqonchilik va hunarmandchilik tez rivojlandi. Temirdan yasalgan mehnat qurollari keng tarqaldi. Tovar – pul munosabatlari kengayadi va savdo-sotiq kuchayadi. U Xitoyda oldinga surilgan quldorlik jamiyatini himoya qilgan birinchi nazariyani rivojlantirish, ya'ni tabiiy, huquqiy-ijtimoiy, axloqiy va adliyaviy falsafadan iborat bo'lgan.

Hindiston. «Artxashastra» (eramizdan avvalgi IV-III asrlar). «Artxashastra» qadimiy Hindistonning eng muhim yodgorligi hisoblanadi. Uning yaratilishi shoh Chandragupta I ning maslahatchisi Kautile Vishnugupta bilan bog'liq. «Artxashastra»ning maqsadi quldorlik davlatini mustahkamlash bo'lgan. Bu yerda kuchlar asosan past toifadagilar bo'lgan.



«Artxashastra»da yaratilgan «narsalar qiymati» muammosi aks etgan, qiymat miqdori «ish kuni» soni bilan aniqlangan mukofotlash mehnat natijasidan jiddiy fikrlangan.

«Artxashastra» dasturida iqtisodiy siyosat shohni ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga da'vat etgan. Unda tovar narxini, tovar fondi yaratishni tartibga solish, davlat budjetida aktiv balansni yaratishga rioya qilish budjetning daromad qismini ko'paytirib-chiqim qismini kamaytirish masalalari aks etgan.

#### **1.4. Qadimgi Gretsiya iqtisodiy ta'limoti.**

Ksenofont (eramizdan avvalgi 430-354 yillar). U o'zining asarlarida natural xo'jaliklarni mustahkamlash uchun quldorlarning tovar-pul munosabatlarini rivojlantirishga intilishni aks ettirdi. Ksenofont mehnat taqsimoti va bozor hajmi o'rtasidagi aloqani ko'rsatib, mahsulotlarni almashish qiymatining iste'mol qiymati bilan baravarligini pulning muomala vositasidan tashqari jamg'arma vazifasini bajarishini ma'qullagan.

Aflotun (Platon) (eramizdan avvalgi 427-347 yillar). Gretsiya Peloponnes urushidan keyin tanazzulga uchradi. Sinfy kurashlar keskin kuchaydi. Aflotun o'z oldiga aslzodalar ahvolini mustaxkamlash vazifasini qo'ydi. Va ularning manfaatini ta'minlashga harakat qildi. Shu maqsadda u «Siyosat va davlat» degan kitobini yozdi.

U jami aholini uch toifaga bo'lib chiqdi. Birinchi va ikkinchi toifaga davlatni boshqaruvchilar, faylasuflar va jangchilar, ya'ni davlat apparatini boshqaruvchilar kirdi. Ular hech qanday mulkka ega bo'lmasligi, iste'mol ular uchun ijtimoiy xususiyatga ega bo'lishi lozim edi. Mulikka ega bo'lish faqat uchinchi toifaga, ya'ni dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlarga ruxsat etilardi.

Arastu (Aristotel) (eramizdan avvalgi 384-322 yillar) qadimgi Gretsiyada quldorlik g'oyasining eng asosiy himoyachisi bo'lgan. Jamiyatning o'sha davrda qul va quldorlarga bo'linishini u kishilarning tabiiy farqi deb tushuntirgan. Arastu quldorlar xo'jaligini mustahkamlash uchun o'rtacha ta'minlangan quldorlar sinfini mahkamlash, davlat yordami bilan adolatli almashuvni ta'minlash zarur deb hisoblagan. Arastu shu nuqtai nazardan kelib chiqib, noqulay bo'lishiga qaramay birinchi marotaba almashuv qiymatini tahlil qildi: ya'ni «5 etik uyga». Bu bilan Arastu uy quruvchi bilan etikdo'z mehnatini bir-biriga solishtirgan holda ularni tenglashtiradi.

Arastu shunday deydi: «Munosabat, aloqa almashuvsiz mumkin emas, almashtirish ham narxlarni baravarlashtirishsiz mumkin emas, shunday ekan, baravarlash ham narsalarni tenglashtirishsiz mumkin emas.»

Shunday qilib, almashuv baravarlashtirishsiz mumkin bo'lmaganidek, baravarlashtirish ham o'lchovsiz bo'lishi mumkin emas.

Arastu aytganidek, shubhasiz pulda o'lchov qiymati bo'lgan. Ya'ni hamma almashish uchun chiqarilgan narsalar ma'lum daradaja teng bo'lishi shart, buning uchun vositachi sifatida tanga-chaqa joriy etilgan. Bu hammasini o'lchaydi va aniqlaydi. U, albatta, shu asnoda, qiymat zamirida qanday mehnat turganligiga uncha ahamiyat bermagan, ya'ni boshqacha qimlib aytganda, aniq mehnat bu insonlar mavhum mehnatining shakllanishi ekanligini uncha tushunmagan. Arastu taqsimot muammosiga ham ancha e'tibor bergan, taqsimotda asosan adolat bo'lishi kerak, deydi u, lekin bu adolatning tamoyili «tengsizga-tengsizlikdir». Bu tamoyilga ko'ra moddiy boyliklarni jamiyat sinflari o'rtasida taqsimlashdagi adolat ham iloji boricha faqat obro'-e'tibori borlar uchun teng bo'lishi kerak. Bu adolat-tenglik, biroq bu tenglik hamma uchun emas, balki tenglar uchun degan ma'noni bildiradi. Arastu haqiqatan ham birinchi marotaba ijtimoiy almashish turmushda mehnat taqsimoti, tovar xo'jaligi, pul, qiymatning ikki turi, taqsimot kabi hodisalar borasida tadqiqot olib borgan. Shu bilan birga Arastu xrematistika va iqtisodga ham ahamiyat bergan. Xrema - grekcha mulk degani. Bu tushuncha iqtisodga qarama-qarshi qo'yilganligidan foydalangan. Arastu inson o'z extiyojini qondirish uchun xo'jalik faoliyatini yurgizgani tabiiy hol, deb ta'kidlaydi. Bu Arastuning qadim zamon marketingining yuzaga kelishiga dahldor ekanligidan dalolat beradi. Arastu xrematistikani xo'jalik faoliyatiga g'ayri tabiiy hisoblagan kishilarning ehtiyojini qondirishni emas, balki har qanday yo'l bilan boylik orttirishni ko'zlaydi degan.

Arastu xrematistika to'g'risida yana shunday degan «Savdogarlik faoliyati natijasida sun'iy yo'l bilan boylik to'plashning hech qachon me'yori bo'lmagan, sababi, maqsad faqat boylik orttirish, pul to'plashdir. Kimda-kim pul oboroti bilan shug'ullansa, u o'z kapitalini cheksiz ko'paytirishga intiladi»<sup>34</sup>.

Hozirgi zamon tili bilan aytganda, Arastu **T-P-T** shaklini qo'llagan, lekin **P-T-P** shaklini emas. Birinchi jarayon ijobiy bo'lib, ikkinchisi esa, Gegel aytganidek, yaramas cheksizdir. Arastu sudxo'rlarni qat'iyon ayblaydi. Arastu

---

<sup>34</sup> Аристотель. Политика. М.: АСТ, 2018. С.25-26.

negadir sudxo‘rlikni tabiatning jirkanchli shakli, dunyoparast tarmog‘i degan. Yuqorida aytib o‘tilgan fikrlarimizni Arastuning bir yaxshi iborasi bilan yakunlaymiz, ya‘ni «boylik orttirishning me‘yori bo‘lmaydi, bu mulkka egalik qilishni iloxiylashtirishdir».

«Ekonomika - iqtisod» so‘zi ham grek tilidan olingan Ksenofont va Arastu davrida «oykonomika» («oykos»-uy xo‘jaligi; «nomos»-qonun, qoida)ga dastavval uy xo‘jaligini olib borish to‘g‘risidagi fan deb qaralgan. Bu so‘z kundalik hayotga, turmush tarziga o‘sha zamondan boshlab kirib kelgan.

### **1.5. Qadimgi Rimning iqtisodiy ta‘limi.**

Katon Starshiy (eramizdan avvalgi 234-142 yillar) bu davrda Rim davlati ancha yuksalgan bo‘lib, yirik latifundiyalar bilan birgalikda quldorlar xo‘jaligi bozor bilan uzviy bog‘liq edi. Quldorlar xo‘jaligini Katon himoya qilgan. U o‘zining «dehqonchilik» deb nomlangan asarida «kamroq yeb, ko‘proq boylik orttirish»ni tavsiya etgan. Daromadni Katon ortiqcha qiymat deb yanglishgan va uni ishlab chiqarish sarf-xarajatlariga qo‘shgan. Katon yollanma mehnatga qarshi bo‘lgan. U daromadni qullar hisobiga ta‘minlashga intilgan. Katon qullarning ish vaqtini qat‘iyan tartibga solib, ularning yuqori unum bilan mehnat qilishlarini talab qilgan.

Tiberiy Semproniy Grakx (eramizdan avvalgi 163-132 yillar) va Gay (eramizdan avvalgi 153-121 yillar). Bu davrda Rim davlatida iqtisodiy va siyosiy inqiroz rivojlangan edi. Ularni to‘xtatish maqsadida aka-uka Grakxi Tiberiy va Gay, agrar islohotlar o‘tkazishni ilgari surishdi. Ular yirik yer egalarini cheklashni va xarob bo‘layotgan dehqonlarni himoya qilishni talab qildilar. Biroq yirik quldorlarga qarshi kurashda aka-ukalar halok bo‘lib ketdi.

Varron (eramizdan avvalgi 116-27 yillar). Kolumella (eramizdan avvalgi 1 asr). Varron – olim, agronom, arxeolog va tarixchi bo‘lib, latifundiyalarni mustahkamlashga intilgan. Varron qishloq xo‘jaligining mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati mamlakat barqarorligining zamiri ekanligini asoslab berdi. Shu bilan birga Varron qullarni maksimal ravishda ekspluatatsiya qilishni tavsiya qilgan, ularni zaboni bor mehnat quroliga tenglashtirgan. Yozuvchi va agronom Kolumella qullar aqliy mehnat qilmasligini ko‘rsatadi. Ularni mehnatga rag‘batlantirish uchun Kolumella qullar bilan suxbat o‘tkazishni, har zamon - har zamonda xazillashib turishni, ularni uylantirib qo‘yishni maslahat beradi. Ammo Kolumella qullarning mehnat unumdorligi oshishiga ishonch yo‘q deydi, zamon talabiga binoan yirik yer egalarini himoya qiladi.

Feodalizm jamiyati va kapitalizmning paydo bo‘lish davridagi iqtisodiy ta’lim. Feodalizm jamiyati va unga xos bo‘lgan ishlab chiqarish usuliga tabiiy deb qaralgan. Tovar - pul munosabatlari rivojlanishi feodalizmning parchalanishi va kapitalizmning shakllanishida burjuaziya siyosiy iqtisodining paydo bo‘lishi muhim rol o‘ynadi.

### **1.6. Arab mamlakatlaridagi feodalizmning iqtisodiy g‘oyalari**

Qur’oni Karimning ijtimoiy-iqtisodiy g‘oyalari (610 va 632 yillar). IV asrning ohiri va VII asrning boshlarida Arabistonda feodal munosabatlar paydo bo‘lishi bilan feodal va savdogar aslzodalar, dindorlar Arabiston yarim orolida yagona davlat yaratishga intilganlar. Bu intilish yangi diniy g‘oyalarda – islom g‘oyalarida aks etdi. Islom dinining asoschidaridan biri Muhammad alayxis salom bo‘lgan, bu din manfaatdolari savdoga katta ahamiyat berib, sudxo‘rlikka qarshi chiqqan.

Ibn Xaldun (1332-1406)ning iqtisodiy g‘oyasi. Arab davlatlarida feodalizmning ravnaq topishi Ibn Xaldun g‘oyalarida ifodalanadi. U tovar shaklida boylikka ahamiyat berib, mahsulotda «qiymatni mehnat aks ettiradi» degan fikrni ilgari surdi.

Ibn Xaldun tovar-pul munosabatlarini rivojlantirish tashvishida bo‘lib, feodalizm tuzumini saqlab qolishga intilardi. Jamiyat hayotining ravnaq topish vositasi – bu soliq to‘lov miqdorini kamaytirishdir, degan edi.

### **1.7. Feodal Rossiyaning iqtisodiy g‘oyalari (IX - XVI asrlar)**

«Rus haqiqati» Rus iqtisodiy fikri qadimiy russ davlatchiligidan boshlab rivojlangan (IX). «Rus haqiqati» feodal yer egalarini himoya qilgan va paydo bo‘lgan sinfiy tabaqalashuvini mustahkamlagan. Knyazlarning manfaatlarini ko‘zlab, ular savdo – g‘oyalarni sudxo‘rlar zo‘rligidan kreditorlarni qarz olgan pullarni qaytarib bermaydigan niyati buziq darg‘azablardan himoya qilganlar.

Yermolay-Yerazm. Uning iqtisodiy dunyo qarashi zamirida «dehqonlar mehnati – boylik manbai», degan fikr bor edi. Shuning uchun dehqonlar tabaqasiga davlatda birinchi o‘rinni berib va ularning moddiy ahvolini yaxshilashni zarur topgan, lekin dehqonlarni ekspluatatsiya qilish sababini u pul majburiyatida ko‘rgan va shu bilan majburiyatni hosilning beshinchi qismini, faqat tabiiy rentada cheklashni taklif qilgan.

Shu bilan birga, bu yerda keyinchalik iqtisodiyot fanining shakllanishiga, rivojlanishiga o‘zlarining iqtisod sohasidagi ilmiy asarlari bilan

katta ulushini qo‘shgan iqtisodchi olimlar faoliyatiga to‘xtalib o‘tishni lozim topdik.

### **1.8. Markaziy Osiyoda iqtisodiy tafakkurning rivojlanishi.**

Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, A.Navoiy kabi olamga mashhur olim va adiblarning nomi bilan bog‘liq.

Ularning asarlarida iqtisodiy g‘oyalar hali falsafiy va ijtimoiy bilimlar majmuidan alohida ajralib chiqqan bo‘lmasa ham, ma‘lum darajada qiziqish uyg‘otadi.

Farobiy va Ibn Sino ilmiy qarashlarida inson ehtiyojlari haqidagi ta‘limot markaziy o‘rinni egallagan. Farobiyning (870 – 950) fikriga ko‘ra, odamlarning moddiy ehtiyojlari jamiyat shakllanishining birlamchi sababi xisoblanadi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) – o‘rta asrning mashhur mutafakkirlaridan biri, buyuk qomusiy olim va gumanist, avvalambor, o‘zining tibbiyot sohasidagi asarlari bilan mashhurdir. Shu bilan birga, uni iqtisodiy masalalar ham qiziqtirgan. Uning nafaqat oila miqyosidagi, shu bilan birga, shahar va davlat miqyosidagi daromadlar va sarf-xarajatlar haqidagi mulohazalari ayniqsa, qiziqarli. Uning fikriga qaraganda, maorif uchun mablag‘lar ajratilishining tabiiy ofatlar yoki urush ehtimolini nazarda tutib, zaxiralar hosil qilinishini inobatga olib, daromadlar, xarajatlar muvofiqlantirilishiga erishish zarur.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) Ibn Sinoning zamondoshi, ulkan qomusiy olimlardan biridir. U o‘z asarlarida iysoning tevarak-atrofidagi olam bilan aloqa qilishi kabi ob‘ektiv klimdan kelib chiqib, inson uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Beruniy jamiyat shakllanishining iqtisodiy omillari haqidagi Farobiy va Ibn Sinoning ta‘limotini rivojlantirgan. Beruniyning Markaziy Osiyo iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishdagi xizmatlari shundaki, u pulning kelib chiqishini birinchi bo‘lib tadqiq etgan, uning mehnat mahsulotlarini ayirboshlash ehtiyoji paydo bo‘lishi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatgan.

XI asrning taniqli shoiri va mutafakkiri Yusuf Xos Hojib iqtisodiy bilimlar sohasida muhim rol o‘ynagan. U o‘zining iqtisodiy qarashlarini «Qutadg‘u bilig» («Saodatga eltuvchi bilim» 1069), kitobida bayon etilgan. Yusuf Xos Hojib mehnatning jamiyatni rivojlantirishdagi rolini ta‘kidlab, ne‘matlarning xususiyatlari xarakterlarini qayd etadi.

Sharq Iqtisodiy tafakkurining shundan keyingi rivojlanishi Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davri uchun ayniqsa, xarakterlidir. Bu ko‘p jihatdan buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri, qomusiy olim va davlat arbobi Alisher Navoiyning (1441 – 1501) nomi bilan bog‘liqdir. A.Navoiyning iqtisodiy g‘oyalari bayon etilgan 22 asari orasidan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi haqidagi uning asosiy fikrlari ana shu asarlarda o‘z mujassamini topgan. Olim mehnatining boylik yaratishdagi faoliyati qayd etar ekan, «boylik – basharti undan butun xalq foydalangan taqdirdagina ne‘matdir», deb hisoblangan. Uning fikriga ko‘ra, davlatning boyish manbai soliqlar hisoblanadi, shuning uchun u adolatli soliqlar tizimi o‘rnatilishini yoqlagan. Navoiyning asarlarida davlat moliyasiga ham anchagina katta o‘rin ajratilgan.

Markaziy Osiyo iqtisodiy tafakkuri tarixidan, shuningdek, Abdurahmon Jomiy (1414 – 1492), Zahiriddin Muhammad Bobur (1483 – 1530)- Mirzo Bedil (1644 – 1721), Davlatmamed Ozodiy (1700 – 1760), Mahtumquli (1733 – 1782) va boshqalarning asarlari o‘rin olgan.

### **Qisqacha xulosalar**

Demak, inson umuman, mehnat tufayli yuzaga kelgan, hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan. Mehnat unga keng fikr yuritish qobiliyatini, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarni baxshida etdi.

Iqtisodiyot nazariyasi insoniyat jamiyatini o‘rganishda dastlabki–muhim asosdan kelib chiqadi, bu demak, inson bir vaqtning o‘zida iqtisodiy boyliklarni ham ishlab chiqaruvchi, ham iste‘mol qiluvchi hisoblanadi.

Shuning uchun ham inson modeli iqtisod nazariyasida quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

– birinchi yo‘nalish doirasida, inson xudbin–moddiy boylikka, pulga qiziqadi;

– ikkinchi yo‘nalishda, inson faqat boyliklarga emas, balki aniq psixologik xarakterga ega elementlarga, ya‘ni rahmdillikka, obro‘–e‘tiborga, bo‘sh vaqtdan unumli foydalanishga intiladi;

– uchinchi yo‘nalish – shaxsning ma‘naviy, ruhiy, madaniy ehtiyojini o‘z ichiga oladi, jahon taraqqiyoti to‘g‘risida axborot olish va hokazolar shular jumlasidan;

– to‘rtinchi yo‘nalish–bu individlarning iqtisodiy xulqini, vazifalarining ikki yoqlamaligini, shaxsiy farovonlikka intilishini aniqlashdir.

## **Asosiy tushunchalar**

Mehnatga rag'bat.

Mehnatdan uzoqlashish.

Ratsional iqtisodiy xulq.

## **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

Insonning tirik mavjudot sifatida paydo bo'lishi?

Inson hayotining iqtisodiy va ijtimoiy, moddiy va ma'naviy tomonlari.

Nima uchun inson mehnat qiladi?

## **Mustaqil o'qish uchun savollar**

Inson va iqtisodiyot, «iqtisodiy inson» atamalari qanday ma'noni anglatadi?

Inson qanday paydo bo'lgan?

## **2 BOB. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING RIVOJLANISHI, UNING PREDMETI VA BILISH USULLARI**

*Iqtisodiyot nazariyasi jamiyatga ishonmaydigan dunyo qarashni taklif qilmaydi, bu yerda barcha bor omillar teng o'lchamda hisobga olinadi. Aksincha, iqtisodiyotga xos ong keng doiradagi imkoniyatlardan faqat keragini olib, qolganlarining barchasini olib tashlaydilar.*

*Avvalambor iqtisodiyot nazariyasi e'tiborni kishilar qanday qilib tanlov qilishiga qaratadi. Iqtisodiyot nazariyasida tanlov juda ham ahamiyatli o'rinni egallaydi, ya'ni ba'zilar uni shunday tanqid qiladi, hatto kambag'allik va ishsizlikni u kishilarning xoxishicha tanlab olingan natijasi sifatida ta'kidlanadi.*

*Pol Xeyne*

Iqtisodiyot ko'p ma'noli, serqirrali, ko'p qiyofali va murakkab tushunchadir. Uning mazmun, vazifalari jamiyatning rivojlanishi hamda taraqqiyot jarayonida aniq ma'lum bo'lgan va boyitilgan, ya'ni iqtisodiyot fani darhol tayyor va tugallangan shaklda paydo bo'lmagan, u uzoq davrlar ichida ilmiy izlanishlar natijasi bo'lib, yana ham uzoq davrga davom etadigan uchinchi mingyillikda axborot-innovatsiya iqtisodiyotiga intiladigan va erishiladigan fandır. Aynan shuningdek, darsligimizning boshlanishida iqtisodiyotning asosiy rivojlanish davrlari va bosqichlari bilan tanishib chiqamiz.

### **2.1. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishi.**

Iqtisodiy bilimlar insoniyat jamiyati bilan bir vaqtda paydo bo'lgan. Biz bu fan to'g'risidagi birinchi yozuv guvohlarini uzoq antik davridagi sharq davlatlari (Misr, Babil, Hindiston, Xitoy, Karfagen va boshqalarda) dan topamiz.

Shunday qilib, qadimgi Babil podshohligi ostida podshoh Xammurapi (bizning eramizgacha bo'lgan XVIII asrda) qonuni harakat qilgan, bu yerda ssuda foizining yuqori pog'onasi o'rnatilgan bo'lib, qul qarzining vaqti uch yil bilan chegaralangan, ishni sifatsiz bajargani va boshqalar uchun jarima va badal tizimi amalda bo'lgan. «Manu qonunida» (Hindiston, VI asr b.er.) mulkiy munosabatlar reglament qilingan. Qadimgi Xitoy faylasufi Konfutsiy (VI – V asr) qul egalari va qullar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga o'zining qarashini ifoda etgan. O'sha vaqtda qadimgi Xitoyda oqimlar ham paydo



bo‘lib, bu bilimni Yevropa ilmiy tadqiqotchilari legizm deb atashgan. Legistlar (qonunchilar) har bir kishining va dunyoning yaxshilanish qonunlarining qabul qilinishiga olib kedadi, deb hisoblaganlar.

Ammo iqtisodiy dunyoqarashning ilmiy qiyofasi antik davrda qadimgi Gretsiya va Rimda yuzaga keldi. Bu yerda birinchi marotaba umumfalsafiy bilim doirasida ijtimoiy-iqtisodiy nazariyalar ishlab chiqilgan, hamda alfavit xati bilan yozilgan, ilmiy izlanish ishlari paydo bo‘lgan edi: Gretsiya faylasuflari Ksenofont (V – IV asr b.er.), Aflotun (V – IV asr b.er.) va asosan, Aflotunning o‘quvchisi Arastu (IV asr b.er.) birinchi iqtisodiyotchi olimlar bo‘lib hisoblanadilar. Ksenofont mehnat taqsimoti muammolari bilan shug‘ullangan va bu yerda u rahbarlarning va ijrochilarning mehnatini ajrata olgan. Aflotun davlat tuzilishining ideal modelini, ya’ni mamlakatni faqat faylasuflar boshqarish shartini ishlab chiqqan. Arastuning ta’limoti qadimgi Gretsiyada falsafa va ijtimoiy-iqtisodiy fikrlarning yuqori nuqtasi hisoblangan. U birinchi marotaba tovarning ikki xususiyatini – iste’mol va almashuv qiymatini o‘rnatgan, pulning funksiyalari hamda ularning kapitalga aylanishini aytgan.

Arastu boylikning ikki turini ajratgan:

a) Narsalar boyligi. Iste’molchilar uchun foydali hamda tabiiy xarakterga ega va ehtiyojlar bilan cheklanganligi, uning asosiy manbasi-qullarning mehnatga asoslangan, natural xo‘jalik bo‘lgan, Arastu bunday xo‘jalik tizimini iqtisodiy tejash, yoki iqtisod deb atagan.

b) Pullar boyligi. Bu fan tarixida birinchi marotaba kapitalni tahlil qilishga urinish bo‘lgan. Arastu tomonidan kiritilgan «Xrematistika» atamasi, boylik orttirish san’atini bildirgan, ya’ni foyda chiqarishni yo‘naltirilgan faoliyat, ayniqsa, pul shaklida jamg‘aradigan boylik, deb aytgan. Bunday xo‘jalik yuritish usuli Arastu tomonidan ayiblangan, sababi u pul qilish, uni ko‘paytirish san’ati ahloqsizlik deb hisoblagan: bu odamlarda cheksiz boy bo‘lish uchun oxirgi maqsad xohishini tug‘diradi, deb hisoblagan.

O‘sha vaqtda foydalanilgan «Iqtisodiy tejash» va «iqtisodiyot» so‘zlari uy ishi, oila va shaxsiy xo‘jalikni boshqarishni bildirgan. Xatto, XVII asrda iqtisodiy tejash butunlay uyni yaxshi boshqarish san’ati va ahvoli bilan shug‘ullanishni ifoda etgan. Misol tariqasida, jentelmen o‘ziga mos ayolni (xotinni) qanday tanlab olishi bilan, va hokazo.

Uch yuz yillik oqimida (XVII – XIX asrlarda) iqtisodiyot fani siyosiy iqtisodiyot nomi bilan rivojlangan. Birinchi marotaba ushbu atamani Antuan Monkreten, Ser de Vattevil (1575 – 1622) ishlatgan. Uning «Siyosiy iqtisod traktati» nomidagi asari 1615 yilda nashr etilgan. A.Monkreten barcha fikrini butunlay millat xo‘jaligining gullab-yashnashiga qaratgan, shuning uchun

iqtisod soʻzining oldida “siyosiy” soʻzni aniqlashni qoʻygan. Bu uchta qadimgi greklar soʻzining ifodasi: «siyosiy»-jamiyat tizimi, «oykos»-uy xoʻjaligi va «nomos»-qonun, yaʼni siyosiy iqtisod bu jamiyat xoʻjaligini boshqarish qonuni toʻgʻrisidagi fan. XIX asrning oxiridan boshlab AQShda va Gʻarbiy Yevropada iqtisodiyot faniga «ekonomiks» atamasi mustahkam holda kirib keldi. Sobiq ittifoq tarkibidan chiqqan milliy respublikalarda XX asrning 90-yillarigacha bu fan «siyosiy iqtisod» nomi bilan yuritildi. Hozirda mustaqil milliy davlatlarning oliy oʻquv yurtlarida bu fan «Iqtisodiyot nazariyasi» deb nomlanmoqda.

## **2.2. Iqtisodiyotning odamlar oʻrtasidagi munosabatlar tizimi**

Iqtisodiyot – hayot va faoliyatning bir sohasi sifatida, oʻz taʼrifga koʻra, odamlarning alohida, oʻziga xos munosabatlari yoki iqtisodiy munosabatlari sohasidir. Aynan odamlar, iqtisodiyotning subʼektlari sifatida, qarorlarni tayyorlaydilar va qabul qiladilar, kapitalni investitsiya qiladilar, ishlab chiqarish vositalari bilan bogʻlanadilar, tovarlarni sotadilar, daromad oladilar, soliqlarni toʻlaydilar, faoliyat samaradorligini baholaydilar, daromadlaridan oila-aʼzolarini boqish va investitsiyalar uchun foydalanadilar. Aynan iqtisodiyot subʼektlari ishlab chiqarish va mahsulotlarni almashish, ularni sotib, daromad olish yuzasidan bir-birlari bilan aloqa bogʻlaydilar, oʻz daromadlaridan toʻlovlarni oʻtkazibgina qolmay, subsidiyalar, boshqa mablagʻlar olish va hokazolar yuzasidan davlat bilan munosabatlarga kirishadilar. Iqtisodiyotdagi munosabatlar koʻrinishlari roʻyxatini yana davom ettirish mumkin.

Iqtisodiyot rivojlangani sayin iqtisodiy munosabatlar murakkablashib boradi, uning yangi qatnashchilari (subʼektlari) va munosabatlarining yangicha koʻrinishlari paydo boʻladi, mahsulotlarni va daromadlarni oʻzlashtirish esa, ana shu jarayoning yangidan-yangi qatnashchilari oʻrtasida amalga oshaveradi. Ularning orasidan, birinchidan, jamiyatning cheklangan resurslaridan maqsadga muvofiq foydalanish jarayonidagi odamlarning munosabatlari, ikkinchidan, jamiyat neʼmatlarini ishlab chiqarish, taqsimlash va isteʼmol qilish bilan bogʻlik, milliy iqtisodiyotning iqtisodiy tuzilishini belgilovchi iqtisodiy munosabatlar alohida ajralib turadi. Odamlarning iqtisodiyotdagi faoliyati institutlar (jamiyat tomonidan oʻrnatilgan meʼyorlar, tartib-qoidalar) doirasida amalga oshirilishi munosabati bilan, iqtisodiy munosabatlarni ham jamiyatning mazkur institutlari shakllanishi bilan bogʻliq holda koʻrib chiqish zarur.

Munosabatlarning ushbu turlarini bir-birini istisno qiluvchi munosabatlar sifatida talqin etish notoʻgʻri boʻladi. Iqtisodiyot subʼektlarining har biri bir

vaqtda va doimo ana shu asosiy turdagi munosabatlarga kirishadi. Iqtisodiyot sohasini tanlagan har bir tadbirkor sarf-xarajatlar va natijalarni baholabgina qolmay, bozordagi o'z o'rnini aniqlaydi, ayni vaqtda u daromadni taqsimlash yuzasidan boshqa tadbirkor bilan, mehnatga haq to'lash yuzasidan xodimlar bilan, soliq to'lash yuzasidan davlat bilan munosabatlarga kirishadi va hokazo. Munosabatlarning mazkur guruhlarini alohida munosabatlar sifatida nazariy jihatdan ko'rib chiqish zaruratini quyidagi sabablar taqozo etadi: Agar munosabatlarning birinchi turi iqtisodiyotni cheklangan resurslar sharoitida faoliyat ko'rsatish nuqtai nazaridan tasvirlasa, iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish sharoitdagi o'zaro xizmat aloqalarini yoritib bersa, ikkinchi turi boshqa muammolarni diqqat-markaziga qo'yadi. Bu ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonidagi o'zaro aloqalardir. Mazkur aloqalar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini yoki uning iqtisodiyoti tuzilishi va tarkibini tavsiflaydi. Faqat keyingi yondashuvda yaratilgan mahsulot va ishlab chiqarish omillarini taqsimlash, qayta taqsimlash muammolari, jamiyat hayoti va faoliyatining ijtimoiy oqibatlarini va sharoitlari diqqat-markazida bo'ladi.

Iqtisodiy munosabatlar nafaqat maqbul qarorning tanlanishi yoki ishlab chiqarish omillarining taqsimlanishi ta'siri ostida shakllanadi, ular ishlab chiqarishning texnologik asosi qay darajada rivojlanganligiga ham bog'liq. Shu munosabatlar orasida texnik-iqtisodiy munosabatlar ajralib turadi. Ularning o'ziga xos tomoni shundaki, bevosita talab va taklif munosabatlari yoki ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanmaydi, aksincha, ular texnika darajasiga va mavjud texnologiyalariga bog'liq. Ishlab chiqarish texnikasi taraqqiyoti va ehtiyojlarining qondirilish darajasi mehnat vositalarining mavjudligi va hokazolalar bilan belgilanadi. XXI asr boshidagi zamonaviy ishlab chiqarish nafaqat ishlab chiqarishning mashinalashgan uslublardan foydalanishga asoslangan industrial texnologiyalarni, balki ko'proq postindustrial texnologiyalarni talab qiladi. Texnologiya sohasidagi qoloqlik iqtisodiyotning barcha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazadi, maqbul qarorlarning erkinligi cheklanadi, texnika va texnologiyalarning rivojlanishi natijasidagina tizimni rivojlantirish, uni yangi holatga ko'chirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Ta'kidlab o'tilganidek, iqtisodiy munosabatlar iqtisodiyotni boshqarish ta'siri ostida o'zgaradi, natijada, tizimni izchil rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochiladi. Tashkiliy boshqaruv munosabatlari jamiyat iqtisodiy institutlarning faoliyati orqali amalga oshiriladi, tashkiliy-huquqiy tuzilmalar, muassasalar, huquqiy va boshqa me'yorlar shular jumlasidandir, ular institutsional iqtisodiyot uchun zamin hisoblanadi. Bu, demak, iqtisodiyot turli xil iqtisodiy munosabatlarining murakkab tizimidan iborat, ana shu

munosabatlarning hammasi ma'lum bir vaqtda, birgalikda mavjud bo'lib, o'zaro hamkorlik qiladi.

### **2.3. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti**

Har qanday fanning vazifasi kechayotgan jarayonlarni, dalillarni tahlil qilishdan, ichki o'zaro aloqalarini ochib borishdan, hodisalarni o'zgarish qonuniyatlari va tamoyillarini aniqlashdan iborat. Iqtisodiyot nazariyasi ham bundan mustasno emas. Iqtisodiyot nazariyasining butun tarixiy bosib o'tayotgan yo'li jamiyat iqtisodiyot hayotini yaxlit, izchil tahlil qilish, rivojlanish tamoyillarini tafsiflash, tushuntirish va oldindan ko'ra bilishga, iqtisodiyot hayot qonuniyatlarini aniqlashga, eng maqbul iqtisodiy qarorlarning usullarini asoslashga intilish yo'li bo'lganini ko'rsatadi.

Iqtisodiyot nazariyasi, boshqa ijtimoiy fanlar kabi tabiiy fanlardan farq qiluvchi bir qator xususiyatga ega, birinchidan, iqtisodiyot nazariyasi odamlarning faoliyati bilan bog'liq, shu tufayli ijtimoiy fan hisoblanadi, tabiiy fanlardan farqli ravishda odamlarning irodasi va ongida bevosita ifodalanmagan hodisa va jarayonlarini o'rganadi. Ikkinchidan, iqtisodiy xatti-harakatlar, ya'ni iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy manfaatlar va mafkura bilan uzviy bog'liq. Bu iqtisodiyot nazariyasi oldiga boshqa ijtimoiy fanlar va ilm sohalariga: jamiyatshunoslik, siyosatshunoslik, tarix va hokazolarga muntazam murojaat etib turish vazifasini qo'yadi. Uchinchidan, iqtisodiyot nazariyasi odamlarning iqtisodiy manfaatlari bilan uzviy bog'liqligi sababli, iqtisodiyot nazariyasini shunchaki maqsadga muvofiq iqtisodiy qarorlarning o'zi emas, jamiyat ishlab chiqargan mahsulotlar va ne'matlar ijtimoiy adolatli taqsimlanishini hisobga olib, ana shu qarorlarni amalga oshirish zarurati ham qiziqtiradi.

Jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar iqtisodiyot nazariyasining predmeti hisoblanadi.

Iqtisodiy munosabatlar jamiyatda yaxlit bir tizimni tashkil etishi sababli iqtisodiyot nazariyasi fanning boshqacha ta'rifi ham bor.

Iqtisodiyot nazariyasi – bu jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar tizimi haqidagi fandır.

Iqtisodiyot nazariyasi, iqtisodiy munosabatlarni tahlil qilar ekan, quydagi bir qator asosiy savollarga javob berishi kerak:

- Iqtisodiy tizimning o'zi nima, uning tuzilishi qanday, uning asosiy tarkibiy qismlari, maqsadlari va harakat usullari nimalardan iborat?;

•Iqtisodiy tizim qanday faoliyat yuritadi, faoliyat jarayonida uning qismlari o‘zaro aloqasi qanday faoliyat yuritadi, faoliyat jarayonida iqtisodiy qarorning qabul qilinishiga qanday ta’sir o‘tkazadi?;

•Iqtisodiy munosabatlar tizimi jamiyatdagi boshqa maunosabatlar bilan, avvalambor, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar bilan qanday hamkorlik qiladi?

Iqtisodiyot nazariyasi real iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishga tayanib, ham butun iqtisodiyotga nisbatan, ham muayyan vazifalarga nisbatan qo‘llaniladigan samarali qarorlar qabul qilinishi uchun zamin yaratadi. Ushbu qarorlarning qabul qilinishi birinchi navbatda, ob’ektning, ya’ni uning mazmun-mohiyatini atroflicha o‘rganishni tahmin etishi bois, iqtisodiyot nazariyasining boshlang‘ich vazifasi – iqtisodiyot tizimining mazmuni va tarkibiy tuzilishini aniqlashdan iborat. Tizimni, uning xususiyatlarini tushunibgina to‘g‘ri iqtisodiy qarorlar qabul qilish, to‘g‘ri iqtisodiy to‘xtamga kelish mumkin.

Iqtisodiyot tizimining murakkabligi bois iqtisodiyot nazariyasi hozirgi sharoitda yo‘nalishlar va maktablar majmui holida taqdim etiladi. Ammo, iqtisodiyot tahlilida turli uslubiy yondashuvlar mavjud bo‘lishiga qaramay, hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining anchagina puxta tuzilishi shakllangan.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining tarkibiy qismlari va alohida qismlari, bevosita predmeti quydagi eng muhim ikki jarayon bayonida to‘g‘ri aniqlanishi mumkin:

1. Iqtisodiyot nazariyasi jamiyat bilan birgalikda rivojlanadi – iqtisodiyot va iqtisodiyotga nazariy qarashlar real iqtisodiy munosabatlar rivojlangani sayin rivoj topib boradi.

2. Iqtisodiy munosabatlarning murakkablashib borishi, iqtisodiy tizimlarning yangi modellari paydo bo‘lishi muqarar ravishda iqtisodiyot nazariyasining tabaqalanishiga, yangi yo‘nalishlar va maktablar paydo bo‘lishiga olib keladi.

Shu bilan birga, hozirgi kunda iqtisodiyot nazariyasi fanining predmetini aniqlashda quydagilarni ifodalash maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Iqtisodiyot nazariyasi sohasidagi g‘oyalarning boyligi va xilma-xilligi, oqimlari va harxil yo‘nalishlar hozirgi zamon darajasi tasvirida bu fanning predmetini alohida ajratib ko‘rsatishga ijozat beradi. Iqtisodiyot nazariyasi fanning predmetini ifodalashda biz harxil muammolarni va maktablarni bir-biriga qarshi qo‘ymaslikdan kelib chiqamiz, axir bularning har biri iqtisodiyotda harxil momentlarga urg‘u berganlar va beradilar. *Misol* tariqasida iqtisodiyotning uzoq davrda (klassiklar) va qisqa davrda

(keyneschilar) rivojlanish dinamikasini ko‘rib chiqadilar. Bizning vazifamiz – harxil iqtisodiy konsepsiyalarda nima bor, barcha yaxshisini olamiz, haqiqiy urg‘u bo‘ladi va uni iqtisodiyot nazariyasini o‘rganishda qo‘llash lozimdir.

Iqtisodiyot fani rivojlanish davrida uning predmeti ham o‘zgargan. Biz endi bilamizki, qadimgi zamondan boshlab to XVII asrgacha Arastu tali‘motiga binoan iqtidiyot uy xo‘jaligi xususiyatini o‘rgangan.

A. Monkreten uni jamiyat xo‘jaligini boshqaruvchi qonun to‘g‘risidagi fan sifatida ifoda etgan. Ammo ko‘p yillar mabaynida uning predmeti xalqlar boyligi deb atalgan, bu to‘g‘rida XVIII – XIX asrlardagi iqtisodchilar asarlarining nomlari guvohlik berib turibdi (*misol*: A.Smitning «Xalqlarning boy bo‘lish tabiyati va sabablari to‘g‘risidagi tadqiqot» asari keyinchalik «Xalqlar boyligi» shunday nomlangan). Sobiq ittifoq tizimida o‘qitilgan Markscha tushunchadagi **siyosiy iqtisod** – bu fan kishilar o‘rtasida moddiy ne‘matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va nihoyat iste‘mol qilish jarayonida jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari bilan bog‘liq holda yuz beradigan iqtisodiy (ishlab chiqarish) munosabatlarning yig‘indisini o‘rgatadi. Ishlab chiqarish kuchlari deganda mehnat (mehnat vositalari va predmetlari) hamda kishilar, ularning qo‘lidan keladigan ishi va bilimlari tushuniladi. Mehnat predmeti – bu odamlarning faoliyati nimaga yo‘naltirilganligi (xom ashyo, materiallar, tabiiy resurslar va boshqalar), mehnat vositalari esa, bu odamlar nimaning yordami bilan mehnat predmetlariga ta‘sir ko‘rsatadi (mashinalar, asbob – uskunalar, omborlar va boshqalar). Ishlab chiqarish munosabatlarining asosi – mulkiy munosabatlar hisoblanadi, ya‘ni yuqorida A.Smit aytgan boylik to‘g‘risidagining o‘zidir. Markscha sobiq ittifoq iqtisodchilarning ko‘pdan-ko‘p qismi iqtisodiyot nazariyasini keng ma‘noda ishlab chiqarishni, taqsimlashni, ayriboshlashni va nihoyat iste‘mol qilishni boshqarish qonuniyati to‘g‘risidagi fan sifatida talqin qildilar.

Hozirgi zamon ko‘pchilik darsliklarida iqtisodiyot nazariyasi predmeti sifatida kishilar iqtisodiy xulqi ko‘rib chiqilmoqda. Endi K.R.Makkonnel va S.L.Bryu «Ekonomiks» kitobining mualliflari, bu fan kishilarning boyliklarini va xizmatlarini cheklangan resurslar dunyosida ishlab chiqarish, taqsimlash va nihoyat iste‘mol qilish jarayoni yuz beradigan iqtisodiy xulqini izlaydi, deb hisoblaydilar. Ya‘ni, agarda markschilar iqtisodiy munosabatlarni ob‘ekt nuqtai nazardan (ishlab chiqarish vositalari va iste‘mol qilish predmeti), ya‘ni, faqat moddiy ishlab chiqarish sohasini ko‘rib chiqsalar, unda neoklassik sintez vakillari – bu yerda moddiy sohalarni, ham, nomoddiy sohalarni ham ularning sub‘ekti –inson nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadilar. Shu bilan bizning fikrimiz bo‘yicha, iqtisodiyot nazariyasi fanining predmetini ifodalashda harxil maktablar sintezini ko‘rib chiqish zarurdir. O‘ylaymizki, Markscha iqtisodiyot

nazariyasi fanining predmetini umuman, har tomonlama ifodalaganda moddiy ishlab chiqarish birlamchi hamda ishlab chiqarish munosabatlarning ob'ekti va sub'ekti ham asosiy rol o'ynaydi.

Shunday qilib, iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti bu moddiy boyliklar va cheklangan resurslar birgalikda ulardan samarali foydalanishdagi ishlab chiqarish munosabatlari tizimidir. Bu fan – ishlab chiqarish sifatida ham, iste'molchi sifatida ham kishilar xulqi va munosabatlarni o'rgatadi.

Iqtisodiyot, jamiyat fuqoralarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida zaruriy mahsulot, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish nima, qanday va kim uchun? chiqarishni hal qilishni o'rgatadi. Ko'rib turibmizki, hozirgi zamon iqtisodiyot fani nafaqat shunday boylik muammosini, balki uning shakllanish yo'lini ham o'rgatadi.

**Iqtisodiyot nazariyasiga debocha.** Dastavval, iqtisodiyotga qarashlar rivojlanmagan ijtimoiy munosabatlarni aks ettirgan, iqtisodiyot haqidagi natural xo'jalikka xos bo'lgan oddiy tasavvurlar paydo bo'la boshlagan tovar munosabatlari haqidagi ilk farazlar negizida shakllangan.

Iqtisodiyotga o'sha davrdagi qarashlar, odatda, o'zining ijtimoiy mazmuniga ko'ra anchagina keng asarlarning, ilmiy traktatlar va hokazolarning tarkibiy qismlaridan, ayrim qoidalardan iborat bo'lgan tarixning antik dunyo, quldorlik va feodalizm davri mutafakkirlarning nazariy iqtisodiy hayotning turli jabhalariga: jamiyat taraqqiyotining shakllari va manbalariga; jamiyat turli sohalarining roliga; pul, pul muomalasi ilk shakllari va kapitalning ilk shakllariga; adolat va iqtisodiy faoliyatning ma'nosiga va hokazolarga qaratilgan.

Iqtisodiy qarashlar o'rtasidagi natural farq va pul xo'jaligiga munosabat bilan belgilangan. Urush, tobe aholidan o'lpon undirish natural xo'jalikni himoya qilish boylik manbai hisoblanadi, deguvchi tasavvurlar (Ksenofont, Aflotun) pul xo'jaligini qo'llab-quvvatlovchi tasavvurlar (Solon, Perikl) bilan yonma-yon kelgan iqtisodiyotga qarashlarni tartibga solish nuqtai nazardan olganda, ana shu davrdagi Arastuning (eramizdan avvalgi 384 – 322 yillar) mulohazalari alohida e'tiborga molikdir. U boylikning ikki ko'rinishini – «iqtisodiyotni» va «xrematistikkani» alohida-alohida ajratadi. Birinchi ibora ostida Arastu boylik – bu foydali buyumlar majmui deb, ikkinchi ibora ostida u boylik – bu pul yig'ish, deb tushunadi. Ana shunday farqlash ortida natural va pul xo'jaligi xususiyatlarini umumlashtirish yotadi. Bundan tashqari Arastu fanning ikki xil yo'nalishini ajratib ko'rsatadi. Shulardan faqat xrematistikagina boylikning pul shakliga harakatni tadqiq etish bilan shug'ullangan.

Iqtisodiy tafakkur tarixning ilk davrida paydo bo'lgan iqtisodiy qarashlar rivojlanishidagi ikkinchi yo'nalish – iqtisodiy qarashlarning iqtisodiy xatti-harakatlar va chora-tadbirlarga berilgan anchagina kengroq ijtimoiy baho bilan aloqasidir. Mehnatning, boylik va qashshoqlikning roliga qarama-qarshi baho berish, adolat nuqtai nazaridan pulning rolini baholash – iqtisodiyotga qarashlarning ana shu jihatlarini u yoki bu ko'rinishida qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining hammasida uchraydi. Pul va ulgurji savdoning rivojlanishi, qaror topgan qadriyatlar va me'yorlarning inqiroziga yuz tutishi, muqarar ravishda iqtisodiyotning javob reaksiyasini keltirib chiqarishi lozim edi. Boylik va ezgulikning bir-biri bilan chiqishmasligi haqidagi (Aflotun), pul boylikning «notabiiyligi» haqidagi (Arastu), «boylik bu kambag'allarni tunashning o'zginasi» ekanligi haqidagi (Avgustin) g'oyalar o'rnini bozor xo'jaligi rivojlanganligi sayin «adolatli narxini», «adolatli almashinuvini» izlanish (Foma Akvinskiy) egallay boshlagan. O'rta asr sharoitida (kanonistlarning iqtisodiy qarashlari) iqtisodiy xatti-harakatlarini ahloq va adolatning xristiancha me'yorlari nuqtai nazaridan baholash, aslini olganda, iqtisodiy qarashlarning shakllanishida asosiy mezonga aylanadi.

Shunday qilib, iqtisodiyot nazariyasi tarixining ilk davrida iqtisodiy qarashlarning ikki jihati yaqqol kuzga tashlanadi. Bir jihatdan bu iqtisodiy kategoriyalar (tushunchalar) real mazmunning tahlili bo'lsa, ikkinchi jihati – iqtisodiy qarashlar va tushunchalar jamiyati ijtimoiy hayoti bilan uzviy aloqasidir.

#### **2.4. Iqtisodiyot nazariyasi ilmiy tizimining qaror topishi**

Asli iqtisodiyot nazariyasining asosi – fanning merkantilistlardan tortib D.Rikardogacha bo'lgan iqtisodiy kategoriyalar va qonunlari tizimidan tarkib chopadi.

Mazkur davrning barcha bosqichlariga iqtisodiyot nazariyasining rivojlanishi bozorga asoslangan kapitalistik tizim qiyofasining nazariy jihatdan tiklash bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Ana shu tizim qaror topib ijtimoiy munosabatlar murakkablashib borgani sayin yaxlit nazariyasi tiklash g'oyasi ko'proq e'tirof qilinibgina qolmay, haqiqiy qiyofasini kasb etib boradi.

**Merkantilizm** (XVI-XVII asrlar) ilk rivojlagan merkantelizmdan yoki tizim balansidan davomli tadrijiy rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Barcha bosqichlarda merkantilizm umumiy alomatlariga ega edi: pulga boylikning eng oliy ko'rinishi deb, boylikning ko'paytirilishiga esa, tashqi savdo natijasida mamlakatga olib kiriladigan pullarning ko'payishi, deb qaralgan (A. Serra, U.Stafford, T.Man, A.Monkreten). Kech merkantilizm va kapitalizmning qaror topish davri buyuk iqtisodchisi-statisti Uilyam Pettining (1623 – 1687)



ilk asarlarida ham ushbu qoidalar o‘rin olgan. **I.T.Pososhkov**<sup>35</sup> (1652 – 1726) merkantilizmning Rossiyadagi eng yirik vakillaridan biri bo‘lgan, vaholanki, u boylikning ichki manbalariga ham katta e‘tibor bergan.

Muomala sohasiga imtiyoz berish, ishlab chiqarishga, tashqi savdoda pul boyligini ko‘paytirishning omillaridan biri, deb qarash merkantilistlarning eng muhim uslubi nuqtai nazaridir. Faqat U.Pettigina muomala jarayonining ishlab chiqarish bilan aloqasi haqidagi boylikning faqat pul bilan bog‘liq emasligi haqidagi masalani ongli ravishda, ochiq-oydin o‘rtaga qo‘ydi. Aynan u yer va mehnatning boylik manbalari deb e‘lon qildi, daromad va boylikning o‘rishini aholi soni o‘rishining vositasi sifatida ko‘ra bildi. U.Pettining iqtisodiyot nazariyasi tizimining qaror topishiga qo‘shgan hissasi shundan iboratki, u birinchi bo‘lib boylik, daromadlarning tashqi ko‘rinishlari ortida ularning o‘zaro ichki aloqalarini ko‘ra oldi, buni nazariy jihatidan asoslab berdi.

**Fiziokratlar Fransua Kene** (1694 – 1774), **Ann Rober Jak Tyurgo** (1727 – 1781) jamiyat iqtisodiyotining tuzilishiga nisbatan qarashlar yaxlit tizimini yaratishdi, bunda ular jamiyat hayotining asosini dexqonchilik tashkil etadi, degan fikrdan kelib chiqdilar. Boylikning asosiy manbalarini muomala sohasida izlashdan uzil-kesil voz kechilganligi, jamoat ishlab chiqarishi va uning kategoriyalarini maxsus tahlili – ularning eng katta xizmatlaridir. Iqtisodiy tafakkur tarixiga mavjud jamoat qayta ishlab chiqarishi harakatining modelini yaratishga birinchi urinish ham ana shu fiziokratlar tomonidan amalga oshirilgan. Fiziokratlarning ana shu va boshqa ilmiy xizmatlari keyingi iqtisodiy tafakkurga va iqtisodiyot nazariyasining buyuk tartibga soluvchisi **Adam Smitning** (1728 – 1790) ijodiga ulkan ta‘sir o‘tkazdi. Adam Smit fiziokratlarning tarixiy xizmatini e‘tirof etar ekan, ular ta‘limotlarining «har tomonlama olib qaraganda, naqadar olijanob va xolis bo‘lsa, shu darajada haqqoniydir», deb ta‘kidlaydi.

Iqtisodiyot nazariyasi tizimining chinakam kamol topishi **Adam Smit** va **David Rikardolarning** (1772 – 1823) nomi va kapitalizmning G‘arbiy Yevropada uzil-kesil g‘alaba qozonishi bilan bog‘liq. A.Smitning tarixiy xizmati erkin bozor xo‘jaligi qonuniyatlarini himoya qilishdan, iqtisodiy erkinlikdan, jamiyat iqtisodiyotining tuzilishiga doir qarashlar tizimini qiymatning mehnat nazariyasi tamoillaridan kelib chiqib nazariy asoslashdan, faoliyat sohasidan qat‘iy nazar, mehnat unumdorligini aniqlashdan iborat.

A. Smit qiymatning mehnat nazariyasiga asoslanib, qator qarama-qarshi qoidalar mavjud bo‘lishiga qaramay, kapitalizm va bozor xo‘jaligi, foyda, ish haqi, renta va daromad tabiatga doir yagona qarashni yaratdi. Manufaktura

---

<sup>35</sup> Посошков И.Т. Книга о скудости и богатстве: монография. М.: Директ-Медиа, 2007

davrining iqtisodchisi sifatida u mehnat taqsimotiga katta ahamiyat berdi, unumdorlikning o'sishiga ta'sir o'tkazuvchi tub omillarni aniqladi. Iqtisodiy erkinlikning sobitqadam himoyachisi bo'lmish A.Smit o'sha davrning jamiki ijtimoiy fikridan ancha ilgari ketdi, u tabiiy qonuniyatlar g'oyasini himoya qiladi, shu qonuniyatlar orasidan «ko'zga ko'rinmaydigan qo'l» – raqobat erkinligi tamoyiliga alohida ahamiyat berdi.

D.Rikardo kapitalizm taraqqiyotining birmuncha keyingi davri ziddiyatlarini aniqroq ko'ra oldi. Uning ilmiy tizimi uch asosiy natija: renta va foyda, foyda va ish haqi qarama-qashiliklarini izohlash hamda buning oqibati sifatida taqsimotning oldingi o'ringa chiqishi; qiymatning mehnat nazariyasi va tizimga yangi yondashuvning nihoyasiga yetishi; sifat tahlilining miqdor tahlili bilan bog'lanishi shulardan kelib chiqadi. Renta nazariyasining, pullar miqdor nazariyasining, xalqaro savdo-sotiqda nisbiy sarf-xarajatlar tamoyilining va boshqa qator qoidalarining ishlab chiqilishi D.Rikardoning tarixiy xizmatlari sirasiga kiradi. Ana shu qoidalardan hali ham iqtisodiyot fanida u yoki bu darajada foydalaniladi.

D.Rikardoning ijodini yana bir diqqatga sazovor tomoni shundaki, u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tahlili – iqtisodiyot nazariyasi fanining tarkibiy qismidir, deb ochiq-oydin e'lon qilgan. D.Rikardo tadqiqotlarining mazkur yo'nalishi – iqtisodiyotga ijtimoiy jarayonlar nuqtai nazaridan qarash – iqtisodiy tafakkurning muhim bosqichidir. Agar o'rta asr mutafakkirlari uchun mazkur tamoyil ahloq-odob talablariga xristianchilik me'yorlariga muvofiqlik ko'rinishida, A.Smit uchun «ma'naviy xis-tuyg'ularga» amal qilishi tarzida namoyon bo'lgan bo'lsa, D.Rikardoning oldida mazkur masala ochiq-oydin turardi – iqtisodiyot nazariyasi ijtimoiy tengsizlikni va iqtisodiy qarama-qarshiliklarni taqsimot jarayoni bilan bog'liq holda kategoriyalari orqali izohlashi lozim edi. Shunday qilib, D.Rikardo tub ma'nosini nazarda tutib aytganda, ijtimoiy-iqtisodiy nazariyasining asoschilaridan biri edi.

Iqtisodiyot nazariyasining rivojlanish nuqtai nazaridan olib qaraganda, D. Rikardo merosi tevaragidagi kurash sabablari tushunarli bo'ladi. **J.Mill** foyda va ish xaqi o'rtasidagi qarama-qarshilikni rad etgan, **J.Mak-Kullox** qiymatning mehnat nazariyasini uloqtirib tashlab, **J.B.Seyning** ishlab chiqarish omillari nazariyasining deyarlik qayta tikladi. **N.Senior** esa, «tiyilish nazariyasi» ni taqsimotning asosi sifatida ilgari surdi.

Shunday qilib, XIX asrning o'rtalariga kelib barchaga ayon bo'lgan haqiqat-iqtisodiyot nazariyasi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tushuntirishi lozimligi to'g'risidagi haqiqat o'zining bilvosita tasdig'ini topdi. Shu davrdan e'tiboran mazkur yo'nalish fan tarixida iqtisodiyot nazariyasining eng muhim yo'nalishi sifatida aniq qiyofasini kasb etdi.

## 2.5. Iqtisodiyot nazariyasi asosiy yo‘nalishlarining shakllanishi va ularning tadrijiy rivojlanishi

Iqtisodiyot nazariyasining XIX asrga kelib keskinlashgan kapitalistik tizim ziddiyatlariga reaksiyasi ikki yoqlama edi: iqtisodiyot nazariyasi rolini jamiyat sinflaridan birining manfaatlarini himoya qilishdan iborat qilib qo‘yish bilan bir qatorda, ijtimoiy munosabatlar va jamiyat ziddiyatlari sohasiga e‘tibor berishdan umuman voz kechishga, iqtisodiyotning faoliyatinigina nazariyaning diqqat-markaziga aylantirishga intilish yaqqol namoyon bo‘ldi. Shulardan kelib chiqib, iqtisodiyot nazariyasining ikki yo‘nalishi aniq belgilandi.

Ijtimoiy munosabatlarni diqqat-e‘tibor markaziga qo‘ygan birinchi yo‘nalish doirasida J.Sismondining tadqiqotlarini va markistik yo‘nalishini ajratib ko‘rsatish lozim.

**Jan Sismondi** (1773 – 1742) kapitalizm ziddiyatlarini keskin tanqid qilgan, yirik kapitalga qarshi bo‘lgan, mayda kapitalistik ishlab chiqarishni yoqlagan. Ayni vaqtda u kapitalizmni rivojlantirish zamirida, ana shu rivojlantirish jarayonida, jamiyat manfaatlarini muvofiqlashtirish imkoniyatlarini asoslab berishga harakat qilgan. Buni u kapitalizm ziddiyatlarini hal etishning birdan-bir usuli deb bilgan.

Kapitalizmning ijtimoiy-iqtisodiy tahlili XIX asrning markistik yo‘nalishdagi asarlarida o‘zining ilmiy asoslangan ifodasini topdi. **Karl Marksning** (1818 – 1883) iqtisodiyot tizimi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va jamiyat mazmun-mohiyatiga materialistik dunyoqarashi dialektika bilan birlashtiruvchi uslubiy tamoyillariga asoslangan. Shunday qilib, K.Marks ijtimoiy-iqtisodiy nazariya tizimini ishlab chiqdi, undan iqtisodiyot mazmun-mohiyatiga xususiy mulk mazmun-mohiyatining rivojlanishi orqali nazar tashlanadi, iqtisodiy munosabatlar tizimining o‘zi esa, xususiy mulk munosabatlarining tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. K.Marksning tizimi qiymatning mehnat nazariyasidan kelib kelib chiqib, kapitalistik jamiyatdagi ekspluatatsiya haqidagi, kapitalistlar sinfi bilan yollanma ishchilar sinfining qarama-qarshiliklari haqidagi masalani diqqat-e‘tibor markaziga qo‘ygan. Shuning uchun marksizm ta‘limoti XX asr sotsialistik inqilobi jarayonida kapitalistik tizimni boshqasiga o‘zgartirish bo‘yicha inqilobiy harakatlarning nazariy asosi hisoblanadi.

**Iqtisodiyot nazariyasi rivojlanishidagi boshqa yo‘nalish** ijtimoiy munosabatlarni emas, tovar munosabatlari tizimi faoliyatini, iqtisodiy qarorlarni qabul qilish jarayonidagi tizim elementlarining o‘zaro aloqasini

diqqat-e'tibor markaziga qo'ydi. Mazkur yo'nalish XIX asrning ikkinchi yarmida uzil-kesil shakllanib bo'ldi.

Yuqoridagi yo'nalishlarining bir-biridan ajralib ketishi bir necha sabablar bois muqarrar edi. Shulardan birinchisi XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridagi kapitalizm ziddiyatlari keskinlashgan sharoitda nazariyaning tadrijiy rivojlanishi bilan bog'liq. Iqtisod fani vakillarining bir qismi mazkur muammolardan o'zini olib qochishga, ularni fan doirasidan tashqariga chiqarib tashlashga intilar edi. Shu jihatdan olganda, **A.Marshallning** asari<sup>36</sup> nima uchun ijtimoiy-iqtisodiy nazariyadan voz kechganligini asoslab berishga bag'ishlagan, bunga u iqtisodiyot sohasidagi tadqiqotlarni, fanning amaliy xarakterga ega ekanligini, ishlab chiqarish omillarini tahlil qilish zarurligi va hakozolarni sabab sifatida keltiradi.

Iqtisodiyot nazariyasiga oid ikki yo'nalishning bir-biridan ajralishi boshqa bir ob'ektiv sabab – iqtisodiyot tadrijiy rivoji jarayonida iqtisod fani mazmun-mohiyatining rivojlanishi bilan bog'liq edi. Ana shu rivojlanish xo'jalik yuritishning ko'rinishi va iqtisodiyotning turidan qat'iy nazar, umumiy iqtisodiy qonuniyatlar va muammolar ulkan rol o'ynashini ko'rsatardi. Bundan tashqari, tabiiy fanlar, avvalambor, matematika yutuqlaridan foydalanish dalillar tahlili, umumiy iqtisodiy qonuniyatlarni va tamoyillarni tadqiq etish imkoniyatlarini keskin kengaytirib yubordi.

Iqtisodiyot nazariyasining XIX asr ikkinchi yarmiga kelib shakllanib bo'lgan ikki yo'nalishi keyinchalik murakkab tadrijiy rivojlanishni boshdan kechirdi, shu jarayon mobaynida ular muntazam bir-birlarini to'ldirdi va boyitdi. Shubhasiz, turli bosqichlarda va turli mamlakatlarda u yoki bu yo'nalishning roli va ahamiyati bir-biridan farq qilardi. Umumiy tamoyil esa, yo'nalishlarning borgan sayin ko'proq farq qilishida, iqtisodiyotning gurkirab va yuqori sur'atlarda rivojlanishida, ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishning murakkab va qarama-qarshi rivojlanishida ifodalana edi.

***Ikkinchi yo'nalish poydevori*** – cheklangan resurslardan ratsional foydalanish tahlili – iqtisodiy tafakkurning matematik yo'nalishi rivojlanishi bilan qo'yilgandi. **A.O.Kurno** (1801 – 1877), **G.Gossen** (1810 – 1858), keyinroq **U.Jevons** (1835 – 1882), **L.Valras** (1834 – 1910), **V.Pareto** (1848 – 1923), shu yo'nalishning namoyandalari edi. Mazkur yo'nalishning marjinalistlar (inglizcha marginal analysis – imkon qadar tahlil) **K.Menger** (1840 – 1921), **F.Vizer** (1851 – 1926), **O.Bem-Baverkning** (1851 – 1919) asarlari sezilarli ta'sir o'tkazdi. Ular iqtisodiy jarayonlarga sub'ektiv-

---

<sup>36</sup> Альфред Маршалл. Принципы политической экономии. В трех книгах. М.: Прогресс, 1983

psixologik yondashuvni va ratsional fe'l-atvor tamoyilini tadqiqotning birlamchi tamoyili sifatida e'lon qilishar edi.

Iqtisodiyot nazariyasining ikki yo'nalishini mikroiqtisodiyot doirasida marjinalizmning uslubiy tizimi zamirida birlashtirishga urinish fanning yangi neoklassik yo'nalishi asoschilaridan biri – **Alfred Marshall** (1842 – 1924) tomonidan amalga oshirilgan. Bu, jumladan, narx-navo mexanizmiga ikki yoqlama yondashuvda: eng yuksak naflilik nazariyasi doirasida talab tomonidan va ishlab chiqarish omillari tushunchasi orqali taklif tomonidan yondashuvda namoyon bo'ladi. Iqtisodiy tahlilga dinamikani kiritish orqali shu yo'nalishni rivojlantirilishi (**J.B. Klark** (1847 – 1938),) keyinchalik **Y.Shumpeter** (1883 – 1950) tomonidan mazkur yo'nalish iqtisodiyot tizimidagi real o'zgarishlarni vaqt va mikroiqtisodiy nuqtai nazaridan baholashga yaqinlashtirar edi. J.B.Klark asarlarida tahlilni makroiqtisodiyot muhitga ko'chirishga urinish qilib ko'rilgan, **Y.Shumpeter** asarlarida esa iqtisodiyot dinamikasi va rivojlanishining bosqichliligi tadqiqotlarning asosiy manbaiga aylangan.

Tadqiqotlar kengayib borgan sayin kapitalizmning harakati jarayonida vujudga keladigan yangi real muammolarni tobora kengroq idrok etish zarurati tug'iladi. **A.Piguning** asari<sup>37</sup> bozor xo'jaligining ijtimoiy muammolariga marjinalistik yondashuv doirasidagi reaksiyalardan biri bo'ldi. Unda, davlat daromadlarini qayta taqsimlash yo'li bilan ijtimoiy farovonlikka kuchliroq ta'sir o'tkazishi zarur, degan g'oya asoslab beriladi. **K.Vikselling** (1851 – 1926) asarlari iqtisodiyotni kredit-pul vositasida idora qilishni isloh etish zaruratiga javobdir. Kapitalistik tizimdagi o'zgarishlarga yana bir javob – bu E.Chemberlinning monopolistik raqobat nazariyasi hisoblanadi.

Hozirgi zamon iqtisodiy tafakkuri rivojiga **Jon Meynard Keynsning** (1883 – 1946) asarlari ulkan ta'sir o'tkazdi. U cheklangan resurslardan ratsional foydalanishning makroiqtisodiy nazariyasini yaratibgina qolmay, XX asr kapitalistik tizimi real qarama-qarshiliklarni inobatga olish nuqtai nazarini egalladi. U bozor kamchiliklari va ziddiyatlaridan kelib chiqib, samarali talabni yaratish vositasida davlat hozirgi zamon iqtisodiyotini boshqarishi zarurligini asoslab berdi. Shunday qilib, J.Keyns davlatning hozirgi zamon iqtisodiy siyosati uchun zamin ishlab chiqdi va mazkur yo'nalish doirasida hozirgi zamon iqtisodiyot tizimiga qarashlarning yaxlit tizimini yaratdi. J.Keyns cheklangan resurslardan samarali va ratsional foydalanish nazariyasi tarafdorlarining an'anaviy tasavvurlaridan ma'lum darajada chetga chiqdi,

---

<sup>37</sup> Артур Сесил Пигу. Экономическая теория благосостояния. В двух томах. М.: Прогресс, 1985

desa bo‘ladi. U ko‘p jihatdan iqtisodiy tafakkurning qator yo‘nalishlari, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishi kesishuvida turadi. So‘nggi yo‘nalish bilan uni iqtisodiyotning real ko‘rinishlari va tizim qarama-qarshiliklari tahlili yaqinlashtiradi. Shuning uchun Keyns izdoshlari ijtimoiy islohotlarning ulkan ahamiyatini e‘tirof etib, D.Rikardo va K.Marks uslubiyatiga qayta murojaat etganliklari tasodifiy emas.

Urushdan keyingi davrda kapitalistik tizim rivojlanishdagi qarama-qarshiliklar, bozor xo‘jaligini rag‘batlantirish yo‘llarini izlanish zarurati hozirgi zamon erkinlik ta‘limotlarida o‘z ifodasini topdi. **M.Fridman** boshchiligidagi *monetaristlar* pul massasining muomaladagi roliga va uning inflyatsiya jarayonlariga ta‘sriga alohida ahamiyat beradilar: taklif iqtisodiyot tarafdorlari (A.Laffer, M.Evans va boshqalar) korporatsiyalar faoliyatini rag‘batlantirish zaruratiga alohida e‘tibor qaratishadi: *ratsional kutishlar nazariyasi* (J.Mut, R.Lukas va boshqalar) sub’ektlarning bozor xo‘jaligi voqeliklarga ko‘nikish xususiyatiga ishora qiladilar: *jamoat tanlovi nazariyasi* (J.Byukenen, M.Olson va boshqalar) davlatning iqtisodiyotini boshqarishdagi sustkashliklarni jamoat qarorlarini qabul qilishning asosi sifatida, individualizm tamoyiliga murojaat etib yengishga urinadilar.

Birinchi ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalish tarafdorlari shu davrda nafaqat iqtisodiy, shu bilan birga, siyosiy omillar bilan belgilangan murakkab tadrijiy rivojlanish yo‘lini bosib o‘tadilar. Dunyo bir-biriga qarama-qarshi ikki tizimga bo‘linganini inobatga oladigan bo‘lsak, ayrim bosqichlarda siyosiy omillar ta‘siri shu qadar jiddiy ediki, fanning mazkur yo‘nalishi xulosalariga ma‘lum o‘zgartirishlar kiritdi. Bundan tashqari, sobiq sotsialistik mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishga birdan-bir ilmiy yo‘nalish deb qaralar edi, bu bilib turib nazariyani soxtalashtirishga olib kelar edi.

Mazkur yo‘nalishning avvalgi vakillari nafaqat marksistik tafakkur, shu bilan birga, *tarixiy maktab* tarafdorlari bo‘lmish **F.List** (1789 – 1846), **V.Rosher** (1817 – 1894) **B.Gildebrand** (1812 – 1878) XIX asrning o‘rtalarida iqtisodiyot nazariyasida milliy xo‘jaliklarning xususiyatlarini aks ettirish zarurligini asoslab berishgan, iqtisodiyotga tarixan yondashish g‘oyasini iqtisodiy tizimlarni tahlil qilayotganda tarixiy va ijtimoiy-madaniy omillar hisobga olinishini himoya qilishgan XIX asrning ikkinchi yarmida yangi tarixiy maktab marjinalistik yo‘nalishidan farqli ravishda puxta tahlilga iqtisodiyot etika va psixologiyaning uzviy aloqasiga asoslanib, xo‘jalik faoliyatini tushuntirish vazifasini ongli ravishda o‘rtaga qo‘ydi. Uning vakillari **G.Shmoller** (1838 – 1917), **L.Brentano** (1844 – 1931), **Byuxer Karl** (1847 – 1930) marksizmni real omillari tahliliga yetarli darajada e‘tibor bermaslikda ayblashgan, davlatning ijtimoiy siyosatini ustalik bilan olib borish

g'oyasini himoya qilishgan, tred-yunionizm g'oyalarni targ'ib qilishgan yangi tarixiy maktab va marksizm ta'siri ostida hamda asr oxiriga kelib ijtimoiy munosabatlar keskinlashganligi natijasida diniy qadriyatlar bilan iqtisodiyotni birlashtirgan M.Veberning (1864 – 1920), «Xo'jalik ruhi» roliga va «uyushgan kapitalizm» zarurligiga alohida urg'u bergan **V.Zombart** (1863 – 1941) qarashlari keng yoyildi.

**R.Shtammler** (1856 – 1938), **F.Oppengeymer** (1864 – 1943) va boshqalar timsolidagi Germaniya *sotsialistik maktab* vakillari tarixiy maktab yutuqlaridan kelib chiqib, indiudalizm uchun marjeinalizmni, ishlab chiqarishning roliga ortiqcha baho berganligi uchun marksizm siyosiy iqtisodni tanqid qilishga urindilar. Sotsialistik maktab tarafdorlari institutlar faoliyatiga, kapitalizm ziddiyatlarini hal etishning shakli va usullariga alohida e'tibor berishgan, shuning uchun ham ular institutsionalizm o'tmishlari sifatida tanilgan kapitalizmning ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlari keskinlashuviga boshqacha bir reaksiya **E.Bernshteyn** (1850 – 1832), **K.Kautskiy** (1854 – 1938), **R.Gilferding** (1877 – 1941) timsollaridagi sotsial-demokratlarning ta'limotlarida aks etgan marksistik yo'nalishning qator qoidalarini: tarixiy taraqqiyotning bir variantligi haqidagi, kapitalizm ziddiyatlarining qator keskinlashib borishi haqidagi, qo'shimcha qiymatning tabiati haqidagi, imperializm va moliyaviy kapitalizmning tabiat haqidagi qoidalarni qayta ko'rib chiqishini yo'qlab chiqdilar. Kapitalizm ziddiyatlarini hal etishning islohotlari varianti asoslab berilishi, kapitalizmning asta-sekin o'sib o'tishi XX asr sotsial-demokratlarning qarashlarini ma'lum darajada belgiladi, iqtisodiyot nazariyasining ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishi institutsionalistlarning qator ishlarida ham aks etgan edi, ana shu yo'nalishning **T.Veblen** (1857 – 1929), **J.Kommons** (1862 – 1945), **J.Gelbreyt** kabi vakillari jamiyat institutlari, korporatsiyalar (davlat, kasaba uyushmalari, huquqiy me'yorlar va hokazolar) rolini tahlil qilishar ekan, marjinalistlar neoklassiklardan farqli o'laroq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning real ziddiyatlariga urg'u beribgina qolmay, hozirgi zamon iqtisodiyoti tizimidagi ma'lum iqtisodiy ko'rinishlar mazmunini tahlil qilishgan. Masalan, J.Gelbreytning korporatsiyalar va davlatning tabiati haqidagi xulosalari iqtisodiyot nazariyasining hozirgi jamiyat tuzilishi haqidagi tasavvurlarini juz'iy ravishda kengaytiradi.

Iqtisodiyot nazariyasi ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarining ziddiyatlarga boy qismini sobiq sotsialistik davlatlarga ishlanmalar tashkil etardi. Ana shu davlatlarda siyosiy iqtisod jamiyat hayotiga yolg'iz marksistik qarash doirasida, sotsializmning real ziddiyatlari tahlilsiz rivojlangan edi.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining tarkibiy qismlari iqtisodiyot nazariyasi murakkab tadrijiy rivojlanish yo'lini bosib o'tib, ko'pgina

yo‘nalishlar va maktablarga bo‘linib, yondashuvlardagi, bevosita predmetdagi, iqtisodiy tizimlar tahlilining xususiyatlaridagi jiddiy farqni o‘zida turg‘un aks ettirib keldi. Natijada, bir tomondan, cheklangan resurslardan foydalanish jarayonida iqtisodiy tizimlar faoliyatining keng tahlili shakllandi, ikkinchi tomondan, iqtisodiyotning o‘z real ko‘rinishlaridagi, jamiyatning boshqa munosabatlari va institutlari bilan mustahkam aloqadagi ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi hamda mazmun-mohiyatining tahlili shakllanadi. Institutsional iqtisodiyotning o‘z chegaralari va predmeti tobora yaqqol namoyon bo‘lib bormoqda. Iqtisodiyot nazariyasining bugungi tarkibiy tuzilishi – bu, birinchidan, iqtisodiyotning oddiydan aralash tipdagi murakkab iqtisodiy tizimlargacha bo‘lgan rivojlanishi natijasidir. Ikkinchidan, bu milliy iqtisodiyotlarning murakkablashib borishi, modellarining rang-barangligi natijasidir. Uchinchidan, hozirgi zamon nazariyasi – fan uslublarining rivojlanishi natijasidir. XIX asrning oxiriga kelib, sifat va miqdor uslublarining butun bir majmui vujudga keldi, ular fan imkoniyatlarini jiddiy ravishda kengaytirdi. Iqtisodiyot nazariyasining ob‘ekti va predmeti serqirra ekanligi, iqtisodiyotni faqat bir yondashuv, bir usludan kelib chiqib tavsiflashga urinish samarasiz va istiqbolsiz ekanligi tobora ayon bo‘lib bormoqda.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasi – bu umumiy predmet – iqtisodiy munosabatlar bilan bog‘liq iqtisodiy fanlar tizimidir. Ayni vaqtda iqtisodiyot nazariyasining har bir tarkibiy qismi o‘zining bevosita predmetiga ega.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining asosiy tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Cheklangan resurslardan ratsional (samarali) foydalanish nazariyasi.
2. Iqtisodiy munosabatlarning mikrodarajadagi (mikroiqtisodiyot) va makrodarajadagi (makroiqtisodiyot) faoliyati tahlili uning bevosita predmeti hisoblanadi.
3. Ijtimoiy-iqtisodiy nazariya. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida, iqtisodiy va ijtimoiy mazmun-mohiyat birligidagi milliy iqtisodiyot tahlili, iqtisodiy tizim va iqtisodiyotning muayyan modellari tahlili uning bevosita predmetlari hisoblanadi.
4. Institutsional iqtisodiyot nazariyasi. U iqtisodiy tizim mazmun-mohiyatini iqtisodiy va boshqa institutlarning o‘zaro aloqasi, ularning iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri orqali ko‘rib chiqadi.
5. Iqtisodiyot fanining rivojlanishiga nafaqat tarixan nazar tashlash, shu bilan birga, iqtisodiyotga yagona, yaxlit qarashning bo‘g‘inlari sifatida turli yondashuvlarni birlashtirishga da’vat etilgan iqtisodiyot nazariyasi tarixi alohida o‘rin tutadi.



Iqtisodiyot nazariyasi tarmoq, muayyan iqtisodiy muammolarni o'rganadigan ayrim iqtisodiy fanlardan farqli ravishda iqtisodiyot haqidagi umumnazariy fan hisoblanadi. Yuqoridagi fanlarning nazariy qismi ham bor, ammo u iqtisodiyot nazariyasining umumiy xulosalariga asoslanadi. Shu bilan birga, hozirgi sharoitlarda jamiyatning cheklangan resurslaridan ratsional foydalanish asoslari bayon etiladigan (Economics) ijtimoiy-iqtisodiy tuzumini, uning barcha ko'rinishlari va ziddiyatlari bilan birgalikda o'rganadigan fanlar ham iqtisodiyotni atroflicha o'rganishning nazariy bazasi hisoblanadi.

Iqtisodiyot nazariyasi turli fanlar tomonidan o'rganilishi munosabati bilan iqtisodiyot nazariyasi va uning tarkibiy qismlari nomi qanday bo'lishi kerak, degan savol tug'iladi. Ayni vaqtda Economicsning siyosiy iqtisod bilan o'zaro munosabati, ularning iqtisodiyot nazariyasining asosiy tarkibiy qismlari bilan aloqasi haqidagi masala ko'pincha bahslarga sabab bo'ladi.

Iqtisodiyot nazariyasini tashkil etuvchi fanlarning nomiga tarixni, uning jamiyat taraqqiyotining u yoki bu bosqichidagi real iqtisodiy mazmunini nazarda tutib yondashish zarur. Tarix shuni ko'rsatadiki, fanning bir xil nomi ortida ko'pincha iqtisodiyot nazariyasining qarama-qarshi yo'nalishlari, tahlilining turli mafaatlari yotgan bo'ladi.

Dastavval iqtisodiyot nazariyasi **Antuan Monkretenning** 1615 yili Ruanda chiqqan «qirol va qirolchaga bag'ishlangan siyosiy iqtisod traktati» nomidan kelib chiqib, XVII asr boshlarida «siyosiy iqtisod» nomini oldi. XX asrga kelib ijtimoiy -iqtisodiy, ishlab chiqarish tahlili bilan chatishib ketgan siyosiy iqtisod fani haqidagi hozirgi tasavvurining «siyosiy iqtisod» iborasini qo'llayotganda ekan, **A.Monkreten** nazarda tutgan tasavvurga o'xshashligi juda kam. Iqtisod fani nomida «siyosiy» so'zining paydo bo'lishi muallifning xo'jalikni mohirlik bilan boshqaribgina qolmay, davlatning milliy iqtisodiyotini tashkil etishi zarurligini ta'kidlashga intilganligi bois paydo bo'lishi o'rinli: axir grekcha «poeitike» so'zidan olingan «siyosat» atamasi davlatni boshqarish san'ati ma'nosini anglatar edida. Vaholanki, XVII asrda fanimiz nomining paydo bo'lishi uchun bundan boshqa, chuqurroq asoslar mavjud bo'lgan. **A.Monkreten** merkantilist edi, iqtisodiy tafakkur tarixidagi ana shu yo'nalish vakillari esa iqtisodiyotga yondashuvi zarur, davlat boyligini ko'paytirishga qaratilgan siyosatni davlat amalga oshirishi lozim, degan fikrda yakdil edilar. Shuning uchun ham merkantilizm davrida iqtisodiyot nazariyasining boyluk haqidagi fan sifatida nomlanishi tasodifiy emas. Merkantilizmning butun rivoji mobaynida boyluk haqidagi, davlat siyosatining chora-tadbirlari haqidagi tasavvurlar o'zgarib borganiga qaramay, iqtisod

fanini shu tarzda tushunish merkantilizm barcha yirik namoyandalarining asosiy asarlari nomida uchraydi. Masalan, T.Man<sup>38</sup>, I.T.Pososhkov<sup>39</sup> asarlari.

Taniqli vakillarning nomiga qarab fikr yuritadigan bo'lsak, iqtisod fani uzoq vaqt o'z nomiga ko'ra boylik haqidagi fan bo'lib kelgan - **P.Buagilber**<sup>40</sup>, **A.Tyurgo**<sup>41</sup>, **Adam Smit**<sup>42</sup> va hokazolar. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, mazkur asarlar nomidagi «rasmiy lavha» odamni chalg'itadi, fanning bir-biriga o'xshash nomlari ortida merkantilistlarning ham, fiziokratlarning ham (Tyurgo), klassik ingliz siyosiy iqtisodchilarning ham (Smit) g'oyalari yotadi.

Merkantilizm parchalanib, kapitalizm qaror topib borgani sayin, nafaqat muomala sohasini, ishlab chiqarish sohasini ham o'ziga tobe qilib olgan iqtisod fani ko'proq ishlab chiqarish munosabatlarini, mahsulot taqsimotining ziddiyatli xarakteri sabablarini, jamiyatning jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy qarama-qarshiliklarini tadqiq etuvchi fanga aylanib bordi. Natijada, XIX asrda «siyosiy iqtisod» nomi fanning avvalgi nomi o'rnini egalladi, iqtisodiyot nazariyasining barcha yo'nalishlari va maktablari uchun tipik bo'lib qoldi. Angliya siyosiy iqtisodi klassigi D.Rikardo, keyingi iqtisodchilar T.Maltus, J.S.Mill, J.Mak-Kullox, G.Keri, marjinalizm asoschilari K.Menger, L.Valras, U.Jevons, Germaniya sotsialistlar maktabi vakillari F.Oppengeymer, A.Amonning asarlari revolyutsiyadan avvalgi Rossiya iqtisodiy tafakkurining taniqli vakillari Ya.Jeleznov, A.I.Chuprov, M.I.Tugan-Baranovskiylarning nazariy asarlari ana shu nom ostida e'lon qilingan. Hozirgi sharoitda ham ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurning qator yo'nalishlari «siyosiy iqtisod» atamasidan tadqiqotlarning yangi predmetini – iqtisodiy o'sish va rivojlanishiga siyosatning, daromadlar taqsimoti va boshqa ijtimoiy omillarning ta'sirini belgilash uchun foydalanadilar.

Iqtisodiyot nazariyasi bugungi kunda o'z predmetini belgilash uchun turli nomlardan foydalanadi. O'quv fanlariga nisbatan olganda bu, avvalambor, cheklangan resurslardan samarali va ratsional foydalanish nazariyasining tartibga solingan tizimini taklif qiluvchi Economics kurslaridir. Fanning klassik nomi - «siyosiy iqtisod»dan ham<sup>43</sup> foydalaniladi. Nemis iqtisodiy

---

<sup>38</sup> Томас Ман. Богатство Англии во внешней торговле или баланс нашей внешней торговли, как принцип нашего богатства. (1664г.)

<sup>39</sup> Посошков И. Т. Книга о скудости и богатстве: монография. М.: Директ-Медиа, 2007

<sup>40</sup> Пьер Лепезан Буагильбер. «Рассуждения о природе богатств, денег и налогов» (1707)

<sup>41</sup> Анн Робер Жак Тюрго. Размышления о создании и распределении богатства

<sup>42</sup> Адам Смит. «Исследование о природе и причинах богатства народов». М.: Директ-Медиа, [https://biblioclub.ru/index.php?page=book\\_red&id=560822014](https://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=560822014)

<sup>43</sup> Раймон Барр. Политическая экономия: В 2-х тт.: Т. 1: Пер. с фр.- М.: Междунар. отношения, 1995.- 608 с.

maktabiga esa fanning xalq xo‘jaligi yoki iqtisod haqidagi ta’limot kabi nomlar xos<sup>44</sup>. Iqtisodiyot nazariyasining boshqacha nomlari ham mavjud.

Iqtisodiyotning o‘tish davri sharoitlarda iqtisodiyot nazariyasini tashkil etuvchi fanlarning mazmuni va nomini bir tomondan fan taraqqiyotining umumjahon tamoyillari, ikkinchi tomondan tadqiqot ob’ekti – iqtisodiyotining real o‘tish davri xususiyatlari belgilaydi. Munosabatlar bozor tizimi shakllanishining asosiy rolini inobatga olib, kursda bayon etilgan qarashlar tizimi yoki cheklangan resurslardan samarali foydalanish nazariyasi hozirgi sharoitda iqtisodiyot nazariyasining bazaviy kursiga aylanmoqda. Ammo jahon va O‘zbekiston tajribasidan kelib chiqib, iqtisodiyot nazariyasi o‘qitilishini faqat mazkur kurs bilan cheklash haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti real tizimining, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishining tahlili ham muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotning o‘tish davri sharoitlarida O‘zbekiston iqtisodiyoti tuzilishini tadqiq etish, muqarrar ravishda o‘tish davri iqtisodiyoti o‘rganilishini ham o‘z ichiga oladi.

Shu bilan birga, bularni qisqacha iqtisodiyot nazariyasi fanining asosiy maktablarini guruhlariga ajratib ko‘rib chiqish ham mumkin.

Merkantilizm (XVI – XVII asrlarda) iqtisodiyot nazariyasi fanining birinchi maktabi. Uning tomonini olgan, merkantilistlar, jamiyat boyligining manbasi savdo deb ataganlar. Ular jamiyat boyligi natural, oltin va kumush bo‘ladi deganlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanining rivojlanishida merkantilizmining ikki davrini ajratadilar:

- Ilk merkantilizm (monetarizm). U mamlakatda pulni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turishga qaratilgan edi. Chetga oltin va kumush olib chiqish man etilgandi. Bu davrdagi merkantilizmning asosiy vakillari ingliz Uilyam Stafford (1554 – 1612) bo‘lgan.

- Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin yuzaga kelgan merkantilizm (taraqqiyotning so‘nggi bosqichi faol savdo balans nazariyasi). So‘nggi merkantilizm vakillari millatning boy bo‘lish manbasi bitmas- tunganmas boylik oddiy jamg‘arishda emas, balki tashqi savdoni rivojlantirishda va faol savdo balansida (eksportning importdan ko‘p bo‘lishida)dir deyilgan. Faol savdo balans nazariyasi vakillari ichida ingliz Tomas Man (1571 – 1641), fransuz Antuan Monkretenlarni aytish mumkin. Bu vaqtda, mamlakatga pulni olib kelishning ishonchli yo‘li asosan, eksport qilinadigan tovarlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda chetga tovar chiqarishni chetdan tovar olib

---

<sup>44</sup> Зайдель Х., Теммен Р. Основы учения об экономике. Пер. С нем. - М. : "дело ЛТД". - 1994. - 400 с.

kelishdan ko'paytirishga erishish bo'lgan. Shuning uchun davlat hukumati manufakturalar hamda sanoat ishlab chiqarishni majburiy holda himoya qila boshladi.

Fiziokratlar – bular ikkinchi yirik hamda butunroq iqtisodiy ta'limot bo'lgan (grekchadan tarjima qilinsa – tabiat hukmronligi). Fiziokratlar jamiyat boyligining kelib chiqishi to'g'risidagi masalani muomala sohasidan ishlab chiqarish sohasiga o'tkazdilar, lekin buni juda ham cheklangan holda ko'rib chiqdilar: ular ishlab chiqarishga faqat shunday tarmoqlarni, ya'ni bevosita tabiat bilan bog'liq qishloq xo'jaligini va tog'li ishlab chiqarishni kirgazdilar. Shu yerdan ular jamiyatni uch sinfga bo'ldilar:

1. Yer egalari;
2. Yerdan foydalanuvchilar;
3. «Unumsiz» qolgan fuqarolar sinfi.

Fiziokratlar maktabining ayniqsa, taniqli vakili – Fransuz Kene (1694 – 1774) edi. Oldindan tibbiyot sohasida bo'lgan F.Kene iqtisodiyot tizimining o'ziga hos tirik organizm sifatida o'rgana boshlaydi: ya'ni inson tanasida qon aylanishi moddalarining almashuvi tizimini jamiyatdagi mahsulot muomalasi yo'nalishining o'zgarishiga o'xshatadi.

F.Kenening yuqori erishgan yutug'i 1757 yilda ishlab chiqqan «Iqtisodiy jadvali» bo'ldi. Bu jadvalni makroiqtisodiyot modellaridan biri, deb hisoblaydilar, ushbu jadvalda tovar va pul masalalari bosqichlarining harakati hamda ularning taqsimlanishi ko'rsatilgan. Fiziokratlar maktabining yana bir asosiy vakillari fransiyaning moliya vaziri Jak Tyurgo (1727 – 1781) bo'lgan. U birinchi bo'lib bir qancha feodalizmga qarshi mamlakatni moliyaviy sog'lomlashtirish maqsadida islohotlar o'tkazishga urinib ko'rgan edi. Fiziokratlarning nazariyasi, butunlay chegaralanganligiga qaramasdan iqtisodiyot fanining kelajakda rivojlanishining ko'p yo'llarini ifodalab berib, juda ham katta rol o'ynagan.

Ingliz klassik maktabi iqtisodiyot nazariyasi fanining rivojlanish davrlarida chuqur iz qoldirgan. Bu yerda izlanishlarning ob'ekti nafaqat qishloq xo'jaligi, balki butun moddiy ishlab chiqarish bo'ldi. Bu vaqtlarda siyosiy iqtisod bilan shug'ullanish kasb – hunar emasdi, chunki iqtisodchi kasbi hali mavjud bo'lmagandi. Ingliz klassik maktabining vakillari bo'lgan Uilyam Petti (1623 – 1687), Adam Smit (1723 – 1790), David Rikardo (1772 – 1823)lar qiymatning mehnat nazariyasi bo'yicha boshlang'ich fikrlarni bildidilar. Bu vaqtlarda siyosiy iqtisodiyot borasida universitetlarda dars olib borish boshlangan edi, u imtiyozli sinflarning yosh odamlariga majburiy

ma'lumot elementi bo'lib hisoblangan va A.S.Pushkin yozgandek, «ammo A.Smitni o'qigan hamma chuqur iqtisodchi tejamkor bo'lgan».

1776 yilda A.Smitning asosiy «Xalqlarning boy bo'lish tabiati va sababi to'g'risidagi tadqiqot» asari<sup>45</sup> XVII asrning iqtisodiyot sohasida bildirilgan fikrlar «cho'qqisi» sifatida nashr etilgan edi. A.Smit talab va taklif bilan bog'liq bo'lib, erkin narx-navo asosida shakllangan, o'z-o'zini tartibga soladigan bozor to'g'risida gapirgan. Shu bilan birga, u «ko'rinmas qo'l» qoidasini yaratadi: har bir inson ko'proq foyda olish uchun, o'zining kapitalini iste'mol qilishga intiladi, shu bilan birga, u ko'rinmas qo'li bilan, ya'ni umuman, uning uyiga kirmagan maqsadga yo'naltirilgan; aynan – jamiyat manfaatiga xizmat qiladigan, ya'ni kishilar butunlay jamiyatga kerak tovarlarni ishlab chiqarib, ko'proq shaxsiy foyda olishga intiladilar. A.Smit davlatning iqtisodiyoga minimal darajada aralashtirishni gapirgan, lekin shu bilan davlatning tartibga solish rolini aytib o'tgan. U iqtisodiyot fani tarixiga birinchi qadam qo'yuvchi sifatida kirgan va «iqtisodiyot otasi» unvoniga erishgan.

D.Rikardo – klassik maktabning atoqli vakili bo'lib, iqtisodiyot fanining nazariy asoslarini ishlab chiqishni davom ettirdi. Uning asosiy asari «Siyosiy iqtisodiyot va soliq solishning boshlanishi»<sup>46</sup> 1817 yilda yozilgan edi. Bu asarda taqsimlash konsepsiyasi, qiymat nazariyasi va daromad, pul muomalasi va kredit, soliq solish nazariyasi va amaliyoti, xalqaro iqtisodiyot munosabatlari va boshqalar ko'rib chiqilgan edi. Yer rentasi nazariyasi xalqaro mehnat taqsimoti bo'yicha D.Rikardo iqtisodiyot fanining oltin fondiga kirgan g'oyalarni aytib o'tgan. Uning solishtirma afzallik nazariyasi jahon fanida va savdosida umum tan olingan edi.

Klassik maktablar uchun iqtisodiy hodisa va jarayonlarda ilmiy abstraksiya metodlarini qo'llab, uning ichiga chuqur kirish xarakterli edi. Buning ta'limoti asosida uning qiymatining mehnat nazariyasi yetar edi. Shu bilan birga, klassik maktablar vakillari iqtisodiyotga aralashishini savdoning maksimal ravishda cheklanishi uchun chiqishganlar.

**Marksizm.** Ushbu marksizm ta'limotining asoschilari Karl Genrix Marks (1818 – 1883) hamda Fridrix Engels (1820 – 1895) bo'lganlar. K.Marksining to'rtta jilddan iborat bo'lgan asosiy asari «Kapital» XVII-XIX asrlarda kapitalizm iqtisodiyot munosabatlarining chuqur tahlil qilib bergan edi. K.Marksning ta'limotiga binoan, jamiyat rivojlanishining asosini iqtisodiyot

---

<sup>45</sup> А.СМИТ. «Исследование о природе и причинах богатства народов». М.: Директ-Медиа, [https://biblioclub.ru/index.php?page=book\\_red&id=560822014](https://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=560822014)

<sup>46</sup> Давид Рикардо. Начала политической экономии и налогового обложения. Москва : Эксмо, 2007 – 953 с.

fundamentining o'zgarishi, ya'ni bunga siyosiy hamda madaniy jihatdan to'g'ri keladigan ustqurmasini yaratadi. Ular tomonidan tarixiy jarayonlarning borishda bir-biri bilan almashib turadigan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar konsepsiyasi yaratilgan edi. K.Marksning tarixiy kashfiyotlar jumlasiga tovarlarda mujassamlangan mehnatning ikki (aniq va abstrakt mehnat) yoqlama xarakteri, sarf-xarajatlar va ishlab chiqarish narxi, qiymat qonuni va pul muomalasi qonuni, oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sharoitida takror ishlab chiqarish sxemasi, mikro va makroiqtisodiyot modeli, davlatning iqtisodiyotni tartibga solish, umuman, aralash iqtisodiyot to'g'risidagi ma'lumotlarni ifodalashga nazariy ta'siri va boshqalar, bular o'z navbatida hozirgi zamondagi bozor iqtisodiyotining yanada mustahkam rivojlanishida katta ilmiy, metodologik, amaliy qiziqish ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, K.Marks klassik maktablar vakillari tomonidan boshlangan qiymatning mehnat nazariyasining shakllanishini hamda kapitalning yollangan mehnatni ekspluatatsiya qilishni va kapitalizmni barbod etishni xulosa qilganlar. Bu uning ta'limotining tarixiy taqdirini aniqlab berdi, ya'ni aholinig keskin turgan qatlamining mafkurasiga aylantirildi hamda so'l partiyalar faoliyatining nazariy asosi bo'ldi. XIX asrda marksizm ta'limot sifatida mavjud bo'lishini davom ettirdi. Marksizm g'oyalarini butun dunyo davlatlariga tarqalishida Rossiyada narodniklar harakatiga yo'l boshchilik qilgan Pyotr Lavrovich Lavrov (1823 – 1890) va sotsial-demokratik ishchi-dehqon partiyasi asoschisi hamda o'sha davrdagi siyosat va iqtisodiyot arbobi Vladimir Ilich Ulyanov (Lenin) (1870-1924) va boshqalar bo'lganlar.

Marjinalizm yoki yuqori tahlil nazariyasi, XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi hamda rivojlana boshladi. Bu nazariya Avstriya maktabining vakillari: Karl Menger (1840 – 1921), Fridrix Vizer (1851 – 1926), Oygen fon Bem-Baverk (1851 – 1914) bo'lganlar. Ular yuqori naflilik muammosini va yuqori naflilikning kamayish qonunini ilmiy tadqiq qilganlar. Bu marjinalizm nazariyasida Amerika maktabi ham o'z o'rniga ega. Uning vakili Jon Beyts Klark (1847 – 1938) bo'lgan. U yuqori unumdorlik nazariyasini ishlab chiqqan va ishlab chiqarish omillarining kamayish qonuni shakllantirgan. Marjinalizmning keng tarqalgan matematika maktabi yoki Lozanna maktabi ham bo'lgan. Bu maktab Shveysariyaning Lozanna shahrida joylashgani uchun unga shunday nom berilgan. Bu maktabning, ayniqsa, mashhur nazariyotchisi – Fransiya-Shveysariya iqtisodchisi Leon Valras (1834 – 1919), bo'lib, u makroiqtisodiyot modellaridan birida o'zining asosida talab va taklifni saqlaydigan, ya'ni bozor bozor mexanizmida narxning va bozor muvozanatining shakllanishi usulini yaratgan. L.Valrasning o'quvchisi Italiya iqtisodchisi Vilfredo Pareto (1848 – 1923) jamiyat a'zolarining barchasini

farovonlik darajasini ko‘tarishdagi o‘zgarishlarni baholashga ijozat beradigan ijtimoiy maksimal nafliligini kiritgan (Pareto optimumi).

Nihoyat Marjinalizm maktabining keng tarqalgan to‘rtchisi Kembridj maktabi (Angliya) bo‘lib, buning asosiy vakili Alfred Marshall (1842 – 1924) dir. O‘zining 1890 yilda nashr etilgan «Iqtisodiyot fanining prinsiplari»<sup>47</sup> degan asosiy asarida talab va taklifning qisqa va uzoq vaqt ichida o‘zaro harakat qilishini, eguluvchanlik nazariyasini ishlab chiqqan. A.Marshall tufayli amaliyotga iqtisodiy hodisalar tahlili va grafik metod izlanishlari kiritilgan edi. A.Marshall haqiqatdan ham hozirgi zamon iqtisodiyot fanining asoschilardan biri bo‘lib hisoblanadi. Marjinalizm nazariyasi rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan rus iqtisodchisi Yevgeniy Yevgenevich Slutskiy (1880 – 1948) dir, u iste‘molchi tanlovi nazariyasining muallifi bo‘lgan. Keyinchalik bu nazariyani Britaniya iqtisodchisi Jon Richard Xiks ishlab chiqqan.

Neoklassiklar bu iqtisodiyot fanining yangi yo‘nalishlari sifatida marjinalizmning Kembridj maktabi asosida paydo bo‘lgan. Bu yo‘nalishlarning tarafdorlari o‘zlarini klassik maktablar ishlab chiqqan ta‘limotning aniq tomonlarini davom ettiruvchilari sifatida ko‘rib chiqadilar. Endi, ular kapitalistik xo‘jalikning mustahkamligi hamda bozor tizimining o‘zini-o‘zi tartibga solishi mumkinligi to‘g‘risidagi fikrni himoya qiladilar. Neoklassiklarning har xil turlari mavjud bo‘lib, ular qatoriga monetarizm (Milton Fridman), iqtisodiyot taklifi (Artur Laffer) konsepsiyasi, ratsional kutish (Robert Lukas) konsepsiyasi, sof neoliberalizm vakili (Fridrix fon Xayekni) va ijtimoiy bozor xo‘jaligi konsepsiyasini yaratuvchilarni (Lyudvig Erxardni) va boshqalarni kiritish mumkin.

## **2.6. Keynschilar va neokeynschilar**

Iqtisodiyot fanining yirik yo‘nalishlaridan biri keynschilar va nokeynschilardir. Marjinalistlar iqtisodiyot inqirozlar tabiatini, jahon urushlari, inqilobiy hodisalar va boshqa dunyoda sodir bo‘layotgan ijtimoiy sabablarni tushuntirib bera olmadilar, ya‘ni bu Keynscha yangi nazariyaning paydo bo‘lishi uchun imkoniyat yaratdi. Keynschilik iqtisodiyot nazariyasi ko‘proq mashhur va tan olingan maktablardan biri bo‘lib, bu A.Marshallning o‘quvchisi ingliz olimi Jon Meynard Keyns (1883 – 1946)ning ajralmas nomi va uning qilgan ishlari bilan bog‘liq edi. J.Keyns o‘zining dunyoqarashini 1936 yilda nashr etilgan «Umumiy bandlik, foiz pul nazariyasi»<sup>48</sup> kitobida ifoda etgan edi. Bu yerda u bozor iqtisodiyotiga davlatning faol aralashuvi hamda

---

<sup>47</sup> Альфред Маршалл. Принципы политической экономии. В трех книгах. М.: Прогресс, 1983

<sup>48</sup> Дж.Кейнс. Общая теория занятости, процента и денег. М.1978, с.458

buni tartibga solish yo‘llarini taklif etadi. J.Keyns iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilishga makroiqtisodiy yondashuvni ishlab chiqdi: u milliy daromad, investitsiya, iste‘mol, jamg‘arma kabi yalpi ko‘rsatkichlarni tadqiq qildi. U bank va pul sohasida eng ko‘zga ko‘ringan nazariyachi hamda amaliyotchi edi, uning taklifi bo‘yicha Angliyada va boshqa mamlakatlarda bank islohotlari amalga oshirildi.

Ammo XX asrning 70 – yillari o‘rtasida keynscha g‘oyalarni amaliyotga realizatsiya qilishda murakkabroq muammolar sezila boshlandi. J.Keynsning dunyoqarashini davom ettiruvchilar *neokeynschilar* deb ataladi.

Ushbu yo‘nalish vakillari – Joan Vayolet Robinson (1903 – 1983), Roy Harrod (1890 – 1978) va boshqalar edilar. Keyinscha maktablarning Rossiyada tiklanishiga buyuk rus iqtisodchisi investitsiya sikllar nazariyasini yaratgan Mixail Ivanovich Tugan-Baranovskiy (1865 – 1919) yordam berdi, uning g‘oyalarini esa katta sikllar nazariyasi muallifi Nikolay Dmitriyevich Kondratev (1892 – 1928) davom ettirdi.

**Neoklassik sintez.** XX asrning 50–yillari oxirida neokeynschilar va neoklassiklarning bir-biriga yaqinlashuvi boshlandi, bu neoklassik mikronazariyasini Keyncha mikronazariya bilan birgalashish bo‘yicha yangi yo‘nalishning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Neoklassik sintezning asosiy kategoriyasi – ularni samarali taqsimlash bo‘ladi. Bu iqtisodiy fanning yo‘nalishlari vakillari qatoriga Pol Entoni Samuelson (1915)ni, Kempbell R. Makkonnell Kempbell R. Makkonnell, Stenli L.Bryuni, Stenli Fisherni, Vasiliy Leontev (1906 – 1999)ni va boshqalarni kiritadi. Neoklassik sintez konsepsiyasi har xil nazariyalar va ilmiy maktablarni birlashtirish asosida yuzaga kelgan.

**Institutsionalizm.** XX asrning ikkinchi yarimida iqtisodiyot fanining yana bir yirik insititutsional – jamiyatshunoslik yo‘nalishi rivojlana boshlandi. Ushbu yo‘nalish tarafdorlari iqtisodiyot jarayonlarini tahlil qilishda jamiyatning ahloqiy prinsiplarini va ijtimoiy tarkibini hisobga olib, nafaqat iqtisodiyot balki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham o‘rganadilar. Ijtimoiy institutlar tarkibiga oila, korxonalar, jamoat tashkilotlari, davlatni kiritadilar. Insititutsionalizmning hozirgi zamondagi atoqli vakillari orasida Jon Kennet Gelbreyt (1908 – 2004) ajralib turadi. Uning asosiy asari «Yangi industrial jamiyat»<sup>49</sup> (1969) deb nomlanadi.

---

<sup>49</sup> Джон Гэлбрейт. Новое индустриальное общество. М.: АСТ, 2004



## 2.7. Yangi iqtisodiyot nazariyasi

XX asr oxiri XXI asr boshlarida shakllana boshladi. Buning “eski” iqtisodiyotdan farqi u elektron axborotlashuv-telekommunikatsiya asosiga tayangan, ya’ni bu axborotlashuvga yo’налgan edi. Asosiy iqtisodiy resurs rolini ko’pincha axborotlashuv o’ynay boshladi. Hozirgi kunda faol internet-iqtisodiyot bozor hamjamiyati internetga asoslangan: internet-savdo, internet-reklama, internet-investitsiyalash va boshqalar paydo bo’la boshladi. Yangi iqtisodiyotning rivojlanishda va tiklanishi jarayonida yangicha nazariy umumlashtirish amalga oshiriladi, yangi kategoriyalar va yangi qonunlarning ochilish prinsiplari shakllanadi. Natijada, bu – yangi ilmiy-nazariy bilimlar tizimini yaratishga olib keladi.

**Inson kapitali konsepsiyasi.** XX asrning boshlarida iqtisodiyot fanining rivojlanishida istiqbolli yo’nalishlardan biri bo’ladi. U milliy boylikni yangicha tushunishiga, aynan-ilmiy bilish rolining o’sib borishi, ma’lumoti, malakasi, tajribasi, ijtimoiy salohiyati, umumiy madaniyati va hayot sifatining boshqa ko’rsatkichlari yordam beradi.

Birinchi o’ringa shunday holat chiqariladi, ya’ni haqiqiy boylik – bu, insonning o’zi. Inson kapitali investitsiya asosida shakllanadi, ya’ni shunday harakatlar asosida ma’lumot olishga, ishchi kuchini tayyorlashga va qayta tayyorlashga, sog’liqni mustahkamlashga hamda saqlashga va boshqalar.

Hozirgi vaqtda inson kapitalining ochilishi iqtisodiyot fanida keskin burilish deb ataladi.

## 2.8. Mustahkam rivojlanish nazariyasi

Iqtisodiyotda bevosita globallashuv konsepsiyasi bilan bog’langan, yangi konsepsiyalardan biridir. Mustahkam rivojlanish nazariyasining asosi oldindan butun dunyo tan olgan rus olimi Vladimir Ivanovich Vernadskiy (1863 – 1945) tomonidan o’rganilgan bo’lib, ya’ni jamiyatning kelajakdagi rivojlanishi shunday sharoitda bo’lishi mumkin, qachonki, insoniyat o’ziga nafaqat aynan o’zi uchun rivojlanishni, balki butun biosohalarning rivojlanishi uchun ham ma’sulyatni o’ziga oladi. Iqtisodiyot shunday rivojlanishi kerakki, ya’ni bu o’zining orqasidan ekologik sharoitda insonning yashashiga qaratilmaydigan o’zgarishlarni olib kelmasligi kerak. «Globallashuv» atamasi bilan mustahkam rivojlanish nazariyasi bog’langan, inglizchadan tarjimasida «dunyoviy», «butundunyo», degan so’zni anglatadi. Hozirgi zamon ahamiyatida bu atama birinchi marotaba amerikalik T.Levitt alohida tovarlar bozori fenomenini yirik Transmilliy korporatsiyalar ta’siri ostida qo’shilishini belgilash uchun qo’llangan. Keyinchalik iqtisodiyot fanining har xil yo’nalishlarida bu jarayonning boshqacha talqini paydo bo’ladi.

Shunday qilib, biz iqtisodiyot fanining asosiy davrlarida va bosqichlarida taraqqiyotni juda ham qisqacha ko‘rib chiqamiz. Shu bilan birga, aytish zarurki, ya’ni u butunlay jahon fikrining umum rivojlanish qonuniyatini qaytarilishiga qaramasdan, ruscha va o‘zbekcha iqtisodiy fikrlab mustaqil va original milliy maktab bo‘lib qoldi. Bularni batafsil bilish uchun «iqtisodiy ta’limot tarixini o‘rganish zarurdir». Endi biz shunday asosiy masalalarni, ya’ni iqtisodiyot nazariyasi fanining predmetini, ularning vazifalarini, boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog‘liqligini va boshqalarni ko‘rib chiqish bilan birga uning qonunlarni, kategoriyalarini hamda usullarini ko‘rib chiqishga o‘tamiz.

## **2.9. Iqtisodiy kategoriyalar va qonunlar**

Iqtisodiyot nazariyasi faniga doir o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida iqtisodiy kategoriyalar va qonunlar namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy kategoriya - bu iqtisodiyotni o‘rganishda qo‘llaniladigan nazariy tushunchalar va ilmiy abstraksiyalar bo‘lib, ob‘ektiv mavjud iqtisodiy munosabatlarni, ularning har xil ko‘rinishlarini va qirralarini ifoda etadi. Iqtisodiy qonunlar deganda iqtisodiyotning shakllanish va rivojlanish jarayonlarining asosiy muhim yo‘nalishlarini belgilovchi, takrorlanib turuvchi, uzviy iqtisodiy zaruratni taqozo etuvchi sabab-oqibat, aloqa-bog‘liqlik ko‘rinishidagi iqtisodiy munosabatlar nazarda tutiladi. Iqtisodiy kategoriyalar va qonunlar ilmiy abstraksiyalar bo‘lgani sababli mavjud xo‘jalik aloqalaridagi ob‘ektivlikni va haqiqatni aks ettiradi.

Iqtisodiy qonunlar harakat qilishi va foydalanish jihatiga ko‘ra jiddiy e’tiborga molik. Bir tomondan iqtisodiy qonunlar xo‘jalik sub’ektlari yoki alohida individlarning intilishi va ongidan ob‘ektiv ravishda mustaqildir. Ammo shu bilan birga, ularning harakati insonlarning faoliyatidan, ularning munosabatlaridan va intilishlaridan tashqari ro‘y bermaydi. Ikkinchi tomondan, iqtisodiy qonunlarni bilgan inson ulardan o‘z manfaati yo‘lida, xo‘jalik faoliyatida ongli ravishda foydalanishi mumkin. Bu demak, iqtisodiy qonunlarning harakati ob‘ektiv ravishda, ulardan foydalanish sub‘ektiv ravishda yuz beradi. Lekin bunday xulosa bilan hech ham chegaralanib bo‘lmaydi. Gap shundaki, jamiyatda, xo‘jalik hayotida ob‘ektivlik hamma vaqt sub‘ektivlashgan, yoxud kishilarning, shaxslarning faoliyatidan tashqarida mavjud bo‘lishi mumkin emas. Sub‘ekt-shaxslarning xulqi qandaydir umumiy intilishlardan, o‘z manfaatlarini himoya qilishdan kelib chiqqani holda sub‘ektivlik hamma vaqt ob‘ektivlashadi va ro‘y beradi. Shuning uchun iqtisodiy qonunlarning harakati va ulardan foydalanish iqtisodiy jarayonlarinig ikki chambarchas o‘zaro bog‘liq va o‘zaro harakatdagi tomonlaridir.

Iqtisodiy tizimlarning o'zgarishi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning biri-biri bilan almashuvi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, ishlab chiqarish omillaridan foydalanish, mexanizmlarning takomillashishi ta'siri ostida o'tgan va o'tmoqda. Bu o'zgarishlarning asosida bir iqtisodiy munosabatning yo'q bo'lishi va boshqasining yuzaga kelishi yotadi. Shunday ekan, insoniyat sivilizatsiyasining tarixiy jarayonlari rivojlanishida iqtisodiy kategoriya ham, iqtisodiy qonun ham tarixiy xususiyatga ega bo'lgan deb aytish mumkin. U yoki bu iqtisodiy munosabat yo'q bo'lib ketishi bilan birga, iqtisodiy kategoriya va qonunga bo'lgan talab ham yo'q bo'lib ketadi va aksincha, yangi iqtisodiy munosabatlarning paydo bo'lishi ularni idrok etish, tushunish, bilish va ilmiy abstraksiyalash apparati bo'ladi. Shunga qaramasdan ko'pgina iqtisodiy munosabatlar ming yoki yuz yillar davomida yashab kelmoqda. Bunga iqtisodiy qonunlarning quyidagi tarixiy tasniflarini keltirish mumkin: umumiqtisodiy qonunlar – tabiat, jamiyat insoniyat, fan-texnika taraqqiyotining hamma bosqichlarida, iqtisodiy-ijtimoiy shakllanishidan qat'iy nazar, amal qiluvchi qonunlar, jumladan, ishlab chiqarishda mehnat unumdorligining o'sib borishi, ehtiyojlarning yuzaga kelishi, ularning yuksalishi, mehnat taqsimoti va uning rivojlanishi, o'rin almashuvi qonunlari; **formatsiyaga oid maxsus (tipik) qonunlar** - bu alohida iqtisodiy tizimlarga oid, faqat shu tizimning o'ziga xos xususiyatlarini talqin qiluvchi qonunlar. Bu quldorlik jamiyatidagi, feodalizm tizimidagi, mutlaq tizimidagi, kapitalizm tizimidagi ishlab chiqarish usullariga oid iqtisodiy qonunlardir.

Iqtisodiy kategoriyalar tasnifi ham o'ziga xos xususiyatlarga qarab - umumiqtisodiy, maxsus va davriy oraliq kategoriyalarga bo'linadi. Ular qatoriga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarish, mulk, mehnat jarayoni, mahsulot, tovar, xizmat, ish vaqti, ekspluatatsiya, renta, qiymat, qashshoqlik, monopoliya, oligopoliya, talab, taklif, pul, marketing, narx-navo, inflyatsiya, soliq, boj va hokazolar. Albatta, har qanday jamiyatning, iqtisodiy tizimining rivojlanish bosqichlarida bu kategoriyalar qo'llanilishi yoki bo'lmasa, umuman, qolib ketishi mumkin.

## **2.10. Iqtisodiyot nazariyasi usullarining tavsifi.**

Iqtisodiyot nazariyasi usullari haqidagi savol - bu iqtisodiyot hodisalari va jarayonlari qay tarzda o'rganiladi, degan savolning o'zginasi. Faqat ikki usulni: umumiy va cheklangan guruhlarini farqlash lozim.

**Umumiy usullar** iqtisodiy voqelikni yaxlit holda ilmiy o'zlashtirishda umumiy yondashuvlar mavjudligini ifodalaydi, iqtisodiyotni tadqiq etishning umumiy falsafiy-uslubiy bazasini, dunyoqarashlarni, uslubiy o'zagini beradi.

Mazkur usullar uslubiy yondashuvlar yoki iqtisodiyot uslubiyatining yo‘nalishlari sifatida belgilanishi mumkin.

Iqtisodiyotning XVIII – XIX asrlarda paydo bo‘lgan dastlabki kengaytirilgan ilmiy tizimlariyoq u yoki bu falsafiy asosga tayangan. Jumladan, **A.Smitning** (uning «xalq boyligi»da amalga oshirilgan») iqtisodiy tizimi ko‘p jihatdan amaliyotchi-faylasuf J.Lokkning tamoyillariga asoslangan; **D.Rikardoning** (uning «siyosiy iqtisod asoslarida mujassamlangan) iqtisodiy tizimi faylasuf ratsionalist B.Spinozaning xulosalariga ma‘lum darajada bog‘liq bo‘lgan; **K.Marksning** «Kapital»ida aks etgan iqtisodiy tizimga faylasuf-dialektik G.Gegelning ta‘limoti uslubiy asos bo‘lganligi sezilib turadi. Iqtisodiyot nazariyasining umumiy usullarida ifodalanuvchi falsafiy va iqtisodiy jihatlarning jips aloqasi iqtisodiyot nazariyasi rivojlanishining barcha bosqichlarida o‘zini namoyon etgan.

**Cheklangan usullar** iqtisodiy tizimning u yoki bu qirralari va jihatlarini tadqiq etishning vositasi bo‘lmish muayyan uskunalar, usullar va vositalardan iborat. Ularning orasida u yoki bu uslubiyatga bog‘langan o‘ziga xos usullar ham, har qanday uslubiyatni amalga oshirishda foydalanishi mumkin bo‘lgan universal usullar ham bor. So‘nggi usullar sirasiga quyidagilar kiradi:

-tahlil (tadqiqot ob‘ektini ayrim qismlarga ajratish) va sintez (ayrim qismlarni bir butunga birlashtirish);

- induksiya (juz‘iy dalilardan umumiy xulosa chiqarish) va deduksiya (umumiydan xususiyga tomon harakat);

- abstraksiya (predmetning muhim jihatlarini aniqlash uchun boshqa jihatlaridan farqlash), boshqa teng sharoitda yo‘l qo‘yish, umumiyashtirish (umumiy, shu jumladan, o‘rtacha ko‘rsatgichga keltirilgan yoki ehtimolga eng yaqin tavsiflar) va h.k.

Yuqoridagi usullar asosan, formal mantiqdan kelib chiqadi, shuning uchun formal mantiqiy usullar sifatida belgilanishi mumkin.

## **2.11. Iqtisodiyot nazariyasining umumiy usullari.**

Quyidagilar eng keng tarqalgan va muhim uslubiy yondashuvlar hisoblanadi: pozitivistik, strukturalistik, dialektik hamda sintetik.

**Pozitivistik yondashuv** bilimning asosiy manbai sifatida aniq (tajribalarga asoslangan) fanlarning ma‘lumotlarini e‘tirof etuvchi, uslubiy asoslarga ehtiyoj qoldirmaydigan. Falsafiy pozitivizmga («Pozitiv» falsafaga) asoslanadi. Pozitivizm XIX asrning birinchi yarmida shakllangan bo‘lib (O.Kont, G.Spenser va boshqalar), keyinchalik neopozitivizm yoki mantiqiy pozitivizm (R.Karnap, M.Shlik va b.), so‘ngra postpozitivizm (T.Kun, K.Popper va b.) shaklini oldi.

Pozitivistik yondashuvga xos eng asosiy jihatlar:

- fenomenalizm (aniq omillarni mo‘‘jiza sifatida aks ettirish);
- verifikatsiya (ilmiy bilimlarni aniq bilimlar bilan bevosita bog‘lash);
- pragmatizm (bilimning tor amaliy oqibatlar bilan bog‘liq ahamiyati).

Pozitivistik yondashuv universal xarakterga ega bo‘lgan formal mantiqiy usullardan keng foydalaniladi. Uning uchun quydagilar eng xarakterli, o‘ziga xos cheklangan (ayniqsa, neopozitivistik va postpozitivistik talqinlarda ) usullar hisoblanadi:

•Instrumentalizm (ilmiy tushunchalarni tahlil vositalarining vazifalari bilan bog‘lash);

•Operatsionalizm yoki operatsional tahlil (ilmiy tushunchalarni ana shu tushunchalar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalar tavsifi orqali belgilash);

•Eksplikatsiya (voqea-hodisalarni shaklga kiritilgan matematik usullar va modellardan foydalanish vositasida tavsiflash);

•Vaziyatli tahlil yoki «tabiiy sharoitdagi tadqiqotlar» (vujudga kelayotgan muayyan vaziyatlar tahlili).

Iqtisodiyot nazariyasida pozitivistik yondashuv va uning barcha ko‘rinishlari keng qo‘llaniladi. Bu muayyan-iqtisodiy funksional o‘zaro aloqalarni o‘rganishga yo‘nalganlikda, iqtisodiy matematik modellashtirishdan faol foydalanishda, muayyan iqtisodiy vaziyatlarda yechimlarni izlashda, shuningdek, iqtisodiyotning tub qonuniyatlarini, tizimini tashkil etuvchi iqtisodiy munosabatlarni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mezonlari va vektorlarini aniqlash va asoslashga e‘tiborsizlikda namoyon bo‘ladi. Ushbu tavsiflar ma‘lum darajada iqtisod fani neoklassik yo‘nalishidagi tadqiqotlarga xosdir.

**Strukturalistik yondashuv** tizim tarkibiy qismlarini, ya‘ni uning ichki tuzilishini, uning qismlari o‘rtasidagi munosabatlar majmuini aniqlashga urg‘u beradigan uslubiy yondashuvdan iborat. Ilmiy bilimning turli sohalarida XX asrning birinchi yarmida tarkib topgan ana shu yondashuvning eng taniqli vakillari **K.Levi-Stross, M.Fuko, T.Parsons, R.Merton** hisoblanadi.

Yuqoridagi yondashuvning o‘ziga xos jihatlari deb quyidagilarni hisoblash mumkin: qismlarni tartibga solishga intilish, hodisa ob‘ektivligini faqat uni tizim tarkibiga kiritish orqali tushunish, tarkibiga kirmaydigan hamma narsani «tizimning astari sifatida» chiqarib tashlash va h.k.

Strukturalistik yondashuv yuqorida qayd etilgan bir qator shaklan mantiqiy usullardan foydalanish bilan birga, faqat o‘ziga xos cheklangan usullari ham faol qo‘llanadi. Quyidagilar shular jumlasidandir:

- Struktura qismlarining mazmuni bilan ular bajarayotgan vazifalar o'rtasidagi aloqaga urg'u beruvchi tarkibiy-funksional tahlil (mazkur o'zaro aloqalarda urg'u har xil bo'lishi mumkin);

- Strukturalarning iyerarxiya tamoyili (tizim qismlari bir-biriga bo'ysunishini e'tirof etish, shu jumladan, ko'zlangan maqsadga erishishni ko'zlab);

- «binar oppozitsiyasi» usuli (juft kategoriyalardan: tabiat-erkin, talab-taklif, kichik biznes-yirik biznes va h.k.foydalanish);

- rekombinatsiyalar usuli (tizimning asosiy qismlariga ega bo'lgan turli-tuman birikmalar va qayta guruhlashdan foydalanish) va h.k.

Ko'rsatib o'tilgan yondashuv matematik mantiq va modellashtirish usullaridan keng foydalanadi. Ayni vaqtda, strukturalistik yondashuv, pozitivistik yondashuv bilan qo'shib ketishi va so'nggi yondashuvga tartiblilik jihatlarini olib kirishi mumkin. Shuning uchun strukturalizmni hozirgi zamon pozitivizmining bir turi sifatida talqin etuvchi nuqtai nazarining mavjudligi tasodifiy emas. Iqtisodiyot nazariyasida strukturalistik yondashuv sezilarli rivoj topdi. Bu, masalan, turli iqtisodiy birliklarning (qismlarning) ta'sir etish usullarida, iqtisodiy tizimning ikki xil daraja sifatida makro va mikroiqtisodiyotga bo'linishida, iqtisodiyot turli institutlari vazifalarining chegaralanishida, hozirgi zamon iqtisodiyotining aralash iqtisodiyot deb ta'riflanishida, uning ma'lum parametrlari tahlilida va h.k.

Shu bilan birga, strukturalistik yondashuvining amalga oshirilishini soddalashtirish, genetik aloqalarida e'tiborsizlik, tarkibiy tuzilishiga mos kelmagan voqealardan chetlashish havfi bilan bog'liq. 70-80-yillarda rivojlangan postrukturalizmga birmucha kengroq imkoniyatlar beradi, u «tarkibiy bo'lmagan» qismlarga ham tizimdan o'rin topishga urinadi. Iqtisodiyot nazariyasiga nisbatan olganda, bu iqtisodiyotning ilmiy tizimiga iqtisodiyotga aloqasi bo'lmagan, ammo iqtisodiyot asoslariga faol ta'sir etadigan, ularga murojaat etmay iqtisodiy siyosatning samarali yechimlarini topish qiyin bo'lgan elementlarini (milliy – o'ziga xoslik, ijtimoiy-madaniy, ekologik va h.k.) kiritishga urinishlarda ifodalanadi. Ammo bunda aytib o'tilgan elementlarini qanday qilib yagona tizimning tarkibiy qismlari deb taqdim etish mumkin, degan muammo vujudga keladi.

***Dialektik yondashuv*** tabiat, jamiyat va tafakkur rivojlanishining umumiy qonuniyatlari haqidagi fan bo'lmish dialektika bilan bog'liq. Tizim sifatida XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida nemis klassik faylasuflari (birinchi navbatda G.Gegel) tomonidan ishlab chiqilgan, so'ngra birinchi marta siyosiy

iqtisodda dialektik yondashuvni qoʻllagan K.Marks tufayli materialistik dialektika koʻrinishida rivoj topgan.

Dialektik yondashuv yuzada yashiringan sabab bilan oqibat oʻrtasidagi aloqalarni aniqlashga safarbar etadi. U mohiyat va hodisani, mazmun va shaklini, zaruriyat va tasodifni, imkoniyat va voqelikni bir-biridan farqlaydi, shunday qilib, u yoki bu predmet doirasida aloqadorlikning chinakam xarakterini ochib beradi.

Dialektika rivojlanish jarayonlariga urgʻu beradi, ularning qonuniy xarakteriga ega ekanligi koʻrsatadi, rivojlanish dialektikaning uch asosiy qonuni: miqdorning sifatga oʻtishi va buning aksi, qarama-qarshiliklarning birligi va oʻzaro kurashi, inkorni inkor etish orqali talqin qilinadi. Dialektik ziddiyat, yaʼni predmetga yoki uning qismlarga xos ikki bir-birini inkor etuvchi tomonlar (qarama-qarshiliklar) oʻrtasidagi nisbat harakatning muhim tamoyili rivojlanishning ichki impulsi, deb eʼtirof qilinadi. Qarama-qarshiliklarning «hal etilishi», yaʼni nisbatning (yangi kategoriyaning) paydo boʻlishiga olib keladi va h.k.

Dialektik yondashuv real olamni bilishning ikki oʻziga xos usulidan foydalanadi (ular shaklan mantiqiy usullardan farqli ravishda dialektik mantiq usullari sifatida talqin etiladi).

***Mavhumdan maʼlum sari koʻtarilish usuli.*** Mazkur usul yaxlit tizim doirasida tushunchalarni (kategoriyalarni) tartibga solish usuli, yaxlit nazariy qayta tiklash usulidir. Mavhumdan (bilishning avvalgi bosqichida maʼlumdan mavhum sari pasayish jarayonida ajratib olingan) maʼlum sari harakat ayni vaqtda dialektika tamoyillari va qonunlarini amalga oshirish zamirida qismdan yaxlit sari, oddiydan murakkab sari, qoloqlikdan taraqqiyot sari harakatning oʻzginasidir. Mavhumdan maʼlum sari koʻtarilish tizimning birlamchi qarama-qarshiligidan boshlab qarama-qarshiliklarning koʻtarilish oʻqiga bamisoli tizilib boradi (K.Marksning «Kapital»ida tovar bilan qiymat isteʼmol qiymati oʻrtasidagi qarama-qarshilik shunday vazifani oʻtaydi).

***Mantiqiy va tarixiy birlik usuli.*** Bundan predmetning mantiqiy (nazariy) tadqiq etilishi rivojlanishning real jarayonini aks ettiradi. Nazariy tizimdagi kategoriyalar subordinatsiyasi asosiy bandlarda munosabatlarning tarixiy izchilligiga muvofiq keladi. Shu bilan birga, mantiq tarixning aniq nusxasi hisoblanmaydi: unda tarix tasodifiy koʻrinishlardan bamisoli forigʻ boʻladi, uning eng muhim, obʼektiv zarur boʻlinmalarida qayta tiklanadi.

Dialektik yondashuv oʻzining kengroq koʻrinishida ishlab chiqarish kuchlarining ijtimoiy koʻrinishlari, ishlab chiqarishning kapitalistik usuli iqtisodiy kategoriyalarning genetik subordinatsiyalashgan tizimi sifatida

tarixan rivojlanayotgan ishlab chiqarish munosabatlarini tadqiqotning diqqat markaziga qo'yish marksistik siyosiy iqtisodda qo'llanilgan edi.

Dialektik usul amalga oshirish jarayonida yo'l qo'ygan «inqilobiy-tanqidiy rux»ga ortiqcha urg'u berish ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar dualizmni (ikkiligini) mutlaqlashtirish ishlab chiqarishning jonli mazmun-mohiyatiga shikast yetkazish evaziga rivojlanish normativizmini dialektik yondashuv tadrijiy rivojlanishi zarurligini taqozo etadi. U «ekzitsensial dialektikaning» (dialektikaning o'z-o'zidan qimmatli asos, «hayot falsafasi» bilan boyitish) va «ko'p o'lchamli dialektika» (hodisalarni ikki o'lchamlidan yanada kengroq koordinatalar tizimida ko'rib chiqish)ning shakllanish yo'nalishidan bordi. Iqtisodiy tizimlarga nisbatan qo'llanganda, «yangi dialektika» ularga inson ijodiy faoliyatining faol rolini qo'shishni, uning mayillari va omillari haddan tashqari ratsionalligi va tejamkorligini yengib o'tishini, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va jarayonlar tushunchasini inkor etishdan chekinishni, aralash iqtisodiyotni shakllantirish, jamiyatda ijtimoiy murosasizlik sari yo'l tutishni anglatadi.

*Sintetik yondashuvlar* iqtisodiyot nazariyasida sezilarli darajada yoyildi. Bu bir fan doirasida mavjud bo'lgan bir yoqlamalikni yengib o'tishga (tushunsa bo'ladigan) intilish bilan izohlanadi, kamroq darajada bu uslubiyat iqtisodiyot nazariyasining umumiy usullariga taalluqli, chunki bu borada tadqiqot yaxlitligini boy berish xavfi bor.

So'nggi davrda sintezdan boshqacha turli uslubiyatlar aloqadorligi tushunchasidan kelib chiqqan nuqtai nazar kuch to'play boshladi. Bu uslubiyatlar plyuralizmni tan oluvchi «yangi ekletika»dir (B.Kolduell, T.Kun, E.Ostrom, D.Xausman va boshqalar). Turli ilmiy nazariyalar hamkorligi qulaylik, soddalik, shuningdek, o'zaro murosasizlik tamoyillardan kelib chiqib, tadqiqotchilar yoki ilmiy maktablar o'rtasidagi bitimlarni (konvensiyalarni) o'z zamiriga qo'ygan konvensionalizm ana shu yo'nalishning o'ziga xos jihati (usuli) bo'lib qoldi. Iqtisodiyotning u yoki bu qismlarini tadqiq etishda tahlilning turli, o'ziga xos usullaridan foydalanish ham keng yoyilgan.

Ko'rsatib o'tilgan uslubiy yo'nalish iqtisodiy tadqiqotlar imkoniyatini kengaytiradi, ammo bunda ilmiy tizimlarni parchalab yuborish, ularning yaxlitligini boy berish xavfi bor.

Tobora murakkablashib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy voqelikni to'liq aks ettiradigan uslubiy yondashuvlarini izlash, shak-shubhasiz davom etadi.

**Modellashtirish usullari.** Iqtisod fanining eng samarali usullaridan biri – tadqiq etilayotgan hodisalarni matematik modellashtirishdir. Modellashtirish



ilmiy tafakkur vositasi sifatida idrok etilayotgan ob'ektlar mohiyatiga kirib borish, ularga xos qonuniyatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Biron-bir hodisa, ob'ektni modellashtirish deganda, uning soddalashgan nusxasini – matnda, rasmda, matematikada va kompyuterda yaratish tushuniladi.

Modellashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Predmetning ta'rifi va tadqiqot maqsadlari.

2. Ko'rib chiqilayotgan iqtisodiy tizimdan qiziqish uyg'otgan iqtisodiy ob'ektlarni ajratib olish. Ob'ektni o'rganish. Ob'ektning tuzilishini, qanday faoliyat ko'rsatishini, uning faoliyatiga qanday omillar ta'sir etishini, uni baholash yoki optimallashtirish mezonlari nimalardan iborat ekanligini, optimallashtirilgan taqdirda qanday me'yorlarda qo'yilgan maqsadga erishilishini tushunish.

3. Har bir ob'ektning qo'yilgan vazifaga javob beradigan eng muhim va juz'iy tavsiflarini aniqlash. Ta'rifiy modellashtirish. Ularning o'zaro aloqalarini qayd etish va so'z bilan sifatli ta'riflash.

4. Matematik modellashtirish. Iqtisod ob'ektining e'tiborga olinadigan tavsiflari uchun ramziy belgilarini qabul qilish. Ob'ektning asosiy tavsiflarini va ular o'rtasidagi aloqalarni (imkon qadar) shakllantirish, iqtisodiy ob'ektning shakli, olinayotgan matematik modeli. Ta'rifiy modelni o'zgaruvchi vazifalar, tenglamalar, tengsizliklar va shu kabi boshqa matematika vositalari yordamida rasmiy matematika tiliga o'tkazish.

5. Yechim usulini tanlash va uni olish.

6. Yechim tahlili. Haqiqiy ob'ektga o'xshashligini tekshirish.

U yoki bu mezonlariga ko'ra iqtisodiy matematik modellar mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy, nazariy va amaliy, turg'un va harakatdagi, muvozanatli va muvozanatsiz, optimallashtirilgan va optimallashtirilmagan, aniq va statistik modellarga bo'linadi.

Iqtisodiy modellar iqtisod ob'ektlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, shularga asoslanib, qandaydir o'lchamlar o'zgargan taqdirda ob'ektning fe'l-atvorini oldindan ko'ra bilish, masalan, almashuv kursining o'sishini, iqtisodiy talab va ehtiyoj o'zgarishini, daromadning kamayishini oldindan bashorat qilish faqat ichki hissiyotga asoslanadi. Ammo bunda ko'rib chiqilayotgan vaziyatga ta'sir o'tkazayotgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro muhim aloqalari unutib qoldirilgan, noto'g'ri belgilangan yoki xato baholangan bo'lishi mumkin. Asl modelda esa, barcha o'zgarib turuvchi aloqalar miqdordan kelib chiqib baholanishi mumkin, bu ancha-mucha sifatli va ishonchli bashorat qilish imkonini beradi. Har qanday

iqtisodiyot agenti uchun vaziyatni to‘g‘ri bashorat qilish imkoniyati avvalabor, ko‘proq daromad olish, zarardan qochib qutilish ma‘nosini anglatadi. Davlat siyosatida ham xuddi shunday.

Iqtisodiyotdagi hodisalarni modellashtirar ekanmiz, biz birinchi navbatda, mazkur hodisani qanday asosiy ko‘rsatkichlar yordamida tavsif etish mumkinligi, ana shu ko‘rsatkichlar qaysi omillarga ko‘proq bog‘liqligi, bog‘liqlik qandayligi (ijobiy, salbiy), tadqiq etilayotgan ko‘rsatkichlar ularni belgilovchi omillar o‘rtasidagi muayyan aloqadorlik qanday ekanligi bilan qiziqamiz. So‘nggi savol iqtisodiyot nazariyasining usullari bilan hal etilmaydi, unga javob topish uchun matematik statistika va ekonometrika usullariga murojaat etish kerak.

Iqtisod fanida miqdoriy iqtisodiy-matematik modellar va sifatli tasdiqlarga yoki ixtiyordagi iqtisodiy ma‘lumotlarga asoslanib, ehtimollik nazariyasi va iqtisodiy ma‘lumotlarni qayta ishlashga moslashtirilgan matematik statistika yordamida qilingan farazlarning *empirik verifikatsiya* (tekshirish, asoslash, baholash) usuli alohida o‘rin tutadi.

Har qanday iqtisodiy tadqiqot statistik ma‘lumotlardan foydalanishni taxmin qiladi. Statistik ma‘lumotlar iqtisodiyotda empirik qonuniyatlarni aniqlash va asoslash uchun zamin hisoblanadi. Tadqiq etilayotgan iqtisod ob‘ekti faoliyatini tavsiflovchi ma‘lum miqdordagi ma‘lumotlarsiz iqtisodiy model ahamiyatini amalda aniqlab bo‘lmaydi.

Iqtisodiy ma‘lumotlar odatda, ikki turga: chaparasta ma‘lumotlar va muvaqqat qatorga bo‘linadi. Chaparasta ma‘lumotlar bu biron-bir iqtisodiy ko‘rsatkich bo‘yicha o‘xshash ob‘ektlar yoki turli mintaqalar uchun olingan ma‘lumotlardir. Muvaqqat qatorlar – bu bir ob‘ektning o‘zini, ammo vaqtning turli davrlarida tavsiflovchi ma‘lumotlardir. Muvaqqat ma‘lumotlar tahlili (firmaning savdo-sotig‘ida, qisqa muddatli foiz stavkalarida, inflyatsiyada, ishsizlikda, yalpi milliy ishlab chiqarishda va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlarda kuzatiladigan) ana shu kattaliklarning o‘zgarish tamoyillarini tadqiq etilayotgan kattaliklarning vaqtincha qaramligi ichki sabablarini tahlil qilmay turib, aniqlash va ularni oldindan aytish maqsadlari uchun ekstrapolyatsiya qilish imkonini beradi. Ba‘zan iqtisodiyotda muvaqqat va chaparasta ma‘lumotlarning kombinatsiyasi – panel ma‘lumotlar uchrab turadi.

Iqtisodiy ma‘lumotlarni yig‘ishdan maqsad qaror qabul qilish uchun axborotlar bazasini qo‘lga kiritish hisoblanadi. Tabiiyki, ma‘lumotlar tahlili va qarorlar qabul qilish qandaydir ichki hissiyot (aniq bo‘lmagan) yoki miqdoriy (aniq) iqtisodiy modelga asoslanib amalga oshiriladi. Shu sababli, aynan tegishli model uchun zarur bo‘lgan materiallarni yig‘ishadi.

Har qanday iqtisodiy ma'lumot qandaydir iqtisodiyot ob'ektlarining yoki ularning o'z xususiyatlarining miqdoriy tavsifidan iboratdir, ular tadqiqot ob'ekti fe'l-atvorining empirik qonuniyatlarini aniqlash va tahlil qilish uchun zamin hisoblanadi. Ular ko'p sonli omillar ta'siri ostida shakllanadi, ammo ularning hammasini ham sirdan nazorat qilib bo'lmaydi. Nazorat qilinmaydigan omillar qandaydir tasodifiy ma'no kasb etishi, shunday qilib, o'zlari belgilaydigan ma'lumotlarga tasodifiylik xususiyatini bag'ishlashi mumkin. Iqtisodiy ma'lumotlarning statistik tabiati ularni tahlil qilish va qayta ishlash uchun maxsus, o'ziga mos statistik ma'lumotlarni qo'llash zaruratini taqozo etadi.

Yig'ilgan ma'lumotlar turli shaklda: jadval, diagramma, chizma ko'rinishida taqdim etilishi mumkin. Ma'lumotlarni qayta ishlashdan kuzatiladigan asosiy maqsadlardan biri iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlash va tahlil qilish xisoblanadi. Buning uchun tadqiqotning birinchi bosqichida chizma usuli qo'llanilishi mumkin. Muvaqqat qator uchun chizma tuzilishi, agar vaqt o'zgarishlari absissa o'qida joylashgan bo'lsa, o'rganilayotgan o'zgaruvchi dinamikasining xarakteri haqida: trendning mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida, tebranishlar muntazamligi (davriyligi) haqida, dinamikaning barqarorligi va hokazolar haqida umumiy mulohaza yuritish mumkin bo'ladi. Har ikki ko'rsatkich o'rtasidagi aloqa haqida yoyilish chizmasi yordamida, agar unda bir ko'rsatkichning qiymati absissa o'qi bo'ylab, boshqasini ordinata o'qi bo'ylab joylashgan va kuzatuvlardan foydalanilgan bo'lsa, fikr yurtish mumkin.

Chizmaning yuzaki tahlili tanlab olingan iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasida musbat yoki manfiy aloqa mavjudligi haqidagi farazni ilgari surish, ya'ni bir ko'rsatkichning o'sishi, boshqasining o'sishi (pasayishi) bilan birgalikda kechadi, deb taxmin qilish imkonini beradi.

Iqtisodiy ma'lumotlar ixtiyorimizda bo'lsa, mavjud modelning o'lchamlarini aniqlabgina qolmay, ilgari noma'lum bo'lgan empirik qonuniyatlarni ham aniqlash, so'ngra aniqlangan qonuniyatlarga asoslanib, tegishli nazariy modelni yasash mumkin.

Modellashtirishda EHMda, kompyuterda modellashtirish alohida o'rin egallaydi. Bu ko'rgazmalilikni, qat'iylikni, modellashtirilayotgan ob'ektga har hil ta'sirlar oqibatini tahlil qilish imkonini o'zida mujassam etadi.

***Kompyuterda modellashtirishdan*** ta'lim berish va iqtisod fanini ommalashtirish bilan bir qatorda, fanni rivojlantirishda, nazariy va amaliy vazifalarni hal etishda foydalansa bo'ladi. Bundan tashqari, kompyuterlarning qo'llanilishi testlarning maxsus ishlab chiqilgan interaktiv dasturlari vositasida

o'quv jarayonidagi nazorat va o'z-o'zini nazorat qilishni soddalashtirish imkonini beradi.

Iqtisod fani bo'yicha darslarda kompyuter dasturlaridan foydalanish nazariy modellarga yoki statistik ma'lumotlarga asoslanishi, yoxud unisini ham, bunisini ham birlashtirish mumkin.

Iqtisodiyotning kompyuter modellari iqtisod faning asosiy konsepsiyalarini yaxshiroq tushuntiribgina qolmay, shu bilan birga, iqtisodiyotning istalgan holatiga erishilishiga xizmat qiluvchi iqtisodiy siyosatning turli variantlarini modellashtirish imkonini beradi.

Masalan, ochiq iqtisodiyotning kompyuter modellari budjet-soliq siyosati, kredit-pul siyosati, ochiq iqtisodiyot sharoitida almashuv kursi siyosatini kapital safarbarligini turli rejalari bilan har hil birlashtirish oqibatlarida qanday bo'lishini yaxshiroq tushinish imkonini beradi. Yalpi rivojlanishning kompyuter modellari esa, makro va mikroiqtisodiyotdagi o'zgaruvchilarning son-sanoqsiz o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirini hisobga olish, mikrodarajadagi boylik daromad taqsimotini optimallashtirgan mikroiqtisodiyot fe'l-atvori bilan birlashtirish imkonini beradi. Ayni vaqtda iqtisodiyotni isloh qilish dasturlarning barqarorlashtirishga, tarkibiy qayta qurishga, iqtisodiyotni o'tish davrida bo'lgan mamlakatlardagi daromad va boylik taqsimotiga ta'sirining miqdoriy ifodasini olishga muvaffaq bo'linadi.

Modellashtirilayotgan ob'ekt chiziqsiz tenglamalarning murakkab tizimi, ham algebraik, ham interal-differentsial rasmlar bilan tasvirlangan (bunday hol o'tish davri iqtisodiyotidagi turli jarayonlarni modellashtirishda ko'p uchraydi) holda modellashtirishning kompyuter modeli iqtisodiyot uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday hollarda raqamli-chizma usullar iqtisodiyot modellarini yaratish va faoliyatini tahlil qilishda birdan bir maqbul yondashuv hisoblanadi.

So'nggi vaqtlarda iqtisod fanini o'rganishda, shu fandan dars berishda kompyuterlarning qo'llanilishi nihoyat darajada kengaydi, shaxsiy kompyuterlardan so'ng butun dunyodagi kompyuterdan foydalanuvchilarni birlashtirgan Internet tarmog'i vujudga keldi. Shu kabi tarmoqlardan foydalanish elektron o'quv qo'llanmalaridagi eng yangi ma'lumotlardan foydalanibgina qolmay, serverdagi axborotlarni muntazam yangilab turish, elektron muhitdan foydalanib, iqtisod fanidan saboq berish yoxud saboq olish imkonini beradi. Ayni vaqtda ikki asosiy yondashuvni ajratib ko'rsatish zarur: iqtisodni mustaqil o'rganish uchun hozirgi zamon axborot texnologiyalarini qo'llanib, materiallarni ishlab chiqarish (ulkan matn va interaktiv kompyuter dasturlari, multimediya ilovalari kabi) va videokonferensiyalar yordamida jonli muloqot. Vujudga kelayotgan yangi imkoniyatlar o'z ortidan, saboq

berishning, iqtisodiyot nazariyasini rivojlantirishning o'ziga xos yangi usullarini vujudga keltirmoqda.

### **Qisqacha xulosalar**

Ushbu iqtisodiyot nazariyasi fanining asosi va asoschilarining – paydo bo'lishi, shu darslikning muqaddimasida berilgan bo'lib, bu yerda 1615 yilgacha har xil iqtisodiy fikr yuritishdan, ya'ni Ksenofont, Aflotun va Arastulardan boshlanib ekonomika – ekonomiks – an'anaviy siyosiy iqtisod va iqtisodiy nazariya (hammasi bir xil ma'noga ega) degan so'zlarning o'ziga xos ta'rif berilgan. Bu grek-yunon tilidan olinib, «ekonomika – aykanomia – iqtisod» – «oykos» – uy xo'jaligi, «Nomos» – qonun-qoida va birinchi vaqtlarda bu uy xo'jaligini yuritish to'g'risidagi fan deb qaralgan. Keyin 1615 yilda fransuz merkantilistlar maktabi vakili Antuan de-Monkreten «siyosiy iqtisod traktati» asarini nashr qildi. Bu butun fanga nom qoldirdi va bu ham siyosiy iqtisodni xo'jalik faoliyati va unga rahbarlik qilish qoidasi sifatida qarab chiqqan edi. Shu bilan birgalikda merkantilizm nazariyasi maktabi paydo bo'lgan (XVI – XVIII asrlarda) «Merkanos – savdogar» degan ma'noga ega bo'lib, ular kishilarning boyligi – bu pul, oltin, bunga hamma narsani sotib olish mumkin va buning iqtisodiy nazariyadagi mohiyati muomala sohasidagi qonuniyatlar bo'lgan. Bulardan keyin tarixiy klassik siyosiy iqtisod tiklanishiga katta hissa qo'shgan fransuz iqtisodiy fikri XVIII asrda fiziokratlar maktabi bo'lgan. Fiziokrati grekcha termin bo'lib «Tabiat hukmronligi» deb atalgan.

Merkantilizmdan farqi fiziokratlar nazariyasining asosida dehqonchilik mehnati, qishloq xo'jaligining o'zi iqtisodiyotda yagona unumdorlik sektori sifatida, jamiyat boyligining manbai – agrar sektorning qo'shimcha mahsulotidadir, deyilgan. Albatta, har ikkala maktab o'zlarining iqtisodiy rivojlanishida va dunyoqarashida ijobiy va salbiy tomonlari bo'lib, ba'zida ancha xatoliklarga ham yo'l qo'yganlar. Keyinchalik bu fanning rivojlanishida A.Smitning, O.Rikardo, K.Marks, Avstriya maktabi vakillari, Lozanna iqtisodiy maktabining asosiy vakillari, ingliz-amerika iqtisodiy maktabining vakillari, ulardan keyin Jon Meynard Keyns va Monetarizm vakillari ham o'zlarining katta hissalarini qo'shganlar, bular hammasi ushbu bobda batafsil yoritilgan.

## **Asosiy tushunchalar**

Merkantelizm – buning mohiyati muomala sohasidagi, ya'ni pul aylanmasidagi (oborotidagi) va savdodagi qonuniyatlarni aniqlaydi.

«Caissez faire» tamoyili (prinsipi) bu savdo qilishdagi kishilarga erkinlik berish va davlatning iqtisodiyotga aralashmaslikni bildiradi.

Fiziokratlar – bular asosiy tushunchalarni ishlab chiqarishga qaratganlar (agrar sektoriga).

Klassik maktab – asosiy vakillari A.Smit «Tabiat va xalqlarning boy bo'lishi to'g'risida tadqiqot»<sup>50</sup> (1976) asarida asosan, e'tiborni iqtisodiyot faoliyatida kishilarga erkinlik berishga qaratgan edi. D.Rikardo esa, ishlab chiqarish sohasini qiymat va daromad manbai, degan edi. Sen-Simon, Klod Anri de Ruvrua, Sharl Fure, Robert Ouen va boshqalar ham klassik maktab vakillari bo'lganlar.

Neoklassik maktab vakili Alfred Marshall talab va taklif, ya'ni bozor muvozanatini, narx-navo mexanizmini o'ziga interpretatsiya qilgan.

Marjinalizm – XIX asrdagi eng yuksak naflilik nazariyasining amalga oshirganlar, ularning vakillari – Karl Menger, Fridrix fon – Vizer, Oygen fon – Bem – Baverk bo'lganlar.

Ekonomika bu iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligini funksional tamoyil (prinsip) asosida tadqiq qilishni anglatadi.

## **Seminar darslarda muhokama qilish uchun savollar**

1. Iqtisodiyot nazariyasi fani maktablarining asosiy yo'nalishlari.
2. Klassik maktab asoschilarining iqtisodiyot fanida rivojlanishga qo'shgan ulushlari nimalardan iborat?
3. O'zbekiston iqtisodchilari fikrlarining iqtisodiyot nazariyasi fanining rivojlanishidagi roli.

## **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Jamiyatga nima uchun iqtisodiyot fani kerak?
2. Iqtisodiyot nazariyasining boshqa jamiyatshunoslik fanlar orasidagi o'rni qanday?
3. Iqtisodiyot fanining asosiy tushunchalari va ularning usullari nimadan iborat?

---

<sup>50</sup> А.СМИТ. «Исследование о природе и причинах богатства народов». М.: Директ-Медиа, [https://biblioclub.ru/index.php?page=book\\_red&id=560822014](https://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=560822014)

### **3 BOB. IQTISODIYOT ASOSLARI. IQTISODIYOT NAZARIYASINING UMUMIY ASOSLARI**

Iqtisodiyot odamlar hayoti va faoliyatining o'ziga xos sohasi sifatida iqtisodiyot nazariyasining tadqiqot **ob'ekti** hisoblanadi. Ana shu sohaning xususiyatlarini, uning mazmun-mohiyatini umuman iqtisod fani va uning asosiy qismi sifatida iqtisodiyot nazariyasi ko'lamini belgilaydi.


Iqtisodiyotning o'zi nima, degan savolga javoblar juda ko'p. Ko'pincha iqtisodiyot haqidagi tasavvurlar kundalik hayotimizdan kelib chiqadi – biz narx-navo, sarf-xarajatlar, ish haqi va hokazolarga muntazam duch kelamiz. Shuning uchun iqtisodiyot haqidagi odatdagi tasavvurlar ko'pincha o'z xo'jaligini ratsional yuritish, pullardan samarali foydalanish va hokazolar bilan bog'liq bo'ladi. «Iqtisodiyot» (grekcha ekonomike so'zining atamasi)ning o'zi ham xo'jalikni boshqarish ma'nosini anglatishi tasodifiy emas. Shu bilan birga, hozirgi zamondoshlarimiz ongida iqtisodiyot haqida boshqa, birmuncha kengroq – umuman, xalq xo'jaligidagi ishlarning ahvoli, narx-navoning, daromadlarning, tashqi iqtisodiy aloqalarning o'zgarishi va xokazolar degan tasavvur qaror topgan.

Iqtisodiyotning mazmun-mohiyatini aniqlash murakkabligi yana bir shart-sharoit bilan bog'lik. Buni iqtisodiyot nazariyasini o'rganayotgan odam nazarda tutishi lozim. Biz iqtisodiy hayot qatnashchilari, iqtisodiyot sub'ektlarining ijtimoiy roli va vazifalari o'zgarib turishiga doimo duch kelamiz. Odamlar bir vaqtning o'zida ne'matlarni ishlab chiqaruvchi va ularni iste'mol qiluvchi, daromad oluvchi va ana shu daromadlardan soliq to'lovchi, aksiya egalari va ayni vaqtda ishlab chiqaruvchi kabi vazifalarni bajaradilar. Buning ustiga iqtisodiyot va uning sub'ektlari ahvoli muntazam o'zgarib turadi. Turli ko'rsatkichlarning o'zgarishlari, iqtisodiyot sub'ektlarining ko'psonli vazifalari ortida turg'un tamoyillarni, o'zaro aloqalarni qanday qilib ko'ra olish, to'g'ri qarorlar qabul qilish mumkin? Ana shu va boshqa savollarga faqat fan, birinchi navbatda, iqtisodiyot nazariyasigina to'g'ri javob berishi mumkin.

#### **3.1. Ehtiyojlar, resurslar, ne'matlar**

Iqtisodiyotning ilk ta'rifi odamlarning iqtisodiy faoliyatini, ularning ehtiyojini qondirishga qaratilganligiga asoslanadi, shuning uchun ehtiyoj resurslar, texnologiyalar, mahsulotlar va ulardan foydalanish kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Mazkur qismlarning o'zaro aloqadorligini

soddalashtirilgan holda quyidagi ko‘rinishda tasavur qilish mumkin:



### 3.1. – chizma. Ehtiyojning tarkibiy qismlari.

- nima maqsadda (kim uchun ishlab chiqarish kerak, mahsulotdan foydalanishning yo‘nalishlari)?

Iqtisodiyotga bunday yondashilganda quyidagi dastlabki eng oddiy iqtisodiy muammolar paydo bo‘ladi:

- nima ishlab chiqarish kerak (qanday ehtiyojlarni qondirish kerak)?;
- qanday ishlab chiqarish kerak (qaysi resurslardan, qanday texnologiya bo‘yicha)?

**Ehtiyojlar** iqtisodiy faoliyatning boshlang‘ich nuqtasi, ularning qondirilishi – pirovard natija hisoblanadi.

Ehtiyojlarni muntazam qondirib turish zarurati – insoniyat jamiyatining, har bir odamning xususiyatidir. Ehtiyojlar rang-barang. Ularni turli mezonlarga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

- Tirikchilik vositalariga, ya’ni odamlarning hayotiy muhim ehtiyojlarini qondiradigan ne’matlarga bo‘lgan (ovqat, kiyim-kechak, boshpana va h.k.) ehtiyojlar;

- Inson hayotining ijtimoiy-madaniy vositalariga (maorif, madaniyat, bo‘sh vaqt va h.k.) bo‘lgan ehtiyojlar;

- Faoliyat vositalariga (tovarlar ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish uchun zarur narsalar va h.k.) bo‘lgan ehtiyojlar;

- Ijtimoiy-obro‘li ne’matlarga (turistik xizmatlar, zeb-ziynat buyumlari va h.k.) bo‘lgan ehtiyojlar.

Ehtiyojlarni qanday qondirilishiga (alohida-alohida, jamoa holidi) ko‘ra, qondirilishi muqobilligiga ko‘ra va h.k. boshqacha tasniflansa ham bo‘ladi.

Iqtisodiyot nuqtai nazaridan ehtiyojlar o‘zgarishining prinsipial xususiyatlarini aniqlash, ayniqsa, muhim - jamiyat rivojlanib borgani sayin ehtiyojlarning oshishi, tarkibi, sifati va soniga ko‘ra muntazam o‘zgarib turishi



ro‘y beradi. Yangi ehtiyojlar paydo bo‘ladi, eskilari yo‘qoladi, ehtiyojlarning turlari o‘rtasidagi nisbat o‘zgaradi va h.k. Bu, **ehtiyojlarning yuksalish qonunida** o‘z aksini topadi.

Ehtiyojlarning oshishi va ularning o‘zgarib borishi odamlar ehtiyojini qondirishga mo‘ljallangan ne‘matlarning yaratilishiga kuchli turtki beradi.

Ehtiyojlarni doimiy qondirish imkoniyatlari jamiyatda, mamlakatda, ayrim odamlarda resurslar mavjud bo‘lgan taqdirdagina yaratiladi.

**Resurslar** – bu ne‘matlarni yaratish va ehtiyojlarni qondirish uchun mavjud imkoniyatlardir. Resurslar xilma-xil bo‘lib, turlicha tasniflanishi mumkin. Tabiat resurslari, ya‘ni jamiyatda mavjud bo‘lgan qazilma boyliklarining zaxiralari, qishloq xo‘jaligi uchun qulay sharoitlar, jug‘rofiy qulay joylashuv.

Avvalgi avlodlar tomonidan ishlab chiqarish faoliyati va iste‘mol uchun yaratilgan hamda to‘plangan resurslar, ya‘ni mavjud korxonalar, transport tizimlari, uy-joylar va hokazolar.

Tajribasi, malakasi, bilim darajasi hamda tadbirkorlik qobiliyati bo‘lgan odam resurslari.

Pul, oltin-valyuta va boshqa resurslar.

Texnologiya va ilmiy-texnik resurslar, ya‘ni hozirgi zamon texnologiyasi taraqqiyoti uchun jamiyatda mavjud bo‘lgan imkoniyatlar zaxirasi va h.k.

Resurslarni boshqacha tasniflash ham mumkin. Masalan, ulardan foydalanish imkoniyatlarining muqobilligi bo‘yicha, bir-birining o‘rnini bosa olishi, ma‘lum vaqt doirasi bilan cheklanganligi bo‘yicha va h.k. Ammo tasnif turlaridan kat‘iy nazar barcha resurslar bir umumiy xususiyatga ega, ular iqtisodiy faoliyatning birlamchi va asosiy shartini: zarur sifatdagi va har xil resurslarning mavjudligi ne‘matlarni yaratish, bu demak, ehtiyojlarni qondirishning birlamchi sharti ekanligini tavsiflaydi.

Inson ehtiyojlari turli usullar bilan va turli vositalar yordamida qondirilishi mumkin.

Dastavval insoniyat taraqqiyoti ehtiyojlarining qondirilishini ko‘proq tabiiy sharoitlarga (meva-chevalarni yig‘ish, daryolardan transport yo‘li sifatida foydalanish va h.k.) moslashtirishga asoslangan. Jamiyat rivojlana borganidan keyingina ehtiyojlarni qondirish bilan ishlab chiqarishni rivojlantirish, texnologiyalarni takomillashtirish o‘rtasida aloqa borligi ayon bo‘ldi. Ishlab chiqarish faoliyati jarayonida birlamchi resurslarning inson ehtiyojlariga, odamlarning u yoki bu ehtiyojini qondiradigan ne‘matlarning

yaratilishiga moslashishi ro‘y berdi. Ammo ehtiyojlar birgina moddiy mahsulotlar bilangina qondirilmaydi.

**Ne‘mat** – bu ham moddiy, ham ma‘naviy bo‘lmagan, pirovard oqibatda, iste‘molchining ma‘lum ehtiyojini qondirishga qodir bo‘lgan yoki ishlab chiqaruvchi ma‘lum maqsadlar uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan har xil predmetlardir. Buyumlarning o‘zi ham, ularning xususiyatlari ham ne‘mat hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotida ularni odatda, tovarlar va xizmatlar, deb atashadi.

Ne‘matlarni ikki turga – ishlab chiqarish resurslariga va ularga asoslanib ishlab chiqariladigan iste‘mol ne‘matlariga bo‘lish mumkin.

### **3.2. Resurslar va ne‘matlarning cheklanganligi**

Har qanday iqtisodiy faoliyat tegishli ehtiyojni aniqlashdan boshlanadi. Ehtiyojlarning ma‘lum vaqt doirasida mumkin kadar, vaqtincha qondirilishi muqarrar ravishda ehtiyojlarning qayta tiklanishi, oshib borishi, murakkablashishi va chuqurlashishini keltirib chiqaradi. Bunday ahvol doimiy bo‘lib qolaveradi. Ikkinchi tomondan olganda, bizning ehtiyojlarni qondirish vositalarimiz (resurslar va texnologiyalar), aslini olganda, hamisha cheklangan bo‘ladi. Cheklanganlik har xil bo‘lishi mumkin.

Avvalambor, bu tabiatda mavjud bo‘lgan turli ne‘matlar miqdorining bir xil emasligidir, ularning bir qatori boshqalariga qaraganda kam tarqalgan. Cheklanganlik odamlar yaratadigan ne‘matlarni ham qamrab oladi. Bu ne‘matlar ushbu turlarning mazkur vaqtdagi zaxiralarigagina emas, ana shu sharoitlarda ularni qayta ishlab chiqarish uchun mavjud bo‘lgan imkoniyatlarga ham, ya‘ni vositalarga ham taalluqlidir.

Zaxiralarni to‘ldirish imkoniyatlariga ko‘ra ne‘matlar **takror ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan** va **takror ishlab chiqarish mumkin bo‘lmagan** ne‘matlarga bo‘linadi. Shunday qilib, turli ne‘matlar zaxiralarining to‘ldirib borilishi hajmi va darajasi ularning bir-biriga nisbatan cheklanganligini tavsiflaydi hamda **ne‘matlar kamyoblighi** kategoriyasida ifodalanadi.

Bir iste‘molchi ixtiyorida mavjud bo‘lgan ne‘matlar zaxirasi uning ehtiyojlarini to‘la hajmda qondirish uchun yetmasligi mumkin, hayotda ko‘pincha shunday bo‘ladi. Hatto, biz, ushbu muayyan, juda tor ta‘riflangan ehtiyoj shu davrda to‘liq qondiriladi, deb tasavvur qilganimizda ham, ayni vaqtning o‘zida iqtisodiyotning ana shu sub‘ektida mavjud bo‘lgan, to‘yintirilgan ehtiyoj kabi aynan shu vositalardan foydalanib qondirilishi

mumkin bo'lgan boshqa barcha ehtiyojlarning qondirilmay qolgani ayon bo'ladi. Ne'matlarning ularga bo'lgan ehtiyojga nisbatan bunday cheklanganligi **ne'matlar yetishmovchiligi** kategoriyasida ifodalanadi.


Natijada, kamyoblik va yetishmovchilik **ne'matlar cheklanganligining** turli jihatlari sifatida namoyon bo'ladi. Ne'matlarning, shu jumladan, resurslar va texnologiyalarning cheklanganligi esa, aslida ne'matlarning odamlar iqtisodiy hayoti va faoliyati sohasiga kiradigan universal xususiyatlari, degan tasavvur hosil qiladi.

### 3.3. Tanlov muammosi

Qondirish vositalari cheklangan bir vaqtda ehtiyojlarning xilma- xilligi shunga olib keladiki, ularning hammasi ham qondirilmaydi, aniqrog'i qondirish ham to'liq bo'lmaydi. Bu demak, har qanday iqtisodiy xatti-harakat aslida qondirish imkoni bo'lgan bir nechta ehtiyojlar orasidan ayni vaqtda qondirilishi kerak bo'lgan bir ehtiyojning tanlanishini anglatadi. Ayni vaqtda oshib borayotgan ehtiyojlarni qondirish mavjud resurslar va texnologiyalar bilan cheklangan bo'ladi. Bu iqtisodiy qaror qabul qilish muammosi, aslini olganda, iqtisodiy xatti-harakatlarning muqobil variantlaridan birini **tanlashning** o'zginasi ekanligini anglatadi. Bunday muammo ana shunday iqtisodiyot sub'ektining nafaqat **muqobil** variantlardan birini tanlash imkoniyati, shu bilan birga, zarurati bo'lgan hollarda vujudga keladi.

Ayni vaqtda ana shu xatti-harakat vujudga kelgan vaziyatda boshqa ehtiyojlarning qondirilishidan voz kechishni anglatadi. Shu bilan birga, har qanday iqtisodiy xatti-harakat cheklangan resurslar va zaxirasining ma'lum bir ulushi sarflanishini, bu demak, qolgan ehtiyojlarning qondirilish imkoniyatlari qisqarishini anglatadi. Demak, muayyan ehtiyojlarning qondirilishiga muayyan miqdordagi resurslarning ajratilishi, boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun ana shu resurslardan foydalanishdan voz kechish, shu bilan birga, mazkur ehtiyojlar qondirilishini ma'lum darajada cheklash bilan bog'liq. Shunday qilib, tejamkorlik muammosi – iqtisodiyot mazkur sub'ektining boshqa ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini ta'minlagan holda ushbu ehtiyojning qondirilishiga cheklab va puxta o'ylab mablag' ajratish tanlov muammosining orqa tomoni hisoblanadi.

Iqtisodiy tanlov va sarf-xarajatlarni aniqlash muammosini sodda: **ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi** (3.2-chizma) modelida namoyish etish mumkin.



### 3.2. chizma. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi.

Ushbu model berilgan texnologiya va ishlab chiqarish faoliyatining turli nisbatlarini va natijalari kombinatsiyasini ko‘rsatadi. Chizma mazkur o‘zgarmas sharoitlarda **B** ne‘matlarini ishlab chiqarishni kamaytirish hisobigagina **A** ne‘matlarni ishlab chiqarishni ko‘paytirish mumkin ekanligini ko‘rsatadi. Ayni vaqtda mavjud resurslardan eng yuqori natija bilan to‘liq foydalanilsa, iqtisodiyot samarali ishlaydi. Bu ishlab chiqarish imkoniyatlari chizmasidagi nuqtalar samarali ishlab chiqarishni aks ettirishini anglatadi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasidan pastdagi nuqtalar (Masalan, **S** nuqtasi) iqtisodiyot samarasiz ishlayotganligini ko‘rsatadi, basharti, masalan, faqat **B<sub>2</sub>** va **A<sub>1</sub>** ne‘matlari ishlab chiqarilayotgan bo‘lsa, yangi texnologiyalarga o‘tish ishlab chiqarish imkoniyatlarining egri chizig‘i (shtrixli chiziq) yuqoriga qarab siljiyotganini anglatadi, bu berilgan cheklanishlar bilan **A** va **B** ne‘matlarni ko‘proq miqdorda ishlab chiqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, resurslar ishlab chiqarish kombinatsiyasining va ishlab chiqarilayotgan mahsulot tegishli tarkibining ko‘pdan-ko‘p muqobil variantlari mavjud.

### 3.4. Ishlab chiqarish

Ishlab chiqarish jarayonida mahsulotlarni yaratish uchun resurslardan (mehnat, ishlab chiqarish vositalari, texnologiyalar, yerdan) foydalaniladi. Resurslar ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish omillari yoki mahsulot yaratish omillari vazifasini o‘taydi. Odam resurslari mehnat qobiliyatlari

(ya'ni ishchi kuchi) bilan birga ishlab chiqarish jarayonida mehnat sifatida namoyon bo'ladi. Tabiat resurslari va ulardan olinadigan materiallar **mehnat ashyolari** vazifasini o'taydi, odamlar faoliyati aynan ana shu ashyolarni o'zgartirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Va nihoyat, inson faoliyati natijasida to'plangan resurslar **mehnat vositalari** vazifasini o'taydi, odam mehnat jarayonida ana shu vositalar ko'magida mehnat ashyolariga ta'sir o'tkazadi.

Mehnat vositalari bilan mehnat ashyolari birgalikda **ishlab chiqarish vositalarini** tashkil etadi. Ishlab chiqarishning ana shu barcha omillari o'zaro hamkorligi natijasida mahsulotning yaratilishi, **texnologiya**, ya'ni ishlab chiqarishning mavjud ilmiy-texnik bazasi, shu jumladan, axborot imkoniyatlari taqozo etgan mahsulot ishlab chiqarish usullari va axborot imkoniyatlarini boshqarishning alohida tizimini taxmin qiluvchi **ishlab chiqarishni tashkil etish** orqali namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarishning samaradorligi resurslar sifatiga, ularning kombinatsiyasiga va ishlab chiqarishni tashkil etish shakllariga bog'liq. Ishlab chiqarishning samaradorligi nuqtai nazaridan resurslar ishlab chiqarish kuchlari sifatida tavsiflanadi.

**Ishlab chiqarish kuchlari** – jamiyatning mavjud resurslarida mujassam bo'lgan mahsulot yaratish, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatlaridir. Ishlab chiqaruvch kuchlarni rivojlantirish mahsulotlarni va boylikni doimiy ko'paytirib borishning zaminidir.

Ishlab chiqarish kuchlarining quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- Birlamchi ishlab chiqarish kuchlari – tabiiy resurslarda, ishlab chiqarish vositalarida va ne'matlarni ishlab chiqaruvchilarda mujassam bo'lgan imkoniyatlar;

- Ikkilamchi ishlab chiqarish kuchlari birlamchi kuchlar zaminida rivojlanadi va ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining tashkil etilish shakllari, fan, maorif, madaniyat, axborot texnologiyalari, raqobat va tadbirkorlik taraqqiyoti natijalarining ishlab chiqarishga jalb etilganligi bilan tavsiflanadi.

Ikkilamchi ishlab chiqarish kuchlarining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, ular birlamchi ishlab chiqarish kuchlarini tokamillashtirish orqali, maorif, fan va hokozolar taraqqiyoti natijalriga moddiy tus berib, faoliyat ko'rsatadilar yoki ularning yangi, nisbatan samarali aloqalarini ta'minlaydilar, bu ishlab chiqarish samadorligining o'sishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish kuchlari nafaqat tarkibiy to'zilishi, shu bilan birga, tarixiy

rivojlanishi jihatidan ham tavsiflanishi mumkin. Shu jihatdan ular quyidagi turlarga bo‘linadi:

-Tabiiy ishlab chiqarish kuchlari, ular sub’ektiv (odamning jismoniy, sensorli va aqliy imkoniyatlari bilan tavsiflanuvchi mehnatning tabiiy kuchlari) va ob’ektiv elementlardan iborat. Ob’ektiv elementlar mehnat jarayonining tabiiy shart-sharoitlarida mavjud bo‘lgan imkoniyatlarni tavsiflaydi va ana shu sharoitlarning mo‘l-ko‘lligi oson qo‘lga kiritilishi sifatiga **bog‘liqdir**.

- Jamoat ishlab chiqarish kuchlari – bu jamiyat taraqqiyoti mobaynida yaratilgan va to‘plangan kuchlar. Ular ishlab chiqarishning doimo takomillashib boruvchi omillarinigina emas, shu bilan birga, faoliyatning ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi, insoniyat tomonidan yaratilgan fan-taxnika yangiliklarini rivojlantirish va mustahkamlash, tadbirkorlik kabi jamoat ko‘rinishlarini ham o‘z ichiga oladi.

-Umumiy ishlab chiqarish kuchlari fanning ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarishda fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari moddiy tus olishi, inson faoliyatining ijodiy xarakteri rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Ishlab chiqarilgan ne‘matlar taqsimot va ayriboshlash orqali iqtisodiyotning alohida sub’ektlari iste‘moliga havola etiladi.

### 3.5. Taqsimot

**Taqsimot** – bu iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining iste‘moliga kelib tushuvchi mahsulot ulushi va hajmini belgilashdir. Taqsimotning jamiyatdagi oli barchaga ayon. Ne‘matlarning adolatsiz taqsimlanishi sababli ba‘zan jamiyatda ijtimoiy keskinliklar kelib chikishi, tadbirkorlik bilan faol shug‘ullanishga da‘vat etuvchi omillar o‘z ahamiyatini yuqotishi mumkin. Shuning uchun taqsimot muammolari hamisha iqtisodiyot nazariyasining diqqat markazida bo‘lib kelgani tasodifiy emas.

Tor ma‘nodagi taqsimot (mahsulot taqsimoti) bilan keng ma‘nodagi tahsimotini (ishlab chiqarish shartlari va omillari) bir-biridan farqlash kerak. Mahsulot taqsimoti ma‘lum darajada ishlab chiqarish omillarining ishlab chiqarish sub’ektlari o‘rtasida qanday taqsimlanganiga, ya‘ni ularga **egalikka** bog‘liq. Masalan, aksiyalar nazorat paketining egasi, odatda, nafaqat kattaroq iqtisodiy hokimiyatga, shu bilan birga, daromadning mumayroq, qismini olish huquqiga ega bo‘ladi. Ishlab chiqarish omillariga egalikdagi ulush bilan olinadigan daromadlar o‘rtasidagi aloqa amaliyotda unchalik sodda emas, u pirovard oqibatda, turli-tuman ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

**Birlamchi** taqsimot bilan ikkilamchi taqsimotni yoki **qayta taqsimotni** bir-biridan farqlashadi. Ishlab chiqarilgan mahsulot, olingan daromad, odatda, iqtisodiy faoliyatning turli sub'ektlari: korxonalar va davlat; xodimlar va mulk egalari; davlat va mintaqalar tariqasida qayta taksimlanishi lozim. Natijada, taqsimot va qayta taqsimotning juda murakkab va qarama-qarshi tizimi vujudga keladi. Mazkur tizim mukammal ko'rinishida iqtisodiyot samaradorligi o'sishiga va mazkur iqtisodiy tizimda ijtimoiy adolat qaror topishiga xizmat qilishi zarur. **Ayirboshlov** iqtisodiy faoliyat sub'ektlariga yetkazib beradi. Ishlab chikarishning o'zidagi faoliyat **ayirboshlovini mahsulotlar ayirboshlovidan farqlashadi**. **Agar ayirboshlovning** birinchi turi mehnat jarayoni ichidagi mehnatning texnologik taqsimotiga asoslangan bo'lib, ayrim xodimlar amalga oshirayotgan mehnat jarayonlarini (sexda ishlash, konveyerda ishlash) bir-biriga bog'lasa, ikkinchisi sifat jihatidan birinchisidan farq qiladi. Mahsulotlar **ayirboshlovi mehnatning ijtimoiy taqsimoti** zamirida yoki iqtisodiyot sub'ektlari mahsulotining u yoki bu turini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi zamirida amalga oshiriladi.

Mehnat taqsimotiga asoslangan **ayirboshlov** hozirgi zamon iqtisodiy sharoitida tovar **ayirboshlovi** ko'rinishini qabul qilmoqda.

### 3.6. Ayirboshlash

**Pul ayirboshlovda** vosita vazifasini o'tamoqda. Mamlakat ichkarisidagi mehnat taqsimotini **mehnatning xalqaro taqsimotidan** farklash kerak, ikkinchi holda ayrim mamlakatlar o'z iqtisodiyotlari nuqtai nazaridan foydali bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadilar.

Mehnatning ijtimoiy taqsimoti – iqtisodiy taraqqiyot umumiy asoslarini tavsiflovchi muhim kategoriyalardan biridir. Ixtisoslashish, mehnat taqsimoti, **ayirboshlovning** rivojlanishi va mehnat unumdorligi o'rtasidagi o'zaro aloqa aniqlanganiga ko'p vaqt bo'ldi.

Mehnat taqsimotining o'ziga xos roli A.Smitning e'tiborini o'ziga jalb etdi. A.Smit uni mehnat va kapitalning unumdorlik kuchi sifatida ta'rifladi, mehnat taqsimotiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etdi. Ma'lumki, K.Marks jamiyat rivojlanishida ijtimoiy mehnat taqsimotining roli haqidagi A.Smitning fikrlariga qo'shibgina qolmay, mehnatning chakana, xususiy va umumiy taqsimotlari o'rtasidagi farqni aniq chegaralab berdi. Bu xalq xo'jaligi asosiy bo'g'inlari ichidagi mehnat taqsimoti bilan butun jamiyatdagi taqsimot o'rtasidagi farqni ko'rsatibgina qolmay, mehnatning ana shu har xil turlarini

amalga oshirish vositasi bo'lmish iqtisodiyotning alohida ko'rinishlarini bir-biridan farklash imkonini berdi. Ijtimoiy mehnat taqsimoti haqidagi masala keyinchalik ham faylasuflar, siyosiy iqtisodchilar va samaradorlik sohasidagi mutaxassislar e'tiborini doimo jalb etib keldi. Iqtisodiyotga doir hozirgi zamon darsliklari xah mehnat taqsimotining jamiyatdagi alohida rolini ta'kidlaydi. (P.Samuelson, K.Makkonnell, S.Bryu va boshqalar).

Mehntning ijtimoiy rivojlanishini aniqlashda ijtimoiy mehnat, ya'ni mehnatning jamiyatda mavjud bo'lgan (ana shu vaqtda jamiyat ixtiyorida bo'lgan) ma'lum turlari yig'indisi, ehtiyojlarni qondirish nuqtai nazaridan olganda, cheklangan ekanligini e'tirof etish birlamchi hisoblanadi. Ana shu ehtiyojlarni qondirish uchun mehnat turlarini ko'paytirish va mahsulotlarni rang-barang qilish zarur. Ammo mazkur jarayon mavjud resurslarning, shu jumladan, mehnat resurslarining tor imkoniyatlariga duch keladi. Bu qarama-qarshilikni bartaraf etish uchun ixtisoslashishni mehnat unumdorligini oshirish bilan ko'proq darajada qo'shib olib borish zarur bo'ladi. Natijada, jamiyatning ishlab chiqarayotgan mahsulotlari, resurslari va texnologiyalari bir-biridan farq qiluvchi **iqtisodiyotning** alohida tarmoqlari va **sohalari** paydo bo'ladi.

Shu munosabat bilan, birinchidan, iqtisodiyotning moddiy ko'rinishga ega bo'lgan mahsulotlarni yaratishga ixtisoslashgan faoliyatning moddiy ishlab chiqarish sohasini alohida ajratishadi. Ana shu sohaning aksariyat tarmoqlari, hayot uchun zarur vositalarni ishlab chiqarishi tufayli, jamiyat hayoti va faoliyatining asosini tashkil etadi (sanoat, qishloq xo'jaligi va h.k.).

Ikkinchidan, xizmatlar yaratish sohasi ajratiladi. Uning o'ziga xos tomoni shundaki, ehtiyojlarning qondirilishini mazkur sohaning faoliyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Xizmatlarni moddiy ishlab chiqarishda (ta'mirlash xizmatlari va h.k.) va moddiy bo'lmagan ishlab chiqarishda (turizm, maorif, axborotlar sohasidagi faoliyat, moliya institutlaridagi faoliyat va h.k.) yaratish uning tarkibiga kiradi.

Boshqacha aytganda, resurslar va mahsulotlarni qayta ishlash bosqichlariga ko'ra tasniflashdan ham foydalaniladi. Bu holda iqtisodiyotning quyidagi sohalari ajratib ko'rsatiladi:

- iqtisodiyotning birlamchi sohasi – bu xom ashyo olish borasida tabiat bilan bevosita aloqani amalga oshiruvchi tarmoqlar va korxonalar (qishloq va o'rmon xo'jaligi, foydali qazilmalarni qazib olish, ovchilik va baliq ovlash va h.k.);

- iqtisodiyotning ikkilamchi sohasi – mahsulotlar yaratilishini va



iste'molchiga yetkazib berilishini ta'minlovchi korxonalar tarmog'i (sanoatning ishlov berish va qayta ishlash tarmoqlari, shu jumladan, mashinasozlik, iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, shuningdek, ta'mirlash, savdo-sotiq sohasida ishlab chiqarishni davom ettirish va h.k.);

- turli xizmatlar ko'rsatish (aloqa xizmati, turizm, maorif va **h.k.**). Iqtisodiyotning uchlamchi sohasini tashkil etadi.

Umumiy tamoyil resurslar va ish bilan bandlik tobora ko'proq xizmatlar sohasiga ko'chayotganida ko'zga tashlanadi. Hap qanday mahsulot ehtiyojlarni qondirish maqsadidagina ishlab chiqariladi va ularning yaratilishiga resurslar sarflanadi. Maqsadsiz ishlab chiqarish bema'nilikdir.

### 3.7. Iste'mol

**Iste'mol**, ya'ni ehtiyojni qondirish – har qanday jamiyatda ishlab chiqarish faoliyatining pirovard nuqtasi, uning mazmun-mohiyatidir. Ehtiyoj ishlab chiqarish faoliyati natijasida hamda bunday faoliyatsiz yaratilgan **ne'matlar bilan qondiriladi**.

Iste'mol maqsadlariga ko'ra ishlab chiqarishdan tashqarida odamlar ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan **shaxsiy iste'molga** va mahsulotdan ishlab chiqarish omillarini qayta tiklash va kengaytirish uchun, investitsiya maqsadlari uchun foydalanishga yo'naltirilgan **ishlab chiqarish iste'moliga bo'linadi**. Ehtiyojlar va ularni qondirish usullarining rang-barangligi ishlab chiqarilayotgan iste'mol buyumlari va xizmatlarning tarkibini, shu bilan birga, iste'molni tashkil etish xususiyatlarini ham belgilaydi (uy xo'jaliklari, ijtimoiy ko'rinishlar orqali va h.k.). aholi va firmalar iste'moli ularning **daromadlardan** foydalanishiga asoslanadi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning boshqa bir – iste'mol nuqtai nazaridan tasnifi ulardan foydalanish muddatlariga asoslanadi. Ular uzoq vaqt foydalaniladigan (kiyim-kechak, poyafzal, mashinalar va h.k.) va qisqa muddat foydalaniladigan predmetlarga (oziq-ovqat mahsulotlarining aksariyati, yordamchi materiallar) bo'linadi. Iste'mol qilinadigan mahsulotlar bir-birining o'rnini bosishini, ya'ni muqobillik asosida ulardan foydalanish imkoniyati mavjudligini, shuningdek, bir-birini to'ldirishini, ya'ni iste'molda bir mahsulotdan foydalanish, ayni vaqtda, muqarrar ravishda, boshqa mahsulotdan ham foydalanishni taqozo etishini ta'kidlash lozim.

Ishlab chiqarishdan iste'mol sari harakatning har bir bosqichida iqtisodiy faoliyatga iqtisodiyotning yangidan-yangi sub'ektlari jalb etilishini, ularning

ishlab chiqarish, ne'matlar taqsimoti, ayirboshlovi, iste'moli bilan bog'liq o'zaro aloqalari muntazam chigallashib borishini ta'kidlash muhimdir.

Iste'mol to'xtab qolishi mumkin emas, bu demak, ishlab chiqarish, ayirboshlov hamda va iste'molni o'zaro birlikda va o'zaro aloqada muntazam takrorlab turish, yoxud **takror ishlab chiqarish** muqarrardir. Shuning uchun iqtisodiyot o'z-o'zini qayta tiklovchi iqtisodiyot sifatida namoyon bo'ladi, bu **iqtisodiy aylana oborotida** o'z ifodasini topadi.

### 3.8. Xo'jalik yuritish va samaradorlik

Iqtisodiyot sub'ektlari, iqtisodiy faoliyatning sub'ektlari sifatida, o'z maqsadlariga erishish uchun ixtiyorlarida mavjud bo'lgan resurslardan kelib chiqib, mustaqil ravishda qaror qabul qilishlari zarur.

**Xo'jalik yuritish** – iqtisodiyot sub'ektlarining ehtiyojlar qondirilishini va eng kam sarf-xarajatlar bilan qo'yilgan maqsadlarga erishilishini taxmin qiluvchi, eng tejamli qarorlarni qabul qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar va xatti-harakatlar majmuidan iborat. U samarali faoliyatni amalga oshirish uchun natijalarni sarf-xarajatlar bilan muntazam qiyoslab turishni taxmin qiladi.

**Samaradorlik** (umumiy ko'rinishida) – natijalarning sarf-xarajatlar bilan nisbatidir. Samaradorlik real iqtisodiyotda rang-barang ko'rinishlarda ifodalanishi bilan ajralib turadi.

Xo'jalik yurtuvchi sub'ektlar xatti-harakatining iqtisodiy ratsionalligi ularning dastavval o'z xatti-harakatlari foydasini (natijalarini), foyda olish uchun qilinishi zarur bo'lgan taxminiy sarf-xarajatlarni aniqlashlari, foydani qilinadigan sarf-xarajatlar bilan qiyoslashlari kerak ekanligini taxmin qiladi.

**Iqtisodiy tanlov va muqobil sarf-xarajatlar.** Agar sarf-xarajatlar muammosini ne'matlar cheklanganligi va muqobil variantlar orasidan birontasini tanlash zarurligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqadigan bo'lsak, samaradorlik muammosi quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi: Aniq bir ne'matni olishga yo'naltirilgan har qanday xatti-harakat ayni vaqtda uning muqobili bo'lgan boshqa barcha ne'matlarni olishdan voz kechishni, ya'ni tanlab olingan ne'matga egalik qilish uchun qolgan barcha ne'matlardan voz kechishni anglatadi. Masalan, bir litr sutning sotib olinishi ana shu pulga bir dona non sotib olishdan voz kechilishini anglatishi mumkin.

Albatta, aksariyat vaziyatlarda tanlash imkoniyati ikkitadan ortiq bo'ladi. Bunday holda iqtisodiyotning maqsadga muvofiq harakat qiluvchi sub'ekti mavjud resurslardan foydalanishning har bir muqobil varianta keltiradigan foydani chamalab chiqadi va amalga oshirilishi eng ko'p foyda keltiradigan

muqobil variantni tanlaydi.

Iqtisodiyotning tejamkor sub'ekti bunday holda nimalardan mahrum bo'ladi? Shu narsa ayonki, u o'zi tanlagan eng yuqori foydani deb, boshqa foydalardan mahrum bo'ladi. Chunki mazkur sub'ekt qolgan barcha muqobillarni, shu jumladan, ularning ichidan eng yaxshisini qurbon beribgina, iqtisodiy xatti-harakatlarning eng foydali variantini amalga oshirishi mumkin. Bu demak, mazkur ne'matni olish uchun qilingan sarf- xarajatlar muqobil, olinmay qolgan boshqa ne'matlarga teng bo'ladi, muqobil ne'matlar keltirishi mumkin bo'lgan foydalar ichida ana shu xatti-harakat vaqtida rad etilgan eng yuqori foyda mazkur xatti-harakatning sarf-xarajatlarini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, **muqobil sarf- xarajatlar** – bu amalga oshirilmagan muqobil imkoniyatlarning keltirishi mumkin bo'lgan foydaning o'zi.

Bir ne'matni (aytaylik, **A** ne'matini) ko'p miqdorda ishlab chiqarishga o'tish vaqtida (3.2.- chizmaga karang), boshqa ne'matning qo'shimcha ishlab chiqarilmagan miqdori (bizning misolimizda **B** ne'matining) mazkur ne'mat har bir qo'shimcha miqdorining sarf-xarajatlari hisoblanadi: masalan,  $A_2 - A_1$  miqdorini qo'shimcha ishlab chiqarganda,  $B_2 - B_1$  miqdori muqobil sarf-xarajatlar bo'ladi. Mazkur ne'matii tobora ko'proq ishlab chiqarishga izchillik bilan o'tishda biz muqobil sarf-tarajatlar **oshib borayotganini** payqaymiz. Muqobil sarf-xarajatlar oshib borishining sababi foydalanilayotgan resurslarning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Ularning hammasini ham bir ishlab chiqarishdan olib, ikkinchisiga yo'naltirib bo'lmaydi. Ratsional harakat qiluvchi iqtisodiyot sub'ekti avval ishlab chiqarishning mazkur turiga eng yaroqli resurslardan foydalanadi, so'ngra bunday ishlab chiqarish kengayib borgani sayin, resurslar cheklanganligi sababli, buning uchun boshqa kam yaroqli resurslarga o'tishga majbur bo'ladi. Bu demak, o'ziga xos iqtisodiy resurslardan ishlab chiqarishning boshqa muqobil turlarida faqat qisman, ma'lum darajada va tobora kamayib boradigan miqdorda foydalanish mumkin. Natijada, resurslar cheklanganligi va o'ziga xosligi sharoitida, mahsulotning muqobil turlaridan birontasini ishlab chiqarish kengayib borgani sayin muqobil sarf-xarajatlar og'ishmay ko'payib boraveradi.

Bozor sharoitlarida foyda pul ko'rinishida baholanadi hamda **pul tushumlari** yoki daromad ko'rinishida, sarf esa, xarajatlar va chiqim ko'rinishida ifodalanadi. Iqtisodiy xatti-harakat natijasini – pul mablag'larining tushumi va chiqimi o'rtasidagi **farqni daromad** ko'rinishida

ifodalasa bo'ladi. Bunda iqtisodiyot sub'ekti faoliyatining maqsadga muvofiqligi iqtisodiy faoliyatdan iloji boricha ko'proq daromad olishdan iborat bo'ladi.

Iqtisodiyotning maqsadga muvofiq harakat qiluvchi sub'ekti iqtisodiy tanlov sharoitida navbatdagi iqtisodiy operatsiyaning foydasi va xarajatlari yalpi darajasini solishtirish bilangina cheklanmaydi. U mazkur harakat bilan bog'liq qo'shimcha (eng yuqori) foydani va qo'shimcha (eng yuqori) xarajatni ham, ya'ni shunday harakatlar turkumi davom ettirilgan taqdirda, aynan shunday harakat sodir etilgan taqdirda, foyda va daromadning tegishli ravishda o'zgarib borishini ham solishtiradi. Agar bunday vaziyatda eng yuqori foyda eng yuqori xarajatdan ko'p balsa, shu narsa ayonki, ularning o'rtasidagi farq (qo'shimcha) eng yuqori daromad ham ijobiy bo'ladi. Bu umumiy daromad jang'armasiga yana bir ulush qo'shilishini anglatadi. Bunday holda maqsadga muvofiq harakat qiluvchi iqtisodiyot sub'ekti erishilgan natija bilan cheklanmasligi tushunarli, u eng yuqori foyda, eng yuqori xarajatlardan ko'p bo'lguncha, ya'ni ular bir-biriga tenglashadigan daqiqagacha shu xildagi harakatlarni davom ettiraveradi. Aynan ahvol shunday bo'lganida bir xil xatti-harakatlarning natijasi – daromadning umumiy miqdori – eng yuqori bo'ladi, bu demak, ratsional harakat qiluvchi sub'ekt o'z maqsadiga erishadi.

**Ishlab chiqarish va samaradorlik.** Samaradorlik ishlab chiqarish bosqichlari nuqtai nazaridan o'zgacha baholanadi. Aynan bu bosqichda ishlab chiqarish omillari bir-biri bilan birlashadi, ulardan foydalanish va maxsulotga aylanish ro'y beradi. Natijalar mahsulotni yaratishda bevosita iste'mol qilingan sarf-xarajatlarga yoki uni yaratishda ishtirok etgan omillarga mos bo'lishi kerak.

Shu munosabat bilan samaradorlikning qo'llanilgan sarf-xarajatlar (resurslar) bo'yicha va iste'mol qilingan sarf-xarajatlar bo'yicha ko'rsatkichlari bir-biridan farqlanadi. Agar birinchi holda natija (mahsulot, turli ko'rinishdagi daromad) ishlab chiqarishning ayrim omillari yoki to'la hajmda ularning majmui bilan qiyoslansa, ikkinchi holda, faqat mahsulotning narxiga (qiymatiga) kirgan joriy sarf-xarajatlar bilan qiyoslanadi. Qo'llanilgan sarf-xarajatlar bo'yicha ko'rsatkichlar orasidan mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini ajratish qabul qilingan. ( $P/K$  bunda,  $K$  – qo'llanilgan kapital, fondlar), material qaytishi ( $P/M$  bunda,  $M$  – qo'llanilgan materiallar) yoki material sarfi ( $M/P$ ).

Samaradorlikning sarf-xarajatlar bo'yicha ko'rsatkichlaridan ayniqsa,

keng qo'llaniladigani – daromadning chiqimga nisbati sifatidagi rentabellik ko'rsatkichidir.  $P/I$  bunda,  $I$  – mahsulotni yaratish (daromad olish) uchun chiqimlar (sarf-xarajatlar).

Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiyot tizimining turli darajalarida (korxonalar, tarmoqlar, xalq xo'jaligi) samaradorlik ko'rsatkichlari o'zining turlicha ifodasini topadi.

### 3.9. Iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish

Iqtisodiyotda son-sanoksiz sub'ektlar, iqtisodiy faoliyat qatnashchilari harakat qiladi. Ularning hammasi iqtisodiy qarorlarning eng maqbul variantlarini izlash bilan mashg'ul. Bu demak, har qanday iqtisodiyotning birlamchi muammosi mavjud hamda yaratilayotgan **ne'matlarni** muayyan ehtiyojlar, ishlab chiqarish turlari va iqtisodiyot sub'ektlari o'rtasida **joylashtirish** hisoblanadi. Shuning uchun har qanday iqtisodiyotning faoliyati va rivojlanishi iqtisodiyotning ana shu birlamchi muammosi qanday hal etilishiga bog'liq. Ne'matlarni joylashtirishning eng maqbul usullarini izlanish «Nima ishlab chiqarish kerak?», «Qanday ishlab chiqarish kerak?», «Kim uchun ishlab chiqarish kerak?» kabi muammolarni hal etish yo'llarini belgilaydi.

Ne'matlarni joylashtirish iqtisodiyot sub'ektlarining o'zaro hamkorligi orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiyotning har bir sub'ekti o'z foydasi va sarf-xarajatlarini o'zi chamalab, o'zi tanlashi sababli jamiyat ayrim sub'ektlarning **iqtisodiy faoliyatini muvofiqlashtirish** zaruratiga duch keladi. Bu quydagi zaruratlarini o'z ichiga oladi: 1) ishlab chiqaruvchilar qarorlarini kelishish; 2) iste'molchilarning qarorlarini kelishish; 3) umuman ishlab chiqarish va iste'mol haqidagi qarorlarni kelishish. Mazkur zaruratni ko'pgina sabablar, shu jumladan, iqtisodiyot sub'ektlari iqtisodiy faoliyatining ma'lum turlariga ixtisoslashuvi keltirib chiqaradi.

Ma'lum bir vaqtda iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirishning turli usullari turli nisbatlarda birlashib, muayyan iqtisodiy tizimlarda birga tinch-totuv yashaydi. Har bir milliy iqtisodiyotda uning shart-sharoitlariga mos bo'lgan faoliyatni muvofiqlashtirish usullari yaratiladi.

### 3.10. Iqtisodiy rivojlanish

Iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarida muvofiqlashtirishning natural, bozor, markazlashgan va aralash mexanizmlari muvofiqlashtirishning

ustuvor usullari bo‘lib kelgan.

Xo‘jalik birliklari tarqoq, ularning o‘rtasidagi aloqa muntazam bo‘lmagan **natural xo‘jalikda** faoliyatini muvofiqlashtirish tasodifiy xarakterda bo‘ladi, resurslarning birliklar o‘rtasidagi taqsimoti tabiiy tarkib topgan me‘yorlar va qoidalar bilan belgilanadi.

**Bozor tizimi** sharoitlarida iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish bozor orqali, narx-navo talab va taklifga muvofiq belgilash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunda iqtisodiyot sub’ektlarining o‘zaro aloqasi **aylanma oborot modeli (aylanma otsimlar)da** tasvirlanishi mumkin. U iqtisodiyotni ikki sektorga: uy xo‘jaligi va firmalarga bo‘ladi. Uy **xo‘jaliklari** o‘z resurslarini – mehnatlarini, kapitallarini va yerlarini sotishdan oladigan daromadlaridan tovarlarni va firmalarning xizmatlarini sotib olish uchun foydalanadilar. **Firmalar** tovarlar va xizmatlarni sotishdan tushgan pullaridan uy xo‘jaliklaridan resurslarni sotib olish uchun foydalanadilar (3.3-chizma).



**3.3-chizma. Muvofiqlashtirishniig bozor mexanizmi**

Nima iste‘mol qilishni, bu demak, nima ishlab chiqarishni aynan uy xo‘jaliklari hal etadi. Ularning qarorlari firmalarning ishlab chiqarish rejalarini uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Firmalar cheklangan resurslardan foydalanishga doir o‘z qarorlarini o‘zlashtirishlari kerak. Nihoyat, uy xo‘jaliklari iste‘mol qilish rejalashtirilgan ne‘matlarni olishlari, ya‘ni iste‘molga doir o‘z qarorlarini muvofiqlashtirishlari lozim.

Bozor tizimida muvofiqlashtirish vazifasini ikki xil bozor: ishlab chiqarish resurslari bozori va iste‘mol ne‘matlari bozori hal qiladi. Talab va taklif modeli tadbirkorlik sektori o‘rtasidagi aloqalarni izohlaydi. Tovar bozorida, oldi-sotdi yuzasidan ikki sektor bir – biri bilan aloqa qilganida, sotilayotgan tovarlar narxi va miqdorini model belgilaydi. Resurslar bozorida,

oldi-sotdi yuzasidan ikki sektor bir – biri bilan aloqa qilganida, resurslarning narxi va miqdori belgilanadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, har bir bozor iqtisodiyoti sub’ektlarining qaror qabul qiladigan ikki ma’lum tipiga: sotuvchilar va xaridorlarga ega. Bozorda qabul qilinayotgan qarorlarning muvofiqlashtirilishi turg’un narx-navo va har bir ne’matning turg’un miqdori bilan ta’minlanadi.

Narxlar taklif va talab o‘zaro aloqasining natijasi sifatida, uy xo‘jaliklari va firmalar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni muvofiqlashtirish uchun zarur bo‘lgan muhim axborotni beradi. Mazkur axborot resurslarni ratsionallashtirish (taqsimlash) muammosining jamiyat tomonidan hal etilishida muhim rol o‘ynaydi. Bir tomondan, narx-navo iste’molchilar capf-xarajatlari darajasini belgilaydi va shu orqali ularning chiqim tomonidan ta’minlanishiga ta’sir o‘tkazadi. Ikkinchi tomondan, ishlab chiqaruvchilarning tushumlari hajmi narx-navoga bog‘liq, bu daromad tomonidan ularning iqtisodiy qarorlariga ta’sir etadi. Masalan, non narxining oshishi – xaridorlarga non iste’mol qilishni cheklashga, firmalarga esa, non bozorida muvozanatni tiklash uchun ishlab chiqarishni ko‘paytirishga ishoradir. Tovarni turg’un narx bo‘yicha olishni xohlagan xaridorlar uni iste’mol qilishadi, istamagan yoki shu narxni to‘lashga qodir bo‘lmagan xaridorlar – ana shu tovarni iste’mol kilmaydilar. Va nihoyat, mehnat, kapital va yerdan foydalanish narxi ularning egalari daromadini belgilaydi. Shuning uchun, iqtisodiy faoliyatning daromadlilik bilan ifodalanuvchi samaradorligi hammani o‘z kuch-g‘ayratini eng yuqori samara beradigan mashg‘ulot turini tanlashga da’vat etadi. Shu tufayli bozor iqtisodiyoti faoliyat shart-sharoitlarining turli-tuman o‘zgarishlariga tezkorlik bilan munosabat bildirishga qodirdir. Bunga, avvalambor, ana shu shart-sharoitlarga turli ne’matlar nisbiy qiymati o‘zgarishi orqali erishiladi. A.Smit yakka faoliyatni umum manfaatiga yo‘nalgiruvchi «ko‘zga ko‘rinmas qul» obrazidan foydalanar ekan, aslida, bir-biridan mutlaqo bexabar iqtisodiyot sub’ektlarining o‘zaro aloqasini yakka harakatlarni va iqtisodiy hamkorlikni tashkil etishni muvofiqlashtirishning aynan shu usulini nazarda tutgan edi.

**Markazlashgan tizimda** alohida birliklar faoliyatini muvofiqlashtirish yagona iqtisodiy markaz orqali amalga oshiriladi, markaz resurslarni ishlab chiqarish tarmoqlari va sohalari o‘rtasida taqsimlash, birliklar faoliyati samaradorligini baholash huquqiga ega bo‘ladi. Bu holda iqtisodiyot birliklarining mustaqil qaror qabul qilishi cheklangan, belgilangan

markazlashgan me'yorlar, normativlar va qoidalar bilan tartibga solingan bo'ladi. Markazlashgan usullarni muvofiqlashtirish o'zgarib turishi, birliklarning mustaqillik darajasi oshib borishi mumkin, ammo muvofiqlashtirish mazkur usulining mazmun-mohiyati bir xilligicha qolaveradi - ayrim birliklarning iqtisodiy tanlovi xatti-harakatlarni «Nima ishlab chiqarish kerak?», «Qanday ishlab chiqarish kerak?»; «Kim uchun ishlab chiqarish kerak?» kabi tub masalalar bo'yicha muvofiqlashtirish doirasida amalga oshiriladi.

Hozirgi zamon iqtisodiyot tizimlari uchun **muvofiqlashtirishning aralash tizimi** tipik hisoblanadi. Bu holda iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirishning bozor tamoyillari, iqtisodiyotning bozor asoslari davlatning faol ishtirokida amalga oshiriladigan, aslida markazlashgan muvofiqlashtirish alomatlariga ega bo'lgan iqtisodiy hayotni bo'isharish tamoyillariga qo'shib ketadi.

Iqtisodiyot sohasida Nobel mukofoti laureati Pol Samuelson V.Norxauz bilan birgalikda yozgan «Iqtisodiyot» darsligida hozirgi zamon G'apb iqtisodiyotini shunday ta'riflaydi: «Hozirgi zamon jamiyatlaridan birontasi ham ana shu qarama-qarshi kategoriyalarning hech qaysisiga to'g'ri kelmaydi. Aniqrog'i, barcha mamlakatlar **aralash iqtisodiyoti** – bozor elementlari va boshqaruvning rahbarlik ko'rinishidan iborat iqtisodiyotga ega. Hali hech qachon 100 foizli bozor iqtisodiyoti bo'lmagan (vaholanki, Angliya XIX asrda unga ancha yaqinlashgan edi). Hozir AQShda qarorlarning aksariyat qismi bozor tomonidan qabul qilinadi. Ammo mamlakat hukumati ham bozor ishini o'zgartirishda muhim rol o'ynaydi: hukumat iqtisodiy hayotni boshqaruvchi qonun va nizomlarni chiqaradi, maorif va tartibni saqlash sohasida xizmatlar ko'rsatadi, biznes va atrof-muhit muhofaza qilinishini nazorat etiladi»<sup>51</sup>.

Iqtisodiyot tizimlari tavsifi muvofiqlashtirish usullari bilan cheklanmaydi. Ularning zamiri anchagina keng – mulkka egalikning turli-tuman ko'rinishlari, tashkiliy tartiblarning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanishning iqtisodiyotga zid omillari shular jumlasidandir. Natijada, jamiyatning iqtisodiy hayoti u yoki bu milliy iqtisodiy chegaralar hamda xalqaro integratsiya hosilalari doirasida yaxlitlik xususiyatini kasb etadi.

---

<sup>51</sup> Пол А. Самуэльсон, Вильям Д. Нордхаус. Экономика: Пер. с англ. — М.: «БИНОМ», «Лаборатория Базовых Знаний», 1997. — С.50-51.



## **Qisqacha xulosa**

Iqtisodiy ne'matlarning xarajat qilish mexanizmlari to'rtta asosiy elementlarni o'z ichiga oladi: ya'ni «ishlab chiqarish – taqsimot almashuv – iste'mol». Bu jarayonlar o'zaro murakkab bog'liqlikda turadilar. Bular bir - biriga o'tishadi va kirishadi hamda ko'pincha vaqt bo'yicha bir - biridan ajratilmaydi.

Sababi, ishlab chiqarish va iste'mol o'zaro mustahkam bog'langan. Avvalambor, korxonalarda insonlarning butunlay qobiliyati va uning hayotiy kuchlari sarflanadi. Shu bilan birga, xom ashyolar, yonilg'i, mashinalar va boshqa asbob-uskunalar, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish uchun kerakli moddiy sharoitlardan foydalaniladi, ya'ni ishlab chiqarish iste'moli amalga oshiriladi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish bevosita taqsimot bilan bog'langan. Nimalar yaratishdan avval ishchilarni va mehnat vositalarini har xil turdagi xo'jalik faoliyatiga ajratish talab qilinadi. Bu yerda gap ijtimoiy ishlab chiqarishning xilma-xil tarmoqlarga taqsimlanishi to'g'risida ketmoqda.

Ishlab chiqarish almashuv bilan ham mustahkam bog'langan. Oxir ishlab chiqarish o'zining mavjudligi bo'yicha kishilarning qobiliyatini va faoliyatining almashuv jarayonlarini tasavur etadi. Mehnat taqsimoti ishchilarni o'zlarining qobiliyatlarini bir xil bo'lmagan yo'nalishlarda mukammallashtirishga majburlaydi. Shuning uchun ham bu yerda har xil qobiliyatga ega bo'lgan ishchilarning mehnat mahsulotlari almashuviga zaruriyat tug'iladi. Bunday jarayonlar asosan, yirik korxonalarda yaqqol ko'rinadi.

Insoniyatning ehtiyoji ham har xil, ular ijtimoiy hayotning barcha sohalarini o'z ichiga oladi. Bular orasida iqtisodiy ehtiyojni asosan ajratamiz.

Iqtisodiy ehtiyojlar – insonlarning shunday muhtoj bo'lgan qismini ta'minlash uchun albatta, ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish va nihoyat iste'mol qilish zarurdir. Aynan manashular kishilarning ta'minlanmagan talablari va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro harakatda faol qatnashadilar.

## **Asosiy tushuchalar**

- Ehtiyojlar.
- Resurslar.
- Ne'mat.
- Teoriya.
- Metodologiya.
- Metodika.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Iqtisodiyot asoslari tushunchasini gapirib bering.
2. Ishlab chiqarish kuchlarining va ishlab chiqarish munosabatlarining farqlanishi.
3. Iqtisodiy kategoriyalarning iqtisodiyot asoslariga munosabatini aytib bering.
4. Jamiyat ehtiyojlarini qondiradigan iqtisodiy noyob, kamyob vositalar, shuni tushuntirib bering.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Iqtisodiyot asoslarining mazmun - mohiyatini tushuntirib bering.
2. Jamiyat ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining farqi va o'xshashligi nimada?
3. Iqtisodiyot asoslari va iqtisodiy kategoriyalar deganda nimani tushunasiz?
4. Iqtisodiyot fanining ja'miyat a'zolari uchun kerakligini, bilish usullari nimada?

## 4 BOB. ISHLAB CHIQRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Talabni shakllantirish – bozor mexanizmi tarkibiy qismlaridan biri xolos. Ikkinchisi–taklifni shakllantirish hisoblanadi. Shu ma'noda narx–navo va takliflar hajmi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ya'ni ishlab chiqaruvchilar fe'l-atvori tadqiqotimiz ob'ektiga aylanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqaruvchining vazifasi ishlab chiqarishning samarali usulini tanlashdan iborat. Uning muvaffaqiyatli hal etilishi ishlab chiqarish omillarini va miqyosini uyg'unlashtirishga bog'liq eng maqbul variant tanlansagina ishlab chiqarish hajmi oshadi.

**Ishlab chiqarish va texnologiya.** **Ishlab chiqarish** – moddiy resurslarni tayyor mahsulotga aylantirish jarayoni, ya'ni insoniyat ehtiyojlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita qondirishdir. Ishlab chiqarish natijalari moddiy va nomoddiy shakllarda bo'lishi mumkin. Har qanday ishlab chiqarish turli xil resurslardan foydalanadi. Ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslar ishlab chiqarish omillari shaklini qabul qiladi va kattalashgan guruhlar:

- 1) mehnatga jalb qilingan ishchi kuchlarining yig'indisi;
- 2) ishlab chiqarish vositalari jami majmuining moddiy shaklidan iborat kapital;
- 3) tabiiy sharoitlar majmui sifatida yer;
- 4) ishlab chiqarishni tashkil etish va uni nazorat qilishni tashkil etish bo'yicha faoliyat deb tushuniladigan tadbirkorlik qobiliyati ko'rinishida ko'rib chiqiladi.

Har qanday ishlab chiqarish jarayoni nafaqat ma'lum omillar termasini, shu bilan birga, ularning uyg'unligini talab qiladi, bu texnologiya shaklida ifodalanadi. Bu demak, **texnologiya** – ishlab chiqarish omillarining ma'lum darajadagi turg'un kombinatsiyasidir. Texnologiyaning rivojlanishi ishlab chiqarish omillaridan to'la foydalanishni talab qiladi. Samaradorlik muammosi to'g'ridan-to'g'ri texnologiyadan unumli foydalanish bilan bog'liq. Ammo uni ishlab chiqarishda foydalanilgan omillar narxisiz hal etib bo'lmaydi.

Shuning uchun ham texnologik va iqtisodiy samaradorlikni bir-biridan farqlashadi. Ishlab chiqarishning olingan hajmiga qo'llaniladigan omillardan hech bo'lmaganda birortasining miqdori kam bo'lgan holda erishiladigan bo'lsa, ishlab chiqarishning shu usuli texnologik samarali hisoblanadi. Ishlab chiqarishning berilgan hajmi uchun qo'llanilgan ishlab chiqarish omillarining muqobil qiymati eng kam bo'lgan ishlab chiqarishning texnologik usuli iqtisodiy samarali bo'ladi.

**Ishlab chiqarish funksiyasi.** Bir texnologiyani qo'llash doirasida safarbar qilingan resurslar miqdori bilan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi

o‘rtasida barqaror bog‘liqlik hamisha mavjud bo‘ladi. Ishlab chiqarishning qo‘llanilgan omillari kombinatsiyasi bilan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi o‘rtasidagi o‘zaro funksional bog‘liqlik, **ishlab chiqarish funksiyasi**, deb ataladi. Foydalanilgan omillar qiymati uning mustaqil o‘zgaruvchan miqdori, mahsulot ishlab chiqarish hajmi qiymatlari–qaram o‘zgaruvchan miqdor sifatida namoyon bo‘ladi. Bu matematik jihatdan quyidagicha ifodalanadi:

$$Q=F (X_a, X_b, X_c \dots\dots\dots, X_n),$$

bunda, **Q**–ishlab chiqarish hajmining qiymati; **F**–ishlab chiqarish omillarining o‘zaro funksional bog‘liqligi; **X<sub>a</sub>, X<sub>b</sub>, X<sub>c</sub> .....**, **X<sub>n</sub>** - ishlab chiqarishda qo‘llanilayotgan omillar qiymati.

Omillar texnologik aloqasining rang-barang usullari mavjud bo‘lgani bois, ishlab chiqarish funksiyalari ham har xil shakllarni qabul qiladi. Ammo ularning hammasi bir qator umumiy xususiyatlarga ham ega:

– ishlab chiqarishning har bir funksiyasi faqat ma’lum texnologik bog‘liqlikni tavsiflaydi va texnologiyaning o‘zgarishi ishlab chiqarish funksiyasining o‘zgarishiga olib keladi;

– ishlab chiqarish funksiyasi ishlab chiqarish omillaridan foydalanishning muqobil variantlarini tavsiflaydi va ularning o‘zaro o‘rin almashish imkoniyatlarini ko‘rsatadi;

– ishlab chiqarish funksiyasi omillarning har qanday berilgan kombinatsiyasi uchun mahsulot ishlab chiqarishning eng yuqori qiymatlarini aks ettiradi;

– Ishlab chiqarish funksiyasi «iqtisodiy soha», deb atalmish soha tarkibiga kiruvchi ishlab chiqarish omillari kombinatsiyasining faqat texnologik samaradorligini aks ettiradi, ana shu sohada qo‘llanilayotgan har qanday omilning ko‘paytirilishi ishlab chiqarishning ko‘payishi bilan kuzatiladi, ya’ni bu soha uchun agar,  $X_2 > X_1$  bo‘lsa,  $F(X_2) > F(X_1)$  bo‘lish sharti bajariladi.

Ishlab chiqarish funksiyalari muayyan ishlab chiqarish jarayoni empirik ma’lumotlarining tahlili asosida chiqariladi va ishlab chiqarishni rejalashtirish vazifalarini hal etish uchun xizmat qiladi, chunki ham alohida bir omil, ham ishlab chiqarishda qo‘llanilayotgan barcha omillar miqdorining o‘zgarishi yalpi ishlab chiqarishning o‘zgarishini bashorat qilish imkonini beradi.

#### **4.1. Ishlab chiqarishning qisqa muddatli funksiyasi**

Ishlab chiqarish omillarini o‘zgartirish imkoniyatlari o‘z chegaralariga ega. Xom ashyo va mehnat resurslari miqdorini o‘zgartirish qiyin emas. Ammo kapital omillarini (ishlab chiqarish quvvatlarini) berilgan vaqt intervali

doirasida o'zgartirish anchagina mushkul yoki mutlaqo mumkin emas. Ana shundan kelib chiqib, omillarning ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini tadqiq etish uchun qisqa muddatli va uzoq muddatli davr tushunchalaridan foydalaniladi, ishlab chiqarish omillarining hammasi esa, o'zgaruvchan va doimiy omillarga taqsimlanadi. **Qisqa muddatli davr** shunday bir davrki, ana shu davr mobaynida ishlab chiqarishning hech bo'lmaganda bir omili o'zgarmay qoladi. **Uzoq muddatli davr** – bu shunday davrki, uning mobaynida ishlab chiqarishning barcha omillari o'zgartirilishi mumkin. **O'zgaruvchan omillar** – bu qisqa muddatli davr doirasida miqdori o'zgartirilishi mumkin bo'lgan resurslardir. **Doimiy omillar** – qisqa muddatli davr doirasida miqdori o'zgartirilishi mumkin bo'lmagan resurslardir. Shu narsaga e'tiborni qaratish kerakki, qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlar tushunchasi vaqt bilan bog'liq bo'lsa ham, ularning iqtisodiy mazmuni vaqt bilan emas, ishlab chiqarishning real tarkibiy o'zgarishlari bilan izohlanadi. Shu sababli, turli ishlab chiqarishlarning texnologik xususiyatlariga ko'ra, qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlarning vaqt doiralari ularning har birida sezilarli darajada farqlanishi mumkin.

**Ishlab chiqarishning qisqa muddatli davrdagi** funksiyasi berilgan doimiy omillar miqdori vositasida o'zgaruvchan omillar miqdorini o'zgartirish yo'li bilan firma amalga oshirishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarishni ko'rsatadi. Qisqa muddatli davrdagi ishlab chiqarish tanlovi tahlilining asosiy vazifasi—har bir o'zgaruvchan omil o'zgarishining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini, ya'ni uning samaradorligini aniqlashdan iborat. Buning uchun qolgan omillar o'zgaruvchan omillarning yalpi, o'rtacha va pirovard mahsuldorligi ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

O'zgaruvchan  $X$  omilidan yalpi mahsulot ( $TR_X$ ) – bu o'zgaruvchan omilning berilgan miqdoridagi yalpi ishlab chiqarish hajmidir. **O'rtacha mahsulot** ( $AR_X$ ) – o'zgaruvchan omil birligiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmini ko'rsatadi.  $AP_X = \frac{TP_X}{X}$ —**jismoniy mahsulotning miqdori** ( $MR_X$ ) – o'zgaruvchan omilni birlamchi o'zgartirish hisobiga jami mahsulotning o'sishini tavsiflaydi.  $MP_X = \frac{dTP_X}{dX}$  yoki  $MP_X = \frac{dTP}{dX}$ , ya'ni ishlab chiqarish funksiyasining birinchi hosilasiga teng.

#### 4.2. Pasayib borish - samaraning qonuni

Har qanday ishlab chiqarish jarayoni shunday bir xususiyatga egaki, agar doimiy omilning berilgan miqdorida o'zgaruvchan omilni qo'llash ko'paytirib boriladigan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi albatta, eng yuqori nuqtasiga yetib,

so'ngra pasaya boshlaydi. Bu o'zgaruvchan omil samarasidagi o'zgarishlar bilan izohlanadi. Ishlab chiqarishda o'zgaruvchan omillarning arzimagan miqdori qo'llanilgan dastlabki bosqichda o'zgaruvchan omilning har bir qo'shimcha birligi ana shu omildan olinadigan pirovard mahsulotning o'sishiga aylanadi. Ammo o'zgaruvchan omil qo'llanishi ko'payib borgani sayin uning mahsuldorligi kamaya boshlaydi so'ngra o'sishi to'xtab qoladi. Mazkur bog'liqlik «kamayib boruvchi samara qonuni» yoki «kamayib boruvchi eng yuqori unumdorlik» nomini olgan. Bu boshqa barcha omillar qayd etilgan miqdorda qolgani holda, o'zgaruvchan omilni qo'llanishi ko'payib borgani sayin shunday bir nuqtaga erishilishi, ana shu nuqtadan boshlab o'zgaruvchan omillarning qo'shimcha miqdoridan foydalanish mahsulot o'sishining doimiy kamayib borishiga, keyinchalik uni mutlaqo pasayishiga olib kelishidan dalolat beradi.


Kamayib boruvchi samara qonunining amal qilish sababi ishlab chiqarishda doimiy va o'zgaruvchan omillar o'rtasidagi muvozanatning buzilishida yashiringan. Dastgohlar to'la quvvat bilan ishlamayotgan bir paytda past samaradorlik ishlab chiqarishga o'zgaruvchan omillarning qo'shimcha miqdorini jalb etish hisobiga oshirilishi mumkin, bu mahsuldorlikning oshib boradigan darajada ko'payishiga olib keladi. Aksincha, dastgohlarni ortiqcha hajmda ishlatish samaradorlikning pasayishiga va ishlab chiqarishning kamayishiga olib keladi.

Kamayib boruvchi samara qonunining ta'siri bir qator muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, xarajatlarning hamisha «iqtisodiy soha» deb atalmish shunday bir sohasi bo'ladiki, ularni ko'paytirib borish yalpi mahsulotning kamayishiga olib kelmaydi (barcha dastlabki chakana hosilalar musbat bo'ladi). Ikkinchidan, qisqa muddatli davr sharoitlarida ishlab chiqarish omillaridan hech bo'lmaganda bittasi qayd etilgan miqdorda qolsa, hamisha shunday bir nuqta mavjud bo'ladiki, ana shu nuqtadan boshlab o'zgaruvchan omilni qo'llashning ko'paytirilishi uning eng yuqori mahsuldorligi pasayishiga olib keladi. Uchinchidan, iqtisodiy soha doirasida shunday bir nuqta borki, ana shu nuqtadan boshlab o'zgaruvchan omilni qo'llashning keyingi ko'paytirilishi ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib keladi.

Omil unumdorligining kamayib borish qonuni ta'siri shunga ishora qiladiki, hech bo'lmaganda bir omil qayd etilgan holda qolsa, ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Bu holda shuni nazarda tutish kerak:

a) «qonun» ni faqat qisqa muddatli davr sharoitlariga nisbatan qo'llash mumkin;

b) «qonun» ta'sirining intensivligi texnologiya xususiyatlari bilan izohlanadi va har bir ishlab chiqarishda har xil bo'ladi. Qisqa muddatli davr doirasida omillarning o'sha miqdori bilan yoki kamroq miqdori bilan ishlab chiqarishni ko'paytirish imkonini beruvchi nisbatan ilg'or texnologiyani qo'llanishi kamayib boruvchi samara qonunining ta'siri bekor qilinishini anglatmaydi, uning ta'sir xususiyatini o'zgartiradi, xolos.




**4.1–chizma. O'zgaruvchan omil mahsulining egri chizig'i**

Mahsulot o'zgaruvchan omilining funksiyasi bo'lgani bois, gorizontaal o'qda o'zgaruvchan omil qiymatlarini, vertikal o'qda mahsulot qiymatlarini joylashtirib va ana shu qiymatlarni birlashtirib, biz o'zgaruvchan omil qiymatlari o'zgarishlarining mahsulot qiymatlari o'zgarishiga ta'sirining chizma tasvirini, ya'ni *o'zgaruvchan omil mahsulining egri chizig'ini* hosil qilamiz.

Kamayib boruvchi samara qonunining ta'sirini inobatga olib, ishlab chiqarish jarayonini uch tarkibiy qism ko'rinishida tasavvur qilish mumkin, ularning har biri o'zgaruvchan omil samarasining alohida turi—o'zgaruvchan omilning oshib boruvchi, doimiy va kamayib boruvchi unumdorligi bilan tavsiflanadi.

O'zgaruvchan omildan samara o'sib borganida (4.2-chizma) ishlab chiqarish jarayonining tabiati shunday bo'ladiki, o'zgaruvchan omilning har bir qo'shimcha birligi avvalgisiga nisbatan ko'proq yalpi mahsulot o'sishini beradi. Ishlab chiqarishning bunday funksiyasi  $Q=aX+bX^2$  tenglamasi bilan ifodalanadi, bunda **a** va **b** – qandaydir konstantalar, **X** esa – qo'llanilgan o'zgaruvchan omil miqdori. Ishlab chiqarish o'rtacha va eng yuqori mahsulotning o'sishi bilan tavsiflanadi.  $AP_x = \frac{Q}{X} = aX + \frac{bX^2}{X} = a + bX$  va


$$MP_x = \frac{dQ}{dX} = a + 2bX.$$



**4.2-chizma.**

Ishlab chiqarish jarayonining o'zgaruvchan omildan doimiy samara bilan tavsiflanuvchi qismi (4.3-chizma) kiritilayotgan o'zgaruvchan omil miqdori bilan yalpi mahsulot o'rtasidagi chiziqli qaramlikni aks ettiradi va  $Q=aX$  funksiyasi bilan ifodalanadi. O'zgaruvchan omilning keyingi barcha birligi samarasi o'zgarishsiz qolgani bois, pirovard mahsulot o'rtacha mahsulotga teng bo'ladi, ularning qiymati doimiy bo'ladi:

$$AP_x = \frac{Q}{X} = \frac{aX}{X} = a \text{ va } MP_x = \frac{dQ}{dX} = a$$



**4.3-chizma.**


$Q=bX-sX^2$  turdagi funksiya ishlab chiqarish jarayoni kamayib boruvchi samara bilan tavsiflanuvchi qismining o'zgaruvchan omilga qaramligini aks ettiradi. Bu holda ishlab chiqarishga o'zgaruvchan omilning har bir qo'shimcha birligining jalb etilishi pirovard mahsulotning kamayib borishiga  $MP_x = \frac{dQ}{dX} = b - 2cX$  olib kelishi bois yalpi mahsulot o'sishining pasayishini, bu

demak, o'rtacha mahsulotning pasayishini  $AP_x = \frac{Q}{X} = bX - \frac{cX^2}{X} = b - cX$  izohlaydi.




O'zgaruvchan omil ko'payib borgan sayin pirovard mahsulotning kamayishi eng yuqori qiymatga erishgan, pirovard mahsulot o'zgaruvchan omil  $X_n$  ma'lum miqdorida eng ko'p mahsulot nolga teng bo'lganida ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatlari cheklanganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari o'zgaruvchan omilning o'zini qo'llashning chegaralari mavjud, chunki uning  $X_n$  miqdoridan ortiqcha foydalanilishi yalpi mahsulotning kamayishiga olib keladi, bu ishlab chiqarishning texnologik samarasiz usulini anglatadi.

Ko'rib chiqilgan funksiyalarning har biri ishlab chiqarish jarayonining alohida bo'laklarinigina aks ettiradi. Birlashtirilgan holda ular ishlab chiqarishning yaxlit jarayoni xususiyatlari va qisqa muddatli davrda o'zgaruvchan omildan olinadigan mahsulotning o'zgarishlari qonuniyatlari haqida tasavvur beradi (4.4-chizma).



4.4-chizma

Bunday ishlab chiqarishning ishlab chiqarish funksiyasi  $Q=aX+dX^2-cX^3$  turidagi tenglama bilan tavsiflanadi. Mazkur funksiya uchun yalpi mahsulot egri chizig'ining har bir nuqtasi o'zgaruvchan omilning alohida-alohida qiymati uchun ishlab chiqarish hajmining eng yuqori qiymatini ko'rsatadi. O'rtacha va pirovard mahsulot egri chiziqlari yalpi mahsulot egri chizig'idan foydalanib qurilishi mumkin (4.5-chizma).



4.5-chizma.

Koordinatalar boshlanishidan va egri chiziq nuqtasidan ( $\alpha$  burchagi) o'tuvchi nurning egri chizig'i funksiyaning o'rtacha qiymatini ko'rsatishi egri chiziqning istalgan nuqtasidagi ( $\beta$  burchagi) egri chiziqning og'ishi—o'zgaruvchining har bir o'zgarishlari qo'shimcha funksiyasi qiymatini ko'rsatishi bois, o'rtacha mahsulot ( $MR_x$ ) esa, ana shu nuqtadan o'tgan egri chiziqqa ( $\beta$  burchagi tangensiga) teng bo'ladi.

Burchaklarni solishtirib, o'zgaruvchan omil ko'payib borganida sayin o'rtacha va pirovard mahsulot qiymatlari o'zgarib borishini sezish qiyin emas. Ilk bosqichda ( $tg\alpha < tg\beta$ ) yalpi mahsulotning o'sishi pirovard mahsulotning o'rtacha o'sishiga nisbatan oshib borishi kuzatiladi, u **A** nuqtasida o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tariladi. So'ngra pirovard mahsulot kamaya boshlaydi, o'rtacha mahsulot esa, o'sishida davom etib, **V** nuqtasida o'zining eng yuqori nuqtasiga ko'tariladi, shu nuqtada u pirovard mahsulotga teng bo'ladi. Shunday qilib, I bosqich o'zgaruvchan omil samarasining o'sishi bilan tavsiflanadi. II bosqichda, **V** nuqtasidan so'ng, pirovard va o'rtacha mahsulotning kamayishiga qaramay yalpi mahsulot o'sib boradi, **S** nuqtasida eng ko'p mahsulotning nol qiymatida, ya'ni birinchi hosila funksiyasi nolga teng bo'lgan nuqtada o'zining maksimumiga erishadi ( $TR_x$ )'= $MR_x=0=TR_x=\max$ . Mazkur bosqichda ishlab chiqarishning o'sishi o'zgaruvchan omil ko'payishiga proporsional ravishda kamroq ko'payib borishi bois, o'zgaruvchan omil samarasining kamayib borishi haqida gapirsa bo'ladi. III bosqichda, **S** nuqtasidan so'ng, pirovard mahsulot manfiyga aylanadi, unga nafaqat o'rtacha, shu bilan birga, yalpi mahsulotning kamayishi xos bo'ladi. Ishlab chiqarish funksiyasi omillardan samarasiz foydalanilishiga yo'l qo'ymasligi bois, mazkur bosqich iqtisodiy soha doirasidan tashqariga chiqadi va ishlab chiqarish funksiyasining bir qismi hisoblanadi.

Yalpi, o'rtacha va pirovard mahsulotlar o'rtasidagi o'zaro aloqa bir necha vaziyatlarda ifodalanadi:

– O'zgaruvchan omil ko'payganida, eng ko'p mahsulot qiymati musbat bo'lsa, yalpi mahsulot hamisha ko'payib boradi, pirovard mahsulot qiymati manfiy bo'lganida esa kamayadi.

– Bu demak, yalpi mahsulot ko'payib borganida pirovard mahsulot qiymati hamisha musbat, kamayishida esa, manfiy bo'ladi.

– Pirovard mahsulot nolga teng bo'lganida yalpi mahsulot o'zining maksimumiga yetadi.


– O'zgaruvchan omilning o'rtacha mahsuloti uning qiymatlari pirovard mahsulot qiymatlaridan past bo'lgan vaqtacha o'sib boradi, agar ular pirovard mahsulot qiymatidan yuqori bo'lsa kamayadi.

– O‘rtacha va pirovard mahsulot qiymatlari teng bo‘lganida o‘rtacha mahsulot o‘zining maksimumiga yetadi.

O‘zgaruvchan omil miqdori ko‘payishi munosabati bilan mahsulot qiymatidagi o‘zgarishlar xususiyati ishlab chiqarishning barcha omillari o‘zaro hamkorligining natijasi hisoblanadi. Birinchi bosqich doimiy va o‘zgaruvchan resurslar o‘rtasidagi muvozanat buzilganligi, doimiy resurslardan yetarli darajada foydalanilmaganligi sababli samarasiz hisoblanadi. Firma umumiy samaradorlikni oshirish maqsadida o‘zgaruvchan resurslarni qo‘llashni hech bo‘lmaganda II bosqichga qadar ko‘paytirib borishi kerak. Ikkinchi bosqichda o‘zgaruvchan omil samaradorligi pasayishiga qaramay, uni qo‘llashni ko‘paytirish doimiy omilda samaraning o‘shishiga xizmat qiladi va umumiy samaradorlikning o‘shishiga olib keladi. Uchinchi bosqich doimiy resurs samaradorligining poyoniga yetishi bilan tavsiflanadi, umumiy samaradorlik kamaya boshlaydi, bu shu miqdordagi o‘zgaruvchan omillar bilan ishlab chiqarishni amalga oshirish mutlaqo samarasiz ekanligini anglatadi. Ishlab chiqarishning umumiy samaradorligi nuqtai nazaridan II bosqich optimal hisoblanadi, firma o‘zgaruvchan resurslarning ana shu bosqich doirasida bo‘lishni ta‘minlaydigan miqdoridan foydalanishi lozim. Basharti firma mahsulotiga talab uning II bosqichga chiqishiga imkon bermasa, bu holda, u o‘z mahsulotiga talabni rag‘batlantirishi yoki boshqa mahsulotni ishlab chiqarish uchun ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishi zarur.

### 4.3. Ishlab chiqarish omillarining o‘rin almashishi


Izokvantalar botiqligi omillarning eng yuqori unumdorligi turli yo‘nalishga egaligini, izokvantalarning har bir nuqtasida ular turli xil eng yuqori unumdorlikka ega bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu bir omilning qayta va qayta ko‘paytirilishi boshqa omil miqdorining kamayishi bilan o‘rin almashishidan dalolat beradi.



4.6-chizma.

Ishlab chiqarish hajmi saqlab qolingan holda, bir omilning birligidagi o'zgarishlar bilan bog'liq ravishda boshqa omil miqdorining zarur o'zgarishlarini aks ettiruvchi kattalik – *omillar texnologik o'rin almashishining pirovard me'yori* (**MRTS**) deb nomlanadi.

Boshqacha qilib aytganda, kapitalning mehnat bilan texnologik o'rin almashishining pirovard me'yori (**MRTS<sub>LK</sub>**) ishlab chiqarishning bir xil hajmini ta'minlashda mehnatning har bir birligi o'rnini bosishi mumkin bo'lgan kapital miqdorini ko'rsatadi (4.7-chizma). U izokvanta burchak koeffitsiyentining mutlaq, qiymati–urinmaning uning har bir nuqtasidagi og'ishi sifatida aniqlanadi.  $MRTS_{LK} = -\frac{\Delta K}{\Delta L}$ . **MRTS**–musbat miqdor bo'lgani bois, burchak koeffitsiyenti qiymati (–1) ga ko'paytirilgan.



**4.7-chizma.**


Omllarning o'rin almashishi ishlab chiqarish hajmining saqlab qolinishini taxmin etishi bois, texnik o'rin almashishning pirovard me'yori omillarning pirovard mahsulotlari bilan jips bog'liq ekanligi ayon bo'ladi. Mehnatning har qanday ko'paytirilishi ( $\Delta L$ ) ishlab chiqarish hajmining ( $MP_L \cdot \Delta L$  ga) o'sishini anglatadi. Ana shu ko'paytirishni qoplash uchun, ya'ni o'sha izokvanta qolish uchun, kapital qo'llashni ( $\Delta K$ ) miqdoriga qisqartirish zarur, bu ishlab chiqarishning ( $MR_K \cdot \Delta K$  ga) kamayishini beradi va  $(MP_L \cdot \Delta L) + (MR_K \cdot \Delta K) = 0$  yoki  $(MP_L \cdot \Delta L) = -(MR_K \cdot \Delta K)$  tengligini ta'minlaydi. Demak,

$$MRTS_{LK} = -\frac{\Delta K}{\Delta L} = \frac{MR_L}{MR_K},$$

ya'ni ishlab chiqarish omillari texnologik o'rin almashishining pirovard me'yori ularning pirovard mahsulotlari (unumdorliklari) teskari nisbatiga teng. Bu kapitalning o'rnini mehnat egallab borgani sayin kapitalning pirovard mahsuli ( $MR_K$ ) o'sib borishidan, mehnatning pirovard mahsuli ( $MP_L$ ) kamayishidan dalolat beradi. Demak, kapital o'rnini mehnat bilan almashtirish pirovard me'yori ( $MRTS_{LK}$ ) pasayadi va izokvanta tekislashadi. Shu sababli bir resursning boshqasi bilan texnik o'rin almashishi - pirovard me'yoring kamayishi barcha ishlab chiqarish jarayonlariga xos hodisa hisoblanadi. Boshqa tomondan  $-\frac{\Delta K}{\Delta L} = \frac{MP_L}{MP_K}$  tengligi izokvantaning har qanday nuqtasida bir resursning boshqasi bilan almashish pirovard me'yori shu nuqtada urinmaning izokvantaga og'ishiga teng bo'lishidan dalolat beradi.

Omillarning o'rin almashish chegaralari texnologiya xususiyatlari bilan oldindan belgilangan.  $MRTS_{LK}$  qiymatlaridan kelib chiqib, ishlab chiqarish funksiyalarining bir necha turlarini ajratib ko'rsatish mumkin (4.8-chizma).

Omillar o'rin almashishi bekami – ko'st bo'lgani holda (4.8-A chizma), ulardan biri boshqasi bilan to'liq almashtirilishi mumkin bo'lganida, ya'ni ishlab chiqarish bir omil yordamida amalga oshirilishi mumkin bo'lganida (muzqaymoqning sotuvchi yoki avtomat vositasida sotilishi),  $MRTS_{LK}$  teng bo'ladi – 1 ga va izokvantaning barcha nuqtalarida doimiy bo'ladi. Omillar nisbati qayd etilgan ishlab chiqarish funksiyasi «harajatlar – ishlab chiqarish» bo'lgan ishlab chiqarish uchun (4.8-B chizma) bir omilning boshqasi bilan almashtirilishi mumkin emas,  $MRTS_{LK} = 0$  ga bo'ladi. Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi uchun (4.8-V chizma)  $MRTS_{LK} = \frac{\Delta K}{\Delta L}$  bo'ladi, o'rin almashish darajasining izokvanta bo'ylab harakat qilishi sayin kamayib borishi bilan tavsiflanadi. O'rin almashish qayishqoqligi doimiy bo'lgan ishlab chiqarish funksiyasi – CES funksiyasi uchun (4.8 G- chizma)  $MRTS_{LK} = -\beta$  bo'ladi.



4.8- chizma.

### **Masshtab (ko‘lam) samarasi**

Uzoq muddatli davrda firma nafaqat ishlab chiqarish omillari kombinatsiyasidan foydalanish, shu bilan birga, qo‘llanilayotgan omillar miqdorini o‘zgartirish, ya’ni ishlab chiqarish ko‘lamini o‘zgartirish imkoniga ega. Ma’lum bo‘lishicha, omillarning bir xil nisbatda o‘zgartirilishi turli natijalarga olib kelishi mumkin ekan. Ishlab chiqarish hajmining nisbiy o‘zgarishi va ishlab chiqarish omillari sarfining nisbiy o‘zgarishi o‘rtasidagi nisbat *ko‘lam samarasi*, deb nomlanadi. Ko‘rsatib o‘tilgan nisbat xususiyatidan kelib chiqib: ko‘lamning *ijobiy* (o‘sib boruvchi) *samarasini*, bunda ishlab chiqarish hajmi omillar sarfiga qaraganda ko‘proq nisbatda ko‘payib boradi  $-F(aX) < aF(X)$ ni, ko‘lamning *doimiy* (o‘zgarmas) *samarasini*, bunda ishlab chiqarish hajmi omillar sarfi qanday nisbatda oshirilgan bo‘lsa shunday nisbatda o‘zgarib boradi  $-F(aX) = aF(X)$ ni va ko‘lamning *salbiy* (kamayib boruvchi) *samarasini*, agar ishlab chiqarish hajmi ishlab chiqarish omillari sarfiga nisbatan kam nisbatda ko‘payib borsa  $-F(aX) > aF(X)$  ni bir-biridan farqlashadi.

Ko‘lam samarasining ta’siri haqida gapirilar ekan, uning xususiyati shartli ekanligini nazarda tutish kerak:

a) kamayib boruvchi samara qonuni ta’siri bilan emas (barcha omillar o‘zgaruvchan hisoblanadi);

b) biror omildan foydalanish intensivligi bilan emas (omillar nisbatining o‘zgarmasligini taxmin qiladi).

Ishlab chiqarishning har qanday darajasi uchun ishlab chiqarish omillari nisbatining o‘zgarishsiz saqlab qolinishi izokvantalar xaritasini tahlil qilib, ko‘lam samarasi ta’sirini kuzatish imkonini beradi. Agarda omillar hajmining bir xil nisbatda ko‘paytirilishida izokvantalar yaqinlashsa, bu ko‘lamning samarasi ijobiy ekanligidan; agar ular bir-biridan uzoqlashsa, ko‘lamning samarasi salbiy ekanligidan; bir xil odim saqlanib qolsa, samarasi doimiy ekanligidan dalolat beradi.

Ko‘lam samarasi ta’sirining yo‘nalishini idora qiluvchi qonunlar mavjud emas, ko‘lam samarasining xususiyatini empirik kuzatishlar yo‘li bilan aniqlash mumkin. Shu munosabat bilan ko‘lam samarasi o‘shishiga xizmat qiluvchi omillar sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

a) o‘lcham omilining ta’sirini (100 vattli lampochkalarni ishlab chiqarish 40 vattli lampochkalarni ishlab chiqarishga nisbatan 2,5 barobar ko‘p xarajatlarni talab qilmaydi);

b) mehnat taqsimoti chuqur bo‘lgani bois unumdorlikning o‘shishini;

v) yangi texnologiyalar va texnikani qo‘llashning keng imkoniyatlarini;

d) yuqori malakali ishlab chiqaruvchi kuchlardan foydalanish va boshqaruvni ixtisoslashtirishni.

Ko‘lam ta‘siridan samaradorlikning o‘shishiga qarshilik ko‘rsatuvchi omillar sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish lozim:

- a) ishlab chiqarishda muammolar va avariyaalar mumkinligini;
- b) boshqaruv va muvofiqlashtirishning qiyinchiliklari oshib borishini;
- g) ma‘muriyat uchun xarajatlarning ko‘payib borishini.

Ko‘lam samarasi ta‘sirining xususiyati va davomiyligi texnologiya xususiyatlariga bog‘liq ekanligi bois, har bir tarmoqda ishlab chiqarishning o‘z optimal ko‘lami mavjud bo‘ladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Ushbu bobda ishlab chiqarishning nazariy jihatdan texnologiyalari, ishlab chiqarish funksiyalari, ishlab chiqarishning qisqa muddatli davrdagi funksiyalari, o‘zgaruvchan, doimiy funksiyalari, kamayib boruvchi samara qonuni, o‘zgaruvchan omildan mahsulning egri chizig‘i, ishlab chiqarishning uzoq muddatli funksiyasini tahlil qilish, ishlab chiqarishning o‘rin almashinuvi mashtab (ko‘lam) samarasi ko‘rib chiqildi.

### **Asosiy tushunchalar**

- Ishlab chiqarish.
- Texnologiya.
- Texnologiya samaradorligi.
- Iqtisodiy samaradorlik.
- Ishlab chiqarish funksiyasi.
- Qisqa muddatli davr.
- Uzoq muddatli davr.
- Doimiy omillar.
- O‘zgaruvchan omillar.
- Yalpi mahsulot.
- O‘rtacha mahsulot.
- Pirovard mahsulot.
- Mahsulot egri chizig‘i (omil unumdorligi).
- Kamayib boruvchi samara (omil unumdorligi) qonuni.
- Izokvanta.
- Izokvantalar xaritasi.
- Texnologik o‘rin almashishning pirovard me‘yori ko‘lam samarasi.

- Ko‘lam samarasining darajasi.

### **Seminar darslarda muhokama qilish uchun savollar**

1. Ishlab chiqarishning nazariy asoslarini tushuntirib bering.
2. Ishlab chiqarish bilan mahsulot yaratiladi, iste'mol bilan tugallanadi, nima uchun?
3. Ishlab chiqarish va ishlab chiqarishda qo'llaniladigan texnologiyalarning O'zbekistonda amalga oshirilishini tushuntirib bering.

### **Mustaqil ta'li uchun savollar**

1. Ishlab chiqarish nazariyasi asoslarining umumiy funksiyalarini – qisqa muddatli va uzoq muddatli davrdagi funksiyalarini aniqlab bering.
2. Ishlab chiqarish va texnologiyalarning asosiy funksiyalari nimadan iborat? Tushuntirib bering.
3. Ishlab chiqarish bilan iste'mol qilishning va bundagi vaqt birligini tushuntirib bering.



## 5 BOB. ISTE'MOL NAZARIYASI ASOSLARI

### 5.1. Iste'molchi afzalliklari va foydalilik


Bozor talabini shakllantirish zamirida ayrim iste'molchilarning ma'lum ne'matlarga talabini hal etish yotadi. Ne'mat – bu iste'mol nazariyasi bo'yicha iste'molchiga ma'lum (turg'un, bashorat qilingan) qoniqish keltiradigan, ya'ni uning moddiy farovonligi darajasini oshiradigan har qanday iste'mol ob'ektidir. Ko'pincha ne'matlar alohida-alohida emas, muayyan termalar (komplektlar yoki savatlar) holida iste'mol qilinadi. **Ne'matlar termasi** – bu ma'lum bir vaqtda birgalikda iste'mol qilinadigan har xil ne'matlarning ma'lum miqdoridir.

**Iste'mol ko'pchiligi** (iste'mol qilinadigan ko'pchilik)ni tashkil etuvchi iste'mol ne'matlarining barcha mavjud termalari ko'pchiligini ifodalovchi grafikni ko'rib chiqamiz. Geometrik talqin iste'mol ko'pchiligining ko'rgazmali tasviri hisoblanadi, unda iste'mol ko'pchiligi tegishli **ne'matlar makoni** ko'rinishida namoyon bo'ladi. Buning uchun iste'mol ko'pchiligi tarkibiga kiruvchi ne'matlarning har bir turi erkin holda tartib raqamlari bilan belgilanadi. Terma tarkibiga kiruvchi ne'matlarning jami  $n$  turlari uchun  $n$  miqdordagi raqam hosil bo'ladi. Bunday raqamga tegishli nisbatda shu tarzda  $n$  o'lchovli makonda shakllantiriladigan koordinataning o'qlaridan biri qo'yiladi. Shunda terma tarkibiga kiruvchi, ma'lum  $i$  turidagi ne'matlarning  $X_i$  miqdori  $n$  o'lchov makonining ushbu  $i$  o'qi bo'ylab joylashgan  $X_i$  koordinatasining tegishli miqdori bilan ta'riflanadi. Bunday makonning barcha  $n$  o'qlari bo'ylab joylashgan ne'matlar  $X_i$  dan  $X_n$  ga qadar bo'lgan barcha koordinatalar yig'indisi holida  $A (X_1, X_2, \dots, X_n)$  termasining geometrik nusxasini beradi. O'z-o'zidan ma'lumki, bu  $n$  o'lchov makonidagi  $A$  nuqtasi bo'ladi, uning barcha  $X_i$  koordinatalari o'z-o'zidan  $A$  termasiga kiruvchi  $i$  turidagi barcha ne'matlar miqdoriga teng bo'ladi.

Chinakam iste'mol termalarida  $n$ –ne'matlarning turlari, miqdori anchagina. Ammo iste'mol jarayonlarining qonuniyatlarini o'rganish uchun biz  $n=2$  dan boshlab barcha no'lchovli makonlarning xususiyatlari o'xshashligidan foydalanib, atigi ikkitasi bilan cheklanishimiz mumkin. Bu ikki o'lchovli makon uchun belgilangan barcha xususiyatlar va qaramliklar ularning  $n$  o'lchovli makondagi tegishli xususiyatlari va qaramliklari uchun ham adolatli bo'lishni anglatadi.

Shu tarzda biz yassi tekislikda, ya'ni ikki koordinatali makonda bajarilgan grafiklardan keng foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritamiz.

Agar biz shunday grafikda **A** nuqtasini olsak, uning koordinatalari ma'lum **A** termasidagi ne'matlarning birinchi ( $X_1$ ) va ikkinchi ( $X_2$ ) turlari miqdoriga mos bo'lgan holda, u **A** termasini (5.1-chizma) ifodalaydi.



**5.1-chizma.**

Demak, mazkur holdagi iste'molning butun ko'pchiligi 1 - va 2 - o'qlari oralig'ida joylashgan bo'ladi. (Chunki har qanday termadagi **i**-turidagi ne'matlar miqdori manfiy bo'lishi mumkin emas). Ta'kidlab o'tamizki, iste'molchining ko'pchiligi yopiq va bo'rtgan bo'lishi, ya'ni unda uzilishlar va bo'sh oraliqlar bo'lmasligi kerak.

Olish uchun ne'matlarni tanlash vaqtidagi iqtisodiy qarorlar iste'molchining eng yuqori foydaga erishish yoki mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish xohishi bilan izohlanadi. Iste'mol vaqtida farovonlik darajasi yoki mazkur iqtisodiy sub'ektning ehtiyojlarini qondirish darajasidan iborat bo'lgan bunday foyda – **naflilik** deb ataladi. Ushbu mavzuda iste'mol nazariyasining asoslari ko'rib chiqiladi. Ushbu nazariya iste'molchi ne'matlarni sotib olish vaqtida o'z didi va imtiyozlariga asoslanishidan, uning didi va imtiyozlari budjet bilan cheklanganligidan va bunday sharoitda u o'zi uchun iloji boricha to'liq naflilikni ta'minlovchi termani tanlashidan kelib chiqadi.

Iste'molchi imtiyozlarining to'liq izchilligi aksiomasi imtiyozlar izchilligi tizimining mavjudligini ta'minlovchi birinchi majburiy shart yoki **iste'mol tanlovi nazariyasining aksiomasi** hisoblanadi. Iste'molchining fe'l-atvorini izohlovchi nazariyani qurish uchun kamida ana shu fe'l-atvorning o'zi bo'lishi zarur, ya'ni muayyan iste'mol qiluvchi sub'ekt iste'mol sohasida muayyan qaror qabul qilishi va uni amalga oshirishi, masalan, ma'lum rangdagi va chizmadagi gulqog'ozni tanlashi hamda uni sotib olishi kerak. Ammo birorta ham amaliy, hatto sukut saqlab qabul qilingan qarorni iste'molchi ko'rib chiqilayotgan ne'matlar va ularning kombinatsiyalariga o'z munosabatini

oldindan aniqlamay turib qabul qilmaydi. Shuning uchun xarid qilayotgan iste'molchi taqqoslayotgan ikki buyumlar termasidan qaysi birini yaxshi deb, yoxud ularni bir-biriga teng deb hisoblashini aytishi mumkin. Bu  $A > B$  yoki  $A < B$  yoki  $A \sim B$  ko'rinishidagi har qanday  $A$  va  $B$  termalari uchun, «>» belgisi imtiyoz berish munosabatini, «~» belgisi tenglik yoki farqi yo'qligi munosabatini ifodalaydi. Aslini olganda, gap muayyan iste'molchi uchun ne'matlar turli termalarining prinsipial qiyoslanishi haqida bormoqda. Iste'molchi imtiyozlarining tranzitivligi aksiomasi iste'molchi tanlovi nazariyasining ikkinchi zarur sharti hisoblanadi. Ma'lum qaror qabul qilish, so'ngra uni amalga oshirish uchun iste'molchi izchil ravishda bir ne'matni va uning termalarini boshqalaridan afzal topishi: agar  $A > B$ ,  $B < V$  bo'lsa, hamisha  $A > V$  bo'ladi, agar  $A \sim B$  va  $B \sim A$  bo'lsa, hamisha  $A \sim V$  bo'ladi. Aslini olganda, gap iste'molchi fe'l-atvorining mantiqiyliigi va izchilligi, uning turli ne'matlarga va ularning termalariga munosabatlari kelishilganligining izchilligi haqida bormoqda. Aks holda, iste'molchi tranzitiv bo'lmagan imtiyozlarning berk doirasida sargardonlikka mahkum bo'lib qoladi, hech qachon ne'matlarning u yoki bu turini tanlay olmaydi.

Iste'molchi imtiyozlarining refleksiligi iste'mol tanlovi nazariyasining uchinchi aksiomasi hisoblanadi. Ne'matlarning har bir termasi o'z o'xshashidan yomon ham, yaxshi ham bo'lishi kerak emas:  $A \geq A$ ,  $A < A$ ,  $A > A \sim A$ . Bu eski formal mantiqdagi ayniyat qonunini eslatadi, bunda har bir tushuncha o'ziga-o'zi ayniyatda bo'lishi va mulohaza jarayonida o'zgarmasligi kerak. Aslini olganda, bu har qanday iste'molchining muayyan tanlov vaziyatidagi imtiyozlari ne'matlarning bir xil termalariga qaratilgan bo'lishi va tanlov jarayonida iste'molchining munosabati o'zgarmasligi zarurligini anglatadi.

Birmuncha amaliy iste'mol nazariyasini yaratish uchun umumiy xarakterga ega bo'lgan, yuqorida aytib o'tilgan aksiomalardan tashqari juda ham majburiy xususiyatga ega bo'lmagan taxminlarni ham qilish lozim. Shunday qilib, biz qamrab olinayotgan hodisalar doirasini birmuncha toraytiramiz, lekin buning evaziga mazkur nazariyaning kattaroq ishchanligiga erishamiz. Ayni vaqtda bizning yo'qotishlarimiz unchalik katta emas. Shu o'rinda **ehtiyojlarni qondirib bo'lmazligi haqidagi** taxmin juz'iy hisoblanadi. Iste'molning ushbu muammolarini hal etishda har qanday ne'matning ko'proq miqdori hamisha shu xildagi ne'matning kamroq, miqdoridan afzal topiladi (yoki «ko'proq bo'lgani hamisha yaxshi»). Demak, ne'matlari bir xil bo'lgan termalar ichidan ne'matlari ko'proq bo'lganini, hech bo'lmaganda ne'matlardan bir turi boshqa termadagidan ko'proq bo'lganini hamisha afzal topamiz. Shuni nazarda tutish kerakki, bu taxmin

aksilne'matlarga–salbiy naflilik xususiyatiga ega ne'matlarga, to'g'ri kelmaydi. Aksilne'matlarni iste'mol qilish iste'molchining farovonligini oshirmasdan uni kamaytiradi. Masalan, havoning ifloslanishi yoki shovqin iste'molchilar naflilik darajasining tegishli ravishda pasayishiga olib keladi. Ayni vaqtda shuni nazarda tutish kerakki, aksilne'matlar bir vaqtning o'zida bir xil iste'molchilar uchun salbiy, boshqa iste'molchilar uchun ijobiy naflilikka ega bo'lishi mumkin (masalan, bir xonadagi kashanda va chekmaydigan kishi uchun ta'maki tutuni). Nihoyat, **imtiyozlarning uzluksizligi** yana bir juz'iy taxmin bo'ladi. Nazariy ikir-chikirlarga berilmay, keling, yaxshiligi ko'rinib turgan va bu termaga nisbatan yomonligi ma'lum bo'lgan ne'matlar oralig'ida unga to'liq yoki qisman teng terma hamisha topiladi, deb hisoblaylik. Mazkur taxminlarning hammasi naflilik vazifasini aniqlash imkonini qo'lga kiritish uchun zarur. Har bir iste'molchi afzalliklarining xususiyatlari befarqlik egri chiziqlari yordamida ko'rgazmali ifodalanishi mumkin.

## 5.2. Naflilik funksiyasi

Iste'molchi fe'l-atvorini to'g'ri tahlil qilish uchun chizmaan bo'lsa ham uning maqsadi–intilishlarini, ya'ni naflilik darajasi iste'mol qilinadigan ne'matlar termasiga bog'liqligini tavsiflash zarur. Bunday bog'liqlik **naflilik funksiyasini** tashkil etadi. **Naflilik funksiyasi**–iste'mol qilinayotgan ne'matlar hajmi bilan shu jarayonda iste'molchi erishadigan naflilik darajasi o'rtasidagi nisbatdir:  $U=f(X_1, X_2, \dots, X_n)$ , bunda,  $U$ –naflilik darajasi,  $X_1, X_2, \dots, X_n$ –iste'mol qilinayotgan ne'matlar miqdori. Naflilik ne'matlarining u yoki bu termasini tanlayotgan iste'molchi fe'l-atvoridagi prinsipial daqiqani yoritib beradi: u tanlab olish mezoni bo'lib xizmat qiladi. Tanlab olinayotgan u yoki bu ob'ekt ana shu iqtisodiyot sub'ektiga mazkur sharoitlarda naqadar zarurligini ko'rsatadi. Shu vaziyat iste'molchi nimalarga intilayotganini aniqlab beradi. Aslini olganda bu–tanlab olish jarayonidagi iste'molchi harakatlarining aniq maqsadga qaratilgan vazifasidir, u miqdoriy qiymatlarni maksimallashtirishga intiladi. Albatta, u yoki bu iste'molchi ne'matlarning ma'lum termasini qo'lga kiritib, naflilikning qancha birligiga erishganini biz har doim ham bevosita o'lchay olmaymiz. Aslini olganda, naflilik vazifasi bu iste'molchi afzalliklarini tartibga solib ifodalashning muayyan shaklidir.

Iste'molchilar turli guruhlarining afzalliklarini chizmaylashtirishning turli darajalari mavjud, ulardan ne'matlar foydaliligini miqdoriy qiyoslashning turli darajalari kelib chiqadi. Bu naflilikning tartibli va miqdoriy vazifalari bilan ifodalanadi. Aytish kerakki, ratsionalizmning ma'lum minimal bosqichi

ob'ektiv ravishda har qanday qonuniy fe'l-atvorda mavjud, ular bir-biridan o'tib bo'lmaydigan jarlik vositasida ajratilgan emas.

**Naflilikning tartibli funksiyasi** faqat befarqlik sinflari yoki ushbu iste'molchi uchun, bir xil qiymatga ega bo'lgan nematlarning guruhleri, termalari (bir xil naflilikka ega bo'lgan ne'matlar) qay tartibda, ma'lum tartibda, birin-ketin joylashganligini, masalan, afzalligi oshib boradigan tartibda joylashganligini ifodalaydi. Uni befarqlikning shu sinflariga mos har qanday birin-ketin keladigan ko'p sonli raqamlari yordamida qo'yilgan raqam shu tarzda hosil qilish mumkinki, befarqlikning afzalroq sinfiga mos holda qo'yilgan raqam afzalligi kam sinfdagi raqamdan kattaroq bo'ladi. Bunda naflilikning shu xildagi tartibli vazifasi teng qiymatga ega bo'lgan ne'matlar termalari ma'lum guruhleri faqat qanday joylashganligini (bo'yiga ko'ra, birin-ketin, tartib bilan) ifodalaydi: ne'matlarning har qanday **A** va **B** termalari uchun  $U(A) > U(B)$ ,  $U(A) < U(B)$ , yoxud  $U(A) = U(B)$  bo'ladi.

Ko'pincha naflilikning miqdoriy vazifasi qiymatlarini aniqlash uchun bir sonidan boshlab natural raqamlarning tartibidan foydalanishadi, masalan,  $U(A)=1$ ,  $U(B)=2$ ,  $U(V)=3$  va hokazolar. Bunda naflilik tartib vazifasining qiymatlari o'z-o'zidan shu xil tartibda joylashadi:  $U_1, U_2, U_3, \dots, U_n$ . Ammo shu bilan birga, har bir iste'mol ko'pchiligining shu xildagi tartibga solinishi uchun naflilikning son-sanoqsiz ko'p miqdoriy vazifalari mavjud. Har qanday bir tekisda oshib boruvchi vazifa  $V=F(U)$  o'sha afzalliklar tizimi uchun ham naflilikning tartibli vazifasi hisoblanadi  $U=f(X)$  (bu holda **X**—shu iste'mol ko'pchiligi tarkibiga kiruvchi har qanday ne'matlar termasi),  $V=f(f(X))$ .

Amaliyot nuqtai nazaridan olganda, naflilikning tartibli vazifasiga ega bo'lgan iste'molchi hamisha nimani afzal ko'rishini, ammo bir terma ikkinchisidan naqadar yaxshiligini aniqlay olmayotganligini aytish mumkin. Naflilikning miqdoriy (kardinalistik) vazifasi befarqlik sinflari qanday joylashganligini va tartibini aniqlabgina qolmay, befarqlikning shu xildagi har bir sinflariga muvofiq bo'lgan farovonlik darajasidagi tafovutni biz qanday baholashimizni ko'rsatib o'tadigan hollarda vujudga keladigan naflilik vazifasidir. Ayni vaqtda naflilik vazifasi qiymatlarining o'zinigina emas, ularning o'zgarishlarini ham taqqoslash mumkin, masalan:

$$U(A)-U(B)=_{\Delta}U_{AB} \text{ va } U(V)-U(G)=U_{VG}; \\ \Delta U_{AB} > U_{VG} \text{ yoxud } \Delta U_{AB} < \Delta U_{VG} \text{ yoxud } \Delta U_{AB} = \Delta U_{VG}.$$

Aslini olganda bu, ushbu iste'molchi ushbu vaziyatda **A** va **B** termalarini qiyosiy iste'mol qilgandagi farovonlik darajalaridagi farq **V** va **G** termalarini qiyosiy iste'mol qilish vaqtidagi qoniqish darajasi ko'p, kam yoki teng

ekanligini ko'rsata olishi bois nafaqat o'z afzalliklarini, shu bilan birga, ularning intensivligini aniqlash holatida bo'lishini anglatadi. Bu holda farovonlik darajalaridagi bunday farqlarning miqdoriy bahosi o'z-o'zidan mutlaq qiymatga ega emas. Masalan, ularning hammasini bir vaqtning o'zida ikkiga, uchga ko'paytirish yoki kamaytirish mumkin va hokazo. Ushbu operatsiyalarning hammasi shu yo'l bilan olinadigan naflilikning yangi miqdoriy vazifalari qiymatlari o'zgarishi (farqi) nisbatiga ta'sir etmaydi. Umuman, buni quyidagi tarzda ifodalash mumkin: agar  $U=f(x)$  naflilikning kardinalistik vazifasi bo'lsa,  $t(U)a+v$ .  $U$  va  $v>0$  bo'lgan har qanday chiziqli vazifa  $V=t(U)$  naflilikning miqdoriy vazifasi hisoblanadi. Shunday qilib, naflilikning kardinalistik vazifasidan foydalanib, biz uning iqtisodiy voqelikda qo'llanilishi cheklanganligi darajasini ko'paytiramiz, ammo buning o'rniga mazkur iste'molchining shu vaziyatdagi farovonligi turli darajalari o'rtasidagi miqdoriy farqlarni chiziqli o'zgarishlargacha aniqlik bilan baholash imkoniyatini qo'lga kiritamiz.

Naflilikning miqdoriy vazifasidan foydalanib nafaqat umumiy naflilikni, shu bilan birga, eng yuqori **darajadagi naflilikni**—shu turdagi ne'matlarning qo'shimcha miqdorini iste'mol qilishda, boshqa barcha turdagi iste'mol qilinayotgan ne'matlarning miqdori o'zgarishsiz qolganida olinadigan farovonlikning mazkur darajasi qo'shimcha ko'payishini tavsiflash mumkin. Naflilik darajasini tabaqalashtirish vaqtida ne'matning eng yuqori darajadagi **i** turidagi ne'matning eng yuqori darajadagi foydaliligi naflilik vazifasining birinchi juz'iy hosilasi  $U$  hisoblanadi, u shu vaziyatda ushbu iste'molchining umumiy farovonlik darajasini ifodalaydi.  $MU(X_i)$  yoki  $MU_i$  bilan belgilanadi:

$$MU_i = \frac{dU}{dX_i}$$

Agarda biz to'yinmaslik haqidagi taxminni ham qabul qilsak, naflilikning olingan dastlabki juz'iy hosila vazifalari noldan katta bo'ladi, bu demak, naflilikning tegishli eng yuqori darajalari ham musbat bo'ladi:

$$\frac{dU}{dX_i} > 0, MU_i > 0$$

Yana iste'molchining o'rtachaligi haqida, ya'ni har qanday afzal topilgan to'planning bo'rtiqligi haqida taxmin qilib, bunda berilgan ikkitasiga nisbatan har qanday oraliq termasi har ikki chekkasidagiga qaraganda ochiq-oydin afzal bo'ladi, biz bu holda naflilik vazifasi ham bo'rtiq bo'lishini ko'ramiz (chunki har qanday oraliq termasi naflilik vazifasining qiymati chekkalaridagi termalar

qiymatidan katta bo‘ladi). Agar naflilikning bunday vazifasi ikki marotaba tabaqalashgan deb hisoblanadigan bo‘lsa, mazkur vazifaning ikkilamchi juz’iy hosilalari manfiy bo‘lib chiqadi:


$$\frac{D^2U}{dX_i dX_j} < 0, \mathbf{i=1,2, \dots, n};$$

$$\mathbf{j=1,2, \dots, n}$$
 Shu jumladan,  $\frac{d^2U}{dX_i^2} < 0.$

$$\frac{dU}{dX_i} = MU_i \text{ bo‘lgani bois } \frac{dMU_i}{dX_i} < 0 \text{ bo‘ladi.}$$

Shunday qilib, biz **kamayib boruvchi eng yuqori darajadagi naflilikning** azaldan ma’lum bo‘lgan chizmayi asoslarini va ta’sir sohasini aniqladik—ushbu ne’matning keyingi har bir ulushi iste’molning bunday ahvolidan mazkur iste’molchi umumiy farovonlik darajasining o‘shishi tobora kamayib borishiga olib keladi. Bu iste’mol qilinayotgan bir xil turdagi ne’matlar miqdori oshib borgani sayin har qanday ne’matning eng yuqori darajadagi foydaliligi kamayib borishini anglatadi (albatta, bunda boshqa barcha turdagi iste’mol ne’matlarining miqdori o‘zgarishsiz qoladi). Bu holda naflilik vazifasi bo‘rtiq bo‘ladi (chunki har qanday oraliq termasi naflilik vazifasining qiymati ikki chekkada joylashgan termalar qiymatidan katta bo‘ladi).


Shunday qilib, kamayib boruvchi eng yuqori darajadagi naflilik tamoyili umuman, mutlaq hisoblanmaydi, ammo tegishli shart-sharoitlarga rioya qilinadigan bo‘lsa, uni qo‘llash sohalari ancha-muncha keng. Mazkur tamoyilning amal qilinishi umumiy va eng yuqori darajadagi naflilikning bir-biriga o‘xshashi vositasida ko‘rsatib berish mumkin (5.2–chizma).



**5.2-chizma.**

U yoki bu ne’matni qay miqdorda iste’mol qilish haqidagi **qaror** – bu iste’molchining foyda va sarf-xarajatlarini taqqoslashi natijasidir. Ne’matlarning foydaliligini ifodalab, biz ana shu ne’matning qadr-qiymatini

olamiz. Turli iste'molchilar uchun turli ne'matlarning foydaliligi turlicha, ularning qadr-qiymatini miqdoriy qiyoslasa bo'ladi, chunki ular bir xil pul birligida ifodalanadi. 5.3-chizmada naflilik vazifasining grafigi ostidagi **AB** maydoni (naflilik pul birligida ifodalanganda bu eng yuqori darajadagi qadr-qiyamat yoki ehtiyojning teskari vazifasi grafigidir). Ne'matlar berilgan miqdori umumiy qadr-qiyamatiga (iste'moldan pul ifodasida olinadigan foydaga) teng bo'ladi (chizmada bu **ABΓO** maydonidir).



**5.3-chizma.**

Iste'mol xarajatlari yoki ne'matning muayyan miqdori qiymati uni sotib olish uchun sarflanadigan pul mablag'lari yoki bir dona ne'mat bozor narxining ana shu ne'mat miqdoriga ko'paytmasidir (chizmadagi **OB BΓ** maydoni). Foyda (qadr-qiyamat) xarajatdan (narxdan) katta bo'ladi, chunki iste'molchi ne'matni avvalgilaridan yuqoriroq narxda, ya'ni xarid vaqtidagi real narxdan qimmatroq to'lashga tayyor bo'ladi. Umumiy foydaning jami xarajatlarning eng yuqori bo'lishiga eng yuqori (pul ifodasidagi eng yuqori naflilik) narxga teng nuqtada (**B** nuqtasida) erishiladi.


**Iste'moldan ortiqchalik** ma'lum ne'mat miqdorining qadriligi va qiymati o'rtasidagi farqdan iborat. Unga ne'matning har bir muayyan miqdori uchun iste'molchi to'lashga tayyor bo'lgan eng yuqori narx bilan ana shu miqdorning bozor narxi o'rtasidagi farq deb qaraladi. Grafikda bu **ABB** maydoni.

Ikki ne'mat bilan cheklanib, eng yaxshi iste'mol termasini tanlash muammosini ko'rib chiqamiz. Bunday qadam voqelikni haddan tashqari soddalashtirish hisoblanmaydi: iste'molchi tanlagan narsalarni mazkur ne'mat va boshqa barcha ne'matlar iste'molchi orasidagi tanlov deb tasavvur qilish mumkin. Naflilik vazifasi ikki o'zgaruvchanining  $\Gamma$  grafigi o'z ko'rinishi bilan odatda, tobora pasayib borayotgan (eng yuqori naflilikning pasayishi)



«tepalik»ni eslatadi. Uch o'lchovli grafik bilan ishlash noqulayligi sababli odatda, uning proyeksiyalarini aks ettiradilar.

Nafaqat yuqorida ko'rib chiqilgan naflilikning bir omilli vazifalari (nafililik darajasi mazkur termadagi boshqa barcha ne'matlar turlarining miqdori o'zgarmay qolganida faqat bir turdagi ne'mat miqdoridagi o'zgarishlarga bog'liq ekanligini ko'rsatuvchi) egri chiziqlarda, termadagi ne'matlar kombinatsiyasi turlicha bo'lganida naflilikning muayyan darajasi chizig'ida ham shunday bo'ladi (5.4–chizma).



5.4-chizma.

$U=f(X_1, X_2)$  naflilik vazifasining mazkur  $L_q$  darajasi befarqlikning egri chizig'i deb ataladi. Aniqlanishiga ko'ra, befarqlik egri chizig'i iste'mol ko'pchiligi grafigidagi tovarlarning barcha mavjud kombinatsiyalarini ko'rsatuvchi, iste'molchiga naflilikning bir xil darajasini ta'minlovchi barcha nuqtalarning geometrik o'rni (yoki oddiy qilib aytganda, yig'indisi) ning o'zginasidir. Iste'molchining didi va afzalliklari befarqlikning egri chiziqlar kartasida tasvirlanadi.

Befarqlikning pasayib boruvchi egri chizig'i  $X_1$  ne'matini  $X_2$  ne'matiga almashtirishning eng yuqori me'yoriy miqdorini ( $MRS_{X_1, X_2}$ ) aks ettiradi. Uning miqdori iste'molchi  $X_1$  gorizontaal o'qi bo'ylab joylashgan tovarlar birligiga almashtirishga tayyor bo'lgan  $X_2$  vertikal o'qidagi tovar birliklari miqdorini ko'rsatadi:

$$MRS_{X_1, X_2} = -\frac{\Delta X_2}{\Delta X_1}$$

Masalan, issiq sosiskalarni vertikal o'qi bo'ylab, kitoblarni gorizontaal o'qi bo'ylab qayd etsak, bunda  $MRS_{KS}=3$  iste'molchi o'zida shu miqdordagi kitob va sosiskalar bo'lganda bir kitob uchun 3 ta sosiskani berishga tayyor ekanligini anglatadi, chizmaiy nuqtai nazardan qaraganda, almashtirishning eng yuqori formasi befarqlikning ushbu egri chizig'i bo'ylab aniqlangan qarama-qarshi belgi bilan olingan  $X_2=f(X_1)$  hosila vazifasiga teng bo'lishi mumkin. Bu ne'matlar miqdoridagi taqqoslanayotgan o'zgarishlar bunday

o'zgarishlarning asosiy qismlaridan–tabaqalashtirish jiddiy farq qilmagan hollarda to'g'ri bo'ladi:  $MRS_{x_1,x_2} = -\frac{\Delta X_2}{\Delta X_1}$ . Bunday shart ne'matlar miqdori taqqoslanayotgan o'zgarishlari aytarlik katta bo'lmaganida, masalan, befarqlik egri chizig'ining muayyan nuqtasida adolatlidir.


Odatda, befarqlik egri chizig'i botiq (koordinata boshlanishiga qaraganda past tomonga bo'rtiq) bo'ladi. Bu **MRS** ko'pincha bir tovarning o'rniga ikkinchisini iste'mol qilish ko'payib borishi bilan qisqarib boradigan vaziyatni aks ettiradi–almashtirishning eng **yuqori kamayib borish me'yorining tamoyili** shunday shakllanadi. Iste'molda to'liq almashinish munosabatlari mavjud bo'lgan ne'matlar – **mutlaq bir-birining o'rnini bosuvchi tovarlar** (mutlaq substitutlar) to'g'ri ko'rinishidagi befarqlik egri chizig'i yagona ehtiyojni qondirish uchun birgalikda iste'mol qilinadigan, iste'molda bir-birining o'rnini mutlaqo bosa olmaydigan ne'matlar, iste'molda bir-birini mutlaq to'ldiruvchi tovarlardir (mutlaq komplementar ne'matlardir).

### 5.3. Budget cheklashlari

Iste'molchi fe'l-atvori tahlilidagi navbatdagi qadam–tovarlar narxi va iste'mol budjetini hisoblashdir. Tovarlarining narxi talab va taklifning bozordagi nisbati bilan belgilanadi, ayrim iste'molchining qaroriga bog'liq emas. Budget cheklashi iste'molchining sotib olish uchun ajratilgan daromadi va narx – navo  $P_1 P_2$  bo'lganida xarid qilinishi mumkin bo'lgan tovarlarning barcha kombinatsiyalarini ko'rsatadi. U odatda,  $P_1 X_1 + P_2 X_2 \leq I$  tarzida yozishadi, bu barcha tovarlarga xarajat qilingan mablag' tegishli daromaddan ko'p emasligini anglatadi.  $X_1 X_2$  uchun manfiy bo'lmagan shart-sharoitlarni qo'shib iste'molchining (5.5-chizmadagi chiziqlar bilan belgilangan), iste'mol ko'lamini yoki budget imkoniyatini qo'lga kiritamiz.

Budgetning cheklovchi chizig'i (budget chizig'i)—bu eng oddiy holda  $P_1 X_1 + P_2 X_2 = L$  to'g'ri chizig'i bo'lib, uning nuqtalari ajratilgan daromad xarid vaqtida to'liq sarflanadigan ne'matlar termalarini ko'rsatadi. Ne'matlar foydaliligi eng yuqori musbat holda bo'lganida iste'molchi ana shu chiziqdagi nuqtalardan biri tasvirlaydigan termanni tanlab oladi, aks holda, ajratilgan pulning bir qismi sarflanmay qoladi, vaholanki ularga qo'shimcha tovarlarni sotib olib, shaxsiy farovonligini oshirishi mumkin bo'lardi. Budget chizig'i koordinata o'qini  $x_1 = \frac{l}{P_1}$  va  $x_2 = \frac{l}{P_2}$  nuqtalarda kesib o'tadi, bu muayyan daromad bilan mavjud bo'lgan narxlarda qancha  $X_1$  va  $X_2$  ne'matlarni xarid qilish mumkinligini ko'rsatadi. Budgetning cheklovchi chizig'ining og'ishi tegishli  $P_1/P_2$  tovarlarining narxi nisbatiga (birinchi ne'mat nisbiy narxiga)

teng. Rasmiy nuqtai nazardan qaraganda, bu budget cheklovining qarama-qarshi belgi bilan olingan hosila vazifasidir, mazkur miqdor iste'molchi  $X_1$  qo'shimcha tovar birligini xarid qilish uchun voz kechishi kerak bo'lgan  $X_2$  tovarlarining miqdorini ko'rsatadi.



**5.5-chizma. 5.6-chizma.**

Budjetning cheklovchi chizig'i yanada murakkab tarkibli, siniq, bo'rtiq va hokazo bo'lishi mumkin, bu xaridorning ushbu tovarlarni xarid qilish imkoniyatlarini belgilovchi shart-sharoitlarga bog'liq. Masalan, siniq budget chiziqlari budget chekloviga qo'shimcha shart-sharoitlar, nafaqat pul resurslariga doir, shu bilan birga, vaqt bilan bog'liq cheklashlar qo'shilganda vujudga kelishi mumkin. Bunday holda  $X_1$  va  $X_2$  ne'matlarini—bu  $T_1$  va  $T_2$  ne'matlarini xarid qilish yoki foydalanishga sarflangan eng ko'p vaqt — va mazkur ne'matlarni iste'mol qilish uchun ajratilgan  $H$  vaqtning umumiy budjeti ko'rib chiqilgan, shunga o'xshash  $T_1X_1+T_2X_2=H$  vaqt bo'yicha cheklovni beradi. Umumiy cheklov esa ana shu ikki cheklovning kesishuvini hosil qiladi. (5.6-chizma).

### **Qisqacha xulosa**

Ushbu bobda iste'mol nazariyasi asoslarida asosan nimaga e'tibor berish, ya'ni iste'mol qilishning afzalligi va nafliligi, naflilikning funksiyasi uning iste'molchilar xulqiga, fe'l-atvoriga tegishliligi ko'rsatib berildi, bu yerda asosan ishlab chiqarilgan mahsulot va tovarlarga narx-navoning talab va taklif bilan o'zaro nisbatlari ko'rib chiqildi hamda tahlil qilindi.

### **Asosiy tushunchalar**

- Ne'matlar.
- Ne'matlar termasi (savati).
- Iste'mol rang-barangligi.

- Ne'matlar oralig'i.
- Naflilik.
- Naflilik vazifasi.
- Naflilikning tartibli vazifasi.
- Naflilikning miqdoriy vazifasi.
- Eng yuqori naflilik.
- Kamayib boruvchi eng yuqori naflilik tamoyili.
- Iste'mol ortiqchaligi.
- Befarqlik egri chizig'i.

### **Seminar darslarda muhokama qilish uchun savollar**

1. Iste'mol va naflilikning miqdoriy funksiyalarini tushuntirib bering.
2. Naflilik vazifasi nimadan iborat?
3. Iste'mol va ishlab chiqarishning farqini va umumiyligini tushuntirib bering.

### **Mustaqil darslar uchun savollar**

1. Iste'mol va moddiy boyliklarni ishlab chiqarishning umumiyligi va farqi.
2. Moddiy ne'matlarni iste'mol qilish va uning nafliligi iqtisodiyot fanining asosiy vazifalari ekanligini tushuntirib bering.
3. Iste'molning nazariy asoslarini ushbu fanning nuqtai nazaridan isbotlab bering.


## 6 BOB. ISHLAB CHIQRISH JARAYONI VA UNING NATIJALARI

### 6.1. Ishlab chiqarish

Kishilarning moddiy ehtiyojini qondirish uchun ishlab chiqarish zarurdir, ya'ni har xil mahsulotlarni, hayotiy ne'matlarni yaratish jarayonidir. Bu har qanday jamiyatda aniq ishlab chiqarish kuchlarining harakatini taxmin qiladi. Bu o'z navbatida bir qator elementlarni va omillarni (resurslarni) o'z ichiga oladi. Insoniyatning barcha rivojlanish davrlarida ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida ikki omil yuzaga kelgan: ish kuchi (bu shaxsiy yoki inson omili) va ishlab chiqarish vositalari (moddiy yoki ashyoviy omil).

Ammo ishlab chiqarish kuchlari jamiyatning taraqqiy etishi bilan rivojlanib kelmoqda, mukammallashmoqda va o'zining mazmunini o'zgartirmoqda. Hozirgi zamon fan-texnika inqilobi (FTI) sharoitida ularning sezilarli darajada murakkablashishi kuzatilmoqda. An'anaviy ish kuchi va ishlab chiqarish vositalarida bir qator yangi yoki mustaqil omillar va elementlar ahamiyatlidir. Masalan, bular jumlasiga fan, axborotlashuv, energiya, ekologik muhitlar kiradi.

Bu asosiy omillarni batafsil ko'rib chiqamiz:



#### 6.1-chizma. Ajratilgan samarali hududiy izokovantlar oilasi.

### 6.2. Ishlab chiqarishning omillari va imkoniyatlari

Ishlab chiqarish bir-biridan farqlanuvchi uch omilni (lotincha «factoz»-yasovchi, **ishlab chiqaruvchi** ma'nosini anglatadi) o'z ichiga oladi. Ularning har birini jamiyatga xos tabiiy - moddiy jihatdan ko'rib chiqamiz.

**Birinchidan**, inson mehnat omili. Ishlab chiqarish uchun zarur va mehnat ko'nikmalariga ega odamlar hamisha kerak bo'ladi. Moddiy ishlab chiqarishdagi mehnat aniq maqsadga qaraltirilgan faoliyatdir. Ana shu faoliyat


natijasida odamlar o'zlari yaratgan vositalar yordamida jismlarni o'zgartirib, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtiradilar.

**Ikkinchidan**, moddiy, ya'ni **kapital omili** mehnat vositalari. Odamlar foydali ne'matlarni yaratishda foydalanadigan moddiy buyumlar shular jumlasidandir (bular kapital omillari, deb ham ataladi). Mehnat vositalari tarkibiga ishlab chiqarish jarayonining tabiiy shart-sharoitlari (masalan, xo'jalik maqsadlari uchun gidroelektrostansiyalarda yoki sug'orish inshootlarida foydalaniladigan suv) va texnika – sun'iy, inson yaratgan mehnat vositalari kiradi. O'z navbatida ular birlamchi tabiiy moddalarni foydali ne'matlarga aylantiruvchi mehnat qurollarini (asbob-uskunalar, mashinalar, dastgohlar, kimyoviy ishlab chiqarish apparatlari va hokazolarni o'z ichiga oladi.

**Uchinchi omil** ham moddiy bo'lib, u – **mehnat ashyolaridir**. Bu o'z ehtiyojlari uchun inson tomonidan moslashtirilgan buyum yoki buyumlar yig'indisidir. Mehnat ashyolari ham berilgan (masalan, shaxtadagi ko'mir qatlami, kondagi qazilma boylik) tabiiy moddalarga va inson mehnati ta'sir etgan xom ashyoga (xom ashyo materiallariga) bo'linadi. Xom ashyolar sirasiga qatlamdan qazib olingan ko'mir, qayta ishlash uchun jo'natilayotgan yer osti boyliklari kiradi. Umuman, hozirgi zamonda mehnat, kapital va tabiiy resurslar (er) omillari deb ataladi.

Barcha uch omil texnologiya yordamida birlashadi. **Texnologiya** ishlab chiqarish jarayonlarini olib borish usullari va vositalari haqidagi bilimlar yig'indisidir.

Ishlab chiqarishning ichki tarkibiy tuzulishini 6.2-chizmaga qarab ko'z oldingizga keltirishingiz mumkin.



**6.2-chizma. Ishlab chiqarish omillari.**

Aytib o'tilgan omillarning barchasi (yoki ishlab chiqarish resurslari) vaqti kelganda ehtiyojga nisbatan cheklangan bo'lishi mumkin. Bu cheklanish ham mutlaq (resurslarni umuman oshirib bo'lmaydi), ham nisbiy (omillarni

ko‘paytirish mumkin, ehtiyojning o‘sib borishiga nisbatan kamroq darajada) bo‘lishi mumkin.

**Birinchi omil** – xodimlar sonini tezda oshirib bo‘lmaydi yoki deyarli mumkin emas. Bu borada har bir mamlakat aholisining yalpi soni va ayniqsa, mehnatga layoqatli kishilar ulushi chegara hisoblanadi. O‘zbekistonda bunga 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan, ya’ni mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lganlar kiradi.

**Ikkinchi omil** – mehnat vositalarini zarur ko‘larga ko‘paytirib borish mumkin. Ammo buni darhol amalga oshirib bo‘lmaydi. Sababi, ya’ni mashinalarni, binolarni yaratish uchun bir necha yillar ketadi va kapital mablag‘lar talab qilinadi.

**Uchinchi omil** – avvalambor, yer va foydali qazilmalar mutlaqo cheklangan. Ayni vaqtda foydali qazilmalar topilib, hisob-kitob qilingan tabiiy boylik zaxiralari va potensial (hali yetarli darajada hisob-kitob qilinmagan) resurslarga bo‘linada. Ko‘pgina mumlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, razvedka qilingan neft, gaz va ko‘mir zaxiralari XXI asrning o‘rtalarigacha yetishi mumkin.

Shu sababli butun mamlakatning yoki alohida korxonaning ishlab chiqirish imkoniyatlarini aniqlash amaliy ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish imkoniyatlari deganda, resurslardan to‘la - to‘kis foydalanilganda erishiladigan mahsulot ishlab chiqarishning eng katta hajmi tushuniladi. Xo‘jalik resurslari yetishmagan taqdirda quyidagi yo‘llardan birini tanlash mumkin: ishlab chiqarish omillarini qo‘llashning yo‘l qo‘yilgan barcha variantlaridan eng ma’quli, eng hayotiyli tanlab olinadi. Mashinasozlik zavodlarida:

a) fuqarolar ehtiyoji uchun (engil avtomobillar, sovutgichlar, changyutgichlar va hokazolar);

b) armiya uchun mahsulot (tanklar, raketalar va hokazolar) ishlab chiqariladi, deb taxmin qilaylik. Hukumat mashinasozlik korxonalarining egalari vujudga kelgan talabni hisobga olib, qanday qilsa ishlab chiqarish resurslardan to‘laroq foydalanish mumkin, degan masalani hal etishi kerak. Urush davrida mo‘ljallangan miqdor bo‘yicha ishlab chiqarishning barcha omillari 170 ming dona qurol - yarog‘ vositalarini tayorlash uchun mahsulot va 300 mingta buyum ishlab chiqarishni nazarda tutadi. Boshqa variantlarni tanlash imkoniyatlari 6.1- jadvalda yaqqol aks ettirilgan. Jadval resurslardan to‘la-to‘kis foydalanilgan taqdirda qanchadan-qancha, turli-tuman ne‘matlarni yaratish mumkin ekanligini ko‘rsatadi.


## 6.1-jadval

### Ishlab chiqarish imkoniyatlari darajasi

Variant	Fuqarolar uchun mahsulot (ming dona)	Qurol-yarog‘ vositalari (mingta hisobida)
1	300	0
2	220	80
3	140	120
4	0	170

6.1-jadval ma'lumotlari ishlab chiqarish imkoniyatlari chizmasini beradi, egri chiziq xo'jalik resurslaridan to'liq foydalanish chegaralarini ko'rsatadi. Fuqarolar uchun mahsulot (ming dona).

Mazkur chizmaga nazar tashlab, hayot uchun zarur va harbiy anjomlar ishlab chiqarish o'rtasida tanlash ehtimolini tushunsa bo'ladi. Ko'pdan-ko'p variantlarni tasavvur etish mumkin. Mudofaa korxonalarining jiddiy konversiyasini o'tkazish (ularning faoliyatini fuqarolar uchun mahsulot ishlab chiqarishga safarbar etish) va aholi uchun buyumlar ishlab chiqarishni 140 mingdan 220 ming donagacha ko'paytirish haqida qaror qabul qilindi, deb taxmin qilaylik. Ammo zaxiralar bo'lmasa, bunga faqat qurol-yarog' vositalarini ishlab chiqarishning 120 mingtadan 80 mingtagacha qisqartirish, ya'ni 40 mingtaga kamaytirish yo'li bilangina erishish mumkin.



### 6.3- chizma. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizmasi.

So'nggi raqam qabul qilingan qarorning iqtisodiy oqibatlarini, o'ziga xos «bahosi»ni – «muqobil qiymati»ni aks ettiradi. Muqobil qiymat deganda, ko'pchilikka ma'qul buyumlar ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun voz kechish (boshqacha aytganda, qurbon berish) lozim bo'lgan qurol-yarog' vositalari tushuniladi. Biz yuqorida ko'rib chiqqan holda, xalq farovonligini oshirish (iste'mol mollarini 140 mingtadan 220 mingtagacha ko'paytirish)ning muqobil qiymati 40 mingta qurol - yarog' vositasiga teng.



Shak-shubhasiz, hayotda ishlab chiqarish imkoniyatlarini ko'pgina ne'matlarga nisbatan belgilashga to'g'ri keladi. Hozir iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda hisob-kitob vaqtida mahsulotlarni millionlab turlari nazarda tutiladi. Vujudga keladigan murakkab vaziyatlarni hal etish usullari keyinroq ko'rib chiqiladi.

### 6.3. Mahsulot

**Yalpi ijtimoiy mahsulot** – ma'lum bir vaqt ichida (odatda, bir yilda) jamiyatda yaratilgan moddiy boyliklarning qiymati va jamiyatning barcha ehtiyojlarini qondirish uchun tayinlangan.

**Oraliq mahsulot** – ishlab chiqarish jarayonida to'liq, batamom iste'mol qilinadigan piravard tovar va xizmatlar yig'indisi.

**Qo'shilgan mahsulot** – bu ishlab chiqaruvchilar tomonidan bevosita yaratilgan zaruriy mahsulotning oshirilgan qismi bo'lib hisoblanadi. Moddiy ishlab chiqarishdagi ishchilarning qo'shilgan mehnati bilan yaratilgan natijadir.

**Jami ijtimoiy mahsulot** – bu moddiy ishlab chiqarish sohasi tarmoqlarida bir yilda yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot.

**Piravard mahsulot** – ishlab chiqarishda iste'mol qilingan mehnat predmetlarini chegirib tashlanganidan keyin qolgan jami ijtimoiy mahsulotning bir qismidir.

**Sof ichki mahsulot** – yalpi ichki mahsulotning iste'mol qilingan kapitalni, ya'ni amortizatsiya ajratmalarini chegirib tashlanganida qolgan qismidir.

**Milliy mahsulot** – bir yil mobaynida xalq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulot tovar va xizmatlarning puldagi ifodasi. Bularni jami yalpi milliy mahsulot va sof milliy mahsulot deb ajratish qabul qilingan, bular o'z navbatida asosiy vositalarning ishlab chiqarish natijasida **eskirgan** qismidan qolgan qiymatni amortizatsiya ajratmalaridan chegirib tashlangan yalpi ichki mahsulotga tengdir.

**Zaruriy mahsulot** – moddiy ishlab chiqarishdagi ishchilarning ishlab chiqargan sof mahsulotining bir qismi bo'lib, bu o'z navbatida ishchilarning va ularning oila a'zolarining jismoniy va ma'naviy qobiliyatlari takror ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

### 6.4. Ishlab chiqarishning taraqqiyot bosqichlari

Tarix fani aniqlashiga qaraganda, insonning olis ajdodlari hayot faoliyatiga ko'ra hayvonlardan juda kam farq qilgan. Ular tirikchilik vositalarini yig'ish bilan topishgan. Tabiiyki, o'sha vaqtlarda muntazam yo'lga

qo'yilgan ishlab chiqarish bo'lmagan. Shu sababli, odam tez-tez och qolishga majbur bo'lgan.

Taxminan o'n ming yil muqaddam tabiat mevalarini yig'ish ilk buyuk kashfiyotga, o'ziga xos inqilob – dehqonchilik (avvaliga Yerga eng sodda ishlov berish va urug' ekish) va chorvachilikka (yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatish va uy mollari sonini ko'paytirish) olib keldi. Shunday qilib, doimiy ishlab chiqaruvchi iqtisodiyot paydo bo'ldi, natijada, odamlar ma'lum darajada tabiatdan mustaqil bo'lishdi. Ishlab chiqarishning muqaddimasi neolit inqilobi yutuqlariga asoslangan. Yangi tosh asri davrida kremniy, suyak va toshdan yasalgan mehnat qurollari paydo bo'lgan. Keyinchalik oziq-ovqat mahsulotlari birmuncha takomillashgan, temirdan yasalgan texnik vositalar (omoch va g'ildirak kashf etilgan) yordamida yaratiladigan bo'lgan. Ishlab chiqarishning industriyaga qadar davri shunday boshlandi. Shu davrda iqtisodiyotning boshlang'ich sohasi (qishloq xo'jaligi) ustuvor bo'lgan. Mehnatga layoqatli aholining aksariyat qismi dehqonchilik va chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan. Xo'jalik faoliyatida qo'l mehnati va uni tashkil etishning eng sodda shakllari hukmronlik qilgan. O'troqlashgach odamlar uy- joy va xo'jalik imoratlarini barpo etib, qurilish bilan shug'ullana boshlagan.

Moddiy madaniyatda ro'y bergan jiddiy sifat o'zgarishlari aholi sonining keskin ko'payishiga ijobiy tas'ir etdi – birinchi demografik portlash sodir bo'ldi. Neolit davrida Yer yuzi aholisining o'sish sur'atlari deyarli uch barovar ko'paydi.

Yer yuzi aholisining ko'payishi va uning iste'mol darajasi oshib borishi mavjud cheklangan imkoniyatlar bilan ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Qo'l mehnati qo'llanilgan ishlab chiqarishga xos. Bu ziddiyatlar sanoatdagi to'ntarish natijasidagina yengib o'tildi. Mazkur sanoat to'ntarishi, XIX asrning 60-yillarida Angliyada boshlanib, XX asrning 50-60 yillarida G'arbiy Yevropa va AQSh da nihoyasiyaga yetdi. Sanoatdagi inqilobning mohiyati shundan iboratki, qo'l mehnati keng ko'lamda mashinalar bilan almashtirildi.

Ishlab chiqarishning industrilashgan davrida iqtisodiyotning ikkilamchi sohasi – mashinalashtirilgan sanoat ishlab chiqarishi asosiy hisoblanadi. Sanoat mashina texnikasi yordamida qishlok xo'jaligida, qurilishda, transportda va ishlab chiqarishning boshqa muhim sohalarda o'zgarish yasadi. Mehnatkashlarning asosiy qismi xo'jalikning industrial sohalari xodimlari hisoblanadi. (Masalan, XIX asrning 40-yillari o'rtalaridayek Buyuk Britaniyada aholining 3/4 qismini fabrika-zavod ishchilari tashkil etardi). Shaharlarning aholisi jadal sur'atlar bilan ko'payib boradi: jami aholining 2/3 qismi shaharlarda istiqomat qiladi. Ishlab chiqarish imkoniyatlarining qudratli

o'sishi va xo'jalikning ko'p tarmoqli tarkibiy tuzilishi odamlarning nisbatan keng darajadagi moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

Ikki demografik portlash iqtisodiyotning industriallashtirilgan davri bilan bog'liq. Uch yuz yigirma yildan ko'proq (1650 – 1974 yillar) vaqt mobaynida jahon aholisining soni 7 barobar ko'paydi. (1650 yilda 650 million kishini tashkil etardi).

Shunga qaramay industrilashgan iqtisodiyotning yutuqlari ehtiyoj va iste'molning bosib borayotgan hozirgi zamon bosqichi uchun yetarli emasligi ayon. Sababi, mexanizatsiyalashgan mehnat sharoitida xodim bir mashinani boshqaradi va buyumning yuksak sifatini muqim ta'minlashga qodir emas, vaholanki, busiz eng yangi texnikani yaratib bo'lmaydi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar tabiiy xom ashyo va energiya tashuvchi manbalarga tobora keskin ehtiyoj xis etmoqda. Natijada, nisbatan cheklangan ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan mutlaqo yangi son va sifat jihatidan qaraganda, iste'mol darajasi o'rtasida chuqur ziddiyat vujudga keldi. Mazkur ziddiyat 40 – 50 yillarda boshlangan ulkan fan-texnika inqilobi davomida bartaraf etilmoqda. Bu inqilob ishlab chiqarishning industriyadan keyingi bosqichi sari harakatni ochib berdi. Bu axbarotlar jamiyatiga o'tishni anglatadi. Ushbu eng yuqori bosqichda iqtisodiyotning uchunchi sohasi – barcha xodimlarning 50 – 70% gacha band bo'lgan xizmatlar sohasi ayniqsa, rivoj topadi. Xo'jalikning barcha sohalarida va ro'zg'orda informatika yutuqlari va hozirgi zamon hisoblash texnikasi keng joriy yetiladi. Bu axborotlarning jamiyat hayotidagi ahamiyatini keskin oshirish hamda jismoniy va aqliy mehnatni avtomatlashtirish imkonini beradi. Korxonalaridagi ilmiy xodimlar va malakali mutaxassislarining roli jadal sur'atlar bilan oshib boradi. Endilikda yuksak samarali iqtisodiyot barcha fuqarolarning eng oddiy ehtiyojlari yetarli darajada to'liq qondirilishini ta'minlashga, nisbatan yuqori darajadagi talablari bajarilishini kengaytirishga qodirdir.

Aytganlarimiz butun insoniyat iqtisodiy faravonligining ana shunday yuksak chuqqisiga ko'tariladi, degan ma'noni anglatadimi? Afsuski yo'q. Bugungi kunda kurrai zaminimizning iqtisodiy - jug'rofiy xaritasida ishlab chiqarish taraqqiyotining turli bosqichlarida turgan mamlakatlarni ham topish mumkin.

**Birinchidan,** Afrika, Lotin Amerikasida va Osiyoda shu kungacha iqtisodiyotning industriyaga qadar davri saqlanib qolgan. Mehnatga layoqatli aholining 2/3 qismiga yaqini qishloq xo'jaligi bilan mashg'ul. Xodim qo'l mehnatining eng oddiy qurollaridan foydalanib, nari borganda ikki kishini boqishi mumkin.

**Ikkichidan**, xo‘jalik yuritishning industrlashgan ko‘rinishiga biz Yevropa (masalan, Gretsiyada), Osiyo va sobiq ittifoq hududidagi qator davlatlarda duch kelishimiz mumkin.

**Uchunchidan**, ishlab chiqarishning postindustrial bosqichi eng rivojlangan mamlakatlarda, masalan, aytaylik AQSh va Yaponiyada qaror topmoqda. Ana shu mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi xodimi iqtisodiyotning industriyaga qadar ko‘rinishi hukm surayotgan mamlakatlardagi xodimga qaraganda 15 baravar ko‘p mahsulot ishlab chiqarishga qodir. Ayni vaqtda axborotni olish, uni o‘zgartirish va undan foydalanish bilan bog‘liq holda bormoqda.

Shu bilan bir qatorda, texnik-iqtisodiy jihatdan ortda qolgan xalqlarning aksariyati axborotlar jamiyati sari turli tezlikda harakat qilmokda. Shuning uchun nisbatan ishonch bilan taxmin qilish mumkinki, XX asrda butun dunyoda iqtisodiyotning eng yangi tarkibiy tuzilishi yanada keng yoyiladi. Ayni vaqtda ayrim mamlakatlar ehtiyojlarining o‘sib borishi va resurslarning cheklanganligi o‘rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishning o‘zlari uchun maqbulroq usullarini topishlari mumkin.

### **XIX asrning oxiri - XX asrning boshidagi ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi**

Iqtisodiyotning industriyaga qadar va industrlashgan davrida yashagan odam ishlab chiqarish deganda, moddiy ne‘matlarni yaratish bilan bog‘liq faoliyat sohasini ko‘z oldiga keltiradi. XVIII asr uchun, masalan, quyidagi fakt e‘tiborga sazovor. Taniqli ingliz iqtisodchisi Adam Smit jamiyat boyligini faqat unumli mehnat – moddiy ne‘matlarni yaratuvchi faoliyat vujudga keltiradi deb hisoblagan. U ruhoniy, huquqshunos, yozuvchi, aktyor, masharaboz, sozanda, opera xonandalari, raqqoslar va hokazolar xizmatini unumsiz mashg‘ulotlar qatoriga kiritgan.

Ammo hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasi xo‘jalikning yangicha voqeligini aks ettiradi. XX asrning oxiri va XXI asrning boshi uchun postindustrial ishlab chiqarishning eng yangi tarkibiy tuzilishi xosdir. U boshqalardan farq qiluvchi qator xususiyatlarga ega.


1. Eng yangi ishlab chiqarish haqiqiy va istiqboldagi ehtiyojlarning butun doirasi yalpi qondirilishini ta‘minlashga qodir.

2. Hozirgi iqtisodiyot ishlab chiqarishning bir-birini to‘ldiruvchi ikki sohasini: moddiy (ashyoviy boyliklarni yaratadi) va nomoddiy (ma‘naviy, axloqiy va boshqa qadriyatlarni – madaniyat, san‘at, fan va xokazo asarlarni yaratadi) sohalarini o‘z ichiga oladi.

3. Hozirgi zamon ishlab chiqarishiga xizmatlarning alohida sohasi uzviy ravishda kirib boradi. Xizmat – aniq maqsadga qaratilgan faoliyatning shunday

bir turiki, uning foydali natijasi mehnat jarayonida namoyon bo‘ladi va ehtiyojning u yoki bu to‘rini qondirish bilan bog‘liq. Xizmatlar ishlab chiqarish faoliyatining sohalariga muvofiq ravishda ikki turga bo‘linadi.

Ularni moddiy xizmatlar (bunday xizmatlarni yuk transporti, ishlab chiqarishga xizmat kursatuvchi - aloqa, savdo, uy-joy, maishiy xizmat va hokazolar amalga oshiradi) va moddiy bo‘lmagan xizmatlar (bunday xizmatlarni maorif, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, san‘at ijtimoiy ta‘minot, bank, ijtimoiy sug‘urta va hokazo muassasalar ko‘rsatadi) deb farqlashadi. Yuksak darajada rivojlangan ishlab chiqarish tarkibiy tuzilishining chizmasi 6.4-chizmada tasvirlangan.



**6.4-chizma. Nomoddiy ishlab chiqarish.**

4. Hozirgi zamon ishlab chiqarishining tarkibiy tuzilishida infratuzilmasi u bevosita moddiy ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatadi (avtomobil yo‘llari, kanallar, portlar, ko‘priklar, aerodromlar, omborxonalar, qurilish va ulardan foydalanish, energetika xo‘jaliklari, temir yo‘l xo‘jaligi, suv ta‘minoti, kanalizatsiya va hokazolar)

Ishlab chiqarish bog‘liq bo‘lmagan (yoki ijtimoiy) infratuzilma. Mazkur infratuzilma ishlab chiqarish jarayoni bilan vositalar orqali bog‘langan (kadrlar tayyorlash, maktab va oliy ta‘lim, sog‘liqni saqlash va hokazolar).

Infratuzilma hozirgi zamon ishlab chiqarishi va uning bo‘linmalari ichididan bir-biri bilan g‘oyatda keng va mustahkam uzviy aloqalarda bog‘langanligidan guvohlik beradi. Mazkur aloqalar xo‘jalik faoliyatini ma‘lum darajada yaxlit birlikka birlashtiradi va unga tizim tavsifini beradi.

Tovar ishlab chiqarish va pul bozori bobida tadqiqotlarimizni davom ettiramiz, ammo bunga kirishishdan oldin yuqorida aytib o‘tilganlardan qisqacha xulosa chiqaramiz.

### **6.5. Ishlab chiqarishda inson omili**

**Ishchi kuchi, mehnat va mehnat unumdorligi.** *Ishchi kuchi* – bu insonning mehnat qilish kobilyati, uning ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan jismoniy va aqliy kuch-g‘ayrati yig‘indisidir. Ishchi kuchining amalda

qo‘llanilishi mehnat jarayonida yuz beradi, shuning uchun «ishchi kuchi» va «mehnat» tushunchalari ishlab chiqarishning inson resursi sifatida bir-biriga tenglashtiriladi. Ammo bu tug‘ri emas. Mehnatni odamlarning hayot ne‘matlarini yaratish bo‘yicha aniq maksadga qaratilgan faoliyati, deb ta‘riflash mumkin. Bu faoliyatning ahamiyati beqiyos, chunki aynan mehnat ham alohida bir oilaning, ham butun millatning gullab-yashnashini ta‘minlaydigan to‘kinchilik manbaidir. Petti «Mehnat boylikning otasi va faol tamoyili», deb bejiz aytmagan.

Ammo bu hammasi emas. Engelsning fikriga qaraganda, mehnatning roli yanada kengroq: u inson hayotining asosiy sharti hisoblanadi, shu darajadagi, insonning o‘zini mehnat yaratgan, desa bo‘ladi. Aynan mehnat tufayli odam xayvonot dunyosidan ajralib chiqdi va ijtimoiy taraqqiyot pog‘onalari bo‘ylab ko‘tarila boshladi. Jamiyatning butun tarixi – bu mehnatning rivojlanish, mehnat ko‘nikmalarining, odamlar ijodiy qobiliyatining, ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasining takomillashib borish tarixidir.

Mehnat unumdorligi, ya‘ni uning samaradorligi, natijasi ishchi kuchi omilidan foydalanishning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. U vaqt birligida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, yoxud mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflangan vaqt miqdori bilan o‘lchanadi. Samaradorlikning o‘sishi tufayli mehnat resurslari iqtisod qilinadi, ishlab chiqarish arzonlashadi, jamiyat boyligi ko‘payadi. Mehnat unumdorligi darajasini belgilaydigan asosiy omillarni quyidagi olti bandga guruhlash mumkin:

Mehnat unumdorligini quyidagilar belgilaydi:

- xodimlar bilimi, malakasi va kasb mahorati darajasi, ularning mehnatini tashkil etish va mehnat madaniyati;
- ishlab chiqaruvchilarning mehnat natijalaridan manfaatdorlik darajasi, ularning intizomliligi va mas‘uliyatliligi;
- fan, texnika, texnologiyaning rivojlanganlik darajasi va ularni ishlab chiqarishda qo‘llanish samaradorligi;
- xom ashyo, material, yoqilgi, energiya va boshqa resurslardan oqilona va tejamli foydalanish;
- mehnatning intensivligi, ya‘ni uning tig‘izligi, shiddatliligi darajasi, mehnat operatsiyalarining tezligi darajasi;
- tabiiy sharoitlar (foydali qazilma boyliklarining, o‘rmonlar, suvlarning mo‘l-ko‘lligi va qazib olish osonligi; tuproqning unumdorligi, iqlimning qulayligi).

Mehnat sohasidagi tadqiqotchilar uning samaradorligini oshirish yo‘lida muntazam izlanishda. Jumladan, «Fanning ulkan taraqqiyoti» va «Inson

mehnati unumdorligini beqiyos oshirish yo‘lini ochib bergan» Teylor tizimi mana, yarim asrdan ko‘proq ma’lum. Mazkur mehnatni ilmiy tashkil etish va ishlab chiqarish boshqaruvini ratsionallashtirish bo‘yicha tadbirlarning yaxlit bir tizimi birinchi marta XIX – XX asrlar o‘rtasida AQShda amerikalik yangilik izlovchi muhandis Frederik Teylor (1856 – 1915) tomonidan ishlab chiqilgan va joriy etilgan edi.

Jumladan, mehnatni ilmiy tashkil etish tizimi mehnatning chuqur taqsimotini [bunda xodimlar ayrim texnologiya operatsiyalariga safarbar etilgan (ixtisoslashgan) bo‘ladi], mehnat jarayonining batafsil tahlilini, ortiqcha, noqulay harakatlarni bartaraf etilishini, maqbul mehnat usullari belgilanishini va ularning avtomatik darajaga yetkazilishini, butun ish jarayonining qat’iy tartibga, mehnatning qat’iy me’yorga solinishini va yuqori ishlab chiqarish me’yorlari o‘rnatilishini, toliqishni kamaytirish uchun mehnat bilan dam olish almashib turishini va hokazolarni taxmin qilar edi.

O‘z navbatida boshqaruvni ratsionallashtirish to‘rt asosiy bandni: (a) qattiq intizom va korxonada nazorat bo‘lishini; (b) unda xodimlar turi tanlanishi va joy-joyiga qo‘yilishini; (v) xodimlar malakasini oshirish va xizmat pog‘onalari bo‘yicha ko‘tarilishining aniq tizimini; va nihoyat, (g) ish haqini mehnat natijalariga ko‘ra tabaqalashtirish (ya’ni har bir xodimning mehnat unumdorligidan kelib chiqib, uning turli darajalarini belgilash) asosida ularning ishlab chiqarish samaradorligidan moddiy manfaatdorligi tamoyilini nazarda tutar edi.

Ishlab chiqarishni boshqarish tizimida kech qanday yon bosish bo‘lmasligi lozim, deb hisoblar edi, Teylor. Ishchi ko‘pincha omi, dangasa va loqayd bo‘ladi, yangiliklarni xush ko‘rmaydi, «o‘zini o‘rintirmay ishlashga» moyil. Shuning uchun odamlar ishlab topganlaridan ortiqcha haq olishlari kerak emas. Shunday qilish kerakki, har bir inson o‘z farovonligi uchun o‘zi javob bersin. Mehnat jarayoni maqsadga muvofiq, ishlab chiqarish me’yorlari yuqori bo‘lishi kerak. Kim o‘z ish me’yorini bajara olmasa, boshqalardan kam haq olishi kerak. Xodimning mehnat haqi uning ishlab chiqarishga qo‘shgan shaxsiy hissasiga mos bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston uchun mehnat unumdorligini oshirish – tub va uzoq davrga mo‘ljallangan vazifa. Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyot peshqadamlaridan bir necha asrlardan beri ortda qolib keladi, o‘rtadagi tafovut hamon katta: Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra 1999 yilda mamlakatimizda har bir ishchi jon boshiga hisoblaganda tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish atigi bir necha ming dollarni tashkil etgan, ayni vaqtda bu ko‘rsatkich Chexiyada - 27 ming dollarni, AQShda esa, 62 ming dollarni tashkil etgan. Nega shunday? Buning sabablari ko‘p narsalarga bog‘liq.

## **Fan-texnika inqilobi sharoitlarida inson omili**

Hozirgi zamon gurkiragan fan-texnika inqilobi iqtisodiyotda ulkan o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Kompyuterlar, elektronika, avtomatlashgan tizimlar, boshqa g'oyatda unumli texnika ishlab chiqarishga joriy etilmoqda. Natijada, mehnatning texnika bilan jihozlanganligi, uning unumdorligini oshirmoqda, bevosita (jonli) mehnatni inson mehnati bilan yaratilgan mashinalar siqib chiqarmoqda. Bularning hammasi inson-xodimning ishlab chiqarishdagi rolini tubdan o'zgartirmoqda. U alohida bir mashina huzuridagi mexanik ijrochi bo'lmay qolayapti, mashinalarning butun tizimini boshqarmoqda, texnologiya jarayonida asosiy bo'g'inga – uning nazoratchisi va boshqaruvchisiga aylanmoqda.

Shaxs omili rolining bunday o'zgarishi yangi tipdagi xodimga ehtiyojni izohlaydi, bunday xodim avvalgisidan davr bilan birga odim tashlaydigan va har tomonlama yuqori darajada ilmi, mahoratli va vakolatli, mustaqil ijodiy fikr yurita oladigan, faol va mas'uliyatli ekanligi bilan ajralib turadi. Mamlakat miqyosida yangi tipdagi xodimni shakllantirish – murakkab va uzoq davom etadigan jarayon, uning quyidagi to'rt asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi yo'nalish hozirgi zamon xodimlarini o'qitish va kasbiy tayyorlash – o'sib boruvchi, keng ko'lamli va uzluksiz ta'lim berish asosida olib borilishi bilan ta'minlanadi. Demak, yangi texnika va texnologiyalar zavodlardan oldin darsliklarda va o'quv auditoriyalarida paydo bo'lishi, xodimlar malakasini oshirish va takomillashtirish, fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi bilan birgalikda muntazam olib borilishi kerak. Bugungi kun alohida, rivojlanib boruvchi va yangiliklarni inobatga oluvchi ta'limning davridir. Bu bizni oldindan ma'lum bo'lgan narsani shunchaki takrorlashga emas, yanada samarali yechimlarni mustaqil, ijodiy izlanishga, yangiliklarning uzluksiz oqimini boshqarishga tayyor turishga, «taraqqiyot bilan hamnafas» harakat qilishga, doimo bilimni oshirib borishga safarbar etadi.

Yangi tipdagi xodimni shakllantirish uchun kadrlarni har tomonlama o'qitish va kasbiy tayyorlash, mehnatni zakovat bilan birlashtirish, insonparvar qilish, ishlab chiqarishni demokratiyalashtirish zarur.

Bunday sharoitlarda ishga joylashish vaqtida va bevosita mehnat jarayonining o'zida odamlarning shaxsiy qobiliyatlari va yutuqlariga qarab baholash birinchi o'ringa chiqadi. Ya'ni aqliy zakovat va yaxshigina ijodiy imkoniyatlar, bilimning yuksak darajasi va zamonaviyligi, keng doiradaligi va yuqori darajadagi mahorat, sidqidildan mehnat qilishga moyillik va uning natijasi uchun mas'uliyat kerak bo'ladi.



G'arb tadqiqotchilarining fikriga qaraganda, ilg'or jamiyatlarda «shaxsiy xizmatlar hukmronligi», ish o'rniga nomzodni «boshliqlar» bilan aloqasiga yoki «yuqoridan» bo'ladigan qo'ng'iroqlarga qarab emas, shaxsiy yutuqlaridan kelib chiqib ishga qabul qilish (yoki qabul qilmaslik) tamoyili qaror topib bormoqda. Bu, avvalambor, biznes uchun muhim: uni serg'ayrat va olg'a intiluvchi shaxslar olib borsa, biznes rivojlanadi. Har bir insonni «hayotining ko'lami jamiyatga ko'rsatayotgan xizmatlariga mos darajada bo'lishi uchun» qilmishiga qarab baholash kerak, deb ta'kidlar edi XX asrning eng yirik ish beruvchilaridan biri Genri Ford.

O'z navbatida mehnatning zakovatlashib borishi mehnat tobora aqliy, tahliliy, tezkor ijodiy xususiyat kasb etib borayotganligida, odam qo'li bilan emas, aqli bilan mehnat qilayotganligida, ishlab chiqarish vazifalarini mustaqil va oqilona hal etayotganligida, tobora ko'proq axborotlar oqimi bilan ish olib borayotganligida, murakkab texnikani, hatto, mashinalarning yaxlit tizimini boshqarayotganligida namoyon bo'lmoqda.

Ishlab chiqarishni insonparvarlashtirish jarayoni go'yo uning odamiylashtirilishini, xodimlarning ehtiyojlariga moslashuvini anglatadi. Bu «inson elementiga e'tibor» kuchaytirilishini va ergonomika (mehnat sharoitlarini yengillashtirish va sog'lomlashtirish, mehnat jarayonlarini ratsionallashtirish va texnikalashtirish, xodimlar mustaqilligi va ijodkorligini oshirish) talablarining bajarilishini taxmin qiladi.

Ford bunga qo'shimcha qilib, mehnat sharoitlarining yaxshilanishi o'zi bilan ishlab chiqarish chiqimlarining kamayishini ham olib keladi, deb ta'kidlaydi. «Yaxshigina mehnat sharoitlari va daromadlilik aslida bir-biri bilan uzviy bog'liq», deydi sarmoyador. Bugungi kunda odamlar ko'pincha eng qulay sharoitlarda – o'z uyida mehnat qilayotgani, sexdagi ish joyi uning egasi didiga moslashtirib jihozlanishi, dastgohlar va mashinalar yonida manzarali daraxtlar va gullarning yashnab turishi tasodifiy emas. Buning oqibat-natijasida mehnatning jozibadorligi va samaradorligi oshib bormoqda.

Nihoyat ishlab chiqarishni demokratiyalashtirish xodimlarning o'z firmasi aksiyadorlik kapitalida, uni boshqarishda, olingan daromadlarni taqsimlashda ishtirok etishi, korxonaning moliyaviy ahvoli va ijtimoiy-iqtisodiy istikbollarining oshkoraligi, ishlab chiqarishda «odamlarning o'zaro o'rtoqlik munosabatlari» qaror topishi orqali amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyotda insonparvarlashtirish va demokratiyalashtirishning muhimligini «sog'lom fikr yurituvchi ish beruvchilar» va olimlar anglab yetganiga ancha vaqt bo'ldi. Yevropada ana shu ilg'or g'oyani ingliz iqtisodchisi Artur Pigu (1877 – 1959) ilgari surgan. AQShda esa XX asrning 20 – 30-yillari oralig'ida bir guruh jamiyatshunoslar va psixologlar «insoniy

munosabatlar», deb atalmish nazariyani ishlab chiqdi va uni tajribalar bilan tasdiqladi. Ana shu nazariyaga muvofiq har qanday ishlab chiqarish tizimining markazida inson-xodim turadi, u bilan «biologik mashina» sifatida emas, «ijtimoiy-ruhiy mavjudot» sifatida muomala qilish lozim.

Xo‘jalik samaradorligini oshirish uchun birgina moddiy omillar muhim emas. Mehnatni rag‘batlantirish xilma-xil bo‘lishi kerak. Jumladan, ruhiy kayfiyat va mehnat jamoasidagi odamlarning munosabatlari bilan bog‘liq, ruhiy-ijtimoiy omillar (yunoncha psyche – qalb, pyh - socialis – so‘zlaridan tashkil topgan) ulkan ahamiyatga ega. Xodimlarning o‘z ishchi guruhlaridagi o‘zaro samimiyligi, jipsligi undagi qulay axloqiy muhit, rahbarlar bilan o‘zaro yaxshi munosabatlar, har bir xodim manfaatlarining hisobga olinishi, uning o‘z mehnatidan qoniqish hosil qilishi va hokazolar ana shunday omillar qatoriga kiradi.

Demak, ishlab chiqarishni boshqarishda xodimlar haqida g‘amxo‘rlik qilish, ularning o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro ishonch va totuvlik muhitini vujudga keltirish, mehnat uchun yakka tartibdagi mukofotlarni jamoa mukofotlari bilan to‘ldirish, boshqaruvda demokratiyani (oshkoralikni, odamlarning xabardorligini, boshliqlar bilan xodimlar o‘rtasida ishonch va hamkorlikni, qarorlarning birgalikda qabul qilinishini) rivojlantirish muhimdir.

Ishlab chiqarishni insonparvarlashtirish samarali ekanligini Singapur, Tayvan, Janubiy Koreya va Osiyodagi boshqa mamlakatlarning tajribalari ham tasdiqlaydi. Ana shu mamlakatlarda Konfutsiy ta’limoti keng yoyilgan. Odamlarning o‘zaro munosabatlari konfutsiycha madaniyati zamirida xitoy tilidan tarjima qilganda, odamiylik, insonga hurmat, mehribonlik, rahmdillikni anglatuvchi tamoyil yotadi. Aynan ana shu hayotiy qo‘llanmalar korxonalarda o‘ziga xos hamjihatlik ruhini vujudga keltirish imkonini beradi.

## **6.6. Hozirgi zamon ishlab chiqarishi sharoitida boshqa omillari**

**Ishlab chiqarishning tashkiliy-texnologik omillari.** Hozirgi zamon iqtisodiyotining asosiy omillari sifatida ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalaridan so‘ng ishlab chiqarishni tashkil etish va uning texnologiyasini tilga olish mumkin. Aynan shular tufayli ishchi kuchining ishlab chiqarish vositalari bilan o‘zaro maqbul hamkorligiga erishiladi. Ishlab chiqarishni tashkil etish ishlab chiqarishda butun jarayonning birligi, uzluksizligi va samaradorligini ta’minlash maksadida uni ma’lum ravishda qurishni anglatadi. Masalan, avtomobil ishlab chiqarishni tashkil etish avtomobil zavodi turli bo‘linmalari (sexlari, uchastkalari, brigadalari) o‘rtasidagi ko‘p sonli aloqalar

bilan bir qatorda, zavodning xomashyo, komplektlovchi uzellar, qismlar va hokazolarni yetkazib beruvchilar bilan aloqalar o'rnatilishini taxmin qiladi.

Ishlab chiqarish texnologiyasi – unda ko'llaniladigan muayyan usul va uslublardan, ish jarayonlari va mahsulot tayyorlash jarayonlaridan iborat (masalan, non yopish texnologiyasi operatsiyalarining ma'lum izchilligini, xamirning ma'lum tarkibini, tandirlarning ma'lum ish tartibini va hokazolarni nazarda tutadi).

Zamonaviy texnologiyalarni bilish – ishlab chiqarish samaradorligining kalitidir, shu sababli xo'jalik olamida yangi ilg'or yechimlar – texnologiya bilimlari va tajribalarini almashish keng yoyilgan. Yangi yoki boshqacha qilib aytganda, yuksak texnologiyalarning o'ziga xos jihati ularning ishlab chiqarishda axborotlardan va kompyuterlardan keng foydalanishga tayanishi hisoblanadi. Shu xildagi texnologiyalarni axborot yoki axborot-kompyuter texnologiyasi, deb atashadi. Ishlab chiqarishning yangi omili – axborotning alohida ahamiyati ana shundan kelib chiqadi.

### **Ishlab chiqarishning axborot omili**

Axborot atamasi keng ma'noda u yoki bu bilimlarni, ma'lumotlarni, uzatiladigan, odamlar va boshqa jonli mavjudotlar hamda maxsus qurilmalar tomonidan qabul qilinadigan turli xil signallarni anglatadi. Hozirgi zamon ishlab chiqarishida axborot salmokli va turli-tuman rollarni bajaradi. Jumladan, u texnikaning (ayniqsa, dastur bilan boshqariladigan texnikaning) ishlashini, bevosita ishlab chiqarishning eng maqbul tashkil etilishini va uning kechishi ustidan nazoratni, ishlab chiqarishni tezda qayta tashkil etish imkonini, xodimlar bilim darajasi va malakasi oshirilishini, ilg'or g'oyalar va texnologiyalarning tezda yoyilishini ta'minlaydi. Aynan axborot-kompyuter tizimini keng joriy etish 90-yillarda Amerika Qo'shma Shtatlari iqtisodiyoti mislsiz o'sishining bosh omili bo'lib xizmat qildi, deb ta'kidlaydilar tadqiqotchilar.

Ammo shu omilning qorong'i tomonlari ham uchraydi. Ana shu tomonlar jamiyatning axborot xavfsizligi muammosini, ya'ni uning yashirin axborot oqimiga begona shaxslarning xavfli kirib borishidan himoya qilish muammosini nihoyatda keskinlashtiradi. Kompyuter sohasidagi jinoyatchilar (xakerlar) hukumat xizmatlarining yashirin ma'lumotlariga, harbiy buyruqlar va razvedkaning yopiq ma'lumotlariga, banklar, raqobatchi firmalarning hujjatlariga kirib borishlari, axborotlarni, moliyaviy va boshqa boyliklarni o'g'irlab, boshqaruv tizimi ishini, davlat faoliyatini izidan chiqarishlari mumkin. Bunday harakatlar kompyuter tizimlarini ishdan chiqarishda muholifatdagi davlatlar maxsus xizmatlarning qudratli axborot quroli bo'lib xizmat qiladi.

Axborot - kompyuter texnologiyasining boshqa bir «salbiy ta'siri» shundan iboratki, ular o'z ishlab chiqaruvchilariga – katta imkoniyat beradi. Axborot-kompyuter texnologiyasini ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlari orhali (aytaylik, kompyuter o'yinlari orqali) uning millionlab iste'molchilari ongiga ta'sir o'tkazishlari mumkin. Yoki bahaybat Internet kompyuter tarmog'ini olaylik: ana shu sehrli «o'rgimchak to'ri» tobora ko'p odamlarni o'z domiga tortmoqda, axborotlar borasida o'ziga «qaram» qilib, ularning hayotini bevosita ekran bilan bog'lab qo'yamoqda, «kerakli» chizmalarni, ma'lumotlarni, obro'sizlantiruvchi xabarlarini sanoqli daqiqalarda butun dunyoga tarqatish imkonini bermoqda.

Yangi texnologiyalarning yana bir ziddiyatli qirrasini – davlatning o'z nazorat ruyxatiga millionlab fuqarolarni barcha zarur ma'lumotlar bilan (sog'lig'i, oilasining ahvoli, daromadlari, ko'chmas mulki va hokazolar bilan) «kiritish imkoniyatidir». Bir tomondan, bu jinoyatchilikka va soliqlardan bo'yin tovlashga qarshi kurashda, yordamga muhtoj fuqarolarni aniqlashda va hokazolarda ko'mak berishi mumkin. Ikkinchi tomondan, ular davlat amaldorlarining, ayniqsa, «kuch tuzilmalari»ning suiste'mollari uchun: axborotlarni sotish, ulardan fuqarolarga zarar keltirish maqsadida foydalanish, tovlamachiliklar qilish, bo'yin egmaganlarning amaldorlar tomonidan ta'qib qilinishi uchun imkoniyatlar yaratib beradi va hokazo...

Nima bo'lsa ham, fan-texnika inqilobi rivojlanib borgan sayin axborotlar oqimi kuchayib bormoqda. XIX asrda axborotlar oqimi ikki barobar ko'payishi taxminan 50 yil talab qilingan bo'lsa, bugungi kunda axborotlar oqimi har 20 oyda ikki barobar ko'payib borayapti, ularning jamiyat hayotidagi ro'li og'ishmay oshib bormoqda. Bu olimlarga «axborot inqilobi» va rivojlangan mamlakatlarning «industrial jamiyat»dan «axborot jamiyati»ga (uni «postindustrial», deb ham atashadi) o'tayotgani haqida gapirish imkonini berdi.

Axborotlar jamiyatining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- axborot ishlab chiqarishning asosiy mahsuliga va jamiyatning asosiy resursiga aylanadi; jamiyatda o'ziga xos «axborotlar hukmronligi» tarkib topadi;
- maorif va fan (axborotlarni ishlab chiqaruvchilar) – iqtisodiyotning asosiy sohalariga aylanadi, universitetlar (ilmiy bilim markazlari) va ilmiy-texnik mutaxassislar jamiyatda yetakchi rol o'ynaydi;
- har sohada axborot-kompyuter texnologiyasi va avtomatlar qo'llaniladi, yangi ixtirolarni joriy etish tezlashadi;
- ulkan aloqa tizimlari (qit'alararo telefon kabeli, yo'ldoshlar orqali

televideniye va aloqa, jahon Internet tarmog‘i) rivoj topadi;

- iqtisodiyotni tashkil etish rang-baranglashib, uning qayishqoqligi oshadi, bilimlar va odamlarning butun ijtimoiy hayoti uzluksiz yangilanib boradi.

Axborotlar jamiyatining yuqorida aytib o‘tilgan so‘nggi jihati ayniqsa, salmoqli bo‘lib, uni millionlab kishilar his etadi. Amerikalik jamiyatshunos Elvin Toffler (1928 yilda tug‘ilgan)ning kuzatuvlariga qaraganda, hozirgi zamon insoniyat hayotdagi o‘zgarishlar tobora jadallashib boradigan davrga qadam qo‘ymokda. Bugungi kunda dunyoda o‘zaro bog‘liq uch asosiy omil ustuvorlik qilmoqda: birinchi omil – o‘tkinchi bo‘lib, u jamiyat hayotidagi (fan, texnika, ishlab chiqarish, turmush, moda, odatlardagi, hatto odamlarning o‘zaro munosabatlaridagi) o‘zgarishlar oqimi tobora tezlashib borishini anglatadi; ikkinchi omil – yangilanish, u tobora g‘aroyib, hayratda qoldiradigan, ilgari ko‘z ko‘rmagan buyumlarning yangidan-yangi namunalarni, jarayonlarni, vaziyatlarni, g‘oyalarni yaratadi; uchinchi omil – rang-baranglik bo‘lib, hayot shakllarining g‘oyatda ko‘psonligi, murakkabligi va ko‘rinishlari bilan lol qoldiradi, iste‘mol ne‘matlarining millionlab turlaridan boshlab din, fan, maorif, san‘at, siyosat oqimlarining son-sanoqsizligi shular jumlasidandir.

Ana shu omillarning qorishmasi odam asabini doimo tarang holda ushlab turadi. U hamma yerda ulgurishga harakat qiladi, natijada, uning bilimi sayoz, chala-chulpa, yuzaki va eskirgan bo‘lib chiqadi. Hayotiy vaziyatlarning yashin tezligida o‘zgarishi uni ana shu o‘zgarishlarga qayta va qayta moslashishga majbur qiladi.

Xo‘jalik hayotida ham xuddi shunday manzara kuzatiladi: «pishiklik iqtisodiyoti» o‘rniga «qisqa muddatli iqtisodiyot» keladi. Gurkirab rivojlanayotgan fan-texnika taraqqiyotining bosimi ostida undagi hamma narsa – texnika, texnologiya, buyumlar va ehtiyojning o‘zi ham vaqtinchali bo‘lib qoladi. Kuni kecha Pentium IV shaxsiy kompyuterlarning «poshshosi» hisoblanar edi, hozir-chi, Pentium CXLIV nechanchi o‘rinda? Yoki kompyuterlarning dasturiy ta‘minoti bo‘yicha qo‘llanma kitoblarni olaylik. Ular nashrdan chiqmay turib, eskirib qolayapti...

Shuning uchun Toffler shundan bo‘lsa kerak: «bir marotabali ne‘matlar, iqtisodiyotda «ishlatdingmi – tashlab yubor» tamoyili ustuvorlik qiladigan davr keladi» degandi. Bundan mahsulotlarning uzoq muddatli, g‘oyatda pishiq va qimmatbaho turlarini ishlab chiqarishga e‘tiborni qaratish maqsadga muvofiq emas, ko‘p hollarda ta‘mirlash ishlarini olib borish samarasiz, texnikadan yanada samarali foydalanish, uni ijaraga berish tizimini

takomillashtirish, dasgohlarni ish jarayonida yangilab borish zarur, degan muhim xulosalar kelib chiqadi.

### **Fan hozirgi zamon ishlab chiqarishining asosiy omili sifatida**

Ma'lumki, fan-tartibga solingan ob'ektiv nazariy bilimlardir. Hozirgi zamon ilmiy tadqiqotlari oqimida uning uch asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin. Ana shu uch yo'nalish quyidagilardan iborat: muhim tadqiqotlar; amaliy tadqiqotlar; ilmiy - tadqiqot tajriba-konstruktorlik izlanishlari. Muhim ilmiy tadqiqotlar – bu yangi asos soluvchi bilimlarni olish hamda o'rganilayotgan hodisalarning qonuniyatlarini aniqlash maqsadida predmetni chuqur va har tomonlama tadqiq etishdir. O'z navbatida amaliy tadqiqotlar deganda muayyan amaliy vazifalarni hal etish uchun jiddiy fanlar yutuqlaridan foydalaniladigan tadqiqotlar tushuniladi. Masalan, aynan atomlarni fizik jihatdan jiddiy tadqiq etishga asoslanib amaliyotchi olimlar atom energetikasini yaratishdi. Nihoyat, ilmiy - tadqiqot tajriba - konstruktorlik ishlari fanning ishlab chiqarish bilan bog'lanishini nihoyasiga yetkazadi, shu yo'l bilan loyihaning ham ilmiy, ham texnik - muhandislik yechimini ta'minlaydi.

Masalan, yangi buyumni ko'plab ishlab chiqarish oldin odatda, ilmiy tadqiqot tajriba - konstruktorlik ishlarining quyidagi bosqichlari amalga oshiriladi: muhim tadqiqotlar; amaliy tadqiqotlar; loyihalashtirish; konstruksiyasini yasash; buyumni sinovdan o'tkazish; uning tajriba namunalari maromiga yetkazish.

Fan azaldan rivojlanib keladi va ishlab chiqarishni yangi g'oyalar bilan ta'minlaydi. Shuning uchun fan-texnika taraqqiyoti – ishlab chiqarish texnikasi va usullarini tadrijiy, asta-sekin yangilab borish u yoki bu darajada barcha texnologiya davrlariga hosdir. Fan-texnika inqilobining barcha sohalarda hujumga o'tishi hozirgi davrning o'ziga hos xususiyati hisoblanadi. U asta-sekinlik bilan kechuvchi qisqa taraqqiyotni emas, fan va texnika taraqqiyotidagi sifat jihatidan katta odimni, shu asosda jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining tubdan qayta tashkil etilishini anglatadi.


Fan-texnika taraqqiyoti bilan fan-texnika inqilobi o'rtasidagi farkni metallga ishlov berish misolida ko'rgazmali kuzatish mumkin. Bu jarayon yo'nish asosida asrlar mobaynida asta-sekin takomillashib bordi (ammo tubdan o'zgargani yo'q) – bu fan-texnika taraqqiyotidir. Bugungi kunda esa, metallni yo'nish, kukunli metallurgiya (detallarni metall va qorishma kukunlardan yasash) va boshqa yangi usullar bilan tobora siqib chiqarmoqda – bu fan-texnika inqilobidir.

Fan-texnika inqilobining muhim jihatlaridan biri – fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi, ularning uzviy birlashishi hisoblanadi. Bamisoli

ishlab chiqarishni fan bilan to‘yintirish va fanni ishlab chiqarishning bevosita omiliga, iqtisodiy taraqqiyotning qudratli kuchiga aylantirish kechmoqda. Ishlab chiqarishning fan bilan to‘yinganlik darajasini ifodalash uchun alohida ishlab chiqarishning fan bilan to‘yinganlik ko‘rsatkichidan foydalana boshlanganligi bejiz emas. Bunda fan va ishlab chiqarishni rivojlantirishning ilgari tarqoq bo‘lgan jarayonlari yagona, bo‘g‘inlar bo‘yicha doimo taraqqiy etib boruvchi tizimga birlashadi: «fan + texnika + texnologiya + ishlab chiqarish».

Shubhasiz, fan-texnika inqilobi ham ziddiyatlardan holi emas (6.5-chizmaga qarang).

Bir tomondan u, odamlar imkoniyatini kengaytirishi, ular faoliyatining samaradorligini oshirishi, mehnatini yengillashtirishi va yoqimli qilishi, turmush sharoitini yaxshilashi bois odamlarning imkoniyatlarini kengaytiradi. Ammo boshqa tomondan, u qator muammolarni va salbiy hodisalarni keltirib chiqaradi. Masalan, ishsizlik muammolari (texnika, mashinalar va avtomatlar ishlab chiqarishdan odamlarni siqib chiqaradi); inson hayotining ekologiya va texnika xavfsizligi muammolari; yalpi qirg‘in qurollaridan muhofaza qilish muammolari; axborotlar urushi xavfi, «elektron ta’sir» shular jumlasidandir.



### 6.5-chizma. Fan - texnika inqilobining asosiy ziddiyatlari.

Fan - texnika inqilobining ana shu ziddiyatlari tufayli unga turli odamlarning munosabatlari turlicha. Optimistlar ssiyentizm va texnatsizm, deb atalmish g‘oyalarga amal qiladilar, bu g‘oyalar fan va texnika «hamma narsaga

qodir», deb uning rolini oshirib ko'rsatadi. Pessimistlar esa boshqa - antisentizm va texnofobiya g'oyalarining tarafdoridir. Bu g'oyalar fan - texnika taraqqiyotining insonlar hayotidagi rolini qora bo'yoqlar bilan tasvirlashadi: fan va texnika muammolarini hal etish o'rniga, uni chuqurlashtiradi, deb hisoblashadi. Ammo aniq yo'lni nazarimizda ana shu yondashuvlar emas, murasosozlik ta'minlashi lozim. Turmushning muqarrar qarama-qarshiliklari borasida to'g'ri yo'l tutuvchi realistlar ana shu yondashuvga amal qiladilar: ular imtiyozlardan eng yuksak samaradorlikka erishganlari holda, muammolarni yumshatishga harakat qiladilar.

Har holda ongli hukumat rahbarlari fanning gullab-yashnashi, taraqqiyoti haqida g'amxo'rlik qiladilar. «Fan – ajoyib dori, ammo bu dori o'zi saqlanadigan idish yaxshi bo'lmaganligi sababli tez buziladi», deb ta'kidlagan edi uzoqni ko'ra biladigan faylasuflardan biri – Monten.

### **Energiya omili va infratuzilma**

Energiya – bu ishlab chiqarish vositalarini harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Ishlab chiqarish hamisha ana shunday harakatga keltiruvchi kuchga ehtiyoj sezgan. Ammo dastavval, u asosan, insonning mexanik energiyasi bilan cheklangan yoki hayvonlardan foydalangan. Hozirgi zamon ishlab chiqarishi esa qudratli va rang-barang yoqilgi-energetika ta'minotini (birinchi navbatda, elektr quvvatini) talab qiladi. Shu sababli, ishlab chiqarishning energetika omili muhim, mustaqil ahamiyat kasb etdi. Energetika ta'minoti masalasini hal etmay turib, bugungi kunda hatto o'rtacha korxonani ham bunyod etish mumkin emas.

Infratuzilmaning ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatishi uchun qulay sharoitlarni yaratuvchi tarmoqlar va sohalarining ahamiyati katta. Bu borada ikki yordamchi tizim ajratib ko'rsatiladi. Birinchisi, ishlab chiqarish infratuzilmasi – bu ishlab chiqarishga bevosita xizmat ko'rsatuvchi yordamchi tarmoqlardir (moddiy texnika ta'minoti, omborxonalar, transport, aloqa, hisoblash markazlari, ekologik himoya vositalari shular jumlasidandir). Ikkinchisi, ijtimoiy yoki noishlab chiqarish infratuzilmasi – bu odamlar (shu jumladan, ishlab chiqarish xodimlari oilalari bilan birga) hayoti uchun zarur ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlarni yaratib beruvchi sohadir. Uy-joy va kommunal xo'jaliklari, savdo, maishiy xizmat, maorif, sog'liqni saqlash va boshqa sohalar shular qatoriga kiradi.

### **Ishlab chiqarishning ekologiya omili**

Keng ma'noda olganda, ekologiya omili – bu insonning atrof-muhit bilan munosabatlariga doir, tabiatni himoya qilish, uni asrash va tiklash zaruratiga tegishli muammolarning butun bir majmuidir. Insoniyat taraqqiyotida tabiat ikki yoklama rol o'ynaydi: birinchisi – ishlab chiqarish uchun resurslar manbai



rolini; ikkinchisi – odamlar yashaydigan muhit rolini. Afsuski, ko‘pchilik hamon uning birinchi – ishlab chiqarishga «xizmat ko‘rsatish» vazifasini birlamchi, muhimroq, deb hisoblaydi. Vaholanki, tabiat yagona. Xo‘jaliklarning unga ehtiyotsiz kirib borishi uning resurslarini qashshoqlashtiribgina qolmay, odamlar yashash sharoitini, ularning kayfiyatini, sog‘lig‘ini muqarrar ravishda yomonlashtiradi.

Hozirgi zamon ishlab chiqarishi tabiat bilan shunchalik keng va chuqur hamkorlik qiladiki, ho‘jalik amaliyotida ekologiya omilini alohida hisob-kitob qilish shart bo‘lib qoldi. Bu, jumladan, korxonalarining resurslarni tejashga, kam chiqit bilan va chiqitsiz ishlashga o‘tishi; ishlab chiqarishda tobora samarali tozalash va muhofaza inshootlaridan foydalanilayotgani; davlat tabiatni himoya qiluvchi choralarni va tegishli qonunlarni qabul qilayotganligi; ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilayotganligi va mutaxassislar ekologiya bo‘yicha malaka oshirayotganligi bilan bog‘liqdir.

### **Qichqacha xulosalar**

Umuman, iqtisodiy faoliyat va ishlab chiqarish har qanday iqtisodiy tizimning negizi va asosi hisoblanadi. Bu iqtisodiy faoliyat albatta, ishlab chiqarishni yoritadi, iste‘mol qilish bilan tugallanadi, bular bir-birisiz yashay olmaydi. Ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy resurslar ishlatiladi va sarf-xarajatlar, xom ashyolar, materiallar tayyor mahsulotga aylanadi. Bu yerda albatta, ishlab chiqarish omillari, kapital mablag‘lar va tabiiy resurslar harakatga kelishi shart bo‘ladi. Mehnat qilish va uni sarflash jarayoni ishlab chiqarish hisoblanadi. Natijada, mahsulotlar yaratiladi, ya’ni mehnat insonning ishchi kuchi bilan tabiat o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatni bildiradi.

Ishlab chiqarish funksiyasining jadvalida izokvantlar (geometrik nuqtalar ishlab chiqarish funksiyalarini, ya’ni ishlab chiqarish omillarini bir-biriga bog‘lash natijasida tayyorlangan mahsulotlar miqdori aniqlanadi) oilasi kuzatiladi. Koordinatlar tizimida izokvantlar o‘rtasidagi uzilish mahsulot chiqarish hajmidagi farqni tavsiflaydi. Bu omillar texnologiya yordamida bir-biri bilan birlashadi. Texnologiya esa, ishlab chiqarish jarayonlarini olib borish usullari va vositalari haqidagi bilimlar yig‘indisini anglatadi

### **Asosiy tushunchalar**

1. Ishlab chiqarish omillari jumlasiga – inson mehnati omillari, kapital mablag‘lar (mehnat vositalari va tabiiy resurslar uchun sarf qilinadi), tabiiy resurslarkiradi. Fransuz iqtisodchisi J.B.Sey asoslab bergan tijorat hozirda

G'arb mamlakatlarida yirik iqtisodchilar to'rtinchi omil sifatida tadbirkorlik qobiliyatini ham ana shu omillar qatoriga kiritadilar.

2. Ishlab chiqarish imkoniyatlari deganda, resurslardan to'la-tekis foydalanilganda erishiladigan mahsulot ishlab chiqarishning eng katta hajmi tushuniladi.

3. Ko'lam samarasi – bu har xil variantlarda yuz berishi mumkin bo'lib, ishlab chiqarish omillari necha marta oshirilsa, xuddi shuncha miqdorda (bu jadvallarda ko'rsatilgan ) mahsuldorlik ham oshadi.

### **Seminar mashg'ulotda muhokama qilish uchun savollar**

1. Ishlab chiqarish nazariyasining asosiy qoidalari nimalar?
2. Ishlab chiqarishni keng aytirish ko'lami va samarasi. Almashuv samarasi.
3. Ishlab chiqarish omillari va ularning funksiyalari.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Ishlab chiqarish omili tarkiban nimalardan iborat ?
2. Umum qabul qilganidek, ishlab chiqarish omillariga kapital (k) va mehnat (1) kiradi, tadbirkorlik faoliyati qanday sarflarni o'z ichiga oladi?
3. Ishlab chiqarish qanday davrlarni aniqlab beradi?

## **7 BOB. IJTIMOIIY-IQTISODIY TIZIMLAR. ARALASH IKTISODIYOT. MILLIY IQTISODIYOT.**

*Buyruqbozlik iqtisodiyoti ham, erkin bozor iqtisodiyoti ham... juda ham oxirgi hodisani tasavvur etadi. Barcha mamlakatlarning iqtisodiyot tizimi aralash tizim bo'lib hisoblanadi.*

*S.Fisher, R.Dornbush, R.Shomalenzi*

**Iqtisodiy tizim** bu iqtisodiyotning o'zaro bog'liq va ma'lum darajada tartibga solingan elementlarining yig'indisidir.

Iqtisodiyotning tizimli xarakteridan tashqarida iqtisodiy munosabatlar va institutlarning takror ishlab chiqarilishi (muntazam yangilanib borishi), iqtisodiy qonuniyatlarning amalga oshishi mumkin bo'lmasdi, iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni nazariy idrok etish ham tarkib topmasdi, shuningdek, aniq maqsadga qaratilgan va samarali iqtisodiy siyosatning ham bo'lishi mumkin emasdi. Hayot amaliyoti iqtisodiyotning tizimli xarakterini muntazam tasdiqlab kelmoqda. Ob'ektiv mavjud bo'lgan iqtisodiy tizimlar nazariy (ilmiy) iqtisodiy tizimlarda o'z ilmiy ifodasini topmoqda. Iqtisodiyotning tizim sifatidagi keng ko'lamliligi (ilk) tahlili siyosiy iqtisodiyot klassik maktabining asoschisi A.Smit tomonidan uning asosiy ilmiy asari - 1776 yilda nashr etilgan «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari haqidagi tadqiqot» (qisqartirilgan nomi «Xalqlar boyligi») asarida berilgan. Keyingi ilmiy-iqtisodiy tizimlar orasidan, avvalambor, D.Rikardo (1817 y.), F.List (1841 y.), J.S.Mill (1848 y.), K.Marks (1867 y.), K.Menger (1871 y.), A.Marshall (1890 y.), J.Keyns (1936 y.), P. Samuelson (1951 y.) tomonidan yaratilgan tizimlarni ajratib ko'rsatish lozim.

Iqtisodiyotning tizimliliigi haqida tasavvurga urg'u bergan o'tmishdagi iqtisodchilaridan bo'lgan I.T.Pososhkov, A.I.Butovskiy, N.G.Chernыshevskiy, M.I.Tugan-Barvnovskiy, A.I.Chuprov, P.B.Struve, V.I.Ulyanov (Lenin) va N.D.Kondratevlarni ta'kidlab o'tish kerak.

Sobik ittifoq iqtisodiyot fanining ko'zga ko'rinarli nazariy tizimlari K.V.Ostrovityanov, A.M.Rumyansev, N.A.Sagolov, G.A.Kozlov, V.A.Medvedev, A.Aminovlar tahriri ostidagi siyosiy iqtisod darsliklarida o'z aksini topgan.

Jahon iqtisodiy tafakkuri tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarni birlashtirish, mamlakatdagi iqtisodiy voqelikning murakkab manzarasini va mamlakat ilmiy maktabi an'analari aks ettirish zaruratini mamlakat iqtisodiy fanining ilmiy iqtisodiy tizimlarini shakllantirishni hozirgi davrning asosiy

muammosi deb xisoblash mumkin. Respublikamizda O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng nazariya va amaliyotda ko‘zga ko‘ringan iqtisodchilar jumlasiga I.A.Karimov, S.S.G‘ulomov, M.L.Tursunxodjeyev va boshqalarni kiritish mumkin.

### **7.1. Iqtisodiy tizimlarni tasniflashning mezonlari va turlari**

Iqtisod fani tarixi iqtisodiy tizimlar tasnifi turli mezonlar (belgilar) asosida amalga oshirilishi mumkin ekanligini ko‘rsatadi. Ana shu ko‘p sonlilik asosida iqtisodiy tizimning ob‘ektiv hilma-hillik xususiyatlari yotadi.

Iqtisodiy tizim mezonlarini yiriklashgan ko‘rinishda uch guruhga bo‘lish mumkin:

- fanni tashkil etuvchi mezonlar;
- ijtimoiy-iqtisodiy (mazmun jihatidan) mezonlar;
- hajm va harakat mezonlari shular jumlasidandir.

**Fanni tashkil etuvchi mezonlar** – bu iqtisodiyot nazariyasi fanini tashkil etuvchi tarkibiy elementlar tomonidagi mezonlardir. Funktsional iqtisodiy aloqalar, ishlab chiqarish munosabatlari (avvalambor, o‘zlashtirish munosabati sifatida tushuniladigan) va institutlar shular katoriga kiritilishi mumkin.

Shunga ko‘ra, iqtisodiy tizimlar funktsional aloqalari, ishlab chiqarish munosabatlari tizimlariga, institutlar bilan bog‘liq tizimlarga ham bo‘linadi.

**Ijtimoiy-iqtisodiy mezonlar** – iqtisodiy tizimning tub mazmuni bilan bog‘liq jihatlarini ajratib ko‘rsatishga asoslangan mezonlardir. Ishlab chiqarishni va iste‘molni birlashtirish usuli (iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish usuli); bevosita ishlab chiqaruvchilarni ishlab chiqarish vositalari bilan bog‘lash usuli (mulkchilik turi); ijtimoiy – madaniy omilning roli, industrial va iqtisodiy asoslarning rivojlanganlik darajasi shular jumlasidandir. Shunga ko‘ra, iqtisodiy tizimlar xo‘jalik shakllari bo‘yicha hamda shakli, nazariy va texnologik belgilari bo‘yicha taqsimdanadi.

**Hajm va harakat mezonlari** – bu tizimning murakkabligi va o‘zgaruvchanligini tavsiflovchi mezonlardir. Tizimning bir hilligi va farqliligini, tizimning turg‘unligi yoki harakatda ekanligini shular sirasiga kiritisa bo‘ladi. Shunga muvofik, iqtisodiy tizimlar «sof» va «aralash», turg‘un va tarixan rivojlanayotgan tizimlarga bo‘linishi mumkin.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan barcha mezonlar va tasniflar hayotda va fanning o‘zida bir – birini to‘ldiradi, iqtisodiy tizimning turli tomonlarini aks ettirishiga qaramay, o‘zaro chatishib ketadi. Faqat mezonlar va tasniflarning butun yig‘indisini ko‘rib chiqish tizim sifatidagi iqtisodiyot haqida yaxlit, atroflicha tushuncha hosil qilish imkonini beradi.

## 7.2. Fanni tashkil etuvchi mezonlarga asoslangan tasnif

Ta'kidlab o'tilganidek, mazkur tasnif asosida iqtisodiy tizimlar ishlab chiqarish munosabatlari, funksional va institutlar tizimlariga bo'linadi. Ilgari ko'rsatib o'tilganidek, mazkur tasnif ko'p jihatdan hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasini tarkibiy qismlarga ajratishga o'xshab ketadi.

Birinchidan, iqtisodiy tizim iqtisodiyotdagi ma'lum «**tashkiliy mexanizm**» doirasida odamlarning moddiy ehtiyojlarini imkoni boricha to'la qondirish maqsadida cheklangan resurslardan foydalanish bo'yicha faoliyatni aks ettiruvchi **funksional aloqalarining yig'indisi** sifatida tavsif qilinadi. Bu borada eng muhimi – iqtisodiyotdagi (avvalambor, almashuv sohasidagi) tovar, pul va resurslar oqimining harakati jarayonida vujudga keluvchi muayyan funksional aloqalardir.

Iqtisodiy tizimning mazkur tavsifi nisbatan to'liq holda iqtisodiyot nazariyasining neoklassik yo'nalishida va neoklassik sintez, deb atalmish yo'nalishida amalga oshirilgan. Ko'pchilik kitobxonlarga ma'lum bo'lgan «Ekonomiks»ning nisbatan ko'p tarqalgan va ma'lum variantlari iqtisodiy tizimning aynan shu tavsifini ko'proq aks ettiradi.

Ikkinchidan, iqtisodiy tizim **ishlab chiqarish (ijtimoiy-iqtisodiy) munosabatlari** tizimi sifatida tavsif etilishi mumkin. Mazkur munosabatlarning markaziy bo'g'ini – o'zlashtirish (avvalambor, ishlab chiqarish shartlari va natijalarini) munosabatlaridir. Ishlab chiqarish munosabatlari bunda ishlab chiqarish kuchlarining ijtimoiy shakli sifatida namoyon bo'ladi. Ularning o'zgarishlarini aks ettirar ekan, ishlab chiqarishning iqtisodiy munosabatlari o'zini tarixan rivojlanib borayotgan (nazariy tizimda - genetik yo'naltirilgan) munosabatlar sifatida amalga oshiradi.

Iqtisodiy tizimning mazkur tavsifi nisbatan keng ko'lamda K.Marks tomonidan va sobiq ittifoq siyosiy iqtisodiyotida berilgan. Ammo u bugungi kunda ham o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotgan emas. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zlashtirishning turli ko'rinishlari tahlilidagi mafkuraviylashtirish va bir-biriga qarama-qarshi qo'yish tamoyillariga qaramay, ular o'zlashtirish muammosining ilmiy va amaliy ahamiyatini, ishlab chiqarishning shartlari va samaralarini, ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi bilan o'zaro bog'liqligini to'sib qo'ya olmaydi.

Uchinchidan, iqtisodiy tizim **institutlar yig'indisi** sifatida, ularning o'ziga xos iqtisodiy fe'l-atvori sifatida tavsif qilinishi mumkin. Bunda iqtisodiyotning davlat, firmalar, kasaba uyushmalari kabi sub'ektlari, shuningdek, mulkka egalik huquqlari, qonunlar, me'yorlar, an'analar va iqtisodiy fe'l-atvoriga ta'sir o'tkazuvchi boshqa hodisalar institutlar sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy tizimni bunday tushinish institutsional (noinstitutsional) iqtisodiyot nazariyasining turli tarmoqlarida qo'llaniladi. Germaniya ordoliberalizmida keng yoyilgan «iqtisodiy yo'sindagi» konsepsiya ham unga kelib birikadi.

### 7.3. Ijtimoiy - iqtisodiy mezonlar asosida tasnif

Iqtisodiy tizimlarning fan uchun eng xarakterli tasnifi iqtisodiy tizimning quyidagi turlarini farqlashdan iborat:

1. **Xo'jalik shakllari (ishlab chiqarish shakllari yoki «iqtisodiyot turlari»)**. Ularni farqlashning asosiy mezoni ishlab chiqarish va iste'molning aloqa usuli yoki shaxs mehnatini jamiyat yalpi mehnatiga kiritish usuli yoki iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish usulidir.

Xo'jalikning tarixiy ilk shakli – natural xo'jalikdir (patriarxal xo'jalik yoki an'anaviy iqtisodiyot). Unda ishlab chiqarish va iste'mol bir-biri bilan bevosita bog'liq, faoliyatni muvofiqlashtirish esa, tarkib topgan an'analar va mehnatga iqtisodiyotdan tashqari majburlash asosida amalga oshiriladi. Natural xo'jalik munosabatlarining qoldiqlari nisbatan kechki sharoitlarda, masalan, hozirgi kam rivojlangan qoloq mamlakatlardagi tartib ko'rinishida uy xo'jaliklarining va korxonalarining o'z ta'minotini kuchaytirish, odat tarziga kirgan, hozirgi tanglik holatidagi o'tish davri iqtisodiyotlari uchun xos bo'lgan to'lovlarni o'z vaqtida to'lamaslik ko'rinishida ham yashab qolishi mumkin.

Xo'jalikning boshqa, nisbatan keng yoyilgan shakli-bozor iqtisodiyoti (yoki tovar xo'jaligi). Unda ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi aloqa yoki iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish tovarlarni bozorda raqobat sharoitlarida sotib olish va sotish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Xo'jalikning uchinchi shakli – ehtimol mavjudligi bahsli masala. Asosiy nuqtai nazarlar quyidagilardan iborat:

a) uchinchi shakl mavjud emas, chunki bozor iqtisodiyoti o'zida «tabiiy va oqilona tartib»ni (A.Smit) yoki «insonning tabiiy me'yorlariga» muvofiq bo'lgan (F.Xayek) «o'z-o'zidan tarkib topgan, kengaytirilgan tartib»ni aks etgiradi;

b) bu – rejali iqtisodiyot (rejali xo'jalik), iqtisodiyotning nisbatan yuqori darajasidir. Bunda ishlab chiqarishning oshib borayotgan umumlashuvi asosida ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri xo'jalik aloqalari mustahkamlanib boradi, faoliyatni muvofiqlashtirish esa ongli ravishda, ilmiy asoslangan xo'jalik rejaları asosida amalga oshiriladi;

v) bu – iqtisodiyotni boshqarishning buyruqbozlik (ma'muriy, buyruqlarga asoslangan, majburiy va hokazo) usullari hukmronlik qilishida ifodalanuvchi buyruqbozlik iqtisodiyoti (buyruqbozlik – ma'muriy tizim,

totalitar iqtisodiyot). Bu «tabiiy iqtisodiy tartib»dan chekinishning qonuniy oqibati sifatida tarixan boshi berk ko'cha hisoblanadi;

g) bu – bozordan keyingi iqtisodiyot, bunda industrlashtirishdan keyingi rivojlanish sharoitida bozor aloqalari sub'ektlarining o'zaro hamjihatlilikiga va «sub'ekt – sub'ekt»li munosabatlarga asoslangan maqbul aloqalar bilan almashuvi ruy beradi;

d) bu - bozor mexanizmini va iqtisodiyotga davlat boshqaruvini (bozor va rejani) bir-biri bilan birlashtiruvchi aralash iqtisodiyot.

**2. Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar** (yoki ishlab chikarish usullari). Ularni bir-biridan farqlovchi asosiy mezon – ishlab chiqaruvchilarni ishlab chiqarish vositalari bilan birlashtiruvchi usul yoki ishlab chiqarish vositalariga egalikning hukmron shaklidir. Formatsiyali yondashuv zamirida, uning nisbatan keng ma'lum bo'lgan marksistik talqinida ishlab chiqarish munosabatlarining (o'zlashtirish va mulkka egalik munosabatlari kabi) ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi va xarakteriga mosligi g'oyasi yotadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi pirovard oqibatda formatsiyalarga o'tishni izohlaydi.

Formatsiyali yondashuvni amalga oshirishning eng keng tarqalgan talqini besh formatsiyani (ishlab chiqarish usullarini) ajratib ko'rsatadi: ibtidoiy - jamoa, quldorlik, feodal, kapitalistik (burjua) va kommunistik (uning birinchi bosqichi sotsializm deb nomlangan) shular jumlasidandir. Ba'zi talqinlarda quldorlik o'rniga ishlab chiqarishning antik va osiyocha usullari qo'llaniladi. Formatsiyali yondashuvning ko'rsatib o'tilgan barcha talqinlari zamirida mulkka egalikning u yoki bu hukmron shakliga va shundan kelib chiquvchi mulk egasining iqtisodiy faoliyatidagi asosiy maqsadiga (jumladan, feodalizm davridagi ishlab chiqarish va feodal rentaning o'zlashtirilishiga, kapitalizm sharoitida ishlab chiqarish qo'shimcha qiymatining o'zlashtirilishiga) ishora yotadi.

Mulkdorlar va mulk egasi bo'lmaganlarning munosabatlaridagi qarama-qarshilikka haddan tashqari urg'u berilishi tarixiy jarayondagi uzilishlar, ijtimoiy-madaniy va boshqa omillar rolini inobatga olmaslik, oldingi tarixiy bosqichlarni kommunistik formatsiyaga asos qilib keltirish formatsiyali yondashuvning kamchiliklari hisoblanadi. Shu bilan birga, formatsiyali yondashuv iqtisodiy tizimning hayotiy tomonlaridan birini aks ettirar ekan, hozirgi sharoitlarda ham mavjud. Ayni vaqtda fomatsiyalar izchilligi pirovard bosqichining turli talqinlari ajratib ko'rsatiladi. Asosiy nuqtai nazarlar bunda quyidagi ko'rinishni kasb etadi:

a) kapitalizm-«tabiiy ongli tartib» bo'lib, ichki evolyutsiyaga qodir va «sotsializmga o'tishni» talab qilmaydi;

b) sotsializm (kommunizm) marksistik yondashuv ruhidagi tarixiy taraqqiyotning so‘nggi bosqichi sifatida;

v) kapitalizmdan keyingi bosqich qandaydir kelajak jamiyatning ifodasi sifatida. Bunda industrlashtirishdan keyingi taraqqiyot zamirida boylik to‘plash jamiyatga qarama-qarshi ravishda ijodiy shaxs qadrining ustuvorligi vujudga keladi;

g) aralash iqtisodiyot bo‘lib, u xususiy mulkchilik (hususiy tadbirkorlik) asoslarini mehnatkashlar ijtimoiy kafolatlarining rivojlangan tizimi bilan birlashtiradi va ikki jahon tamoyili-kapitalistik va ijtimoiy (sotsialistik) tamoyillarning o‘zaro hamkorligini aks ettiradi.

Formatsiyali yondashuvning boshqa kengaytirilgan talqini xam mavjud bo‘lib, u ham K.Marks ta’limotiga borib taqaladi. Unga muvofik «ijtimoiy formatsiya»ning uch turi: boshlang‘ich (arxaik), ikkilamchi (iqtisodiy), uchlamchi (kommunistik) turlari mavjud. Mazkur talqin quyida bayon etilgan tasnifga ma’lum darajada mos keladi.

**3. Jamiyat industrial (industrial - iqtisodiy) taraqqiyoti darajasi.** Ushbu tasnifda eng muhimi – jamiyat tarakkiyoti bosqichlarining industrial va iqtisodiy asoslarni mustahkamlanish (yoki bo‘shashish) darajalariga yig‘ilganidir. Natijada, uch yirik bosqich: industrlashtirishdan avvalgi jamiyat - industrlashgan jamiyat – industrlashtirishdan keyingi postindustrial jamiyat ajratib ko‘rsatiladi.

Ikki yiriklashtirilgan mezon aytib o‘tilgan har bir bosqichning mavjud o‘ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Ulardan birinchisi – ishlab chiqaruvchi kuchlardir.

U ikki jihatga ega: birinchisi, ishlab chiqarish vositalari turlarini (qo‘l mehnati qurollari-mashinalar va informatika), ikkinchisi, «etakchi sektor» (dehqonchilik-industriya-fan) tavsifini beradi. Ikkinchisi jamiyat fe‘l-atvori bilan «jamiyatdagi» inson fe‘l-atvori bir-birini qanday izohlashini ochib beradi. Ana shu mezonga muvofiq jamiyat taraqqiyoti bosqichlari quyidagi ko‘rinishni: iqtisodiyotdan avvalgi (an’anaviy) jamiyat-iqtisodiy jamiyat – iqtisodiyotdan keyingi jamiyat ko‘rinishini kasb etadi.

Ularning har biri determinatsiyaning o‘z turiga ega: birinchi holda, ibtidoiy an’analar va iqtisodiyotdan tashqari mehnat qilishga majburlash; ikkinchi holda, tor iqtisodiy (moddiy, pul) omillari; uchinchi holda, insonning ijodiy rivojlanish ehtiyoji. Har bir jamiyatning o‘z «jamiyatdagi» inson turi mavjud: an’anaviy («patriarxal») inson, «iqtisodiy» inson, ijodiy («ijtimoiy», «sotsiologik» va hokazo) inson shular jumlasidandir, Aytib o‘tilgan tavsiflarni quyidagi jadval ko‘rinishida tasavvur qilish mumkin:



## 7.1-jadval

Mezonlar	Jamiyat bosqichlari		
	Industriallashtirishdan avvalgi (iqtisodiyotdan avvalgi) jamiyat	Industriallashtirishgan (iqtisodiy) jamiyat	Industriallashtirishdan keyingi (iqtisodiyotdan keyingi) jamiyat
1. Ishlab chiqarish vositalarining turlari.	Qo‘l mehnati qurollari.		Informatika.
2. Yetakchi sektor.	Qishloq xo‘jaligi.		Fan-ijod.
3. Determinatsiya turi. «Jamiyatdagi» inson turi.	An‘analar va iqtisodiyotdan tashqari mehnatga majburlash. An‘anaviy.		Ijtimoiy-ijodiy («sotsiologik») inson.

Jamiyatning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan barcha bosqichlari iqtisod fanining o‘rganish doirasiga kiradi, ammo har bir holda jamiyatning iqtisodiy masaladagi darajasi har xil bo‘ladi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab postindustrial jamiyat atamasi va konsepsiyasi keng yoyildi. Uning ma‘lum belgilari orasida – E.Tofflerning «uchinchi to‘lqin jamiyati», Yo.Masudaning «axborot jamiyati», J.Nesbitning «informatika va yuqori texnologiya jamiyati», J.Furastening «xizmatlar jamiyati», A.Pechcheining «yangi insonparvarlik jamiyati», R.Inglxartning «moddiy qadriyatlardan keyingi jamiyati» va hokazolar bor. Industriallashtirishdan keyingi jamiyat g‘oyasi urushdan keyingi davrda turli mamlakatlarda ko‘zga tashlangan hamda mutlaqo yangi texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, ishlab chiqarishning tarkibiy shakllanishi, fanning bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanishi, mehnatning ijodiy xususiyatlari va shaxsning o‘z ijodiy qobiliyatlarini namoyish etishining ko‘chayib borishi, mahsulotning ilmiy bilim, axborot, ma‘naviy ne‘mat va hokazo turlarini birinchi o‘ringa ko‘tarilishi bilan tavsiflanuvchi hayotiy jarayonlarni aks ettirdi.

4. Sivilizatsiyalashgan madaniy tizimlar. Ijtimoiy fanlarda keng ishlatiladigan «sivilizatsiya» atamasi turli ma‘nolarda qo‘llaniladi. Bizning ta‘limimizga nisbatan sivilizatsiyaning jamiyat hayotida qayta tiklanishining o‘ziga xos usuli bilan ichki va tashqi omillarning tarixan vujudga keluvchi birligini tavsiflanuvchi ta‘rifini qo‘llash nisbatan maqbuldir. Mazkur ta‘rifning iqtisodiyotda turlicha talqin etilishi, iqtisodiyot nazariyasi fanini o‘rganadigan

ob'ekt sifatida tizim o'z ichiga nafaqat iqtisodiy (ichki), shu bilan birga, iqtisodiy bo'lmagan (iqtisodiyotga nisbatan tashqi) elementlarni (omillarni) olishida ifodalanadi. Bunday tizimda ijtimoiy-madaniy (milliy, diniy, axloqiy, «mental» va hokazo), ijtimoiy-siyosiy (demokratiya, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat qadriyatlari va hokazolar), iqtisodiyotdan keyingi (ijtimoiy-ijodiy va kommunikativ), shuningdek, tabiiy-iqlimiy, geografik, geosiyosiy va boshqa omillar noiqtisodiy omillar sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shunday qilib, tahlilning hilma-hilligi, mezonlarning ko'psonliligi, ularni tor iqtisodiy o'lchamlar bilan ifoda qilib bo'lmashligi iqtisodiy tizimlarni tadqiq etishga sivilizatsiyalashgan yondashuvning o'ziga xos jihatlari hisoblanadi.

Iqtisodiyot nazariyasi fani doirasidan tashqariga chiqmaydigan ko'lamda sivilizatsiyalashgan tizimlarning bir nechta tasniflarini ajratib ko'rsatish mumkin. Ular o'rtasidagi tafovutlar zahirida u yoki bu mezonlarning foydalanilishi (nisbatan tor iqtisodiyotdan tashqari u yoki bu omillarning iqtisodiyot bilan aloqasi) yotadi.

Birinchi tasnif – jamiyatning industrial (industrial-iqtisodiy) rivojlanish darajasiga mos keladi. U industrilashtirishga qadar (an'anaviy) sivilizatsiya-industrial (iqtisodiy) sivilizatsiya-industrilashtirishdan keyingi (iqtisodiyotdan keyingi) sivilizatsiya ko'rinishlarini qabul qiladi. Ularning tavsifi yuqorida berilgan. Mazkur sivilizatsiyalarni olamshumul va tarixan izchil («vertikal») sivilizatsiya sifatida talqin qilish mumkin.

Ikkinchi tasnif – ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy omillar o'zaro aloqasiga urg'u bergan holda, olamshumul va sivilizatsiyaning tarixiy jihatlari ko'ra birinchi tasnifga yaqin turadi. Jumladan, an'anaviy (patriarxal, avtoritar) va liberal (bozor, demokratik) sivilizatsiyalarni ajratib ko'rsatishadi, bunda oraliq sivilizatsiyasi ham mavjud bo'lishi mumkinligiga e'tibor qaratiladi.

Uchinchi tasnif – ijtimoiy-madaniy omil va u bilan bog'liq turli jamiyatlarning (xalqlarning, millatlarning, diniy va boshqa uyushmalarning) birmuncha barqaror qadriyatlar tizimiga urg'u beradi. Shu toifadagi sivilizatsiyalarni hududiy cheklangan (masalan, Yevroosiyo va G'arbiy Yevropa sivilizatsiyasi, Islom sivilizatsiyasi, konfutsiy madaniyat mintaqasi sivilizatsiyasi va hokazo), bois cheklangan sivilizatsiya tinch-totuv yashash holatida bo'lishiga qaramay (o'zaro keng ko'lamda hamkorlik qilishi va bir-birining ichiga kirib borishiga qaramay), jamiyat taraqqiyotining tarixiy («vertikal») o'qida joylashmagan nisbatan barqaror bo'lganligi, ko'proq darajada konservatizmga egaligi bois «gorizontal» sivilizatsiyalar sifatida talqin qilish mumkin. Mazkur tasnifning eng muhim jihati -ijtimoiy-madaniy muhitning universal iqtisodiy jarayonlar harakatiga, u yoki bu xo'jalik shakllariga, iqtisodiy fe'l-atvorning u yoki bu turiga ta'siri hisoblanadi.

Induividual va jamoa (korporativ) shakllarining turli nisbati, davlatning roli va vazifalariga turlicha munosabat, ratsional-iqtisodiy va ratsional bo‘lmagan (ma’naviy) omillarning turli darajasi, ijtimoiy adolatning turlicha tushunilishi va hokazolar aytib o‘tilgan ta’sirning birmuncha aniq ifodalari sifatiga kiradi. Bularning hammasi umumiy iqtisodiy qonuniyatlar harakatini cheklab yoki unga tuzatishlar kiritib, iqtisodiy tizimlarda o‘z ifodasini topishi lozim.

To‘rtinchi tasnif – bundan avvalgi tasnifga zid bo‘lib, dastlabki ikki tasnif tavsiflarini o‘z ichiga oladi, «umuminsoniy qadriyatlarga» urg‘u berib, ularni boyitadi. Jamiyat taraqqiyoti turli mamlakatlarda va regionlarda mavjud bo‘lgan tafovutlarni yo‘qota borib, umuminsoniy qadriyatlar hukmron bo‘lgan «yagona jahon sivilizatsiyasining» shakllanishi yo‘lidan bormoqda, deb hisoblanadi. Ammo umuminsoniy qadriyatlar mazmunining o‘zi bahsli masala.

Ular nimalarni ifodalaydi: nisbatan «olg‘a qadam qo‘ygan», har bir cheklangan sivilizatsiyaning eng yaxshi jihatlarini o‘zida to‘plagan G‘arb sivilizatsiyasi qadriyatlarinimi yoki rang-barangliklar birliginimi? Bundan tashqari tarix jarayonini sun‘iy ravishda jadallashtirish va cheklangan sivilizatsiyalarning tarixan tarkib topgan, ma’lum darajada barqaror o‘ziga xos jihatlarini yo‘qotib borish havfli, tarix buning jiddiy ijtimoiy oqibatlariga olib kelishini ko‘rsatadi.

Talqin etishdagi tafovutlarga qaramay, tizimlar turiga sivilizatsiyalashgan yondashuv formatsiyali va boshqa yondashuvlarga nisbatan tahlilning rang-barangligi, tarixiy jarayonning ko‘p qatlamliligi va izchilligi, sinfiy bir-biriga qarama-qarshi baholardan chekinish jamiyat taraqqiyotining ko‘proq insoniy o‘lchamlari va xokazolar kabi tasnif usullariga ko‘ra qator imtiyozlarga ega.

Shu bilan birga, sivilizatsiyalashgan yondashuvga haddan tashqari urg‘u berish sharoitlarida iqtisodiyot nazariyasi uchun mavjud bo‘lgan havf-xatarlarni nazarda tutish kerak. Iqtisodiyot nazariyasi fanining o‘zi siyqalashib borishi, uning o‘z iqtisodiy mazmunini yo‘qotish imkoniyatlari shular jumlasidandir.

#### **7.4. Tizimlarning murakkabligi va o‘zgaruvchanligi mezoniga asoslangan tasnif.**

Xo‘jalik yuritish shakli bo‘yicha tizimlarni mazkur mezon ma’lumotlariga ko‘ra eng sodda tizimlar, deb hisoblash mumkin. Ularning zamirida faqat bir mezon – ishlab chikarish va iste’molni birlashtiruvchi usul (iqtisodiy faoliyatni muvofiklashtirish usuli) yotadi.

Formatsiyali tizimlar nisbatan murakkab hisoblanadi. Vaholanki, ular tizimlarni chegaralashning bir asosiy mezonini (ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik shaklini) taxmin qiladi. Shunga qaramay ular bundan avvalgi mezonni ham o‘z ichiga oladi. Har qanday formatsiya xo‘jalik yuritishning u yoki bu shakli bilan chambarchas bog‘liq, usiz yashay olmaydi: masalan, feodalizm – natural xo‘jaliksiz, kapitalizm – bozor iqtisodiyotisiz.

Ma‘lum bo‘lishicha, sivilizatsiyalashgan tizimlar nisbatan murakkab, sababi ular ta‘kidlab o‘tilgan iqtisodiy elementlardan tashqari bir qator noiqtisodiy elementlarni (omillarni) ham o‘z ichiga oladi. Tizimlar natijada ko‘p o‘lchamlilik (ko‘p qatlamlilik) xususiyatini kasb etadi.

Iqtisodiy tizimlar shuningdek «soflik» (gomogenlik) darajasi bo‘yicha ham farq qiladi. Mutlaqo «sof» iqtisodiy tizimlarning o‘zi bo‘lmaydi, ammo sof iqtisodiy tizimlarning ayrim jihatlarini tarixning ma‘lum davrlarida ko‘z atash mumkin edi. Jumladan, buni sobiq sotsialistik mamlakatlarda jamoat mulkchidagi hukmronligiga asoslangan tizimni tashkil etishga urinishda ko‘rish mumkin. Bozor-kapitalistik xo‘jalik ham XIX asrda, o‘zining gullagan davrida sof tizim jihatlariga ega edi. Tizim sofliqi nazariy tizimlarda alohida ahamiyatga ega, bunday tizimlarda iqtisodiy tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash boshqa, unga xos bo‘lmagan xususiyatlarni inobatga olmaslikni taxmin qiladi.

Xo‘jalikning turli shakllari, formatsiyali tuzilmalar, sivilizatsiyalashgan tizimlar bir-biri bilan birlashgan va chatishib ketgan holda, shuningdek, tizimning turli elementlari nisbatan murakkab birlashgan hollarda aralash iqtisodiy tizimlar (aralash iqtisodiyot) haqida gapirish mumkin. Ularning farqlovchi xususiyati – tarkibiga kiruvchi elementlarning geterogenligi (turlarning rang-barangligi)dir.

Aralash tizimlar turli tarixiy sharoitlarda kuzatilgan. Masalan, bir vaqtlar Qadimgi Rimda quldorlik va feodalizm munosabatlarining birlashishi zamirida vujudga kelgan kolonat ana shunday tizim bo‘lgan. Hozirgi shart-sharoitlarga nisbatan qo‘llaganda aralash iqtisodiyot quyidagi yiriklashgan shakllarda namoyon bo‘ladi:

- rivojlanayotgan (ayniqsa kam rivojlangan) mamlakatlarning aralash iqtisodiyoti. Ularda «og‘ish» rivojlanishning past darajasi va qoloq iqtisodiy shakllar mavjudligi natijasida kelib chiqadi;

- rivojlangan mamlakatlarning aralash iqtisodiyoti (rivojlangan aralash iqtisodiyot);

- sobiq sotsialistik mamlakatlarning aralash o‘tish davri iqtisodiyoti.

Iqtisodiy tizimlarni tushunishda tizimlarning harakat darajasi va

xarakterini (o'zgarishlarini) baholovchi dinamik mezonlar ham muhim ahamiyatga ega. Ularga asoslanib iqtisodiy tizimlarni quyidagi tarzda tasniflash mumkin: turg'un tizimlar va tarixan o'zgarib boruvchi tizimlar. Ayni vaqtda shuni nazarda tutish kerakki, jamiyat hayotida o'zgarmaydigan holatlar bo'lmaydi, shu bilan birga, iqtisodiyotning o'zgarish darajasi har xil bo'lishi mumkin. Iqtisodiy tizimlarning rivojlangan holatlarida faoliyat ko'rsatish mexanizmlari birinchi o'ringa chiqadi, buning natijasida ana shu tizimlar, avvalambor, turg'un tizimlar sifatida namoyon bo'ladi.

Tarixan o'zgarib boruvchi tizimlarni ikki guruhga taqsimlash mumkin:

–birinchidan, ularning sarhadlari nuqtai nazaridan: asosiy tamoyillari saqlanib qolishi bilan ichki evolyutsiya holatida bo'lgan tizimlar (masalan, shag tarixan rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyotini tizimi hamda iqtisodiyotning yangi sifat darajasiga o'tishning aloxida davrini aks ettiruvchi tizimlar, ya'ni o'tish davri tizimlariga (masalan, buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan tizim);

–ikkinchidan, rivojlanish xususiyati nuqtai nazaridan: olg'a tomon harakat qilishi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan farq qiluvchi chiziqli rivojlanayotgan tizimlar hamda jarayonlarning uzoq-yuluqligi va davriyligi, voqealarning tartibsizligi va hokazolar bilan farq qiluvchi chiziqsiz rivojlanayotgan tizimlarga. XX asr jamiyatining amaliyoti ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning chiziksizligi tizimlar rivojlanishining ko'zga tobora yaqqol tashlanayotgan xususiyatiga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

### **7.5. Aralash iqtisodiyot va uning o'lchamlari.**

So'nggi ikki asr sarhadlarida paydo bo'lgan va keyinchalik keng yoyilgan aralash iqtisodiyot g'oyalari ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ro'y bergan, ayniqsa, urushdan keyingi davrda kuchaygan o'zgarishlarni aks ettirar edi. Bu o'zgarishlar bozor va iqtisodiyotning davlat boshqaruvi, xususiy tadbirkorlik va ijtimoiylashtirish jarayonining o'zaro hamkorlik shakllari murakkablashganida, shuningdek, ijtimoiy tizimlar tarkibiga industrilashtirishdan keyingi (iqtisodiyotdan keyingi) asoslar tobora sezilarli darajada kirib borishida namoyon bo'ldi.

«Aralash iqtisodiyot» atamasi faqat bir talqinga ega emas. Uning dastlabki va nisbatan keng yoyilgan talqini iqtisodiyotning turli (xususiy va davlat) sektorlari chatishishiga va mulkchilikning turli-tuman shakllariga urg'u beradi. Keynsianschilikdan turtki olgan ikkinchi nuqtai nazar bozor (bozor mexanizmi) va davlat boshqaruvi chatishishi muammosini oldingi o'ringa qo'yadi. Turli-tuman ijtimoiy isloh qiluvchi oqimlar ta'siri paydo bo'lgan

uchinchi nuqtai nazar – kapital (xususiy tadbirkorlik) va ijtimoiy masalada (jamiyat ijtimoiy kafolatlarining chatishishga asoslanadi. Nihoyat, sivilizatsiyalashgan yondashuvdan kelib chiquvchi yana bir nuqtai nazar e'tiborni hozirgi zamon jamiyatning tarkibiy tuzilishidagi iqtisodiy va noiqtisodiy asoslarga qaratadi.

Aralash iqtisodiyotning yuqorida ko'rsatib o'tilgan talqinlari hozirgi sharoitlarda bir-biriga zid kelmaydi: ular rivojlangan iqtisodiyotning hozirgi shakllari vujudga kelishining turli yo'llari mavjudligini aks ettiradi, xolos. Aralash iqtisodiyot aytib o'tilgan o'lchamlarning bir vaqtdagi chatishishini, ya'ni iqtisodiyot xususiy davlat sektorlarining, bozor va davlat boshqaruvining kapitalistik tamoyillari hayotni ijtimoiylashtirishning, iqtisodiy va noiqtisodiy asoslarining qatishishini o'zida aks ettiradi.

Aralash iqtisodiyot ulchamlari nisbiy mustaqillikka ega. Ammo turli mamlakatlarning sharoitlarida u yoki bu o'lcham, yoxud o'lchamlar guruhlaridan biri ustuvorlik qilishi mumkin.

Iqtisodiyotning aralash ekanligi uning tarkibida faqat turli-tuman tarkibiy elementlar mavjudligini emas, real iqtisodiyotda ular chatishuvining muayyan shakllari paydo bo'lishini ham tavsiflaydi. Bunga xususiy-davlat aksiyadorlik korxonalari, davlat organlarining xususiy firmalar bilan shartnoma bitimlari, ijtimoiy sherikchilik va hokazolar misol bo'la oladi.

Bugungi kuna aralash iqtisodiyot hozirgi zamon rivojlangan jamiyatining maqbul shakli sifatida namoyon bo'luvchi yaxlit tizim hisoblanadi. Uni tashkil etuvchi elementlar bozorning davlat boshqaruvi, xususiy xo'jalik tashabbuslarining ijtimoiy kafolatlar bilan to'ldirilishini, shuningdek, jamiyatning iqtisodiy tuzilishiga industrlashtirishdan keyingi bosqich asoslari kiritilishini ob'ektiv talab qiladigan ishlab chiqarish kuchlari darajasiga va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tamoyillariga tayanadi. Aralash iqtisodiyot birikma emas, vaholanki, tashkil etuvchi elementlari darajasiga ko'ra «sof» tizimlardan keyingi o'rinlarda turadi, u aralash iqtisodiy munosabatlarning yig'indisi bo'lish bilan bir qatorda, o'zaro bog'liq tarkibiy elementlar tizimi sifatida amalga oshadi.

### **7.6. Aralash iqtisodiyot modellari.**

Aralash tizimni rivojlantirishga umumiy yo'nalish bir xillik va standartlashtirishni anglatmaydi. Hayotda turli mamlakatlarda va turli mintaqalarda aralash iqtisodiyotning har xil modellari tarkib topgan. Ular bir-biridan mulkchilikning, bozor va davlat boshqaruvining, kapital va ijtimoiylikning, iqtisodiy va iqtisodiyotdan keyingi jihatlarining turli shakllari o'ziga xos chatishish bilan farq qiladi. Bu xususiyatlar ko'pgina omillarga:

moddiy-texnika bazasining darajasi va xususiyatiga, ijtimoiy tuzilish shakllanishining tarixiy va geosiyosiy sharoitlariga, mamlakatning milliy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga, u yoki bu ijtimoiy-siyosiy kuchlarning ta'siriga vahokazolarga kup jihatdan bog'liq. Buning ustiga, aralash iqtisodiyotda odatda, o'lchamlarning u yoki bu ko'rinishi ustuvorlik qilishi mumkin.

Jahonda tarkib topgan aralash iqtisodiyotning nisbatan xarakterli ba'zi modellarini baxolashga harakat qilamiz. Amerika modeli – bu xususiy mulkning, bozor-raqobat mexanizmining, kapitalistik sabab-oqibatlarining, shuningdek, ijtimoiy tabaqalashtirishning yuksak darajasi ustuvorlik rolini taxmin qiluvchi liberal bozor – kapitalistik modelidir. Germaniya modeli – ijtimoiy-bozor xo'jaligi modeli bo'lib, u raqobat munosabatlari kengayishini bozor va kapitalning kamchiliklarini yumshatuvchi alohida ijtimoiy infratuzilma tashkil etilishi bilan, ijtimoiy siyosat sub'ektlarining ko'p qatlamli institutlardan tashkil topgan tuzilmasi shakllanishi bilan bog'laydi. Shvetsiya modeli – o'zining klassik ko'rinishida daromadlar qayta taksimlanishiga va rang-barang «erkin uyushmalar» keng yoyilishiga asoslangan ijtimoiy kafolatlarning yuksak darajasi xos bo'lgan ijtimoiy modeldir. Yaponiya modeli – boshkariladigan korporativ kapitalizm modeli bo'lib, unda kapital jamg'arishning qulay imkoniyatlari iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish, tarkibiy, investitsion va tashqi iqtisodiy siyosat sohalarida davlat boshqaruvining faol roli va korporativ (firmalarning ichki) asoslarining alohida ijtimoiy ahamiyati bilan tutashadi.

Aralash iqtisodiyotning shakllanishi uning davri iqtisodiyoti sharoitlarida ham kuzatiladi, bu holda uning turli modellari tarkib topadi. Masalan, Xitoy iqtisodiyotini qayta tashkil etish davomida bozor mexanizmi va iqtisodiyotning nodavlat sektori islohot yillarida o'z rolini sezilarli darajada mustahkamladi. Ammo ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda «yo'naltirilgan rejalashtirish» va ijtimoiy kafolatlar shaklidagi davlat boshqaruvi ustuvor mavqeini saqlab qolmoqda. Bunday modelni aralash iqtisodiyotning ustuvor sotsialistik modeli sifatida ta'riflash mumkin. Aralash iqtisodiyotni shakllantirish imkoniyatlari O'zbekistonda ham mavjud. Ular, avvalambor, industrilashtirishdan keyingi davrning alohida elementlari bilan chatishib ketgan, ma'lum darajada rivojlangan sanoat bazisi, mulkchilik va xo'jalik yuritishning vujudga kelgan rang-barang shakllari hamda islohot yillarida jadal rivojlangan bozor va tadbirkorlik bilan bog'liq. Bularning hammasiga texnologik ko'p ukladlilik, uning aralash xususiyatini kuchaytiruvchi, hozirgi zamon mamlakat iqtisodiyotining ijtimoiy o'tish xususiyati kelib qo'shiladi.

Shu narsa ayonki, mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinsa, aralash iqtisodiyotning O‘zbekistan modeli tarkib topadi.

### **7.7. Milliy iqtisodiyot**

Milliy iqtisodiyot yoki milliy iqtisodiy tizim – bu mamlakatni rivojlantirish, faoliyat ko‘rsatish omillari (ichki va tashqi, iqtisodiy va noiqtisodiy) butun majmuini aks ettiruvchi va o‘zida umumiy iqtisodiy qonuniyatlar amalga oshirilishini izohlovchi xususiyatlarni mujassam etgan mamlakat iqtisodiy tizimidir.

Tabiiy-iqlimiy, iqtisodiy-geografik, texnologik, ijtimoiy-madaniy xarakterdagi omillarni milliy iqtisodiyotning rivojlanishga faoliyat ko‘rsatishining o‘ziga xos omillari sirasiga kiritisa bo‘ladi. Ular, odatda, turg‘unligining uzoq muddatligi va tezkor o‘zgarishlarga moyil emasligi bilan farq qiladi. Iqtisodiyot va ijtimoiy mahsulotning va mulkchilikning u yoki bu tarkibiy tuzilishi, davlatning u yoki bu roli, iqtisodiyotning tashqi olamga u yoki bu ochiqlik darajada, jamiyatdagi ijtimoiy adolatning qanday talqin etilishi, iqtisodiy siyosatdagi u yoki bu ustuvor jihatlar va hokazolar ularning oqibati hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyot xo‘jalikning u yoki bu shakli, formatsiya yoki industriyaning rivojlanish darajasi bilan bog‘liq emas. U jamiyatning turli-tuman bosqichlarini o‘zida aks ettirib, ularga milliy xoslik bag‘ishlashi mumkin. U ko‘prok sivilizatsiyalashgan tizimlar bilan qiyoslanadi, u yoki bu cheklangan sivilizatsiya xususiyatlarining ma‘lum ifodasi hisoblanadi. Hozirgi sharoitlarda milliy iqtisodiyot aralash iqtisodiyotning milliy modeli ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Milliy iqtisodiyot uchun alohida bir maqsadni ko‘zlash, boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning odatdagi maqsadlari (samaradorlik, farovonlik va hokazolar)dan tashqari, har bir mamlakat iqtisodiyoti oldida uning rivojlanish shart-sharoitlari va darajasi bilan izohlanuvchi o‘ziga yarasha maqsadlar turishi hosdir.

Milliy iqtisodiyotning faoliyat ko‘rsatishi mamlakat milliy iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash va uning milliy iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish avfzalliklarini o‘zida mujassam etishi kerak. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va uning jahon xo‘jalik tizimidagi rolini kuchaytirish ana shunday manfaatlar sirasiga kiradi.

Mamlakatning yagona iqtisodiy hududini ta‘minlash iqtisodiyot umummilliy va mintaqaviy darajalarining maqbul nisbatga o‘rnatish milliy iqtisodiyotning muhim jihatlari hisoblanadi. Shuningdek, u mamlakat ilmiy an‘analari va milliy iqtisodiy tafakkur xususiyatlarini o‘zida mujassam etishi



kerak. Jumladan, u mamlakatimiz iqtisod fani uchun iqtisodiyotning ijtimoiy jihatlariga, xalq xo‘jaligi vazifalariga alohida e‘tibor hamisha xos bo‘lib kelgan.

### **Qisqacha xulosalar**

Hozirgi zamonda har qanday ko‘p tarmoqli ishlab chiqarish ichki o‘zaro moslashadigan va tashkillashtiradigan ifodalashni talab etadi. Ta’kidlash lozimki, don, non yopish va bunga aholining ehtiyoji, hamma ishlab chiqarishni birlashtirish hamda barcha ishlab chiqaruvchilar va savdo qiluvchilar foyda ko‘rishlari, iste’molchilar ehtiyorisi esa, qoniqadigan bo‘lishi kerak. Aniqrog‘i, bunday o‘zaro moslashuv har qanday jamiyatda asosiy muammolarni: nima, qanday, kim uchun va necha hajmda ishlab chiqarish kabilarni hal etishda namoyon bo‘ladi. Turli mamlakatlarda bunday muammolar har xil ko‘rinishda hal etgan va hozir ham shunday qilinmoqda. Bu yerda umumlashtirilgan holda ikki asosiy yo‘l bilan ishlab chiqarish tashkillashtiriladi va bunga muvofiq, ya’ni markazlashgan hamda bozorga oid tizimlar amalga oshiriladi.

Markazlashgan iqtisodiy tizim. Bu tizimning mohiyati, davlat monopoliyasida, ya’ni davlatning juda ham kuchliligida (o‘zining quvvatli byurokratik apparati orqali) iqtisodiyotda mutlaq hokimdir. Davlatning mansabdorligida markazdan turib barcha xo‘jaliklar – resurslar ustidan buyruqbozlik bilan nima, qanday, kim uchun va necha hajmda ishlab chiqarish muammolarini hal qiladi. Eng asosiy ishlab chiqarilgan moddiy boyliklarni qanday taqsimlashni hal etadi. Shuning uchun bunday majburiyatga asoslangan tizimni ko‘pincha ma’muriy buyruqbozlik ostida taqsimlovchi iqtisodiyot, deb ataladi.

Buning asosiy xususiyati quyidagilardan iborat:

–birinchidan, bunday markazlashgan iqtisodiyotning hamma tarafida ishlab chiqarish vositalariga davlat mulki hukmronlik qiladi. Zavod, fabrikalar, transport va boshqa korxonalarining barchasi faqat davlatga tegishli;

–ikkinchidan, barcha ishlab chiqarish, ayirboshlash va mahsulotlar davlat rejasi asosida amalga oshiriladi;

–uchinchidan, birgalikda rag‘batlantiriladigan ishlab chiqarishning asosiy iqtisodiy richaglari (yoqimli soliqlar, buyurtmalar, grantlar, kreditlar) butunlay ma’muriy buyruqbozlik yo‘li bilan boshqariladi, korxonalar faoliyatining asosiy maqsadi esa, iste’molchiga ishlash emas, balki davlat planini bajarishdir;

to‘rtinchidan, juda ham qat‘iy markazlashgan, byurokratik iqtisodiyotga davlatning moliyaviy hukmronligi ham ishlaydi.

Bozor iqtisodiyoti va uning avzalligi. Bozor iqtisodiyoti – shunday xo‘jalik tizimiki, bu yerda barcha faoliyatlar erkin ishlab chiqarish va iste‘molchilar orasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar erkin oldi-sotdi asosida amalga oshiriladi. Bozor xo‘jaligining ijtimoiy-iqtisodiy asosi yerga va boshqa vositalarga, xususiy mulkka, erkin tadbirkorlikka, tanlovga, shaxsiy manfaatga, raqobatga tayangan.

Bozor tizimining asosiy qadr-qimmati – bu mehnatni va unumli xo‘jalik yuritishni, yuqori uddaburonlikni rag‘batlantiradi; iqtisodiyot samarasiz yoki jamiyatga keraksiz ishlab chiqarishni qabul qilmaydi; umumiy ishlab chiqarish qatnashchilari orasidagi daromadlarni ko‘pincha adolatli taqsimlashni ta‘minlaydi.

Aralash iqtisodiyot. Har qanday tizimning takomillashmaganligini sezgan bir qancha olimlarning shunday g‘oyalari bilan bir qatorda yangi taraqqiyot yo‘lini izlash davom ettirildi. Masalan, g‘arb iqtisodchilari va sotsiologlar guruhi konvergensiya nazariyasini (lot. converqer – yaqinlashish, o‘xshashlik) oldinga surdilar. Bunga binoan, hozirgi zamondagi fan-texnika taraqqiyoti va yirik sanoatning yuksalishi, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkillashtirishning ahamiyati hamda iqtisodiyotning davlat boshqaruvi kapitalizmni va sotsializmini yaqinlashtirmoqda. Mana shunday asosda asta-sekin ikkala tizimning ijobiy sifatini o‘ziga singdiradigan ijtimoiy-iqtisodiy tuzum yuzaga kelmoqda.

Hozirgi haqiqiy hayotda davlatning aralashishidan butunlay erkin bo‘lgan sof bozor iqtisodiyoti yo‘q bo‘lsa kerak. Oldingi saflarda borayotgan mamlakatlar (ayniqsa, Xitoy, Rossiya, Angliya, Fransiya, AQSh, Germaniya, O‘zbekiston va boshqalar kabi) bozor samarasini davlatning tartibga solish yo‘li bilan organik va egiluvchan birgalikni qo‘shib olib boradigan xo‘jalik yuritishning ko‘proq ratsional, insonparvar va ijtimoiy adolatli yo‘llarini qidirishga intilmoqdalar. Bundan barcha yaxshi tajribalarni biriktiradigan iqtisodiyot – aralash iqtisodiyot yuzaga keladi.

Bunda, bir tomondan, xo‘jalik resurslarining ko‘pchilik qismi xususiy mulkdorlar, ko‘p sonli kichik va o‘rta bizneslar, yirik korxonalar esa, korporatsiyalar bilan samarali hamkorlikda bo‘lib, erkin bozor prinsiplarida va rag‘batlantirishda samarali harakat qilmoqda. Shu bilan bir vaqtda, boshqa tomondan, bir qator sohalar (harbiy va kosmik majmualar, umumiy ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya) davlatga va hukumatga tegishli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga o‘zining ta‘sirini faol ko‘rsatmoqda. Davlatning ijtimoiy soha rivojlanishi haqidagi tashvishi ancha katta ahamiyatga ega. Germaniya,

Shvetsiya, O‘zbekiston kabi davlatlarda bunday xo‘jalik yuritishni ko‘pincha ijtimoiy bozor iqtisodiyoti deb ataladi.

### **Asosiy tushunchalar**

Iqtisodiy tizim.

Industrial va industrialashtirishdan keyingi (post industrial) jamiyat.

Iqtisodiy tizimlarning me‘zonlari va turlari.

Ijtimoiy – iqtisodiy farmatsiya.

Oddiy va murakkab tizimlar.

Sivilizatsiyalashgan tizimlar.

Aralash iqtisodiyot.

Milliy iqtisodiyot.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Qanday iqtisodiy tizimlarni bilasiz? Ularning hozirgi zamondagi farqlari nimada?
2. Sivilizatsiyalashgan va qoloq tizimlarning farqlari.
3. Aralash iqtisodiyotni misol bilan aytib bering.

### **Mustaqil ta‘lim uchun savollar**

1. Iqtisodiy tizimlarning xususiyatlari nimada?
2. Aralash iqtisodiyotning mezonlarini tushuntirib bering.
3. Inson jamiyatida qanday tizimlar ro‘y bergan?

## **8 BOB. MULKCHILIK VA MULKIY MUNOSABATLAR**

*Biz doimo qatnashadigan mulkiy huquq, jamiyatning o'zaro harakatidagi ko'pincha tartibga soluvchi qoidalarini keng va asosiy qismini yuzaga keltiradi. Hamda mulkiy huquq odatdagi o'yinlarida kim qanday sharoitlarda va qanday harakat qilishi mumkin va kimga nima kerakligini chegaralaydi. Shunday qilib mulkiy huquq va boshqa o'yinlar qoidasi piravard hisoblarda individlar o'zlarining manfaatlarini ko'zlab qanday tanlov mavjudligini aniq ifoda etadi.*

*Pol Xeyne*

### **8.1. Mulkchilik munosabatlarining tarkibiy tuzilishi. Mulkning iqtisodiy mazmuni va mulkka egalik qilish huquqi**

Insoniyat sivilizatsiyasi, iqtisodiy tizimlar taraqqiyotida, tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanishida mehnat taqsimoti bilan bir qatorda, mulk hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ammo mulk o'z borlig'ining qo'shaloq usuliga – iqtisodiy va huquqiy usullariga ega. Mulkning iqtisodiy va huquqiy munosabatlari bir-biri bilan mustahkam bog'langan, ular bir-birini taqozo etadi. Mulkning huquqiy munosabatlari iqtisodiy munosabatlarning qonunlardagi va me'yoriy hujjatlardagi ifodasi, mavjudligi va mustahkamlanishining shakli sifatida namoyon bo'ladi. Aytish mumkinki, mulkiy huquq mulk iqtisodiy munosabatlarining ham muqaddimasi, ham natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Muqaddimasi sifatida u iqtisodiy munosabatlarga kirishayotgan xo'jalik sub'ektlari o'rtasida huquqiy oraliq mavjudligi uni hisobga olish lozimligi bilan namoyon bo'ladi. Bu huquqiy oraliq ma'lum darajada ular o'zlarini qanday tutishi kerakligini taqozo etadi.

Sub'ektlar xo'jalik aloqalarini o'rnatishar ekan, qonunlarda mustahkamlangan mulkiy huquqlarni yodda tutishilari lozim. Shu bilan bir qatorda, mulkiy huquq fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot hamda boshqa omillar ta'siri ostida chindan ham ob'ektiv ravishda o'zgarib turuvchi iqtisodiy munosabatlarni mensimasligi mumkin emas. Mazkur munosabatlar o'z taraqqiyotining u yoki bu bosqichlarida huquq doirasidan tashqari chiqishga majbur bo'ladilar. Huquq o'zgargan vaziyatni o'zida aks ettirmayotgan va iqtisodiy rivojlanishga to'siq bo'lib qolgan hollar shular jumlasidandir.

Misol qidirib uzoqqa borib o'tirmaylik. Bir necha yil muqaddam tovar olib sotganingiz uchun sizni chayqovchi sifatida javobgarlikka tortishlari mumkin edi. Mazkur misolda o'zini qilib olish kabi iqtisodiy munosabatning mulkiy huquq bilan ziddiyatga kirishishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Zero, qonun ne'matining faqat undan foydalanish maqsadidagina mulk sifatida qo'lga kiritilish ehtimolini tavsiya etar va qayta sotish yo'li bilan mulkka egalik huquqining boshqa shaxsga berilishini taqiqlar edi. Ammo odamlar qonun bilan mustahkamlangan huquqiy me'yorlarni mensimay, vujudga kelgan ob'ektiv iqtisodiy munosabatlardan va o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, u yoki bu tovarni olib sotishdan tushgan daromadning o'zlashtirilishiga yo'l qo'ymoqdalar. Hozir amalda bo'lgan qonunchilik olib-sotish hollarini qonuniylashtirdi va shunday qilib, o'zlashtirishning mazkur ko'rinishiga ruxsat beruvchi huquqiy me'yorni yuridik jihatdan mustahkamladi.

Shunday qilib, **mulk** shu so'zning iqtisodiy ma'nosida **u yoki bu ne'matning o'zlashtirilishi amalga oshadigan ishlab chiqarish, taqsimot, almashish va iste'mol jarayonida odamlar o'rtasida ob'ektiv ravishda tarkib topuvchi iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi**. Masalan, mulk sifatida o'z ishchi kuchiga ega bo'lgan bir kishi yollanma munosabatlarga kirishar ekan, ish haqini o'zlashtiradi va shu yo'l bilan mulkning iqtisodiy munosabatini amalga oshiradi. Kapital mulkning egasi bo'lgan korxonada boshlig'i daromadni o'zini qilib oladi. Yer egasi yerni ijaraga berish bilan rentani o'zlashtiradi. Sarmoyador qarz berib, qarz ustiga qo'yilgan foizni qo'lga kiritadi. Shunday qilib, har bir mulk egasi boshqa mulk egasi bilan xo'jalik munosabatlariga kirishib, o'z mulkiga egalikni ma'lum iqtisodiy ko'rinishda: ish haqi, foyda, renta, foiz ko'rinishida, ya'ni daromadning u yoki bu shaklida amalga oshiradi. Pirovard natijada, ana shu daromadlarni ne'matlarning u yoki bu ko'rinishida moddiylashtirish oqibatida, har bir sub'ektning o'z mulkini ko'paytirib borishi sodir bo'ladi. Ishlab chiqarish vositalari, iste'mol buyumlari, zeb-ziynat buyumlari, san'at asarlari, aqliy va ma'naviy rivojlanish ne'matlari shular jumlasidandir.

**Mulkiy huquq odamlarning buyumlarga munosabatini mustahkamlaydi, qayd etadi va boshqaradi, shu ma'noda u hamisha mulkning iqtisodiy munosabatlariga bog'liqdir**. Ammo ayni vaqtda u iqtisodiy o'zlashtirishning muqaddimasi sifatida namoyon bo'lishi ham mumkin, zero, har qanday ne'matga mustahkamlangan mulkiy huquq mulkni, boylikni ko'paytirib borishning iqtisodiy ko'rinishlari sari yo'l ochib beradi. Mulkiy yoki buyumga egalik huquqi alohida, mutlaq va nisbiy bo'lishi, shundan kelib chiqib, boshqarish, egalik qilish va foydalanish munosabatlarida ifodalanishi mumkin.

Masalan, yer egasi undan foydalanishda alohida huquqqa ega. U o'z yerini qanday idora qilish borasida erkindir, jamiyatga, boshqa fuqarolarga yoki xo'jalik sub'ektlariga zarar yetkazish bilan bog'liq qonun hujjatlarida mustahkamlangan cheklashlar bundan mustasno. Yerni ijaraga olgan shaxs, agar uning xo'jalik faoliyati hech qanday shartlar bilan chegaralanmagan bo'lsa, mutlaq huquqqa ega va u xo'jaligini boshqarish usulini tanlashda, mahsulot ishlab chiqarishda mutlaqo erkindir. Mabodo yerni ijaraga olgan shaxs xo'jalikni idora qilish, yerdan va boshqa ob'ektlardan foydalanish usullari borasida ma'lum shartlar bilan cheklangan bo'lsa, u mulkka nisbatan nisbiy huquqqa ega bo'ladi, ya'ni u xo'jalik yuritish ob'ektiga nisbatan mutlaq erkin emas.

Mutlaq va nisbiy huquqning real munosabatlariga misol sifatida lizing (mashinalar, dastgohlar, ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan imoratlarning uzoq muddatga ijaraga olinishi) va reyting (mashina va dastgohlarning qisqa muddatga ijaraga olinishi) xizmat qilishi mumkin. Birinchi holda, ijaraga oluvchi texnika va inshootlardan foydalanishning usullari, ko'rinishlari va shart-sharoitlarini tanlash borasida mutlaq erkinlikka ega. Ikkinchi holda, texnikadan foydalanish huquqining qisqa muddatga berilganligi munosabati bilan mulk egasi ijaraga oluvchining mutlaq huquqini ma'lum shartlar va texnikadan foydalanishga doir yo'l-yo'riqlar bilan cheklab qo'yadi. Bu demak, ikkinchi holda ijaraga oluvchining huquqi nisbiydir.

### **O'zlashtirish va foydalanish, tasarruf etish va egalik qilish**

Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy jihatlariga, ya'ni mulkchilik munosabatlarini amalga oshirishning ko'rinishlariga qaytamiz. Shuni ta'kidlash kerakki, mulk asos bo'lib xizmat qiluvchi ikki tomon: foydalanish munosabatlari va o'zlashtirish munosabatlarining birligi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur munosabatlarsiz, so'zning iqtisodiy ma'nosini nazarda tutadigan bo'lsak, mulkning o'zi yo'q. **O'zlashtirish munosabatlari haqida yuqorida gapirib o'tdik. Iqtisodiy ma'nodagi foydalanish munosabatlariga kelsak (foydalanish huquqi bilan chalkashtirish kerak emas), bu holda, mehnatning ishlab chiqarish vositalari bilan o'zaro munosabatlari jarayonini tushunish kerak, faqat shu jarayondagina tabiat ne'matlarini o'zlashtirish sodir bo'ladi.** Foydalanishning iqtisodiy munosabatlari inson tomonidan ma'lum ne'matlarni olish maqsadida ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishini ifodalaydi. Ular mehnat jarayonining o'zini va ishlab chiqarish jarayonini tavsiflaydi. Ushbu jarayonlar inson ishlab chiqarishning moddiy omillaridan foydalanishi tufayligina shunday xususiyatlarni kasb etadi.

Faoliyatning biron-bir turi natijasini o'zlashtirish mumkin xolos. Dastavval o'zlashtirish egalik qilish va tasarruf etish munosabatlarining birligi

asosida amalga oshirilar, bu munosabatlar bir-biridan ajralmagan bo‘lib, bir shaxsning o‘zida mujassamlashgan edi. Bu demak, egasi va idora etuvchisini aniqlash muammosining o‘zi vujudga kelmasdi. Masalan, zamindor yoki hunarmand bir vaqtning o‘zida ishlab chiqarish vositalarining ham tasarruf etuvchisi, ham egasi bo‘lib, o‘zlashtirish faqat unga qarashli bo‘lgan ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan foydalanish orqali amalga oshirilar edi. Demak, uning faoliyatini barcha natijalari va jamiki mahsulot to‘la-to‘kis faqat unga tegishli bo‘lgan, zero, u bir vaqtning o‘zida ham idora etish munosabatlarini, ham ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchiga mulk sifatida egalik munosabatlarini amalga oshirib kelgan.

Ammo savdo-sotiq, pul, yer, kredit munosabatlarining rivojlanish jarayonida egalik qilish bilan tasarruf etish munosabatlari bir-biridan ajralishidan oldinroq, foydalanish va o‘zlashtirish munosabatlarining ajralishi ro‘y berdi. Bu xodimni, ishchi kuchini, mehnatni ishlab chiqarish vositalaridan ajratish bo‘linishi ro‘y berdi. Ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish munosabatlarini qo‘l, koranda dehqon, yollanma ishchi amalga oshirar, ishlab chiqarish faoliyati natijalarini esa, ishlab chiqarish vositalarining egasi o‘zlashtirardi. Hozirgi zamon sharoitida ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish munosabatlarini yollangan xodim amalga oshiradi va ishchi kuchining egasi sifatida ish haqini o‘zlashtiradi, ishlab chiqarish faoliyatining egasi sifatida korxonaga xo‘jayini -tadbirkor o‘zlashtiradi.

Biz yuqorida ta’kidlaganimizdek, iqtisodiy munosabatlarning taraqqiyoti natijasida egalik munosabatlarida mulkni tasarruf etishdan ajralishi ro‘y berdi. Jumladan, qadim davrlardayoq yerga ijara va kredit munosabatlari mavjud bo‘lgan. Masalan, yer egasi yer maydonini dehqonga ijaraga beradi. Dehqon ana shu yerda mehnat qilib, ma’lum miqdorda hosil oladi, uning bir qismini esa, natura yoki renta puli ko‘rinishida yer egasi o‘zlashtiradi. Bunday o‘zlashtirish yerni idora etishga bo‘lgan alohida huquq munosabatlariga asoslanadi. Dehqonga yer uchastkasini idora etish (ijara) munosabatlari asosida hamda o‘z ishchi kuchining egasi bo‘lganligi uchun u o‘zlashtiradigan mahsulot qoladi.

Agar hozirgi zamon yirik yer xo‘jaliklarini oladigan bo‘lsak, shuni qayd etish mumkinki, yer egalari rentani yerga egalik munosabatlarini amalga oshirishning ko‘rinishlaridan biri sifatida o‘zlashtiradi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini olib boruvchi tadbirkor foydani yerni idora qilish munosabatlarini amalga oshirishning ko‘rinishi sifatida o‘zlashtiradi, ishchi kuchidan foydalanib, unga egalik munosabatlarini amalga oshirgan yollanma qishloq xo‘jaligi xodimi esa, ish haqini o‘zlashtiradi.

Tasarruf etish va egalik qilish munosabatlari doirasida o'zlashtirishning ikkiga ajralish jarayonini yana bir karra tushuntiramiz. Siz tadbirkorsiz va sizda bozorda ehtiyoj sezilayotgan yangi mahsulotni ishlab chiqarish g'oyasi tug'ildi, ammo sizning ana shu g'oyani amalga oshirish uchun imkoniyatingiz yo'q. Mablag'ingiz, kapitalingiz yetishmaydi, deb taxmin qilaylik. Bu holda siz qarz olish uchun bankka murojaat qilasiz. Qarz olib, zarur mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etib, siz muhim daromadga ega bo'lasiz. Ammo siz vaqtinchalik idora etish uchun berilgan qarzni (qarzga olingan kapitalni) qaytarishingiz shart, bundan tashqari qarz bergan bankka ustama foiz to'lashingiz lozim. Bank qarzga berilgan kapitalning egasi sifatida, ustama foizni (bank daromadini) o'zlashtiradi, shunday qilib, mulkka (qarzga berilgan kapitalga) egalik munosabatlarini amalga oshiradi. Nega endi egalik munosabatlarini? Sababi, kapitalning egasi bo'lgan bank o'z pullarini boshqacha idora etishi, ularni sizga emas, boshqa mijozga berishi ham mumkin edi.

Shuning uchun ham egalik munosabatlari mulkka egalikni amalga oshirishning eng oliy ko'rinishidir. Siz, tadbirkor sifatida, o'z mahsulotingizni sotishdan olingan yalpi tushumdan foydani o'zlashtirasiz va shu tariqa sizga berilgan qarzni, vaqtincha olingan kapitalni idora etish munosabatlarini amalga oshirasiz. Aksiyadorlar kapitali bilan ham xuddi shunday bo'ladi.

### **Mulk mazmunining talqinlari**

Mulk muammosi – eng murakkab muammolardan biri. U turlicha talqin etiladi. Sharhlariga va bir-biridan farqiga to'xtalmay, ularning eng keng tarqalganlarini misol keltiramiz. **Mulk – bu ishlab chiqarish omillari**, xodimlarni ishlab chiqarish vositalari bilan bog'lashning usullaridan biri. **Taqsimot usuli** mulkning asosiy mazmunini tashkil etadi. Mulk **ishlab chiqarishni boshqarishda ishtirok etish** shakli bilan tavsiflanadi. Nihoyat, mulkni ifodalash uchun **butun iqtisodiy munosabatlar tizimini** ochib tashlash zarur, bu demak, u o'zini jamiki iqtisodiy munosabatlar yig'indisida namoyon etadi.

Bizning fikrimizcha, ana shu sifatlardan birini eng to'g'risi, deb tanlashga urinish, nuqtai nazarlardan har birining tarafdorlari o'z mulohazalarini yoqlashiga qaramay, o'zini oqlamaydi. Shunga qaramay, ana shu sifatlarni diqqat bilan o'qib chiqishga harakat qilib, o'ylab ko'raylik-chi: umuman, shu o'rinda munozara uchun ob'ekt bormi? Nahotki shu nuqtai nazarlar bir-biri bilan murosaga kelmaydigan darajada bo'lsa?

Bizning javobimiz bitta. Ana shu nuqtai nazarlarning hammasi to'g'ri. Bunday xulosa quyidagi mulohazalardan kelib chiqadi:



Mulkning *birinchi sifati*-birgina va bevosita ishlab chiqarishga aloqador. Bu demak, u xodimning ishlab chiqarish jarayonining o'zidagi ishlab chiqarish vositalariga munosabatlarini tavsiflaydi. *Ikkinchi sifati* -taqsimot munosabatlari bilan chegaralanadi, ya'ni kim taqsimotni amalga oshirsa, mulkiy munosabatlarni ham u amalga oshiradi. *Uchinchi sifat* -mulkchilik munosabatlarini ishlab chiqarishni boshqarishga dahldorlik ko'zgusi orqali ko'rib chiqadi va nihoyat, *to'rtinchi sifat* - bizni mulkchilik munosabatlariga xo'jalik sub'ektlari kirishadigan jamiki iqtisodiy munosabatlar nuqtai nazaridan kelib chiqib, nazar tashlashimizga turtki vazifasini o'taydi.

Barcha nuqtai nazarlar to'g'ri, zero, ularning har biri mulkka iqtisodiy munosabatlarning qandaydir bir kesmasini (ishlab chiqarishdagi, taqsimotdagi, boshqaruvdagi, umuman, iqtisodiyotdagi) aks ettiradi, ularning har biri boshqa tavsiflarni to'ldiradi, boyitadi, deb xulosa chiqarish mumkin. Bu pirovard natijada, so'nggi serqamrov sifatda o'z ifodasini topadi. Ammo bundan, aynan shu sifat to'g'ri, deb xulosa chiqarish mumkin emas. Sababi, tahlil doirasida biz voqelikning o'ziga xos jihatlarini alohida-alohida olib (mazkur holda mulkning), chuqur ko'rib chiqamiz, bu bizni yangi bilimlar bilan boyitadi. Mulkning iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatidagi tavsifi esa, o'sha mulkchilik munosabatlari turli tomonlarining sintezidir. Mulkchilik munosabatlarini tadqiq etishga aynan shunday yondashuv, bir tomondan, samarasiz munozaralarni iloji boricha kamaytiradi, ikkinchi tomondan, mulkni har tomonlama, turli qiyofada ko'rib chiqish imkonini ochib beradi.

## **8.2. O'zbekiston Respublikasida mulkning turlari va shakllari**

Mulkning tavsifi quyidagi ikki turga: xususiy va jamoa mulkiga ajratilishini belgilab beradi.

Jahon amaliyoti xususiy mulkning asosiy, belgilovchi ekanligini va **u to'rt asosiy ko'rinishda: shaxsiy, sherikchilik, uyushgan, umuxalq ko'rinishlarda** namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

**1. Shaxsiy mulk.** Shaxsiy mulk jismoniy yoki huquqiy shaxs mulkning barcha munosabatlarini (o'zlashtirish, tasarruf etish, foydalanish) bir o'zi amalga oshirishi bilan ajralib turadi. Shu o'rinda gap ayni vaqtning o'zida ishlab chiqarish vositalarining egasi, ham ishchi kuchi bo'lgan yakka oddiy tovar ishlab chiqaruvchilar haqida bormoqda. To'g'ri, bu holda oila a'zolarining mehnatidan (masalan, oilaviy fermer xo'jaliklari) foydalanilishi mumkin. Bundan tashqari, shaxsiy mulk yollanma mehnatdan foydalanishi mumkin bo'lgan alohida olingan xususiy shaxsning mulki ko'rinishida namoyon bo'la oladi.

**2. Sherikchilik mulki.** Sherikchilik mulki birgalikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida bir nechta huquqiy yoki jismoniy shaxslarning mol-mulki, kapitali u yoki bu shaklda birlashishini taxmin qiladi. Bu o‘rinda gap ta‘sischilarning paychilik badallari (ishlab chiqarish vositalari, yer, pul, moddiy boyliklar, yangi g‘oyalar) asosida korxonani tashkil etishi haqida bormoqda. Bunday korxonalar to‘liq yoki cheklangan mas‘uliyat asosida tashkil etilishi mumkin.

Mas‘uliyat to‘liq bo‘lganida jamiyat ta‘sischilari qarz beruvchi oldida o‘zlarining jamiki mol-mulklari bilan, shu jumladan, mazkur korxonaning sherikchilik mulki bo‘lmagan mol-mulklari bilan to‘liq javobgardirlar. Buning ustiga javobgarlik ikki tomonlamadir: qarz beruvchi bilan hisob-kitob qilish vaqtida sheriklardan birining mablag‘i yetishmay qolsa, qarz uning sherigi mol-mulki bilan qoplanadi.

Mas‘uliyati cheklangan sherikchilik korxonalarida ularning ta‘sischilari o‘z kreditorlari oldida faqat kapital (aksiyalar paketi) munosabatlarda ularning har biriga tegishli ulushi miqdorida javobgardirlar. Ularning mol-mulkka doir mas‘uliyati qatnashchilarning mulkiy ob‘ektlariga yoyilmaydi, sababi, ularning sherikchilik korxonasi mulkiga aloqasi yo‘q. Bunday korxonalarning aksiyalari faqat ularni ta‘sis etuvchilar o‘rtasida tarqatiladi.

**3.Uyushgan mulk.** Uyushgan mol-mulk – aksiyalarni erkin sotish yo‘li bilan shaklanuvchi kapitalning faoliyat ko‘rsatishiga asoslanadi. Har bir aksiya egasi ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati kapitalning egasi hisoblanadi. Sherikchilik mulki aksiyadorlar kapitali asosida faoliyat ko‘rsatsa, ochiq aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari bozorlarda erkin sotiladi va sotib olinadi. Shu munosabat bilan, oradan ma‘lum vaqt o‘tganidan so‘ng soxta kapital – aksiyalarning egalari o‘zgarishi mumkin, jamiyat esa, to tugatilgunga qadar yoki qayta tashkil etilgunga qadar o‘z faoliyatini davom ettiraveradi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, uyushgan mulkda aksiyalarning parchalangan, chakana egalari (shuning uchun ham u xususiy mulk qatoriga kiradi) namoyon bo‘lishiga qaramay, uni xususiy mulkdan jamoa mulkiga o‘tish shakli, deb hisoblash mumkin. Gap shundaki, aksiyadorlar kapitali aksiya egalari o‘rtasida parchalab tashlanganiga qaramay, yaxlit birlik, jamoaning birlashgan kapitali sifatida faoliyat ko‘rsatadi va xo‘jalik munosabatlariga kirishadi. Tasarruf etish munosabatlari aksiyalarning alohida paketlari kabi tarqoq holda emas, jami kapitalga nisbatan yaxlit holda amalga oshiriladi. Aksiyalarning nazorat paketi egalari aksiyadorlik jamiyatining bor kapitalini yagona mulk sifatida tasarruf etadilar.

Agarda uyushgan mulkning egalik va tasarruf qilish munosabatlari orqali amalga oshirilishini ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, shu narsa ayon bo‘ladiki,

tasarruf etish munosabatlarini aksiyalarning har bir egasi dividendlarni (aksiyaga olingan daromadni) o'zlashtirish tarzida amalga oshiradi. Tasarruf etish munosabatlarini esa, aksiyalarning nazorat paketi egalari amalga oshiradilar. Ular, avvalambor, jamiyat o'tkazayotgan iqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy-boshqaruv, texnologiya siyosatini amalga oshiradilar. Ammo birinchi navbatda aksionerlik jamiyati foydasidan jamg'arma fondiga chegirmalar yo'li bilan jamiyat kapitalini to'plash siyosatida namoyon bo'ladi. Jamg'arma fondi esa kapitalni yanada ko'paytirib borish, uning xo'jalik faoliyatini kengaytirish va yaxshilash uchun mo'ljallangan.

**4. Umumxalq mulki.** Bir vaqtlar sobiq ittifoq Konstitutsiyasida belgilangan umumxalq mulkiga kelsak, u sof huquqiy talqin edi, mulkning iqtisodiy munosabatlari nuqtai nazaridan kelib chiqadigan bo'lsak, uni yaqin kelajakda amalga oshirib bo'lmadi, amalga oshirish mumkin ham emasdi: huquqiy shakl bilan iqtisodiy mazmun o'rtasidagi nomutanosiblik yaqqol ko'zga tashlanar edi. Shakl puch, mazmunsiz bo'lib chiqdi.

**Umumxalq mulki jamiyatning jamiki boyligi to'g'ridan-to'g'ri, bevosita va bir vaqtning o'zida hammaga hamda har bir kishiga taalluqli bo'lishini taxmin qiladi.** Bu holda tasarruf etish munosabatlarini jamiyat amalga oshirsa, umumxalq mulkiga egalik munosabatlarini jamiyatning har bir a'zosi amalga oshirishi kerak edi. Marksning bo'lajak jamiyat haqidagi konsepsiyasiga ko'ra, bunday vaziyat, birinchidan, davlat ijtimoiy hayot sahnasidan ketgan, ya'ni umrini yashab bo'lgan, ikkinchidan, jamiyatning har bir a'zosi ishlab chiqarishning istalgan vositasi bilan erkin birlashish imkoniyatiga ega bo'lgan taqdirda vujudga kelishi mumkin edi. Shu narsa ayonki, ikkinchi holda shaxs har tomonlama rivojlangan bo'lishi, faoliyatning har xil turlari texnik-texnologik jihatdan bir-biriga yaqin turishi (mashg'ulot turini erkin o'zgartira olish uchun) lozim, K.Marks kapital jamlashning tarixiy yo'nalishini ko'rib chiqar ekan, mulkchilik munosabatlari rivojining quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatadi:

Birinchi bosqich – kapitalistik xususiy mulk tomonidan shaxsiy -xususiy mulkning rad etilishi. Ikkinchi bosqich – kapitalistik xususiy mulkning rad etilishi va ijtimoiy mulk doirasida shaxsiy mulkning qaror topishi. Bu – inkorni inkor etishdir. U shaxsiy mulkni emas, kapitalistik davr yutuqlari asosida, kooperatsiya hamda yerga va mehnatning o'zi bilan yaratilgan ishlab chiqarish vositalariga umumiy egalik asosida, ya'ni ijtimoiy mulk doirasida shaxsiy mulkni tiklaydi. Ko'rinib turibdiki, yangi jamiyat uchun ta'rifi berilgan zarur shart-sharoitlar nafaqat pishib yetilgani yo'q, ularning yaqin kelajakda tarkib topishi ham amrimahol.

Jamiyat har bir xodimning istalgan ishlab chiqarish vositalari bilan to'la-to'kis erkin birlashuvini ro'yobga chiqarish amalda mumkin emas, zero, birinchidan, iqtisodiyot moddiy-texnika bazasining darajasi va jamiyatdagi mehnat taqsimoti chuqurligi shundayki, mehnat faoliyati xilma-xil turlarining rang-barangligi shu qadar cheksizki, mehnat sohasini erkin o'zgartirish imkonini bermaydi. Ixtisoslikni o'zgartirish mehnat taqsimotining shunday holatini taxmin etadiki, u mehnat faoliyatining turli ko'rinishlari o'rtasida «choh bo'lmasligini», aksincha, faoliyat sohasining «og'riqsiz o'zgartirilishini» amalga oshirish imkonini berishi lozim.

Ikkinchidan, inson mehnat faoliyatining hozir mavjud bo'lgan barcha turlarini yoki hech bo'lmaganda, uning aksariyat qismini o'zlashtirishga qodir emas, jamiyatning ixtiyorida esa, shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar va vositalar samarasiz foydalanishga, ijtimoiy mehnatning talon-taroj qilinishiga olib kelishi mumkin. Zero, ana shunday shaxsni shakllantirishga juda ko'p mablag' sarflangan jamiyat samara tarzida undan faoliyatning cheklangan sohasdagi natijani qo'lga kiritar edi, xolos. Hozir jamiyatga chuqur professional va maxsus bilimlar kerak, vaholanki, mehnatni o'zgartirishning ob'ektiv zaruratini hozirning o'zidayoq fan-texnika taraqqiyoti taqozo etmoqda. Bu kelajakda ishchi kuchi yuksak safarbarligining asosi sifatida umumta'lim tayyorgarligini jiddiy ravishda kengaytirishni talab qiladi. Shu jihatdan qaraganda, bizning ta'lim tizimimiz, aytish mumkinki, ana shu talablarga javob beradi.

Hozir faraz sifatida shuni taxmin qilish mumkinki, nisbatan olis kelajakda, mutlaqo yangi texnologiyalar, texnika, materiallar paydo bo'lib, buning natijasida mehnat faoliyati turlarining bir-biriga sezilarli darajada yaqinlashuvi ro'y berib, faoliyat turlari o'rtasidagi jiddiy farqlar bartaraf etilgach, erkin mehnat, har tomonlama rivojlangan shaxs uchun faoliyat sohasini erkin o'zgartirish davri va yalpi umumxalq mulki davrlari boshlanadi, ayni vaqtning o'zida bu jamiyat har bir a'zosining barcha ne'matlarga yakka egaligini amalga oshirish shakli bo'ladi. Ammo bu hozircha xom xayoldir. Lekin kim biladi, ehtimol, bu «xom xayollar» ham vati kelib voqelikka aylanar, axir odamlar yer yuzida adolat, tenglik va ozodlik hukm surishini juda-juda istashadiku.

O'zbekiston Respublikasining 8 dekabr 1992 yilda qabul qilingan Mustaqillik Konstitutsiyasida shunday deyilgan: "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqiy ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar

muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin”.<sup>52</sup>

Buning chuqur ma’nosi quyidagilardan iborat: iqtisod xo‘jalik yuritish tizimi sifatida insonlarni yashashi uchun zarur bo‘lgan barcha boyliklar bilan ta’minlaydi. Inson iqtisodning markaziy figurasi. Iqtisodning ikkinchi muhim elementi tabiatdir. Ishlab chiqarish vositalari iste’mol buyumlari va infratuzilmalardan iboratdir.

Mulkiy munosabatlar iqtisodning asosiy negizini tashkil etadi. Mulkiy munosabatlar insonni mulkka, iqtisodiy voqelikka bevosita bog‘liqligini belgilaydi hamda predmet va ob’ektlardan unumli foydalanishga undaydi.

O‘zbekiston Respublikasining 1990 yil 31 oktyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi qonunida respublikada iqtisodiyotning samarali amal qilishi va xalq farovonligining o‘sishi uchun imkoniyat yaratuvchi har qanday mulkchilik bo‘lishiga ruxsat beriladi.

Mulk turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Mulk shakllari deb mulk sub’ektining belgilari bo‘yicha tavsiflanishiga aytiladi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi qonunida<sup>53</sup> O‘zbekiston Respublikasida mulkning quyidagi shakllarda bo‘lishi ta’kidlangan:

- fuqarolarning shaxsiy va xususiy mulki;
- jamoa (shirkat) mulki, shu jumladan oilaviy, mahalla, kooperativ mulklari, ijaraga olingan korxonalar mulki, aksiyadorlar jamiyati, davlat korxonasi jamoasining, jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlar konsern (konsorsium)larining mulki, turli xo‘jalik birlashmalari va uyushmalari mulki, yuridik shaxs hisoblangan boshqa jamoalar mulki;
- Respublika, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, ma’muriy-hududiy tuzilmalar (kommunal) mulkidan iborat bo‘lgan davlat mulki;
- aralash mulk;
- qo‘shma korxonalar, ajnabiy fuqarolar, tashkilotlar va davlat, shuningdek ajnabiy yuridik shaxslar mulki.

U turli mulk, ob’ektlarning mulk egasiga tegishlilikini belgilaydi. Mulk ikki – ommaviy va xususiy ko‘rinishlarga ega. Ommaviy mulk mulkiy

---

<sup>52</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. 8 декабрь 1992 йил. 53-моддаси. <https://lex.uz/ru/docs/20596>

<sup>53</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида мулкчилик тўғрисида”ги қонунининг 4-моддаси. 1990 йил 31 октябрь, 152-ХII-сон. <https://lex.uz/ru/docs/111466>

oborotlar va munosabatlarning ishtirokchilari bo‘lgan davlat hamda munitsipal organlarning huquqiy holatini o‘z ichiga oladi. Fuqarolarning xususiy mulki individning mulkka egalik qilishining huquqiy shaklini tavsiflaydi.

O‘zbekiston Respublikasida konstitutsion tuzumning asosini quyidagi ikki asosiy qoida belgilaydi:

- xususiy mulk tan olinadi;
- barcha mulk shakllarining daxlsizligi bir xil himoya qilinadi.

Xususiy mulk shaxsiy mulkning aynan o‘zi emas, unga qaraganda yanada kengroq tushunchadir. Bu tushuncha nafaqat shaxsiy manfaatlarni qondiruvchi predmetlar (uy, avtomobil, qimmatbaho buyumlar va shu kabilar)ni, balki foyda olishni maqsad qilib olgan sanoat, moliya va savdo korxonalarini o‘z ichiga oladi. Ularning egalari (jismoniy va yuridik shaxslar) qonunlarga itoat etishlari, soliqlarni to‘lashlari, ularni tasarruf etishlari yoki amaldagi qonunlarga rioya qilgan holda o‘z xohishlari asosida foydalanish huquqiga egadirlar.

Respublika iqtisodiyotida erkinlashtirish jarayoni amalga oshirilmoqda va bu jarayon eng muhim masalani – mulk masalasini, ko‘p ukladli iqtisodiy tuzumni va unda xususiy mulkning hal qiluvchilik rolini ta‘minlashni taqozo etadi. Mulkdorlar sinfining shakllanishi jamiyatda barqarorlik va iqtisodiy o‘shishni kafolatlaydi. Iqtisodiy tuzumda kichik, o‘rta va xususiy biznesni rivojlantirishga alohida e‘tibor qilinmoqda. Tadbirkorlik tuzilmalarining moddiy, moliya va kredit resurslariga egalik qilish jarayoni erkinlashtirilmoqda, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni mamlakat ichidagi hamda xorijdagi bozorlarga yetkazishni kafolatlaydigan tuzilmalar tashkil etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining rivojlantirilishi davlatning iqtisodiyotga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartiradi: xalq xo‘jaligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqaruvchi organdan davlat iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi hamda respublikaning barcha hududlarida bozor munosabatlari muhitining birligi; iqtisodiy faoliyatning erkinligi; tovar, xizmat va moliyaviy mablag‘larning erkin harakati; raqobat kurashini qo‘llab-quvvatlash kabi tamoyillarni amalga oshiruvchi tashkilotga aylanmoqda.

Davlat iste‘molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlik erkinligini ta‘minlaydi. “Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni<sup>54</sup> tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish hamda kafolatlarini belgilovchi munosabatlarni boshqaradi. Ushbu qonunning asosiy vazifalari fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin

---

<sup>54</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик ва тadbirkorlik фаолиятининг кафолатлари тўғрисида”ги қонуни. 1999 йил 14 апрель, 755-І-сон. <https://lex.uz/ru/docs/66268>

ishtirok etishlari va ularning manfaatdorligi va ishchanlik faolligini oshirish uchun shart-sharoit yaratish, tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Davlat tadbirkorlik faoliyati sub'ektlariga teng huquqlarni kafolatlaydi va moddiy-texnika, moliya, mehnat, axborot, tabiiy va boshqa resurslardan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, tijorat siri hisoblangan axborotni himoya qilinishini kafolatlaydi.

Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining huquqlarini kamsitishga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat hususiy mulkni boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz deb e'lon qilib, turli mulk shakllari o'rtasida tabiiy raqobatning yuzaga kelishi uchun keng yo'l ochib beradi. Mulk shakllarining bir ko'rinishidan ikkinchisiga o'tishi, tadbirkorlikning turli shakllari yuzaga kelishi dastlabki davrda erkin amalga oshirilgan bo'lsada, muayyan bu jarayonga tashqaridan ta'sir qilish hollari ham mavjudligini e'tirof etish lozim.

Davlat va uning tegishli organlari qonunda belgilangan hollarda mulk sub'ektini unga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan mahrum etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng mulkchilikni muhofaza qilish masalalarida tadrijiy o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XII bobida mulkchilikning turli shakllarini tan olish va himoya qilish bo'yicha butunlay yangi bo'lgan holatlar qonuniy qilib mustahkamlangan. Ushbu konstitutsiyaviy holatlar "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"<sup>55</sup> mulk biron-bir shaxsga, jamoaga, davlatga tegishli bo'lishi, qo'shma korxonalar, chet el fuqarolari, tashkilotlar, davlatlar, xususiy xorijiy yuridik shaxslarga tegishli bo'lishi mumkin deyilgan. Masalaning bunday hal etilishi, mulk shakllarining faqat tengligini e'lon qilish bir xil bo'lgan huquqiy himoyasini hamda faqat davlat ixtiyorida bo'lishi kerak bo'lgan mulklardan tashqari mulkchilik huquqi ob'ektlarining teng huquqliligini bildiradi. Masalan, avvalgi qonunchilikdan farqli ravishda "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"<sup>55</sup> qonunda yer uchastkalari, dala hovli, bog' hovlilari, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar, sarmoyalar, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi turli hil korxonalar, shuningdek, boshqa mulklar fuqarolar ixtiyorida bo'lishi mumkin deb yozib qo'yilgan. Havfsizlik nuqtai nazaridan yoki xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan fuqarolarga tegishli bo'la

---

<sup>55</sup> Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикасида мулкчилик тўғрисида"ги қонунининг 4-моддаси. 1990 йил 31 октябрь, 152-ХII-сон. <https://lex.uz/ru/docs/111466>

olmaydigan mulk bundan istisnodir. Bunda fuqarolar tomonidan qonuniy tarzda sotib olingan mulkning narxi va miqdori qonun bilan chegaralanmaydi.

### **8.3. Mulk va bozor**

Mulk ko‘rinishlari va shakllari ustida o‘tkazilgan tahlil ularning hammasini xo‘jalik faoliyati alohidaligini keltirib chiqaradi. Buning natijalaridan yo korxonalarda (qisman) foydalaniladi yoki ular sotish uchun bozorga (aksariyat qismi) chiqariladi, deb xulosa chiqarish imkonini beradi. Mulkning turli-tuman ko‘rinishlari mavjudligi tovarlarni sotish orqali ularning iqtisodiy ko‘rinishdagi daromadlarini (ish xaqi, foyda, renta, ustama foizni) o‘zlashtirish zaruratini ob‘ektiv ravishda shart qilib qo‘yadi. Bu, o‘z navbatida, alohida – alohida mulk egalari - tovar ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy aloqalarning o‘rnatilishiga olib keladi. Bozor raqobati mexanizmlari ularning qaysi biri eng yuqori samaradorlik bilan faoliyat ko‘rsatayotganini aniqlash imkonini beradi. Ayni vaqtning o‘zida bozor mexanizmlari jamiyat ijtimoiy -iqtisodiy taraqqiyotining u yoki bu bosqichida, xo‘jalik faoliyatining tarmoqlari va sohalariga nisbatan olganda, mulkning eng hayotiy ko‘rinishlarini ajratish imkonini beradi.

Shu bilan birga, e‘tirof etish kerak, umumiy lashtirishning yuksak darajasiga erishgan hozirgi zamon ishlab chiqarishi mulkning ko‘pgina shakllari faoliyat ko‘rsatishi, o‘zaro bir-birini to‘ldirishi bilan tavsiflanadi. Jumladan, uyushgan mulk asosida ko‘p sonli ishlab chiqarish, ilmiy-ishlab chiqarish, ishlab chiqarish-savdo va boshqa turli birlashmalar faoliyat ko‘rsatadi. Ular o‘z xo‘jalik faoliyatlari g‘oyat keng ko‘lamda bo‘lishiga qaramay, mulki shaxsiy, sherikchilik, jamoa, davlat ko‘rinishidagi korxonalar bilan ularga u yoki bu mahsulotlarni, yarimfabrikat mahsulotlarni yetkazib berish to‘g‘risida bitimlarni tuzishga yoki tovarlarni iste‘molchilarga yaqinlashtirish, u yoki bu texnik, iqtisodi, yoxud bozor tadqiqotlarini bajarish sohalarida ular bilan hamkorlik qilishga majbur bo‘ladilar. Shu sababli, hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy tizimlari jadal tarkibiy siljishlarni, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini, xo‘jalik faolining har xil turlari ish olib boradigan yangi tashkiliy- boshqaruv shakllarini amalga oshirishga qodir bo‘lgan aralash iqtisodiyotga asoslanadi.

Va nihoyat, birgina mulk shakllarining rang-barangligi emas, o‘zlashtirish munosabatlarini egalik qilish va tasarruf etish orqali amalga oshirishning o‘rtacha shakllari mavjudligi ham tovar-pul munosabatlari rivojlanishining shartidir.

Mulkchilik munosabatlarining amalga oshirilishi qarz beruvchi bilan qarz oluvchi, yer egalari bilan yerni ijaraga oluvchi, qimmatbaho qog‘ozlarning



egalari bilan tasarruf etuvchilar o'rtasida tijorat munosabatlari yo'lga qo'yilishini taxmin qiladi.

Egalik va tasarruf etish munosabatlarisiz hozirgi zamon jamiyatidagi ko'pgina iqtisodiy munosabatlarni tushuntirib bo'lmaydi.

#### **8.4. Davlat tasarrufidan chiqarish**

**Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish nisbati.** Davlat tasarrufidan chiqarish deganda, shu iboraning eng keng ma'nosini, iqtisodiy munosabatlarning bevosita sub'ekti sifatida davlat xizmat rolining asta-sekin o'zgarib borishiga, xalq xo'jaligining u yoki bu sohasida, tovarlar, xizmatlar yoki boshqa ne'matlarning u yoki bu bozorida uning tadbirkorlik faoliyati qisqarishiga olib boradigan iqtisodiy o'zgarishlar jarayonini tushunish lozim.

Xususiylashtirish – ana shu jarayonning bir qismi. Uning mazmun-mohiyati har qanday mulkni xususiy mulkka aylantirishdan iborat. Bu turli ko'rinishlardagi xususiy mulk institutining tarkib topish va rivojlanish jarayonidir. Shu bilan birga, odatda, davlat tasarrufidan chiqarish bevosita yoki bilvosita xususiylashtirish jarayonining rivojlanishi bilan bog'liq.

Davlat tasarrufidan chiqarishni milliylashtirilgan mol-mulkni egasiga qaytarish bilan tenglashtirib bo'lmaydi, chunki milliylashtirilgan mol-mulkni egasiga qaytarish davlat tasarrufidan chiqarishning yo'llaridan biri bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri, bevosita mulkchilik munosabatlarining o'zgarishiga olib keladi. Milliylashtirilgan mol-mulkni egasiga qaytarish davlat korxonalarini mulkning boshqa ko'rinishlariga asoqlangan korxonalariga aylantirishdir, davlat tasarrufidan chiqarish esa, ularning fuqarolar xususiy mulki qilib o'tkazilishini taxmin qiladi. Shuning uchun xususiylashtirishga davlat tasarrufidan chiqarishning yo'nalishlaridan biri, deb qarash kerak.

Mulkning serqirra ko'rinishlari qaror topish jarayonining ana shu ikki jihati ajratib ko'rsatilar ekan, shuni unutmaslik kerakki, mulkdorlar keng qatlamining shakllanishi fuqarolar jamiyatini, fuqarolar siyosiy erkinligini shakllantirishning, ularning shaxsiy imkoniyatlarini yanada to'liq ochib berishning iqtisodiy poydevori hisoblanadi. Shuning uchun davlat tasarrufidan chiqarishni davlat mulkini boshqa ko'rinishlarga aylantirish jarayoni xolos, deb talqin etish juda sodda talqin bo'lar edi.

Ishlab chiqarish jarayonida davlat rolining o'zgarishi ikki yo'l bilan kechishi mumkin, birinchi yo'l -davlatning tadbirkorlik faoliyatini qisqartirish bilan bog'liq. Ikkinchi yo'l -davlat mulkning boshqa ko'rinishlariga asoqlangan bir-biriga o'xshash ishlab chiqarish tizimlari shakllanishini rag'batlantiruvchi shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan kuch-g'ayrat

bilan bog‘liq. Har ikki holda ham xo‘jalik faoliyatining u yoki bu sohasida davlat ulushining kamayishi ro‘y beradi. Albatta, bu har ikki holni bir vaqtning o‘zida uyg‘unlashtirib bo‘lmaydi, degan ma‘noni anglatmaydi.

Ayni vaqtda davlatning ishlab chiqarish faoliyati sohasidan asta-sekin siqib chiqarilishi yoki uning ko‘ngilli ravishda ketishi taqsimot sohasida davlatning roli, kuchayishi bilan birgalikda kuzatiladi. Davlat fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy sohani rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, daromadlarni taqsimlash, mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlash uchun shart-sharoitlarni ta‘minlash maqsadida budget siyosatiga birinchi darajali e‘tibor bera boshlaydi. Mazkur holda davlat vazifasining o‘zgarishi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ammo shuni unutmash kerakki, davlat mulki, ehtimol, ijtimoiy mulkning eng ko‘hna ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, undan hukmron tuzilmalarning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta‘sir o‘tkazishi uchun asos sifatida foydalanilgan.

Mamlakatimizda davlat mulkining «ravnaq» etgan davri uning rasmiy-huquqiy emas, real-iqtisodiy ravishda ijtimoiy mulkning yagona, hukmron, o‘ziga xos ko‘rinishiga aylangan davriga to‘g‘ri keladi. Vaholanki, ana shu davrda ijtimoiy mulkning boshqa ko‘rinishlari (jamoalar xo‘jaliklari, matlubot kooperatsiyalari) ham qonun yo‘li bilan mustahkamlangan edi. Aslini olganda, jamoalar xo‘jaligining mulki ham, matlubot kooperatsiyasining mulki ham davlat mulki tarzida faoliyat ko‘rsatar edi. Faoliyatining dasturiyligi va ana shu mulk ko‘rinishlarining amalga oshirilishi xo‘jalik munosabatlarining butun tizimi va tarkibiga singib ketgandi.

Shuning uchun ham jamoalar mulki ana shu ko‘rinishlari faoliyatining samaradorlik darajasini baholash uchun hozirga qadar rosmana asos yo‘q. Hatto iqtisodiyotni isloh etish sharoitlarida ham mulkning ana shu ko‘rinishlari mulkchilik munosabatlarining inersion rasmiyatlashuvi bilan tavsiflanadi.

Vaholanki, chinakam mulk egalari – ana shunday korxonalarining mehnatchilari va paychilari o‘zlashtirish munosabatlarini amalga oshirish jarayonining bir chekkadagi kuzatuvchilari bo‘lib qolaverdilar. Erkinlashtirish, tijoratni avj oldirish, davlat mulki ishtirokida aralash korxonalarini tashkil etish, milliy lashtirilgan mulkni egasiga qaytarish davlat tasarrufidan chiqarishning yo‘nalishidir.

**Erkinlashtirish.** Bozorlarni erkinlashtirish ularning turli xo‘jalik sub’ektlari tomonidan o‘zlashtirilishi uchun keng imkoniyatlar ochilishini taxmin qiladi.

**Bu to‘liq davlat monopoliyasi hukm surayotgan iqtisodiyot sohalarida va bozorlarda raqobatdoshli tuzulmalarni shakllantirish**

**yo‘lidir.** Shu o‘rinda gap u yoki bu bozorga yangi raqobatchilarning kirib borishiga to‘sqinlik qiluvchi turli xil taqiqlarni bekor qilish, g‘ovlarni olib tashlash haqida bormoqda.

Shunday qilib, bozorlarni erkinlashtirish davlat korxonalarining mulkiga bevosita dahl etmagani holda, yangi xo‘jalik sub’ektlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Bunday sub’ektlarning faoliyati pirovard natijada jamiyatning tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan u yoki bu ehtiyojlarini qondirish borasida davlat tuzilmalari rolining pasayishiga, mavjud bozor segmentlariga yangilarini qo‘shish evaziga ularning bozorlardan siqib chiqarilishiga olib keladi.

**Tijoratlashtirish.** Davlat tasarrufidan chiqarishning boshqa bir yo‘nalishi **davlat korxonalarini tijoratlashtirish hisoblanadi, bu jarayon ularning tijorat hisob-kitobiga o‘tkazilishini, ularning faoliyati bozor mexanizmlariga bo‘ysundirilishini o‘z ichiga oladi.** Davlat korxonalarini tijoratlashtirish ularning tevarak-atrofidagi bozorga yot muhitning yo‘qotilishini taxmin qiladi. Shu bilan birga, davlat ularni yo qisqartiradi, yo budjetdan moliyaviy ta‘minlashni to‘liq to‘xtatadi, soliq to‘lash borasidagi imtiyozlarni bekor qiladi, kredit qarzlardan kechishni rad etadi, ularning xo‘jalik faoliyati natijalarini xususiy sektorda qo‘llaniladigan mezonlar asosida baholaydi.

Davlat tasarrufidan chiqarishning mazkur yo‘nalishi, xususiylashtirish jarayoni avj olishini kutib o‘tirmay, davlat va munitsipal korxonalarining faoliyatini bozor tadbirkorligi o‘zaniga solib yuborish imkonini beradi. Ayni vaqtda qoloq, zarar keltirayotgan korxonalar bozordan ketishi, kimoshdi savdosi, tanlovlar yoki aksiyalashtirish orqali mulkning yangi ko‘rinishida qayta tashkil topishi lozim bo‘ladi. Shu tarzda tijoratlashtirish ob’ektlarni xususiylashtirishga zamin tayyorlaydi va unga yo‘l ochadi. Ayni vaqtning o‘zida u mustaqil bozor kuchi sifatida ish yuritishi mumkin bo‘lgan yashovchan davlat tuzilmalarining mustahkamlanishiga imkon beradi, bu tegishli bozorlarda raqobatning avj olishiga va ite‘molchilar ahvolidning yaxshilanishiga o‘z ijobiy ta‘sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi.

Ayrim davlat korxonalariga yoki ularning bo‘linmalariga to‘la mustaqillik berilar ekan, mavjud xo‘jalik aloqalarining uzilib qolishidan, iqtisodiy alg‘ov-dalg‘ovlar xavfidan ehtiyot bo‘lish kerak. Shuning uchun ularning xo‘jalik faoliyati ustidan davlat nazorati va boshqaruvini saqlab qolish talab qilinadi. Ayni vaqtning o‘zida barcha xo‘jalik birliklariga bir vaqtning o‘zida to‘la huquqiy shaxs huquqini berish – bu huquqiy yo‘sindagi mustaqillik xolos. Zero, xo‘jalik bo‘linmalari yagona texnologiya zanjirida, yagona texnologiya siklida ishlaydigan yerda texnik va iqtisodiy bazis ularning darhol va

kechiktirmay tarkib topgan ishlab chiqarish tuzilmalaridan «ajralib chiqish»ga imkon bermaydi. Aksincha, texnik-iqtisodiy birlik va o‘zaro bog‘liqlik ularning oldiga boshqaruv tuzilmalarini shakllantirish yoki saqlab qolish zaruratini ko‘ndalang qo‘yadi. Ammo bu boshqaruv tuzilmalari o‘z irodasini o‘tkazmasligi, mutlaqo yangi asosda – yuqoridagilar amriga muvofiq emas, o‘zaro iqtisodiy manfaatdorlik asosida birlashgan xo‘jalik sub’ektlarining irodasini bajarishi lozim.

Bundan tashqari, o‘zaro mustahkam bog‘langan texnik-texnologik majmualarga chinakam to‘la xo‘jalik mustaqilligi butun o‘tish davrida (2 -3 yil davomida) xom ashyo, uzellar, qismlar va komplektlovchi buyumlarni yetkazib berish haqidagi buyurtmalarining bajarilishi majburiy bo‘lgan shartlar bilangina berilishi mumkin, xo‘jalik tuzilmalari ana shu vaqt mobaynida kelajakdagi hamkorliklari haqida uzil-kesil bir qarorga kelishi lozim. Bu zarurat paydo bo‘lgan taqdirda «qaram» sheriklarga ishlab chiqarishni qayta qurish yoki kengaytirish, yoxud o‘z aloqalarini boshqa mahsulot yetkazib beruvchilarga qaratish imkonini bergan bo‘lar edi.

**Aralash tadbirkorlik.** Davlat va mulkning boshqa ko‘rinishidagi sub’ektlar ishtirokida **aralash korxonalarini tashkil etish davlat tasarrufidan chiqarishning navbatdagi yo‘nalishlaridan biridir. Bunday korxonalar qarz olish va soliq to‘lash borasida imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.**

Mazkur holda gap faqat va birgina xorijiy kapital ishtirokida korxonalar tashkil etish haqida emas, davlat mulki tuzilmalari tarkibida mamlakatimizda vujudga kelgan mulkning boshqa ko‘rinishlarini ora-sira joylashtirish haqida bormoqda. Bu yo‘l to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy tadbirkorlikning tarkibiy qismlarini kengaytirish xususiyatiga ega xususiylashtirishga olib boradi. Ayni vaqtning o‘zida aralsh tadbirkorlik davlat korxonalarini tijoratlashtirish elementlarini albatta, o‘z ichiga oladi.

**Milliylashtirilgan mol-mulkni egalariga qaytarish.** Nihoyat, davlat mulkini o‘z egalariga qaytarish bo‘lib, **uning aksariyat qismi bevosita xususiylashtirish xususiyatiga ega.** O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq millilashtirilgan mol-mulkni egasiga qaytarish bosqichma-bosqich, uch xil usulda – kim oshdi savdolari, tanlovlar va aksiyalashtirish orqali amalga oshirilishi lozim.

Davlat tasarrufidan chiqarishning yuqorida ko‘rib chiqilgan barcha yo‘nalishlarida xususiylashtirish jarayoni nazarda tutiladi, milliylashtirilgan mol-mulkni egasiga qaytarishda esa, xususiylashtirish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa yaqqol ko‘zga tashlanadi.

## 8.5. Xususiylashtirish

### **Xususiylashtirish bosqichlari**

Xususiylashtirishni amalga oshirish ma'lum bosqichlarni talab qiladi. Masalan, *birinchi bosqichda* loyihaning pirovard maqsadi aniqlanadi. Korxonaning ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash, monopoliizmni yengib o'tish, bozorlarni tovarlar bilan to'ldirish shular jumlasidan bo'lishi mumkin. So'ngra xususiylashtirish dasturi tayyorlanadi. Mazkur dastur korxonalar ro'yxatini, amalga oshiriladigan tadbirlar taribini hamda ularni amalga oshirish muddatlarini o'z ichiga olishi lozim. Shuningdek, undan xo'jalik faoliyatining xususiyati, muayyan voqelikdan kelib chiqib, alohida har bir tarmoq va mintaqaga nisbatan qo'llaniladigan tamoyillar, maqsad va vazifalar o'rin olishi, milliylashtirilgan mol-mulk bo'lajak mulkdorlarning qaysi guruhlari o'rtasida taqsimlanishi nazarda tutilishi kerak.

*Ikkinchi bosqichda* xususiylashtirish usuli: davlat korxonasini aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish, korxonani keyinchalik sotib olish huquqi bilan ijaraga berish, tanlov yoki kimoshdi savdosi orqali davlat korxonalarini sotish kabi usullaridan biri tanlanadi.

*Uchinchi bosqich* - zarur hujjatlarni rasmiylashtirish, bozordagi ahvolni baholash, marketingni amalga oshirish, mijozlar safidan o'rin olishi mumkin bo'lgan xaridorlarni izlash va nihoyat, davlat mulkini qayta tashkil etish dasturni amalga oshirish jarayonini yakunlaydi. Ayni vaqtda shuni unutmaslik kerakki, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish birdan-bir maqsad bo'lib qolmasligi lozim. Faqat tugatishnigina ko'zlab, davlat mulkini qayta tashkil etish bilan shug'ullanib bo'lmaydi.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish fan-texnika va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni, milliy iqtisodiyot samaradorligi oshishini ta'minlovchi bozor tuzilmalarini shallantirish vositasi, usuligina xolos.

### **Xususiylashtirishning G'arbga va O'zbekistonga xos xususiyatlari**

Bizning iqtisodiy adabiyotlarimizda ko'pgina xususiylashtirish borasidagi G'arb mamlakatlari tajribasi targ'ib qilinadi, ammo bu tajribani bizning zaminimizga ko'chirish ma'qul yoki noma'qul emasligi hisobga olinmaydi. Gapning indallosini aytganda, G'arbdagi va O'zbekistondagi davlat mulkining institut tarzidagi tavsiflari bir xil emas. Yevropada va AQShda xususiylashtirish ancha ilgari tarkib topgan bozor sharoitlarida amalga oshirib kelingan va amalga oshirilmoqda, u qo'shimcha kapital va mehnat ulushlarini nisbatan yengil o'zlashtirishga tayyor. Sababi G'arb mamlakatlarining aksariyatida xususiylashtirish jarayoniga boshlang'ich turtki berish uchun

hokimiyatning markaziy va mahalliy organlari darajasida turkum qonun hujjatlari qabul qilinishining o'zi yetarli bo'lgan.

O'zbekistonga yuqoridan turib keng ko'lamli xususiylashtirishni tiqishtirish mamlakat iqtisodiyotining ahvolini yanada og'irlashtirishi mumkin. Birorta ham huquqiy hujjat, u naqadar progressiv bo'lmasin, kapitallar, mehnat va resurslar bozorini qisqa vaqtda shakllantirishga qodir emas.

Siyosiy hokimiyatning qarori biln rasmiylashtirilgan xususiylashtirish to'g'risidagi qonunlar o'z-o'zidan noinfratuzilmani, nobozor madaniyatini tashkil etadi – u ana shu jarayonni rivojlantirishning huquqiy doiralarini vujudga keltiradi, xolos.

Madaniylashgan hozirgi zamon bozori – iqtisodiy tizimning uzoq vaqt davom etgan tadrijiy rivoji natijasidir. Ana shu jarayon davomida o'nlab, yuz minglab kontragentlar tutashgan fond birjalari va boshqa tashkilotlar orqali iqtisodiyot muvozanatini saqlab turuvchi institut tarzidagi tuzilmalar shakllanadi.

Davlat ana shu tadrijiy rivojlanishni yo'naltirib turishga, bozor stixiyasi qonun bilan belgilangan chegaralardan tashqariga chiqib ketmasligini kuzatib borishga da'vat etilgan.

Yuqoridan turib tiqishtirilayotgan ma'muriy-buyruqbozlik yo'li bilan xususiylashtirish g'oyasi yaqin o'tmishdagi har xil kompaniyalarni eslatadi.

Qat'iy xususiylashtirish tarafdorlari unda milliylashtirishning aksinigina ko'rishar ekan, qattiq yanglishishadi. Gap shundaki, milliylashtirilganda mulkni musodara qilish akti (uni xususiy egalaridan tortib olish) va mulkka egalik huquqini beruvchi akt, ma'lumki, huquqning birdan-bir sub'ekti - davlat tomonidan amalga oshiriladi, bu ana shu marosim mexanizmini sezilarli darajada soddalashtiradi: xususiylashtirishda esa davlat mulkini «tortib olish» – g'oyatda murakkab va serqirra jarayondir.

Davlat bu borada tashabbuskor bo'lishi mumkin, ammo uning dinamikasini qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyatining qarori bilan belgilab bo'lmaydi.

### **Xususiylashtirish uchun zarur shart-sharoitlar**

Xususiylashtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tegishli shart-sharoitlar mavjud bo'lishi lozimligini hisobga olish kerak. Davlat nomidan mulkni idora etish huquqiga ega bo'lgan sub'ektlar mavjudligini eng birinchi qulay sharoit, deb hisoblash mumkin. Odatda, qonun chiqaruvchi hokimiyat nazorati ostida bo'lgan xolding korporatsiyalari ana shunday sub'ektlar hisoblanadi, xususiylashtirish bilan bog'liq jamiki tadbirlar majmuini amalga oshirish ularga topshiriladi.

Rossiyada bu xildagi tuzilmalar yo‘q edi, shu sababli, mazkur jarayonni boshqarish davlat ma‘muriy tuzilmasi – Rossiya Federatsiyasining Davlat mulk qo‘mitasi zimmasiga yuklandi. Xususiylashtirish jarayonining barcha darajalarida rasmiyatchilik, buyruqbozlik, ma‘muriyatchilik namoyon bo‘lishining boisi ham shundan.

Asosiy muammo va kulfat shunda ediki, har qanday ma‘muriy organ kabi (boshqa narsani kutish ham qiyin) qo‘mita ham topshiriqni qisqa muddatlarda «muvaffaqiyatli» bajarish, yo‘qotishlar, zarar va salbiy oqibatlariga qaramay, iloji boricha ko‘proq narsani xususiylashtirish uchun hamma narsani qilmoqda.

Xususiylashtirish ijobiy iqtisodiy natijalarga erishish vositasi emas, birdan-bir maqsad bo‘lib qolgani ham ana shulardan kelib chiqadi.

Xususiylashtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirishning boshqa sharti rivojlangan infratuzilmaning, qimmatli qog‘ozlar erkin harakatini ta‘minlovchi tijorat banklari, xolding kompaniyalari, investitsiya fondlari, fond birjalarining mavjudligi hisoblanadi. Aslini olganda, ana shu tuzilmalar endigina tashkil topmoqda, xo‘jalik sub‘ektlarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi o‘zaro munosabatlari butun mexanizmini sozlash uchun ancha-muncha vaqt kerak bo‘ladi.

Moliya bozorlarining yetarli hajmi mavjudligini navbatdagi sharoitlar qatoriga kiritsa bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, aholining yetarli darajada jamg‘armalari va tadbirkorlarning erkin kapitali zarur. Aynan shu shart-sharoitlar hukumat ishonchi bilan birgalikda G‘arb mamlakatlarida xususiylashtirishning muvaffaqiyatini ta‘minlamoqda.

Rossiyada esa, shart-sharoitlar mutlaqo boshqacha, xususiylashtirilishi kerak bo‘lgan davlat mulkining ko‘lami ham mutlaqo o‘zgacha. Oborotga xususiylashtirish cheklarining joriy etilishi va ularning bepul tarqatilishining boisi ham shu. Vaholanki, bepullik juda oz darajada Rossiya voqeligining ijtimoiy-ruhiy omillari bilan izohlanadi. Aholi butun davlat mulki – butun millatning boyligi ana shu millatning qo‘li bilan yaratilgan, deb hisoblaydi, bu juda to‘g‘ri. Bunday vaziyatda biz taklif qilinadigan davlat mulki kutilayotgan talab doirasidan chiqmasligi lozim, degan talabning bajarilishiga umid qilamiz xolos, zero, xususiylashtirishdan xazinaga eng ko‘p mablag‘ning tushishi ham shu shart bilan bog‘liq.

Oldindan ishlab chiqilgan xususiylashtirish dasturi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin edi, unda bo‘lajak mulkdorlar – ayrim ijtimoiy guruhlar qo‘lga kiritish mumkin bo‘lgan davlat mulkining ma‘lum yo‘l qo‘yilgan chegaralari ko‘rsatilardi. Gap korxonalarining xodimlari, mamlakatimiz tadbirkorlari, chet ellik jismoniy va huquqiy shaxslar, yirik

moliya institutlari haqida bormoqda. Aslida manfaatlarning nisbatan maqbul balansini belgilash lozim edi. Nihoyat, hokimiyatning mahalliy organlari tomonidan ishlab chiqilgan milliy xususiylashtirish dasturlariga g'ov qo'yilishining oldini olish uchun hokimiyatning markaziy va mahalliy organlari o'rtasidagi vakolatlar taqsimotida muvozanat o'rnatish zarurligini ajratib ko'rsatish kerak.

### **Xususiylashtirish oldiga qo'yiladigan talablar**

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish siyosatini amalga oshirish milliy iqtisodiyotni ko'ngilsiz ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlardan forig' eta oladigan qator talablarga rioya etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Xususiylashtirish jarayonining shunchaki, zo'rma-zo'raki amalga oshirilishiga, ya'ni davlat mulkini iloji boricha tezroq o'zgartirish va tugatish maqsadida amalga oshirilishiga yo'l qo'ymaslik, shak-shubxasiz, ana shu talablardan birinchisidir. Davlat mulkini isloh qilishga doir tadbirlar, mabodo ularni amalga oshirish natijasida xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati ko'rsatkichlari yaxshilanishiga erishilgan taqdirdagina o'zini oqlaydi. Shu o'rinda gap mulkchilik munosabatidari va xo'jalik yuritish shakllari sohasidagi g'oyat ma'suliyatli o'zgarishlarga zo'ravonlik bilan yondashilishiga yo'l qo'ymaslik haqida bormoqda.

Xususiylashtirish jarayonining zo'rma-zo'raki amalga oshirilishi ma'lum darajada mafkuraviy ko'rsatmalar bilan tiqishtiriladi. Aytish mumkinki, hozir O'zbekistonda xuddi shunday bo'layapti. Mafkura yuki shoshma-shosharlik bilan, o'ylamay-netmay qabul qilinayotgan, avvalgi tizimni iloji boricha tezroq «yakson» qilishga qaratilgan qarorlarda o'z aksini topmoqda. Ammo yakson qilish – bunyodkorlik emas, buni unutmaslik kerak. Shuning uchun partiyaviy ko'rsatmalarga va davlat hokimiyati eshelonlaridagi mafkuraviy tamoyillarga emas, iqtisodiy maqsadga muvofiqlikka va pragmatizmga amal qilish kerak.

Yana bir prinsipial talablardan biri davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish yo'li bilan raqobatbardoshli bozor tuzilmalarining shakllanishiga yordam berishdan, davlat monopoliyasi o'rnini xususi monopoliya egallashiga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Monopoliyachi – davlat korxonasi u yoki bu bozorda o'z mulki egasini shunchaki o'zgartirgan taqdirda shunday bo'ladi. Shuning uchun imkoni bo'lgan yerda xususiylashtirish bilan parallel ravishda korxonaning o'zini isloh qilish tadbirlarini olib borish zarur yoki shunday korxonalar mahsulotlarining narx-navosi ustidan davlat nazoratini o'rnatish talab qilinadi.

Navbatdagi talab xususiylashtirish jarayonining ijtimoiy jihati bilan bog'liq. Gap ishsiz qolayotgan xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish shart-sharoitlarini yaratish, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ham



ishlab turgan korxonalarda, ham yangi korxonalarni tashkil etish yo‘li bilan yangi ish joylari vujudga keltirilishini rag‘batlantirish siyosatini olib borish haqida bormoqda. Ayni vaqtning o‘zida fuqarolarning ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi mavjud huquqlari saqlab qolinishi kerak.

### **Xususiylashtirish va inflyatsiya**

Xususiylashtirish jarayonining boshqa iqtisodiy jarayonlar bilan o‘zaro bog‘liqligini idrok etish ham anchagina muhim ahamiyatga ega. Uning pul xo‘jaligi bilan bog‘liqligi nisbatan yaqqolroq ko‘zga tashlanadi, sababi, xususiylashtirish inflyatsiyaga qarshi kurashishga xizmat qiladi. Birinchidan, bu davlat korxonalarini moliyaviy ta‘minlash va qo‘llab-quvvatlash vazifasini davlat budjeti zimmasidan soqit etishi bilan izohlanadi, chunki ular mulkning boshqa ko‘rinishlarini qabul qilgan bo‘ladi. Bu demak, davlat hatto, avvalgi ko‘lamdagi daromadga ega bo‘lgan taqdirda ham, ijtimoiy sohani, ta‘lim, madaniyat, sog‘liqni saqlashni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga ko‘proq mablag‘ yo‘naltirishi mumkin bo‘ladi.

Bundan tashqari, mabodo xususiylashtirish korxonalarining xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida o‘tkazilayotgan bo‘lib, ana shu maqsadga erishilgan bo‘lsa, bu holda, davlat ana shu korxonalardan soliq tarzidagi tushumlar ko‘payganligi hisobiga davlat budjetiga tushumlarni oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Budjetni sog‘lomlashtirish esa, (buni biz keyinroq bilib olamiz), inflyatsiyaga qarshi qaratilgan eng muhim tadbirlardan biri hisoblanadi.

Xususiylashtirishning inflyatsiyaga qarshi qaratilgan boshqa bir muhim omili shundan iboratki, qimmatbaho qog‘ozlarni va davlat mulkini sotish yo‘li bilan aholining talaygina pul mablag‘lari «tortib olinishi» ta‘minlanadi, bu tovar va xizmatlar bozorida talab va taklif o‘rtasidagi nisbat yaxshilanishiga, narx-navoning barqarorlanishishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

### **Qisqacha xulosalar**

Umuman, insoniyat sivilizatsiyasi, iqtisodiy tizimlar taraqqiyotida, tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanishida mehnat taqsimoti bilan bir qatorda mulk hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ammo mulk o‘z borlig‘ining qo‘shaloq usuliga: iqtisodiy va huquqiy usullariga ega. Mulkchilik munosabatini o‘zlashtirish va foydalanish, tasarruf etish va egalik qilishning yaxlitligini taqozo etadi. Mana shu aytilgan jihatlar mulkchilikning ajralmas unsurlaridir.

O‘zbekiston Respublikasida, asosan, mustaqillik davrida mulkchilik munosabatlarida juda katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Dunyoning rivojlangan davlatlaridagidek mulkchilik munosabatlari, mulk turlari har xil bo‘lib, bozor

iqtisodiyoti talablariga javob beradigan holda shakllanib va rivojlanib bormoqda.

Albata, birinchi navbatda mulkchilik munosabatlari va ularning turlari (mayda mulk sinfi va o'rtacha mulk sinfi) hammasi mahsulot-tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish bilan shug'ullansa, rivojlansa maqsadga muvofiq bo'lar edi, ya'ni mulkchilik munosabatlari va ularning turlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanishi lozim.

*Mulk tushunchasi.* Mulk o'zi nimadan iborat? Mulk ko'proq umumlashagn shaklda – bu kishilarning moddiy boyliklarini o'zlashtirish usullariga asoslangan munosabatlaridir. Boshqacha so'z bilan aytganda, bu yerda munosabatlarning ikki qatlami qatnashadi.

1) Kishilarning buyum, ashyolar bilan ob'ektiv-sub'ektiv munosabatlari (u -bu narsalar bilan nima qila oladi va nima qila olmaydi);

2) sub'ektili–sub'ektga oid mulkdorlar va boshqa kishilar o'rtasida yuz beradigan munosabatlar (mulkdorning atrofida qilarga nisbatan qanday huquq va majburiyatga egaligi).

Bir qancha ilmiy maktablarning vakillari munosabatlarning birinchi qatlamini mustaqil emas, balki ikkinchisining bir qismi, deb taxmin qiladilar.

Ushbu munozaralarga mantiqiy berilmasdan hozirgi vaqtda umumqabul qilingan va iqtisodiy taxminlar uchun ko'proq samarali yo'nalishlarga XX asrning 60-yillarida birinchi Amerika iqtisodchisi R.Kouz shakllantirilgan mulkning huquqiy nazariyasiga (keyinchalik Nobel mukofoti sovrindori) to'xtalamiz. Kouz mulkini shundaygina emas, balki mulkka egalik qilish huquqining alohida elementlarini ko'rib chiqishni taklif etadi.

Shu nuqtai nazardan mulk yaxlit tosh emas, balki qandaydir to'plangan (to'xtam) huquqni tasavvur etadi.

Boshqalarga nisbatan mulkka egalik qilish huquqi 11 elementlarni o'z ichiga oladi:

- 1.Egalik qilish huquqi;
- 2.Foydalanish huquqi;
- 3.Boshqaruv huquqi;
- 4.Daromad olish huquqi;
- 5.Sotish, o'zgarish, o'zgartirish, yo'q qilish huquqi;
- 6.Mulk xavfsizligiga oid huquq (ekspropriatsiyadan himoya qilish);
- 7.Vasiyat qilishga meros olish huquqi;
- 8.Boylikka muddatsiz egalik qilish huquqi;
- 9.Atrofdagilarga zarar keltiradiganni ta'qiqlash huquqi;
- 10.Qarzni undirish huquqi;

## 11. Mulk vakolatini qaytarish huquqi.

Moddiy boyliklarni o'zlashtirish usullariga bog'liq bo'lgan kishilar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlab berib, mulkka egalik qilish huquqi «mulk» tushunchalarining aniq mazmunini ochib beradi. Iqtisodiy tizimlar uchun haqiqatan ular «o'yin qoidasini» aniqlab beradilar.

Xususiy mulkchilik. Bozor iqtisodiyoti uchun ishlab chiqarishni amalga oshirishda xususiy mulkchilik asosiy ahamiyatga ega.

Qachonki, barcha huquqiy tutam bitta jismoniy yoki huquqiy shaxslar qo'lida to'planganda mutlaqo xususiy mulkchilik haqida gapirish mumkin. Ammo mulkdor huquqiy mulkning bir qismini aniq shartlar asosida boshqa shaxslarga bersa, masalan, korxonaga egasi moneterlarga uni boshqarish huquqi bilan berdaigan bo'lsa, huquqni taqsimlash kombinatsiyalarining variantlari korxonalarining har xil shakllarini yuzaga kelishiga asos bo'ladi (xususiy korxonalarining shaxsiyatparasligidan hissadorlik jamiyatigacha).

Mulkchilik huquqining boshqacha, ko'zda tutilmagan sharoitlari bo'lishi ham mumkin. Ular to'plamga kiradigan mulkdor huquqlarining bir qismidan mahrum bo'lsa yoki bu huquqlarning bir qanchasi boshqa shaxslar tomonidan qonunga hilof ravishda tartibga olingan bo'lsa ham yuzaga keladi.

Har bir mulkdorning huquqi aniq ifodalanishi, huquq to'plami elementlarining farqlanishi, ularning qonuniy mustahkamlanishi va himoyasi hamda mulkdor huquqi iqtisodiyot nazariyasi fanida mulkdor huquqini tasniflash nomini oladi. Bu tushuncha teskari (qarshi) tushuncha bilan ifoda etilishi mumkin. Tasniflash deganda, iqtisodiy resurslarga erkin kirish mulkdordan tashqari barcha uchun istisno etiladi, degan ma'noni anglatadi. Agar barcha uchun resurslarga erkin kirish bo'lsa, unda ular hech kimniki bo'lmay qoladi (egasiz bo'lib qoladi). Bozor munosabati faqat tasniflash naqd bo'lganda ishlay boshlaydi.

Hozirgi vaqtda mulkdorning huquqiy to'plami aniq ifoda etilmagan va u yetarli darajada qonun bilan samarali himoya qilinishi kerak. Asosan, buni MDH mamlakatlarida xususiylashtirilgan korxonalar misolida ko'rish mumkin. Mulkdor huquqi bu yerda uchta asosiy guruhlar - sub'ektlar o'rtasida «bo'lingan»:

- 1) korxonalar ishchilari o'rtasida;
- 2) ushbu korxonalar rahbarlari o'rtasida;
- 3) tashqi mulkdorlar -ular o'rnida ko'proq xususiy firmalar va banklar chiqadilar. Ular o'rtasida barcha huquq to'plamiga ega bo'lish yoki ularga boshchilik qilish uchun kurash ketadi.

Iqtisodiy kategoriyalar tili bilan foydalanib aytadigan bo'lsak, ko'p joylarda mulkdor huquqining rasman berilishi sodir bo'ldi, tasniflash esa, hali tashkil topish jarayonida turibdi. Bozorning rivojlanishi bilan tasniflash yangi fazaga kirishi kerak, bunda mulkdorlar huquqining to'plami qayta taqsimlanishi natijasida (olib sotish, olib-sotarlik, qisman o'zaro kechmoq, korxonalarni yomon boshqaruv natijasida bankrot bo'lishi) huquq mustahkamlanadi va ko'proq resusrlardan ratsional va samarali foydalanishga qobiliyatli mulkdorga o'tadi. Davlatning asosiy vazifalaridan biri -shunday rivojlangan voqealarni rag'batlantirish bo'ladi.

*Iqtisodiy erkinlik.* Xususiy mulkchilik iqtisodiy erkinlikni ikki asosiy yo'nalishlar bo'yicha yuzaga kelishini oldindan belgilab beradi:

- erkin tadbirkorlikni;
- erkin iste'molchi tanlovini.

Iqtisodiy erkinlikning amalga oshirilishi ham tadbirkorlik bilan, ham iste'molchilik bilan shaxsiy manfaatning ustunligini taxmin etadi. Erkin tadbirkorlik faoliyati deganda, yalpi ishlab chiqarishni tashkillashtirishga qaror qilinganlik tushuniladi. Nima, qancha miqdorda, qanday texnologiya yordamida ishlab chiqariladi degan savollarini hal etish uning suveren huquqidir. Albatta, mutlaqo erkinlik bo'lmaydi, uning doirasi qonun bilan va uning davlat himoyasida turganligi bilan ifoda etiladi.

Tadbirkorlik erkinligi uzoqqa cho'zilishi bilan birga, ya'ni tadbirkor (jismoniy va huquqiy shaxs) u nafaqat daromad olib kelmaydigan, balki korxonalarining xarob bo'lishiga sabab bo'lgan noto'g'ri qarorlarni qabul qilish huquqiga ham ega.

Bozor mexanizmlari normal ishlashi uchun iste'molchi tanlovi erkinligining mavjudligi zarurdir. Bu deganimiz, iste'molchi ixtiyori uchun o'zining talabini o'z qo'lida tutmog'i lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida hech qanday «eng yuqori» darajali tushuncha (ziyonli, foydali, ilmiy asoslangan— asoslanmagan va boshqalar) iste'molchini aniq tanlovga majburlashi mumkin emas, garchan, albatta, qandaydir me'yorda unga ta'sir ko'rsatishiga ega bo'lsa ham qobiliyatli. Shu ma'noda iste'molchi qabul qilgan qarorining suvereniteti to'g'risida gapirish mumkin, buni uning o'zidan boshqa hech kim hal qila olmaydi. Shuning uchun iste'molchi qaroriga barcha ishlab chiqaruvchilar moslashmog'i shart.

Davlat tomonidan iste'molchi suverenitetini qo'llab-quvvatlashda aynan huquqini himoya qilishni va aniqlash zarurdir. Bunga xususan iste'molchining huquqini himoya qilish, insofsiz raqobatchilikka yo'l qo'yib bo'lmaslik

borasida O‘zbekistonda ishlab chiqilgan va harakatdagi qonunlar xizmat qilmoqda.

Davlatning o‘zi, talon yoki ta‘minot varaqasida (kartochkada) qandaydir iste‘mol normasini belgilab kiritishi iste‘molchining suverenitetini cheklashi mumkin. Bunday holatlarga faqat urush vaqtida, tabiiy halokat yoki noiqtisodiy vaziyatlarda va keskin iqtisodiyot tanqisligi sharoitida yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyotining natijaviy prinsipi bo‘lib shaxsiy manfaat ustunligi hisoblanadi. Shaxsiy naflilikning sababi tanlashning juda ham kuchli manbasi bo‘ladi, shuning uchun har qanday tadbirkor o‘ziga nima foydali bo‘lsa faqat o‘shani qiladi.

Jamiyat ham shu bilan kifoyalanadi. Agarda birja chayqovchisining harakati qonunga zid bo‘lsa, u bozor tizimida har qanday harakatni amalga oshirishi mumkin, hatto butun iqtisodiyotga ziyon keltirishiga qaramasdan, milliy valyuta kursiga putur yetkazsa ham.

### **Asosiy tushunchalar**

Shaxsiy mulk jismoniy yoki huquqiy shaxs mulkining barcha munosabatlarini bir o‘zi amalga oshirishi bilan ajralib turadi.

Sherikchilik mulki birgalikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida bir nechta huquqiy yoki jismoniy shaxslarning mol-mulki, kapitali u yoki bu shaklda birlashishini taxmin qiladi.

Uyushgan mulk unvonlari – aksiyalarni erkin sotish yo‘li bilan shakllanuvchi kapitalning faoliyat ko‘rsatishiga asoslanadi.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Mulkchilik munosabatlarining shakli va mazmuni, tarkibiy tuzilishi.
2. O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik munosabatlari va ularning shakllari.
3. O‘zbekiston Respublikasida mulk turlari va ularning rivojlanishi.
4. Mayda va o‘rta mulkdorlar sinfi va ishlab chiqarish.

### **Mustaqil ta‘lim uchun savollar**

1. Mulkchilik munosabatlarining ichki tuzilishi va uning xususiyatlari qanday?
2. Mulk deganda nimani tushinish mumkin?
3. Korporativ (uyushgan) xususiy mulk bilan jamoa mulkini qaysi belgilariga qarab farqlash mumkin?
4. Xususiylashtirishning turli yo‘llar bilan borishini qanday izohlash mumkin?

## 9 BOB. TOVAR VA PUL MUNOSABATLARI BOZOR IQTISODIYOTINING ASOSIDIR

Ushbu mavzuda tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning ko‘rinishlaridan biri-ishlab chiqarishni tashkil etish turlari ko‘rib chiqiladi.

Har kandy xo‘jalikni tashkil etish vaqtda, avvalambor, quyidagi masalalar hal etilishi lozim:

- 1) ne‘matlar kimlar uchun (qanday iste‘molchilar uchun) yaratiladi?;
- 2) barcha foydali buyum tayyorlovchilarning mehnatini qanday tashkil etish kerak?;
- 3) ishlab chiqarish bilan iste‘mol o‘rtasidagi xo‘jalik aloqalarini qanday qilib yo‘lga qo‘yish lozim?

Xo‘jalikni tashkil etishning ikki turi o‘rtasidagi asosiy farqlarni qisqacha quyidagicha bayon etish mumkin:

Natural ishlab chiqarish		Tovar ishlab chiqarish	
1.	Yopiq xo‘jalik	1.	Ochiq xo‘jalik
2.	Xodimlarning mehnati universal	2.	Mehnatning ijtimoiy taqsimoti
3.	Ishlab chiqarish bilan iste‘mol o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar.	3.	Ishlab chiqarish iste‘mol bilan bozor orqali bog‘langan.

### 9.1. Natural ishlab chiqarish

**Natural ishlab chiqarish** - uning shunday bir turiki, unda odamlar mahsulotlarni o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun yaratadilar. Ishlab chiqarishning mazkur tarixan birinchi ko‘rinishi eng oddiy hisoblanadi.

Natural ishlab chiqarish uchun uning o‘ziga xos xo‘jalik munosabatlari mohiyatini ifodalovchi quyidagi belgilar xarakterlidir:

1. Natural xo‘jalik - tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning yopiq tizimidir. U hukmron bo‘lgan jamiyat xo‘jalik birliklari (oilalar, jamoalar, xo‘jaliklar) ommasidan iborat. Har bir birlik o‘z ishlab chiqarish resurslariga tayanadi va hayot uchun zarur bo‘lgan jamiki narsalar bilan o‘zini -o‘zi ta‘minlaydi. U xom ashyoning barcha turlarini topishdan boshlab, ularni iste‘molga to‘liq tayyorlash bilan yakunlovchi xo‘jalik yumushlarining barcha turlarini bajaradi.

2. Natural ishlab chiqarish uchun universal qo‘l mehnati xarakterlidir, u mehnatning turlariga bo‘linishini istisno qiladi: har bir odam asosiy yumushlarning barchasini bajaradi. Unda eng oddiy texnika (omoch, belkurak, xaskash va hakoza) hamda qo‘lbo‘la asbob-uskunalar qo‘llaniladi. Tabiiyki, bunday sharoitda mehnat faoliyati kam unumli hisoblanadi; mahsulot ishlab chiqarishning sezilarli darajada o‘sishi esa, amri mahol.

3. Natural xo‘jalik uchun ishlab chiqarish bilan iste‘mol o‘rtasidagi **to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy aloqalar** xos. U, «ishlab chiqarish - taqsimot -

iste'mol» formulasi bo'yicha rivojlanadi. Ya'ni yaratilgan mahsulot ishlab chiqarishning barcha qatnashchilari o'rtasida taqsimlanadi va uni chetlab o'tib, almashish orqali shaxsiy hamda ishlab chiqarish iste'moliga kirib boradi. Bunday to'g'ridan-to'g'ri aloqa natural xo'jaligiga barqarorlik beg'ishlaydi.

Hozirgi sharoitlarda natural xo'jalik industriyaga qadar iqtisodiyot ustuvor bo'lgan ko'pgina mamlakatlarda saqlanib qolgan. Kam rivojlangan mamlakatlarda XX asrning o'rtalarida ham aholining 50 - 60 foizi natural va yarim natural ishlab chiqarishda band edi. Hozir ana shu davlatlarda xalq xo'jaligining qoloq tizimini tugatish ishlari olib borilmoqda.

Bizning mamlakatimizda natural ishlab chiqarish ayniqsa, dehqonlarning shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida va shahar aholisining bog'dorchilik-polizchilik uchastkalarida rivojlangan.

Respublikamizda, 1992 yilda «bozor sari harakat» e'lon qilingandan so'ng, ba'zi hollarda qarama -qarshi harakatlar boshlandi, jumladan, natural ishlab chiqarish hukmron bo'lgan bog'dorchilik-polizchilik uchastkalari soni sezilarli darajada ko'paydi (bu -hayot uchun g'oyatda zarur ne'matlar bilan o'zini ta'minlash vositasidir). 9.1-jadvalda keltirilgan statistika ma'lumotlari bizning ana shu fikrimizni tasdiqlaydi.

Yana bir holat -mamlakatning ko'pgina mintaqalari «bozor sari harakat» qilish o'rniga xo'jalik avtarkiyasini (yopiqligini) kuchaytirdilar. Ular oziq-ovqat mahsulotlarini bir mintaqadan boshqa mintaqaga olib chiqib ketilishini taqiqlab qo'ydilar (shu yo'l bilan mahalliy aholining oziq-ovqat ta'minotini yaxshilashga urindilar). Vaholanqi, xo'jalik aloqalarini naturallashtirishning salbiy oqibatlari ham bor, u normal xo'jalik aloqalarini barbod etadi.

### 9.1-jadval

#### Shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish<sup>56</sup>, ming tonna

	2017	2018	2019	2020
don va dukkakli don	1 436,6	1 216,6	879,8	788,3
kartoshka	2 347,6	2 464,3	2 539,8	2 438,8
sabzavotlar	7 090,9	6 931,7	6 815,4	6 507,3
oziqbop poliz	1 059,1	1 147,6	1 153,7	1 051,9
meva va rezavorlar	1 604,0	1 619,5	1 603,	1 579,4
uzum	862,1	868,9	887,0	906,2
go'sht (tirik vaznda)	2 145,9	2 236,5	2 230,9	2 302,7

<sup>56</sup> Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. Статистик тўплам. 2017-2020. Тошкент 2021. Б.56-57.

sut	9 641,8	9 995,8	10 156,5	10 372,2
tuxum, mln.dona	4 020,8	4 335,1	4 491,6	4 817,9
jun, tonna	32 433	30 543	30 445	30 124

Natural xo‘jalik turg‘un xarakteri bilan ajralib turadi, zero, ixtisoslanmagan qo‘l mehnati ko‘p mahsulot ishlab chiqarishga qodir emas. Buning oqibatida mamlakat aholisining jon boshiga ishlab chiqarilgan ne‘matlar hajmi deyarlik ko‘paymaydi, odamlarning ehtiyoji esa, uzoq vaqt an‘anaviy bo‘lib qolaveradi.

Natural xo‘jalik ishlab chiqarishning industriyaga qadar davrida ustuvorlik qildi. Mashina industriyasi sharoitlarida uning o‘rnini xo‘jalikning hukmron bo‘lib olgan ikkinchi turi uzil-kesil egalladi.

## 9.2. Tovar ishlab chiqarish

**Tovar ishlab chiqarishi** - xo‘jalikni tashkil etishning shunday bir turiki, foydali mahsulotlar bozorda sotish uchun ishlab chiqariladi. Tovar xo‘jaligiga quyidagi asosiy chizgilar xos.

1. Mazkur xo‘jalik tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarining ochiq **tizimi** hisoblanadi. Unda xodimlar foydali mahsulotlarni o‘z iste‘mollari uchun emas, boshqa kishilarga sotish uchun yaratadilar. Yangi buyumlarning hammasi ishlab chiqarish birliklari chegarasidan chiqib, xaridorlar ehtiyojini qondirish uchun bozorlarga yo‘l oladi.

2. Tovarlarini ishlab chiqarish mehnat taqsimotiga asoslangan. Uning rivojlanishi xodimlarining, korxonalarining u yoki bu mahsulotni yoki murakkab buyumning muayyan qismini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi (moslashishi) bilan bog‘liq. Bunday jarayon ob‘ektiv ravishda texnika taraqqiyotini keltirib chiqaradi, texnika taraqqiyoti esa, mehnat taqsimotidan katta turtki oladi. Tovar ishlab chiqarishning mehnat taqsimoti, ya‘ni texnika taraqqiyoti bilan uzviy aloqasi, shubhasiz uning natural xo‘jalikka nisbatan afzalliklaridan biridir.

3. Tovar xo‘jaligiga ishlab chiqarish va iste‘mol o‘rtasidagi **bilvosita aloqalar** xosdir. Ular «ishlab chiqarish -almashish -iste‘mol» formulasi bo‘yicha rivojlanadi. Tayyorlangan mahsulot boshqa buyumga (yoki pulga) almashish uchun avval, bozorga chiqariladi va shundan keyingina iste‘mol sohasiga o‘tadi. Bozor o‘z navbatida ana shu mahsulotni sotish uchun tayyorlash zaruratini tasdiqlaydi yoki rad etadi.

Demak, tovar xo‘jaligi - bu tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tizimi bo‘lib, uning evaziga iqtisodiyotning har tomonlama taraqqiyoti ta‘minlanadi.



Mehnat taqsimoti chuqurlashgan sayin tobora takomillashayotgan texnikani qo'llash kengayib boradi. Bu mahsulot tayyorlashning ilgari misli ko'rilmagan suratlar bilan o'sishini keltirib chiqaradi.

Mehnat unumdorligining oshishi natijasida esa, aholi jon boshiga ishlab chiqarish ko'payib boradi. Bunga qo'shimcha ravishda bozorda buyumlarga almashish uchun mo'ljallangan mahsulotlar tobora rang-baranglashib boraveradi.

Tovar xo'jaligi shunday umumiy-tashkiliy aloqalarni o'z ichiga oladiki, ular rang-barang ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga xizmat ko'rsatishi mumkin. Ammo ayni vaqtda tovar ishlab chiqarish va almashish hajmi hamda qiymati bir xil bo'lmaydi. Shu sababli tovar xo'jaligi **tarixiy xarakterga** ega: u butun tarix davomida jiddiy ravishda o'zgarib bordi.

Avvalambor, tovar ishlab chiqarishining genezisini (kelib chiqishini) aniqlash muhimdir. Uning vujudga kelish sabablaridan biri-**ijtimoiy mehnat taqsimoti** hisoblanadi. Mazkur jarayon yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti: birinchidan (qishloq xo'jaligida dehqonchilik va chorvachilikka bo'linish) va ikkinchidan (hunarmandchilikning qishloq xo'jaligidan ajralishi) bilan boshlangan edi. Keyinchalik mehnat taqsimotining iqtisodiy qonuni tobora kuchga to'lib boradi. Ana shu qonunga muvofiq mehnat faoliyatining sifat jihatidan tobora ko'proq tabaqalashishi (bo'linishi) oqibatida iqtisodiyot taraqqiy etib boradi, bu uning turlarini alohida ajralib chiqishiga va tinch-totuv yashashiga olib keladi. Natijada, mehnat taqsimotining bir necha, jumladan: xalqaro (mamlakatlar o'rtasida), umumiy (xalq xo'jaligining yirik tarmoqlari - dehqonchilik, sanoat va hokozolar o'rtasida), xususiy (yirik tarmoqlar ichidagi yordamchi tarmoqlar, ishlab chiqarish sohalariga bo'linish) va alohida (korxonada ichida uning turli bo'linmalariga bo'linish) ko'rinishlari vujudga keladi.

Odamlarning u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish uchun **xo'jaliklarga ajralishi** buning boshqa sababi hisoblanadi. Mazkur tashkiliy munosabat ijtimoiy mehnat taqsimotini uzviy ravishda to'ldiradi: inson ishning qandaydir bir turini tanlaydi va uni o'zining mustaqil faoliyatiga aylantiradi.

Ayni vaqtning o'zida bu uning boshqa tovar egalariga qaramligini kuchaytiradi va har xil mahsulotlarni almashtirish, bozor orqali aloqalarini o'rnatish zaruratini keltirib chiqaradi. Odamlarning xo'jaliklarga ajralishi ishlab chiqarish vositalariga egalikning ko'rinishlari bilan mustahkam bog'liq. Ya'ni tovar ishlab chiqaruvchi -xususiy mulk egasi bo'lgan taqdirda, ajralish ayniqsa, to'liq bo'ladi. Agarda biror mol-mulk ijaraga -vaqtincha egalikka va foydalanishga berilgan bo'lsa, ajralishga kamroq darajada erishiladi, bu holda xo'jalikni ma'lum vaqt ijarachi olib boradi. Ammo birgina xususiy mulkning

o‘zi tovar-bozor xo‘jaligini vujudga keltirmaydi. Bu quldorlik va feodal tuzumi davridagi natural ishlab chiqarish misolida ko‘rinib turibdi.

Shu bilan birga, mulkka egalik ko‘rinishlari tovar ishlab chiqarishning har xil turlarini yuzaga keltiradi. Mulkka egalik va ishlab chiqarish munosabatlarining ko‘rinishlariga bog‘liq ravishda tovar ishlab chiqarishning ikki xil turi tashkil topadi. Dehqonlar va hunarmandlarning qo‘l mehnati qo‘llanilgan oddiy tovar xo‘jaligi tarixan birinchi bo‘lgan. Bu hol kam unumli bo‘lganligi sababli tovar ishlab chiqarish hukmron natural ishlab chiqarish bilan yonma-yon turadi. Kapitalizm davrida esa, iqtisodiyotidagi yetakchi o‘rinlarni **rivojlangan** tovar xo‘jaligi egallaydi.

Klassik kapitalizm bosqichida rivojlangan tovar xo‘jaligi **serqamrov** xo‘jalik bo‘lib boradi. Yaratilayotgan barcha ne‘matlar bozor mahsulotlariga aylanadi. Yollanma mehnat oldi-sotdi vositasi bo‘lib qoladi.

Ammo ishlab chiqarishning hozirgi bosqichida, davlatning makroiqtisodiyotdagi faol iqtisodiy roli natijasida, **tovar ishlab chiqarmaydigan sektor** alohida ajralib qoladi. Uning tarkibiga bozorda sotilmaydigan ne‘matlarni ishlab chiqarish kirdi (bu yirik ilmiy tadqiqotlar, ta‘limning bepul turlari, harbiy-sanoat majmuining asosiy mahsuloti va hakovozlardir).

### 9.3. Qiymat va narxning mehnat asosida yaratilishi

Qiymatning mehnat nazariyasini ko‘rib chiqishiga kirishar ekanmiz, narx tashkil qilish asoslarida yetuk fundamental bilimlar bilan yaqindan tanisha boshlaymiz. Shuni alohida qayd etish lozimki, biron bir mavjud darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarida qiymat, narx va boshqalar to‘g‘risidagi turli-tuman nazariy tasavvurlar ko‘rib chiqilmaydi. «Ekonomiks»da hamma gap talab va taklif atrofida aylanib, ishlab chiqarish xarajatlari fundamental kategoriya sifatida emas, balki amaliy iqtisodiyotning bir elementi sifatida tashkil qilinadi.

Nima uchun biz qiymatning mehnat nazariyasidan boshlayapmiz?

Birinchiidan, shuning uchunki, marksistik siyosiy iqtisod o‘n yillar davomida yagona iqtisodiy nazariya bo‘lib kelgan edi va buni unutish kerak emas.

Ikkinchiidan, mehnat nazariyasi bu iqtisodiy farqning chuqur oqimi bo‘lib, (U.Petti, A.Smit, D.Rikardo) iqtisodiy fikrning turli oqimlari rivoji uchun yo‘naltiruvchi bosqichdir. Bu nazariya marksistik siyosiy iqtisodga ham taalluqlidir, chunki u ham qiymat va bozor munosabatlarini mehnat prinsiplari asosida shakllantirishga amal qilgan edi. Uchinchiidan, markscha-lenincha siyosiy iqtisod hukmronlik qilgan davrda iqtisodiy nazariyada jiddiy

buzilishlar, deformatsiyalar sodir bo'ldi, «rivojlangan» bo'lsa ham, asosan, alohida hukmronlik qiluvchilar uchun g'oyaviy jihatdan zarur bo'lgan tomonga qarab rivojlandi. Shuning uchun Marksning qiymat, qimmatbaholi va narx nazariyasini uning asl mazmunida tiklash zarur.

#### **9.4. Tovar va uning xususiyatlari**

Agar mavjud ne'matlar dunyosiga e'tibor bersak, uning hammasi u yoki bu mehnat faoliyati turining natijasi, ya'ni mehnat mahsulidir. Mehnat mahsuli - bu moddiy yoki nomoddiy shaklga ega bo'lgan va u yoki bu ehtiyojni qondirishga qaratilgan insonning ishlab chiqarish vositalari bilan o'zaro harakati natijasidir.

Iste'mol qiymati mahsulotning kishilarning ishlab chiqarish, ijtimoiy, shaxsiy va boshqa ehtiyojlarini qondira oladigan xususiyatlari iste'mol qiymati deb ataladi. Mehnat va odamlar ehtiyoji mavjud ekan, mehnat va tabiat mahsullari shu xususiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun iste'mol qiymati o'zining ilk namoyon bo'lishida bu ne'matning tabiiy xossasi hisoblanadi.

Alohida qayd etish lozimki, shu bir mehnat mahsuli turli-tuman ehtiyojlarni qondirishi mumkin. Bundan tashqari, shu ehtiyojning o'zi ham turli iste'mol qiymatlari bilan qondiriladi. Masalan, issiqlik elektr energiyasini olish uchun neftdan foydalaniladi. Shuningdek neftdan boshqa turli kimyoviy mahsulotlar ham olish mumkin. Issiqlikka bo'lgan ehtiyoj esa, gaz, mazut, ko'mirlarni yoqib ham qondiriladi.

Iste'mol qiymatini tahlil qilish ne'matning tabiiy xossasi bilangina qolmay, uning ijtimoiy aspektini aniqlashni talab qiladi. Mehnat mahsuli jamiyat ehtiyojini qondirish yo'li bilan umumjamoat tomonidan tan olinadi. U tabiiy-buyum yoki vosita shaklida bo'lishi, bundan esa, u tan olishni ayirboshlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Keyingi holda mehnat mahsuli tovar shakliga ega bo'ladi.

Tovar ishlab chiqarishda iste'mol qiymati faqat ayirboshlov orqali ijtimoiy shaklga ega bo'ladi. Iste'molning ijtimoiy shakli shuni bildiradiki, sotib olingan tovar jamiyatga kerak. Shunday qilib, ijtimoiy ishlab chiqarishning yangi shakli - tovar ishlab chiqarish vujudga keladi va bunda mahsulotlar (tovarlar) o'zining iste'moli uchun emas, balki sotish, xarid qilish yo'li bilan ayirboshlash uchun tayyorlanadi. Dastavval uning rivoji birinchi navbatda, tabiiy iqlim olimlari asosida sodir bo'lib, keyin esa, ijtimoiy-iqtisodiy olimlarga tayanadi. Ijtimoiy mehnat mahsulotning kengayishi va chuqurlashuvi tovar-pul munosabatlarining rivojlanishiga tobora ko'p turtki bo'ladi.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ijtimoiy iste'mol qiymati o'zida jamiyatning ijtimoiy bahosini jamlaydi. Ne'mat u yoki bu ehtiyojni

qondirishning tabiiy xususiyatiga ega bo'lishi mumkin, ammo jamiyat uning ahamiyatini nol, deb tan olishi mumkin. Demak, u jamiyat uchun qiymatga ega emas.

### 9.5. Mehnatning ikki yoqlama xarakteri

**Konkret (aniq) mehnat.** Mehnat - insonning ongli va maqsadli faoliyati bo'lib, ma'lum ne'matni barpo etishga qaratiladi va u har doim mehnat sifatida ma'lum foydali shaklda ifodalanadi. Mehnatning konkret shaklini sharti shuki, u har doim konkret iste'mol qiymatlarini (masalan, stol, kostyum, kitoblar) barpo etishga qaratilgan. Har qanday ne'matni ishlab chiqarish uchun konkret sharoitlar zarur: konkret professional tayyorgarlik (masalan, duradgor), konkret mehnat predmeti (yog'och), konkret mehnat vositalari (arra, bolg'a, randa) va hokazo. Shuning uchun har qanday mehnat faoliyati konkret mehnatidir. Ammo mehnat qiymatining tahlili umuman, mehnat mahsulidan emas, balki tovardan, ya'ni tovar ishlab chiqaruvchining ehtiyojini qondirish uchun emas, balki bozorning boshqa agentlari-xoridorlarining ehtiyojini oldi-sodi, xarid qilish yo'li bilan qondirish uchun ishlab chiqarilgan mahsulotdan boshlanadi. Demak, tovarayirboshlashga mo'ljallangan mehnat mahsulidir. Shuning uchun har qanday mehnat mahsuli tovar bo'la olmaydi, ammo har qanday tovar mehnat mahsuli bo'la oladi.

Bizga ma'lumki, bozorda bir mehnat mahsuli boshqasiga ayirboshlanadi. Tovarning bu xususiyati, ya'ni ma'lum proporsiyalari bir tovarning boshqasiga ayirboshlash qobiliyatiga ayirboshlov qiymati, deb aytiladi (masalan, X kg don = Y kg go'sht). Ammo ana shu proporsiyalar har xil iste'mol qiymatga ega bo'lgan, sifatli tovarlar ayirboshlovi asosida nima yotganligi aniq emas.

**Abstrakt mehnat.** Ma'lumki, butun tovar dunyos -bu mehnat mahsulotlari dunyosidir va shu bilan birga, u konkret mehnatning turli-tuman turlari mavjud bo'lgan dunyodir. Ammo mehnatning konkret shakllaridan chalg'ishga abstraktlashishga harakat qilaylik. Bunda biz ko'ramizki, stol ham, kostyum ham, poyafzal ham bu - umuman mehnatdir. Shaxssizlangan yoki uning konkret shaklidan tashqarida olingan va mahsulotda buyumlangan mehnat abstrakt mehnat deb ataladi. Boshqacha aytganda, abstrakt mehnat bu o'zining konkret shaklidan chalg'igan mehnatdir. Shuning uchun ayirboshlash jarayonida turli-tuman iste'mol qiymatlarini, tovarlarni tenglashtirish (mezoni) abstrakt mehnat bo'ladi.

Bu bilan bog'liq ravishda shunday xulosa chiqarish mumkinki, tovar qiymati tovarda buyumlangan mehnat bo'lib, u yoki bu tovarni ishlab chiqarish uchun qilinadigan sarflarni ifodalaydi.

Shunday qilib, mehnat ikki yoqlama xarakterga ega. Bir tomondan u konkret shaklda chiqib, iste'mol qiymatini barpo etishga yo'nalgan va boshqa tomondan abstrakt mehnat shaklida bo'lib, tovarning substansiya qiymatidir. Bunda mehnat tovarlarning qiymatini barpo etar ekan, ya'ni uning substansiyasi bo'lar ekan, o'zi qiymatga ega bo'lmaydi, chunki u buyumlanmagan shaklda mavjud bo'la olmaydi.

**Mehnat va ishchi kuchi.** Demak, mehnat-bu jarayon, bu dinamika, statistika emas. Inson ish qilishni to'xtatib, ishlab chiqarish jarayonidan chiqar ekan, mehnat ham to'xtaydi va u insonning potensial qobiliyati bo'lib koladi. Mehnat qobiliyatiga ega bo'lishlik ishchi kuchi, deb ataladi. Mehnat qilishga qobiliyatlik bu ham mehnat emas, chunki mehnat bu qobiliyatning amalga oshirilishidir.

### **9.6. Pulning mohiyati va funksiyalari**

Hammamiz har kuni pul bilan muomala qilamiz. Pul hayotimiz va turmushimizning tarkibiy qismiga aylangan, ammo pul doimo bo'lgan emas. U jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida paydo bo'lgan.

Uning paydo bo'lishi almashish jarayoni bilan bog'liq. U natura holiday almashish o'rniga kelgan. Mazmun-mohiyati va tarkibiy tuzilishi o'tgan ming yilliklar ko'p marotaba jiddiy o'zgargan bo'lishiga qaramay, pul tizimining tarixi asrlar qa'riga borib taqaladi.

Natural almashuv sharoitlarida, tovar to'g'ridan -to'g'ri tovarga almashilgan (barter) vaqtdan ehtiyoj bo'lmagan. Ammo tovar almashish paydo bo'lishi bilanoq, bo'lajak pulning shakllanish jarayoni boshlangan. Dastavval uning vazifasini turli xalqlarda talab ayniqsa, katta bo'lgan, uzoq vaqt saqlanadigan, yetarli miqdorda mavjud tovarlar bajargan. Pul, boshqa tovarlar qiymatining o'lchov birligi vazifasini bajargan, tovarlar rang-barangligining boisi ham shundan bo'lgan. Turli mintaqalarda, turli vaqtlarda tuz, gazlamalar, mis taqinchoqlar, tilla, kumish, qo'ylar, chig'anoqar, qo'ritilgan baliq, mo'yna va shunga o'xshash moddiy ne'matlar ham shu vazifani bajargan.

### **9.7. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari**

**Pul va uning evolyutsiyasi.** Ma'lumki, barcha bozor tizimini boshqarishda «monarx» pul hisoblanadi. Iqtisodiyot fanida pulning mohiyati bo'yicha har xil tasavvurlar mavjud bo'lgan. Ba'zilar pulni qulayroq bo'lishi uchun kishilar o'ylab chiqargan oddiy hisoblash birligi deb, boshqalari esa, uni tovarlarni ayirboshlash xizmati uchun yaratilgan davlat hokimiyatining mahsuloti sifatida ko'rib chiqadi. Pulning haqiqiy ... tabiati tushunchasini K.Marks bergan: bu asosiy tovar sifatida bo'lib, boshqa tovarlar dunyosidan

farqlash bo'yicha umumiy ekvivalent vazifasini bajarish uchun ajralib turadi. Pulning tovar almashuvi vaqtida vositachi bo'lib chiqishidan, tovar almashuvi tovar muomalasiga aylanadi. Qanday qilib almashuv jarayonidan pul paydo bo'ladi? Pulning tadrijiy paydo bo'lishi -bu uning rivojlanishining o'ziga xos bosqichi bo'lib, bu yerda kelgusi davrlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

**1. Pulning tovarlik davri.** Bular chig'anoqtosh va mo'yna, teri, tulki mo'ynasi, tuz, baliq, hayvon, chorva, yog' va metallar – bronza, temir, mis kabilar bo'lgan.

**2. Ideal pul davri.** Bu muomalada oltindan va kumushdan bo'lgan tanga-chaqalar bilan bog'liq davrdir. Oltin boshqa bir qancha tovarlar oldida afzallikka ega bo'lgan: sababi oltin o'zining yeyilmaydiganligi, chidamliligi (saqlanishi), ixchamliligi (kichik hajmda ancha katta qiymatni to'plash), bir xilligi, bo'linuvchanligi, tasavvur qilishi va boshqalar bilan ajralib turadi. Oltindan bo'lgan materiallar zargarlik buyumlar ko'rinishida oddiy tovar sifatida sotib olinadi. Ammo boshqa qimmatbaholi materiallar bilan birga (ko'chmas mulk, san'at buyumlari va boshqalar), oltin pul muomalasini o'zining ta'minlanganligi va chidamliligi asosida chiqadi.

**3. Qog'oz pullar davri.** Birinchi qog'oz pullar XII asrda Xitoyda, XVII asrda Amerikada, XVIII asrda Fransiyada, Angliyada va Rossiyada paydo bo'lgan. Qog'oz pullarning paydo bo'lishini ikki yo'li bilan ajratish mumkin:

- Tanga-chaqalarning «buzilishi» orqali. Kimda-kim pul bosib chiqarishi mumkin bo'lsa, ular yaqin orada bosib chiqarilgan tangalar va muomalada bo'lgan tangalar va o'zining vaznini kamaytiradi, u bir xil qiymatga ega bo'lgan. Shuning uchun tanga-chaqalardagi metallar salmog'ini kamaytirgan. Asta-sekin asl metall bo'lmagan qotishma materiallardan tanga-chaqalar yasalgan. Rossiyada XII asrdan XVII asrgacha kumushning 1 rubldagi tarkibi 11,5 barobarga kamaygan. Keyinchalik kaznachey vakillari bosib chiqara boshlagan, ya'ni davlat hukumatining majburiyati;

- Tijorat vakillari orqali, ya'ni tadbirkorlarning kreditga olgan tovarlarga pulni ma'lum vaqtda to'lov majburiyatlari. Boshlanishida bu faqat qarzdorlar va kredit berganlar o'rtasida muomala bo'lib (oddiy vakil), lekin asta-sekin uni kredit berganlar o'zi to'lay boshlagan (ko'chirma vakil). Vaqt o'tishi bilan yirik-yirik banklar o'zlari qog'oz pullarni bosib chiqara boshlagan, bular banknot deb nomlangan. Boshlanishda ular erkin oltinga almashgan, XX asrning 30-yillarida qog'oz pullarning oltinga almashuvi barcha davlatlarda (AQShdan tashqari) to'xtatildi. O'sha vaqtlarda vekselning paydo bo'lishi hozirgi zamondagi kredit pullarning yuzaga kelishini bildiradi.

**4. Hozirgi zamon pullarining davri.** XX asrning 30-yillarida kredit va qog'oz pullar tizimining muomaladagi harakati boshlanadi, shu bilan birga, oltin muomaladan chiqarib yuborilgan edi. Yangi pullar paydo bo'ldi, bular ko'pincha kredit pullar deb atalardi. Birinchi navbatda ular qatoriga veksel, cheklar, to'lov topshiriqlari kiritilar edi. Chek – bu ushbu chekda ko'rsatilgan summani uni hisobidan berish haqidagi bankning buyrug'i. Birinchi cheklar Angliyada 1683 yilda paydo bo'lgan. Hozirgi vaqtda rivojlangan davlatlarda tovarlarning asosiy oldi-sotdi operatsiyalari qog'oz pullarsiz amalga oshirilmoqda, ya'ni biz naqd pulsiz aylanishning rivojlanishi haqida gapirapmiz. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni olib borishda elektron texnikalardan foydalanish elektron pullarning paydo bo'lishiga olib kelgan bo'lsa, hozirgi zamonda pullarning yangi bosqichda rivojlanishi – plastik kartochkalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Ular o'zlarining taniganligi, funkcionalligi va texnikaviy xarakteristikalarini bilan farqlanadi.

Muomalada hozirgi zamon pullaridan foydalanishning qog'oz pullar muomalasi oldida bir qancha afzalligi bor: bu yerda sarf-xarajatlar muomalasi qisqaradi (pullarni olib kelishda va ketishda, saqlashda chiqimlar kamayadi), naqdsiz hisob-kitoblar ko'pincha qulayroq hamda pul aylanishini jadallashtiradi.

**Pulning vazifalari.** Pulning roli va mohiyati uning bajaradigan vazifalarida paydo bo'ladi. Sinfy maktablarning vakillari pulning beshta vazifasini ajratib ko'rsatiladi:

1. **Qiymat o'lchovi.** Pulning bu vazifasi tovar qiymatini aniq pul miqdoriga tenglashtirishdan iboratdir. Bu yerda naqd pulning bo'lishi shart emas. Qiymat o'lchovi vazifasi pulning xususiyati bilan bog'langanligi narx masshtabiga xizmat qiladi. Narx masshtabi doimiy o'lchov bo'lmaydi: inflyatsiya jarayonida pulning sotib olish qobiliyati pasayadi, narx esa o'sadi. Bunga misol, narx masshtabining tezda o'zgarishi – denominatsiya bo'lib hisoblanadi, ya'ni muomaladan bir xil pul birligini olib tashlash va uni boshqa sotib olish qobiliyatiga esa, pul birligi bilan almashtirish. Bir vaqt ichida shunday o'zaro nisbatda narxlar, tariflar, ish haqi va boshqalar hisob-kitob qilinadi. O'zbekistonda oxirgi denominatsiya 1994 yil bo'lgan edi, ya'ni muomalaga 1994 yili 1 iyuldan boshlab so'm-kupon o'rniga yangi milliy valyuta-so'm 1000:1 qilib almashtirilgan edi.

2. **Muomala vositasi.** Bu yerda pul-tovar va xizmatlarning almashuvida vositachi rolini o'ynaydi. Bu vazifani bajarishda pul haqiqatan bevosita ishtirok etadi. Bu yerda pul muomala vositasi sifatida harakat qilishi uchun, u, birinchidan, bu rolni bajarishda davlat tomonidan ijozat berilishi va ikkinchidan, umumjamiyat tan olishidan foydalanishi shart.

3. **Jamg'arma vositasi.** Bu vazifani pul bajarishi mumkin, qachonki, sotuvchi o'zining sotgan tovari pulini olib, uni darhol harakatga keltirmasa. Bu yerda pul real va to'la qimmatli, ya'ni barqaror sotib olish qobiliyatiga ega bo'lishi shart. Korxonada investitsiya uchun pul jamg'aradi, vaqti-vaqti bilan to'lovni amalga oshiriladi va boshqalar. Shu bilan aholi uzoq vaqt uchun foydalanadigan tovarlarni xarid qilish bilan «qora kunga» (har ehtimolga qarshi) pul jamg'aradi, pul ajratib qo'yadi va boshqalar. Ushbu jamg'arma vositasini pul bajarishi uchun uning mutlaqo likvidlik imkoniyati yaratiladi – bu tezda tovar va xizmatlarga aylanish qobiliyatini bildiradi. Pulning naqd shaklda jamg'arilishi itevrazatsiya deb ataladi. Bunday holatlar juda keng tarqalgan, sababi banklarga qo'yilgan pullarning yo'qolish xavfi bor yoki ularga kirish muhosara qilinadi.

4. **To'lov vositasi.** Bu vazifani pullar tovarlarni kreditga olishda, soliq to'lashda, pul ssudalarini qaytarishda, ish haqini berishda va boshqalarda bajaradi. Bu yerda bizga ma'lum pul shakli – kredit pullar paydo bo'ladi. Bu vazifaning asosiy xususiyati pulning harakat qilishi va qimmatbaho tovar-materiallar o'rtasidagi vaqtning uzilishini mavjud bo'lishidir. Bu yerda pulni o'zi emas, balki pulda ifodalangan to'lov majburiyatlarining muomalasidir. Pul to'lov vositasi vazifasini, to'lov majburiyatini uzishda vositachi bo'lib xizmat qilish paytida bajaradi.

5. **Dunyo pullari.** Bu vazifa xalqaro iqtisodiyot munosabatlari doirasida yuzaga keladi, ya'ni pul xalqaro to'lov vositasi sifatida tovar va xizmatlarga narx-navoni aniqlash uchun alohida mamlakatlar va xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda valyuta rezervlari shakllanishi uchun, aholi va firmalarining valyuta jamg'armalarida foydalaniladi. Bu yerda gap pulning oldingi ko'rib chiqilgan to'rtta vazifasini bajarishi haqida ketayapti: qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi va jamg'arma vositasi, lekin faqat xalqaro miqyosda. Boshqa maktablarning vakillari oxirgi ikki vazifani birinchi uchtasidan yasama sifatida ko'rib chiqadilar.

Pulning har xil nazariyalari bilan biz «pul-kredit tizimi va davlatning pul-kredit siyosati» bobida batafsil tanishamiz.

### 9.8. Qiymatning oddiy shakli

Ijtimoiy mehnat taqsimoti kengayib va chuqurlashib borganida, mulkning xususiy va ijtimoiy shakllari (shu jumladan, egalik qilish va idora qilish) asosida ishlab chiqarish sohasi, almashish munosabatlari kengayib boraveradi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida tovar almashish bilan birga, qiymat bir shaklning ikkinchi shakli bilan almashishi ro'y beradi.



Qiymatning dastlabki (shakli) oddiy yoki tasodifiy bo‘lib, uni **A** tovarning **X** miqdori = **B** tovarning **U** miqdoriga tenglamasi bilan ifodalash mumkin edi. Ushbu formulada boshqa **B** tovariga nisbat orqali o‘z qiymatini ifodalovchi **A** tovar qiymatining nisbiy shaklida turibdi. O‘zi bilan boshqa **A** tovar qiymatini ifodalovchi **B** tovar qiymatining ekvivalent masalalarida turibdi. Ammo har ikki tovar oson o‘rin almashishi mumkin: **A** tovar qiymatining ekvivalent shakllari **B** tovar nisbiy shaklini ifodalashi mumkin. Bunday harakat almashish nisbatlarining turg‘un emasligidan dalolat beradi.

Qiymatning nisbiy shakli almashinayotgan tovarlarning sifat jihatidan bir xilligini ifodalaydi, bu ularni bir-biri bilan qiyoslash imkonini beradi, shuningdek, almashish qiymatida yoki almashish nisbatlarida ifodalangan qiymatning sifatlarini belgilaydi.

Qiymatning ekvivalent shakli shu shakldagi (**B**) tovarining iste‘mol qiymati (foydaligi) boshqa (**B**) tovarining qiymatini ifodalash uchun xizmat qilishini ko‘rsatadi. Bundan, tovarning qiymati mutlaq va bevosita emas, faqat nisbatan, bilvosita tarzda o‘lchanishi mumkin, deb xulosa chiqarsa bo‘ladi.

**Qiymatning kengaytirilgan shakli.** Qiymatning navbatdagi tarixiy shakli qiymatning to‘liq yoki kengaytirilgan shakli hisoblanadi. Uni quyidagi formula bilan ifodalasa bo‘ladi:

**B** - tovarning **U** miqdori;

**A** - tovarning **X** miqdori = **V** tovarining **z** miqdori;

**G** - tovarning **w** miqdori.

Ushbu formuladan ko‘rinib turibdiki, qiymatning nisbiy ko‘rinishida turgan (**A**) tovar o‘z qiymatini bir qator ekvivalent tovarlar yordamida ifodalaydi. Shu narsa ayonki, qiymatning oddiy ko‘rinishida (**A** tovarning **X** miqdori = **B** tovarning **U** miqdoriga) qiymatning nisbiy va ekvivalent ko‘rinishlari erkin o‘rin almashishi mumkin edi, bu holda, **A** tovariga qiymatning nisbiy, (**B**, **V**, **G**) tovarlari guruhiga ekvivalent ko‘rinishi qattiq birlashtirib qo‘yilgan. Agar oddiy ko‘rinishida proporsiyalari (almashish qiymati) tasodifiy xarakterga ega bo‘lsa, qiymatning kengaytirilgan shaklida ular erkin bo‘lishi mumkin emas, qiymatning nisbiy ko‘rinishida turgan tovar qiymati o‘lchovining qator ekvivalentlari mavjud. Yuqorida keltirilgan formulada **A** tovarining o‘rnini **B** tovar ham, **V** tovar ham, **G** tovar ham egallashi mumkin.

Ko‘rgazmali bo‘lishi uchun tarixdan misol keltirish mumkin, bu mazkur jarayonni ko‘z oldimizga yaqqol keltirish imkonini beradi. Masalan, mehnat taqsimotining chuqurlashishi mobaynida chorva bilan shug‘ullanuvchi qabilalar alohida ajralib chiqdi, ular ortiqcha chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqara boshladilar, ana shu mahsulotlarni o‘zlarida bo‘lmagan

dehqonchilik va hunarmandchilik ishlab chiqarishi mahsulotlariga almashadigan bo'ldilar. Mazkur holda chorva mollari qiymatning nisbiy ko'rinishida bo'lib, goh g'allaga, goh vinoga, goh asbob-uskunalarga, goh ro'zg'or buyumlariga almashtirilgan va tenglashtirilgan. Bu ularning qiymatini nisbatan to'g'ri aniqlash imkonini bergan. Xuddi shunday mulohazalarni g'allaga ham, vinoga ham qo'llasa bo'ladi.

### 9.9. Qiymatning umumiy shakli

Qiymatning hamma uchun umumiy shakli boshqalariga qaraganda tez-tez almashishga kirishadigan, ya'ni hamma jon deb oladigan, chunki uni har qanday boshqa tovarga almashish oson bo'lgan qandaydir bir ekvivalent-tovarni jami tovarlar ichidan ajratib olish yo'li bilan qiymatning kengaytirilgan ko'rinishidan «kelib chiqadi». Bunda ana shu tovar umumiy ekvivalent rolini ado etadi, qolgan barcha tovarlar esa qiymatning nisbiy ko'rinishida bo'ladi. Qadimgi xalqlarda chorvachilik, ayniqsa, rivojlangan mintaqalarni ko'z oldimizga keltiradigan bo'lsak, ularda chorva yoki mol terisi ana shunday tovar vazifasini o'tagan. Qiymatning umumiy ko'rinishi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

**B** - tovarning **U** miqdori;

**V** - tovarning **2** miqdori = **A** tovarning **X** miqdoriga;

**G** - tovarning **w** miqdori.

#### Qiymatning pul holidagi shakli

Ammo ayrim mahalliy bozorlarda umumiy ekvivalent rolini o'ynovchi har xil tovarlarning ko'pligi o'sib borayotgan bozor ehtiyojlari bilan ziddiyatga kirisha boshladi, bu bozor yagona ekvivalentga o'tishni talab qilar edi. Bu rolni asta-sekin asl metallar-oltin va kumush egallab bordi. Ana shu vaqtdan e'tiboran qiymatning pul holidagi **shakli** kuchga kira boshladi, uni quyidagi formulada tasavvur etish mumkin:

**A** - tovarning **x** miqdori;

**B** - tovarning **u** miqdori = bir unsiya oltin;

**V** - tovarning **z** miqdori;

**G** - tovarning **w** miqdori.

**Barter.** Mehnatning bir mahsulini ikkinchisiga almashtirishning ilk shakli barter yoki bir buyumning boshqasiga, bir xizmatning boshqasiga almashtirish bo'lgan. Bu almashuv munosabatlarida pul bo'lmagan. Bunday almashuv qanchalik oddiy bo'lmasin, barterda ko'plab kamchiliklar bor. Ularning ichida eng muhimi shuki, barter iqtisodiyot sharoitida sizda bori unga zarur bo'lgan va undagisi sizga kerak bo'lgan shaxsni topish kerak. Bundan tashqari, manfaatlarning mos kelishi ham vaqt jixatidan ham tovarlarning miqdori va

sifati jihatidan to‘g‘ri kelishi kerak hamda bu anchagina xarajatlarni, vaqtni va sarflarni talab qiladi biroq ko‘pincha buning iloji bo‘lmaydi.

Barter bitimlari mexanizmlarni pullardan foydalanadigan mexanizm bilan almashtirish yoki tovar-pul ayirboshlashga o‘tilishi boshqa barchalaridan tashqari muomala xarajatlarining kamayishiga olib keladi va o‘z navbatida maxsuslashish (spetsifikatsiya) va savdo rivojini rag‘batlantiradi.

Yuqorda aytilganlarni oddiy matritsalar yordamida tasvirlaymiz.

Tovar	1	2	...	...	n
1	1	X <sub>21</sub>	X <sub>...1</sub>		X <sub>n1</sub>
2	X <sub>12</sub>	1			X <sub>n2</sub>
			1		
...				1	
...					1
n	X <sub>1n</sub>	X <sub>2n</sub>			1

### 9.1- chizma. Barter ayirboshlash matritsasi.

Barter ayirboshlash matritsasi  $X_{u-1}$  tovarlarga almashinuvchi 1 tovarlar soni. Xo‘jaliklarda p tovarlar ishlab chiqariladi, deb faraz qilamiz. Unda shu tovarlarni bevosita ayirboshlaganda barter sharoitida ikki xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasiga qo‘yiladi:  $(p(p-1):2U)$  operatsiyasi sodir bo‘ladi. Operatsiyalarning bunday miqdori quyidagicha tushuntiriladi: barter ayirboshlov matritsasi  $(p*p)$  maydonlarda, ya’ni ayirboshlov operatsiyalari. Diagonal bo‘yicha bir xil tovarlarning bir-biriga almashinuvi berilgan bo‘lib, shuning uchun  $(p(p-1))$  real ayirboshlash operatsiyalari qoladi. Birinchi tovarning ikkinchi tovarga ayirboshlov nisbati ikkinchi tovarning birinchi tovarga nisbatan  $1(X_{12}=1:X_{21})$  mos kelgan ekan, ya’ni matritsa simmetrik ekan, ayirboshlashning real operatsiyalari miqdori  $(p(p-1)2)$  bo‘ladi.

Agar ayirboshlash uchun ikki emas, m potensial shariklar bo‘lsa  $m(p(p-1):2)$  ayirboshlov operatsiyalari amalga oshiriladi va unga muvofiq ravishda  $m(p(p-1):2)$  narxlar belgilanadi. Masalan, agar ayirboshlash uchun o‘nta potensial partner va har bir xo‘jalik yurituvchi sub’ekt 40 tadan tovar g/bo‘lsa, bu tovarlarni to‘liq ayirboshlaganda 7800 ta ayirboshlash operatsiyalari amalga oshiriladi  $(10*40(40-1):2)$ . Tovarlarning ayirboshlash bo‘yicha sherik bir tovarga nisbatan o‘z narxlarini belgilaydi va u pul sifatida ishlatiladi. Shunday qilib, o‘lchovning yagona shkalasidan foydalaniladi va unda har bir xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faqat  $m(p-1)$  narxlarni belgilashi kerak, ya’ni bizning misolimizda –  $10(40-1)=390$ .

Misoldan tovar-pul ayirboshlashuviga nisbatan barter ayirboshlovi qo‘shimcha 7410 narxni belgilashni talab qilishi ko‘rinib turibdi, bu esa

ratsional qarorlarni qabul qilish va uni amalga oshirish maqsadlarida qo‘shimcha vaqt sarfini talab etadi. Tovar-pul ayirboshlavi barterga nisbatan samaraliroq ekanligi nima uchun tovar-pul ayirboshlovi barterdan afzal ekanligi va nima uchun odamlar tovar dunyosidan pul deb ataluvchi alohida tovarni ajratishini tushuntirmaydi.

Bu davrda O‘zbekistondagi defitsit iqtisodiyoti sharoitida pul ayirboshlashga muqobil variant - kartochka va talonlar tizimi kiritilgan bo‘lib, unga ko‘ra, tovar bevosita pul emas, kartochka va talonlarga ayirboshlagan. Xaridorlar kartochkasi va talonlarni kiritishdan maqsad davlat tomonidan narxlarni nazorat qilish sharoitalrida talabni cheklash edi. Ammo ma’lumki, bu maqsadga faqat qisman erishildi, chunki talonlar asta-sekin o‘ziga xos xususiyatini yo‘qotib, oddiy bir tovarga aylanib bordi (masalan, sigatert va aroqqa talonlarni pulga sotib olish mumkin bo‘lib koldi).

Pul o‘zi nima? Pul mohiyatining aniq, barcha iqtisodchilar tomonidan tan olingan ta’rifi umuman yo‘q.

Qiymatning markscha mehnat nazariyasida biz shunday definatsiyani topishimiz mumkin: pullar - alohida, ijtimoiy tan olingan tovar – umumiy ekvivalentdir.

Pul nazariyasi masalalari bilan shug‘ullangan va shug‘ulanayotgan ko‘pchilik iqtisodchilar esa ularning mohiyatini pullar bajarayotgan funksiyalardan keltirib chiqarib odamlar tomonidan pul deb tan olinadigan va ularning funksiyasini bajaruvchi hamma narsa pul bo‘lishi mumkin deb qayd etadilar.

### **9.10. Pulning turlari**

Pulning paydo bo‘lishi -tovar muomalasi va qiymat shakllari taraqqiyotning qonuniy natijasidir. Avvaliga qum va quyma holdagi oltindan foydalanilgan. Keyinchalik oltin va kumush tangalarni zarb etib foydalanishgan. Shuning uchun pul asl metallarning timsoli ekan, pul - bu o‘ziga xos tovar, u boshqa tovarlarning umumiy ekvivalenti hisoblanadi, deb aytish mumkin. Ularning iste’mol qiymati (foydaligigi) shundan iboratki, uni istalgan boshqa tovarga almashish mumkin, ya’ni u bevosita ijtimoiy xarakterga ega. Boshqa har qanday tovar kabi pul ham qiymatga ega. Pul eng tez o‘tadigan qadrli, quvvatli tovar.

Oltin standarti hukmronligi sharoitida pulning tabiati haqida turli nuqtai nazarlar vujudga keldi. Masalaning tarixini chetda koldirib, mazkur muammo haqidagi turt asosiy nutkai nazarni aytib o‘tamiz. Shunday qilib, pulning metallashgan nazariyasiga muvofiq, kumush va oltin o‘z tabiiy xususiyatlariga ko‘ra pul hisoblanadi. Pulning nominal nazariyasi pulga faqat nominal hisob

birliqi deb qaraydi. Pulning miqdor bilan bog‘liq nazariyasi pulning qiymatini ularning muomalada bo‘lgan miqdori belgilashidan kelib chiqadi: tovarlar narxsiz, pul qiymatsiz muomalaga kirishadi. Tovar va pul miqdoridan kelib chiqib, almashish jarayonida tovarlar narxga, pul esa qiymatga ega bo‘ladi.

Pulning mehnat bilan bog‘liq nazariyasi (marksistik nazariya) unga o‘ziga xos tovar deb qaraydi, bu tovarning qiymati uni ishlab chiqarish-oltin, kumush qazib olish uchun ketgan xarajatlar bilan belgilanadi.

O‘tmishda oltin ayniqsa, keng shuhrat qozongan. Bu uning fizik xususiyatlari bilan bog‘liq: uzoq vaqt saqlanadi, oson maydalanadi, tashish ham qulay. Buning ustiga uning miqdori tabiatda ancha cheklangan, bu esa nisbatan oz miqdordagi oltinni ko‘p miqdordagi rang-barang tovarlarga almashish imkonini beradi.

Har qanday tovar kabi pulning ham qiymati, narxi bor. Shu munosabat bilan oltinning narxi pasayganida, uni pul o‘rnida hisoblaydigan bo‘lsak, hamma tovarlarning narxi birdaniga ko‘tarilishi kerak. Chindan ham shunday bo‘lgan. Masalan, Amerika kashf etilgandan so‘ng Yevropaga juda ko‘p oltin keltirildi. Bu narx-navoning keskin ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi.

Yuqorida qayd etib o‘tilganidek avvallari pul holatida qat‘iy kundalik talabga ega bo‘lgan va foydaliligi tufayli keng tan olingan (chorva mollari, mo‘yna, tamaki, baliq) tovarlar bo‘lgan. Demak, tovar pullarning birinchi ko‘rinishi bo‘lgan.

Keyin esa muqarrar sur‘atda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, turli-tuman tovarlar pul bo‘lishi mumkin, ammo pul uchun material quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Chidamlilik.
2. Kichik hajmlilik.
3. Barqarorlik.
4. Bir xillik.
5. Taqsimlanuvchanlik.
6. Bilib olmoq va boshqalar.

Qimmatbaho metallar bu talabga javob berganligi tufayli ular mazkur vazifalarni bajarishni o‘z zimmasiga oladi.

Qadimgi Rusda kumush quyilmalar pul xizmatini o‘taganlar. XII asrga kelib kumush to‘lov quymalari - grivnalar paydo bo‘ldi. Keyinchalik pul terminologiyasiga «rubl» kira boshladi. U kumush quymalarini taqsimlash, bo‘lish oqibatida yuzaga keldi (Rubl-rubitdan olingan bo‘lsa kerak).

Ammo pul muomala va jamg'arish vositasi funksiyasini to'lov quymalari sifatida bajarar ekan, haddan og'ir bo'lib, yuqori nominal qiymatga ega, kundalik savdo operatsiyalarini amalga oshirish uchun noqulay edi.

XIV asrning ikkinchi yarmi umumiy pul muomalasining puli sifatida rus kumush tangasini chiqarish boshlanishi bilan xarakterlanadi. Rubl quymadan Petrning pul islohotiga qadar mavjud bo'lgan hisob rubliga aylandi. Bu islohotga muvofiq kumush tanga misga almashtirildi va kumush rubl kiritildi-evropacha tamr ko'rinishidagi hisob grivnasi esa, 10 tiyinli kumush tangaga aylantirildi, muntazam ravishda oltin chervonlar, 1755 yildan boshlab esa, imperiallar va yarim imperiallar chiqarila boshlandi.

Pullar muomala vositasi funksiyasida tovar ayirboshlovda o'tkinchi vositachi sifatida qatnashdilar. Shu munosabat bilan pul materialini arzonlashtirish g'oyasi paydo bo'ldi va o'ziga yo'l ocha boshladi. Natijada, XVIII asr boshlarida yog'och rubl kiritish takliflari o'rtaga tashlandi. I.T.Pososhkov mis tangada rubl nominalini chekanka qilishni taklif qilib, bunday pullar aylanmasini davlat qat'iy ishonch bilan kafolatladi.

Ammo eng to'g'ri keladigan material qog'oz bo'ldi. XVIII asr o'rtalarida Yevropa, Shimoliy Amerika, Rossiyada (1769 yildan boshlab) qog'oz pullar - g'azna banknotlari paydo bo'ldi.

Qog'oz pullar ham tamg'a belgilari bo'lib to'laqonli pullarning vakillaridir. Ular davlat hokimiyati majburiyatini ifoda etib, davlat majburiy kursiga egadirlar. Demak, ularning mumkin bo'lgan qadrsizlanishi nafaqat tovar va xizmatlarga narxlarning ortishi bilan ham bog'liq bo'ladi, balki davlat hokimiyatining almashishi bilan aholining davlatga ishonchi yo'qolishiga ham bog'liqdir.

Bundan tashqari qog'oz pullar qimmatbaho metallarga almashtirilmaydi, tovar aylanmasi ehtiyoji bilan determinatsiya qilinmaydi. Ularning emissiyasi asosan davlat harajatlari va budget defitsitini moliyaviy ta'minlash zarurati bilan bog'likdir. Shunday qilib qog'oz pullarning o'sha emissiyasi bo'lishi mumkin va u ham o'z navbatida bu pullarning qadrsizlanishiga olib keladi. Shuning uchun odatda qog'oz pullardan jamg'arish vositasi sifatida foydalanilmaydi.

Kaznachey veksellari «assignatsiyalar» nomi ostida klassik variantda Rossiyada 1843 yilgacha mavjud bo'ldi. Sobiq ittifoq davrida esa esa ular 1,3,5 rubl qiymatiga ega kaznachey biletleri ko'rinishida mavjud edi.

Kredit munosabatlari rivoji bilan kredit pullari - kredit asosida yuzaga kelgan qiymatning pul birliklari paydo bo'ladi. Kredit pullarning asosan uch ko'rinishi farqlandi: veksel, banknota, chek. Ular muomalaga, masalan, markaziy bank majburiyati sifatida chiqarildi. Bu majburiyatlar qonuniy to'lov

vositasi kuchiga ega bo‘lib, ikki shaklda emitatsiya qilinadilar - naqd pullar va tijorat banklari hamda markaziy bankdagi tashkilotlarning hisobidagi pullar.

Kredit pullarning tarixan birinchi turi - Veksel edi. Veksel belgilangan muddatda ma’lum summani so‘zsiz to‘lash majburiyatidir. Veksel uning egasiga muddati kelishi bilan qarzdordan (veksel beruvchidan) yoki akseptantdan ko‘rsatilgan summani to‘lashni talab qilishga so‘zsiz huquq beradi. Boshqa qarz majburiyatlari bilan solishtirganda veksel quyidagi xususiyatlarga egadir:

- abstraktlilik, chunki unda qarz majburiyatining paydo bo‘lishining konkret sabablari tushuntirilmaydi;

-munozarasiz, so‘zsiz, ya’ni qarzdor qarzining vujudga kelish sharoitlaridan qat’iy nazar to‘lovni amalga oshirish majburiyati;

-muomalalik vekselni naqd pulga aylanish vositasi sifatida foydalanish imkoniyatini beradi. Shu munosabat bilan veksel to‘laqonli pul nomini oldi.

Banknota - kredit pullar turi bo‘lib, XVII asr oxirida paydo bo‘ldi. Klassik banknotaning asosiy belgilari quyidagilardir: birinchidan, u markaziy bank tomonidan tijorat veksellari o‘rniga chiqariladi va ikkinchidan banknotani oltiniga birinchi talab bo‘yicha almashtiriladi. Aytish mumkinki, klassik banknota ikki tomonlama ta’minlanishga ega - vekseli (tovarli) va oltinli (markaziy bankning oltin zaxirasi).

Garchi tijorat vekseli banknotaning asosi bo‘lib xizmat qilsada, ular o‘rtasida qarzdorning, kafolatning va muddatlarning turlari bo‘yicha farqlari mavjuddir:

1) Veksel bo‘yicha qarzdor - bu faoliyat yurgizuvchi tadbirkor-savdogar, sanoatchi, banknota bo‘yicha esa -markaziy bank.

2) Banknotalar barcha tadbirkorlarning bankda saqlanayotgan resurslari ko‘rinishida ijtimoiy kafolatga egadirlar, shuning uchun ular alohida sifatga-umumiy muomalalikka ega bo‘lgan ijtimoiy kredit pullari sifatida chikariladi. Veksel faqat xususiy kafolatga ega, umumiy to‘lov vositasi emas.

3. Banknota muddatsiz majburiyatdir. Veksel muomalasi esa uning to‘lov muddati bilan cheklanadi.

Banknota kredit pullar turi sifatida o‘z rivojida bir qancha bosqichlarni bosib o‘tdi. Eng avval banknota metall asosiga ega edi, ya’ni banknotaning tilla va kumushga erkin almashinuvi mavjud edi. Bunday sharoitlarda qog‘oz pullarning barqaror harid qobiliyati ta’minlanadi.

Ammo kredit pullari ularning metall asoslari bilan uzviy aloqalarining salbiy tomonlari ham bor edi. Ayniqsa, iqtisodiy inqiroz sharoitlarida vaqt-vaqti bilan to‘lov vositalarining defitsiti sodir bo‘lardi. Mamlakatda iqtisodiy

inqiroz davrida, bir tomondan to'lov vositalariga ehtiyoj oshardi, boshqa tomondan esa oltin va boshqa qimmatbaho metallarning chet elga oqishi kreditlarning yig'ishtirilishi va demak veksellar hisob-kitobining qisqarishi kuzatiladi va uning natijasi sifatida to'lov vositalarining defitsiti oshib, inqiroz holatlari chukurlashadi.

Shu bilan bog'lik urush va barqaror iqtisodiy hayotning boshqa buzilishlari davrida kredit pullarni metallga almashtirish to'xtay boshladi. Bu davrlarda pul emissiyasi pul bosuvchi stanoklarning quvvati, qog'oz va bo'yoqlarning mavjudligi bilan cheklanadi. Shunday kilib, Rossiyada 1895-1897 yillarda Rossiya moliya ministri S.Yu.Vitte tomonidan tayyorlangan va amalga oshirilgan islohotga muvofiq, asosiy pul birligi sifatida rubl kiritilgan bo'lib, u uzoq 1914 yilgacha muomalada bo'ldi. Birinchi jahon urushi arafasida uni oltinga almashmay qo'yildi (bu Rossiya oltin zahirasini saqlab qolish maqsadida qilingan edi). Keyinchalik esa banknotalarni oltinga almashtirish qayta tiklanmadi. Ko'pchilik mamlakatlarda oltin standartining demontaji 1933 yilda Buyuk depressiyadan keyin darhol amalga oshirildi. Oltin ichki pul muomalasidan chiqarib olindi (chet ellik dollar egalari 1977 yilgacha dollarni qimmatbaho metallga almashtirish xuquqini saqlab qoldi).

Hozirgi banknotalar emissiyasi oltin bilan bog'lik emas, lekin ana shu emissiyani ushlab turuvchi ma'lum instrumentlar mavjud - avvalo markaziy bank siyosati (bu xaqda «Davlatning pul kredit siyosati» bo'limida batafsilroq so'z yuritiladi).

Chek - belgilangan shakldagi pul hujjati bo'lib, chek egasining kredit beruvchi muassasaga chek olib kelgan kishiga chekda ko'rsatilgan summani to'lash haqida so'zsiz buyruqni o'zida aks ettiradi. Boshqacha aytganda, chek joriy hisob egasining bankka ma'lum summa pulni yoki naqd to'lash yoki boshqa shaxsning joriy hisobiga o'tkazish to'g'risidagi yozma buyruqdir. Chek XIV asrda pul qo'yuvchidan pulni saqlab berilgani uchun olinadigan foiz oluvchi kassirning kvitansiyasi ko'rinishida paydo bo'ldi.

Shunday qilib, chek bankning joriy hisobidan naqd pullarni olish vositasi bo'lib, xarid qilingan tovarlar uchun to'lov va muomala vositasi, qarzni naqdsiz hisob-kitoblar bilan tugatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Chek bilan qarzni to'lash xususiy shaxs qarzini bank tizimining qarziga aylantirish demaqdir.

Cheklar muomalasining rivoji ularni to'lash va chek kitobchalaridagi ko'plab imzolar bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun cheklarni joriy hisoblarda foydalanishda boshqa vositalar bilan almashtirish, xususan kredit kartochkalari bilan almashtirish tendensiyasi vujudga keldi. Kredit kartochkasi - bank yoki savdo firmasi tomonidan chiqariladigan,



bankda hisob egasining shaxsini tasdiqlovchi va unga chakana savdoda naqd to'langan tovar va xizmatlariga ega bo'lish xuquqini beruvchi hujjatdir.

Kartochka tizimining rivoji davomida o'zining vazifasi, funksional va texnik karakteristikasi bilan farqlanadigan plastik kartochkalarining turli ko'rinishlari paydo buldi.

Hisob-kitoblar mexanizmining nuqtai nazarida ikki tomonlama va ko'p tomonlama kartochka tizimlarini farqlanadi. Ikki tomonlama kartochkalar hisob-kitob ishtirokchilari o'rtasida ikki yoqlama bitimlar asosida vujudga keldi va bunda kartochka egalari ulardan kartochka emitenti tomonidan nazorat qiluvchi yopiq tarmoqlarda foydalanishlari mumkin. Ko'p tomonlama tizimlar tovarlarni kreditga turli savdogarlar va servis tashkilotlaridan xarid qilish imkonini beradi, chunki bu kartochkalarni to'lov vositasi sifatida taklif qiladilar.

Kartochkalarining boshqa bo'linishi ularning funksional karakteristikalari bilan belgilanadi. Bu yerda kredit va debet kartochkalari farqlanadi. Kredit kartochkalar bankda kredit liniyalarini ochish bilan bog'liq bo'lib, ular egasiga kreditdan xarid qilish va kassa ssudalarini olish imkonini beradi. Debet kartochkalar ham naqd pul olish yoki tovarlar harid qilishga mo'ljallangan. Ammo pullar bu holda bankda kartochka egasining hisobidan o'chiriladi.

Amalga oshirilgan to'lovlar haqida bankni xabardor qilish usullarida farqlar mavjud. Qog'oz texnologiyasiga asoslangan tizimdan foydalanilganda kartochka egasi savdo hisobi yoki boshqa hujjatlarga imzo qo'yadi va bu o'z hisobini debet qilishiga ruxsat bo'lib xizmat qiladi. Keyin bu hisobda yozilgan summani savdogarga o'tkazish uchun bankka yuboriladi. Elektron tizimlarda kartochka egasi element bilan terminal orqali to'g'ridan – to'g'ri bog'lanadi.

Hozirgi zamon ko'rinishidagi birinchi kartochkalar AQShda o'tgan asrning 50-yillarida paydo bo'ldi. Keyinchalik minglab bank-ishtirokchilarini birlashtirgan yirik assotsiatsiyalar yuzaga keldi. Bugun amalda AQShning butun aholisi bank kartochkalariga ega bo'lib, ularning katta qismi bir nechta turlicha kartochkalarga egadirlar. Kartochka bilan hisob-kitob qilish tizimi jahonning ko'p mamlakatlariga yoyilib, hisob-kitoblar xalqaro xarakterga egadir. O'zbekistonda bank plastik kartochkalari bir necha yil avval paydo bo'ldi.

Yuqorida aytilganlardan tashqari gohida «pochta-pullar» deb ataluvchi pullar ham mavjud. Bu likvid aktivlari bo'lib, ular qayd kilingan nominal qiymatga ega, naqd pulga yoki chek qo'yilmalariga oson aylanadi. Ulardan bevosita muomala vositasi sifatida foydalanilmaydi, ammo ular pulning qiymatini (boylikni) saqlash funksiyasini muvaffaqiyatli bajaradi, "Pochta-

pullarga" cheksiz omonat hisoblari, tezkor qo'yilmalar va qisqa muddatli davlat qimmatbaho qog'ozlari kiradi.

### **9.11. Pul massasi va pul aylanmasi tushunchasi. Pul muomalasi qonunlari**

*Pul agregatlari.* Bozor iqtisodiyotiga o'tilgan mamlakatlarda pullarning turli xil guruhlari qo'llanadi. Ular pul agregatlari, deb nomlanadi va muomaladagi pul massasining muqobil o'lchamlari bo'lib xizmat qiladilar. Quyidagi pul agregatlari ma'lum:

- **M1** -unga nakd pullar, (talabgacha) hisoblari, boshqa chek qo'yilmalari, yo'l cheklari, ba'zida kredit kartochkalari kiradi.

- **M2-M1+** uncha katta bo'lmagan, zudlik bilan qo'yiladigan va boshqa onson likvid jamg'armalaridan (ya'ni onson naqd pulga aylantiriladigan jamg'armalar) tashkil topgan.

- **M3- M2+** yirik o'lchamdagi qo'yilmalardan tashkil topgan.

- **M4-M3+** yirik tijorat banklarining depozit sertifikatlarini o'ziga kiritadi.

AQShda pul massasini aniqlash uchun to'rtta pul agregatlaridan foydalanadilar, Yaponiya va Germaniyada-uchta, Angliya va Fransiyada esa, ikkita.

Jamlanma pul massasini hisob-kitob qilish uchun RFda quyidagi pul agregatlari nazarda tutilgan:

**MO**-naqd pullar.

**M1- MO** agregatga teng va yana unga hisob-kitobli, joriy va boshqa hisoblar, tijorat banklaridagi qo'yilmalar, jamg'arma bankdagi muddatidan oldin talab qilinadigan depozitlar qo'shilgan.

**M2-M1+** jamg'arma bankdagi zudlik bilan qo'yiladigan qo'yilmalardan tashkil topgan.

**M3-M2+** davlat zayom (qarz)larining depozit sertifikatlari va obligatsiyalarini o'z ichiga oladi.

#### **Naqd va naqdsiz pul aylanmalari**

Pul aylanmasi-tovarlar realizatsiyasiga hamda xo'jalikdagi tovarsiz to'lovlar va hisob-kitoblarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi naqd va naqdsiz shakldagi pullar harakatidir. Va shunga muvofiq pul aylanmasi doirasiga naqd pul muomalasi va naqdsiz shakldagi harakatini farqlaydilar.

Naqd pul muomalasi banknotalar, almashtiruv tangalari va qog'oz pullari (hazina biletlarining) ko'rinishidagi naqd pullarning harakatidir. Naqdsiz aylanma kliyentlar hisobidagi mablag'larning harakatidir.

Pul agregatlari<sup>57</sup>, mlrd. so‘m

Sana	Keng ma'nodagi pul massasi (M2)*	jumladan:					
		Milliy valyuta dagi pul massasi	shundan:				Chet el valyutasidagi depozitlar <i>milliy valyuta ekvivalentida</i>
			Pul massasi (M1)**	shundan:		Milliy valyuta dagi boshqa depozitlar	
				Muomala dagi naqd pullar (M0)	Milliy valyutadagi talab qilib olinguncha depozitlar		
<b>1</b>	<b>2=3+8</b>	<b>3=4+7</b>	<b>4=5+6</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>8</b>
01.03.2019	79 435	51 825	35 310	21 198	14 113	16 515	27 610
01.06.2019	87 473	59 375	40 556	23 878	16 678	18 818	28 099
01.09.2019	92 375	62 106	42 094	25 587	16 506	20 012	30 269
01.12.2019	90 145	61 221	40 983	23 976	17 007	20 237	28 924
01.01.2020	91 266	62 786	42 670	24 246	18 424	20 116	28 480
01.02.2020	89 989	60 931	39 984	22 514	17 470	20 947	29 058
01.03.2020	88 491	61 020	40 042	22 227	17 815	20 978	27 471

Naqdsiz hisob-kitoblarning shakllari turli-tuman bo‘lishi mumkin. Ular alohida mamlakatlarning tarixiy-iqtisodiy xususiyatlariga, kredit tizimining spetsifikatsiyasiga, elektron aloqa vositalari rivoji, bank ishining kompyuterlashuvi darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Cheklar, akkredetivlar, kredit kartochkalari, elektron o‘tkazmalar, yozma buyruqlar, veksellar, sertifikatlar, O‘zbekistonda – shular bilan birga, to‘lov topshiriqlari va to‘lov talab topshiriqlari hamda yuqoridagilar eng ko‘p tarqalgandir.

Naqdsiz muomalasi pul muomalasining tobora moddiylashtirilishini shartlantirib, ustun bo‘lib bormoqda.

Buning sabablari quyidagilardir: 1) muomala xarajatlarini qisqartirish; 2) pul aylanishini tezlashtirish; 3) naqd pulsiz hisob-kitoblarning qulayligi.

Ammo iqtisodiy hayotning ayrim sohalarida pullarning mavjudligi o‘zining muhim ahamiyatini saqlaydi.

Birinchidan, bitimlarning bir tomonida aholi bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasida aholining nisbatan oz qismi naqdsiz hisob-kitobdan foydalanadi, garchi rivojlangan bozor iqtisodiyoti hukm surayotgan mamlakatlar uchun vaziyat kardinal ravishda o‘zgaradi (masalan, AQShda ish xaqini band aholining 6% foizidan ortig‘rog‘i oladi).

Ikkinchidan, inqirozli holatlar sharoitida iqtisodiy agentlarning ko‘pchiligi nakd pulga ega bo‘lishga intiladilar.

<sup>57</sup> Пул агрегатлари. <https://cbu.uz/oz/statistics/dks/134763/>

Uchinchidan, naqd pul aylanmasini nazorat qilish qiyin. U soliqlarni to'lashdan bosh tortish va boshqa noqonuniy harakatlar vositasi sifatida chiqishi mumkin.

Naqd pulli va nakdsiz muomala o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud: pullar doimo pul muomalasining bir sohadan ikkinchisiga o'tib turadilar. Demak, aynan naqdgina odamga qulaylikni ta'minlaydi, chunki xarid uchun zarur mablag'lar uning cho'ntagida bo'ladi va har bir xarid uchun uning bankka borish zaruriyati yo'qdir.

Ammo pullarni naqd holatda saqlash odamni qo'yilmalar bo'yicha foizlar olish imkoniyatlaridan mahrum qiladi. Demak, naqd pullarning afzalliklari va kamchiliklarini tarozga solib ko'rish va qancha naqd pulga ega bo'lish, qanchasini esa, bankka qo'yishni hal qilish kerak.

Naqd pul massasini boshqarish modeli 50-yillarda iqtisodchilar U.Baumol va J.Tobinlar tomonidan ishlab chiqilgan va Baumol – Tobin modeli nomini olgan. Bu modelga muvofiq bankka tashrif buyurishning optimal sonini yoki naqd pullarning optimal summasini ana shu summaga olinmagan bank foizi va bankka kamroq borgani tufayli vaqtdan qilingan iqtisod qiymatli bahosi ko'rinishidagi zararlar nisbatan kelib chiqqan holda belgilash yoki aniqlash mumkin.

Faraz qilamizki, siz bir yilda  $V$  pul birligini sarflashga qaror qildingiz. Narxlarni doim bir xil deb olganimizda, sizda o'z xatti -harakatingizning bir necha varianti bor: 1) bankdagi hisobdan  $V$  pul birligidagi barcha olish va naqd pul ko'rinishida yil davomida qo'lda tutish; 2) bankdagi hisobdan  $V$  pul birligidagi summani yil davomida bo'lib olish mumkin. Qaysi variantni siz afzal ko'rasiz?

Birinchi variantda aftidan qo'yilmalar bo'yicha olinmagan foizlar ko'rinishidagi zararlar talaygina bo'lishi mumkin, shu bilan bir vaqtda, ikkinchi variantda bankka bir martadan ortiq borish natijasida bankka borishning o'zi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar (bankka borish va qaytish, bankda bo'lish, navbatda vaqt yo'qotish va boshqalar), ya'ni to'zigan poyafzallar xarajatlari ortib boradi.

Agar siz ikkinchi variantni tanlasangiz qo'llardagi nakd pullarning optimal o'rtacha miqdori va bankka borishning optimal soni to'g'risida savol tug'iladi.

Birinchi variantda yil davomida qo'llardagi nakd pullarning o'rtacha miqdori  $V/2$  bo'lganda (yil boshida  $V$  pul birligi, 0 esa, yil oxirida) bankka borish soni – bir marta.

Agar siz bir yilda 2 marta bankka borib  $V/2$  pul birligidagi summani ikki marta olsangiz, qo'ldagi pul o'rtacha miqdori yil davomida  $V/4$  ( $V/2$ -yil

boshida va yil oxirida). Agar siz bankka 4 marta tashrif buyurib,  $V/4$  pul birligida summani bir yil davomida 4 marta olsangiz qo'llardagi naqd pulning o'rtacha miqdori yil davomida  $V/8$  va hokazo bo'ladi. Bankka berish va har safar  $V/N$  pul birligining o'rtacha miqdori summasi olinganda qo'llardagi naqd pullarning o'rtacha miqdori yil davomida  $V/2N$  pul birligiga teng bo'ladi.


$V/2N$  pul birligi summasi qancha kichik bo'lsa, qo'yilgan qo'yilma bo'yicha olinmagan foiz ko'rinishidagi zararlar shuncha kichik bo'ladi, ammo bankka qatnash bilan bog'liq xarajatlar shuncha katta bo'ladi.

Bankka tashrif buyurishning soni qanday tanlanadi ( $N^*$ )? «to'zigan poyabzallar xarajatlari» bankka qilingan bir tashrif  $G'$  pul birligida qo'yilma bo'yicha foiz stavkasi-1 bo'lsa, unda qo'yilma bo'yicha olinmagan foiz ko'rinishidagi zararlar bir yil davomida qo'llardagi naqd pullar o'rtacha kattaligining foiz stavkasiga ko'paytmasiga teng bo'ladi:  $V/2Nxi$ .

Bankka tashrif buyurish xarajatlarining umumiy summasi –  $G'XN$ , unda birgalikdagi xarajatlar  $S=V/2N:i+G'N$  ga teng bo'ladi.

9.2-chizmada olinmagan summasi natijasida qilinadigan jamlanma xarajatlar bog'liqligi va bankka qatnash xarajatlarining grafik tasviri berilgan.

9.2-chizmada ko'rsatilganidek, olinmagan foizlar summasi bankka qatnashish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlardan ( $G'N$ ) ortiq bo'lar ekan, pullarni saqlashning birgalikdagi xarajatlari ( $S$ ) pasayishi tendensiyasiga ega bo'ladi. Bankka qatnash xarajatlari ( $G'M$ ) olinmagan foizlar summasidan ( $V/2Nxi$ ) ortsa, birgalikdagi xarajatlar ( $c$ ) ham orta boshlaydi. Demak,  $S$  ning minimumi bankka qatnash xarajatlari garfigi bilan olinmagan foizlar grafigining kesishgan nuqtasida erishiladi.



**9.2-chizma. Pul saqlashning yalpi xarajatlari.**

9.2-chizmada pullarni saqlashning birgalikdagi xarajatlari minimumi  $(s)N^*$  nuqtasida erishildi. Shuning uchun  $N=N^*$ , bu yerda,  $N^*$ -bankka qatnash soni bo'lib, unda pullarni saqlashning birgalikdagi xarajatlari minimallashtiriladi, boshqacha aytganda,  $N^*$ -bankka qatnashning optimal soni.

$N=N^*$ da bankka qatnash xarajatlari egri chizig'i va olinmagan foizlar egri chizig'i  $V$  nuqtada kesishadi va bu yerda bankka qatnash xarajatlari va olinmagan foizlar bilan bog'liq xarajatlar teng, ya'ni  $FN^* = V2N^*i$ .

$N = \sqrt{iV/2F}$  bu yerda  $N=N^*$  bo'lganda yil davomida qo'llardagi naqd pullarning o'rtacha summasi  $M = V/2N^* = V/(\sqrt{Vi/2F})$  bo'ladi.

Buni oddiylashtirib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$M^2 = V^2 * 2F / 4Vi = VF / 2i * M = \sqrt{VF / 2i}.$$

Demak, aholining bankka qatnash bilan bog'liq harakatlari ( $G'$ ) qancha yuqori bo'lsa, uning qo'lidagi yil davomida sarflamoqchi bo'lgan naqd pullari ( $V$ ) shuncha ko'p va foiz stavkasi shuncha kam ( $i$ ) bo'ladi.

Baumol-Tobin modelidan boylikni pul shaklidagi aktiv aksiyalar va obligatsiyalar shaklidagi pul aktivlariga taqsimlashning optimal variantini tanlashda foydalanish mumkin. Bu holda  $i$  boylikni pul va pul aktivlar ko'rinishda saqlashdan keladigan daromadlar farqi,  $aG'$ -pulsiz aktivlarni pulga aylantirish sarflari (masalan, dallollik xizmatlari uchun sarflar),  $aN$ -yil davomida shunday aylantirishlar soni.

Bundan tashqari, Baumol-Tobin modeli naqd pullarga talab daromadga ( $V$ ) to'g'ri proporsional va foiz stavkasiga ( $i$ ) teskarii proporsional.

Turli shakldagi pul muomalasi iqtisodiy qonun bilan tartibga solib ko'riladi va u tovarlar massasi bilan ular narxi darajasi va pul muomalasi tezligi o'rtasidagi iqtisodiy bog'liklikni ifodalaydi.

**Muomaladagi pullar miqdori.** K.Marks muomalaga zarur bo'lgan pullar miqdorini quyidagicha belgilaydi:

$$\text{Muomaladagi pullar miqdori} = \frac{\begin{array}{l} \text{Realizatsiya qilinayotgan tovarlar narxi summasi} - \\ \text{Kreditga sotilgan tovarlar narxi summasi} + \\ \text{Majburiyatlar bo'yicha to'lovlar summasi} - \\ \text{O'zaro yordam beruvchi to'lov summasi} \end{array}}{\text{Muomala va to'lov vositasi sifatida} \\ \text{pullar aylanmasining o'rtacha soni}}$$

**Muomaladagi pullar miqdori.** K.Marks pul funksiyasini oldin bajargan sharoitlarida muomala uchun zarur bo'lgan pullar miqdori stixiyali ravishda tartibga solib turiladi, deb qayd etgan edi: agar pullar unga bo'lgan real talabdan ortiq bo'lsa, oltin muomaladan xususiy tezavratsiyaga ketadi, agar pulga ehtiyoj ortsa, unda oltin jamg'armadan muomalaga chiqariladi. Xuddi

shunday vaziyat olinga erkin almashinuvchi banknotalar muomalasi holatida ham sodir bo‘ladi. Olinga almashinmaydigan pullar muomilasi holida esa, muomala uchun zarur pullar miqdori davlat tomonidan tartibga solib turilishi kerak. Marksistik konsepsiyaga binoan, qog‘oz pullar emissiyasi, muomala uchun zarur bo‘lgan oltin pullarning nazariy miqdori bilan cheklangan bo‘lishi lozim.

Iqtisodiyotda boshqa nuqtai nazar ham bo‘lib, uni pullarning miqdoriy nazariyasi vakillari va monitaristik konsepsiya tarafdorlari qo‘lalab-quvvatlaydilar.

Yuqorida qayd etilganidek, amerika iqtisodchisi I.Fisher ayirboshlashning quyidagi tenglamasini shakllantirdi:

$$M*V=P*Q$$

Boshqacha aytganda, muomaladagi pullar miqdori ularning oldi-sotdi aktlari (V), aylanmalarining soniga ko‘paytmasi yil davomida iqtisodiyotga sarflangan pul mablag‘larining birgalikdagi hajmiga teng bo‘ladi.

**Pul tizimi tushunchasi.** Pul tizimi malakatda tarixiy shakllangan va milliy qonunchilik bilan mustahkamlangan pul muomlasini tashkil qilishning shaklidir. Pul tizimlari XVI-XVII asrlarda shakllangan bo‘lsada, uning alohida elementlari ancha oldinroq paydo bo‘lgan. Pul tizimlarida ular rivoji davomida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lgan.

Pul tizimi turi pulning qanday shaklida faoliyat ko‘rsatishiga bog‘liq. Ana shu bilan bog‘liq ravishda pul tizimlarining ikki turi ajratiladi: -metalli muomala tizimi, unda pulli tovar bevosita muomalada bo‘ladi va pullarning barcha funksiyalarini bajradi, kredit pullar esa, metallga almashiladi; - kredit va qog‘oz pullar muomalasi tizimi, bunda oltin muomiladan siqib chiqarilgan.

Hozirgi zamon pul tizimi tushunchasi quyidagi elementlarni o‘zida ifoda etadi: pul birligi; narxlar ko‘lami; pul turlari; emission tizim; davlat yoki kredit apparati.

Pul birligi - bu qonunchilik tarkibida belgilangan pul belgisi bo‘lib, u barcha tovarlarning narxlarini o‘lchash va ifodalash uchun xizmat qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda emission tizim huquq asosida markaziy bank tomonidan bank biletlarini va davlat hazinasi tomonidan hazina biletleri va tangalarini chiqarishni bildiradi.

Hozirgi pul tizimlarining xarakterli belgilari quyidagilardir:

- banknotalarning rasmiy oltin mazmuni, ta‘minoti va banknotalarini olinga almashtirishni bekor qilish;
- olinga almashib bo‘maydigan, keyinchalik qog‘oz pullarga aylanadigan kredit pullarga o‘tish;

- pullarni muomalaga nafaqat xo‘jalikni bank tomonidan kreditlashtirish tartibida, balki ko‘p jihatdan davlat safrlarini qoplash uchun chiqarish (asosan, davlat qimmatbaho qog‘ozlarini chiqarish);

- pul muomalasida naqdsiz aylanmaning ko‘proq bo‘lishi;
- pul muomalasining davlat tomonidan tartibga solishining kuchayishi.

O‘zbekiston Respublikasi pul tizimi faoliyatining huqukiy asosi bo‘lib «O‘zbekiston Respublikasining pul tizimi to‘g‘risida»gi 1994 yil qonuni xizmat qiladi. Bu qonunga ko‘ra O‘zbekistonda rasmiy pul birligi (valyuta) sifatida belgilanib, boshqa pul birliklari chiqarish man etilgan. So‘m va oltin hamda boshqa qimmatbaho metallar o‘rtasidagi nisbat rasman belgilangan emas, naqd pullarni chiqarishni tashkil qilish va ularni muomaladan olishning huquqi O‘zbekiston hududida faqat O‘zbekiston Markaziy bankiga tegishlidir.

Namunasi O‘zbekiston Markaziy Banki tomonidan tasdiqlanadigan qonuniy to‘lov kuchiga ega bo‘lgan banknotalar va metall tangalar – pullardir. U o‘zlarining ko‘rsatilgan qiymatlari bo‘yicha butun O‘zbekiston hududida barcha to‘lov turlari uchun qabul qilishga hamda hisoblarga, qo‘yilmalarga, ankreditivlarga va o‘tkazishlar uchun qabul qilinishiga majburdirlar.

Kelgusi bobdagi sotsial-iqtisodiy ehtiyojlarni tadqiqot qilishdan oldin, shu yuqorida aytib o‘tilgan bobdagilardan qisqacha xulosalar chiqaramiz.

### **Qisqacha xulosalar**

Tovar ishlab chiqarish va pulning paydo bo‘lishi bu umuman, iqtisodiyot nazariyasi fanining eng asosiy muammolaridan bo‘lib hisoblanadi.

Albatta, tovar ishlab chiqarish davrigacha bo‘lgan natural ishlab chiqarish u kishining o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun mahsulot yaratadilar, ya‘ni xo‘jalik yuritish shakli bo‘lgan natural ishlab chiqarish (xo‘jalik) bu tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning yopiq tizimi bo‘lib hisoblanadi. Bu xo‘jalik usuli uchun ishlab chiqarish -mahsulot yaratish bilan iste‘mol o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy aloqalar xos. Bularning keyinchalik rivojlanishi asosida tovar ishlab chiqarish paydo bo‘lgan, bu xo‘jalik tashkil etishning shunday bir turiki, foydali mahsulotlar ularni bozorda sotish uchun ishlab chiqariladi. Avvalambor, tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi sabablaridan biri-ijtimoiy mehnat taqsimoti hisoblanadi.

Tovar almashish paydo bo‘lishi bilanoq, bo‘lajak pulning shakllanish jarayoni boshlangan bu qiymatning oddiy, kengaytirilgan shakllarida namoyon bo‘lgan. Dastlabki vaqtlarda pul rolini har xil qimmatbaho narsalar-kumush, oltin tangalari o‘ynaganlar. Keyinchalik almashuv rivojlana borishi bilan qog‘oz pullari paydo bo‘ladi.



O‘zbekistonda milliy QOG‘OZ pullar mustaqillik davrida, ya’ni 1994 yil 1chi iyundan boshlab milliy valyuta sifatida muomalaga chiqarildi.

Pul bu bir tovarning ikkinchi tovarga bevosita almashishini amalga oshiradigan barterdan farqli ravishda vaqt va fazo jarayonini xarid jarayonidan ajratish imkonini beruvchi vositadir.

### **Asosiy tushunchalar**

Tovar-tovar ishlab chiqaruvchilar mehnatining natijalidir.

Pul funksiyalari-xozirgi zamonda uchta asosiy funksiyalarni bajaradi: muomala va jamg‘arma vositalari hamda qiymat o‘lchami.

### **Seminar darslarini muhokama qilish uchun savollar**

1. Pulning paydo bo‘lishi va zarurligi.
2. Hozirgi zamon pullari va ularning funksiyalari.
3. Pul muomalasi qonunlari.

### **Mustaqil talim uchun savollar**

1. Natural xo‘jaligi bilan tovar xo‘jaligining qanday farqi bor?
2. Pulning har xil funksiyalarni bajarishda pul turlarini solishtirish qanday natijalarga ega bo‘ladi?
3. Pul turlari bir xil miqdorda o‘zining funksiyalarini bajaradi.

## **10 BOB. IQTISODIYOT FANINING QIYMAT TO‘G‘RISIDAGI TURLI ILMIY-NAZARIY KONSEPSIYALARI**

### **Qiymat nazariyasida inqilob**

Naflilik nazariyasi katta uslubiy ahamiyatga ega bo‘lgan cheklangan resurslardan optimal foydalanish asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muammosiga yangicha ilmiy yondashuvga asos soldi. Amaliy iqtisodiy fanlarda qo‘llanila boshlangan eng so‘nggi chegara tamoyili iqtisodiyot nazariyasida birinchi bor foydalanildi. Iqtisodiy tahlilda og‘irlik markazi sarf-xarajatlar ustuvorligidan pirovard natijalarga ko‘chirildi. Qiymat nazariyasida inqilob sodir bo‘ldi. Va nihoyat, iqtisodiyot nazariyasi birlamchi sifatida shaxsning iqtisodiy xulqi sababini qabul qildi, ya’ni insonga, ishlab-chiqaruvchi va iste’molchiga yuz o‘girdi.

### **10.1. Qiymat - iqtisodiyot faninig asosiy muammosi**

Qiymat, aniqrog‘i qadrilik iqtisodiyot fanining asosiy muammolari sirasiga kiradi. Bu ko‘rib chiqilayotgan masalalarning chuqurligi va doirasi bilan izohlanadi. Qiymat nazariyasi asosida iqtisodiyot sub’ektlari faoliyatining maqsad va sabablari aniqlanadi, iqtisodiy resurslar va daromadlarni taqsimlash variantlari tanlanadi, bozor ayirboshlash jarayoni harakat qiladi. Bu demak, qiymat nazariyasi iqtisodiyot organizmining nazariy konstruksiyasi quriladigan poydevordir.

#### **Ingliz klassik siyosiy iqtisodi**

Qiymat nazariyasini ishlab chiqishga ingliz klassik siyosiy iqtisodi nomini olgan iqtisodiy maktab birinchi salmoqli hissa qo‘shdi. U.Petti, A.Smit, D.Rikardo shu maktabning vakillaridir. Ularning qarashlari keyinchalik K.Marks asarlarida o‘z rivojini topdi. Klassik maktab iqtisodiy tahlilning yagona boshlanuvchi kategoriyasi sifatida qiymatni tan olib, undan gnesologik daraxt sxemasi kabi boshqa kategoriyalar o‘sib chiqadi, deb qayd etadi. Ingliz klassik siyosiy iqtisodi moddiy ne‘mat va ishlab-chiqarish jarayoniga mehnat sarflari natijasida yuzaga keladigan daromad manbalari belgilovchi qiymatining mehnat nazariyasini ilgari surdi.

«Boylikning otasi - mehnat, tabiat esa uning onasi», degan fikr U.Pettiga tegishli. Ammo U.Petti ham merkantilizm ta’siridan xalos bo‘la olmadi. Uning qiymat nazariyasi pulning qiymatiga asoslangandir.

U.Pettining fikricha, mahsulot uchun olinadigan pulning miqdori uning qiymatini belgilaydi, hatto to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat sarflari orqali emas, balki bilvosita pul-kumush va oltin ishlab chiqarishga ketgan sarflar orqali belgilanadi. Uning fikricha, qiymatni har qanday mehnat emas, balki kumushni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat barpo etadi.

A.Smitning fikricha esa, qiymat sarflangan mehnat bilan belgilanib, bunda mehnat qiymatning umumiy o'lchamidir. A.Smit ishlab chiqaruvchi mehnatning barcha turlari tengligini aytar ekan, qiymat alohida bir odamning sarflangan mehnati bilan emas, ushbu ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasining o'rtachasida belgilanadi, deb qayd qiladi. Narx tashkil qilish muammosini ko'rib chiqar ekan, A.Smit ikki qoidani ilgari surdi. A.Smitga ko'ra tovar narxi, **birinchidan**, unga sarflangan mehnat bilan belgilanadi; **ikkinchidan**, mehnat sarfi, daromad, kapitalga foiz, yer rentalaridan tashkil topadi, ya'ni ishlab chiqarish xarajatlari bilan belgilanadi.

D.Rikardo narxlarning yagona so'nggi asosi, deb mehnatni hisoblagan. Uning nazariyasiga ko'ra tovarning almashuv qiymati (ya'ni ayirboshlashda tovarlar miqdorining munosabati) ularni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat miqdoriga to'g'ri proporsional, mehnat unumdorligiga esa teskari proporsionaldir. Mehnat sarflarining o'lchovi sifatida D.Rikardo ish vaqtini belgiladi. A.Smit pozitsiyani aniqlashtirgan hol shu bo'ldiki, tovarlar qiymatida nafaqat ularni ishlab chiqarishga sarflangan mehnatni, balki moddiylashtirilgan kapital tovarlar (ishlab chiqarish qurollari) ishlab chiqarishga sarflangan mehnatni ham hisoblash kerak.

### **Ishlab chiqarish omillari nazariyasi**

A.Smit va D.Rikardo asarlaridan so'ng iqtisodiyot fanida hukmron mavqeini ishlab chiqarish omillari, deb nomlanuvchi nazariyalar egalladi. Bu nazariyalarning asosiy namoyondalari fransuz iqtisodchisi J.B.Sey va ingliz iqtisodchisi J.S.Mill edilar.

Ularning qarashlariga binoan, qiymatning vujudga kelishi ishlab chiqarishning qandaydir bir omili (masalan, mehnat bilan) harakati emas, bir qancha omillari bilan bog'liq edi. Ishlab chiqarishning asosiy omillari uch ko'rinishga ega: mehnat, kapital va yer. Ishlab chiqarish omillari nazariyalarining ko'pchiligida qiymatni vujudga keltiradigan omillar mana shular hisoblanadi. Ikkinchidan, qiymat daromadlar yig'indisi sifatida, daromadlar esa, o'z navbatida ishlab chiqarish omillarining natijasi sifatida qaralardi. Uchinchidan, ko'p hollarda asosiy daromad ish haqi, tadbirkorlik daromadi, foiz va renta hisoblanardi.

**Qiymatning mehnat nazariyasi.** XIX asrning o'rtalarida qiymatning mehnat nazariyasi quyidagi asosiy qoidalardan iborat edi: 1) ne'matning qiymati vaqtinchalik (bozor) va doimiy (tabiiy) bo'ladi. Keyinchalik markaz bo'lib, avvalgisi uning atrofida tebranadi va unga intiladi; 2) bozor qiymati talab va taklif bilan belgilanadi. Bunda talab o'z navbatida bozor qiymatiga bog'liq bo'ladi; 3) tabiiy qiymat takror ishlab chiqarilmaydigan va erkin takror ishlab chiqariluvchi tovarlar uchun turlicha belgilanadi. Birinchi holda ularga

monopol vaziyatlar ham kiradi, u ne'matning cheklanganligiga bog'liq bo'ladi. Ikkinchisida ko'proq uchraydigan hollar, tovarni ishlab chiqarish va uni bozorga keltirish xarajatlarining kattaligiga bog'liq bo'ladi; 4) ishlab chiqarish xarajatlari ish haqi, kapitaldan keladigan foydadan iborat bo'lib va oxiri sarflangan mehnat miqdori bilan belgilanadi. Shunday qilib, klassik modelda narxlarning o'rtacha darajasi ishlab chiqarishda belgilanadi va xarajatlarga bog'liq bo'ladi. Tovarning taklifi esa, qo'yilgan narxdan kelib chiqadigan talab bilan belgilanadi. Klassik nazariyaga ziddiyatli qoidalar xos edi.

**Birinchidan**, har qanday jamiyatda «xarajatlar nazariya» sidan kelib chiqqan ishlab chiqarishni cheksiz ko'paytirish imkoniyati mavjud emas.

**Ikkinchidan**, tovarga talabni belgilovchi asosiy omillar o'rganilmay qolgan. **Uchinchidan**, klassik qiymat nazariyasi (erkin takror ishlab chiqaruvchi va takror ishlab chiqarilmaydigan ne'matlar uchun mutlaqo turlicha tushintirishlar) qiymatning mohiyatini ochib beradigan tekis, izchil va har tomonlama to'liq nazariyani yaratishga intilayotgan olimlarga tinchlik bermasdi.

### **Eng yuksak naflilik nazariyasi**

Yangi iqtisodiy konsepsiya eng yuksak naflilik nazariyasi vakillari qiymatni belgilashda boshlang'ich holat sifatida insonning buyumga munosabatini turli ne'matlarning foydaliligiga shaxs tomonidan berilgan sub'ektiv bahoni tanladilar.

## **10.2. Marjinalistik inqilobning asoschilari va o'tmishdoshlari**

**Qiymat nazariyasida inqilob.** «Qiymat» so'zi XIX asrning oxirida va XX asrning boshlarida nemischa «qimmat baho», «baholi», degan so'zdan tarjima qilingan edi. O'tgan asrning keyingi uch yilligida qiymat nazariyasida chinakam inqilobiy voqealar sodir boldi. Inqilobni inglizlar Uilyam Stenli Djevons, Alfred Marshall, avstriyalik Karl Menger, Fridrix fon Vizer va Oygen fon Byom-Báverk, shveysariyalik Leon Valras, amerikalik Jon Beyts Klark, shved Knut Viksell, italiyalik V.Pareto amalga oshirdilar. Qiymat to'g'risidagi masalani (chegaraviy naflilik nazariyasi) hal qilishga prinsipial yangicha yondashishni yaratish va rivojlantirish birinchi navbatda ularning nomi bilan bog'liq. Bu yangicha yondashuv «marjinalistik inqilobi» nomini oldi (marginal -inglizchadan **chegaraviy** degani) Marjinalistik inqilobining mohiyati quyidagichadir:

**Birinchidan:** konkret iste'molchi uchun uning sub'ektiv foydaliligi asosida qiymat nazariyasiga ne'matlarni baholashning yangi prinsipi kiritildi.

**Ikkinchidan**, chegaralik prinsipidan foydalanilgan bo‘lib, qo‘shma va o‘rtacha kattaliklar tahlilidan, eng yuksak tahliliga, ya‘ni qo‘shimcha kattaliklar tahliliga o‘tish.

**Uchinchidan**, eng yuksak kattaliklarning izchil o‘zgarishlari tahliliga o‘tish iqtisodiy nazariyada matematik uslublar qo‘llanilishiga yo‘l ochib, iqtisodiy tahlil taraqqiyotiga yordam berdi (albatta, bozorda ist’emolchilarning ishlab chiqarilgan mahsulotlariga bergan bahosisiz samarasi bo‘lishi mumkin emas edi. Shubhasiz qiymat bu avvalambor, almashuv kategoriyasidir). Qiymat nazariyasidagi yangi sub’ektiv yo‘nalishning ajdodi hamda iqtisodiy nazariyada matematik uslublarni keng qo‘llashning asoschisi O.Kurno (1801-1877) bo‘lib, u «Boylik nazariyasida matematik prinsiplarning izlanishlari» (1838) asarining muallifidir. Funksional o‘zaro bog‘liqlik tahliliga asoslanib, O.Kurno iqtisodiy muvozanat tushunchasini shakllantirdi va birinchi bor  $D=F(p)$  formulasini yaratdi. Bu yerda **D**-talab, **P**-narxlar, **F**-funksiya. U talab narxning funksiyasi ekanligini ko‘rsatdi. Marjinalist inqilobining birinchi bosqichida avstriya maktabi bo‘lgan. Avstriya maktabi ko‘zga ko‘rinarli vakillarining qarashlari uzviy bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldirgan. Masalan, Menger chegaraviy naflilik nazariyasi asoslarini ayirboshlashning individual faktlarini qo‘llagan holda ishlab chiqdi. «Eng yuksak foyda» terminini muomalaga kiritgan Vizer bu nazariyadan ishlab chiqarish xarajatlarini baholashda foydalandi. Bem-Baverk esa, o‘zidan avvalgilarning qarashlarini yanada rivojlantirdi. Avstriya maktabi iste‘mol tovarlari bozorlarida narxlarning shakllanishini alohida individlarning zarur tovarlarning o‘sha foydaliligiga bergan sub’ektiv baholari bilan belgilanadi. Bu sub’ektiv baholar sub’ektiv qiymatlar, deb atalib, ulardan ob’ektiv qiymatlar chiqarilardi, ya‘ni bozorda qo‘shiladigan ayirboshlash proporsiyalari. Avstriya maktabining muhim hususiyati undagi izchil sub’ektivizimdir: avstriyaliklar iqtisodiy fanning barcha kategoriyalarini iqtisodiy sub’ektning buyumga munosabatidan, ularning nimani afzal ko‘rishidan, nimalarni kutishidan, bilimidan chiqarishga harakat qiladilar.

### **10.3. So‘nggi qo‘shilgan naflilik qiymat nazariyasi inqilobiy g‘oya sifatida**

**Qiymat va marjinalizm.** Eng yuksak naflilik nazariyasi «marjinalizm», deb nom olgan ta‘limotning tarkibiy qismidir. Eng yuksak naflilik nazariyasining vujudga kelishi qiymat nazariyasida inqilobiy o‘zgarishlarga olib keldi. Marjinalizmning asosiy g‘oyalari quyidagilardir: **birinchidan**, qiymatni mehnat sarflari bilan belgilash nomaqbuldir (yoki mehnat, yer va kapital). **Ikkinchidan**, ne‘matning qiymati uni iste‘mol qilgan shaxs

tomonidan olinadigan foydali samara o'lchami bilan belgilanadi, ya'ni ne'matning eng yuksak foydaliligi bilan. **Uchinchi**dan, ne'matlarning naflilik individual bahosini aks ettiruvchi aniq iste'molchilar, qiymatni sub'ektiv kategoriyalar sifatida qaraydi. **To'rtinchi**dan, o'ta kattalik tushunchasi kiritildi va uning asosida ne'matlarning birgalikdagi va eng yuksak foydaliligi chegaralandi. **Beshinchi**si -mehnat va kapitalning qiymati va demak, ishlab chiqarish xarajatlari iste'mol tovarlari qiymatidan kelib chiqqan yasama sifatda belgilanadi. Eng yuksak naflilik nazariyasi vakillari iqtisodiy jarayonlar tahlilini odamlarning ehtiyojlarini o'rganishdan, ne'matlarning naflilik mezonlarini izlashdan boshlash kerak, deb hisoblardilar. Ne'matlarning ana shu ne'matni istemol qilishdan oladigan qoniqishi tushuniladi, ya'ni ne'matlarning foydaliligi ularning odamning biron-bir ehtiyojini qondirish qobiliyati bilan belgilanadi.

Eng yuksak naflilik nazariyasi iste'mol ne'matlarining umuman, foydaliligini emas, balki bu ne'matlar ma'lum individga keltirishi mumkin bo'lgan konkret foydalilikni nazarda tutadi. Masalan,  $A$  iste'molchi  $X$  tovarni olar ekan, u buni o'zining qandaydir ehtiyojini qondirish uchun qilgan, ya'ni  $X$  Tovar  $A$  uchun malum foydalikka ega. Agar istemolchi  $X$  tovardan izchil ravishda xarid qilib tursa, har bir yangi xarid  $A$  ning  $X$  tovardan oladigan foydaliligini ko'paytiradi. Barcha sotib olingan  $X$  tovar foydaliligining summasi  $X$  tovarning umumiy yo birgalik foydaliligi, deb aytiladi. Agar  $A$  yana bitta o'sha  $X$  tovardan xarid qilsa, umumiy naflilik total utiliti  $-U$  bilan belgilansa, o'ta naflilik marginal utiliti  $MU$  bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, eng yuksak naflilik umumiy foydalikka qo'shilgan bir kattalikdagi naflilikdir, ya'ni umumiy olingan tovarga qo'shilgan yana bir tovardan kelgan naflilik.

### **Hayot va iqtisodiyot**

Qiymatning yangi nazariyasi ne'matlarning birgalikdagi va o'ta foydaliligini chegaralash zarurligini hisobga olar edi. Bunday chegaralash mashhur «Smit paradoksi»ni ilmiy tushuntirish imkonini berdi. Uning mohiyati quyidagichadir: agar qiymat naflilik samarasiga bog'liq bo'lsa, nima uchun inson hayotida eng yuqori naflilikka ega bo'lgan ne'matlar (masalan, suv, non, agar havo haqida gapirmaganda) nihoyatda past qimmatga ega (brilliantga o'xshagan), inson uchun foydasi hamma vaqt ham aniq bo'lmagan narsalarning qiymati juda yuqori? Smit bu paradoksga yechim topa olmadi va ularni xarajatlari bilan bog'ladi. Undan keyin D.Rikardo, K.Marks, J.Mill va boshqalar ham shunday qilishdi.

Marjinalizm «Smit paradoksi»ga boshqa yechim topdi. Haqiqatan ham normal sharoitda suv brilliantga nisbatan ancha past baholanadi, ammo bu

normal sharoitda 1 litr suv bilan konkret ehtiyojni qondirish va shu bilan birga, bir brilliant bilan ham konkret ehtiyojni qondirish mumkin bo'lgan hollarda shunday bo'ladi. Agar jahondagi chuchuk suvning butun zahirasini jahondagi brilliantlar zahirasiga solishtirsak, birinchisi ikkinchisiga nisbatan cheksiz yuqori qiymatga ega ekanligini ko'ramiz.

Ne'matning birgalikdagi foydaliligi bilan uning eng yuksak foydaliligining bunday chegaralanishi -qiymat nazariyasiga kiritilgan muhim konsentual yangilikdir.

Ehtiyojlarni qanday qondirilganligini tahlil qilish uchun eng yuksak naflilik nazariyasi abstraksiyaning turli uslub va darajalarini qo'llaydi. Tahlilning birinchi bosqichida ular inson hayotining uslubidan foydalanadilar. Bu uslub izlanishlarni maksimal «toza holda» ayirboshlash jarayonlari va xo'jalik yuritishning spetsifik ijtimoiy shakllarini e'tiborga olishdan avval, olib borish imkonini beradi. Keyin izlanishlar navbatdagi bosqichga o'tadi va tahlilga ayirboshlash jarayoniga kiruvchi tovar ishlab chiqaruvchilar ham qo'shiladi.

Eng yuksak naflilik tushunchasining ilk ko'rinishini ko'rib chiqish uchun «yakka inson hayoti» uslubidan foydalanamiz. Yakkayu yolg'iz insonning chuchuk suvi bor qoyali orolda, deb tasavvur qilamiz. Insonga har kuniga chanqovini qondirish va ovqat tayyorlash uchun 3 litr suv kerak bo'ladi, deylik. Yana 12 litr suv unga yuvinish-tarashga, kir yuvishiga va polizni sug'orishga kerak. Kuniga inson hammasi bo'lib 15 litr suv ishlatadi. Suv manbasi kuniga 100 litr suv beradi, deb faraz qilaylik. Unga 85 litr suv ortiqchadir. Inson uchun 1 litr suvning qiymati nolga teng, chunki 1 litrni ishlatib, 99 litr suvga tegmayapti, bu esa, hamon unga keragidan ancha ortiq. Qurg'oqchilik natijasida manba kuniga atigi 15 litr suv berayapti, deb faraz qilaylik. Inson hali ham o'z ehtiyojlarini to'liq qondirmoqda, ammo endi hatto 1 litr suvning yo'q bo'lishi uning uchun ba'zi bir qiyinchiliklar tug'diradi. Manba qanchalik ko'p qurib borsa, inson uchun har bir litr suvning yo'q bo'lishi sezilarli bo'ladi.

Biron-bir ne'mat birligining qiymati shu birlik yordamida qondirilayotgan ehtiyojning muhimlik darajasi bilan o'lchanadi. Yuqorida keltirgan misolimizda 1 litr suv ham hamda manbaning butun suvi cheksiz yuqori qiymatga ega. Keyingi litr suv esa, bora-bora oz qiymatini yo'qotadi.

Shu bilan birga, ichilgan 1 litr suv qolganidan hech qanday hususiyati bilan farq qilmaydi. Shuning uchun insonni chanqov azobidan qutqargan 1 litr suv uchun cheksiz yuqori qiymatni berish mumkin emas. Ne'matning bir xil birliklari turlicha qiymatga ega bo'lmaydi, chunki har bir birlikni boshqasi osonlik bilan almashtirishi mumkin.

## **Qimmatbaho va eng yuksak naflilik**

Shunday qilib, qiymat mavjud ne'mat so'nggi birligining sub'ektiv eng yuksak foydaliligi bilan belgilanadi. Agar ne'mat haddan tashqari ko'p bo'lsa, uning birgalikdagi foydaliligi qancha katta bo'lmasin, ne'matning so'nggi birligi foydaliligi nolga teng bo'ladi, chunki qaysi birlikni so'nggi deb hisoblashdan qati nazar, birlikning foydaliligi nolga tengdir. Mazkur ne'mat Menger terminologiyasida noiqtisodiy bo'ladi. Agar ne'matlarning birgalikdagi foydaliligi (masalan, brilliantning) uncha katta bo'lmasa, ular miqdorining cheklanganligi so'nggi birligining qiymati yetarli darajada yuqori bo'lishiga olib keladi va bu ne'mat iqtisodiy xarakter hamda qiymatga ega hisoblanadi.

Yuqorida bayon etilganlardan shunday xulosa chiqarsak bo'ladi: o'zining eng birinchi ko'rinishida qiymat konkret individum uchun mazkur iqtisodiy ne'mat turlarining nisbiy foydalilik tasirining iste'mol bahosidir.

### **Qiymat ijtimoiy hodisa**

Shuni hisobga olish kerakki, birinchidan, ne'matlar osmondan tushmaydi, balki mehnat va boshqa resurslar yordamida ishlab chiqariladi; ikkinchidan, rivojlangan xo'jalik tizimida qiymat individual emas, balki ijtimoiy xarakterga ega. Individual baholashlarning bozordagi muvofiqlashuvi sodir bo'ladi. Ne'matning ijtimoiy o'ta foydaliligini chiqarishni bozor turli shaxslarning barobar harakat qilish hollari prinsipi bo'yicha amalga oshiradi. Bu barobar harakat qiluvchi ayirboshlashning har bir ishtirokchisining o'z ehtiyojlarini maksimal qondirish uchun intilishi ta'siri ostida, stixiyali ravishda vujudga keladi. Ayirboshlash ishtirokchilari soni ko'proq bo'lsa, ayirboshlash jarayonida ikki shaxs o'rtasidagi ayirboshlashga nisbatan narxlar ancha tor chegarada vujudga keladi. Ayirboshlash ishtirokchilari qanchalik ko'p bo'lsa (ularning har biri bozorga o'zining sub'ektiv baholarini olib kiradi), narx chegaralari shunchalik tor bo'ladi va nihoyat qator sub'ektiv qiymatlar ne'matning yagona ijtimoiy bozor qiymatiga kelishadi.

#### **10.4. Kamayib boruvchi me'yoriy naflilik qonuni. Foydalik miqdorini o'lchash**

**Gossenning birinchi qonuni.** Deylik, iste'molchi *A* tovarni sotib oldi. *A* tovar har bir birligining o'ta foydaliligi bir xilmi?

Boshqacha aytganda, iste'molchi *A* tovarning istalgan birligidan bir hil foyda ko'radimi? Ne'matlar naflilik samara darajasi ularning cheklanganligi va qayta ishlab chiqarilish imkoniyatiga bog'liqdir. Ne'mat birliklari sonining ko'payishi bilan unga bo'lgan ehtiyoj tobora to'yina boradi. Har bir yangi birlikni iste'mol qilib borishi bilan to'yinilishi darajasi o'sib, ne'matning naflilik darajasi sekin-asta kamayadi. Masalan, birinchi stakan suvdan



qoniqish, ikkinchi yoki uchinchisidan ancha yuqori. Demak, uchinchi va to'rtinchi stakan suvlarning foydaliligi alohida shaxs uchun mazkur misolda birinchi yoki ikkinchi stakanlarga nisbatan ancha kam. To'rtinchi stakan suv umuman, kerak bo'lmasligi ham mumkin.

Agar boshqa tovarlarni iste'mol qilish o'zgarmasa, A tovarga ehtiyoj to'yib borgan sari bu tovarning keyingi birliklaridan ehtiyojni qondirish pasayadi, ya'ni A tovar har bir keyingi birligining o'ta foydaliligi kamayadi. Ushbu qat'iy va doimo takrorlanadigan o'zaro bog'liqlik va iqtisodiy hodisalarning o'zaro bog'liqligi o'ta naflilikning kamayishi qonuni, deb nom oldi. Avval mazkr qonun G.Gossen tomonidan (1854) ehtiyojlarning to'yinishi qonuni sifatida nomlangan edi. Iqtisodiy adabiyotlarda u Gossenning birinchi qonuni nomini olgan.

Ko'pchilik tovarlar uchun bu qonun tovarlarning ikkinchi yoki uchinchi birligidan harakat qiladi, ya'ni tovarlarning navbatdagi birligini olish bilan, ularning o'ta foydaliligi pasayadi. Alohida hollarda biron-bir tovarni iste'mol qilishning boshlang'ich bosqichida o'ta naflilik ko'tarilishi mumkin. Masalan, issiq kunda ikkinchi stakan suvdan olingan qoniqish (tashnalikdan) birinchisidan nisbatan yuqoriroq bo'lishi mumkin.

Ammo shunday savolga duchor bo'lgan odam har kuni non iste'mol qiladi, ammo nima uchundir iste'mol qilish davomida undan qoniqish darajasi pasayganini his qilmaydi? Bunday qarashning xatoligi shundaki, bu yerda baholash ob'ekti noto'g'ri belgilangan, bizni bir kunda iste'mol qilingan nonning foydaliligi emas, bir kunlik foydaliligi qiziqtiradi. Agar umumiy kunlik naflilik o'zgarsa, o'ta naflilik haqida gap yuritish mumkin. Masalan, siz bir kunda 200 gr non istemol qilasiz, agar bu normani 100 gr. ga oshirilsa undan olgan qoniqishingiz avvalgisidan (ya'ni 100 gr. dan 200 gr. gacha) olgan qoniqishingizdan kamroq bo'ladi.

### **Naflilik miqdorini o'lchash**

Naflilikning o'lchami borasida barcha nuqtai nazarlarni ikki guruhga birlashtirish mumkin. Ba'zi iqtisodchilar kardinalga, deb atalgan yondashuvdan foydalanadilar. Ular naflilikni o'lchashning har xil miqdoriy birliklarini masalan, pul yoki yutilni kiritishga harakat qiladilar. Boshqa iqtisodchilar esa, ordinalga (nemischa Dicordnung- tartib) yondashuvdan foydalanadilar. Ularning fikricha, o'ta naflilik nazariyasi sub'ektiv xarakterga ega ekan, ya'ni har bir alohida iste'molchi uchun istalgan tovarning foydaliligi hamma vaqt individualdir va uni o'lchab bo'lmaydi. Demak, naflilikni o'lchash uchun «ordinal», ya'ni tartibli kattalikni kiritish va uning yordamida ehtiyojni qondirish darajasining kamayganligini yoki ortganini aniqlash mumkin. Iste'molchi muqobil tovarlar ichidan o'zi uchun eng foydalisini

tanlaydi. Keyin ikkinchi, uchinchi va keyingilarini tanlaydi. Naflilikning miqdoriy o'lchanishi misolini ko'rib chiqaylik: o'lcham birligi yutil. Naflilikni miqdor jihatidan o'lchash uchun har bir iste'molchi o'z boshida naflilikning o'lchagichi «foydametrga» ega va u iste'molchining qay darajada qoniqqanini o'lchash imkonini beradi, deb faraz qilamiz. 10.1-jadvalda **X** iste'molchi uchun olmalarning eng yuksak foydaliligi berilgan. Birgalikdagi naflilik birinchi birlikning foydaliligi bilan (keyin ikkinchi va hokazo), keyingi birlikning o'ta foydaliligi yig'indisi bilan.

### 10.1-jadval

#### Yutil yordamida olmalarning o'ta foydaliligini miqdor jihatidan o'lchash

Mahsulot birligi	O'ta naflilik -MU (yutil)	Qo'shma naflilik -U (yutil)
Birinchisi	10	10
Ikkichisi	6	16
Uchinchi	2	18
To'rtinchisi	0	18
Beshinchisi	-5	13

Shunday qilib, 3 olmaning qo'shma foydaliligi  $10+6+2=18$ . Yutil yoki **2** olmaning qo'shma foydaliligi plyus uchinchi olmaning o'ta foydaliligi, ya'ni  $16+2=18$  yutil.

Bu misol kamayuvchi o'ta naflilik qonunini ko'rsatmoqda. U birinchi olmadan harakat qila boshladi. Har bir keyingi birlik avvalgisiga nisbatan kamroq foydali.

Kardinalchilarning o'ta naflilikni o'lchash masalasini hal qilishga urinishlari uncha katta yutuqqa ega bo'lmadi. Iste'molchini tanlash muammosini o'zining asosiy mazmuni qilib olgan XX asr eng yuksak naflilik ta'limotida ordinal yondashuv ko'proq kuchga ega bo'ldi. Uning asoschilaridan biri italyan iqtisodchisi V. Pareto dir.

V.Pareto (1848-1923) o'ta naflilik muammolarini avstriya maktabi vakillari va ilk iqtisodchi matematiklarga nisbatan boshqacha pozitsiyalarda tekshirdi. U eng yuksak naflilikka kombinatsiyani topishi kerakki, bu kombinatsiya uning uchun maksimal foydalilikni ta'minlasin. Iste'molchining tanlashga nafaqat o'ta naflilik kattaligi (masalan, **A** mahsulotning), balki shu **A** tovarning qo'shimcha birligini olish uchun muqobil **B** tovarning qancha birligidan voz kechishga to'g'ri kelishi ham ta'sir qiladi. Masalan, siz **36** yutil o'ta naflilik bilan qahvaxonaga kirishni **24** yutil o'ta naflilikka ega bo'lgan

kinofilmni ko‘rishdan afzal bilasiz. Ammo kafega kirish **12** dollar bo‘lganda, kino pattasi 6 dollar. Tanlash kino foydasiga hal bo‘ladi. Nima uchun? Chunki sarflangan dollar uchun o‘ta naflilik kino ko‘rilganda **4** yutilni tashkil etadi (**4=24:6**) va faqat **3** yutil agar qahvaxonaga kirilsa (**3=36:12**). Xulosa: turli narxlarda sotiladigan tovarlarning o‘ta foydaliligini bir-biriga solishtirish uchun o‘ta naflilikni sarflangan **1** dollarga nisbatan ko‘rib chiqish kerak. **MU/P** nisbat bir dollar hisobidagi o‘ta naflilik kattaligini ko‘rsatmoqda.

**Masalan, (10.2-jadval ) A va V mahsulotlar kombinatsiyasi 10 dollar daromad bo‘lgan holda maksimallashtirish**

Mahsulot birligi	A		V	
	O‘ta naflilik (yutilda)	O‘ta naflilik 1 dollarda	O‘ta naflilik (yutilda)	O‘ta naflilik 1 dollarda
Birinchi	10	10	24	12
Ikkinchi	8	8	20	10
Uchinchi	7	7	18	9
To‘rtinchi	6	6	16	8
Beshinchi	5	5	12	6
Oltinchi	4	4	6	3
Yettinchi	3	3	4	2

O‘zining 10 dollarini maksimal foydali sarflash uchun iste‘molchi qanday ketma-ketlikda va qanday kombinatsiyada **A** va **V** tovarlarni sotib olishi kerak? Avval **V** tovarni sotib olish uchun 2 dollar sarflash kerak, chunki uning bir donasi **1** dollarga **12** yutil hisobida o‘ta naflilikka ega. Keyin **A** tovarni bir donasini va **V** ning ikkinchisini.

Demak, biz **5** dollarni sarflab bo‘ldik. Davom ettiramiz va **V** tovarning uchinchi donasini sotib olamiz (shunda **1** dollarning o‘ta foydaliligi **9** yutil) qolgan **3** dollarga **A** tovarning ikkinchi donasini sotib olamiz (uning **1** dollarining o‘ta foydaliligi **8** yutil) va **V** tovarning **4** donasini sotib olamiz (**1** dollarning o‘ta foydaliligi **8** yutil). Mazkur iste‘molchi uchun tovarlar kombinatsiyasini maksimallashtirish foydaliligi **A** tovardan **2** dona va **V** tovardan **4** dona sotib olganda vujudga keladi.

Iste‘molchi budjettadagi cheklanishning qondiriladigan va bunda o‘ta naflilik narxga nisbati barcha ne‘matlar uchun bir xil bo‘lgan iste‘mol to‘plamining foydaliligini maksimallashtiradi. Huddi ana shu mahsulotlarning optimal to‘plamidir.

Mahsulotlarni xarid qilishda maksimal foydalikka quyidagicha erishiladi: bunda budjet shunday taqsimlanishi kerakki, mahsulotning har bir turi uchun sarflangan har bir so‘nggi dollar bir xil o‘ta (qo‘shimcha) naflilikni keltirishi kerak.

Naflilik maksimallasuvi qoidasi quyidagi ko‘rinishini oladi:

$$\frac{A \text{ tovar } MU}{A \text{ tovar narxi}} = \frac{B \text{ tovar } MU}{B \text{ tovar narxi}}$$

Tovarlar narxini –  $P_x, P_y, P_z$  bilan; tovarlar o‘ta foydaligini  $MU_x, MU_y, MU_z$  bilan belgilaymiz.

Shunda maksimallasuvi qoidasi quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi.

$$MU_x / P_x = MU_y / P_y = MU_z / P_z$$

### 10.5. Naflilikning umumiy maksimallasuvi

Bunga Marshall sezilarli xissa qo‘shdi. Marshallning farovonlik nazariyasi pulning domiy o‘ta foydaliligini nazarda tutgan holda ne‘matlar foydaliligining umumiy ko‘payishigacha aniqlikda o‘lchash imkonini berdi va u naflilik maksimallasuvida o‘z ifodasini topdi.

Marshall o‘zining «Iqtisod fanining prinsiplari» da, Matematik ilova  $P$  naflilikni o‘lchash va maksimallashtirish muammosini hal qilishga  $A$  sida tovarni iste‘mol qilganda muvozanat shartlarini quyidagicha xarakterlaydi:  $MU_x = P_x * MU_n$ . Bu barcha tovarlarga qo‘llashda narxga nisbatan o‘ta naflilik nisbatining tenglik qonunini beradi.

$$MU_x / P_x = MU_y / P_y = MU_z / P_z = MU_n$$

$MU_n$  ni Marshall pulning o‘ta foydaliligi, deb atab, pulga o‘ta nafliliklarni solishtirish imkonini beruvchi umumiy ko‘paytuvchi vazifasini bajaradi. Iste‘molchining xarid vaqtida ma‘lum daromadni taqsimlashdagi xatti-harakatini tahlil qilishda foydalanadigan maksimallashtirish prinsipi boshqa iqtisodiy konsepsiyalarda ham qo‘llangan, chunki tahlilning umumiy qoida va uslublari mavjuddir. Umumiy qoida—bu maksimallashtirilayotgan ko‘rsatkichning ma‘lum belgilarida ifodalanayotgan qator yo‘l qo‘yilgan holatlarning tartibga solingan tanlovidir. Bu ko‘rsatkich naflilik, daromad yoki tabiiy ko‘rinishdagi mahsulot bo‘lishi mumkin. Optimal holat mazkur ko‘rsatkichning ahamiyati imkon darajada maksimal holatga yetganda erishiladi.

### O‘rin egallash chegaraviy normasini tenglashtirish tamoyillari

Tahlil qilishning asosiy chegaraviy belgilarini tenglashtirish uslubi ham umumiy bo‘lib, agar tatbiq qilishning bir qancha raqobatlanuvchi o‘rtasida biron narsaning ma‘lum miqdori taqsimlanar ekan, bo‘lishi mumkin bo‘lgan

taqsimot ichida ba'zi «samarasi» mavjud bo'layotganining har bir birligi shunday taqsimlanadiki, uslublarning biriga qilingan foyda harakati boshqasidan chetlatish natijasida ko'rilgan zararga aniq teng bo'ladi. Ushbu uslub har qanday holatda ham, ya'ni iste'mol ne'matlarini bir qancha soni o'rtasida belgilangan to'lovlarda ham yoki mehnat va bo'sh vaqt o'rtasidagi vaqt taqsimlanganda ham bir xil bo'ladi. Bundan tashqari taqsimot muammosini yechishda maksimalashtirishga erishish shartlaridan birikamayib boruvchi natija qonunining harakatidir. Bu shu jumladan, foydalikka ham taalluqli bo'lib, u birgina yagona iste'mol uslubiga bo'linadigan kattalik birliklarini berishda ifodalanadi.

Iste'molchining xatti-harakati nazariyasida optimal holatga shunday erishiladiki, bunda iste'molchi xarid vaqtida o'z daromadini taqsim qiladi: xar bir dollarning eng yuksak foydaliligi tenglashadi; kamayib boruvchi eng yuksak naflilik qonuni bunday ko'tarinkilikning mavjudligini ta'minlaydi. Firma darajasida optimal natijaga shunda erishiladiki, bunda ishlab chiqarish omili qiymat bahosining har bir dollariga eng yuksak jismoniy mahsulotlar tenglashtiriladi. Kamayib boruvchi eng yuksak mahsulot qonuni ham xuddi shu vazifani bajaradi. Har ikki misol ham umumiy prinsipning amaliy qo'llanilishi bo'lib, uni o'rin almashish chegaraviy normasining tenglik prinsipi, deb atash mumkin.

### **10.6. Eng yuksak naflilik nazariyasining evolyutsiyasi.**

**Neoklassik sintez nazariyasi.** XIX asrning 70-80-yillarida naflilik nazariyasining paydo bo'lishi va rivojlanishi marjinalist inqilobining birinchi bosqichiga taalluqlidir. Marjinalist inqilobining ikkinchi bosqichi XIX asrning 90-yillaridan boshlandi. Bu bosqichda marjinalizmning izchil ta'limotiga aylantirgan neoklassik iqtisodiy nazariya, deb ataluvchi nazariya shakllanadi.

O'ta naflilik nazariyasi neoklassik iqtisodiy tahlil nomini olgan ta'limotning poydevorinigina yaratadi. Butun ta'limot qurilishini tugatish uchun naflilikni ijtimoiy xarajatlari bilan birlashtirish natijalari va sarflarini solishtirish umumiy nazariyasini barpo etish zarur edi. Faqat mana shu narsani barpo etgandan so'nggina, yangi nazariyani hamma tan oldi va iqtisodiy nazariyada yangi, deb ataluvchi ikkinchi klassik vaziyat vujudga keldi (birinchisi, deganda A.Smit va D.Rikardolar davridagi vaziyat nazarda tutiladi). Yangi klassik vaziyatni barpo etishga A.Marshall, J.Klark, K.Viksellar eng ko'p hissa qo'shdilar.

Neoklassik tahlil metodologiyasi funksional nazariyada «absolyut» kategoriyalarga o'rin yo'q, degan qoidaga asoslanardi. Unda faqat «nisbiy»,

o‘zaro bog‘liq va inson tomonidan belgilanadigan – ishlab chiqaruvchi va iste‘molchi tomonidan kategoriyalargina qolishi kerak. O‘ta naflilik nazariyasi qiymat bu tovarga immonent xos bo‘lgan narsa, degan g‘oyadan voz kechib, yangi paradigmalarga asos soldi. Ammo uning asoschilari yangi binoning faqat poydevoridagina to‘xtadilar. Ular yangi qoidani butun xo‘jalik tizimi tahlili uchun yoymasdan, uni faqatgina individual iqtisodiy tanlovgagina qo‘lladilar. Neoklassik tahlil vakillari bu qoidani iqtisodiy fanning barcha sohalari uchun qayd etdilar. A.Marshall ayniqsa, qimmatli g‘oyalarni kiritdi. A.Marshall «kembridj» maktabining asoschisi bo‘lib, u so‘nggi mahsulotlar va ishlab chiqarish omillarini bir vaqtning o‘zida baholash muammosini yechdi.

Uning mashhur naflilik va xarajatlarni qaychining ikki tig‘iga o‘xshatmasi esa, quyidagicha ma‘noga ega: bir bo‘lak qog‘ozni qaychining ustki yoki ostki tig‘i kesishi to‘g‘risida munozara qilishga asos bulmaganidek, qiymatning naflilik yoki ishlab chiqarish sarflari bilan tartibga solinishi ustida ham munozara yuritishga asos yo‘q. Uning g‘oyasi har ikki qiymatni ham o‘zaro va bir vaqtning o‘zida belgilash uslubidan foydalanish zaruratidan iboratdir. Talab va taklif muvozanat nuqtasi va unga muvofiq qiymat va narx naflilik va xarajatlar teng huquqli va mustaqil kuchlar sifatida o‘zaro harakat qilganda belgilanadi.

XX asrning eng yuksak naflilik nazariyalarida alohida iste‘molchini tanlash nazariyasi asoslari ishlab chiqarishda e‘tibor qilinadi. Tanlash muammosi avvalo, eng yuksak naflilik kategoriyasini tushunish va o‘lchash bilan bog‘liqdir.

Iste‘molchi talabining dinamikasi va tizimini ham alohida tovarlar bo‘yicha, birikkan holda amaliy o‘rganish imkonini beradigan iqtisodiy matematik modellar ishlab chiqilgan. Bu elemetlarning muhim jihati sifatida narxlar bo‘yicha talabning elastiklik koeffitsiyentlari (unga kesishgan elastiklik koeffitsiyenti ham kiradi) va talabning daromadga qarab elastikligi ham ishlatiladi. Ushbu modellardan bozordagi o‘zgarishlar to‘g‘risida ma‘lumot olishda, uning hajmidagi o‘zgarishlarni baholashda (bu o‘zgarishlar narxlar va boshqa omillarning o‘zgarishi bilan bog‘liq) foydalaniladi.

Barcha iqtisodiy agentlarning xatti-harakatiga ta’sir qiladigan yangi narxsiz omil sifatida axborot belgilangan. K.Errou (AQSh) Nobel mukofotini olayotgan vaqtda o‘qigan «Axborot va iqtisodiy xatti-harakati» nomli ma‘ruzasida iqtisodiy agentlar xatti-harakati va bozor muvozanatiga tavakkallik va noaniqlik omillarning ta’siri ustida to‘xtaldi. Shaxs va firmalar iqtisodiy xatti-harakatini belgilovchi asosiy omil sifatida narxning oshishi, shaxs va firmalar mana shu narx asosida naflilik va foydani maksimalashtirishga qarama-qarshi o‘laroq axborot sifatidagi narxsiz omillar ham kiritiladi.

## 10.7. Marjinalizm: qanday yangilik bor?

1. Marjinalizm individual iste'molchilar uchun ne'matlar foydasini sub'ektiv baholash asosida qiymatini belgilaydi va bunda ne'matning qo'shimcha birligi qo'shilishi asosida aniq foydaning o'sishini hisobga oladi. Klassik siyosiy iqtisodga asosan qiymatni belgilash asosida mehnat sarflari (yoki ishlab chiqarish sarflari) kiradi. Qiymatni aniqlashda sub'ektiv yondashish marjinalizmga xosdir. Aniq iste'molchining individual baholashi evaziga tovar o'z qiymatiga ega bo'ladi.

2. Marjinalizm iqtisodiy hodisalar va jaryonlarning mohiyati hamda shakllarni xarakterlovchi o'ta kattaliklardan foydalanuvchi iqtisodiy tahlilning yangi uslublariga asoslanadi. Klassik siyosiy iqtisod esa, iqtisodiy hodisalarning faqat mazmunini ko'rib chiqib, ularni yo yig'indi yo o'rta kattalik bilan baholardi.

3. Eng yuksak naflilik nazariyasi biron-bir ne'matlarning asliy foydaliligiga qurilgan emas, masalan, suv temirning insonlar iste'moli bilan bog'liq foydaliligi emas, balki sotuvchi, ishlab chiqaruvchi va iste'molchi manfaatini tashkil etuvchi ne'matning aniq birligining foydaliligiga qurilgan.

4. Nematning qiymati uning cheklanganligi bilan bog'lanadi. Aralash ne'matning har bir bo'lak foydaliligi bilan bevosita iste'molning intensivligi o'rtasidagi bog'liqlikka quriladi va shaxsning ixtiyoridagi ne'mat miqdori ham hisobga olinadi.

5. Klassik siyosiy iqtisod shaxsiy iste'mol muammosini o'rganmagan va uni iqtisodiy nazariya predmetiga kiritmagan. K.Menger tufayli, u esa, inson ehtiyojlari va ularni qondirish vositalari ustidagi hukumronligi bilan bu esa har qanday insoniy xo'jalikning boshlanish tayanchi -iqtisodiy nazariya iste'molchilarning shaxsiy manfaatlari va harakat motivlarini o'rganadi, deb qayd qiladi. Bu bilan iste'molchi xatti-harakati nazariyasi barpo etildi.

6. Klassik siyosiy-iqtisod muomala sohasiga nisbatan ishlab chiqarish sohasining birlamchi qiymati ishlab chiqarish jaryonida shakllanadigan kategoriya, deb hisoblanardi. Marjinalizm o'z taraqqiyotining birinchi bosqichida iste'mollar sohasini ilgari surdi. O'z taraqqiyotining ikkinchi bosqichida esa, marjinalizm konkret ne'matlar ishlab chiqarish va iste'moli sohaslarini bir - biriga qarama-qarshi qo'ymadi, balki ularni o'zaro bog'ladi. A.Marshall tufayli talab va taklif o'zaro harakati yagona mexanizmi orqali muvozanatli bozor narxinig shakllanishi ko'rsatilgan.

7. Marjinal nazariya iqtisodiy tahlilning matematik uslublarini keng qo'llaydi. Ne'matlar foydaliligi funksiyasi aniqlandi (naflilik funksiyasi mazkur shaxs bozoridagi qandaydir bir tovarlar miqdoridan olishi mumkin bo'lgan foydananing kattaligini belgilaydi).

Iqtisodiy tahlilda iqtisodiy hodisalarni afzallik ko'rsatkichidan, befarqlik egri chizig'idan, elastiklik holatlaridan va boshqalardan foydalanildi.

Matematika marjinalizmga nafaqat o'ta kattaliklarni tahlil qilish uchun, balki ro'y berishi mumkin bo'lgan iqtisodiy jarayonlardan eng yaxshi variantlarini tanlashda qarorlarni asoslash uchun ham zarur bo'ldi.

8. O'ta kattalik nazariyasi nafaqat ayirboshlash va iste'mol qilish sohasida, balki ishlab chiqarish sohasida ham qo'llanildi ishlab chiqarish faoliyatini yangicha baholashda maksimallashtirish va minimallashtirish muammolarini yechishda, sarflar va natijalarni solishtirishda o'ta kattaliklardan foydalanildi.

9. Bozor muvozanati nazariyasi parpo etildi, marjinalchilar A.Marshallning qisman muvozanat nazariyasidan foydalanishi bilan birga, L.Valrasning umumiy muvozanat nazariyasidan ham foydalandilar.

Iqtisodiy muvozanat muammosi iqtisodiy sub'ektlar xatti-harakatlaridagi manfaat va motivlarning birgalikdagi harakati prizmasi orqali qarab chiqildi. Marjinalizm iqtisodiy nazariya sifatida xo'jalik sub'ektlari faoliyatining iqtisodiy manfaatlari va motivlarining o'rganishni o'z izlanishlari doirasiga kiritdi, u insonga – moddiy ne'matlarni iste'mol qiluvchi va yaratuvchi tomon yuz tutdi va inson bilan xo'jalikni birlashtirdi. Iqtisodiy tahlilning yangi uslublari iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish taqsimotining va cheklangan resurslardan foydalanish optimal variantlarini topish imkonini berdi.

### **Qisqacha xulosalar**

Albatta, qiymat nazariyasi iqtisodiyot fanining eng asosiy muammolaridan biri bo'lib, uning asosiy yaratilish negizini isbotlab berish uchun iqtisodchi olimlar juda ko'p yillar davomida urinib ko'rganlar va haligacha urinmoqdalar. Tarixda juda ko'p va katta ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodchi olimlar va iqtisodiy manbalar bu muammoni ijobiy hal etish uchun har xil xulosalarga kelganlar, buni biz mazkur bobda batafsil ko'rib chiqdik. Agarda haqiqatan ham iqtisodiyot faniga asosiy fan nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yondashsak, birinchi navbatda, qiymatning mehnat nazariyasidan, ya'ni qiymatni yaratuvchi asosan mehnat omili, deb faraz qilinsa, qiymatni yaratishda hamma ishlab chiqarish omillari qatnashadi (kapital, tabiiy resurslar, yer), faqat mehnat emas.

Lekin shunday ilmiy haqiqat borki, mehnat – ishlab chiqarishning asosiy omili. Qolgan omillarni (kapital, tabiiy resurslar, yer) ham harakatga keltiruvchi omil bo'ladi, mehnat bo'lsa bu omillarsiz umuman, o'zidan-o'zi harakatga kelmaydi, bir oddiy ashyo bo'lib qoladi. Kishilar mehnati bilan yaratilgan mahsulot xarid qilingandan keyin kapitalga aylanadi, tabiiy resurs ham shunday, mehnatsiz bu oddiy «o'lik» holatdagi narsa. Endi



texnika-texnologiyalarga kelsak, ular ham kishilar mehnatini sarf qilish natijasida (aqliy va jismoniy turlari) yuzaga keladi.

Shuning uchun U.Petti, A.Smit, K.Markslar qiymatning mehnat nazariyasida – qiymatining birinchi yaratuvchisi mehnat, deganda katta haq edilar.

Qiymat ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladi va muomala jarayonida amalga oshiriladi, bu kishilar mehnatining natijasi, ya'ni aniqrog'i, tovar ishlab chiqaruvchilar mehnatining mujassam natijasidir.

Qiymatning mehnat nazariyasi tarafdorlari juda ham yaxshi tushunardilarki, ya'ni iste'mol qiymatsiz, moddiy ne'matlarning umumiy foydaligisiz, umuman, tovar kategoriyasining mavjud ekanligini. Gap bu yerda boshqa narsa to'g'risida ketayapti, ya'ni qiymat ularning fikri bo'yicha faqat ishlab chiqarish jarayonidan yaratiladi, ya'ni bu-tovarning ob'ektiv xususiyatidir. Lekin agarda xaridorlarning bozor baosisiz ishlab chiqarilgan mahsulotlarning foydali samarasini aniqlash mumkin bo'lmasa, unda, ehtimol, qiymat (bahosi) eng avval almashuv kategoriyasidir. Shu jumladan, Avstriya maktabi ham, tovar qiymatini yaratishda uchta teng huquqiy ishlab chiqarish omillari: mehnat, kapital va yer qatnashadi, faqat mehnat emas, deb ta'kidlaganlar.

Eng yuksak foydalilik nazariyasi vakillari, qiymatni (bahoni) foydalilikdan chiqarib, uning ikkita foydalik turini yaratish zarur, degan xulosaga keldilar:

a) abstraktli yoki haqiqiy foydalilik, ya'ni moddiy ne'matlar kishilarning qanday bo'lmasin biron ehtiyojini qondirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

b) aniq foydalilik, ya'ni shu moddiy ne'matning ushbu nusxasi foydaligini sub'ektiv baholashni bildiradi.

Bu sub'ektiv baholash ikkita omilga bog'liq: ushbu moddiy ne'matlar zaxiralarining borligiga va ularga qondirilgan (to'yingan) darajasiga.

G. Gossen qonunga binoan, ehtiyojlarning qondirilishi «qondirish darajasi» o'sadi, aniq naflilik o'lchami («qat'iy ehtiyoj» darajasi) pasayadi. Bu degani, har qaysi ushbu ehtiyojni qondira oladigan kelgusi ne'mat oldingiga qaraganda kamroq foydalilikka egadir, ya'ni «qat'i ehtiyojni» qondira oladigan ne'matlarning cheklangan zaxiralari uning «so'nggi» nusxasiga egadir. Bu yerda shunday xulosa qilish kerak, eng kam qat'i ehtiyojni qondira oladigan ushbu ne'mat bahosi so'nggi nusxaning foydaliligida aniqlanadi.

Bu yerda misol tariqasida tarki dunyo qilib o'rmonda yashaydigan, besh qop bug'doy egasi bo'lgan cholni keltirish mumkin. Bu qoplardagi bug'doyning foydaliligi kamayuvchi tartibda joylashgan:

- birinchi qop eng kerakli ehtiyojni qondirish-oziq-ovqat uchun;

- ikkinchisi, oziq-ovqatni yaxshilash uchun;
- uchinchisi, uy parrandalarini boqish uchun;
- to‘rtinchisi, piva tayorlash uchun;
- beshinchisi, ermak uchun (to‘ti qushni boqishga).

Bu tarki dunyochi qaysidir bir qopidan ayrilsa, faqat to‘ti qushni boqishni rad etar edi (ya’ni eng kam qat’i ehtiyojni qondirishdan). Shuning uchun xuddi shu yo‘l bilan har qaysi qopdagi bug‘doyning bahosi aniqlanadi.

Oygen fon Byom-Báverkning aytishicha, moddiy ne‘matlar bahosining o‘lchami ehtiyojlar qatorida oxirgi o‘rinni egallab turadigan ehtiyojlarda aniqlandi. Bu holat foydalilik nazariyasining markaziy punkti bo‘lib hisoblanadi. A.Marshall nazariyasi qiymat va baho bozor kuchlarining o‘zaro harakatini aniqlashga olib boradi, ya’ni talab (yuksak foyda) va taklif (tovar ishlab chiqarish sarf-xarajatlari) tomonidan yetadigan kuchlarga qaratilgan. A.Marshall nazariyasidan boshlab iqtisodiy nazariyada qiymat substansiyasidan uzoqlashish va funksional tahlilga, ya’ni bir vaqtda baho va talab-taklifning o‘zaro ta’sirini aniqlashga o‘tish boshlandi.

### **Asosiy tushunchalar**

**Foydalilik** -har qanday shaxs tomonidan tovar yoki xizmat iste’molidan olingan sub’ektiv foydadir. Ciyosat iqtisodning klassik maktabida foydalilik, deb tovarning o‘z qiymatiga qarama-qarshi ravishdagi iste’mol qiymatiga aytiladi.

#### **Yuksak yoki chegaraviy foydalilik miqdori**

Iqtisodiyotning asosiy tushunchasi mavjud moddiy ne‘matlarning miqdori bilan ularning foydaliligi o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. Ne‘matlarning ortishi bilan har bir keyingi birlikning foydaliligi kamayadi. Moddiy ne‘matning so‘nggi naqd qismining foydaliligi chegaraviy naflilik, deb ataladi. Agar chegaraviy naflilik nolga teng bo‘lsa (yoki salbiy o‘lchamga), mazkur ne‘mat iqtisodiy ne‘mat bo‘lmay qoladi, chunki u ehtiyojni to‘liq qondiruvchi miqdorga ega bo‘ladi.

### **Mustaqil ta’lim uchun savollar**

1. Qiymat mehnat nazariyasining asosiy mazmuni nimada ?
2. Qiymat nazariyasida yangicha inqilobiy yondashuvning mohiyati nimada?
3. Yuksak yoki chegaraviy foydalilik nimani bildiradi?
4. Yuksak yoki chegaraviy foydalilik qanday o‘lchanadi?

## II BO‘LIM. MIKROIQTISODIYOT

### 11 BOB. BOZOR IQTISODIYOTINING MAZMUNI VA AMAL QILISHI

*Har bir alohida inson o‘zining kapitalini iste‘mol qilishga intiladi, bunday mahsulot o‘z navbatida katta qiymatga ega bo‘lishi kerak. Odatda u jamiyat foydasiga bo‘lishni, ko‘maklashishni va unga qanchalik yordam berishni ko‘zda tutmaydi. U faqat o‘zining manfaatini ko‘zlaydi, faqat o‘zining foydasi ketidan yuradi, buning ustiga bunday holatda u ko‘rinmas qo‘li bilan o‘z maqsadi umuman o‘zining niyatiga kirmagan maqsadi tomon yuradi. U o‘zining manfaatiga intilishda ko‘plab kattaroq harakat bilan qachonki o‘sha kezda unga xizmat qilishni tushunaturib jamiyat manfaatiga xizmat qiladi.*

*Adam Smit*

#### 11.1. Bozor iqtisodiyoti iqtisodiyot nazariyasini o‘rganishda ob‘ekt sifatida

**Iqtisodiyot nazariyasining o‘rganish ob‘ektlari.** Iqtisodiyot nazariyasining predmeti va metodi aniq iqtisodiy tizimlarni o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Insoniyat tarixida uchta tipdagi iqtisodiy tizim yoki sivilizatsiyalar ma‘lum, bu iqtisodiyotda o‘zining hal qilinishi usullari bo‘yicha farqlanadigan uchta fundamental savollardir: «Nima ishlab chiqarish?», «Kim uchun ishlab chiqarish?» (bular batafsil 7-bobda berilgan). Bu tizimlar yoki sivilizatsiyalar quyidagilardir:

- An’anaviy sivilizatsiyalar, bunda ushbu savollar an’analar va urf-odatlar yordamida hal etiladi.

- Sotsiologik sivilizatsiyalar, bunda iqtisodiyotning uchta fundamental savollari markazlashgan rejalar asosida hal etiladi (bu savollar haligacha u saqlab qolingan mamlakatlarda hal etiladi).

- Bozor sivilizatsiyasi, ya’ni iqtisodiyotning uchta fundamental savollari bozorning stixiyali mexanizmlari yordamida hal etiladi.

Hozirgi vaqtda jahonda eng katta bo‘lib tarqalgan bozor xo‘jaligi, o‘zining ushbu kuchi sifatli iqtisodiyot nazariyasini o‘rganishning asosiy ob‘ekti bo‘lib qoldi.

**Bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyatlari.** Bozor iqtisodiyoti iqtisodiy tizim sifatida bir qator majburiy, o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- 1) investitsiyaviy resuslarga xususiy mulkchilik;
- 2) erkin tadbirkorlik va erkin ist'molga oid tanlash;
- 3) shaxsiy (o'z foydasi) manfaat, shaxsiyatparastlikning ustunligi;
- 4) raqobatlashuv shaxsiyatparastlikka qarama-qarshi sifatda;
- 5) bozor va narx-navo o'zini-o'zi tartibga soluvchi sifatida;
- 6) davlat faoliyatining bozorga yo'naltirilganligi (qaratilganligi);
- 7) ijtimoiy tengsizlik.

Endi bozor xo'jaligining bir qancha xususiyatlarini batafsil ko'rib chiqamiz.

Bozor iqtichodyotining asosiy aniqlovchi xususiyati va bu tizimning fundamenti bo'lib so'zsiz bunda xususiy mulkchilikning ustunligi hisoblanadi. Boshqa xususiyatlarinig barchasi o'zining ma'nosiga ko'ra xususiy mulkchilikda yasama bo'lib hisoblanadi.

**Mulk tushunchasi.** Mulk o'zi nimadan iborat? Mulk ko'proq umumlashgan shaklda – bu kishilarning moddiy boyliklarini o'zlashtirish usullariga asoslangan munosabatlaridir. Boshqacha so'z bilan aytganda, bu yerda munosabatlarning ikkita qatlami qatnashadi:

1) Kishilarning buyum, ashyolar bilan ob'ektiv-sub'ektiv munosabatlari (u bu narsalar bilan nima qila oladi va nima qila olmaydi).

2) Sub'ektli – sub'ektga oid mulkdorlar va boshqa kishilar o'rtasida yuz beradigan munosabatlar (mulkdorning atrofida qilarga nisbatan qanday huquq va majburiyatga egaligi).

Bir qancha ilmiy maktablar vakillarining munosabatlarni birinchi qatlami mustaqil emas, balki ikkinchisining bir qismi, deb taxmin qiladilar.

Ushbu munozaralarga mantiqiy berilmasdan hozirgi vaqtda umumqabul qilingan va iqtisodiy taxminlar uchun ko'proq samarali yo'nalishlarga XX asrning 60-yillarida birinchi Amerika iqtisodchisi R.Kouz shakllantirilgan mulkning huquqiy nazariyasiga (keyinchalik Nobel mukofoti sovrindori) to'xtaymiz. Kouz mulkini emas, balki mulkka egalik qilish huquqining alohida elementlarini ko'rib chiqishni taklif qiladi. Shu nuqtai nazardan u mulk yaxlit tosh emas, balki qandaydir to'plangan (to'xtam) huquqligini tasavvur etdi.

Boshqalarga nisbatan mulkka egalik qilish huquqi 11 elementni o'z ichiga oladi:

1. Egalik qilish huquqi.
2. Foydalanish huquqi.
3. Boshqaruv huquqi.
4. Daromad olish huquqi.
5. Sotish, o'zgarish, o'zgartirish, yo'q qilish huquqi.
6. Mulk xavfsizligiga oid huquq (ekspropriatsiyadan himoya qilish).

7. Vasiyat qilishga meros olish huquqi.
8. Boylikka muddatsiz egalik qilish huquqi.
9. Atrofdagilarga zarar keltiradiganni ta'qiqlash huquqi.
10. Qarzni undirish huquqi.
11. Mulk vakolatini qaytarish huquqi.

Moddiy boyliklarni o'zlashtirish usullariga bog'liq bo'lgan kishilar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlab berib, mulkka egalik qilish huquqi «mulk» tushunchalarining aniq mazmunini ochib beradi. Iqtisodiy tizimlar uchun haqiqatan ular «o'yin qoidasini» aniqlab beradilar.

**Xususiy mulkchilik.** Bozor iqtisodiyoti uchun ishlab chiqarishni amalga oshirish borasida xususiy mulkchilik asosiy ahamiyatga ega. Barcha huquqiy tutam bitta jismoniy yoki huquqiy shaxslar qo'lida to'planganda mutlaqo xususiy mulkchilik haqida gapirish mumkin. Ammo mulkdor huquqiy mulkning bir qismini qandaydir aniq shartlar asosida boshqa shaxslarga bersa, masalan, korxonaga egasi moneterlarga uni boshqarish huquqi bilan berdaigan bo'lsa. Huquqni taqsimlash kombinatsiyalarining variantlari korxonalarining har xil shakllarini yuzaga keltiradi (xususiy korxonalarining shaxsiyatparasligidan hissadorlik jamiyatigacha). Mulchilik huquqining boshqacha to'lmagan sharoitlari bo'lishi ham mumkin. Ular mulkdor to'plamiga kiradigan huquqlarining bir qismidan mahrum bo'lsa yoki bu huquqlarning bir qanchasi boshqa shaxslar tomonidan qonunga hilof ravishda tartibga olingan bo'lsa ham yuzaga keladi.

Har bir mulkdorning huquqi aniq ifodalanishi, huquq to'plami elementlarining farqlanishi, ularning qonuniy mustahkamlanishi va himoyasi aniq bo'lishi lozim. Mulkdor huquqi iqtisodiyot nazariyasi fanida **mulkdor huquqini tasniflash** nomini oldi. Bu tushuncha teskari (qarshi) tushuncha bilan ifoda etilishi mumkin. **Tasniflash** deganda, iqtisodiy resurslarga erkin kirish mulkdordan tashqari barcha uchun istisno etiladi, degan ma'noni anglatadi. Agar barcha uchun resurslarga erkin kirish bo'lsa, unda ular hech kimniki bo'lmay qoladi (egasiz bo'lib qoladi). Bozor munosabati faqat tasniflash naqd bo'lganda ishlay boshlaydi.

Hozirgi vaqtda mulkdorning huquq to'plashi aniq ifoda etilmagan shu tufayli yetarli darajada qonun bilan samarali himoya qilinishi kerak. Asosan, buni MDH mamlakatlarida xususiylashtirilgan korxonalar misolida ko'rish mumkin. Mulkdor huquqi bu yerda uchta asosiy guruhlar -sub'ektlar o'rtasida «bo'lingan»:

- 1) korxonalar ishchilari o'rtasida;
- 2) ushbu korxonalar rahbarlari o'rtasida;

3) tashqi mulkdorlar o'rtasida (ular o'rnida ko'proq xususiy firmalar va banklar chiqadilar). Ular o'rtasida barcha huquq to'plamiga ega bo'lish yoki ularda bosh bo'lish uchun kurash ketadi.

Iqtisodiy kategoriyalarning tilidan foydalanib aytadigan bo'lsak, ko'p joylarda mulkdor huquqini rasman berishi sodir bo'ldi, tasniflash esa, hali tashkil topish jarayonida turibdi. Bozorning rivojlanishi bilan tasniflash yangi fazaga kirishi kerak, qachonki, mulkdorlar huquqining to'plami qayta taqsimlanishi natijasida (olib sotish, olib-sotarlik, qisman qarzni o'zaro kechmoq, korxonalarining yomon boshqaruvi natijasida bankrot bo'lishi) huquq mustahkamlanadi va ko'proq samarali, resusrlardan ratsional ravishda foydalanishga qobiliyatli mulkdorga o'tadi. Davlatning eng asosiy vazifalaridan biri-shunday rivojlangan voqealarni rag'batlantirish bo'ladi.

**Iqtisodiy erkinlik.** Xususiy mulkchilik iqtisodiy erkinlikni ikki asosiy yo'nalishlari bo'yicha ro'y berishini oldindan belgilab beradi:

- Erkin tadbirkorlik.
- Erkin iste'molchi tanlovini.

Iqtisodiy erkinlikning amalga oshirilishi ham tadbirkorlik bilan, ham iste'molchilik bilan shaxsiy manfaatning ustunligini taxmin etadi. Erkin tadbirkorlik faoliyati deganda, yalpi ishlab chiqarishni tashkillashtirishga qaror qiladi. Nima, qancha miqdorda, qanday texnologiya yordamida ishlab chiqarish kabi savollarini hal etish uning suveren huquqidir. Albatta, mutlaqo erkinlik bo'lmaydi, uning doirasi qonun bilan va uning davlat himoyasida turganligi bilan ifoda etiladi.

Tadbirkorlik erkinligi uzoqqa tarqalishi bilan birga, ya'ni tadbirkor (jismoniy va huquqiy shaxs) u nafaqat daromad olib kelmaydigan, balki korxonalarining harob bo'lishiga ham olib kelishi mumkin bo'lgan noto'g'ri qarorlarni qabul qilish huquqiga ham ega.

Bozor mexanizmlari normal ishlashi uchun iste'molchi tanlovi erkinligining ham naqdligi zarurdir. Bu deganimiz, iste'molchi o'z ixtiyoriga o'zining talabini o'z qo'lida tutmog'i lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida hech qanday «eng yuqori» darajada tushunish (ziyonli, foydali, ilmiy asoslangan-asoslanmagan va boshqalar) iste'molchini aniq tanlovga majburlashi mumkin emas, garchan albatta, qandaydir me'yorda unga ta'sir ko'rsatishga qobiliyatli. Shu ma'noda iste'molchiing qabul qilgan qarorining suvereniteti to'g'risida gapirish mumkin, buni uning o'zidan boshqa hech kim yo'q qila olmaydi. Shuning uchun iste'molchining qaroriga barcha ishlab chiqaruvchilarning moslashmog'i shart.

Davlat tomonidan iste'molchi suverenitetini qo'llab-quvvatlash, aynan huquqini himoya qilish va aniqlash zarurdir. Bunga, xususan, iste'molchining huquqini himoya qilishi, raqobatchilikda insofsizlikka yo'l qo'yib bo'lmaslik haqida O'zbekistonda ishlab chiqilgan va harakatdagi qonun xizmat qilmoqda.

Davlatning o'zi, talon yoki ta'minot varaqasida (kartochkada) qandaydir iste'mol normasini belgilab kiritishi iste'molchining suverenitetiga suiqasd qilishi shart emas. Bunday vaziyatlar faqat urush vaqtida, tabiiy halokat yoki noiqtisodiy tabiiyotlarning keskin tanqisligi sharoitida ro'y beradi.

Bozor iqtisodiyotining kelgusi prinsipi bo'lib shaxsiy manfaat ustunligi hisoblanadi. Shaxsiy naflilikning sababi tanlashning juda ham kuchli manbasi bo'ladi, shuning uchun har qanday tadbirkor o'ziga nima foydali bo'lsa faqat o'shani amalga oshiradi.

Jamiyat ham shu bilan qanoatlanadi. Agar birga ular harakati qonunga zid bo'lmasa, unda bozor tizimida u har qanday harakat qilishi mumkin, hatto butun iqtisodiyotga ziyon keltirishiga qaramasdan, milliy valyuta kursiga putur yetkazishga urinsa ham. Nega bunday shaxsiyatparastlik bilan yondashuvga qaramay jamiyatta tartibsizliklar chiqmaydi?

**Raqobatchilik.** Yuqorida qayd etilgan savolga javob shuki, bozor tizimida kapitalistik shaxsiyatparastlikka qarama-qarshi kuchli raqobatchilik mavjuddir. U ishlab chiqaruvchilarning iste'molchilar talabi musobaqasida turadi, u o'z navbatida ularning daromadlari bilan hamma vaqt qattiq cheklangandir.

Ishlab chiqaruvchilarning tijorat manfaatlari ularni sifatsiz mahsulotlarni ishlab chiqarishga, narx-navoni oshirishga va boshqalarni tushuntirishga qobiliyatli, ammo raqobatchilik ularni iste'molchilar uchun foydali faoliyat yo'nalishlarini qidirishga majburlaydi, demak, jamiyat uchun ham. O'zbekistonda hozircha faqat asta-sekinlik bilan bo'lsa ham raqobatchilik muhitini shakllantirish jarayonlari ketmoqda.

Jamiyatda raqobatchilik mexanizimning harakatiga birinchi bo'lib A.Smit o'zining (1776 y.) «Xalqlar boyligining sabablari va tabiati to'g'risida tadqiqot» kitobida e'tibor bergan, bozorning «ko'rinmas qo'l», deb nomlangan prinsipini shakllantirgan. Ishlab chiqaruvchi o'zining foydasini ko'zlaydi, ammo bunga yo'l kimning iste'molini qondirish orqali yotadi. Agar iste'molchiga sizning molingiz (tovaringiz) yoqmasa, agar siz iste'molchining ko'nglini topmasangiz, siz kerakli tushumni, daromadni ololmaysiz. Natijada, ishlab chiqaruvchilarning barchasi «ko'rinmas qo'l» ning qandaydir harakati

tufayli faol, samarali va ixtiyoriy ravishda jamiyatning barcha manfaatini amalga oshiradi, shu bilan birga, ko‘pincha bu to‘g‘risida o‘ylamasdan, faqat o‘zining manfaatini ko‘zlaydi.

### **Bozor va narx-navo mexanizmi o‘z-o‘zini tartibga solish sifatida**

Bozor iqtisodiyotining barcha ko‘rib chiqilgan o‘ziga xos xususiyatlari bozorda ro‘y beradi. Bozor – bu xaridorlar va sotuvchilarni hmda tovar va xizmatlarning oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirish uchun birlashtiradigan jamiyat institutidir. Bozorning roli uning vazifalarida yuzaga keladi. Birinchi vazifasi – axborotga oid, qo‘zg‘atuvchanlik. Axborot bozorga tovarlarning narx-navo tanqisligi va ortiqchaligi to‘g‘risida axborot beradi. Ushbu munosabatda bozor iqtisodiyotini tartibga soluvchi aniq mexanizm sifatida yuzaga chiqadi. Agar bozorda tovarlar sotilmasdan ko‘paytirilib yuborilsa, narx-navo pasayib ketsa, bu albatta, barcha bozor sub’ektlari uchun xabar bo‘ladi. Ishlab chiqaruvchilarga bunday tovarlarni ishlab chiqarish foydasiz bo‘lib, ular taklifni qisqartiradi. Xaridorlar uchun aksincha, narx-navoning pasayishi xarid qilishni kengaytiradi. Shunday qilib, tovarlarning ortiqchaligi asta-sekin kamaytiriladi.

Bozorning ikkinchi vazifasi – taqsimotchi-nazoratchi yoki tartibga soluvchilikdir. Aynan bozorda ishlab chiqarish jarayonlarining pirovard natijasi paydo bo‘ladi: iste‘molchilar uchun faqat mantiqiy ma‘qul bo‘ladigan narxdagi tovarlar sotiladi.

Tovarga bo‘lgan talab, uning xarakteriga bog‘liq, demak, pirovard natijada uning narxiga ham. Yaxshi, muvaffaqiyatli mahsulotni ishlab chiqarish foydali, bu o‘z navbatida uning ko‘payishiga olib keladi. Shunday qilib, bozor mexanizmlari yordamida iqtisodiyotda bunday tovarlar foydasiga resurslar qayta taqsimlanadi va shu bilan birga, tovar ishlab chiqarishda bozor talabiga chidam bermaydigan tovarlar ishlab chiqarilmaydi.

Bozorning uchinchi vazifasi – integrallashmoq yoki birlashtiruvchilikdir. Aynan bozor ishlab chiqaruvchilarni va iste‘molchilarni birgalikda bog‘laydi va har xil mahsulotlarni ishlab chiqarishga jalb etadi. Natijada, bu iqtisodiyotni bir butunlikda birlashtiradigan markaz bo‘lib qoladi.

**Davlatning roli.** Haqiqiy bozor tizimlari hamma vaqt davlat doirasida mavjud bo‘lib, u muqarrar ravishda iqtisodiyotga aralashadi. Bozor va davlat - bu ikki qudratli kuchlar qanday qilib o‘zaro harakat qiladi? Bozor o‘zini-o‘zi tartibga soluvchi tizim sifatida ko‘p hollarda o‘zining vazifalarini butunlay mustaqil ravishda bajarishga qobiliyatlidir.



Ammo bir qancha vaziyatlarda bozor qiyinchiliklarni uddalashga qobiliyatsizroq va bu yerda davlatning yagona faol harakati qiyin holatdan chiqish yo'lini topishi mumkin.

Birinchidan, bu jamiyatga oid va notijorat moddiy boyliklarga tegishli. Masalan, sud, prokuratura (unda barcha qaror, yechimlar faqat boylarning foydasiga hal bo'lishi mumkin) yoki xususiy armiyalarning yaratishlarni bozor tizimida o'tazib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, (yana nima to'g'risida gapirish mumkin), bozor o'z-o'zidagi ijtimoiy muammolar bilan kelisha olmaydi.

Uchinchidan, juda ham ko'p iqtisodiy muammolar mavjud bo'lib, ularni hal etish bozor yo'li bilan mumkin, ammo amaliyotda davlatning aralashuvini talab etadi, sababi haqiqiy bozor mexanizmlari (sof nazariy tasavvur qilishdan farqlanishida) mutlaqo mukammallashgan holda bo'lmaydi.

Qanday bo'lmasin, sof bozor tizimida davlatning roli cheklangan, davlat iqtisodiy sub'ektlarni boshqarish vazifasini o'ziga olmaydi. Axir bunday tipdagi sivilizatsiyaning asosiy afzalligi bo'lgan o'zini-o'zi tartibga soluvchi bozor mexanizmlari buziladi.

Biz bu yerda qo'shimcha sharh beramiz: davlatning roli cheklangan deganimiz, kuchsiz, bo'sh deganimiz emas. Iqtisodchilar bu atamani ishlatishda shunday demoqchilar, ya'ni asosiy iqtisodiy muammolarni asosan, bozorning o'zi hal etadi, davlatning bunga aralashuvi faqat vaqtincha yoki qisman bo'ladi, ya'ni davlat o'zini bozorning o'rniga almashtirishga urinmaydi, haqiqatan esa, faqat qat'iy zaruriyat tug'ilganda harakat qiladi.

**Ijtimoiy tengsizlik muammolari.** Raqobatchilik bozor iqtisodiyotining shaxsiyatparastligiga qarama-qarshi xizmat qilishi shunday ma'noni anglatadi, ya'ni tadbirkorlar o'zining kuchini, talabini qondirishga yo'naltirishiga majburlaydi. Ammo u muvaffaqiyatli kapitalga, agar u bozor talabini to'g'ri tutadigan bo'lsa, aslo boyib ketishga, hatto juda ham boy bo'lishiga qarshi emas. Bu iqtisodiy taraqqiyotga yordamlashadi, tadbirkorlik faoliyatiga kuchli asos yaratadi. Ammo bir vaqtda bozor tizimi jamiyatning ijtimoiy qutblanishini rag'batlantiradi.

Resurslar egalarining qo'lida iqtisodiy hukmronlikni to'plash ro'y beradi. Aksincha, aholining ko'pchilik qismi iqtisodiy resurslarga egalik qilishdan mahrum etilgan, bu o'z navbatida unga iqtisodiy qaramlikni tug'diradi. Jamiyatda biri ish beruvchi, boshqasi esa, yollangan ishchi sifatida chiqishi tasodifiy emas. Shu bilan birga, daromadlarning tabaqalanishi, mol-mulk

qatlamlarga bo‘linishi ro‘y beradi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, bozor tizimi o‘z-o‘zidan avtomatik ravishda ijtimoiy adolatlilikni ta‘minlamaydi, aksincha, uning vektorlari qarama-qarshilik yo‘nalishlarga ega. Aynan shuning uchun ham bozor tizimi sivilizatsiyasi doirasida rivojlanayotgan ijtimoiy tengsizlik muammosi davlatning taqdirida katta rol o‘ynagan va kelgusida ham o‘ynaydi. Agar ijtimoiy tengsizlikning bir qancha tanqidiy choralari oshirilsa, mamlakatda ommaviy qo‘zg‘olon va to‘lqinlar boshlanadi, ko‘proq holatlarda esa, inqilobiy to‘ntarishlar ro‘y berishi mumkin. Aynan bozor sivilizatsiyasi shunday kuchli ilmiy va g‘oyaviy davlat qobiliyati kabi oqimlar barcha imkoniyat tarixini, sinflarning kurashini o‘zining moddiy manfaatini himoya qilish prizmasi orqali ko‘rib chiqishni yuzaga keltirgan. Tarixiy tajriba guvohlik qiladi: mamlakatda qanchalik ijtimoiy adolatsizlik kuchli bo‘lsa, bunda insoniyat tarixida yuz bergan g‘oyalar va unga yaqin qarindosh ta‘limotlar pozitsiyasi shunchalik mustaqil bo‘lgan. Qaysi jamiyatda moddiy muvaffaqiyat oliy darajadagi qadriyatlar soniga qarashli bo‘lsa, hamma narsadan mahrum qilingan qatlamlarning noroziligi muqarrar ravishda kesim shaklni tug‘diradi. Hozirgi zamondagi rivojlangan bozor jamiyatida bir qator ijtimoiy adolatsizlik darajasini cheklaydigan institutlar shakllangan. Davlatning roli ayniqsa, ijtimoiy sohada kuchli. Shunday progressiv soliq to‘lash tizimi boylarni kambag‘al-faqirlarga nisbatan ko‘proq soliq to‘lashga majburlaydi. Pensiya ta‘minoti, tibbiyotni sug‘urtalash, ishsizlik bo‘yicha yordam berish, bepul ta‘lim va aholining kambag‘al-faqir qatlamining munosib hayotlik ko‘pchilik boshqalar ma‘lum iste‘mol minimumini kafolatlaydi.

Mana shu yuqrida qayd etilgan ijtimoiy hayotga munosib barcha yo‘nalishlar uchun bizning mamlakatimizda sharoitlar yaratilgan.

## **11.2. Bozor tushunchasi**

Avvalgi boblardan bizga shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, iqtisodiyotda ijtimoiy mehnat taqsimoti rivojining ob‘ektiv qonuniyatlari ta‘siri ostida xo‘jalik faoliyati ayrim turlarining u yoki bu shaklda ajralib chiqishi doimo ro‘y berib turadi. Bir vaqtning o‘zida mazkur jarayon mulk institutlarini vujudga keltiruvchi munosabatlar bilan mustahkamlanadi. Hamkorlikning turli-tuman ko‘rinishlarini o‘rnatish: ixtisoslashtirish va kooperatsiyalash, jamlash va kombinatsiyalash, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash yo‘llarida mavjud zahiralardan foydalanishning eng samarali usullarini izlanish - alohida ajralib chiqan ishlab chiqarish birliklari o‘rtasida teng huquqli sheriklar orasida

bo'lganidek ayirboshlash asosida xo'jalik aloqalari o'rnatilishini hamisha talab qilib kelgan.

**Bozor.** Har biri o'z iqtisodiy manfaatini amalga oshirishga intiluvchi ko'psonli xo'jalik sub'ektlari o'rtasida xuddi shunday aloqalarning o'rnatilishiga bozor xizmat qiladi va u milliy iqtisodiyotning aniq maromda, uzluksiz faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Shuning uchun bozorning eng asosiy tavsifini quyidagi ta'rif bilan ifodalash mumkin: «bozor - bu ayirboshlash munosabatlariga hamda barcha ne'matlar va xizmatlarning pulliligiga asoslangan xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar tizimidir». Bozorning bunday ta'rifi unga berilgan sodda va aslini olganda xato talqinlardan qochib qutilish imkonini beradi. Bozor deganda, nomi bozor bo'lishiga qaramay, ayirboshlash jarayoni sodir bo'ladigan joyni ham, tovarlarning oldi-sotdisi bilan bog'liq faoliyatning bir turi sifatida savdoni ham tushunish kerak emas. Biz bozor haqida gapirganimizda, xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi tovarlar va xizmatlar beg'araz taklif etilmasligi tamoyiliga asoslangan iqtisodiy munosabatlar tuzilmalarining jami yig'indisini nazarda tutishimiz lozim. Bu demak, agar biz milliy iqtisodiyotni to'la-to'kis olib, undan huquqiy va jismoniy shaxslarning beg'arazlik soddaroq qilib aytganda, tekinlik tamoyiliga asoslangan iqtisodiy munosabatlarini chiqarib tashlasak, bu holda, milliy bozor tushunchasini olamiz.

**Milliy bozor.** Barcha moliyaviy munosabatlar o'z iqtisodiy mazmun - mohiyatiga ko'ra, agar ne'matga egalik huquqi va uning qiymati boshqa shaxsga o'tadigan bo'lsa, ana shunday beg'araz munosabatlar qatoriga kiradi. Soliqlar, ijtimoiy to'lovlar, yordam pullari, sovg'a qilish, vasiyat va hokazolar shular jumlasidandir. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, bu munosabatlarning to'g'ridan-to'g'ri, bevosita bozorga aloqasi bo'lmasa ham, ular bozorning ahvoli va faoliyatiga bilvosita ta'sir etadi.

Sog'liqni saqlash tizimi o'z ravnaqi uchun budjetdan qandaydir mablag'larni, ishsiz qolgan odam ishsizligi uchun nafaqa oladi, deb taxmin qilaylik. Bu sof ko'rinishdagi moliyaviy munosabatlardir, zero, huquqiy va jismoniy shaxslarni beg'araz, bir tomonlama moliyaviy ta'minlash ro'y bermoqda. Ammo ana shu xo'jalik sub'ektlari mablag'larni olib, ularni (pulni) o'z hayotiy ehtiyojlari yoki vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarga almashish maqsadid bozorga yo'l oladilar. Natijada, bozorda qo'shimcha ehtiyoj paydo bo'ladi, bu narx-navo ko'tarilishini va hokazolarni keltirib chiqarishi mumkin. Demak, ijtimoiy muhitning o'zi bozor munosabatlari faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishining omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Boshqa, oddiy bir voqeani olaylik, ishga joylashishning bozorga aloqasi yo‘qdek ko‘rinadi vaholanki, bunday emas. Bu holda ishga qabul qiluvchi xaridor rovida, xodim esa, ishchi kuchini, ya’ni mehnatga layoqatini sotuvchi rovida munosabatga kirishadi. Bu mehnat bozoridagi bitimdir. Shuning uchun bozor haqidagi tasavvuringiz bilan bog‘liq pirovard xulosani chiqarishga shoshilmang.

Bozor ishlab chiqaruvchilar bilan ist’emolchilar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari aloqalar qaror topishini ta’minlaydi va qullab-quvvatlaydi. Ehtiyojning o‘zgarishi taklifning o‘zgarishini keltirib chiqaradi. Shu tarzda iste’molchilar ehtiyoj orqali ishlab chiqarishda jamiyat uchun zarur yo‘nalishda o‘zgarish ro‘y berishiga ta’sir o‘tkazadilar. O‘z navbatida, ishlab chiqarish, yangi tovarlar va xizmatlarni taklif etar ekan, shu yo‘l bilan ijtimoiy ehtiyojning tarkibiy o‘zgarishiga ta’sir etadi. Shunday qilib, bozor orqali ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibiy tuzilishining barcha ne’matlar yig‘indisiga, ijtimoiy ehtiyojning hajmi va tarkibiy tuzilishiga mutanosibligining tabiiy qaror topishi ro‘y beradi.

**Talab, taklif, narx-navo.** Yuqoridagi bozor mexanizmining asosiy elementlari - bu narx-navo, talab va taklif, deb xulosa chiqarish mumkin. Talab aholi ehtiyojini to‘la-to‘kis emas, uning xarid qobiliyati bilan, ya’ni pul ekvivalenti bilan ta’minlangan qisminigina o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun talab ijtimoiy ehtiyojning haqiqiy hajmini va tarkibini ifodalaydi. Taklif - bu indallosini aytganda, bozor jamg‘armalari (zahiralari), ya’ni uzil-kesil sotish uchun olinayotgan tovarlarning yig‘indisidir. Talab bilan taklif o‘rtasidagi nisbat pirovard natijada narx-navoni belgilaydi. Narx-navo, o‘z navbatida, iste’molchilar uchun ham, ishlab chiqaruvchilar uchun ham bozordagi ahvol haqida axborot tashiydi. Ular har bir xo‘jalik sub’ektning bozordagi xulqini belgilaydi. Yakka tartibdagi son-sanoqsiz iqtisodiy qarorlar narx-navoda jamlanadi va muvozanatga keladi.

Bozor mexanizmining asosiy elementlari o‘rtasida ko‘p sonli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ruhiy, tashkiliy – texnik, tashkiliy-boshqaruv va hokazo omillar ta’siri ostida tarkib topuvchi anchagina murakkab sabab - oqibatli va xizmat doirasidagi aloqalar qaror topadi. Buning ustiga turli guruhdagi tovarlarga talab narx-navo, daromadlar darajasi, taklif hajmi kabi omillarning o‘zgarishiga bir xilda bog‘liq emas. Bundan tashqari, u yoki bu omillarning talab va taklifga, qisqa muddatli va uzoq muddatli narx - navoga turlicha ta’sir etishiga e’tibor berish kerak. Agar bozor mexanizmiga umumlashgan tavsif beriladigan bo‘lsa, bu holda, u narx - navoni shaklantirish va resurslarni taqsimlash mexanizmidan yoki narx-navo, ne’matlar miqdori va

ularning tarkibi asosida iqtisodiy munosabatlarni (sotuvchilar bilan tovarlar va xizmatlarning xaridorlari o'rtasida) o'rnatish mexanizmidan iborat bo'ladi.

Rivojlangan tovar ishlab chiqarishda ayirboshlash pul vositasida amalga oshiriladi. Pul mehnat faoliyati turli ko'rinishlari o'zaro hamkorligining va ularning ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimiga qo'shilishining zarur sharti bo'lib xizmat qiladi. Aynan jamiyat tomonidan u yoki bu ne'matning foydali, deb e'tirof etilishi pul yordamida, oldi-sotdi vositasida sodir bo'ladi. Tovarlarini pullash haqi naqd pul bilan to'langanda **T-P-T** ko'rinishida (bunda **T**-tovar, **P**-pul), tovarlar kreditga sotilganda esa, **T-M-T-P** bunda **T** va **P** ramzlarining ma'nosi saqlanib qoladi, **M** esa to'lovning majburiyligi) ko'rinishida sodir bo'ladi.

Jamiyat uchun yaratilgan ne'matlarning ijtimoiy ahamiyati yoki qiymati pul yordamida aniqlanadi. Ammo mazkur jarayonni bozorning bir tomonida yakka sotuvchi, ikkinchi tomonida-butun jamiyat turadi, deb tasavvur qilish yaramaydi. Ahvol nisbatan soddaroq. Har qanday xaridor o'z shaxsi bilan jamiyatni ifodalaydi, chunki bizsiz jamiyatning o'zi yo'q. Jamiyat alohida shaxslardan tashkil topadi. Shuning uchun har qanday oldi-sotdi voqeasi - ijtimoiy voqeadir. Buning ustiga u jamiyatdagi har qanday ikki agent faoliyatining bir-biridan farq qilishini, ya'ni ijtimoiy mehnat taqsimotini aks ettiradi.

### **11.3. Bozorning tarkibiy tuzilishi**

Bozor tarkibiy tuzilishini tahlil qilishga kirishilar ekan, shuni ta'kidlash kerakki, narx-navoning tashkil topish prinsiplari universal xususiyatga ega, chunki har bir bozorda talab va taklif kuchlari amal qiladi, narx-navo ularning ta'sirida tarkib topadi. O'z navbatida, narx-navo talab va taklifga ta'sir etadi. Shu bilan birga, narx-navo turli bozorlarda turli-tuman, bir-biridan qisman farq qiluvchi shakllarni kasb etadi. Agar barcha tovar bozorlarida narx-navo amal qilsa, mehnat bozorida u ish haqi shaklini, kapitallar bozori va pul bozorida - ustama foiz shaklini, yer bozorida -renta shaklini kasb etadi.

Umuman, bozor anchagina rang-barang va murakkab tarkibiy tuzilishi bilan tavsiflanadi. Uning tarkibiy tuzilishi tasviri tasniflashning tanlangan mezonlariga bog'liq. Bozor munosabatlari ob'ektlarining iqtisodiy vazifalari eng muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Ana shu mezonga ko'ra milliy iqtisodiy bozorlarning uch asosiy turini ajratib ko'rsatish mumkin: iste'mol tovarlari va xizmatlar bozori, ishlab chiqarish omillari bozori, moliya bozori shular jumlasidandir.

**Iste'mol buyumlari bozori.** Iste'mol tovarlari va xizmatlar bozori munosabat sohasi bo'lib, uning vositasida xalqqa iste'mol tovarlari va

xizmatlar realizatsiya qilinadi. Ushbu soha turli ijtimoiy guruhlar, har bir oila, har bir kishining ehtiyojlari qondirilishini ta'minlaydi. Mazkur bozor talab va taklif, pul muomalasi, inflyatsiya tebranishlariga ayniqsa, sezgir. Pul muomalasining yuqorida keltirilgan ko'rinishlari unda g'oyat yuksak darajada o'z aksini topadi. Mazkur bozor millatning farovonligiga bevosita ta'sir o'tkazadi. Tovarlar va xizmatlar bozori faoliyat ko'rsatish uchun ulgurji va chakana savdoning, marketing xizmatining rivojlantirilishi talab qilinadi. Iste'mol tovarlari va xizmatlar bozori doirasidagi oziq-ovqat mahsulotlari bozorini hamda sanoat yoki oziq-ovqat tovarlari bozorini ajratib ko'rsatish zarur. Ularning har biri faqat o'ziga xos xususiyatlarga ega, buning boisi, ularni turli sohalar ishlab chiqaradi, ularning ishlab chiqarishdan iste'molchi tomon harakat qilish usullari va ko'rinishlari ham bir-biridan farq qiladi.

Ishlab chiqarish omillari bozori ishlab chiqarishning mehnat, kapital, yer kabi omillari oldi-sotdisini taklif qiladi.

**Mehnat bozori.** Mehnat bozori barcha ishlovchilar xizmatining, shu jumladan, malakasiz va malakali ishchilar, boshqaruvchilar, firma rahbarlari xizmatining oldi-satdisidan iborat. Mehnat bozori vazifasi va tashkiliy tuzilishiga ko'ra ish bilan bandlik sohasidagi davlat siyosati tamoyillarini, mehnat munosabatlari huquqiy boshqaruvini, kadrlar tayyorlash tizimini, ishga yollash tizimini, xodimlarni qayta tayyorlash va qayta ixtisoslashtirish tizimini, mehnat birjalarini o'z ichiga oladi.

Ana shu bozorning eng muhim mexanizmi mehnat birjasi hisoblanadi, turli xil ishchi kuchiga talab va taklif bevosita shu birjada shakllanadi. Mehnat birjasida mehnat bozorida talab va ehtiyojga doir axborotlar bo'ladi, mavjud ishchi kuchi zahirasi va bo'sh o'rinlar qayd etiladi, u jamoat ishlarini tashkil etish bilan shug'ullanadi, ishga joylashish vaqtida maslahatlar bilan yordam beradi. Mehnat birjasi -davlat muassasasi bo'lib, mehnat vazirligiga bo'ysunadi. Ular bilan bir qatorda, ishga joylashishda vositachilik qiluvchi pulli xususiy agentliklar, kasaba uyushmalari, diniy va yoshlar tashkilotlari huzuridagi ishga joylashtiruvchi vositachi byurolar faoliyat ko'rsatadi.

Har qanday boshqa bozorda bo'lganidek, mehnat bozorida ham talab va taklif qonuni amal qiladi, ana shu qonunga muvofiq ishchi kuchiga (mehnatga) narx (ish haqi) belgilanadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar, ijtimoiy mehnat taqsimotining doimiy dinamikasi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar bir vaqtning o'zida ortiqcha ishchi kuchini va uning yetishmovchiligini, ya'ni bo'sh ish o'rinlari bo'lgani holda ishsizlarning mavjud bo'lishini izohlaydi. Gap shundaki, ayrim tarmoqar va mintaqalar ishchi kuchi yetishmovchiligini his etayotgan bir paytda, boshqa tarmoqlar va mintaqalarda ular keragidan ortiqcha bo'lishi mumkin. Mehnat bozorida ham raqobat mavjud, ana shu

mexanizm orqali eng layoqatli va tadbirkor xodimlarni saralab olish, malaka oshirilishini, bilimlarning yangilanishini rag‘batlantirish amalga oshiriladi.

**Investitsiya tovarlari bozori.** Real kapital bozori ishlab chiqarish omillari bozorining boshqa bir tarkibiy qismi hisoblanadi. Real kapital bozoriga, avvalambor, ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan tovarlar va xizmatlarni yoki aholi ehtiyojini qondirish uchun bevosita mo‘ljallanmagan, ammo bilvosita (etkazib beriluvchi dastgohlar, mashinalar, texnologiyalar, xom ashyo va materiallar orqali) jamiyatning zarur ne‘matlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish bo‘yicha vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan tovarlar va xizmatlarni kiritish lozim. Bunday bozor uchun ishlab chiqarish aloqalarining barqarorligi, tijorat operatsiyalarining keng ko‘lamligi va sheriklar o‘rtasidagi munosabatlarning uzoq muddatga mo‘ljallanganligi hosdir, chunki odatda, investitsiya yoki kapital mablag‘lar sarflash muammolarining hal etilishi ana shu bozor bilan bog‘liq. Bizning fikrimizcha, ilmiy-ishlab chiqarish mahsulini ham shu xildagi bozorning ko‘rinishlari qatoriga kiritish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Fan - texnika inqilobi sharoitida u texnologiyalarni, texnikani, xo‘jalik va ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimlarini takomillashtirish borasida katta ahamiyat kasb etadi. Bu shunday bozorki, unga eng yuksak aqliy va ijodiy mehnat, o‘ta zamonaviy investitsiya tovarlari va materiallari, shuningdek, katta tavakalchilik bilan bog‘liq ayniqsa, muhim va amaliy taddiqotlar sohasidir.

Mazkur bozorda mazmun - mohiyata yo texnika tamoyilida, yo texnikaning xizmat ko‘rsatish usulida, yo mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil etish ko‘rinishida bo‘lgan ma‘naviy mahsulot yoki xizmat-tovar vazifasini o‘taydi. Patentlar, litsenziyalar, nou-xau (bilim va tajriba), injiniring, tajriba namunalari va hokazolar oldi-sotdi ob‘ekti hisoblanadi.

Mazkur bozor mahsulotlarining investitsiya tovarlari ahvoli va sifatiga, ishchi kuchiga, boringki har qanday pirovard tovarlar va xizmatlarga ta‘sir doirasi serqirraligi va serjabhaligi ta‘lim, oliy maktab va fan tizimining faoliyati shart-sharoitlariga e‘tibor qaratish zaruratini taqozo etadi hamda madaniyat-ma‘naviyat bilan qo‘shilib, insoniyat manfaatlariga zid bo‘lmagan, chinakam ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlashning yo‘l boshlovchi nuqtasiga aylanadi.

**Axborot bozori.** Mazkur bozor boshqa bozorlar bo‘lajak holatining darakchisi rolini o‘ynaydi. Axborot bozori vujudga kelayotgan vaziyatga muvofiq va unga javob beradigan qarorlarni qabul qilish uchun u yoki bu bozordagi ahvol haqida rang- barang va xilma-xil ma‘lumotlarni yetkazib berish bilan ob‘ektiv ravishda bog‘liqdir. Shuning uchun axborot bozori

bevosita xizmat vazifasidan kelib chiqib, xo‘jalik sub’ektlarini qisqa muddatli va o‘rta muddatli rang-barang axborotlar bilan ta‘minlashga mo‘ljallangan.

Axborot bozori kengroq talqin qilinadigan bo‘lsa, tarkibiy qismlaridan biri sifatida unga fan-texnika mahsulotlari bozorini ham qo‘shish mumkin. Ammo bunday integratsiyaning naf keltirishi amri mahol, sababi, ilmiy- ishlab chiqarish bozori -bu boshqa tovar bozorlarining, shu jumladan, tor ma‘nodagi axborot bozorining kelgusidagi ahvolidan darak beruvchi bozordir. Fan va texnika sohasidagi yutuqlarni va mehnat taqsimotining rivojlanish tamoyillarini bilmay turib, ilmiy mahsulotlar bozoridagi vaziyatdan xabardor bo‘lmay, uzoq muddatli qarorlar qabul qilib bo‘lmaydi.

**Yer bozori.** Bozorning boshqa bir tarkibiy bo‘linmasi yer bozori hisoblanadi. Mazkur holda yer deganda nafakat kishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, qurilishlar va boshqa ehtiyojlar uchun mo‘ljallangan yer maydonlari, shuningdek, yerning qa‘ri, qazilma boyliklar ham tushuniladi. Shuning uchun yer bozorida ham qishloq xo‘jaligi, ham qurilish industriyasi, ham sanoat, birinchi navbatda konchilik sohasi, ham davlat tuzilmalarining vakillari uchraydi. Shu bilan birga, mazkur bozorda faqat yer oldi-sotdisi bilan bog‘liq, ya‘ni yerga egalik huquqi bir qo‘ldan ikkinchi qo‘lga o‘tishi bilan bog‘liq bitimlar tuziladi, deb taxmin qilish noto‘g‘ri bo‘ladi. Ushbu bozordagi aksariyat bitimlar mutlaqo o‘zgacha xususiyatga ega: yerni ma‘lum muddatga ijaraga berish sodir bo‘ladi. Mazkur holda mutlaq egalik xuquqi yerning egasida qoladi, u rentani o‘zlashtirish yo‘li bilan egalikning iqtisodiy munosabatini amalga oshiradi. Yangi xo‘jayin ijarachi ijara bitimida ko‘zda tutilgan muddatgagina egalik huquqini qo‘lga kiritadi, ammo buning uchun u har yili yerning haqiqiy egasiga renta to‘lashi lozim. Shunday qilib, yer rentasini o‘zlashtirish yerga egalik xuquqini amalga oshirishning iqtisodiy ko‘rinishidan iborat bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, ijaraga oluvchi muntazam, ijara shartnomasida ko‘zda tutilgan butun muddat mobaynida yer egasiga (ijaraga beruvchiga) renta to‘lab turishga majburdir.

Renta to‘lovlari bilan bog‘liq ijara munosabatlari mazmunini tushunib olgach, biz to‘la asos bilan aytishimiz mumkinki, u yoki bu mamlakatda yerga shaxsiy egalik huquqi qonun yo‘li bilan mustahkamlanmagan bo‘lib, u davlat mulki, deb e‘lon qilingan bo‘lsa ham, bu ana shu mamlakatda yer bozori yo‘q, degan ma‘oni anglatmaydi. Bunday holda davlat butun xalq nomidan yagona ijaraga beruvchi vazifasini o‘taydi, u yerni ma‘lum muddatga yoki muddatsiz kimningdir ixtiyoriga berib, renta to‘lovlarini hamisha, u yoki bu ko‘rinishda davlat budjetiga undiradi. Bunday holda biz davlatni yagona «Sotuvchi» qiyofasida ko‘rayapmiz, har qanday xo‘jalik sub’ekti-jismoniy yoki huquqiy shaxs esa, «xaridor» vazifasini bajarishi mumkin.



**Qimmatli qog'ozlar bozori.** Qimmatli kog'ozlar bozori kapital bozori bilan mustahkam bog'liq, chunki u mavjud kapital – aksiyalar, obligatsiyalar, veksellardan iboratdir. Aslini olganda, kapitalning ikkiga - chinakam va soxta kapitalga bo'linishi sodir bo'lmoqda, ularning har biri o'zaro bog'liqligiga qaramay, mustaqil harakat, muomala kasb etadi. Chinakam kapital bu - korxonaning fondlari (binolar va inshootlar, mashinalar va dastgohlar, xom ashyo va materiallar). Soxta kapital chinakam kapitalni qimmatli qog'ozlarda aks ettiradi, ular mustaqil tovar sifatida o'z yo'li bilan harakat qiladi, har qanday tovar kabi o'z qiymatiga ega, bu qimmatli qog'ozlar kursi, deb ataladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida qimmatli kog'ozlar savdosining ikki tashkiliy ko'rinishi mavjud: avvalgi chiqarilgan qimmatli qog'ozlar (asosan, aksiyalar) muomalada bo'lgan fond birjalari va aksiya hamda obligatsiyalarning yangi emissiyalarini (turkumlarini) birlamchi joylashtirish amalga oshiriladigan, shuningdek, yirik bo'lmagan korporatsiyalarning avvalgi chiqarilgan aksiya va obligatsiyalari sotiladigan hamda sotib olinadigan birjadan tashqari oboroti. Qimmatli qog'ozlar harakati kapitallarning bir ishlab chiqarish va tarmoqqa olinib, yanada ko'proq foydani ko'zlab, boshqa (ishlab chiqarish va tarmoqlarga safarbar etilishini, bu demak, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

**Pul bozori.** Pul bozori alohida o'rin tutadi. Agar odatdagi tovar bozorida pul tovarlarni almashish vaqtida vositachilik vazifasini bajarib, tovar narxiing o'lchovi sifatida namoyon bo'lsa, moliya bozorida pulning o'zi to'la huquqli tovarga aylanadi, undan foydalanish bahosi bozor qonuniyatlariga muvofiq talab va taklif asosida belgilanadi. U qarzga berilgan pul uchun olinadigan ustama foiz, ya'ni daromad ko'rinishini qabul qiladi. Pul taklifi, eng avvalo, aholining omonatlari, shuningdek, korxonalar va tashkilotlarning jamg'armalari hisobiga shakllanadi.

Aytish kerakki, pul taklifi pul egalarining ustama foiz olishga intilishi bilan izohlanadi. Demak, pul taklifi vaqtincha erkin pul mablag'larining mavjudligi bilan bog'liq, deb xulosa chiqarish mumkin. Pulga talab xo'jalik agentlarida hamda davlatda u yoki bu xo'jalik loyihasini va dasturini moliyaviy ta'minlash uchun o'z mablag'lari yetishmay qolgan hollarda vujudga keladi. Shuning uchun pulga talab xo'jalik agentlarida va davlatda pul resurslarining yetishmovchiligi bilan bog'liq.

Shunday qilib, pul bozori shunday bir sohaki, unda ikki arama-qarshi qutb birlashadi, ularning manfaatlari muvozanatga keltiriladi. Bir qutbda erkin pul resurslari jamlanadi, ikkinchi qutbda esa, pul yetishmovchiligi xis etiladi.

Har ikki tomon kredit bitimga kirishib, o'z manfaatlarining qondirilishiga erishadi: birinchisi pul resurslarini qo'lga kiritadi, ikkinchisi berilgan qarz

uchun ustama foiz ko‘rinishida daromad oladi, ana shu ustama foizni ma’lum muddatdan so‘ng qarz oluvchilar qaytarishi kerak.

Bozorni boshqa mezonlar bilan ham tasniflash mumkin. Jumladan, mahsulot tarmoqariga ko‘ra (avtomobil, po‘lat, neft, kompyuterlar bozori), savdo jihatiga ko‘ra (ulgurji va chakana savdo bozorlari), hududiy joylashishiga ko‘ra (mahalliy, mintaqaviy, milliy, jahon bozorlari), raqobat xususiyatiga ko‘ra (mukammal va nomukammal bo‘lmagan raqobat). Bozorlarning yuqorida ko‘rib chiqilgan turlari kabi bozorlarning mazkur ko‘rinishlari ham asta-sekin, iqtisodiyot nazariyasi kursi bilan tanishish davomida tahlil qilib beriladi.

Ma’lumki, oxirgi yillarda sivilizatsiyalashgan bozor iqtisodiga o‘tish davridagi ilmiy munozaralarda bizga iqtisodiyotda fan-texnika taraqqiyotining samarali rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etishni ishlab chiqish zarurligi bo‘yicha juda ham ko‘plab fikrlar bayon etilgan edi. Shunday bo‘lsa ham, bunday mexanizmlarni yangidan o‘ylab chiqarish kerak emas edi. Bu juda ham ma’lum, sababi tabiiy yo‘l bilan insoniyatning har xil xo‘jalik yuritishida paydo bo‘lgan, u o‘zining harakatchanligini va universalligini dalillab bergan va hozirgi vaqtda juda ham katta muvaffaqiyat bilan iqtisodiyot amaliyotida ko‘pchilik davlatlarda va sayyoramizning xalqlarida foydalanilmoqda.

Endi bozorni unga xos bo‘lgan raqobati to‘g‘risida biz ega oladigan bo‘lsak, o‘sha raqobatni, u to‘g‘risida oldindan XIX asrning o‘rtalarida asosiy iqtisodchilarning biri: «shunday umumiy munosabatlar borki, unda biz hozirgi vaqtda o‘zimizning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantiramiz», deb yozgan edi. Shunday qilib, bu yerda gap aynan FTT ni rag‘batlantirish mexanizmlari haqida ketayapti.

Bozor, tovar ishlab chiqarish, raqobat ancha oldin mavjud bo‘lgan, ammo yodan chiqarmaslik kerakki, insoniyatning juda katta qismi o‘zining tarixini bozorsiz, natural xo‘jalikning podishohligi ostida yashagan. Ma’lum bo‘lishicha, bu xo‘jalik modeli resurslar va mehnat ustidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruqbozlikda jamoa, oilalarning aniq xo‘jalik vazifalari va yaratilgan mahsulotlarni tenglashtirilgan taqsimot asosida qurilgan edi. Bu yerda shuni esga olish o‘rinli, ya’ni bu o‘zining tenglashtirilganligi bo‘yicha, ya’ni alohida shaxslarning tengligi bo‘yicha natural xo‘jalik boylarniki emas, balki kambag‘al, faqirlar jamiyatining asosi bo‘lgan edi.

Albatta, insoniyatning oldingi tarixidan farqlanishida, hozirgi sivilizatsiyalashgan jamiyat natural xo‘jalikda emas, balki tovarlashgan, bozor xo‘jaligida, ya’ni, bevosita aloqalarida emas, balki bilvosita aloqalar afzalligi dunyosida yashamoqda.

Ammo bu degani, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri boshqaruv (bevosita «taqsimlanadigan») hozirgi zamon amaliyotidan to'liq istisno qilingan deganmikan? Albatta, yo'qda. Buning ustiga, tarix jamiyatga o'zini oqlamagan iqtisodiyotdagi asosiy munosabatlarning barchasi alohida olingan davlatlarda to'g'ridan-to'g'ri direktiv aloqalari prinsipida to'laqonli tovar – pul munosabatlari vositasining yordamisiz qurishga urunganligini biladi. Bizning oldingi mamlakatimizdagi joylashgan xo'jalik mexanizmlarimizni bekorga «ma'muriy buyruqbozlik», «direktivga oid – byurokratik», «buyruqbozlik asosida taqsimlovchi» tizim (ba'zan esa, ayniqsa, izzat-ikrom bilan – Ma'muriyatga oid Tizim) deb aytilgan.

Qani endi o'zimizga shuni aniqlaymiz, ya'ni hozirgi zamon iqtisodiyotida ikkala shakli ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilik aloqalari foydalaniladi, mavjud va o'zaro harakatda bevosita (taqsimlanadigan, direktivga oid, majburan o'rnini to'ldirishni, ya'ni ekvivalentlik munosabatini) va bilvosita (bozorga oid, oldi-sotdi aktlari bilan, ya'ni ekvivalentlik almashuviga asoslanadi). Bunga muvofiq ikkala – rejali va bozorli boshlanishning birlashuvi kuzatib turiladi. Birinchisi o'zini avvalambor alohida xo'jalik birliklari ichida ishlab chiqarish jarayonida moddiy resurslarni va mehnatni (mikrodaraja), hamda davlatning tartibga solish faoliyatida, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni bajarishda (makrodaraja) foydalaniladi. Ikkinchisi resurslarni va tayyor mahsulotlarni qo'ldan-qo'lga berishda aktlarning ko'pchilik qismiga xizmat qiladi, ya'ni jamiyatda iqtisodiy aloqalarning asosiy shakllari rolini bajara turib ijtimoiy hayot faoliyatining markazida turadi.

Shunday qilib, hamma narsa iqtisodiyotda bevosita va bilvosita shakldagi aloqalarni ularning rejali va bozorli boshlanishini birlashtirishdan iborat. Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishida rejalisining ustunligi bitta modelni beradi (ma'muriy buyruqbozlik tizimi), shunga muvofiq bozorga oid bo'lgan rivojlanishning ustunligi prinsipial ravishda farqlanadigan modelni (bozor iqtisodiyoti) beradi.

Bozorning kuchi nimada? Nima uchun hozirgi vaqtda biz ham bozor iqtisodiyoti foydasiga hal qiluvchi tanlovni qilamiz, uni nafaqat oldingi qatordagi jamiyatning ijtimoiy maqsadini ta'minlash bilan moslashishni, ammo uning muvoffaqiyatli realizatsiyasiga muvofiq eng yaxshi, deb hisoblaymiz?

Ushbu savollarga ishonarli javob berish uchun, avvalambor, bozorning prinsiplarini va mexanizmlarini ko'rib chiqish kerak, ya'ni bozorni aniq tizim sifatida tadqiq qilish lozim.

#### **11.4. Bozor iqtisodiy sub'ektlarining o'zaro harakat qiluvchi mexanizmi sifatida**

Uch yirik namoyonda ustiga qurilgan har qanday tovar xo'jaligi bu – tovar ishlab chiqaruvchi – mulkdorlarning iqtisodiy alohidalashuvi (avtonom holatda); ular o'rtasidagi mehnat taqsimoti; har bir iqtisodiy sub'ektlar uchun o'zlarining manfaatlarini ta'minlashga intilishi (erkin) uchun yo'l ochiq.

Tarixiy amaliyotning ko'rsatishiga, birinchi shart -engil va to'liq xususiy mulkchilik asosida ta'minlanadi (bu degani, ya'ni ishlab chiqarish birliklarining mustaqilligi boshqa yo'l bilan ta'minlanishi mumkin emas degani emas). Ikkinchi shart - umumiy mehnat taqsimotining rivojlanishi va chuqurlashuvi bilan bog'langan, shu jumladan, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va korporatsiyalashuvining munosabatlarida. Uchinchi shart - aniq tovar ishlab chiqaruvchilarning manfaatini himoya qilishga yo'naltirilgan va raqobatchilik fe'l-atvorining xo'jalik yuritishining erkinligi sifatida yuzaga keladi.

Jamiyatda bu dastlabki shart-sharoitlarning mavjudligi bilvosita (bozorga va tovarga oid) shakldagi aloqalari asosiy bo'lib, ustun kelishini ko'rsatadi. Bozor o'ziga xos raqobat bilan tovar xo'jaligining (ishlab chiqarishning) mahkam asosini yaratadi, uning mexanizmining asosiy elementi bo'lib hisoblanadi. Alohida tovar ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish tizimi kabi ko'pchilik «ichki dunyo» ning asosan to'g'ridan-to'g'ri aloqa prinsiplari, o'zlarining mahsulotlarini, tovarlarini har kuni «tashqi soha» ga (bozorga) itarib chiqadi, bu yerda ular boshqa ishlab chiqaruvchilarning tovarlari bilan, xaridorlarning puli uchun raqobatlashuvga kirishib to'qnashadi.

Bu yerda, bilvosita o'rnini to'ldiruvchi, ekvivalentlik aloqalari sohasida, ko'p stixiyali, noaniqlik omili o'zini kuchli ko'rsatadi, alohida xo'jalik sub'ektlarining katta to'qnashishi ro'y beradi. Raqobatli bozor qatnashchilarining mustaqil tashkillashtirilgan iqtisodiy faoliyati va suveren, «xudbinli» fe'l -atvori hamma vaqt tushunmagan, jamiyatning qandaydir ikkinchi darajali ehtiyojini qondirish natijalariga ega bo'ladi. Ishlab chiqaruvchilarning o'zida tabaqalanish ham ro'y beradi: ko'pincha muvaffaqiyatli, oldingi qatordagilar uchun bozor vaqtincha ularning yangiliklardan afzalligini (o'zining turiga yarasha «texnologiyali monopoliya»sini) mustahkamlaydi, eng yomonlarini, kundan-kunga zaiflashib borayotganlarni, orqada qolib ketayotgan, qoloqlarni esa ayamay, shafqatsizlik bilan vayron qiladi. Shunday qilib, eng yaxshi ishlab chiqaruvchilarni tanlov ta'minlaydi va FTT rag'batlantiriladi.

Bozor tizim sifatida aniq muvozanatlangan ikkita – stixiyali va tashkillashtiruvchi, raqobatli va monopollashgan boshlanishlarni birlashtirishini tasavvur etadi.

Bozor o'ziga xos raqobatli va monopollashgan (tashkillashtiruvchi) boshlanishida o'zining dialektik o'zaro harakatida ham individual, guruhlashgan va umumlashgan manfaatlarining birligini ta'minlaydigan samarali mexanizmlarini beradi.

Shunday bozor mexanizimining «tashkillashtirilgan raqobatchilik» mexanizmi, deb aytish mumkin, buning ustiga u raqobatli va tashkillashtirilgan boshlanishga optimal birlashtirishga ichki intilishi o'z-o'zidan sozlanadigan katta salohiyatga ega bo'ladi.

Har bir aniq shart-sharoitlar uchun shunday optimum bo'lib minimal monopollashuvda (tashkiliy, reglamentga solish) maksimal raqobatlashuv bo'ladi.

Ushbu optimumdan og'ish jamiyat uchun tug'diradigan og'ir yo'qotish bo'ladi. Endi, raqobatli stixiyaning aysh-ishratga berilishi, reglamentga solingan mexanizmlarning (o'yin qoidasi) zaiflashishi bo'yicha barchaning barchaga qarshi kurashi «qoziqtish va tirnoqlari bilan» juda ham vayron qiluvchi oqibatlariga: ommaviy bankrotlikka, ishsizlikka, muttahamlikka va mahsulotlarni soxtalashtirishga olib kelishi mumkin.

### **11.5. Bozor infratuzilmasi**

Bozorning rivojlanishi va tarkibiy tuzilishining murakkablashib borishi ob'ektiv ravishda uning infratuzilmasini shakllantirishni talab qiladi. Bozor infratuzilmasi - bu alohida bozorlarning faoliyat ko'rsatishiga yordam berishga da'vat etilgan ixtisoslashgan tashkilotlar tizimidir. Jumladan, tovarlar va xizmatlar bozorlarida ulgurji va chakana savdo tizimi, tovar birjalari faoliyat ko'rsatadi. Savdo korxonalarini bozor infratuzilmasining birinchi elementi sifatida namoyon bo'ladi, ular tufayli tovarlar oqimi tartibga solinadi, ayrim tovarlar va xizmatlar bozorlaridagi ahvol haqida zarur axborotlar yig'iladi.

**Tovarlar birjasi.** Tovar birjalari, odatda, tovar guruhlarining turdoshlik va yaqinlik belgilariga ko'ra (masalan, g'alla, neft, paxta birjalari) shakllanadi. Ular nafaqat mavjud tovarlarning realizatsiya qilinishiga, shu bilan birga, kelajakda yetkazib beriladigan mahsulotlar yuzasidan bitimlar to'zilishiga xizmat qiladi. Aytaylik, paxta yoki g'alla yetishtirish bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklarga hosil olish bilan bog'liq ishlar majmuini me'yorida amalga oshirish uchun mablag' yetishmaydi. Bunday holda ular tovar birjasiga murojaat etishlari va bo'lajak hosil evaziga qarz olishlari mumkin. Ayni vaqtning o'zida qarz oluvchi bilan qarz beruvchi o'rtasida bir tonna bo'g'doy yoki paxtaning narxi xususida ahdlashuvga erishildi.

**Fond birjasi.** Bozor infratuzilmasining boshqa muhim elementi fond birjasi -qimmatbaho qog'ozlar: aksiya va obligatsiyalarning oldi-sotdisi

amalga oshiriladigan va ularning kursi, ya'ni bozor bahosi belgilanadigan tashkilot hisoblanadi. Fond birjasi, o'z navbatida, brokerlik kompaniyalari shohobchasidan iborat o'z infratuzilmasiga ega. Brokerlik kompaniyalari mijozlarining topshirig'i bilan birja operatsiyalarini amalga oshiradi.

Fond birjalari banklar o'z operatsiyalarini amalga oshiradigan pul bozori bilan mustahkam bog'liq. Pul bozori jamg'armalari tizimi hamda aksiya kursi (fond birjasidagi) va foiz stavkasi (bank tizimidagi) o'rtasidagi aloqalar vositasida fond birjalari bilan banklar o'rtasida aloqalar o'rnatiladi. **Foiz stavkasi – bu banklar tomonidan depozitlarga (omonatlarga) belgilangan foiz.**

**Bank tizimi.** Bank tizimi -bu kredit tizimining bir qismi bo'lib, u banklarni, sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlarini, kasaba uyushmalarining tijorat faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega boshqa tashkilotlarining fondlarini o'z ichiga oladi. Bu vaqtincha erkin pul mablag'larini safarbar etish, jamlash va ularni kreditlar yoki kapital sarflar ko'rinishida joylashtirishning tegishli shakllarini topishga qodir bo'lgan muassasalar va tashkilotlar yig'indisidir.

Banklar-kredit tizimining o'zagini tashkil etadi. Bank tizimi, odatda, ikki qavatli tuzilishga ega. Birinchi qavat markaziy (davlat) banki bo'lib, u pul xo'jaligining ahvoli va takomillashtirilishi uchun to'la-to'kis javobgardir. U bir tomondan, qulay investitsiya muhiti uchun shart-sharoitni ta'minlashga va kredit munosabatlarini rag'batlantirishga; ikkinchi tomondan, inflyatsiya jarayonlari avj olishiga yo'l qo'ymaslikka da'vat etilgan. Banklar pul bozori agentlarining xatti-harakatiga ta'sir o'tkazish uchun butun bir vositalar termasiga (banklararo kredit stavkasi, zaxiralar, ochiq bozordagi operatsiyalar) ega ekanligini biz keyinroq bilib olamiz.

Ikkinchi qavat tijorat, investitsiya, ipoteka (garovga qo'yilgan ko'chmas mulk evaziga qarz beradi), innovatsiya (texnika yangiliklarining yaratilishi va o'zlashtirilishi uchun qarz beradi) banklaridan iborat. Shuni qayd etish kerakki, hozir tijorat banklari ham, ixtisoslashgan banklar ham o'z faoliyatlari doirasini ancha kengaytirishgan, turli-tuman operatsiyalarni amalga oshirishadi.

Markaziy bank sog'lom pul muomalasini ko'llab-quvvatlash maqsadida o'z ixtiyoridagi vositalar yordamida bank tizimining ikkinchi qavatiga ta'sir o'tkazishga da'vat etilgan.

## 11.6. Erkin bozor

Mazkur bozorda to'la-to'kis mustaqil agentlar faoliyat ko'rsatadi, ularning har biri o'z iqtisodiy manfaatini amalga oshirishga intiladi. Bozorning har bir agenti ayirboshlash munosabatlariga kirishar ekan, u yoki bu ne'matni

berib, buning evaziga boshqa ne'matni olishga intiladi. Shuning uchun, u yoki bu ehtiyojni qondirishga mo'ljallangan va ayirboshlash qiymatiga ega har qanday ne'mat tovar hisoblanadi. Almashish qiymati ne'matning ma'lum nisbatlarda boshqa ne'matga ayirboshlash xususiyatini belgilaydi. Masalan «X» miqdoridagi **A** ne'mati «U» miqdoridagi **B** ne'matga ayirboshlanadi.

Agar tovarlar ayirboshlash munosabatlariga kirishar ekan, har bir «oldi-sotdi» jarayonida iqtisodiy manfaatlari mutlaqo qarama-qarshi ikki kontragent uchrashishini fahmlash qiyin emas. Taklifni o'zida mujassam etgan sotuvchi tovarni qimmatroq sotishga intiladi, talabni mujassam etgan xaridor esa, uni arzonroq olishni istaydi. Kontragentlar xohish-irodasining erkin namoyishi iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirishdan boshqa narsa emas, pirovard maqsad esa, iloji boricha ko'proq foyda olish.

Xohish-irodaning bunday namoyishi uchun, shubhasiz, bozorda to'la erkinlik va oshkoralik bozor barcha agentlarining mutlaq tenglik muhiti hukm surishi lozim. Bozor munosabatlarining bunday holati «erkin bozor» tushunchasi bilan izohlanadi, u bir qator talablarga javob berishi kerak.

**Erkin bozor belgilari.** Bunday bozor talablariga, avvalambor, har qanday tovar ishlab chiqaruvchining bozorga erkin kirishi va chiqishini kiritish lozim, bu uning qatnashchilari soni cheksiz bo'lishini tahmin qiladi. Bunday ochiqlik tufayli alohida olingan tovar ishlab chiqaruvchining bozordagi vaziyatga ta'siri umuman, shu qadar arzimagan bo'ladiki, uni e'tiborga olmasa ham bo'ladi. Bozorning bunday holati monopoliya ko'rinishi bir sotuvchining yoki monopsoniya -bir xaridorning hukmronligi mutlaqo yo'qligi bilan tavsiflanadi.

Ammo erkin kirish va chiqishni ta'minlash uchun, bozor agentlari bunday qarorni bozordagi vaziyatga doir to'liq axborotni (narx-navo va foiz darajasi, talab va taklifning ahvoli va hokazolarni) emin-erkin olib, so'ngra qabul qilishi kerak. Bu bozorning har bir qatnashchisiga maqbul harakat qilish: kam sarf bilan ko'proq foyda olish yo'lini erkin tanlash imkonini beradi.

Erkin bozorning boshqa bir belgisi ishlab chiqarish omillarining mutlaq safarbarligi hisoblanadi. Shunday deganda zarur hollarda kapitalni, moddiy va mehnat resurslarini xo'jalik faoliyatining bir tarmog'i va sohasidan boshqasiga yo'naltirish imkoniyatining mavjudligi tushuniladi.

Bozor sub'ektlarining iqtisodiy munosabatlariga davlatning aralashishiga yo'l qo'ymaslik, u yoki bu iqtisodiy siyosatni o'tkazishdan voz kechish bozor faoliyatining muhim shartidir.

Real voqelikda yuqoridagi shartlarning to'liq bajarilishiga ishonish qiyin. Raqobatning to'liq erkinligi haqida gapiriladigan bo'lsa, bir narsa ayonki, xuddi shu raqobat natijasida bir xil tovar ishlab chiqaruvchilar xonavayron

bo‘ladi, boshqalari bozordagi mavqelarini mustahkamlaydi, bozordagi o‘rinlarini kengaytiradi, oxir-oqibatda uni monopoliya qilib olishi mumkin. Bundan tashqari monopoliya yangi mahsulot ishlab chiqarishni o‘zlashtirish, ishlab chiqarishning yangi texnologiyasidan foydalanish asosida ham rivoj topishi mumkin. Bunday imkoniyat faqat bir tovar ishlab chiqaruvchida bo‘lishi mumkin, chunki uning huquqini kashshof sifatida xuquq patenti himoya qiladi.

Agar erkin va teng miqorda axborot olish imkoniyata haqida gapiradigan bo‘lsak, bu ham haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi, sababi, axborot ham qiymatga ega, tovar sifatida sotiladi. Shuning uchun u yoki bu bozordagi ahvol yoki uning rivojlanish istiqboli haqidagi batafsil axborotni xizmat haqini to‘lashga qodir bo‘lganlarga oladi.


Kapital va resurslarning erkin ko‘chishiga kelsak, bu shartni ham bajarish mushkul. Birinchidan, ko‘pgina ishlab chiqarishlarning xilma-xilligi, chiqisha olmasligi bilan bog‘liq tabiiy cheklashlar mavjud. Shuning uchun ishlab chiqarishda foydalaniladigan vositalar va ishchi kuchi turli xususiyatga ega ekanligi sababli, ishlab chiqarish faoliyatini qayta ixtisoslashtirish anchagina murakkab muammoga aylanadi. Ikkinchidan, ishlab chiqarishning turli sohalari va tarmoqlari ishlab chiqarishni birinchi bor tashkil etishni investitsiya qilish uchun zarur bo‘lgan kapitalning katta-kichikligi jihatidan bir-biridan jiddiy farq qiladi. Shu munosabat bilan kapitalni, misol uchun, ko‘p kapital talab qiladigan ishlab chiqarishga va tarmoqlarga (kemasozlik, metallurgiya, samolyotsozlikka) yo‘naltirish uchun ko‘pgina firmalarga zarur miqordagi kapitalni jamlashga ancha- muncha davomli muddat kerak bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tilgan, erkin bozorning faoliyat ko‘rsatishini cheklovchi yana bir qator sabablarni eslatib o‘tish zarur. Erkin bozor ijtimoiy xususiyatga ega ehtiyojlarni: ijtimoiy ta‘minotni, mamlakat mudofaasini, pul muomalasi me‘yorida faoliyat ko‘rsatishini, ne‘matlarning adolatli taqsimotini, fan va texnika strategik yo‘nalishlarining rivojini ta‘minlashga qodir emas.

Shunday qilib, aytish mumkinki, erkin bozor bu mavhum, nuqsoni yo‘q, degan tushuncha, u bo‘lmagan va unga erishib ham bo‘lmaydi. Muayyan, raqobat hukm suruvchi, ozmi-ko‘pmi boshqariladigan bozor bor, u o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmiga ega. Uning asosiy dasturi, avvalambor, narx-navo hisoblanadi, narx-navo iste‘molchilarga ham, ishlab chiqaruvchilarga ham bozordagi ahvol haqida xabar beradi. Narx-navo orqali son-sanoqsiz yakka tartibdagi iqtisodiy qarorlar jamlanadi, kombinatsiya qilinadi va bir ko‘rsatkichga keltiriladi. Narx-navo sohasidagi raqobat ham, boshqa raqobatlar ham resurslardan to‘liq va samarali foydalanishga xizmat qiladi.



**Raqobat mexanizmi.** O‘z navbatida narx - navo talab va taklifga ta’sir o‘tkazadi. Narx-navoning o‘sishi talabning pasayishiga olib keladi, lekin ayni vaqtda tovar ishlab chiqaruvchilarni ko‘proq mahsulot ishlab chiqarishga rag‘batlantiradi. Shuningdek, talab va taklifning o‘zgarishi narx-navoning ko‘tarilishi yoki pasayishiga ta’sir etadi. Talab va taklif muvozanatda bo‘lganida, ya’ni teng bo‘lganida, shunga yarasha narx-navo qaror topadi. Raqobatning faoliyat ko‘rsatish mexanizmi 11.1 chizmada keltirilgan.



**11.1-chizma. Bozor raqobatining faoliyat ko‘rsatish mexanizmi**

**Foyda va foydaning me'yor.** Shuni ta'kidlash kerakki, xo'jalik faoliyatining turli tarmoqari va sohalarida ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarga egaligi kapital miqdori teng bo'lgan holda har xil foyda olish imkoniyatini keltirib chiqaradi. Foyda eng umumiy ko'rinishida tovarni sotishdan olingan tushum yoki daromad bilan ana shu tovarni ishlab chiqarish va sotishga qilingan sarf-xarajatlar o'rtasidagi farqdan iboratdir. Sarflangan teng miqdordagi kapital evaziga oz yoki ko'p foyda olinishi kapitallar faoliyatining samaradorligi turli darajadasidan dalolat beradi. Sarflangan kapitalning samaradorligi yoki foyda keltirish darajasi foyda me'yor bilan o'lchanadi. Foyda me'yor quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$P^1 = \frac{P}{K_{av}} \times 1000\%$$

bunda,  $R^1$ -foyda me'yor yoki foizda ifodalangan foyda;

$R$ -foydaning mutlaq hajmi;

$K_{av}$ -ishlatilgan kapital.

### 11.7. Bozorning afzalliklari va kamchiliklari

Bozor, uning tarkibi va raqobat mexanizmi haqida umumiy tasavvurga ega bo'lib, uning afzalliklari va kamchiliklariga murojaat qlamiz.

Bozorning afzalliklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- jamiyatga zarur tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun kerakli resurslarni samarali taqsimlash va foydalanish imkonini beradi;
- faqat cheklangan axborotga yo'naltirilgan bozor muvaffaqiyatli faoliyat yurgazishi mumkin, turli resurslarga narxlar darajasi va sarflar darajasi turlicha bo'ladi;
- ishlab chiqarishning o'zgaruvchan sharoitlariga qayishqoqlik va moslashish yuqori darajada bo'ladi;
- fan va texnika yutuqaridan tezlik bilan foydalanish imkoniyati;
- tadbirkorlar va iste'molchilarni tanlash va harakat erkinligi;
- turli-tuman ehtiyojlarni qondirishga, mahsulot sifatini oshirishga qobiliyatlilik;
- buzilgan muvozanatni nisbatan tez tiklash.

#### Bozorning kamchiliklari

Bozorning asosiy kamchiliklari quyidagilar bo'ladi:

- jamoa va jamoatchilikka mo'ljallangan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun rag'batlarning (stimullarining) yo'qigi;

- atrof-muhitni ishlab chiqarish va boshqa turdagi faoliyatlardan himoya qilish mexanizmining yo‘qigi;
- takror ishlab chiqarilmaydigan resurslarni saqlash borasidagi qobiliyatsizlik;
- mehnatga kafolatning yo‘qligi;
- fanda fundamental va amaliy izlanishlarni rivojlantirishga sharoit yaratishga qobiliyatsizlik;
- Retsessiv va inflyatsion jarayonlarning rivojlanishiga va duchor bo‘lishga beqarorlik.

### **Qisqacha xulosalar**

Haqiqat bahs-tortishuvda tug‘iladi, ammo hamma vaqt emas. Tarix o‘n yillab davom etgan juda ko‘p samarasiz munozaralarni biladi. Masalan, sotsializmدا tovar ishlab chiqarishning mavjudligi to‘g‘risidagi bahs-tortishuv sovet tizimining birinchi kundan boshlanib to oxirgi kunigacha olib borildi. Lekin bu munozaraning samarasizligi «tovar ishlab chiqarish» tushunchasi bu baxs qatnashchilarning har biri o‘zicha, o‘zining tushunchasi mazmunidan kelib chiqqan holda izohladi. Bunday bahs-tortishuvni olib borish – ma’lum masofani har xil o‘lchamda o‘lchab, bir xil natija olish bilan barobar edi.

Hozirgi zamon so‘z boyligida, ehtimol, «bozor» so‘zidan ommaviyroq va keng tarqalgan so‘z bo‘lmasa kerak. U haqiqatan ham o‘z dalil-isbotini talab qilmaydi. Iqtisodiy adabiyotlarda shu qadar ko‘p tushunchaga ega ta’rifni topish qiyin. Hozir «bozor» to‘g‘risida yangi-yangi tushunchalar paydo bo‘lgan. Shulardan bir nechtasini keltiramiz:

«Tovarning qayerda qo‘ldan-qo‘lga o‘tishi sodir bo‘lsa, shu yer bozor deb ataladi».

Bozor -emoq-ichmoq uchun oziq-ovqatlar va boshqa tovarlar chakana savdosi joyi. Bozor - tovar muomalasi sohasi, tovar ayirboshlash.

Bozor klassik bo‘lmagan tizim nuqtai nazarida har xil sohalar o‘rtasida qo‘llanadigan, natijada, iste’molchilar xohishi bilan iqtisodiy resurslarni, ishchi kuchi va kapitalni taqsimlash vositasidir.

«Bozor bu tovarlar oldi-sotdisi amalga oshadigan, kishilar o‘rtasidagi umumiy aloqa shaklidir... Birinchidan, bozor -bu iqtisodiy sub’ektlar o‘rtasidagi munosabatlar sohasi. Ikkinchidan, bozor -bu faqat bozor iqtisodiyoti elementi, unga tovar ishlab chiqarish sohasi, ularni iste’mol qilish va taqsimlash, programmalash va iqtisodiyotni tartibga solish kiradi».

«Bozor -bu har qanday o‘zaro harakat, ya’ni kishilar bir-biri bilan savdo qilish uchun muammoga kirishadi» va hokazolar.

Bozor to‘g‘risida gap ketganda, uning uch turini farqash kerak:

Birinchisi -bozor sifatida, ya’ni savdo qilish joyi yoki tovarlarni ayirboshlash. Bunday tushuncha, qadimgi zamonda paydo bo‘lgan vaqtda «iqtisodiyot» atamasi hali hech kimning xayolida yo‘q edi.

Ikkinchisi -bozor ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi asosiy sektor sifatida, ishlab chiqaruvchilar bilan iste’molchilarni ishlab chiqarish anarxiyasi sharoitida bog‘lovchi muomala sohasidir. Bunday tushunchalar natural xo‘jalikni tovar ishlab chiqarish bilan almashtirishda rivojlangan.

Uchinchisi - bozor mavhumlashtirish sifatida nazariy-iqtisodiy kategoriyadir. Bu holda «bozor» so‘zidan «stixiyalilik» so‘zining sinonimi sifatida foydalaniladi. Bu so‘z tovar ishlab chiqarishning hukmronligi natijasida paydo bo‘lgan. Natural xo‘jalikda nima ishlab chiqarilgan bo‘lsa, shu yerning o‘zidayoq iste’mol qilingan, ortiqchasi esa, shu xo‘jalikka kerak bo‘lgan qandaydir boshqa narsaga ayirboshlangan.

Endi sobiq ittifoqda bozor bo‘lganmi, degan savol ham tug‘ilishi mumkin. Ha, buning birinchi va ikkinchi turida bo‘lgan. Mamlakatdagi dehqon bozorlari, bularning keng namunalisi Moskva, Toshkent, Samarqand shaharlaridagi bozorlar bo‘lib, bu bozorlarda atom bomoasidan boshqa hamma kerakli narsalar sotilgan.

Shunday qilib, sobiq SSSR iqtisodiyotida bozorning uchinchi turi bo‘lmagan nazariy kategoriya sifatida ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning stixiyali munosabatlarini ifodalagan. Ishlab chiqarish ayarxiyasi va narxlarning stixiyali belgilanishi bo‘lmagan. Shuning uchun bozor, fan nuqtai nazaridan qaraganda, iqtisodiyotni rejali asosda boshqaruvni stixiyali ravishda tartibga solish bilan almashtirishni bildiradi.

Endi, yuqorida aytilganlarni hisobga olgan holda, bozor ta’rifini aniqroq ko‘rib chiqamiz. «Bozor, uning hajmi va tuzilishini birinchi navbatda ijtimoiy ishlab chiqarish miqyosi bilan belgilanadi. Bozorga o‘tish xalq xo‘jaligining asosiy tarmoqari barqaror ravishda ishlab tursa va ularning mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko‘payib borsa oson kechadi, agar mahsulot ishlab chiqarish hajmi kamaysa, bozorga o‘tish ancha qiyin bo‘ladi».

Birinchi holda bozorning muomala sohasi ekanligi to‘g‘risida, ikkinchisi -rejali iqtisodiyotdan stixiyali tartiblanish bozoriga o‘tish to‘g‘risida gap ketayapti.

Yana bir aniqlik: «Bozor keng ma’nodagi so‘z bo‘lib, tovarlarni ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Tor ma’noda bozor deganda tovar va kapitallarning hamda ishchi

kuchining va boshqa ishlab chiqarish omillarining erkin muomala sohasi tushuniladi. Shu bilan birga, tovarlar, xizmatlar, kapitallar (investitsiyalar), ishchi kuchi, g'oyalar, axborot va boshqa bozorlar farqlanadi. Shunday qilib, bozorsiz iqtisodiyot hech qachon bo'lmagan va bo'lmaydi ham, «iqtisodiyot» so'ziga «bozor» so'zini qo'shilishi tasodifiy emas, bu hozirgi vaqtda ya'ni tarix sahnasida rejali iqtisod so'zi paydo bo'lganidan keyin, ularni farqash uchun qilingan.

### **Asosiy tushunchalar**

Bozor -iqtisodiy agentlar o'rtasidagi har xil moddiy boyliklarni oldi-sotdi yo'li bilan ayirboshdagi iqtisodiy aloqalar shakli.

Bozor iqtisodiyoti - iqtisodiyotni tashkil etish tizimi bo'lib, xo'jalik taqdirini hal etuvchi qarorlar markazlashtirilgan holda qabul qilinmaydi, mahsulotlarni ishlab chiqarish va taqsimlash reja yo'li bilan emas, balki ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar tomonidan aniqlanadi. U erkin tadbirkorlikka, raqobatchilikka va xususiy mulkchilikka asoslanadi.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Resurslarni tashkil etish muammolarini hal qilishga doir bozor tamoyillari.
2. Bozor xo'jaligini tashkil etish shartlari davlat qonunlari; xususiy mulkchilik va tadbirkorlik.
3. Raqobatli va raqobatsiz bozor.
4. O'zbekistonda bozor xo'jaligini tashkil etish xususiyatlari: paydo bo'lishi va rivojlanishi.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Bozor iqtisodiyoti tushunchasi.
2. Bozor iqtisodiyotining umuminsoyligi.
3. Bozor iqtisodiyotining sub'ektlari.
4. Bozor turlari.

## **12 BOB. BOZORGA O‘TISH DAVRI VA UNING O‘ZBEKISTONDAGI XUSUSIYATLARI.**

### **12.1. O‘zbek modeli va uning tamoyillarini jahon tizimida tan olinishi**

O‘zbekistonning mustaqillik yillarida iqtisodiy rivojlanishi mamlakat rahbariyati ishlab chiqqan «O‘zbek modeli» markazlashgan rejali iqtisodiyotidagi erkin ijtimoiy-yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning to‘g‘riligini va asoslanganligining samaradorligini namoyish etmoqda.

O‘zbekistonda qabul qilingan iqtisodiy rivojlanish modelining asosiy farqlanishi mamlakatni tashqi omillar hisobiga qaram qilib qo‘yadigan qisqa muddatli spekulyativ kreditlardan rad etishga qaratilgan chuqur o‘ylangan siyosati bo‘ldi.

Ushbu modelni izchil amalga oshirish tufayli mamlakat yuqori sur‘atdagi iqtisodiy rivojlanishga erishdi. Masalan, 1997–2003 yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti o‘rtacha sur‘at bilan yiliga 3,8–5,2% darajada rivojlanib keldi. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnikaviy va texnologik yangilash bo‘yicha ishchan muhitni yaratishga mo‘ljallanganligi tufayli 2004 yildan boshlab iqtisodiy islohotlar natijasi sifatida yuqori va mustahkam iqtisodiy o‘sish sur‘atiga ega. YaIM hajmi sotib olish qobiliyati bo‘yicha 2021 yilda 1990 yil bilan taqqoslaganda 2,5 baravar, 27,1 dan 69,2 mlrd. AQSh dollarida ko‘paydi.

Iqtisodiyotning yetakchi sohalarida yuksalishning asosiy omillari muhitlarining yaratilishi iqtisodiyot strukturasi asosan, sifatli o‘zgarishni ta‘minlovchi investitsiyalarni kuchaytirish bo‘ldi. Shunday qilib, 2000–2020 yillarda mamlakatda YaIMda qishloq xo‘jaligining ulushi 30,1% dan 28,2% gacha, o‘sha vaqtning o‘zida sanoat 14,2% dan 35,5% gacha ko‘paydi, xizmat ko‘rsatish ulushi esa, 37% dan 36,3% gacha qisqardi.

Agarda 1990 yilda eksport importdan 79,8 mln AQSh dollardan ko‘paygan bo‘lsa, 2020 yilda savdo balansida salbiy savdo -6043,8 mln AQSh dollarini tashkil etdi.

2000–2011 yillarda iqtisodiyot tarmoqlarini industriyalash, modernizatsiyalash, texnikaviy va texnologik ta‘minlash bo‘yicha, sanoatda avtomobil, neft va gaz, kimyo, temir yo‘l mashinalarini qurish kabi yangi tarmoqlar sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning umumiy hajmi o‘shini va sanoatning YaIM dagi ulushi 2020 yilda 35,5% gacha yetishi ta‘minlandi.

Iqtisodiyotdagi sifatli o‘zgarishlarning boshqacha xarakterli xususiyati – bu xizmat ko‘rsatish sohalarining tezda rivojlanishi iqtisodiyot tarmoqlaridagi ko‘pincha kelajakda tez rivojlanadigan soha bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida natijali investitsiya siyosatlari ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Chet el investorlari uchun biznes muhiti, huquqiy kafolatlar va imtiyozlarning keng tizimi tufayli korxonalarining faoliyatini chet el ishtirokchilarining qatnashishi bilan butun tizimli choralar mamlakat iqtisodiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari oqimini jiddiy ko‘paytirishga yordam berdi. Natijada, 2020 yilda kapital qo‘yilmalarning umumiy strukturasi chet el investitsiyalari ulushi 42,9%ni, shu jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari 14,2%ni tashkil etdi.

Chet el loyihalarini realizatsiya qilish bo‘yicha yuqori texnologiyali mahsulotlarni yuqori qo‘shilgan qiymati bilan ishlab chiqarishda asosiy sherikchilar bo‘lib jahondagi yirik kompaniyalar – AQSh ning («GU», «Texaco»), YuAR («Sasol»), Ispaniyaning («Mahal»), Yaponiyaning («ITOCHU», «MITSUBISHI»), Malaziyaning («PETRONAS»), Koreyaning («Koreanair», «KNOC», «LG»), Xitoyning («CNPC»), Rossiyaning («Lukoil», «Gazprom») hamda xalqaro yirik moliya institutlari – Jahon banki, Osiyo rivojlanish banki, Islom rivojlanish banki, Janubiy Koreyaning, Yaponiyaning va bir qator boshqa davlatlarning investitsiya banklaridir.

Iqtisodiyotning rivojlanishida tanlab olingan «O‘zbek modeli» demokratik bozor islohotlarining keyingi vaqtda chuqurlashuvi va iqtisodiyotning erkinlashuvi chuqur o‘ylangan va izchil amalga oshirilayotgan ustuvor siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy qayta o‘zgarishlar bilan birgalikda mustahkam va ishonchli poydevorni yaratish, shu bilan birga, milliy iqtisodiyotning mustahkam va dinamik asosini qurish aholining izchil yashash darajasini oshirishni ta’minlanmoqda.

Bozor munosabatlari asosiga o‘tishdagi «O‘zbek modeli»ni amalga oshirishda beshta asosiy tamoyil (prinsip) belgilangan: iqtisodiyotni batamom siyosatdan holi etish; davlatning bosh islohotchi sifatidagi rolini saqlab qolish; hayotning barcha sohalarida qonun bosh ustuvor bo‘lishi shart; kuchli ijtimoiy siyosat realizatsiya qilinishi zarur; bozor iqtisodiyotiga tadjiriy yo‘l bilan xech qanday «inqilobiy sakrashlar», «shok terapiyasiz», xalqning yashash darajasi uchun zararsiz bosqichma-bosqich o‘tish. O‘zbekistondagi iqtisodiy islohot modeli iqtisodiy tizimning tubdan o‘zgarishini ushbu o‘tishga nisbatan og‘ir tushmaydigan tarzda tashkiliy bozor raqobatini yaratish yo‘li bilan ta’minlash. Jahon iqtisodiyotida bunday o‘xshash yo‘l haligacha bo‘lmagan. O‘zbekistonning milliy iqtisodiyotini erkinlashtirish butunlay va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko‘pincha bir qator ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning naqdligiga bog‘liq. Bu yerda hal qiluvchi ahamiyatga, jamiyatning roziligiga erishish, ishonchli ijtimoiy sherikchilik mexanizmining shakllanishi, aholining eng keng qatlamlari orasida yangi yo‘lni ommaviy

qo‘llab-quvvatlashni yaratish. Erkinlashtirish strategiyasi umummilliy g‘oyalar darajasigacha ko‘tarilishi shart bo‘lishi kerak. Faqat mana shunday holatlarda u muvaffaqiyatga ega bo‘ladi. O‘zbekiston bozor islohotlari o‘zining modelini bosqichma-bosqich amalga oshirish asosida iqtisodiyotning tiklanishiga olib kelishga qobilyatli bo‘ladi.

### **O‘zbek modeli islohotlarining xalqaro maydonda tan olinishi**

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tishdagi o‘zbek modelini amalga oshirish natijalari birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan ilmiy asoslab bergan va amalda tatbiq etilgan mustaqillikning eng birinchi yillarida shakllantirilgan beshta tamoyilga asoslangan, bu o‘z navbatida taassurot qoldiradigan natijalari, yuqori sur‘atdagi iqtisodiy o‘sishda ifoda etilgan mustahkam makroiqtisodiy barqarorlik iqtisodiyotning qayta o‘zgarish strukturasi miqyosi, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarning qo‘shilgan qiymat bilan o‘sishi va diversifikatsiyalash, chet el investitsiyalarini dinamik sur‘atda jalb etish va boshqalar bayon etilgan.

### **Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti**

Hozirgi vaqtda iqtisodiy munosabatlar jihatidan oldingi qatordagi mamlakatlar birinchi navbatda o‘z oldiga qo‘ygan vazifalar ijtimoiy masalalarni xal qilishga qaratmoqdalar. Ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyot – bu iqtisodiy tizim sifatida insonga, shaxsni rag‘batlantirishga, jamiyatning ijobiy salohiyatini realizatsiya qilishga qaratilgan. Bunday iqtisodiyotning maqsadi – alohida insonlarning va jamiyatning manfaatini butunlay garmonizatsiya qilishga erishishdir.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyot asosan kishilarning ahloqiy ideallariga mos keladi, u xo‘jalik yuritishning ko‘proq dinamik va samarali shakli bo‘ladi. Hozirgi sharoitda aynan inson uchun mo‘ljallanganlik iqtisodiy o‘sishning omili hisoblanadi. Bu jahon iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish bosqichiga kirganligi bilan bog‘liq, bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarishning yuqori darajada fan-texnika asosida rivojlanishi, uning uzluksiz jarayonlarining sifatli mukammallashishi bilan xarakterlanadi, bu ishchilaridan yangicha darajada malakaviy ishlashini, ijodiy qabul qilishni va keladigan axborotlarni tahlil qilishni talab qiladi.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyotni qurish vazifasi juda ham ko‘p mamlakatlarda hal bo‘lgan. Bu yo‘nalish bo‘yicha ancha ko‘proq oldinga ketgan mamlakatlardagi tajriba tahlili shuni aks ettiradi va quyidagi vazifalarni hal qilishga ijozat beradi:

- shunday darajadagi farovonlikka erishish bo‘yicha har bir inson ijtimoiy-iqtisodiy malakasiga qaramasdan o‘zining qobiliyatini realizatsiya qilishi mumkin;



- mehnat resurslarining professional-malakaviy darajasini oshirish va to'g'irlash;
- iqtisodiyotda ijodiy faoliyatni kengaytirish va intensivlashtirish hisobiga mehnat sifatini o'zgartirish.

## **12.2. Nazariyalar va natijalar**

Yuqorida aytib o'tilganidek, bu savol juda ham katta ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, bunga javobni uzoq tarixdagi sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan, hozirgi mustaqil davlatlarning birgalikda boshidan o'tkazgan voqealardan izlaymiz. Ma'lumki, 1917 yilda sobiq ittifoqning ijtimoiy- siyosiy va iqtisodiy hayotida juda katta, XX asrning eng muhim voqeasi sodir bo'lgan edi. Ya'ni sotsializm revolyutsiya orqali g'alaba qozongan bo'lib, bu kapitalizmni sotsializm bilan almashtirish edi. Lekin bu tarixiy yangilikka, ancha yuqori darajadagi jamiyat tizimiga o'tishga zaruriy texnikaviy, tashkiliy va madaniy shart-sharoitlar yaratilgan edi. Qisqa tarixiy muddatda sobiq ittifoqda zamonaviy sanoat ishlab chiqarishi, xalq xo'jaligini planli ravishda tashkil etish ishlari harakat qila boshladi, madaniy revolyutsiya o'tkazildi. Ammo bu qayta qurishlar aholining turmush tarzi past darajadagi, demokratiya va fuqarolar huquqining yo'qligi tufayli o'tkazilgan edi.

Sobiq ittifoqda 30-yillardan boshlab ijtimoiy tizim tasdiqlangan edi, bu tizim ancha keyin, «kazarma sotsializmi» nomi bilan atalgan edi. Aniqroq aytganda, gap davlat sotsializmi to'g'risida ketayapti.

Davlat sotsializmi – shunday ijtimoiy-iqtisodiy tizimki, bu uchun yakka hokimlik xarakterida davlat shaklidagi mulkni jamiyat birgalikda o'zgartiriladi. Hamma munosabatlar tizimi o'zlashtirilishi xo'jalikdan foydalanish va umumiy mulkni iqtisodiy realizatsiya qilish davlat qo'lida bo'lgan.

Iqtisodiyotni to'liq davlatlashtirish quyidagi hal etuvchi asoslarda ifodalangan: a) xalq mulki – ishlab chiqarish vositalari haqiqatan ham davlat monopoliyasi asosida o'zlashtirilgan edi; b) davlat ijrochi apparati xo'jalik monopoliyasini va butun iqtisodiyotda boshqarishni qo'lga olgan edi; v) u maksimal darajada o'z qo'lida hamma korxonalarda ishlab chiqarilgan asosiy mahsulotlarni va moliya resurslarni markazlashtirgan edi. Hamma ishchilar va xizmatchilar davlat tomonidan yollanib ishlay boshladi, mehnatkashning moddiy sharoitlardan va uning natijalaridan, ishlab chiqarishni boshqarishdan uzoqlashishi (ular xo'jalikni hal etishda faqat maslahatchi huquqiga ega bo'lgan) va yuqori organlarning qarorlarini oddiy ijro etuvchilarga aylangan. Mehnatkashlar davlat mulkiga egamiz, «hech kimniki emas», deb qaraganlar va uni iqtisodiy realizatsiya qilishni yaxshilamoqqa moddiy qiziqmas edilar.

Lekin davlatning barcha tomonlama iqtisodiy hukmronligi ishlab chiqarishning ob'ektivlik bilan haqiqatan ham mojaroda bo'lgan edi.

Demak, iqtisodiyotni davlatlashtirish va umuman sotsializm tizimining yuksak darajadagi modelini yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqqan holda tahlil qilsak, uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

Mulkchilikdagi hamma huquq davlatga taalluqlidir, bu degani, «Umumxalq mulki». Xususiy mulk tugatiladi.

Xo'jalik nima, qanday va kim uchun ishlab chiqariladi deganda umummarkazdan boshqariladi va hal etiladi deyish mumkin, iqtisodiyot umuman latent<sup>58</sup> holatga ega edi.

Bozor mexanizmi markazlashtirilmagan sistema aloqalari sifatida baholi qudrat signal asosida tugatiladi.

Markazdan boshqariladigan xo'jalik tizimida transaksion sarf-xarajatlar yo'q bo'ladi. Albatta, shuni aytish kerakki, «Transaksion sarf-xarajat» termini T.Mor, R.Ouen, marksizm-leninizm davrlarida ham ishlatilmagan edi.

Ulardan tashqari sotsializmning yuksak modelida ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiyotda asosiy o'rin egallashi – bu markazlashgan, yuqoridan planlashtirish, bu yerda byurokratlar faoliyati, ya'ni davlat apparatining sifati, ular qabul qilgan qarorlarining sifati to'g'risida gap ketadi, shuning bilan birgalikda, davlat apparatining sifati tushunchasida ularning, ya'ni boshqaruv organlarining qarorlarni qabul qilish jarayonlaridagi yetarli ma'lumotga ega bo'lib va ularning puxta, qobiliyatli darajada bu qarorlarini hayotga chiqarishi tushuniladi. Davlat apparatining sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar va uni aniqlovchilar: davlat mansabdorlarining ichki va tashqi axborotlaridan xabardor bo'lishi, ularning malakali, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni qobiliyatli adekvat ravishda qabul qila olishlari, huquqiy normalari, moddiy rag'batlantirish miqdorlari va hokazolar.

Kerakli qonunlarning aniq emasligi, yo'qligi, beqarorlik, o'zgaruvchanlik, beqarorlik bular har qanday davlatda ham korrupsiyaga olib keladi. Korrupsiya ma'lumki, bu rahbarlar (katta-kichik) chinovniklarning sotqinligi, pora olishi va berishidir. Albatta, har qanday xo'jalik tizimi rivojlanish uchun axborot – informatsiya olishga majbur bo'ladi. Agarda bozor xo'jaligida shunday axborot narx-navo bo'lsa, unda ma'muriy buyruqbozlik tizimida yoki sotsialistik xo'jalikda informatsiya rolini buyruq (norma, plan) bajaradi. Har qanday ishlab chiqaruvchi o'zining xo'jalik faoliyati jarayonida bir qancha cheklanish bilan to'qnashadi. Vengriya iqtisodchisi Yanosh Kornai

---

<sup>58</sup> Latent holat - (lotincha *latentis* «o'z ichida, nimanidir yashirish») ob'ekt yoki jarayonlarning o'zini yaqqol namoyon etmasdan yashirin holatda bo'lish xususiyati.

uchta guruhiy cheklanishni ajratadi: shartlangan resurslar bilan cheklanish, shartlangan talab bilan cheklanish va budjet bilan cheklanish.

Birinchisi, moddiy yoki jismoniy cheklanishni ifoda etadi (xom ashyo, mashina va asbob-uskunalar, malakaga ega bo‘lgan ishchilar).

Ikkinchisi, cheklash jismoniy zaruriyani ifoda etmasdan, balki xo‘jalik sub’ektlarining qonuniy xulqini ifoda etadi.

Budjet bilan cheklanish korxonalar uchun – bu korxonalar xarajatlarining umumiy summasi ularning ixtiyoridagi umumiy summaga to‘g‘ri kelishi bilan bog‘liqligi, ya’ni bu yerda asosiy prinsip korxonalarining xarajatlari o‘zlarining daromadlari bilan qoplanishi shart.

Bularni ikkita tipdagi korxonalar misolida ko‘rib chikish mumkin:

1. Klassik kapitalizmdagi mukammal raqobat sharoitida harakat qiluvchi korxonalar.

2. An’anaviy sotsialistik korxonalar. Bu ma’muriy buyruqbozlik tizimi sharoitida o‘zining yuksak modelida, eng markazlashgan direktivlarga bo‘ysunish bilan harakat qiladi.

### **Ikki «sof» tipdagi korxonalar va harakatdagi cheklanishlar**

<b>Cheklanish sharti</b>	<b>Klassik kapitalistik korxonalar</b>	<b>An’anaviy sotsialistik korxonalar</b>
Resurslar bilan cheklanish	Kam samarali bo‘lib turadi	Deyarli hamma vaqt samarali; talab cheklanishiga qaraganda ancha tor
Shartlangan talab bilan cheklanish	Deyarli hamma vaqt samarali resurs cheklanishiga qaraganda ancha tor	Kam samarali bo‘lib turadi
Budjet bilan cheklanish	qattiq	Yumshoq
Ishlab chiqarish	Avtonom korxonalar	Direktiv: yuqori
Plani	Plan mustaqil shakllanadi	Organlar ko‘rsatmasi bilan

### **Bu jadvaldan qanday xulosa chiqarish mumkin?**

Bu shunday: klassik kapitalistik korxonalar o‘zining asosida talab bilan cheklanadi, sotsialistik korxonalar faoliyati esa, resurslar bilan. Shuning uchun

ham kapitalistik iqtisodiyotni cheklangan talab deyish mumkin, sotsialistik iqtisodiyotni resurslari cheklangan, deb aytish mumkin.


Umuman, iqtisodiyotni davlatlashtirish ishlab chiqarishning haqiqiy miqdorini umumlashtirish va davlat mulkining absolyut hukmronligi o'rtasidagi ziddiyotni toydirishni ko'proq kuchaytiradi.

**Umuman iqtisodiyotni davlatlashtirish** – bu ishlab chiqarishni umumiyashtirishda, mulkchilikda davlat hukmronligini, barcha mehnatkashlarni tubdan qiziqtirishda va ular mehnatining natijalarini davlat tomonidan o'zlashtirilishi tomonlar o'rtasidagi ziddiyatlarning ko'chayib ketishiga sabab bo'lgan edi.

Bu ziddiyatlar mulkni davlat tassarrufidan chiqarish yo'li bilan hal bo'lishi mumkin edi, ya'ni – bu davlat mulkini xususiylashtirish deganidir. Davlat mulkini xususiylashtirish quyidagilarni bildiradi: a) mulkchilik munosabatlarining hamma sohalarida davlat monopoliyasini tugatish va bu sisemada davlat qismini ob'ektiv zaruriyat miqdorigacha yetkazish;

b) davlat shaklidagi har xil o'zlashtirishni boshqa turdagi mulkchilikka o'zgartirish.

Davlat mulkini xususiylashtirish natijasida mulk shakllarida plyuralizim paydo bo'ladi:



### 12.3. Xususiylashtirishdan keyingi mulk shakllari

Eng oddiy va boshlang'ich mulkchilik xususiyy mehnatga asoslangan bo'ladi. Bu hamma fuqarolar uchun qulay bo'lgan mulkchikdir. Butun dunyo iqtisodiyotining tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, agar inson mulkdor bo'lsa, u, boyliklarini ko'paytirish uchun ijodkorlik qobiliyatlarini to'liq ochish imkonini beradi.

Mulkka egalik qilmoq, foydalanmoq, o'zlashtirish va tasarruf etmoq huquqi davlatning to'g'ridan-to'g'ri aralashuvidan ozod qiladi, mulkning umumiy qismi rivojlanishi tufayli xo'jalik demokratiyasi kengayadi. Bunday turdagi o'zlashtirishga aksiyadorlik jamiyatining, kooperativlar, xo'jalik uyushmalari (konsernlar, konsorsiumlar, ittifoqlararo, tarmoqlararo,

mintaqaviy uyushmalar, xo‘jalik shirkatlari) kiradi. Shunday qilib shaxsiy, jamoa va jamiyat manfaatlari mustahkam birlashadi.

Davlat mulkini isloh qilishning boshlanishi davlat sotsializmidan yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimga o‘tishni anglatadi.

Albatta, buning natijalari haqida gapirish uchun hali ertaroq, lekin O‘zbekistonda shu qisqa vaqt ichida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasiga erishilgan ko‘rsatkichlar, tarixda teng yo‘q o‘zgarishlar ko‘p narsadan darak beradi. Sof kapitalizm modelidan farqli ravishda, bizning iqtisodimizni aniqrog‘i, aralash iqtisodiyot deb tavsiflash bo‘ladi.

Bozor tizimi asosida xususiy sektorning harakat qilishi davlat sektorlarining boshqacha ko‘rinishidir. Shunday qilib, hozirgi hamma bozor tizimlari – bu aralash tizimdir, ya’ni qayerda, nima ishlab chiqarish, qancha va kim uchun, degan savollarga javobni hukumat va bozor birgalikda beradi.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni o‘tkazish davrida bozor iqtisodiyoti sub’ektlarining davlatdan ma’lum darajada erkin bo‘lishi to‘g‘risidagi fikr ustun turadi: davlat buyurtmalarining kamayishi, qishloq xo‘jaligining davlat tomonidan to‘liq moliyalashtirish, xususiy sektorlar ishiga davlatning aralashuvi, tadbirkorlar faoliyatini erkinlashtirish, ularni bank kreditlari bilan ta’minlash va hokazolar shular jumlasidan.

Albatta, bozor munosabatlariga o‘tish davrida va umuman, aralash iqtisodiyotda davlatning roli so‘zsiz yuqori turadi. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ish bilan bandlik va inflyatsiya miqdorini, iqtisodiy o‘rish darajasini nazorat qilish bularning hammasi davlatning asosiy vazifasidir. Shu bilan birga, quyidagilar uning vazifalari sirasiga kiradi:

–Bozor tizimining samarali harakat qilishiga ta’sir qiluvchi hukumat bazasini ta’minlash.

–Raqobatni himoya qilish; antimonopoliya qonunlarini chiqarishi.

–Aholi o‘rtasida daromadlarni qayta taqsimlash.

–Strategik tarmoqlarda tabiiy muhit himoyaga resurslar taqsimotini ta’minlash.

Shuning uchun ham sobiq ittifoqdan mustaqil bo‘lib ajralib chiqqan, o‘z yo‘llarini tanlagan davlatlar, jumladan, O‘zbekiston ham yangi iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratish, iqtisodiy o‘yin qoidasiga rioya etgan holda shaxsiy manfaati uchun qonun doirasida harakat kilib, O‘zbekiston davlati va xalqining mustahkam rivojlanishi va iqtisodiy o‘yin qoidasi aynan O‘zbekistonning xususiyatlarini: ham geografiyasini, ham iqlimini, ham tarixini, ham falsafasini, ham dinini, ham genofondini, ham ko‘pgina boshqa omillarini hisobga olishi shart. Biz faqat shundagina erkin iqtisodiy sharoitda ravnaq topishimiz mumkin.

Shu maqsadda, O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish uchun davlat asosiy tartibga solish rolini ko‘chaytrimoqda va chora-tadbirlar qo‘llamoqda. Iqtisodiyotda quyidagi tarkibiy o‘zgarishlar ta’minlanmoqda:

Davlatning bu aralashuvi asosan, investitsiya loyihalarida tanlov va kontrakt tizimlaridan samarali foydalanib, ularni realizatsiya qilishga umumdavlat ehtiyoji uchun mahsulotlarni yetkazib, buyurtmalarni kerakli joylarda joylashtirgan yuksak texnologiyalarni rivojlantirish va ishlab chiqarishda ilm-fan rolini qo‘llab-quvvatlashda kichik va o‘rta biznesga ko‘maklashishdan iborat.

Iqtisodiy islohotlar ikkinchi va asosiy bosqichining vazifalari va ustuvor yo‘nalishlari bu davlat mulkini xususiylashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazishdan, ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, ham korxonalar, ham tarmoqlarning, umuman, davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishishi, milliy valyuta – so‘mning yanada mustahkamlash va iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilishini tubdan o‘zgartirish, xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish, uning sifatini va raqobatga bardoshligini jahon bozori talablari darajasiga yetkazishdan iborat edi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak islohotlarning birlamchi natijalari quyidagilardan iborat:

- Davlatning mustaqillikka erishishi va uning mustahkamlanishini.
- Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining shakllanib borayotganligini.
- O‘z taraqqiyot yo‘liini aniqlab olgani, bozor islohotlarini muvaffaqiyatli o‘tkazib borayotganligini.
- Kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirayotganligini.
- Jamiyatning ma’naviy yangilanayotganligini.
- Madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishni.
- Insoniyat, jamiyat kelajagi bo‘lgan sog‘lom avlod uchun kurashni.
- Mamlakat xalqaro obro‘-e’tibori oshib, jahon miqyosida aloqalarning rivojlanayotganligini.
- Siyosiy barqarorlik, fuqarolar osoyishtaligi va millatlararo hamjihatlikning saqlanib turganligini.
- Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tilayotgani va kuchli yaratuvchi shaxs - inson omili va inson kapitaliga asosiy e’tibor qaratilayotganini.

## **12.4. Milliy g'oya. Milliy g'urning milliy iqtisodiyot o'sishi konsepsiyasidagi mezoni**

Ushbu bobning birinchi qismida aytilgan konsepsiyaga binoan katta tarixiy voqealarga va hodisalarga boy bo'lgan XX asr poyonida O'zbekiston milliy xususiyati va tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda o'zining mantiqiy rivojlanishi bilan Markaziy Osiyo iqtisodiyotida asosiy bo'g'in bo'ldi. O'zbekistonning ta'siri Markaziy Osiyoning rivojlanishida hamma vaqt katta bo'lgan sobiq ittifoq tarkibida munosabatlarini shakllantirishida yaqqol ko'rinib turibdi. O'zbekistonning anchagina iqtisodiy resurslari, demografik, fan-texnika, madaniy salohiyatga uning Markaziy Osiyodagi yetakchilik rolini aniqlab berdi. O'zbekiston bugungi kunda Markaziy Osiyoning 11,2% maydonga, 42% aholisiga, 44% yalpi ichki mahsulotiga ega bo'lgan katta hududi hisoblanadi. Lekin O'zbekiston o'z mavqeini yanada mustahkamlash va katta yutuqlarga erishish uchun mana shu mustaqillik yillarida har xil sabablarga ko'ra qisqartirilgan imkoniyatlarni yanada tiklashi lozim. Ehtimol O'zbekistonning bu ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi o'rni Markaziy Osiyodagi umumiy-siyosiy vaziyatlar bilan ham bog'liqdir.

Hozirgi vaqtda har xil jarayonlarning rivojlanishi, murakkab ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitlar, Markaziy Osiyodagi beqarorlik bilan islohotlarni o'tkazish natijalari mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi salbiy jarayonlar ham saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyoti mustaqillikning birinchi yillarida ayrim sabablarga ko'ra juda bir mushkul ahvolga tushib qolgandi, bu jamiyatning va iqtisodiyotning hamma tomonini qamrab olgan edi. Tanglikning asosiy sabablari:

- iqtisodiy o'zgarishlarning tugatilmaganligi;
- iqtisodiyotda bozor unsurlarining ojizligi;
- iqtisodiy munosabatlarning chet davlatlardan keladigan importga ilg'or texnologiyaga ega asbob-uskunalar, mashinalarga bog'liqligi, aholi iste'mol tovarlarini xom ashyo, energiya resurslari eksportiga almashtirish saqlanib qolganligi;
- hududlarning rivojlanishi baravar emasligi;
- ishlab chiqarishning pasayib ketishi va hokazolar bo'lgandi.

Shu yillarda O'zbekiston iqtisodiyotini tubdan o'zgartirishga asos solindi.

Bir tomondan, iqtisodiy islohotlarni o'tkazish yillarida rejali taqsimot tizimi o'zgartirildi va iqtisodiyotni erkinlashtirish amalga oshirildi; davlat mulkini xususiylashtirish davom etdi; tovar va xizmatlar, qimmatbaho qog'ozlar-fond bozorlari va bozor infratuzilmasining boshqa elementlari faol shakllantirildi, ishlab chiqarish tizimlari, investitsiya-innovatsiya

jamg'armalarida ijobiy o'zgarishlar bo'ldi, oxirgi vaqtlarda inflyatsiyaning kamayishi yuz bermoqda.

Ikkinchi tomondan, ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ham korxonalar, ham tarmoqlarning, umuman, davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga erishilmoqda.

Bundan tashqari, dastlabki moliyaviy barqarorlik siyosatining hamma ijobiy vaziyatlarini saqlab qolgan holda, uni samarali sanoat siyosati bilan to'ldirib, iqtisodiy o'sishni boshlash kerak edi.

### **12.5. Ichki iste'mol talablarini oshirish**

Buning uchun:

- ishlab chiqarishni jonlashtirish va asosiy ishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolish;

- aholining real daromadlarini oshirish, shu bilan birga, yuqori daromad oladiganlarga emas, balki kam daromad oladigan aholi guruhlariга e'tibor berish;

- iqtisodiy vaziyatni oldindan ko'ra bilish;

- xo'jalikning ustuvor sektorlarida investorlarga kafolat berish;

- import kilinadigan tovarlar sifati ustidan nazoratni tiklash va hokazolar lozim edi.

Bu konseptual iqtisodiy o'sishga mo'ljallangan makroiqtisodiy ishlarning natijalari 90-yillarning oxirida O'zbekiston milliy xo'jaligini rivojlanishiga va iqtisodiy o'sishining asosiy mezonini bo'lgan yalpi milliy mahsulotning real o'sishiga katta imkoniyat yaratib berdi. Shu bilan birga (yalpi milliy mahsulotning umumiy miqdori va uning jon boshiga o'sishi), millatning, davlatning, mintaqaning iqtisodiy quvvatini yanada kuchaytirishga imkoniyat yaratildi.

Agarda 90-yillarning boshlarida ishlab chiqarish hajmi asosan, uch omil hisobiga: a) asosiy kapital (fondlar); b) ishlab chiqaruvchi kuchlar; v) moddiy sarflar (tabiiy xom ashyo, materiallar, yoqilg'i) hisobiga oshgan bo'lsa, 90-yillarning oxirida makroiqtisodiy o'sishga asosan, intensivlash asosida oshirildi, ya'ni texnologiya samaradorlikni oshirish omili bo'ladi va iqtisodiy-tabiiy resurslar tejalib zamonaviy fan-texnikani qo'llash yo'li bilan mahsulot yetishtirish ko'paytirildi, jumladan, mehnat tejash, kapitalni tejash va har tomonlama intensivlash (iqtisodiy taraqqiyotda resurslarni tejashning hamma shakllaridan foydalanish) amalga oshiriladi, bu degani takror ishlab chiqarishning barcha jarayonlarida sifat o'zgarishlariga erishiladi. Asaka shahrida avtomobil zavodi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Ko'kdumaloq



va Mingbuloq konlari ishga tushdi, chet ellik sheriklar ishtirokida o‘nlab to‘qimachilik va ip yigiruv fabrikalari, Andijon, Qo‘qon, Yangiyo‘lda spirt ishlab chiqarish korxonalari, Xorazm viloyatida shakar zavodi, Qizilqum fosforit kombinati, Qoraqalpog‘istonning Qo‘g‘irot shahrida soda zavodi ish boshladi.

Iqtisodiy o‘shish konsepsiyasi bilan bir qatorda, milliy mafkura, milliy g‘oya, milliy g‘urur, milliy iftixor degan tushunchalar xalqimiz ongiga singib bormoqda. Bu degani, shu hududda ishlab chiqarilayotgan moddiy boyliklarning har bir grammida, kilogrammida, tonnasida va hokazolarda milliy mafkura, milliy g‘oya, milliy g‘urur, milliy iftixor aks etgan.

Sababi - iqtisodiyot taqdirini jismoniy va aqliy mehnat sarf qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan, har tomonlama yetuk odamlar hal qiladi. Misol tariqasida keltirishimiz mumkin. 2021 yilda ishlab chiqarilgan yalpi ichki milliy mahsulot 734,6 trln. so‘mdan ko‘proqni tashkil etdi. Buning tarkibida neft, gaz, elektroenergiya, po‘lat, mineral o‘g‘itlar, sement, qurilish materiallari, poyafzal, paxta, bug‘doy, guruch, go‘sht, sut, yog‘, sabzavot va mevalar bor, umuman, O‘zbekiston milliy iqtisodi ishlab chiqargan moddiy boyliklar milliy iqtisodiyotdagi moddiy ishlab chiqarish ikkiga bo‘linadi:

- birinchisi-ishlab chiqarish vositasini ishlab chiqarish;
- ikkinchi-iste‘mol buyumlarini ishlab chiqarish.

Shuning uchun ham milliy iqtisodiyot konsepsiyasida milliy mafkuraning mezoni, deb shu millat manfaatlarining negizini nazariy asoslovchi va himoya qiluvchi falsafiy dunyoqarashga aytiladi.

Milliy iqtisodiyot konsepsiyasidagi milliy g‘oyaning mezoni – bu shu millat uchun milliy xo‘jalik doirasida ishlab chiqarilayotgan, qanday tashkil etish kerak, «nima» ishlab chiqarish, ishlab chiqarish resurslari cheklanganligi sababli millat uchun birinchi navbatda nima ishlab chiqarish zarur, buning uchun yetarli darajada iqtisodiy resurslar bormi, degan masalani hal etish kerak bo‘ladi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot, tovar va xizmatlar hajmi va sifati millat mehnatini aks ettirgani va o‘zida mujassamlayotgani bois har bir shaxs o‘zining sarflagan mehnatidan g‘ururlanib, yutuqlaridan mamnuniyat hissini tuyadi (misol uchun, shu milliy mahsulot eksport qilinsa, jahon bozorlarida dunyo standarti talablariga javob berib, raqobatga bardosh bersa va teng huquqqa ega bo‘lsa).

**Milliy g‘urur** – bu milliy iftixor, milliy manfaat, milliy obro‘-e‘tiqoddir. Buning milliy xo‘jalik, iqtisod konsepsiyadagi mezoni – bu albatta, o‘z milliy O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan barcha milliy mahsulotlar majmui kishilarni fahrlantiradi, masalan, shu yerda yetishtirilgan

paxta, uning dunyo bozorida tutgan o'rnini, kerakligi. O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan avtomobillar, yangi-yangi zamonaviy korxonalar ularda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar shular jumlasidandir.

O'zbekistonda yashayotgan barcha millatlar mustaqillik yillaridagi ijobiy o'zgarishlar, iqtisodiy islohotlar, ishlab chiqilgan besh tamoyilning hayotiyliigi bilan faxrlanadi, g'ururlanadi ertangi kunga to'liq ishonadi deb aytsak xato qilmaymiz.

### **O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi**

Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Mazkur yo'nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo'limlardan iborat.

### **Yangi O'zbekistonda milliy iqtisodiyotni rivojlanishi<sup>59</sup>**

Hurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida va aynan uning shaxsan tashabbusi bilan asosida mamlakatimizda tubdan yangicha islohotlar va ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. O'zbek millatining o'tgan oldingi ming yilliklar davomida tarixan rivojlanishida yuz bermagan, yangicha tarixiy ahamiyatga ega barcha tarmoq va sohalarda ichki hayotimizda voqea va xodisalar yuz bermoqda. Bunday isloxatu – o'zgarishlarni keng ma'noda taxlil va sintez qiladigan bo'lsak aslida haqiqatdan O'zbekiston tarixida mavjud bo'lgan Kushan podshoxligidan oxirgi xonliklargacha hukimronlik kurashidan boshqacha ammo o'sha vaqtdagi yer osti va yer o'sti boyliklari manbasi ostida butunlay yangicha misli ko'rilmagan ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda.

---

<sup>59</sup> Mirziyoyev, Shavkat. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.- Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. -416 bet.

Aynan shunday qisqa vaqt ichida jo‘da ham katta har tomonlama yangicha rivojlanish bosqichlari, original islohatlar, o‘zgarishlar “Yangi O‘zbekiston yuzaga kelmoqda, ya’ni O‘zbekistonning uchinchi Renessans – tiklanish davri shakllanmoqda.

G‘arb madaniyati tarixchilari 1-2chi Renessans-tiklanish o‘rta asr davridan yangi vaqtgacha – feodal jamiyatidan burjuziya jamiyatigacha o‘tish davri sifatida ko‘rib chiqadilar. Hozirgi zamon eksperimentiga oid tabiatshunoslik yuzaga keladi, eng avval astronomiya sohasida kashfiyot asosida olam (koinot)ning ilmiy manzarasi shakllanadi. O‘sha davrida yirik olimlar N.Kopernik, D.Bruno, G.Galiley olam (koinot) geliotsentrik dunyo qarashlarining asoslangaliklari isbotlanadi.

Renessans-tiklanish buyuk kashfiyot bo‘lib hisoblanadi. O‘rta asr sivilizatsiyasi dengizga oid asr deb atalgan, sababi O‘rta yer dengizi va Baltik dengizlari atrofida rivojlangan. 1517 yilga kadar kashf etganlar, okeanga oid sivilizatsiyalar davrining barpo etilishi bo‘lib hisoblanadi, ya’ni okean aloqasi qatnavi dunyoning asosiy yo‘li bo‘lgan. Magelan kemasi birinchi bo‘lib dunyo bo‘ylab sayohat qilgan. G‘arb yarim sharining ikkita boy, badavlat qit‘asi “eski dunyo bilan” o‘zlashtirish bilan ochilgan edi.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining Renessans-tiklanishga oid madaniyatining rivojlanish surati harxil bo‘lgan, XIV-XVI asrlarda Italiyada va XV-XVI asrlarda boshqa mamlakatlarda taxminan va xronologik chegaralar bo‘lgan. XVI yuzyillarda Renessans o‘zining rivojlanish madaniyati nuqtasiga erishgan, o‘sha vaqtda shunday yuqorinomlangan tiklanish umum Yevropa xodisalari klassik bo‘lgan, bundan sunngi tiklanish XVI asr oxirining oxirgi 10 yiligidan ketma-ket bo‘lgan.

Endi ahamiyatga bevosita iqtisodiyotga qaratsak shunday: iqtisodiyotning boshqalardan farqlanishida, uni guruhlash manfaati bo‘yicha “ajratib qo‘yish” mumkin emas, sababi iqtisodiyotda bitta umum insoniy yo‘nalish va mezon, ya’ni ijtimoiy samaradorlik egallanadi. Va agarda xususiy mulkchilik, erkin tadbirkorlik, bozor samaradorlikka olib boradi deyilsa, unda ular xo‘jalikni boshqaruv yuritish asosida bo‘lishi shart.

Bunday xulosalarning adolatliligini G‘arb siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyoti tasdiqladi. Shunga ko‘ra va ob‘ektiv qonunlarga asoslangan xolda XX asrning oxiriga kelib sotsializm jamiyati mamlakatlarga nisbatan evolyutsiyaviy rivojlanib kelayotgan, chuqur isloxatlashgan kapitalizm ko‘proq demokratiyalashgan, ko‘proq boy, badavlatli, adolatli va uning barqarorligi isbotlandi. 1990 yillar chegarasida sobiq SSSR va boshqa sotsialistik mamlakatlarda real sotsializm mavjudligi to‘xtab qoldi. Shu bilan bir vaqtda tamomila kapitalizmning o‘zi harxil shaklga ega bo‘lish aniqlandi.

Ko'p mamlakatlarning tarixan baland boy, badavlat tajribasidan 4 ta asosiy tipdagi kapitalizm ajratish mumkin. Ulardan ayniqsa rasmiy stixiyaviy tashqil topgan bozor tizimi va shunday nomlangan "kapitalning dastlabki jang'arilishi" (Smit), bu yerda tadbirkorlikka qobiliyatli nisbatan ko'p bo'lmagan guruhlar, eng kuchli kishilar qo'lida biznesning boshlanish payti uchun kerakli mablag'lar to'plandi. Bu yerda esa muqarrar bo'lgan: mulkning qayta taqsimlanishi, bitta kishilarning boshqalar hisobiga boy bo'lishi, pulning fetishga aylanishi (ilohiy yoki muqaddas deb bilmoq, sig'inmoq, sajda qilmoq), jamiyatning kat'iy qatlamlarga ajralishi massani suiiste'mol qilmoq va qonunga xilof bo'lgan (o'zganing yoki jamiyat mol- mo'lkini bosib olish, aldash, g'ariinsonilik va kuch qo'llash "sharta yurib olmoq va kochib ketmoq" tomoillari bo'yicha xarakat qilmoq, yallangan mehnati jo'da ham g'ayri tabiatan ekspluatatsiya qilmoq, tabiatiga yirtqichlarcha munosabat ko'rsatish, jinoyatchilik va boshqalar).

Shunday qilib kapitalistik erkinlikka o'tishda jamiyatdagi "jinsiy yoki shahvoniy buzuvchi"ning negativli samaradorlikda o'sib borish – bunday "barcha xalqlar va vaqtlar" dagi xodisalardir. Egotsentrizmga oid va "surbetlik o'zidan o'zi xursand" tor amaliyotchilar odatda falsafiy aqliy farosatga moyil bo'lmagan va darhol tushunmaydigan, ya'ni ko'proq aqlidroqli, xavfsiz va unimli ravishda yolg'on so'z va kuch qo'llash bilan emas, balki sivilizatsiyalashgan sherikchilikda, o'zaro tamoyilar bilan foyda va demak qonun doirasida harakat qilmoqdir.

"Diniy kitoblarda ochiq aytilgan – qonunga bo'yinsinadiganlar aqlidir, qonunga bo'yinsinmaydigan sen esa jaxl bilan birgasan, ular esa axamiyatsiz va so'zsiz jazolanadi. Ular xususiy raqobatlashish o'rniga bir birini yo'q qiladi. Endi Xudo Lyuterning so'zi bo'yicha "bitta jinoyatchi, qotil boshqasini uradi".

Endi kapitalizmning qolgan 3ta – byurokratiya, oligarxiya yoki demokratiya turi jamiyatda hukmronlik shakli sifatida, bu iqtisodiy va siyosiy hukmronlik kimning ko'lida to'plangaligiga bog'liq bo'ladi.

Shu bilanbirga byurokratik kapitalizm (yoki davlat kapitalizmi) taxmin qilinishicha, davlat yakka o'zi jamiyat hayotining iqtisodiy va boshqa sohalar, ya'ni avvalon borbyurokratik apparat, ko'psonli mansabdor qobilalar boshqaradi.

Shu yerdan muqarrar ravishda davlat organining fuqarolar faoliyatiga haddan tashqari aralashadi (a'tiy nazorat va bo'yruq, farmoyish, harxil tekshiruvlar va ro'yxatga olish barcha narsalar uchun ruxsat olish zaruriy va boshqalar) mansabdorli zo'ravonlik, korrupsiya, byurokratlarning jinoyatchilar bilan, yirik yoki yashirin biznes bilan kelishuv, jamiyatda "xufyona iqtisodiyot"ning va yuqori kriminal (jinoiy) ishlarning rovnoq

topishi, yuqori biznesmenlar va jo‘da xam boy, badavlat korrumpiratsiyalashgan mansabdorlar fonida axoliyning aksariyati past darajali hayotda yashashi.

Oligarxiya kapitalizmi xam yuqoridalarga o‘xshagan qanday manzaralarniberadi. U yerda iqtisodiyot va hukmronlik shunday nomlangan kichik guruhlar, ya’ni “oligarx” yirik bankirlar, birjaga oid spekulyant – chayqovchilar sanoatchi, savdogor magnatlar ko‘lida olishi va boshqalar.

Demokratik kapitalizmning bulardan farqlanishida (bularni ham sivilizatsiyalashgan yoki xalq kapitalizmi deb ataladi) faqat mumkinchiligi boricha yetilgan, haqiqiy demokratiya, ya’ni qachonki xalqning o‘zi xukmronlini saylab olgan va ular jamiyatda faol nazorat qiluvchilar va qachonki shaxsiy erkinlik va huquqan kafolatlanadi. Bu yerda harxil ukladli ijtimoiylashgan bozor iqtisodiyoti smaradorli harakat qiladi (erkin raqobatli bozor plyus barcha fuqarolarga ijtimoiy kafolat), keng tadbirkorlik, katta massadagi o‘rtacha va kichik biznes ishlaydi. Shu bilan birga mamlakatda kam kambag‘al va jo‘da katta boylar, xayot qonun bilan xurmat qilingan va tuzatilganlar tartibga solinadi, o‘z navbatida davlat esa mulkdorlarni byurokratlar va banditlarning qo‘rqitishdan himoya qiladi.

Asosan iqtisodiyotning rivojlanishi uchun birinchi darajada shunday institutlar oila, mehnatsevarlik, mulkdorlik, o‘y jo‘jaliklari, qonun, soliq to‘lash, tovar, po‘l, bozor, korporatsiya, korxonalar, kasaba uyushmalari va boshqalar, eng asosiy esa demokratik davlat ahamiyatga ega bo‘ladi.

Shu sababli endi bu yerda O‘zbekiston davlati Prezidenti mehnatsevar, o‘zini vazifasini yangi dunyo, yangi O‘zbekiston halqining oldida ma’suliyatli bajarib kelayotgan Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobining uchinchi bo‘limi: “Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga” bag‘ishlangan ma’lumotni to‘liq keltiramiz.

### **Tadbirkorlik va Xufyona iqtisodiyot**

#### **1. Tadbirkorlik o‘rtacha sinflar shakllanishining asosi sifatida.**

Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy mulkchilikning rivojlanishi va mustahkamlanishi o‘z-o‘zi bo‘yicha zaruriy emas, balki tadbirkorlik iqtisodiy erkinligining ro‘y berishi uchun sharoit yaratilish maqsadidir. Bu demak qanday texnologiyalar yordami bilan nima va qanday miqdorda ishlab chiqarish, shu bilan birga qanday iqtisodiy resurslardan foydalanish, ishlab chiqarishni qanday tashkil etish, ya’ni ishlab chiqaruvchi o‘zining qo‘rqishi va tovakkaligi haqida qaror qiladi. Shunday qilib, faoliyat natijasi ham faqat unga tegishli bo‘lib qoladi. Qarama-qarshi (aksincha) xolatda bozor iqtisodiyotining asosiy rag‘batlantirishi – foydasi buzilib ketadi.

So‘zsiz, biznesmen, qorchalon bozor tizimida mutlaqo erkin emas, sababi chek qo‘yish bo‘yniga tushadi:

- iste‘molchining mo‘staqiligi bilan;
- xo‘jalik qonuniyatlari bilan;
- bozorning raqobatbardoshligi bilan;
- davlatning nazorati bilan va boshqalar.

Tadbirkorlik xamma vaqt pastdan o‘ziga xos tovar ishlab chiqaruvchi xususiyatlardan rivojlanaboshlaydi, sababi kishilarning o‘zlari o‘zlariga tegishli farovonlikni kutarish cheksiz xoxishidir. Shuning uchun kichik biznes – bozor iqtisodiyotida davlat tizimining tayanch asosi bo‘lgan barcha tadbirkorlar strukturasi va jamiyatning o‘rtacha sinfining boshlang‘ich zvenosidir. Islohatlar yillarida o‘rtacha sinf paydo bo‘ldi, ammo uning rivojlanishi bir necha murotaba murakkablashdi: a) iqtisodiyotda ayniqsa inqirozlarda iqtisodiy, moliyaviy qiyinchiliklar; b) axoli uchun byurokratlashgan amaliyotda o‘zlarining ishini ochishga; v) kichik biznesda haddan tashqari soliq to‘lash; g) bank tizimida kredit resurslariga erishi bo‘lmaydigan.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda o‘rtacha sinf ulushi 30-40%, o‘sha vaqtda G‘arbiy Yevropada va Shimoliy Amerikada – 70% va ko‘proq.

Agarda qonuniy tadbirkorlar faoliyati mamlakatda rasmiy sharoitlar uchun yetarli bo‘lmasa, bunda biznes xufyona muhidga ketadi.

## 2. Xufyona iqtisodiyoti mohiyati.

*Xufyona* iqtisodiyot – bu aholining alohida guruhleri noqonuniy daromadlar (foyda) chiqarish uchun mehnatsiz topilgan po‘l, boylik xususiy va kriminalga oid mulkchilik jamiyat, davlatdan yashirin shakllardagi, ya‘ni jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan iqtisodiy munosabatlardir. Xufyona iqtisodiyotning asosiy elementlar bo‘lib:

- ro‘yxat qilinmagan tadbirkorlik faoliyati;
- noqonuniy davlat hisoboti (ikkilangan buxgalteriya) va shartnomada xo‘jalik bitimlarni qasdan yashirish;
- ish kuchini noqonuniy yallash va konverlarda ish xaqini to‘lash;
- soliq to‘lovdan daromadlarni yashirish.

Bozor tizimida xufyona iqtisodiyotning nokriminal tomoni xujali oborotidan istisno qilish mumkin emas, shuning uchun u barcha mamlakatlarda mavjud. Uning mavjudligining asosiy tomoyilari:

- Biznesda suniy ravishdagi jarayoni va inqozli qo‘zatish, ishlab chiqarishni yuksalishi va ancha-muncha pasayishi natijasida bozor iqtisodiyotning sikl rivojlanishi;

- Davlat tomonidan belgilangan, ya’ni iqtisodiyotda bozor qoidalari o‘yinlarining qoniqarsiz rivojlanishi.

Qoida sifatida iqtisodiy rivojlanish darajasi uncha baland bo‘lmaganligi, qonuniyatlari takomillashmaganligi, soliqlarning yuqori og‘irligi hamda haddan tashqari korrupsiyaning tarqatalishi va jo‘jalik munosabatlarning byurokratiyazatsiyalashuvida xufyona iqtisodiyot keng tarqatalishi oladi.

Uning darajasi O‘zbekistonda yuqori bo‘lib va YaIMdan tahminan 20-25% tebranib turadi va oxirgi yillarda uncha ko‘p bo‘lmagan tendensiyalarga ega. Bozor iqtisodiyoti yuqori rivojlangan mamlakatlarda xufyona oborot o‘lchami 5-10%dan oshmaydi.

### 3. Xufyona iqtisodiyot ko‘llanishini aniqlash usullari.

Jahon amaliyotida xufyona iqtisodiyot darajasini aniqlashda uchta asosiy usullar qo‘llaniladi.

Monetarga oid usul. Rivojlangan mamlakatlarda keng tarqatalishi boshlandi va axoli tomonidan po‘l talabi xarakteriga va o‘lchamlarga tahliliga asoslangan edi. Ma’lumki, xufyona operatsiyalar va bitimlar asosan naqd po‘l yordami bilan amalga oshiriladilar. Shu sababli qachonki xufyona iqtisodiyot mumkin bo‘lgan chegarani boshlang‘ich vaqti bilan solishtirganda muamalada to‘rgan po‘l massalarining hajmining ko‘payishi uning o‘lishini ko‘rsatadi. Bunday usullar bozorning barcha yillar davomida o‘zgarib turishida chet el valyutasida hisob-kitoblar, o‘zaro hisoblar, barterlar, “norasmiy naqd po‘llar”ning keng tarqatalishi oqibatida O‘zbekiston iqtisodiyotining bozor sharoitida rivojlanishi uchun kamroq foydalidir.

*Bandlik kursatkichlari bo‘yicha baholash.* Bunday usullar “italiyaliklarga” oid nomni olganlar. Xufyona sektorlarning rivojlanishi rasmiy sektorlardan norasmiy sektorlarga ish kuchining tovlanishi bog‘liq. Bular uchun o‘y jo‘jaliklarida rasmiy tekshiruv ma’lumotlarning ahborot manbalari xizmat ko‘rsatadi. Xufyona iqtisodiyotida shunday yo‘l bilan aniqlangan ishchilar sonini tarmoqlar mehnat unumdorligining o‘rtacha o‘lchamiga ko‘paytiriladi.

Natijada xufyona iqtisodiyotdagi ishlab chiqarishning umumiy hajmi aniqlanadi. Ushbu usulning kamchiligi xufyona jarayonlarda taqsimot, almashuv va iste‘mol sohalarida hisob-kitobning yo‘qligi hisoblanadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun “italiyaga oid usullar” asosan ish haqining

maxfiy, yashirin (sir tutilgan)ligini aniqlash uchun ko'llanilishi mumkin bo'ladi.

*Farqlanish usullari (tafout).* Harxil manbalardan keladigan iqtisodiy ahborotlar solishtiriladi: davlat budjetiga soliq tushumlarining aholi tomonidan va soliq hizmatlardan tuzilishi; davlat bojxona hisoboti va firmalarning buxgalteriya hisoboti; aholining mehnat haqi shaklidagi xarajatlari va ularning daromadlari; aholining yashash minimumidan yuqori yashaydiganlar, hamda oliy o'quv yurtlarida to'lov asosida ta'lim olayotgan talabalar ulushi va boshqalar.

O'zbekistonda xufyona oborotni nazorat qilish uchun yuqorida sanalgan usullarni birgalikda ko'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### 4. Davlat tomonidan resurslar xufyona oborotining cheklanishi.

Xo'jaliklarning rivojlanishiga bir necha ijobiy ichki turtki (impuls) beraturub (santexnikalar, maishiy texnikalar, kvartiralar, bir qator xizmatlarda iste'molchilarning talabini 15-20% qondirishda; aholining noqonuniy va shunday bo'lsada ishchi kuchi o'rinlarini va mehnat shakllarini tashkil etishda) xufyona iqtisodiyot:

- a) aholining og'ir-og'irlikda, ya'ni paraxo'rlik o'rab olinishi;
- b) kishilarda davlatga nisbatan uning o'zirligiga ishonmaslik tug'iladi;
- v) mamlakatda kriminal elementlarning zo'rlikiga olib kelishi;
- g) xalqaro iqtisodiy hamkorlikning bo'zirlishi va jahon hamjamiyatida mamlakat obrusining mahrum bo'lishi.

Natijada hukumat iqtisodiyotning haqiqiy - real qudrati tasavvur etishi va uni samarali tartibga solishi haqidagi qobiliyatining yo'qolishi. Mamlakatda jo'da katta soliq yukining to'lmay qolishining yuzaga kelishida davlat budjetining aql-idroqli shakllanishiga to'sqinlik qilinishi va soliq og'irligining bevosita taqsimlanishi; bozorda iste'molchilarning aldanishidan va zo'ravonlikdan, o'zboshimchalikdan himoya qilinishi; mulkdorliklarning ko'pincha o'g'irlikdan himoyalanihishiga kafolatning yo'qligi, ularning xususiy mulkini bosib olishi va o'g'irlash. Mamlakat bozor iqtisodiyotning boshlanishida yaxshi rivojlanishi uchun doimo xufyona "oborot darajasini nazorat qilish va uni babbarobar, yonma-yon, muvoziy iqtisodiyot xolatigacha yetkazmaslik zarurdir.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston uchun xufyona iqtisodiyot bilan kurashiga kelgusi choralar faoldir:

- Jamiyatga zarar keltirmaydigan xufyona oborotining qismini legallashtirish (rasmiylashtirish);



- Davlat xukmronlikorganlarida korrupsiyaning asosiy manbalaridan biri bo‘lgan iqtisodiyotdagi monopoliya bilan kurash;
- Mutahamlik, qollablikni tugatish (piramid, ehron, lotereya va boshqalarni yaratish);
- Kriminalga oid biznes to‘sib ko‘yish (giyohvandlik, pornografiya – jinsiy hayotni behayolarcha tasvirlovchi adabiyot va san’at asarlari, fohishalik, buzuqlik, g‘arlik va boshqalar);
- Bank sohasida moliyaviy suiiste‘mol va hiyla-nayranglar bilan kurash (pullarni suiiste‘mol qilmoq, kapitallarni afshorlarga olib ketmoq);
- Ko‘rqituv va korrupsiya bilan kurash;
- Alkogolga, tabaklarga, doridarmonlarga oid bozorlarni tartibga solish;
- Reyderlikka (firmalarni ko‘lga olish)larni to‘sib qo‘yish;
- Naqd va naqd pulsiz oborotlarni oqilanitashkil etish;
- Qimmat baho qog‘ozlari bozori haqidagi bozorlarni mukammallashtirish va boshqalar.

*Kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish vazifasi oldimizda turibdi. 2030-yilga borib bu boradagi natijalar quyidagilarda yaqqol aks etishi lozim:*

- ❖ aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad bo‘yicha daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirishga puxta zamin yaratish;
- ❖ 2023-yilning oxirigacha inflyatsiya darajasini 5 foizga tushirish. Davlat budjeti taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2,5 foizdan oshmasligini ta‘minlash;
- ❖ mamlakatimizga yangidan jalb qilinadigan yillik tashqi qarz miqdori 5 milliard AQSh dollaridan oshmasligini ta‘minlash;
- ❖ yurtimizga kapital olib kirish bo‘yicha mavjud cheklovlarni qayta ko‘rib chiqib, barcha uchun qulay sharoitlar yaratish va fond bozori hajmini 7 milliard AQSh dollariga yetkazish;
- ❖ xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini qabul qilib, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan, kamida 70 milliard AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb etish choralarini ko‘rish;
- ❖ davlat-xususiy sheriklik asosida transport, yo‘l qurilishi, suv xo‘jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb etish;
- ❖ mamlakatimizning eksport salohiyatini 1,7 barobar oshirish va 2026-yilda 30 milliard AQSh dollariga yetkazish;

❖ eksport tarkibidagi xomashyo ulushini hozirgi 46 foizdan 23 foizga kamaytirib, tayyor mahsulotlar hajmini 2,5 barobar ko‘paytirish;

❖ Yevropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida 2 mingdan ziyod turdagi tayyor mahsulot eksport qilishni yo‘lga qo‘yish;

❖ xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga, eksport bo‘yicha esa, 60 foizga yetkazish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni ko‘rish;

❖ bank tizimini transformatsiya qilish orqali xususiy banklarning jami ulushini bank aktivlarining 60 foiziga yetkazish;

❖ iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida kelgusi 5 yilda fond bozori hajmini 200 million AQSh dollaridan — 7 milliard AQSh dollariga yetkazish. Bunda mamlakatimizga kapital olib kirish bo‘yicha mavjud cheklovlarni qayta ko‘rib chiqib, barcha uchun qulay bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish;

❖ 2026-yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha alohida strategiya qabul qilish;

❖ Davlat korxonalarining transformatsiyasini hamda xususiylashtirish jarayonlarini tezlashtirish;

❖ samarasiz korxonalar davlatdan qo‘shimcha yordam olmasdan, xususiy sektor kabi “o‘z aravasini o‘zi tortishi” shart. Bunda mashinasozlik, kimyo, neft-gaz, energetika, kon-metallurgiya, transport kabi tarmoqlardagi 23 ta yirik korxonalar xalqaro kredit reytinglarini olish orqali ichki va tashqi moliyaviy bozorlarga mustaqil chiqib, investitsiya loyihalari uchun o‘zi mablag‘ jalb qilishiga erishish;

❖ energiya resurslari bozorini erkinlashtirib, sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalb etish. Natijada 2026-yilga borib elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini yiliga qo‘shimcha 30 milliard kilovatt soatga oshirish va jami 100 milliard kilovatt soatga yetkazish;

❖ tabiiy gaz bo‘yicha ham erkin bozor tamoyillarini joriy etish jarayonlarini boshlash;

❖ elektr energiyasi va tabiiy gaz bozorlarini erkinlashtirish bilan birga, ehtiyojmand aholini himoya qilish uchun ijtimoiy iste‘mol normalarini kiritish.

## **Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy sohalardagi ijobiy o‘zgarishlar.**

1. **Ijtimoiy sohalarda tushunchasi.** Ijtimoiy soha aholining bevosita hayoti haqidagi yarqin tasavvurlar, ularning ne‘matlari va xizmatlar ist‘emoli bilan,

ya'ni jamiyat, kollektiv, guruhlar, oila, insonlarning pirovard rasmiy talablarini butunlikda qondirish bilan bog'liq, iqtisodiyot borasi deb nomlanish qabul qilingan.

Har qanday jamiyat ijtimoiy sohasiz nafaqat rivojlanishi, balki mavjudligi mumkin emas, sababi iqtisodiyot tizimli bir qator omillar aholini farovonligiga xavfg'xatarli qo'rqinchli kabilar ta'siri ostida turadi: ishlab chiqarishning inqirozli pasayishi; stixiya va ofat falokatlar; kishilar tomonidan ish joyi, daromadlarni yo'qotishi; invalidlik, moyillik yoki qarilik, keksalik, kasallikning xastalikning boshlanishi.

Davlatning yoki ijtimoiy yordami bilan yoki o'y egasi keskin vaziyatlarda bardosh bilan o'zini o'zi ximoya qilish mumkin.

Buyruqbozlik o'rniga kelgan bozor iqtisodiyoti bu ikkita tomoyillar bir birini qoplashni tahmin etadi:

1) Har bir inson o'zi eson-omonligi haqida tashvish haqida shart (birinchi navbatda pensiyaga oid) ulushlar tizimidan foydalanib yoki qo'rqinchli shartnomalarga ega bo'lish sababi, ijtimoiy xavf-xatarlaning aksariyati ushbu o'lchamlar bilan betaraf qilishi mumkin bo'ladi. O'zbekiston davlati ohirgi yillarda aholini o'shbu harxil yo'llar bilan harakat qilishini rag'batlantiradi, ammo o'y xo'jaliklarining uchdan bir qismiga yaqini ehtiyotqorlik bilan bu qadamga xususiy pension fondlar va sug'urta kompaniyalarga ishonchsizlik bilan boradi;

2) Davlatning aholi xaqidagi tashvishlardan chetlanishi mumkin emas, sababi:

- kishilarning bir qator qismi o'zining-o'zi yoki o'zini oilasini yetarli vositalar bilan ob'ektiv sabalarga ko'ra ta'minlashi mumkin emas (oilasiz yolg'iz onalar, ko'p-bolalilar, ko'p ishsizlar, daromadlari kam, boquvchilari yo'qlar va boshqalar).

3) Jamiyat inson kapitalining rivojlanishiga manfaatdor sababi u milliy iqtisodiyotning o'sishini ta'minlaydi. Ushbu sabablar bo'yicha davlat tomonidan harxil darajadagi tekin ta'lim dasturlari zarurdir.

- jamiyatning hozirgi zamon texnologik tizimi kishilarga jo'da ham katta massa ne'mat yarataborib, xavf-xatarli kasbiy kasallik, bebaxt xolatlar moyillik bilan bog'langan. Davlat ushbu ijtimoiy tavsakal xavf-xatarli ishlarning o'rnini to'ldirishga va oqlash markazlarni yaratishga, kasalxonalarni moliyalashtirish, pensiya va yordam po'llari bilan ta'minlashi shart;

- aholining past daromad bilan yashovchi bir guruhi ko'pincha kelajakda munosib ravishda o'zini ta'minlashga qobiliyatsizdir, shu sababli davlat

imtiyoz turida o'rnini to'ldiruvchi subsidlar (yordamga beraladigan po'l), bo'lib-bo'lib to'lash, tovarlar va hizmatlarni past narhda sotish va xatto tekin (masalan, ijtimoiy yashash joylarni) yonma-yon tarmoqlarni ko'llash shart.

Bozor iqtisodiyotida davlat tomonidan o'y jo'jaliklar butunlay ko'llab-quvvatlash shunday ko'rilishi kerakki, ya'ni ijtimoiy qaramlikka qiyshaytirmoqda bo'lmasligi kerak hamda aholining bir qanday qatlamlari tomonidan ijtimoiy parazitga oid, tekinxo'r bo'lmasligi, xukumron sinflar tomonidan aholining himoya qilinmagan guruhleri talabiga beadablik bilan pisand qilmaslik.

## **2. Ijtimoiy sohalar tarkibi.**

Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari amaliyotida ijtimoiy sohalar bilan bog'langan: bank sohasidan to sanoatgacha. Bevosita ijtimoiy iqtisodiyot tarmoqlariga kiritishi kerak:

- yashash va kommunal xo'jaligi;
- aholiga maishiy xizmat kursatish;
- ta'lim;
- sog'liqni saqlash;
- jismoniy tarbiya va sport;
- fan;
- madaniyat va u bilan yaqin bog'langan yo'lovchilar transporti, chakan savdo va umumiy ovqatlanish, hamda aholini ijtimoiy ta'minot tizimi.

## **3. Ijtimoiy sohalar mukkamalashuvining asosiy yo'nalishlari.**

Ijtimoiy sohalar mustaqillik yillarida jiddiy o'zgardi. Boshma-bosh ijtimoiy tenglashtirilgan himoyadan rad etilib va aholining ma'lum muxtoj qatlamining ijtimoiy ko'llab-kuvvatlashga o'tishi mulki munosabatlarni isoh etish oqibatida bo'ldi; bozorga oid narx va narxni belgilashni kiritish; pensiyaviy ta'minlash, mexnatga haq to'lash islohatlarning ro'y berish; madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash tomyilarni tashkil etishni o'zgartirish.

Yangi O'zbekiston davlati ohirgi yillarda narx-navoning o'sishidan (inflyatsiyadan) aholini himoya etish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi ro'y bermoqda.

Bulardan boshqa ishlab chiqruvchilar uchun bozor rag'batlantirishni kiritish daromadlarni haddan tashqari farqlanishi muammolarni to'ldirdi, budjet va soliq usullari bilan tartibga solishga to'g'ri keldi, (pensiyalarni indeksatsiya etish, budjet sektorlarida mehnat haqlarini ko'tarish, ishsizlarga yordam pulini berish, kuchmasmulklarga soliq solish va boshqalar).

Iqtisodiyotda demografiya-aholishunoslik va inqiroziy muammolari normal xolatda umum hayot darajasini ko‘llab-quvvatlash asosiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston rivojlanish darajasi bo‘yicha ikkinchi eshelon va jahon reytingida 50-70 o‘rinni egallaydigan davlat, shu sababli uning ijtimoiy resurslari yetarli darajada cheklangan.

### **Qisqacha xulosalar**

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy islohotlar konsepsiyasi mustaqillik yillarida respublikamiz iqtisodiyotida misli ko‘rilmagan, Markaziy Osiyoda tengi yo‘q yangi-yangi texnika-texnologiyalar paydo bo‘ladi.

Qaytadan barpo etilayotgan davlatimiz avvalo, umumjahon sivilizatsiyasiga, davlat qurilishi sohasida boshqa xalqlar erishgan tajribalarga va milliy an‘analarga, faqat o‘zbek modeliga, ijtimoiy qadriyatlarga asoslanmokka.

O‘zbekistonda sobiq ittifoqning iqtisodiy parchalanganidan keyin mustaqillikka erishishi natijasida birinchi Prezident I.Karimov tashabbusida bevosita o‘tish davri iqtisodiyoti O‘zbekiston millatining tarixiy an‘alaridan, urf - odatlaridan, milliy xususiyatlaridan va nihoyat mentalitetidan kelib chiqqan holda aniqlab berdi hamda yagona O‘zbek modelini ishlab chiqdi. Bu yerda milliy modelning asl mag‘zi, mohiyati, asosi, ya‘ni o‘tish modelining kvintessensiyasi ishlab chiqildi. Ushbu kvintessensiyaning talabi nazariy ishlab chiqilib, amalda ijobiy o‘z vazifasini bajarayotganligiga mana necha yillar davomida dunyoning barcha davlatlari va ulardagi iqtisodchilarning qiziqishi tomonidan ijobiy ma‘qullandi – hatto, dunyoda ro‘y berayotgan «inqiroz – retsessiya – depressiya – turg‘unlik – jonlanish – yuksalish» kabi iqtisodiy qonun va kategoriyalar ta‘limotining kvintessensiyasi ham muvafaqiyatli bajarilmoqda.

Albatta, yana bir marta buni qaytaradigan bo‘lsak yomon bo‘lmaydi, ya‘ni ushbu yangi bozor iqtisodiyotiga (sobiq ittifoq tarkibidan chiqqan va boshqa sobiq sotsialistik davlatlar uchun) o‘tish milliy modelining ilmiy asoschisi O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimovdir. Bu yerda asosan, bozor iqtisodiga o‘tish ikki bosqichdan iborat bo‘lib va har bir bosqichda 4 ta vazifa qo‘yilgan edi. Birinchi bosqichda g‘oyat muhim va asosiy darajadagi chora-tadbirlar hamda ustuvor yo‘nalishlar sifatida: moliya va soliq siyosati sohasida; kredit–pul siyosati sohasida; narx–navo bo‘yicha va pulning qadrsizlanishiga qarshi siyosat sohasida; qishloq xo‘jaligidagi agrar islohot iqtisodiy o‘zgarishlarning eng muhim bo‘g‘ini, deb belgilandi.

Shuningdek, davlat mulkini hususiyashtirish hamda ko'p ukladli iqtisodiyotni shakillantirish, o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakillantirish, islohotlarning qonuniy-xuquqiy bazasini mustahkam rivojlantirish.

Umuman, birinchi bosqichda ikkita hal qiluvchi vazifani birdaniga amalga oshirishga to'g'ri keldi:

- ma'murmy buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;

- respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda, bozor munosabatlarining negizlarini shakillantirishdan iborat edi.

Ikkinchi bosqichning vazifalari va ustuvor yo'nalishlaridan iborat qilib bu yerda mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish borasida oldimizda turgan asosiy vazifalar bayon etilgan, asosan – xususiyashtirish va raqobatchilik muhitini shakillantirish jarayonlarini chuqurlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, milliy valyutani mustahkamlash; iqtisodiyotning tarkibiy strukturasi tubdan o'zgartirish, ijtimoiy kafolatlari kuchli bo'lgan demokratik davlatni shakillantirish, modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash vazifalaridan iboratdir.

Qisqacha qilib aytganda, iqtisodiy rivojlanishning «O'zbek modeli», deb nomlangan bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosi bo'lgan beshta tamoyil batafsil ko'rib chiqildi.

Umuman, bu yerda shuni alohida ta'kidlash kerak, ya'ni birdan sakrab o'tib, yangi oldi-sotdi «erasida» bo'lib qolish aynan biz uchun to'g'ri kelmadi, shu sababli biz bosqichma-bosqich (gradualizm) bozorga o'tish yo'lini tanlab oldik, bunday ijobiy tanlov yo'llarini O'zbekistonning milliy an'analari, milliy mentaliteti talab qildi.

Shu qisqa muddat ichida bunday misli ko'rilmagan siyosiy, ma'naviy, madaniy, iqtisodiy o'zgarishlarning faqat o'ziga ishongan millat va uning rahbari uddasidan chiqishi mumkin edi. Shu yillarda Prezidentimiz tomonidan juda ham ko'p, haqiqatan ham inqilobiy nazariy asarlar yoziladi va ular amaliyotda o'z samarasini berdi. Tanlab olgan taraqqiyot yo'li – modeli konstitutsion asosga ega. Bu yo'l mamlakatimiz barcha aholisi manfaatlariga har jihatdan mos keladi.

### **Asosiy tushunchalar**

Iqtisodiy islohotlar - ishlab chiqarish xo'jaliklarini, umuman, iqtisodiy o'zgartirish, yangilash ma'nosi anglatadi.

Iqtisodiy latentlik – bu xufyona iqtisodiyotning bir turi bo'lib, ochiq kriminal xususiyatini ifodalaydi. Iqtisodiy latentlik noqonuniy valyuta

jarayonlari, poraxo‘rlik, qo‘shib yozish, o‘g‘irlik, xoridorlarni aldash, ta‘magirlik bilan yashashni bildiradi.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Mustaqillik davridagi hayot bilan sobiq ittifoqdagi hayotning farqi.
2. Mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar nimalardan iborat?
3. O‘zgarishlarning ijobiy va salbiy tomonlari nimada?
4. Biz shu yillarda nimalarga erishdik va nimalarni yo‘qotdik?

### **Mustaqil ta‘lim uchun savollar**

1. Iqtisodiyotda mustaqillik yillari erishilgan yutuqlarning asosiy sabablari.
2. Mustaqil davlat va mustaqil iqtisodiy rivojlanish nima?
3. Iqtisodiy islohot nima?

## 13 BOB. O‘TISH IQTISODIYOTI NAZARIYASI

### 13.1. O‘tish jarayonlari va hozirgi O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘ziga xos jihatlari

Iqtisodiyot nazariyasi, avvalambor, iqtisodiy faoliyatning qonuniyatlarini aks ettiradi. U masalan, muvozanatli narx-navo, eng katta chiqimlar, o‘tish modellari va boshqa kategoriyalar orqali bozor iqtisodiyoti tizimiga xos bo‘lgan ma‘lum barqaror aloqalarni tavsiflandi. Ammo bozor iqtisodiyoti o‘zining barcha jihatlari bilan hamisha mavjud bo‘lgan emas. Hap qanday boshqa tizim kabi u ma‘lum rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi, iqtisodiyot nazariyasi buni ham nazarda to‘tishi lozim.

#### Iqtisodiy tizimning rivojlanish bosqichlari

Iqtisodiy tizimning shakllanish va faoliyat ko‘rsatish jarayoni uch bosqichni o‘z ichiga oladi. **Birinchisi** - tizimning asta-sekin tarkib topishi (vujudga kelishi), bu uning jamiyatda hukmron tizim sifatida qaror topishiga olib keladi. **Ikkinchisi** - faoliyat jarayonida uning barcha imkoniyatlari, tarixiy afzalliklari turlicha namoyon bo‘ladigan yetuklik davri. **Uchinchisi** - yangi, bo‘ljak tizim elementlarining tug‘ilishi va rivojlanish sharoitlarida asta-sekin «rixlatga ketishi».

Har qanday tizimning tarixiy tabiati (tarkib topishi, yetukligi va «rixlatga ketishi») jamiyatning rivojlanishida alohida o‘tish holatlari vujudga kelishini izohlandi. Quyidagilar ana shundan holatlarning o‘ziga xos jihatlari hisoblanadi:

- 1) eski va yangi tizim elementlarining birgalikda faoliyat ko‘rsatishi;
- 2) qarama-qarshiliklarning o‘ziga xos xususiyati o‘lib borayotgan va tug‘ilib kelayotgan iqtisodiyot elementlarining kurashi;
- 3) jamiyat o‘zgarishi bilan izohlanuvchi va uning kelajagi variantlarining muqobilligi (mavhumligi)da namoyon bo‘luvchi beqarorlik.

Tizim iqtisodiyoti faoliyatidagi uch bosqichdan ikkitasini tashkil etuvchi o‘tish holatining moddiy asosi ikki tomonlamadir. Bir tomondan, tarixning ko‘rsatishiga qaraganda, bu ishlab chiqarish ustuvor omillarining o‘zgarishi. Agar jamiyatdan (ustuvor omil - yer) industrial jamiyatga (ustuvor omil - jamlangan mehnat, kapital) o‘tish tarixan ana shunday kechadi. Ikkinchi tomondan, o‘tish holati - bu odamlar o‘rtasidagi aloqalar tabiatining o‘zgarishidir. Shu ma‘noda olganda, yuqorida aytilgan o‘tish an’anaviy jamiyatdan (urf-odatlariga, an’analariga asoslangan shaxsiy aloqalardan) bozor



jamiyatiga (buyumli, bozor aloqalariga) o'tishning o'zidir. Umuman olganda, o'tmishning (XV – XVII asrlar) lirik o'tish holati industrial-bozor tizimi vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan.

### **O'tish hozirgi jahon hamjamiyatining holati sifatida**

Ming yilliklar sarhadi yangi darajadagi o'tish holatini taqdim etdi. Ustuvor omilning o'zgarishi nuqtai nazaridan olganda, inson (mehnat) birinchi o'rinni egalladi. Agar ilgari inson tabiatga, industrial-bozor tizimida esa, moddiy boylikka tobe element sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, kelajak jamiyatda insonning bilimga asoslangan ijodiy faoliyati jamiyatning faoliyat yuritishi va rivojlanishini belgilovchi elementga anlanadi.

Bugungi kunda bunday alomatlar xodimning roli hamda o'z faoliyati samaradorligi uchun javobgarligi, ishlab chiqarish jarayonining kechishi ustidan nazorat, xodim malakasining ahamiyati oshib borishida namoyon bo'lmoqda. «Inson kapitali» ga xarajatlarning roli oshib bormokda, mehnatga undovchi sabablarning yangidan-yangi ko'rinishlari rivojlanib bormoqda. Aloqalar tabiatining o'zgarishi nuqtai nazaridan qaraganda, bozor xo'jaligidan farqli ravishda to'g'ridan-to'g'ri axborot aloqalari rolining oshib borish tamoyili ko'zga tashlanadi, bozor xo'jaligida bilvosita (bozor) aloqalari axborotlar vazifasini bajarar edi. Bo'lajak jamiyatning axborotlar jamiyati, deb nom olgani ham tasodifan emas.

Yuqorida aytib o'tilgan fikr hozirgi dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida yorqin namoyon bo'layotgan tamoyillar bilan tavsiflanadi. Umuman olganda, turli mamlakatlarning bir xilda rivojlanmaganligi bois, hozirgi jahon hamjamiyatidagi o'tish nisbatan murakkab, ko'p qirrali bo'lib kelmoqda. Birinchidan, bu yuqorida aytib o'tilgan «postindustrial» tamoyillardir. Ikkinchidan, tobora tarmoqlashib borayotgan jahon aloqalarida namoyon bo'luvchi integratsiya jarayonlarining kuchayganligi; qit'alar va qit'alararo ko'lamdagi turli xil birlashmalarning tashkil topishi; nisbatan «bo'sh» mamlakatlar rivojlanishining jadallashuvi. Uchinchidan, «qoloq» mamlakatlarning jadal industrial rivojlanishi va bozor munosabatlarining ulkan ko'lam kasb etishi asosida ro'y berayotgan, mamlakatlar taraqqiyoti «turli darajadiligini» yengib o'tishga urinish kuchayib borayotganligidir.

Mazkur jihatlar bugungi kunda jahon hamjamiyatining barcha mamlakatlari rivojlanishini tavsiflaydi, shunga qaramay bir-biriga o'xshamagan bir nechta guruhlar ko'zga tashlanadi. Birinchisi -postindustrial (axborotlar) jamiyati sari harakat tamoyillarini yuksak darajada namoyish etayotgan yetakchi mamlakatlar. Boshqasi - yaqin o'tmishda

«rivojlanayotgan» deb nomlanuvchi mamlakatlar. Va nihoyat, 90-yillarda shakllangan (sobiq sotsialistik) mamlakatlarning alohida guruhi, ana shu mamlakatlarda rejali iqtisoddan «voz kechish» o‘tish jarayonlarining idallosi bo‘ldi.

### **O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘tish jarayonlarining o‘ziga xos jihatlari**

O‘zbekiston yuqorida aytib o‘tilgan uchinchi guruh mamlakatlari qatoriga kiradi. Shuning uchun uning o‘tish jarayoni o‘ziga xos jihatlari ma’lum darajada sobiq sotsialistik mamlakatlarning o‘tish holati jihatlari tavsiflaydi. Birinchidan, bu o‘tish jarayonidan avvalgi o‘ziga xos boshlang‘ich holat - rejali iqtisodiyot. Bunda iqtisodiyotdagi aloqalar xarakteri odatdagi industrial-bozor tizimidagi aloqalardan mutlaqo o‘zgacha. Shu sababli bunday mamlakatlarda bozor munosabatlarining rivojlanishi ma’lum ma’noda o‘z indallosidan boshlanadi. Ikkinchidan, bunday mamlakatlarda o‘tish jarayonlari ilg‘or tamoyillarni shunchaki orttirish yo‘li bilan kechmaydi, ular iqtisodiyotning tub sifat o‘zgarishlari, avvalgi munosabatlarning yemirilishi bilan muqarrar bog‘liqdir. Shu ma’noda olganda, bu tadrijiy rivojlanish emas, inqilobiy jarayondir.

Uchinchidan, jamiyatning mavjud ishlab chiqarishi tarkibiy tuzilishini, iqtisodiyoti tuzilishini barbod etish zarurati ana shu o‘zgarishlar jarayonida talaygina ijtimoiy-iqtisodiy chiqimlar (ishlab chiqarishning o‘zgarish vaktidagi tushkunligi, aholi hayot darajasining pasayishi, mentalitetning o‘zgarishi v.h.) muqarrar ekanligini anglatadi. To‘rtinchidan, O‘zbekiston o‘tish iqtisodiyotining o‘ziga xos jihatlari ma’lum darajada respublikalararo xo‘jalik aloqalarining uzilishi, sobiq ittifoqining hamda O‘zaro Iqtisodiy Yordam Kengashining parchalanishi bilan izohlanadi. Beshinchidan, O‘zbekistonning o‘ziga xosligi Osiyo qit’asidagi boshqa sotsialistik mamlakatlarga nisbatan unda sotsialistik (rejali) iqtisodiyot ayniqsa, uzoq vaqt hukm surganligida namoyon bo‘ladi.

### **«O‘tish iqtisodiyoti» tushunchasi haqida**

Hozirgi dunyo o‘tish holatining murakkabligi, serqirraligi «o‘tish iqtisodiyoti» atamasining mazmuni bir xil emasligi bilan ham izohlanadi. Ta’kidlab o‘tilganidek, jahon hamjamiyatining barcha mamlakatlari ma’lum darajada o‘tish holatida turibdi, keng ma’noda olganda, butun jahon iqtisodiyotini bugungi kunda ana shunday -«o‘tish iqtisodiyoti», desa bo‘ladi. Shu bilan birga, uning ichida o‘tish iqtisodiyotining bir necha xil turlari mavjud. Amalda, o‘tish iqtisodiyoti haqida gap borganida, u ana shunday, nisbatan tor ma’noda tushuniladi. Shu ma’nodan kelib chiqadigan bo‘lsak,

«o‘tish iqtisodiyoti»ni mamlakatlar iqtisodiyoti, desa bo‘ladi. Biz Rossiya, O‘zbekiston, Ukraina, Litva, Polsha, Chexiya, v.h. mamlakatlarning o‘tish iqtisodiyotini nazarda tutyapmiz. Shu o‘rinda mamlakatlarning o‘tish iqtisodiyoti (keyingi bayonlarda uni ana shunday deb tushunamiz) - jahon hamjamiyati ulkan o‘tish holatining bir qismi ekanligini unutmaslik lozim. Bu shuni anglatadiki, masalan, O‘zbekistonning o‘tish iqtisodiyoti, birinchidan, mamlakat ichki xususiyatlarini, ikkinchidan, boshqa sobiq sotsialistik mamlakatlardagi shu xildagi jarayonlar bilan umumiy jihatlarni; uchinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlardagi o‘tish jarayonlari (davlat mulkiga egalikning o‘zgarishi, bozor munosabatlarining keng ko‘lam kasb etishi va h-k.) bilan ba’zi o‘xshash jihatlarni; to‘rtinchidan, bu juda muhim, postindustrial jamiyatga o‘tish jihatlarni ham o‘z ichiga oladi.

So‘nggi jihatni inkor etish O‘zbekiston iqtisodiyotini jahon taraqqiyotining yagona oqimidan ajratib olishni anglatgan bo‘lar edi, bu har tomonlama to‘g‘ri emas.

### **13.2. Rejali iqtisodiyot o‘tish jarayonlarining boshlang‘ich holati sifatida**

Aksariyat sobiq sotsialistik mamlakatlarda rejali tizimlarning qisqa vaqtda yemirilishi, ehtimol rejali iqtisod Rossiya bolsheviklari “sof” zo‘ravonlik xatti - harakatlarining natijasi sifatida paydo bo‘lgan, so‘ngra yana zo‘ravonlik yo‘li bilan boshqa mamlakatlarga tiqishtirilgandir, u hukm surgan yillarning hammasi «behuda sarflangan vaqt» bo‘ldi, degan fikrni keltirib chiqardi. Ammo amalda hammasi ham bunday bo‘lgan emas.

#### **Rejali iqtisod - XX asr muqobillaridan biri**

XIX -XX asrlar sarhadida bozor iqtisodining tangligi ko‘zga tashlandi. Buning ma‘nosi shundan iborat ediki, bozor mexanizmining roli haqidagi A.Smit va A.Marshallning tasavvurlariga xilof ravishda jamiyat taraqqiyoti o‘z - o‘zini boshqaruvni ta‘minlashga qodir emas ekan. Birinchi jahon urushi ana shu tanglikning butun dunyodagi ifodasi bo‘ldi.

«Ko‘z ilg‘amas qo‘l» zamirida bozor o‘zini - o‘zi boshqarishga qodir emasligi nisbatan ko‘z ilg‘aydigan va xis etiladigan «qo‘l» yordamiga -davlat boshqaruviga murojaat qilishni talab etdi. Shu munosabat bilan nazariyada uch xil taxminiy fikr vujudga keldi. Birinchisi -bevosita bozor munosabatlarining davlat boshqaruvi o‘z ildizlari bilan V.Paretoning ta‘limotiga borib taqalar va uning shogirdlari E.Barone, O.Lante va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan edi. Mazkur taxminiy fikr «bozor sotsializmi», degan nom oldi. Ikkinchisi-bozor mexanizmiga qo‘shimcha sifatidagi davlat boshqaruvidir. Bunday

ta'limot J.Keyns tomonidan ilgari surilgan edi. Uchinchi -bozor munosabatlaridan foydalanilmagan holda xo'jalikning davlat boshqaruvi bo'ldi. Bunday ta'limot K.Marksning nazariyasida batafsil asoslab berilgan, majburan yo'naltiriladigan xo'jalik turi P.Struve, V. Oykenlarning asarlarida ko'rib chiqilgan. Ana shu uch muqobil model XX asrda turli mamlakatlarda u yoki bu ko'rinishda qo'llandi.

Shunday qilib, rejali iqtisodning bolsheviklar tomonidan tanlangan variantga, jahon iqtisodining rivojlanish o'zanida bo'lib, boshqalariga nisbatan ma'qulroq ko'rinarli, chunki «samarasiz» bozor munosabatlarini to'liq istisno qilardi. Uning nisbatan yuqori tarixin samaradorligi, jumladan, markscha nazariyaga ko'ra bir qator jihatlariga bog'lik edi.

Birinchi, bilvosita bozor aloqalarini istisno qiluvchi ishlab chiqarishning bevosita ijtimoiy (rejali) xususiyati go'yoki, mehnat va mahsulotning har bir turiga mehnatning ijtimoiy taqsimoti tizimida oldindan o'rin ajratib qo'yilgan, deb taxmin qilar edi. Amalda rejalashtirish teskari aloqalarni, jonlardagi tashabbuslardan fondalanish imkoniyatini istisno qiluvchi, xodimlarni mehnatga undovchi sabablarni bekor qiluvchi bir tomonlama ko'rsatmali boshqaruvga aylandi.

Ikkinchi, ishlab chiqarish vositalariga xalqning egaligi go'yo hammani xo'jayinga aylantirishi, natijada, ishlab chiqarish samaradorligi keskin oshishi kerak edi. Aslida ishlab chiqarish vositalari aksariyatining davlat qo'lga o'tishi ulardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanuvchi byurokratik partiya -davlat turlarini keltirib chiqardi, aholining aksariyatini totalitar tizim ko'rsatmalariga bo'ysunishga majbur bo'lgan yollanma xodimlarga aylantirdi.

Uchinchi, rejali iqtisodning oliy maqsadi - xalq farovonligini og'ishmay oshirib borish bo'lib, bu birinchi navbatda, uning tarixiy afzalliklarini namoyish etishi kerak edi. Amalda resurslarni chegaralash iqtisodi (Ya.Kornaining ta'biriga kura) sifatida tarkib topgan rejali iqtisod dastavval chindan ham rivojlanishning yuksak sur'atlarini ta'minladi, ammo bu «ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish» da, xalq iste'moli o'sishining tobora cheklanishida, yalpi taqchillikning jadal sur'atlar bilan rivojlanishida namoyon bo'ldi.

To'rtinchi, moddiy va ma'naviy ne'matlarning mehnatga yarasha taqsimlanishi «eng adolatli» taqsimot, deb tasavvur qilingan edi. Aslida, pirovard (shaxsiy) iste'mol mahsulotlarining doimiy cheklanishi sharoitlarida

u aholining aksariyati uchun bir tekis taqsimlanishga, ayni vaqtda hukmron rahbarlar uchun cheksiz imtiyozlarga aylandi. Ayni vaqtda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash zarurati aholi daromadlarining iste'mol ne'matlarini ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmiga qattiq bog'lab qo'yilishiga olib keldi.

Beshinchidan, aholi davlat tomonidan yuksak darajada ijtimoiy himoya qilinishi kerak edi, aslida bu g'oyatda qoloq darajadagi, bepul bilim berish, sog'liqni saqlash, imtiyozli turar-joy berish va v.h.larda namoyon bo'ldi. Shu sohadagi dastlabki ulkan yutuqlar ana shu maqsadlarga mablag'larni ajratish qisqarib borgani sababli asta - sekin o'z ahamiyatini yo'qotdi.

Oltinchidan, O'zbekistonda va boshqa mamlakatlarda rejali iqtisodni amalda shakllantirish, rivojlantirish hamisha sotsializm (kommunizm) qurilishi bilan «bog'lanar» edi, bu rejali iqtisodga ega mamlakatlarni qolgan boshqa mamlakatlardan qo'shimcha ravishda ajratib turardi.

### **Rejali iqtisodning tangligi va boshqa tizimga o'tish zarurati**

O'zbekistonda rejali iqtisodning o'zoq vaqt hukm surganligi, birinchidan, rejali iqtisod chindan ham yuzaki bo'lsa ham bir qator ijobiy jihatlarga egaligi; ikkinchidan, ularni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo'lganligi bilan izohlanadi. Rejali iqtisodning ana shu jihatlari resurslarni ma'lum darajada markazlashtirish qobiliyati, yuksak safarbarlik, buyruqlarning tezda bajarilishi, makroiqtisodiy rejalashtirish va bashorat qilish imkoniyati v.h.lar kiradi. Ishlab chiqarishning tuzilishi nisbatan soddaligi, bu demak, xo'jalik aloqalarining ko'p sonli emasligi, iqtisodiy o'sishning ekstensiv usuli ustuvorligi, sotsialistik g'oyalar keltirib chiqargan va mehnatga rag'batlantiruvchi omil bo'lgan tashabbuslarning nisbatan qisqa vaqt amal qilishi ana shu imtiyozlarning namoyon bo'lishi uchun xo'jalik yuritishning qulay shart - sharoitlari edi. Mazkur shart - sharoitlarning o'tkinchi xususiyati, ularning xalq xo'jaligi murakkablashib borishi, iqtisodiyotda tezkor jarayonlar, insonning ishlab chiqarishdagi ijodiy faolligi rolining oshishi sababli kuchayib borishi ana shu shart - sharoitlar yo'qolib borgani sayin rejali iqtisod tanglikka uchrashini anglatadi. Shu narsani ta'kidlash kerakki, makroxo'jalik yuritishning yuqorida aytib o'tilgan holatlari aholining, ayniksa, qishloq aholisining iste'mol darajasi past bo'lgan sharoitlarda kuzatilgan.

Rejali iqtisodning tangligi -uning tizim sifatidagi tangligi demakdir. Uning mohiyati rejali iqtisodning ijtimoiy ishlab chiqarish, umuman, jamiyat samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qodir emasligidir. Rejali

iqtisodning fan - texnika taraqqiyoti yutuqlarini qabul qilmaganligi, ularning ma'muriy - buyruqbozlik aloqalari shart - sharoitlari tomonidan inkor etilishi ana shu tanglikning ko'rinishlari bo'ldi. Bu mamlakatning texnika va texnologiya sohasida ortda qolishga, ishlab chiqarish omillarining samaradorligi pasayishiga, mahsulot birligiga moddiy va mehnat resurslari sarfi bozor iqtisodiyotiga qaraganda ko'prok bo'lishiga, o'sishning ekstensiv usuli ustuvorligi ta'minlanishiga, iqtisodiyotni tezkor rivojlanish yo'liga o'tkazish borasidagi urinishlarning behuda ketishiga; xalq iste'molining pasayishi va shu sohada bozor tizimi hukmron bo'lgan mamlakatlardan ortda qolishning kuchayib borishiga, totalitar tizimning inson ijodiy tashabbuskorligini bo'g'ishiga, hozirgi zamon sharoitlarida, ayniqsa muhim bo'lgan mehnatga ichki layoqatning susayishiga, jahon bozorida rejali tizim mamlakatlarining raqobat qobiliyati pasayib ketishi va hokazolarga olib keldi.

Yuqoridagi fikr rejali iqtisodning tangligi «to'satdan» paydo bo'lmaganligini anglatadi. U asta-sekin kuchayib bordi. 50-yillaridayoq O'zbekistonda qishloq xo'jaligi xodimlarini rag'batlantirish borasida jiddiy harakatlar qilindi, mahalliy tashabbuslarni rivojlantirish maqsadida alohida viloyatlar doirasida xalq xo'jaligi kengashlari to'zildi. 60-yillarning o'rtalaridagi islohotlar yana rejalashtirish va boshqaruvning tarmoq tamoyiliga olib keldi, vaholanki, ko'zlangan maqsad ishlab chiqarishning boshlang'ich bo'g'inlari - korxonalarining mustaqilligini kengantirish edi. 70 - va 80 - yillarda ham xo'jalik yuritishning rejali tizimini takomillashtirishga urinishlar bo'ldi. Bu urinishlar kuchayib borayotgan tanglikni yengish maqsadida qilindi. Islohotlar muvaffaqiyatsiz chiqdi: ma'muriy - buyruqbozlik tizimi barcha, ilg'or yangiliklarni qabul qilgani yo'q, chunki bu rejali iqtisodning asosiy tamoyillariga mos emasdi. Tarixiy tajriba rejali tizimning tanglikdan chiqishi uning islohotlari bilan bog'liq emasligini ko'rsatdi. Bu rejali tizimdan voz kechish, boshqa tizimga o'tish birdan - bir yo'l, degan xulosaga olib keldi.

### **Rejali tizimni o'zgartirishning asosiy yo'nalishlari**

Rejali tizim o'rnini qanday tizim egallashi kerak? Shubhasiz, tizim rejali iqtisodning asosiy kamchiliklarini yenga olishi zarur. Ma'lumki, rejali iqtisod - ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarishga, aholi pirovard iste'molini qondirish, uning farovonligini oshirishga zarar keltirsa ham, miqdor ketidan quvishga yo'naltirilgan, resurslari cheklangan tizim. Bu demak, iqtisodiyotni o'zgartirish, uning rivojlanishini aynan iste'molni qondirishga bo'ysundirish zarur. Ammo bunga iste'molning o'zi ishlab chiqarishni rivojlantirishning

haqiqiy chegaralovchisiga aylangan holdagina, ya'ni talab cheklangan (bozor) tizimga o'tilgan taqdirdagina erishish mumkin.

Ko'rsatmalar bilan yo'naltiriluvchi rejali iqtisod ayrim korxonalarining tashabbuskorligini, resurslardan yanada to'la va samarali fondalanish, xodimlarni rag'batlantirish imkoniyatlarini cheklar edi. Bu demak, ishlab chiqaruvchilarni har xil buyruqlardan ozod qilish, shu ma'noda iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarish, uning har bir bo'g'inini o'z faoliyatini tavakkal qilib, talabni qondirish maqsadida olib boruvchi, uning natijalari uchun javobgar bo'lgan xo'jalik yurituvchi mustaqil sub'ektga aylantirish zarur. Rejali iqtisod markazlashgan yagona tizim sifatida iqtisodiy musobaqani, ayrim bo'g'inlar o'rtasidagi raqobatni istisno qilar edi, boshqarish oson bo'lishi uchun bo'g'inlarning soni ham nisbatan ko'p emasdi. Bu rejali tizim samaradorligini qo'shimcha ravishda pasaytirardi, chunki ishlab chiqarish chiqimlarining kamaytirilishini, mahsulot sifatining yaxshilanishini, yangi mahsulotlar ishlab chiqarilishini, ilg'or texnikaning joriy etilishini rag'batlantirmas edi. Bu demak, iqtisodiyotni shunday o'zgartirish zarurki, rosmana raqobat muhiti tarkib topishi, ya'ni yirik ishlab chiqarishni maydalashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar sonini sezilarli darajada ko'paytirish, monopoliya borasidagi cheklashlarni bekor qilish zarur.

Aytib o'tilgan yo'nalishlar o'rtasida ma'lum farqlar bo'lishiga qaramay, ularning u yoki bu darajada bozor iqtisodiyotiga o'tish zarurati bilan bog'liqligi ko'rinib turibdi. Bu rejali iqtisodiyot mamlakatlar uchun umuman, xo'jalikning industrial turi xos ekanligi bilan ham izohlanadi. Ammo amaliyotning ko'rsatishiga – xo'jalikning bu turiga aloqalarning ikki xili: to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmali yoki bilvosita bozor aloqalari xos. To'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmali aloqalar tizimi samarali emas ekan, uni bilvosita bozor aloqalari tizimi bilan almashtirish lozim.

### **13.3. Haqiqiy bozor munosabatlarini shakllantirish - o'tish iqtisodiyotining mazmun - mohiyati**

Rejali iqtisodiyotda tovar - pul munosabatlari rasman mavjud bo'lgan. Ammo pul, narx-navo, oldi-sotdi bitimining tashqi ko'rinishi ortida haqiqiy bozor mexanizmi turmas edi. Talab narx-navoga ta'sir o'tkazmasdi, muvozanatli narxlar, raqobat bo'lmagan. Narxlar markazlashgan holda sarf-xarajatlar asosida shakllanardi, ular jahon bozoridan ajralib kolgandi. Nisbiy narxlar ishlab chiqarish mutanosibligini aks ettirardi. Shuning uchun bozor ko'rinishlarini ma'muriy - buyruqbozlik (rejali) tizimi ta'siridan ozod qilish,

ya'ni iqtisodiyotni, erkinlashtirish haqiqiy bozor munosabatlariga o'tish yo'lidagi asosiy chora bo'lishi lozim.

### **Iqtisodiyotning ichki erkinlashtirilishi**

Xalq xo'jaligida iqtisodiyotning ichki munosabatlarini erkinlashtirish uch shart bilan bog'liq. Birinchidan, narx - navoning shakllanish jarayonini markaziy boshqaruvdan ozod qilish - erkinlashtirishning eng muhim, birlamchi shartidir. Ikkinchidan, jismoniy va huquqiy shaxslar uchun savdo erkinligi joriy etilishi kerak. Uchinchidan, erkinlashtirishning tub va murakkab sharti - ishlab chiqaruvchilarning faoliyatini bozor talablariga (ehtiyojga) bo'ysundirishdir. Ana shu o'zgarishlarning hammasi rejali iqtisodiyotda mavjud bo'lgan xo'jalik yuritish tizimini, odamlarning turmush tarzi va tafakkurini keskin o'zgartiradi, jamiyatda murakkab muammolarni va ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Narx-navoning «qo'yib yuborilishi» darhol ularning jiddiy ko'tarilishiga olib keladi, bu odamlarning haqiqiy daromadlari qisqarishini, aholi turmush darajasi pasayishini, iste'mol tuzilishining o'zgarishini anglatadi, korxonalar uchun xom ashyo va materiallarni xarid kilishda, maosh to'lashda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, 1992 yilning faqat yanvar oyida iste'mol narxlari 1991 yilning dekabr oyiga qaraganda 3,5 barobar ko'tarildi, ayni vaqtda shu davrda haqiqiy maoshlar atigi 40 ga ko'paydi. 1992 yilning yanvarida tovar oborotining jismoniy hajmi 1991 yilning yanvaridagi hajmning uchdan bir qismini tashkil etdi. Umuman 1992 yil mobaynida iste'mol narxlari 25 barobardan ziyodga ko'tarildi. Nazariyada narxlarni qo'yib yuborishning ikki varianti: biryula (shok holatiga soluvchi) va asta - sekin (darajalashtirib) qo'yib yuborish variantlari ajratiladi. Aslida haqiqiy erkinlashtirish siyosati «aralash» xususiyatga ega bo'lib, u yoki bu variant tomoniga egib turadi. Erkinlashtirishdan avvalgi bozor munosabatlari naqadar sust rivojlangan bo'lsa, «shok holati» variantining samarasi shu qadar kam bo'ladi. Shu ma'noda olganda, O'zbekistonda narxlarni erkinlashtirish jarayoni nisbatan qisqa vaqtda o'tgan bo'lishiga qaramay, Markaziy va Sharqiy Yevropadagi ko'pgina mamlakatlarga nisbatan qiyinroq kechdi. 1992 yilning yanvariga kelib ishlab chiqarishga mo'ljallangan tovarlar (elektr quvvati va transport narxi bundan mustasno) narxining 80 foizi, iste'mol tovarlari narxining 90 foizi erkinlashtirildi. Ishlab chiqarishga mo'ljallangan tovarlar aksariyatining narxi 5 barobar ko'tarildi. Shundan keyin ham narx-navoning



ko‘tarilish jarayoni davom etdi. 1996 yilning boshlariga kelib narxlarni erkinlashtirish amalda tugallandi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish ishlab chiqarish sohasida keskin qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, bir talay korxonalar, ayniqsa harbiy-sanoat majmui tarmoqlaridagi davlat buyurtmasi bo‘yicha ishlashga ko‘nikkan korxonalar darhol o‘z mahsulotlariga xaridorlarni yo‘qotishadi. Ikkinchidan, bozor sharoitlariga tushib qolgan korxonalar ko‘pincha bozorda raqobatga, ayniqsa xorij mahsulotlari bilan musobaqalashishga qodir emasligi ma‘lum bo‘lib qoladi. Uchinchidan, mahsulotni sotish borasidagi qiyinchiliklar xom-ashyo va materiallarni xarid qilish muammosini, ya‘ni faoliyat yuritish muammosini keltirib chiqaradi. To‘rtinchidan, ishlab chiqaruvchilarning mushkul ahvoli aholi talabining qisqarishi natijasida yanada og‘irlashadi. Beshinchidan, ilgari davlatdan yordam olib turgan ishlab chiqarishlar (birinchi navbatda, qishloq xo‘jaligi) ayniqsa og‘ir ahvolga tushib qoladi. Oltinchidan, iqtisodiyotni erkinlashtirish rejali tizimning yuqoridan berilgan topshiriqlarini bajarishga, mahsulot realizatsiyasi va zarur resurslarni olish haqida o‘ylamaslik sharoitida tarbiyalangan eski direktorlar korpusiga g‘oyatda zid edi.

### **Tashqi iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish**

Mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarini erkinlashtirish mutlaqo zarur, iqtisodiyot ichki munosabatlarini erkinlashtirishning mantiqiy oqibatidir. Iqtisodiyotda samarali bozor mexanizmi ana shu iqtisodiyot jahon bozor munosabatlari bilan yaqin aloqada bo‘lgan taqdirdagina tashkil etilishi mumkin. Bundan tashqari, shu **o‘rinda** turli mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar iqtisodiy va huquqiy ko‘rinishlarining ma‘lum uyg‘unligi muhimdir. Tashqi iqtisodiyotni erkinlashtirish o‘tish jarayonidagi o‘zgarishlarni amalga oshirish vaqtida yordam berish imkoniyatlarini kengaytiradi, o‘tish iqtisodiyoti vazifalari hal etilishini jadallashtiradi.

Mamlakatga xorij investitsiyalari kirib kelishini kengaytirish tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tasarrufidan chiqarish, import borasidagi rahnamolik chegaralarini olib tashlash, eksportni erkinlashtirish (bojlar, kvotalar, litsenziya va imtiyozlarni bekor qilish) milliy valyuta konvertatsiyasini ta‘minlash ana shunday erkinlashtirishning asosiy ko‘rinishlaridir. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, ana shu ko‘rinishlarning hammasi ishlab turgan bozor mexanizmi samaradorligini oshiradi. Lekin, shuni ta‘kidlash kerakki, ulardan rivojlangan bozor iqtisodiyotida to‘liq foydalanilmaydi. Davlat milliy ishlab chiqarishni himoya qilish maqsadlarida ma‘lum cheklashlarni qo‘llaydi, bojxona

tariflaridan keng foydalanadi, turli xil ta'qiqlarni joriy etadi. Bu bozor mexanizmi tarkib topish jarayonini boshdan kechirayotgan, mavjud ishlab chiqarish shart-sharoitlariga hali mos bo'lmagan o'tish iqtisodiyotiga aloqador bo'lishi o'z - o'zidan ayondir.

O'zbek modelining ikkinchi bosqichida to'rtinchi strategik vazifa – iqtisodiyotimiz strukturasi tubdan o'zgartirish, xomashyo yetkazib berishdan tayyor maxsulot ishlab chiqarishga o'tish, uning sifatini va raqobatga bardoshligini jahon bozori talablari darajasiga yetkazishdan iborat.

Shuning uchun o'tish iqtisodiyotida tashqi iqtisodiy erkinlashtirish siyosati nihoyatda maqbul bo'lishi, ya'ni, bir tomondan, millatning ichki bozor munosabatlari jadal rivojlanishini va uning jahon xo'jaligiga oson kirib borishini ta'minlashi, ikkinchi tomondan, mamlakat ishlab chiqarishining rivojlanishiga zarar yetkazilishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Umuman, O'zbekistonda mazkur sohadagi o'zgarishlar aynan barcha yo'nalishlardagi tashqi munosabatlarni erkinlashtirish bilan bog'liq bo'ldi. Bir necha, o'n yilliklar mobaynida birinchi marta chet el kapitalining oqib kelishi uchun rasman keng imkoniyatlar ochildi. Ayrim korxonalar va shaxslarning tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishiga ruxsat berildi. Markazlashgan import va eksport keskin qisqartirildi. 1992 - 1996 yillar mobaynida amalda O'zbekiston eksportiga bojlar, kvotalar, litsenziya va imtiyozlar bekor qilindi. Rubl konvertatsiya qilinishini ta'minlash bo'yicha qator salmoqli qadamlar qo'yildi.

Shu bilan birga, aytib o'tilgan ko'rinishlarning qarama - qarshiligi O'zbekiston iqtisodiyotini tashqi iqtisodiy erkinlashtirish jarayoni qiyinchiliklar bilan kechganligini izohlaydi. Jumladan, chet el tovarlari importi uchun keng yo'l ochib qo'yilishi milliy ishlab chiqarishga jiddiy zarar yetkazdi. Buning oqibatida hukumat rahnamolik qilib, tovarlarning yalpi va alohida guruhlarini himoya qilishni (importga tariflarni) kuchaytirish to'g'risida qaror qabul qildi. Ichki va jahon narxlari o'rtasida farq bo'lgani holda (jumladan, neft, ayrim metallarga) eksportga kvota va litsenziyalarning bekor qilinishi asossiz ravishda ko'p miqdorda daromad olinishini, kapitalning chet elga «chiqib ketishi»ni keltirib chiqaradi, bu o'z navbatida ma'lum darajadagi davlat nazorati saqlab qolinishini taqozo etadi. Rublning qisman konvertatsiyasi g'oyasi iqtisodiyot barqaror bo'lmagan bir sharoitda uning, «dollarlashtirilishi»ni, aholining o'z mablag'larini dollarga o'tkazishi o'sishini keltirib chiqaradi. Mazkur sohadagi siyosat va uning natijalari qarama-

qarshiligi, boshqacha qilib aytganda, bevosita tashqi iqtisodiy erkinlashtirish xususiyatlarini o'zida aks ettirdi.

### **Bozor infratuzilmasining tarkib topishi**

Haqiqiy bozor munosabatlarini shakllantirishning muhim vazifalaridan biri - bozor infratuzilmasi institutlarini tashkil etishdir. Bozor iqtisodiyoti - o'n millionlab ishlab chikaruvchilar va iste'molchilar o'zaro aloqalarining g'oyatda murakkab mexanizmidir. Bozor infratuzilmasi - tovar va pul oqimlari harakatini tashkil etish, ularni vaqt va mintaqa jihatlarini bo'ylab, bozor mexanizmi uzluksiz faoliyat ko'rsatishi ehtiyojlarini hisobga olib taqsimlash yo'li bilan ana shu mexanizmga xizmat ko'rsatuvchi iqtisodiy va huquqiy (bu juda muhim) muassasalar (institutlar) tizimidir. O'tish iqtisodiyotida turli bozorlarni (tovarlar, mehnat, kapital bozorlarini) shakllantirish jarayonida asta - sekin tegishli institutlar: tovar va mehnat birjalari, turli xil mehnat bilan ta'minlash va kadrlarni qayta tayyorlash byurolari, fond va valyuta birjalari vujudga keladi, sifat jihatidan yangi bank tizimi tarkib topadi.

O'tish iqtisodiyotida bozor infratuzilmasi institutlarini shakllantirish bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, ularning aksariyati yangitdan, «bo'sh joy»da tashkil etiladi. Masalan, kerakli iqtisodiyot yillarida tovar, fond va valyuta birjalari bo'lmagan. Ikkinchidan, shu munosabat bilan, ularning tashkil etilish soni bozor ehtiyojlariga mos bo'lmaydi. Jumladan, 1996 yilning 1 yanvariga kelib O'zbekistonda 26 ta tijorat banki faoliyat yuritardi, shuni ta'kidlash kerakki, shundan avvalgi bir yil mobaynida ularning soni to'rtinchi barobarga ko'paydi, bungacha mavjud bo'lgan banklarning aksariyati xonavayron bo'ldi. Barcha banklarning yarmidan ko'pini mayda, g'arb banklari bilan raqobatlashishga qodir bo'lmagan banklar tashkil etardi. Uchinchidan, dastavval, barcha institutlar ham o'zlariga tegishli vazifalarni o'rinli bajarmaydi. Jumladan, bu ommaviy xom ashyo va oziq-ovqat tovarlari bo'yicha tovar bitimlarini tashkil etish bilan shug'ullanishi kerak bo'lgan tovar birjalariga taalluqli. O'zbekistonning birdaniga ko'p miqdorda tashkil topgan dastlabki birjalari (faqat 1992 yilning o'zida 4taga yaqin tovar birjalari ro'yxatga olingan) har qanday tovarlar oldi-sotdisi bilan shug'ullangan. To'rtinchidan, bunday institutlarning tashkil etilishi ba'zan tegishli huquqiy asoslarsiz kechgan, bu ularning faoliyat yuritishini qiyinlashtirdi, ko'p sonli suiste'mollarga olib keldi. Beshinchidan, buni alohida ta'kidlash kerak, mazkur sohada tovlamachi tashkilotlar, moliyaviy piramidalar va hokazolar juda ko'payib ketdi.

Bank tizimida tub o'zgarishlar kechadi. Rejali iqtisodiyotga xos bo'lgan yagona davlat bank tizimi o'rniga ikki darajali, bozor iqtisodiyoti ehtiyojlariga javob beradigan tizim tarkib topadi. Uning quyi darajasini ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar o'rtasida vositachi rolini bajaruvchi (bozor infratuzilmasining ko'pchilik boshqa institutlari ham shu vazifani bajaradi) tijorat banklarining keng shahobchasi tashkil etadi. Ularning faoliyatini O'zbekiston Markaziy banki hisob-kitob stavkalari va zahiralarning majburiy me'yorlarini belgilash yo'li bilan boshqaradi. Bunday o'zgarishlar rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan barcha mamlakatlar uchun xos.

#### **13.4. O'tish iqtisodiyotida xususiy mulk tarkibiy tuzilishining o'zgarishi**

Bozor iqtisodiyotiga o'tish - o'ziga xos, ikki tomonlama jarayon. Bir tomondan, dastavval, mamlakatlar o'z «bozori», bozor aloqalari tizimini shakllantirishlari: narxlarning erkin shakllanishi, savdo - sotiq erkinligi, raqobat munosabatlari, tegishli bozor infratuzilmasini ta'minlashlari zarur. Ikkinchi tomondan, bu juda murakkab, ishlab chiqarish sohasini o'zgartirishlari, unda erkin tadbirkorlik asosida ish yurituvchi sub'ektlarning raqobat munosabatlarini ta'minlashga qodir bo'lgan yetarli miqdordagi xo'jalik sub'ektlarini tashkil etishlari kerak. Bozorga o'tishning bu yo'nalishi rejali iqtisodiyotga xos bo'lgan mulkchilik munosabatlarini jiddiy ravishda o'zgartirish bilan bog'liq.

#### **Davlat tasarrufidan chiqarish xususiy mulkni o'zgartirishning asosiy mazmunidir**

Rejali iqtisodiyotda ishlab chiqarish vositalariga egalikning ikki ko'rinishi: davlat (umumxalq) va jamoa xo'jaligi - kooperativ ko'rinishlari ajralib turadi. Bundan tashkari, fuqarolarning iste'mol buyumlaridan iborat shaxsiy mulklari mavjuddir. Ammo ana shu shakllarning tub jihati davlatning ustuvorligi, ya'ni hayot va faoliyatning ruxsat berilmagan barcha ko'rinishlari davlat tomonidan tugatilishi, iqtisodiy munosabatlarning barcha sohalarida totalitar nazoratning hukmronligi edi.

Ayniqsa, bu xalq xo'jaligidagi barcha mehnat vositalarining 90 foizini o'z ichiga olgan bevosita davlat mulki doirasida yaqqol namoyon bo'lardi. Shu bilan birga kooperativlar mulkining rivojlanishi ham Davlat Ko'rsatmalari bilan tartibga solinardi. Fuqarolarning shaxsiy mulki ham (bog' hovlisining kattaligi, undagi uyning balandligi va hokazolar) davlatning cheklashlari va ta'qiqlari bilan «qamrab olingan» edi.

Shuning uchun rejali iqtisodiyotda shakllangan mulkiy munosabatlarni o'zgartirishning asosiy mazmuni bu aytib o'tilgan davlat ustuvorligini yengib o'tish, ya'ni shu sohadagi totalitar davlat hukmronligini tugatishdir. Davlat tasarrufidan chiqarish mulkka egalikning barcha ko'rinishlarini qamrab oladi. Bevosita davlat mulki doirasida bu, avvalambor, amaldagi uning monopoliyasini bartaraf etishda, mulkka egalikning boshqa ko'rinishlariga «ruxsat berilishida» - mulkka egalik ko'rinishlarining plyuralizmida namoyon bo'ladi. Keyinchalik, saqlanib qolgan davlat korxonalari o'z faoliyati xususiyatlarini tubdan **o'zgartirishdan** tijoratlashtirish shart-sharoitlariga, rejali boqimandalik shakllaridan (yordam pullari, imtiyozlar, qulay narxlar, qat'iy buyurtmalar va hokazolardan) voz kechishlari; xo'jalik yuritishning boshqa ko'rinishlari bilan teng shart-sharoitlar, jumladan, qat'iy budjet cheklanishlariga o'tishlari, jadal harakat qilish maqsadlarida tijorat ko'rinishlaridan keng foydalanishlari zarur. Nihoyat, mazkur sohadagi davlat tasarrufidan chiqarishning yo'llaridan biri - xususiylashtirish, ya'ni mulkka egalikning davlat ko'rinishini shaxsiy egalikka almashtirishdir.

Kooperativ mulk bozor tizimiga ham xos. O'tish iqtisodiyotida davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni uning barcha a'zolari haqiqiy ko'ngilliligi, xo'jalik faoliyati mustaqilligi, bozor munosabatlari sub'ektlarini barcha imkoniyatlar va huquqlar bilan ta'minlashdan iborat. Shaxsiy mulk sohasidagi totalitar cheklanishlarni bartaraf etish taqsimotda tenglikni yengib o'tishda, ma'lum shaxsiy mulkka egalik qilish huquqlari borasidagi cheklanishlarni tugatishda, shaxsiy daromadning ko'p sonli manbalari paydo bo'lishida namoyon bo'ladi.

O'tish iqtisodiyoti doirasida mulkka egalikni o'zgartirishning muhim sharti - shaxsiy mulkni jadal rivojlantirish hisoblanadi. Bu o'tish iqtisodiyotining tadbirkorlik asosida butun iqtisodiyotni o'zgartirish qobiliyatiga eng ko'p darajada ega bo'lgan o'ta harakatchan qismidir. Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'tish iqtisodiyotining boshlang'ich bosqichlarida shaxsiy mulk ko'pincha muomala sohasida vujudga keladi, ba'zan o'rtacha korxonalarni qamrab oladi. 1996 yilda O'zbekistonda 9 mingta kichik korxonalar mavjud bo'lib, ularda 15 millionga yaqin kishi band edi. Taxminan 30 million kishi yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanardi. Ular birgalikda yalpi mahsulot ishlab chiqarishning 10 foizini (AQShda shunday korxonalar 50 foizdan ko'p) ta'minlashar edi. O'tish iqtisodiyotining ishlab chiqarish sohasida aytib o'tilgan korxonalarining atigi 14,2 foizi mashg'ul edi. Mazkur tamoyilning istiqboli g'oyatda porloqdir.

## **Xususiylashtirish va uning mulkka egalikni o'zgartirishdagi roli**

Xususiylashtirish mulkni davlat tasarrufidan chiqarish ko'rinishlaridan biri, ishlab chiqarishning bozor tizimiga o'xshash iqtisodiyot tuzilmasini tashkil etishning muhim vositasidir. Xususiylashtirish nafaqat yakka tartibdagi xususiy mulkni tashkil etish bilan, shuningdek, - bu ko'proq kuzatiladi, - aksiyadorlik jamiyati ko'rinishidagi jamoa - shaxsiy mulkning tashkil etilishi bilan ham bog'liq.

Xususiylashtirish o'z-o'zidan bozor iqtisodiyotiga ham xos hodisa. Hozirgi g'arb jamiyatida xususiylashtirishga ehtiyoj davlat korxonalarining samarasiz faoliyat ko'rsatishi oqibatida vujudga keladi. Bunda uni o'tkazish shakl va usullarining rang-barangligi; saylanmaligi, ya'ni uning keng va zamonaviy xususiyatga ega emasligi; mazkur jarayonning uzoq vaqt davom etishi; zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni oldindan aniqlash zarurligi va nihoyat, qaytalanish odatda, uning jihatlari hisoblanadi. O'tish iqtisodiyotidagi xususiylashtirish o'z jihatlari bilan g'arb mamlakatlaridagi shu xildagi jarayonlardan jiddiy farq qiladi.

Ya.Kornaining ta'kidlashiga qaraganda, basharti Vengriyada xususiylashtirish «inglizcha» amalga oshirilganida, buning uchun 100 yil kerak bo'lardi. Shuni aytish kerakki, sobiq sotsialistik mamlakatlar uchun ham xususiylashtirishning eng qisqa muddati o'n yilliklar bilan o'lchanadi.

O'tish iqtisodiyotidagi xususiylashtirish rolining shubhali tomonlari ham bor. Ba'zida mulkka egalikni o'zgartirishning barcha ko'rinishlari xususiylashtirish bilan qiyoslanadi. Bu juda noto'g'ri soddalashtirishdir, zero, yuqorida ta'kidlanganidek, xususiylashtirish ana shu jarayonning ko'rinishlaridan biri xolos. Bundan tashqari xususiylashtirishning murakkabligi, uzoq muddat davom etishi, talaygina chiqimlarni talab qilishi e'tiborni o'ziga jalb etadi. Nixoyat, xususiylashtirish, avvalambor, o'z - o'zidan rasmiy hodisadir. U ko'targan samaradorlikning avtomatik ravishda oshishini ta'minlamaydi, boshqa shart - sharoitlar bilan mustahkam bog'liq, bu shart - sharoitlar turlicha bo'lishi mumkin: bozor infratuzilmasi institutlari, tegishli huquq tizimi kerak bo'ladi, xo'jalik yuritish tafakkurining o'zgacha (bozor) ko'rinishi shakllanishi lozim.

Muhimi xususiylashtirish emas, xususiy tartibdagi sektorni tashkil etish, degan qat'iy nuqtai nazar bilan bir qatorda, ma'lum takliflar ham mavjud: o'tish iqtisodiyotida asosiy e'tiborni eskirgan korxonalarni xususiylashtirishga emas, yangi shaxsiy korxonalarni tashkil etishga qaratish kerak, degan taklif

shular jumlasidan. Bu yo'l nisbatan samaraliroq hisoblanadi, chunki rejali iqtisod usullarini qo'llash uzoq davom etishini darhol istisno qiladi.

### **O'zbekiston o'tish iqtisodiyotida xususiylashtirishning o'ziga xos jihatlari**

Boshqa hamma sobiq sotsialistik mamlakatlar kabi O'zbekistonda ham xususiylashtirish salmoqli o'rin egallaydi, u yoki bu darajada ana shu mamlakatlarga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, rejali iqtisoddan bozor iqtisodiyotiga o'tish vaqtida amalga oshiriladigan mazkur jarayonning tarixda o'xshashi bo'lmagan. Aynan shu holat uning asosiy o'ziga xos jihatlari belgilaydi. Ikkinchidan, xususiylashtirish ko'pincha nisbatan rivojlangan bozor infratuzilmasi tashkil topishidan oldin kechadi, bu uning samaradorligini kamaytiradi, o'zgartirish chiqimlarini ko'paytiradi. Uchinchidan, bir tomondan rejali iqtisodiyot mamlakatlarida davlat mulkining solishtirma vazni yuqori ekanligi bilan, ikkinchi tomondan - jamiyat iqtisodiyoti tuzilishining o'zgarish jarayonini jadallashtirishga intilish bilan izohlanuvchi xususiylashtirishning ko'lami, ommaviy xususiyati. To'rtinchidan, shu munosabat bilan xususiylashtirish jarayonining yuksak sur'atlari, bu ayniqsa, O'zbekistonda shu sohadagi o'zgarishlar jarayoniga qaytarilmas xususiyat bag'ishlashga intilish bilan izohlanadi.

Beshinchidan, xususiylashtirishning ilk bosqichlarida buning uchun xususiylashtirishning tengsiz ko'rinishlari (beg'araz topshirish, qiymatini to'liq to'lamaslik va hokazolar) solishtirma vaznining yuqoriligi. Oltinchidan, jumladan, O'zbekistonda ikki sabab: davlat (umumxalq) mulkini xususiylashtirish vaqtida ma'lum darajada «adolat» ni ta'minlash; tegishli chekli investitsiya fondlarida resurslarning ma'lum darajada jamlanishini ta'minlash bilan bog'liq xususiylashtirishning alohida (vaucherlar) bosqichi mavjud bo'lganligi.

O'zbekistondagi xususiylashtirishning bir qator salbiy jihatlari tajriba bo'lmaganligi, uni o'tkazishning tezkor varianti tanlanganligi hamda rejali tizim sharoitida O'zbekistonda tarkib topgan ijtimoiy tuzumning xususiyatlari bilan izohlanadi.

O'zbekistonda xususiylashtirish aksariyat hollarda xususiylashtirilayotgan korxonalarining istiqboli haqidagi tegishli tasavvurlarsiz amalga oshirildi. Kelajak faoliyatning xususiyati, ma'lum investitsiyalarni amalga oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish va hokazolar haqidagi dastlabki

shart - sharoitlar kelishib olinmas edi. Natijada, xususiylashtirilgan ob'ektlarda ko'pincha ishlab chiqarish to'xtab qolar, ularni savdo tarmoqlari, ofislar sifatida qayta jihozlashar, chayqovchilik maqsadlarida foydalanishar edi.

O'zbekistondagi xususiylashtirishning nomenklatura - kriminal xususiyati qayd etiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, xususiylashtirishning aniq jarayonlari va tegishli huquqiy asoslari bo'lmaganligi bois xususiylashtirish boshqaruv vazifalari bilan bog'liq, ya'ni partiya – davlat arboblari (nomenklaturasi) bilan bog'liq guruhlar tomonidan tashkil etilardi. Xususiylashtirishning dastlabki bosqichlardagi naqd pulsiz, tengsizlik xususiyati shunga xizmat qildi. Tezda yengil va «qonuniy» ravishda boyish imkoniyati poraxo'rlikni kuchaytiradi, mafiya bilan aloqalarni, reketirlar guruhlarini keltirib chikaradi.

Xususiylashtirish jarayonini o'tkazishning shaxsiy sektorni rivojlantirishning izchil emasligi kabi jihatini ham qayd etib o'tish zarur.

Jumladan, qayta tashkil topayotgan kooperativlarga aslida faoliyat yuritish imkonini bermaydigan katta soliqlar solinadi. Tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklari zarur moddiy va ma'naviy madad olish o'rniga, «siqib chiqarish» siyosatining ta'sirini xis etadilar. Xususiylashtirishga katta soliqlar solinadi. O'z-o'zidan bu xildagi izchil emaslik -o'tish iqtisodiyoti qarama - qarshiliklarining, shu sohadagi yangilik va eskilik o'rtasidagi kurashning yuqorida ta'kidlab o'tilgan ko'rinishlarigina xolos. Xususiylashtirish ikki xil usulda: mayda korxonalarini kim oshdi savdolarida (tanlovlarda) sotish; yirik korxonalarini-aksiyador shirkat jamiyatlariga aylantirish yo'li bilan amalga oshirildi. Keyingi usul bilan xususiylashtirishning uch varianti taklif qilinar edi. Birinchi variant bo'yicha mehnat jamoasi imtiyozli aksiyalarning (nizom kapitalining) 25 foizini tekinga olar, yana oddiy aksiyalarning 10 foizini imtiyozli shartlar bilan sotib olishi mumkin edi. Ikkinchi variant bo'yicha mehnat jamoasi oddiy aksiyalarni - nizom kapitalining 51 foiziga qadar olardi. Uchinchi variant bo'yicha bir yil ichida korxonaning faoliyat yuritishini izga solish majburiyatini olgan xodimlar guruhi uchun oddiy aksiyalarning 20 foizi zaxirada saqlanar va yana aksiyalarning 20 foizini mehnat jamoasi sotib olishi mumkin edi. Shvetsiyalik iqtisodchi A.Oslundning fikriga qaraganda, xususiylashtirishning har uch variantida o'sha davr o'zgarishlarining ijtimoiy ziddiyatlari yorqin aks etgan, jumladan, birinchi variant -hukumat nuqtai nazarini; ikkinchi variant -mehnat jamoalari talablarini; uchinchi variant -direktorlar korpusi bilan murosani aks



ettirar edi. Aksariyat hollarda aksiyadorlar ikkinchi variant bo'yicha ish yuritadilar.

### **O'zbekistonda mulkni xususiylashtirishning dastlabki natijalari**

Bu natijalar 1992 yilda boshlangan o'zgarishlarning to'rt yili mobaynida o'tish iqtisodiyotida, mulkiy munosabatlarda tub o'zgarishlar ro'y berganligidan dalolatdir. Ishlab chiqarish vositalariga davlatning egaligi monopoliya tarzidagi hukmronlikni boy beribgina qolmay, ustuvorlik xususiyatini ham yo'qotdi. Davlat mulk qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 1996 yilning 1 yanvariga kelib O'zbekiston korxonalari jami sonining 53 foizidan ziyodi xususiylashtirilgan edi. Davlat tasarrufidan chiqarilgan mulk amalda qator tarmoqlarni - savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini qamrab oldi. Sanoatda 1994 yilga kelib, korxonalarining atigi 12 foizi davlatga qarashli edi, 67,7 foizi xususiy shaxslar qo'lida bo'lib, 16,6 foizi aralash sektorga va 3,2 foizi munitsipal organlarga qarashli edi. Shu yilga kelib barcha ish bilan band bo'lganlarniig yarmidan kam davlat korxonalarida ishlar edi, vaholanki, 1990 yilda bu ko'rsatkich 82,6 foizni tashkil etardi. 1996 yilda davlatga qarashli bo'lmagan sektor O'zbekiston chiqargan yalpi mahsulotning 70 foizidan ko'prog'ini ta'minlar edi.

Albatta, mulkchilik munosabatlarida ro'y bergan rasmiy-huquqiy o'zgarishlar (o'tgan davr, avvalambor, shunday o'zgarishlar bilan tavsiflanardi) hali muammoni to'liq hal etmasdi. Ammo ular juda ham zarur bo'lib, ana shu dastlabki qadamlarsiz samarali bozor iqtisodiyotini shakllantirish borasida keyingi qadamlarni qo'yish mumkin emasdi.

### **13.5. Makroiqtisodiy beqaror muvozanat va uni bartaraf etish yo'llari**

Bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkchilik munosabatlarini tubdan o'zgartirish o'tish iqtisodiyotidagi jamiyatning istiqbolini belgilovchi ijobiy jihatlarni tavsiflaydi. Shu bilan birga, o'tish iqtisodiyoti o'tish jarayonida eski shakllarni va munosabatlarni yemirish, yangi shakllarga moslashish zarurati bilan bog'liq jihatlarni o'zida mujassam etadi. Bu jarayon jamiyat uchun jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy chiqimlar bilan bog'liq va u o'tish iqtisodiyotida makroiqtisodiy beqaror muvozanat vujudga kelishi va uzoq vaqt saqlanishida namoyon bo'lishi bilan bog'liq.

## **Beqaror makromuvozanatning mazmuni va uning o‘tish iqtisodiyotidagi xususiyatlari**

Makroiqtisodiy beqaror muvozanat har qanday tizimga xos bo‘lishi mumkin. Tizimning barqaror (normal) holatidan chekinish uning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Bozor iqtisodiyotining normal holati - yalpi talab va yalpi taklifning mos kelishi (teng kelishi)dir. Rejali iqtisodiyotning normal holati ularning bir-biriga mos kelmasligi - yalpi surunkali oshib boruvchi tanqislik bilan tavsiflanadi.

Agar sobiq sotsialistik mamlakatlarda o‘tish iqtisodiyoti rejali tizimdan bozor tizimiga o‘tishdan iborat bo‘lsa, o‘tish jarayoni boshlang‘ich holatining o‘zi bozor iqtisodiyoti mezonlari bo‘yicha beqaror makromuvozantni tashkil etadi. Rejali xo‘jalikning merosi ishlab chiqarish tarkibiy tuzilishining ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish foydasi tomon og‘ishida aksariyat tarmoqlarning texnik va texnologik qoloqligida ishlab chiqarish foydalarining yuksak darajada yaroqsiz holga kelganligida ana shu holatlarni tartibga soluvchi haqiqiy bozor mexanizimining yo‘qligida kuzatiladi. Makroiqtisodiy beqaror muvozanat ilk holatida rejali tizimning merosi sifatida o‘tish iqtisodiyotidagi uning birinchi o‘ziga xos xususiyatidir.

So‘ngra, har qanday normal tizim uchun makroiqtisodiy beqaror muvozanat-vaqtincha hodisadir. Faoliyat yuritishning unga xos ichki qonuniyatlari kuchi bilan tizim doimo turg‘un (barqaror) holatga qaytib turadi. Masalan, takrorlanib turuvchi davriy tanazzullar bozor tizimida shu hildagi o‘ziga xos boshqaruv vositasi, «tozalagich» rolini o‘taydi. O‘tish iqtisodiyoti - boshqa masala. U bir tizimdan ikkinchisiga o‘tish jarayonini tavsiflaydi. Shuning uchun o‘tish jarayoning o‘zi aynan beqaror holatni, kelajakda turg‘un holatga o‘tishni ifodalaydi. O‘tish iqtisodiyoti beqaror makromuvozanatning ikkinchi xususiyati shundan iboratki, u vaqtincha emas, doimiy hodisa, o‘tish iqtisodiyotining qonuniyatidir.

Mazkur qonuniyat o‘tish iqtisodiyoti qarama - qarshiliklarining xususiyati bilan bog‘liq. Jumladan, iqtisodiyotning barqarorlikni ta‘minlashga intilishi maqsadga muvofiqdek tuyuladi. Ammo bu barqarorlik rejali iqtisodiyot nomutanosibliklari saqlanib qolishini anglatgan bo‘lar edi. Boshqa bir masala, O‘zbekiston o‘tish iqtisodiyotining dastlabki yillaridan beri iqtisodiy o‘tishga o‘tish haqidagi talablar yangraydi. Bu talablarni tushunsa bo‘ladi. Ammo ishlab chiqarishning qolgan nomutanosib tarkibiy tuzilishi bazasida ham iqtisodiy o‘tishga erishish mumkin. Bunday o‘tish zarurmi? Shu ma’noda

o'tish iqtisodiyotining makroiqtisodiy beqaror muvozanatning umumiy belgilovchi roli kuzatilayotganda barqarorlik va beqarorlik, ishlab chiqarishni kengantirish va qisqartirish, muvozanat va muvozanatsizlik o'rtasidagi ziddiyatlar mazmun - mohiyatini tashkil etadi.

### **O'tish iqtisodiyotidagi beqaror makromuvozanatning asosiy ko'rinishlari**

Makroiqtisodiy beqaror muvozanatning asosiy ko'rinishlari o'tish iqtisodiyotidagi o'zgartirish jarayonining mazmunini ifodalaydi. Bu mazmun, bir tomondan, jamiyat ishlab chiqarishi va iqtisodiy tutilishining parchalanishi bilan, ikkinchi tomondan, bozor mexanizmining qaror topishi bilan bog'liq. Bozor mexanizmining qaror topishi o'zi bilan yangi muammolarni va ziddiyatlarni olib keladi.

«Ortiqcha» ishlab chiqarishni, keraksiz mahsulotni va hokazolarni siqib chiqarishda namoyon bo'luvchi ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlar ishlab chiqarishdagi tushkunliklarni izohlaydi. Ishlab chiqarish qisqarib borayotgan bir sharoitda narxlarni erkinlashtirish va qayishqoq kredit pul siyosati inflyatsiyani keltirib chiqaradi. Bozor tamoyillarini xo'jalikka joriy etish vaqtidagi ishlab chiqarishning qisqarishi oshkora ishsizlikning paydo bo'lishi va kengayishiga olib keladi. Nihoyat inflyatsiya va ishsizlikning o'sishi muhitida narxlarni erkinlashtirish aholi aksariyat qismining turmush darajasi jiddiy ravishda pasayishiga olib keladi. Ana shu ko'rinishlarning hammasi (tanglik, inflyatsiya, ishsizlik, turmush darajasining pasayishi) O'zbekiston o'tish iqtisodiyotida yorqin namoyon bo'ldi.

### **Bir holatdan ikkinchi holatga o'tish vaqtidagi inqiroz - o'tish iqtisodiyoti ilk bosqichining o'ziga xos jihati**

Bir holatdan ikkinchi holatga o'tish davridagi inqirozning, (tanazzulning) mazmuni nisbatan «an'anaviy» bu, avvalambor, ishlab chiqarishning pasayishi va aholining turmush darajasi og'irlashishini anglatadi. Uni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar deyarlik barcha sobiq sotsialistik mamlakatlarda kechayotgan o'zgarishlar xususiyati bilan jips bog'liq.

Birinchi, resurslar cheklangan tizimdan talablar cheklangan tizimga o'tish mazmunining o'zi ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi cheklashlar turining tubdan o'zgarishini, ya'ni har bir ishlab chiqaruvchi faoliyatining maqsadlari tubdan o'zgarishini anglatadi. Ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish o'rnini ehtiyojni (talabni) qondirish uchun ishlab chiqarishni egallashi kerak. Buyruq olish va uni bajarishga asoslangan aloqalarni vertikal

tizimi o'rnini gorizontal -mustaqil tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlar egallaydi. Tabiiyki, bunday o'tish ishlab chiqarish pasayishida namoyon bo'luvchi chiqimlardan qochib qutula olmaydi. Ikkinchidan, yuqorida ta'kidlanganidek, tarkibiy qayta qurish ham qonuniy ravishda shunday oqibatlariga olib keladi. Uchinchidan, davlatning ustuvorligini yengib o'tish ro'y beradi, busiz bozor iqtisodiyoti faoliyat ko'rsata olmaydi.

Budjet cheklashlari yanada ashaddiylashadi, bu talay korxonalarining bankrot bo'lishiga olib keladi. Masalan, 1995 yilning oxirlarida O'zbekistondagi korxonalarining har 3 tasidan 1 tasi zarar keltirib ishlardi. To'rtinchidan, tegishli bozor infratuzilmalarining bo'shligi (yo'qligi) o'zgartirishlar borasidagi qiyinchiliklarni ko'paytiradi, ishlab chiqarishning pasayishiga qo'shimcha ta'sir o'tkazadi. Nihoyat past darajadagi raqobatbardoshlik O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyati bo'ldi, import mahsulotlari O'zbekistonda yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini iste'mol qilishda importning solishtirma ulushi 1994 yilda 60 -70 foizgacha yetar edi) ishlab chiqarish qisqarishini yanada «rag'batlantirar» edi. Bu ishlab chiqarishning yalpi tarkibiy tuzilishi ham yomonlashishiga olib kelardi.

Aytib o'tilgan inqiroz rivojlanishining mexanizmi shuni ko'rsatadiki, o'z tabiatiga ko'ra u davriy emas, tarkibiy ekanligini, aynan bir holatdan ikkinchi holatga o'tish vaqtidagi, rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish vaqtidagi o'zgarishlarning ko'lami va murakkabligi bilan izohlanuvchi tanazzul ekanligini anglatadi.

O'zbekiston o'tish iqtisodiyotida bir holatdan ikkinchi holatga o'tish vaqtidagi inqiroz ayniqsa, chuqur namoyon bo'ldi. 1991 -1995 yillar mobaynida O'zbekistonda yalpi mahsulot ishlab chiqarish qariyb 50 foizga, sanoat ishlab chiqarishi - 50 foizdan ziyodga, qishloq xo'jaligida - 30 foizga va kapital sarfi-deyarlik 70 foizga qisqardi. 1996 yilda inqiroz davom etdi, 1997 yilga kelibgina ma'lum darajadagi o'sish ko'zga tashlandi. Buning oqibati natijasida aholining turmush darajasi sezilarli darajada pasaydi. 1992 yilda 5 million kishi (aholining 33 foizi) turmush kechirish minimumidan past darajadagi daromadga ega edi, 1995 yilda ularning soni 37 million nafarni (aholining 25 foizini) tashkil etdi, 1996 yilning oktyabrida bu ko'rsatkich 19 foizni tashkil etgandi. Haqiqiy daromadlarning kamayishi ovqatlanish yanada yomonlashishiga olib keldi. 1991-1995 yillar mobaynida O'zbekistonda go'sht, sut va baliq mahsulotlarining aholi jon boshiga iste'moli 20-30 foizga qisqardi. Pul daromadlarining tabaqalanishi keskinlashdi.

Bir holatdan ikkinchi holatga o'tish vaqtidagi inqirozni Markaziy va Sharqiy Yevropadagi barcha sobiq sotsialistik mamlakatlar boshidan kechirdi, u O'zbekistonda ayniqsa, kuchli kechdi. Umuman, bu rejali iqtisodiyot mamlakatda ayniqsa, uzoq vaqt hukm surganligi bilan bog'liq, o'zgarishlarning ulkan katta ko'lamlari va ulkan chiqimlari bilan izohlanadi. O'zbekiston iqtisodiyotining ko'lami va u keltirib chiqargan mushkulliklarda xo'jalik aloqalarining sertarmoqligi ham jiddiy rol o'ynadi. Shu ma'noda sobiq ittifoqning parchalanishi va O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi o'z faoliyatini to'xtatganligi boshqa mamlakatlarga qaraganda *O'zbekistonga ko'proq ta'sir o'tkazdi.*

### **O'tish iqtisodiyotida inflyatsiya**

Inflyatsiya -makroiqtisodiy beqaror muvozanatning pul massasi tovar almashuvi ehtiyojlaridan oshishining ko'payib borishida, pulning qadrsizlanishida namoyon bo'luvchi ko'rinishlaridan biridir. Inflyatsiyatsing ikki xil turi: narx - navoning o'sishida o'z «echimini topuvchi» oshkora **turi** va bo'g'iq - talab va taklifning nomutanosibligi qat'iy begilangan ma'muriy narx - navolar bilan yashiringan turi mavjud, so'nggi turda jamiyatda tavakkalchilik kuchayib boradi. Rejali iqtisodiyotda shunday bo'lgan. O'tish iqtisodiyoti inflyatsiya jarayoni rivojlanishidagi qator xususiyatlar bilan farq qiladi.

Birinchidan, rejali iqtisodiyotning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi vaqtida bo'g'iq inflyatsiyaning oshkora inflyatsiyaga o'tishi ro'y beradi. Narx-navoning erkinlashtirilishi inflyatsiyaning keskin kuchayishiga olib keladi. Ikkinchidan, ishlab chiqarish tushkunlikka tushishi munosabati bilan inflyatsiya qo'shimcha turtki oladi. Uchinchidan, inflyatsiya bilan bog'liq taxminlarning tez shakllanishi narx - navoning o'sishiga ta'sir etuvchi haddan ziyod talabni keltirib chiqaradi.

To'rtinchidan, pul massasining ko'payishi (bu ayniqsa, O'zbekiston uchun xos) davlat budjetining kamomadi Markaziy bank tomonidan moliyaviy ta'minlanishi hisobiga ro'y beradi. Beshinchidan, bir necha yil mobaynida saqlanib turiladigan yumshoq kredit - pul siyosati muomaladagi pul massasini asossiz ravishda ko'paytiradi va narxlarning ko'tarilishiga olib keladi.

Oltinchidan, O'zbekistonning rejali iqtisodiyotida ishlab chiqarish resurslariga arzon narxlar an'anasi tarixan tarkib topgan. Narxlarni erkinlashtirish sharoitlarida resurslarning narxi tayyor mahsulotlar narxiga qaraganda jadal oshib borishida namoyon bo'ldi. Chiqimlar inflyatsiyasi

rivojlanib boradi. Jumladan, 1992 yilda iste'mol narxlari taxminan 25 barobar oshgani holda sanoatning ulgurji narxlari 61 barobardan ziyodga ko'paydi. Bu tamoyil barcha yillar mobaynida saqlanib turdi. 1996 yilda ulgurchi narxlar 26 foizga oshgani holda iste'mol narxlari 22 foizgagina oshdi.

O'zbekistonning o'tish iqtisodiyotida inflyatsiya sur'atlarini tizginlab turuvchi omillar amal qilmoqda. Daromadlar siyosati, bunda ularning o'sishi narxlarning o'sishidan ortda boradi maosh va pensiyalarni o'z vaqtida to'lamaslikning keng yoyilgan amaliyoti qator tarmoqlarda narxlar ustidan nazorat saqlanib turganligi shular jumlasidandir. Umuman olganda, sobiq sotsialistik mamlakatlar iqtisodiyotida inflyatsiyaning kechishi bamisoli salbiy tomonga og'gan egri chiziq sifatida tavsiflanadi. Narxlar qo'yib yuborilganidan so'ng osmonga ko'tarilib ketgan narxlar vaqt o'tishi bilan o'z sur'atlarini asta-sekin pasaytirib bordi. Jumladan, O'zbekiston iste'mol narxlari 1993 yilda taxminan 9 barobar, 1994 yilda-barobar, 1995 yilda taxminan 2 barobar oshdi. 1996 yilga kelib O'zbekiston inflyatsiyaga nisbatan «me'yor»dagi o'zanga tushdi: baholarga qaraganda, yiliga 22 foizni tashkil etdi. O'tish iqtisodiyotida ishsizlikning o'ziga xos xususiyatlari.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish mehnat bozorining shakllanishini ham taxmin qiladi. Bu rejali iqtisodiyotga xos bo'lgan yashirin ishsizlikning tugatilishini, ishlab chiqarishdan ishchilar talaygina qismining muqarrar siqib chiqarilishini anglatadi. Cobiq sotsialistik mamlakatlarning hammasida xuddi shunday bo'ldi.

Ishsizlar sonining jadal ko'payishi (1994 yilning boshlarida ishsizlar jami ishchi kuchining 10-15 foizini tashkil etardi); vaqt o'tishi bilan ishsizlar sonining ko'payib borishi - agar o'tish davrining boshlarida ishdan bo'shatish «tabiiy» yo'l bilan (sog'lig'i yomonlashganligi, pensiyaga chiqishi va boshqa sabablar bilan) kechgan bo'lsa, keyinchalik iqtisodiy sabablar bo'yicha ishdan bo'shatish ko'payib bordi; ishlab chiqarishdan siqib chiqarilgan xodimlar o'z ixtisosi bo'yicha ish topa olmasligi munosabati bilan surunkali ishsizlikning (ish bilan band bo'lmaganlarning 40-50 foizi) shakllanishi; ishsizlarning yetarli darajada safarbar emasligi Markaziy va Sharqiy Yevropaning rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan aksariyat mamlakatlariga xos bo'ldi.

Rossiyada ishsizlikning o'ziga xos jihati -uning ko'lami nisbatan katta bo'lmaganligidir (1996 yilda ular 3,6 foizni tashkil etdi). Ishsizlik vaqt o'tishi bilan ko'payib borishiga qaramay, kutilganidek, yalpi xususiyat kasb etmadi. Ish qidirayotgan shaxslar ulushi anchagina yuqori bo'ldi: 1996 yilda ular 9,2

foizni tashkil etdi. (O'zbekiston o'tish iqtisodiyotidagi mazkur jarayonning o'ziga xos jihatlari o'zgartirishlar nisbatan sekin sur'atlar bilan kechganligi, direktorlar korpusi ish joylarini saqlab qolishga harakat qilganligi bilan izohlanadi. O'zbekiston uchun ishsizlarning past darajada safarbarligi, nafaqalarning katta emasligi ayniqsa, xosdir.

### **O'tish iqtisodiyotida davlatning roli**

Rejali tizimdan bozor tizimiga o'tish vaqtida barcha munosabatlarni davlat tasarrufidan chiqarish muhim, davlatni iqtisodiy o'zgarishlar sohasidan chetlashtirish zarur, degan xato tasavvurni keltirib chiqardi. Amalda, jumladan, O'zbekistonning o'tish iqtisodiyotida kechgan voqealar, bozorning har narsaga qodir ijobiy rolga umid bog'lab davlat rolini pasaytirish, o'zgartirish jarayonlarida qo'shimcha chiqimlar va mushkulliklarga olib keldi.

Amalda, vazifasi biroz o'zgartiriladigan bo'lsa, davlatning o'tish iqtisodiyotidagi roli oshib boradi. Agar avvalgi tizimda kuchli totalitar davlat iqtisodiyot sohasida tarkib topgan va tanazzul bilan yemirilib borayotgan rejali iqtisodiyotni saqlab qolish vazifasini amalga oshirsa, o'tish jarayonida u bo'lajak yangi tizimni shakllantirishga faol xizmat qilishga da'vat etiladi.

Davlatning o'tish iqtisodiyotidagi eng muhim vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, narxlarni erkinlashtirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish, bozor infratuzilmasining shakllanish jarayonlariga rahbarlik qilish, monopoliyaga qarshi siyosatni o'tkazish va hokazolar; ikkinchidan, xususiylashtirish jarayoniga rahbarlik qilish, uning ko'lamlari, o'tkazish muddatlari va ko'rinishlarini aniqlash, xususiylashtiriladigan davlat mulkini baholash va hokazolar; uchinchidan, bu juda muhim - bu O'zbekiston o'tish iqtisodiyotida ayniqsa, yetishmaydi -barcha o'zgartirishlardagi huquqiy asosini ta'minlash; to'rtinchidan makroiqtisodiy siyosatni -kredit -pul -soliq, daromadlar siyosatini va hokazolarni malakali o'tkazish.

Albatta, davlatning to'g'ri makroiqtisodiy siyosati iqtisodiyotining mazmun-mohiyatiga xos makroiqtisodiy bek muvozanatni to'liq bartaraf etolmaydi. Ammo u o'zgartirishlarning maqbul variantini ta'minlashi, ya'ni ularning chiqimlarini kamaytirtirishi haddan tashqari vayronagarchiliklarga (masalan giperinflyatsiyaga) ko'nmasligi mumkin. Ishlab chiqarish tanazzulini yengib o'tish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash o'tish jarayonining ilk bosqichidagi shunday siyosatning tub vazifalari hisoblanadi. Markaziy va Sharqiy Yevropaning bir qator mamlakatlari bu vazifani 1993 - 1994 yillardayoq hal etib ulgurdi. Iqtisodiy o'sish uchun qulay muhitni: ishlab

chiqarishga investitsiyalardan, manfaatdorlikni, foizning maqbul stavkasini, inflyatsiyaning sur'atlarini va boshqalarni yaratish shu vazifani hal etishning dastlabki shart-sharoitlari hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyoti 1995 yillarda xuddi shu vazifani hal etdi.

Avj olayotgan inflyatsiya jarayonini yengish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash rejali tizimdan bozor tizimiga o'tish boshlang'ich bosqichining markaziy vazifasi hisoblanadi. Umuman, inflyatsiyaga qarshi kurash ikki asosiy yo'nalishda: davlat budjeti kamomadi Markaziy Bank tomonidan moliyaviy qoplanishini to'xtatish va qattiq kredit - pul siyosatini ta'minlash bo'yicha olib boriladi. O'z navbatida, ana shu yo'nalishlar bir-biridan farq qiluvchi ikki mexanizmni izchil va mustaqil mexanizmlar orqali amalga oshiradi. O'zbekistonda izchil (ortodoksal) mexanizmni amalga oshirishda pul taklifi va valyuta kursi ustidan nazoratni amalga oshirishga tayanildi. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining aksariyatida qo'llanilgan mustaqil (geterodoksal) mexanizm ana shu ikki «langar» (pul massasi va valyuta kursiga) yana bittasini - daromadlarni deindeksatsiya qilish siyosatini qo'shdi.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash siyosatini o'tkazishda ma'lum izchillik bo'lmaganligiga qaramay, buning natijasida O'zbekiston iqtisodiyotida ijobiy natijalar ta'minlandi. 1995 yildan beri Markaziy Bank davlat budjetining kamomadini moliyaviy kredit bilan ta'minlamaydi (1994 yilda moliyalashtirish manbalarida bunday kreditlar qariyb 80 foizni tashkil etardi). 1995 yilning sentabr oyidan kredit-pul siyosati kuchaytirildi. Bular hammasi 1996 yilga kelib inflyatsiya sur'atining ikki foizga va undan ham kamayishiga olib keldi.

### **Qisqacha xulosalar**

Ushbu bobda bozor iqtisodiyotiga o'tishning umumiy asoslari berilib, bu yerda barcha sobiq ittifoq tarkibidan chiqqan hamda boshqa sotsialistik mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi umumiy yo'llari ko'rsatilgan va aniqlab berilgan.

### **Asosiy tushunchalar**

- O'tish davri nazariyasi
- O'tish davri bosqichlari
- O'tish davrining asosiy belgilari



### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. O'zbekistondagi o'tish jarayonlari jahon hamjamiyatining o'tish holatidan nimalari bilan farq qiladi?
2. Bozor iqtisodiyoti qaysi asosiy o'lchamlari bilan rejali iqtisodiyotdan farq qiladi?
3. O'zgartishlar narxlarni erkinlashtirishdan boshlanganligini qanday izohlash mumkin?
4. Rejali tizimning tanazzuli qachon va nima uchun boshlandi?
5. Nima uchun mulk shakllarining plyuralizmi bozor iqtisodiyoti qaror topishi uchun yetarli emas?
6. Bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayoni sharoitlarida makroiqtisodiy muvozanatni saqlab qolish mumkinmi?
7. O'tish iqtisodiyotida ishlab chiqarishning davomli tushkunligi sabablari nima?

### **Mustaqil ta'lim uchun mavzular:**

1. O'tish davri iqtisodiyotining asoslari va mazmuni.
2. Rejali iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish muammolari.
3. Rejali iqtisod va erkin bozor iqtisodiyotidagi asosiy farqlar va o'xshashliklar.

## **14 BOB. BOZOR IQTISODIYOTINING UCHTA ASOSIY MUAMMOLARI**

Bozor iqtisodiyoti nima uchun o‘ta tartibsizlik holatiga tushmaydi? Bunga javobning ma’nosi bir: raqobat, bozor tizimi va narx-navo bozor mexanizmlarining muvofiqlik harakatini ta’minlaydi, ya’ni yashirin tartibsizlikda tug‘iladigan erkin tadbirkorlik va tanlovga imkoniyati boricha yo‘l qo‘ymaydi. Bozor iqtisodiyotining uchta savoli mavjud: Nima ishlab chiqarish kerak? Qanday ishlab chiqarish kerak? Kim uchun ishlab chiqarish kerak? Muammolarni hal qilishda raqobatli bozor tizimi iste’molchilarning, ishlab chiqaruvchilarning va resurslarni yetkazib beruvchilarning o‘zaro harakat mexanizmini o‘z ichiga oladi.

### **14.1. Nima ishlab chiqarish kerak?**

Faqat shunday tovarlarni ishlab chiqarish kerakki, u foyda keltiradigan va talabga javob beradigan bo‘lsin, zarar keltiradigan, talabga javob bermaydigan tovarlarni esa ishlab chiqarish mumkin emas.

Foyda kelishi yoki uning yo‘qligi shuni bildiradi:

1. - umumiy daromad;
2. - umumiy ishlab chiqarish xarajatlari.

Umumiy daromad - bu firmalar, korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarni sotishdan keladigan daromad. Bu sotilgan mahsulotlarning miqdorini mahsulotlarning narxiga kupaytirish yo‘li bilan hisob-kitob qilinadi.

Umumiy xarajatlar - firma, korxonalarining chiqimi (xarajatlar), ya’ni ishlab chiqarish resurslarini mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqarish uchun sotib olish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlardir. Bular har qaysi resurslarning narxini ishlab chiqishda ishlatilgan resurslar miqdoriga ko‘paytirish yo‘li bilan hisob-kitob qilinadi, keyinchalik esa har qaysi resurslar xarajatini qo‘shish bilan yig‘indisi chiqariladi.

Umumiy daromadlarning umumiy xarajatlardan oshib ketgan qismi sof yoki iqtisodiy foyda deb ataladi. Iqtisodiy foyda ishlab chiqarish tarmoqlarining ravnaq topishini bildiradi va unga xizmat qiladi. Shu yerdan tarmoqlarning kengayish tendensiyalari paydo bo‘ladi va aksincha, zarar keltirilsa tarmoqlarning qisqarishiga olib keladi.

Shuni alohida aytish kerakki, «Nima ishlab chiqarish kerak?» muammosini hal qilishda asosiy rol ni iste’molchi talabi o‘ynaydi. Talabning ko‘payishi, ya’ni o‘sha mahsulot uchun berilgan «iste’molchi ovozi» sonining ko‘payishi shu mahsulotni ishlab chiqaradigan tarmoq uchun foydani ta’minlaydi.

Iste'molchilarning ovozi tarmoqlar uchun qanday mahsulot ishlab chiqarish foydali ekanligi zarurligi masalasini hal etadi.

### **14.2. Qanday ishlab chiqarish kerak?**

Ishlab chiqarish bozor iqtisodiyotida yangi texnikani va ishlab chiqarish texnologiyasini qo'llash demakdir.

Yangi texnika va texnologiyani qo'llash ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi natijasida iqtisodiy samaradorlikning o'sishini ta'minlab beradi. Iqtisodiy samaradorlik nafaqat texnika va texnologiyalar bilan, balki resurslarga bozor narxining qanday belgilanganligi bilan ham bog'liqdir. Shunday hajmdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun texnologiya faqat bir necha jismoniy resurslarni qo'llashni talab qiladi, agar kerakli resurslar juda ham yuqori bozor narxida bo'lsa, iqtisodiy samarasiz bo'lishi mumkin. Mana shu joydan samaradorlikning yangicha ifodasi boshlanadi.

Iqtisodiy samaradorlik minimal xarajatlar bilan maksimal mahsulot olishni bildiradi.

Tahlillar ko'rsatadiki, bozor tizimi resurslarni taklif qilish texnologiyasi va tuzilishining o'zgarishiga moslashish qobiliyatiga ega ekan. Ammo bir tomondan, ro'y berayotgan o'zgarishlarga moslashtirish, hamda ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish unumdorligining oshishiga va ko'prok jamiyatning yuqori darajadagi moddiy farovonlikka erishishning o'zgarishini bildiradi.

Savol: bozor tizimi iqtisodiyotni texnikaviy taraqqiyotga asoslangan yangi ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlashga qobiliyatlimi?

Javob: raqobatli bozor tizimi texnikaviy taraqqiyot uchun kerakli omillarni o'z ichiga oladi. Raqobatchilar taraqqiyparvar firmalar misolida bo'lishlari kerak, aksincha ular tezda zarar ko'rishi mumkin. Shu bilan birga resurslarni texnika va texnologiyalari samarasiz tarmoqlardan ko'proq samarali tarmoqlarga qayta taqsimlashga to'g'ri keladi.

Savol: novator bo'lgan tadbirkor bozor tizimi vositasi orqali texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq zaruriy mashina va asbob-uskunalarni ishlab chiqarish uchun o'zining idorasiga olishi mumkinmi?

Javob: ha, tadbirkor ularni olishi mumkin. Avvalambor, o'sha tadbirkor foydaning bir qismini ishlab chiqarishni kelajakda kengaytirish maqsadida jamg'arishga moyil bo'lsa, kelajakda yangilik muvaffaqiyatli bo'lsa, mana shunday yo'l bilan u o'zini katta daromad bilan ta'minlaydi.

### **14.3. Kim uchun ishlab chiqarish kerak?**

Ishlab chiqarilgan mahsulot shaxsiy mahsulot va ishlab chiqarish jamg'armasi uchun jamiyat a'zolari orasida taqsimlanadi.

Shaxsiy iste'mol ikki omilga bog'liq:  
pul daromadi miqdori va mahsulot sotiladigan narx.  
Ishlab chiqarish jamg'armalari quyidagilarga bog'liq:  
jamg'arma foydalanadigan foyda miqdori;  
resurslar narxi;  
ssuda foizi.

Shaxsiy iste'mol tuzilishining shakllanishida narx-navo asosiy rol o'ynaydi, resurslar narxi esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish jamg'armalarining shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

Bozor tizimining qobiliyati iste'mol narxini korxonalar tomonidan tegishli ta'sirlanishni chaqirish va resurslarni yetkazib beruvchilarni yo'l ko'rsatish yoki narx vazifasini aniqlash, deb ataladi.

Iste'mol narxidagi o'zgarishlar bitta tarmoqni kengaytirish va boshqasini qisqartirishni diktovka kiladi. Bu to'g'irlashlar bozor resurslari orqali amalga oshiriladi, shu sababli kengaytirilgan tarmoqlar resurslarga katta talab qo'yadi, qisqartirilgan tarmoqlar esa bularga talabni kamaytiradi. Boshqacha aytganda, iste'mol narxi resurslarni qisqartirilgan tarmoqlardan kengaytirilgan tarmoqlarga qayta taqsimlaydi.

Bozor tizimi yo'q joyda, ehtimol, hukumatning rejalashtirish organlari o'z bo'yniga shunday vazifalarni olishi mumkin ediki, bu aniq ishlab chiqarish tarmoqlariga resurslarni taqsimlash bo'lardi.

Shuni aytish zarurki, bozor tizimiga ijtimoiy mahsulotlarni taqsimlash mexanizmi sifatida qanday bo'lsa ham ahloqiy tamoyillar mos kelmaydi. Uy xo'jaliklariga katta miqdordagi moddiy resurslarni jamg'arish omadi, yoki mehnatga yuqori darajada haq to'lash natijasida tejab-tergash, yoki ishdan zehni foydalanish, yoki meros qoldirish, yoki katta daromadlarni ayirboshlash vositasi bilan olish, ijtimoiy mahsulotlarning katta qismini idora etish, boshqalarni qanday bo'lsa ham mulkdan mahrum etish. Yetarli ma'lumotga ega bo'lmaganlar, unchalik ahamiyatli bo'lmagan pul daromadlari va shunga mos kichik ulushda milliy mahsulotlarni oladilar.

Har xil iqtisodiyotda uchta mustahkam muammolar qanday hal qilinmoqda?

Erkin bozor iqtisodiyotidagi uchta: Nima, qanday va kim uchun ishlab chiqariladi? savollari faqat xususiy kapitallar bilan hal qilinadi.

Agar biz «erkin bozor iqtisodiyoti», deb aytsak, unda bu sof iqtisodiyot, ya'ni davlatning aralashuvisiz yoki iqtisodiyot «laissez Faire».

Erkin bozor iqtisodiyoti tarafdorlarining davo qilishicha, bu: -resurslarni samarali taqsimlaydi, foydani maksimlashtiradi va aholining cheksiz ehtiyojlarini qoniqtiradi;

- erkin tadbirkorlikni va tanlovni ta'minlaydi va mana shu asosda gullab-yashnaydilar;

- qarorlar qabul qilishda tadbirkorlar bozor tizimidan oladigan mukofot va jazolash bilan shaxsiy manfaatlarini amalga oshiradi.

Erkin bozor iqtisodiyoti tanqidchilari hisoblaydilarki, u yetarli darajada samarali emas, shunday qilib:

1. Raqobat vaqti kelganda zaiflashadi hamda uning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli pasayadi.

Maksimal foydaga intilish jamoaning ehtiyojini qondirishni, xususan, ijtimoiy infratizimlarning rivojlanishi (ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqalarning) kamaytiradi.

To'liq bandlik va narx-navoning barqarorligiga kafolat bermaydi.

Erkin bozor iqtisodiyotining qarama-qarshiligidagi buyruqbozlik iqtisodiyotida: Nima, Qanday va Kim uchun ishlab chiqariladi, savollari davlat tomonidan hal qilinadi.

Ko'pincha bunday iqtisodiyot ma'muriy buyurokratlar iqtisodiyoti, deb nomlanadi. Bu yetarli uzoq davrlarda O'zbekistonda (1924-1991) va boshqa sobiq sotsialistik davlatlarda hukumronlik qildi.

Hozirgi vaqtda birorta davlat yo'qki, qayerda shunday sof turda o'rin egallagan erkin bozor iqtisodiyoti yoki buyruqbozlik iqtisodiyoti. Hozirgi rivojlangan davlatlardagi iqtisodiyot-aralash iqtisodiyotdir.

Aralash iqtisodiyot qanday bo'lmasada bozor va buyruqbozlik iqtisodiyoti o'rtasidagi savollar:

Nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish xususiy kapital va davlatning o'zaro harakatida hal qilinadi. Bu muammolarni batafsil biz ushbu darslikning kerakli boblarida keltirganmiz.

### **Qisqacha xulosalar**

Ushbu bobda bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi asosiy muammo bo'lgan har bir ishlab chiqaruvchi va mulk egasi bo'lgan tadbirkor erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor iqtisodiyotining asosiy mexanizmlariga muvofiq – talab va taklif, narx-navo va raqobatchilik sharoitida nima ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish va kim uchun ishlab chiqarish muommalarini aniqlagan holda, ushbu 3 ta mustahkam muammolarga qat'iyat bilan rioya qilib, ularni amalga oshirishi buning uchun zamonaviy fan-texnika asosida ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish asosida uch savolga javob berishi shart.

## **Asosiy tushunchalar**

Nima ishlab chiqarish?

Qanday ishlab chiqarish?

Kim uchun ishlab chiqarish muommalari?

## **Seminar darslarida muhokama uchun savollar**

1. Jamiyat va shaxsiy ehtiyojlar uchun ishlab chiqariladigan tovarlarni miqdori va sifati.
2. Bozor sharoitida nima, qanday va kim uchun ishlab chiqariladigan tovarlarinng jamiyat uchun ham foydaliligi nimada?
3. Rejali iqtisodiyotning bozor iqtisodiyotidan farqi va umumiyligi.

## **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. O'tish davri iqtisodiyotining asoslari va mazmuni.
2. Rejali iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish muammollari.
3. Rejali iqtisod va erkin bozor iqtisodiyotidagi asosiy farqlar va o'xshashliklar.

## 15 BOB. BOZOR VA UNING TUZILISHI

Ma'lumki, bozor - tovar xo'jaligining majburiy tarkibiy qismidir. Boshqacha qilib aytganda, bozor - tovar ishlab chiqarishining orqa tomoni, bozor xo'jaligining poydevori. Tovlar ishlab chiqarishsiz - bozor, bozorsiz - tovar ishlab chiqarilishi mumkin emas.

Bozorning ob'ektiv zaruratini - aniqrog'i: tovar ishlab chiqarish mavjudligining zaruratini rivojlangan ijtimoiy mehnat taqsimoti; bozor sub'ektlarining mulkka egalikning turli shakllari mavjudligi bilan izohlanuvchi iqtisodiy mustaqilligi; tashqi savdo vositasida jahon iqtisodiyoti bilan mustahkam aloqasi; milliy iqtisodiyotning yanada iqtisodiy rivojlanish maqsadlarida jahon iqtisodiy makoniga chiqish ehtiyoji va hokazo sabablar keltirib chiqargan.

«Bozor» tushunchasi serqirra, ko'p qiyofali. Ijtimoiy ishlab chiqarish va munosabatlar rivojlanib borgani sayin bu tushuncha bir necha marta o'zgaradi.

Dastavval, bozorga chakana savdo olib boriladigan bir joy, bozor maydoni, deb qaraldi. Bu bozorning ibtidoiy jamiyat yemirila boshlangan, jamoalar o'rtasidagi almashuv tovar ayriboshlov shaklini qabul qilib, ozmi-ko'pmi muntazamlik kasb eta boshlagan davrida paydo bo'lganligi, almashuv ma'lum bir joyda va ma'lum bir vaqtda amalga oshirilganligi bilan izohlanadi. Tumanlar va shaharlar rivojlanib borgani sayin, savdo-sotiq bozor munosabatlari kengayib boradi, bozorlarga ma'lum bir joylar, bozor maydonlari biriktiriladi. Bozorni bunday tushunish ana shu so'zning ma'nolaridan biri sifatida bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti chuqurlashib, tovar ishlab chiqarish kengayib borgani sayin, «bozor» tushunchasi tobora murakkab mazmun kasb etib bordi, bu jahon iqtisodiy adabiyotlarida o'z aksini topdi. Jumladan, fransuz iqtisodchisi va matematigi A.O.Kurno shu atama ostida qandaydir bozor maydonini emas, umuman, xaridorlar va sotuvchilarning munosabatlari erkin bo'lgan, narx-navo oson va tezda murosaga keladigan har qanday hududni tushunish kerak, deb hisoblar edi. Bozorning bunday ta'rifida uning makon sifatidagi tavsifi saqlanib qoladi, ammo u to'liq emas.

Tovar almashuvi yanada rivojlanishi, pulning, tovar-pul munosabatlarining paydo bo'lishi bilan oldi-sotdining zamon va makondan uzilish imkoniyati vujudga keldi, bozorning savdo-sotiq qilinadigan joy sifatidagi tavsifi voqelikni aks ettirmay qo'ydi. Zero, ijtimoiy ishlab chiqarishning yangi tuzilmasi - moddiy va mehnat resurslarining, mehnat sarfining muomala uchun ma'lum o'ziga xos vazifalarini bajarish maqsadida ajralib chiqishi bilan tavsiflanuvchi muomala sohasi shakllandi. Natijada, bozorning tovar va tovar-pul almashuvi (muomalasi) sifatidagi yangi tushunchasi paydo bo'ldi, bu

tushuncha mamlakatimiz iqtisodiy adabiyotlarida, ayniqsa, keng yoyildi. Jumladan, «Siyosiy iqtisod» darsligida<sup>60</sup> bozor - bu tovar ishlab chiqarish va pul muomalasi qonunlari bo'yicha tashkil etilgan almashuv, deb uqtiriladi. Dal va Ojegovning lug'atlarida<sup>61</sup> bozorning savdo va tovar almashuvi sohasi sifatidagi mazmuni keltiriladi. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash muhimki, bozor bu nafaqat tovarlar almashuvi sohasi, shu bilan birga, muomala sohasi hamdir, u pul muomalasini, shu jumladan, qimmatbaho qog'ozlarning hozirgi zamon bozorini ham o'z ichiga oladi.

Basharti, unga bozor munosabatlarning sub'ektlari tomonidan qaraydigan bo'lsak, bozorning «xaridorlar majmui sifatida»<sup>62</sup> gi yoki «mustahkam amaliy aloqalarga kirishayotgan va har qanday tovar yuzasidan yirik bitimlarni tuzayotgan har qanday odamlar guruhi»<sup>63</sup> kabi yangi ta'riflari paydo bo'ldi.

Ammo bu bozorning bir tomonigina xolos. Bozorning bu ta'riflari to'liq emas, chunki bozor munosabatlari sub'ektlari butun majmuini (ishlab chiqaruvchilarni, iste'molchilarni va vositachilarni) qamrab olmaydi, ishlab chiqarish, muomala sohasidagi taqsimot iste'mol munosabatlarini o'z ichiga olmagan.

«Ishchi kuchi» tovar sifatida paydo bo'lishi bilan bozor umumiy xarakter kasb etadi, u bevosita ishlab chiqarishning o'ziga kirib boradi: nafaqat ishlab chiqarish vositalarini, shu bilan birga, ishchi kuchini xarid qilish ham ishlab chiqarishning shartiga aylanadi.

Bozor tavsifining takror ishlab chiqarish jihati g'oyatda muhim. «Bozor» tushunchasi uni ijtimoiy mahsulot yig'indisi, shu mahsulotning tarkibiy qismlarini realizatsiya qilish harakatining shakli sifatida tushunish darajasigacha kengayadi. Bozorning: «iqtisodiy munosabatlar yig'indisi, uning yordamida ijtimoiy mahsulotning tovar -pul shaklidagi aylanishi amalga oshiriladi»<sup>64</sup> degan ta'rifi paydo bo'ladi.

Bozorning muomala sohasi sifatidagi ta'rifi bilan muayyan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi sifatidagi ta'rifi o'rtasida juz'iy farq bor, birinchi holda bozor munosabatlarning ob'ektlariga: tovar-moddiy boyliklar va pul

---

<sup>60</sup> Политическая экономия. Учебное пособие. М.: Издательство политической литературы, 1988. – С.511.

<sup>61</sup> Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка: В 4 т. - СПб., 1863-1866.; Сергей Ожегов: Толковый словарь русского языка. М.: Оникс, 2010 г.

<sup>62</sup> Котлер Ф. Основы маркетинга: пер. с англ.-М.: «Бизнес-книга», «ИМА-Кросс. Плюс», 1995.-702 с.

<sup>63</sup> Альфред Маршалл. Принципы политической экономии. В трех книгах. М.: Прогресс, 1983

<sup>64</sup> Яковец Ю.В. Революция в экономике: ключевые проблемы, противоречия, перспективы перестройки. М.: Издательство: "Экономика" (1990).- С.122.



mablag'larining mavjudligiga; ikkinchi holda, «bozor kategoriyasi mohiyatini ifodalovchi munosabatlarga urg'u beriladi».

Bugungi kunda bozor xo'jalik yuritish sub'ektlari o'rtasidagi xo'jalik aloqalarining bir turi sifatida ko'rib chiqiladi. Xo'jalik aloqalarining ikki turi mavjud:

1) iste'molning hajmi va tarkibiy tuzilishiga muvofiq moddiy -buyum, beg'araz;

2) bozor vositasida amalga oshiriladigan tovar aloqalari.

Almashinuvchi tomonlarning o'zaro bitimlari, teng qiymatli g'arazlilik, sheriklarning erkin tanlanishi, raqobatning mavjudligi bozorning o'ziga xos jihatlaridir. Bozor aloqalari faqat tovar va xizmatlar erkin xarid qilingan va sotilgan holdagina bo'lishi mumkin. Fondlarning to'g'ridan-to'g'ri qat'iyat bilan ajratilishi, kartochkalardan foydalanish va boshqa cheklashlar (ko'chma savdo-sotiq ko'rinishidagi va hokazo) bozor aloqalarining buzilganligidan dalolat beradi. Fondlarning qat'iyatli ajratilishi yoki kartochkalar bilan taqsimlanishi shakliga ko'ra rasman oldi-sotdi hodisalari bilan kuzatilishiga qaramay, ko'proq xo'jalik aloqalarining birinchi turiga yaqinlashadi.

Bozor vositasida amalga oshiriladigan tovar munosabatlari uchun nafaqat to'g'ridan-to'g'ri (ishlab chiqarish-bozor -iste'molchi), shu bilan birga, teskari xo'jalik aloqalari muhim rol o'ynaydi. Akademik V.S.Nemchinov shunday deb yozgan: «teskari aloqalar e'tiborga olinmasa, shunday qotib qolgan mexanik tizim vujudga kelishini yaratish mumkinki, bu tizim ijtimoiy va texnika taraqqiyotiga to'sqinlik qiladi, xo'jalik hayotining real jarayonlari ta'siri ostida ertami-kechmi barbod bo'ladi»<sup>65</sup>. Bu so'zlar bashorat qilib aytilgan ekan. Aslida rivojlangan jamiyatdagi bozorni va teskari aloqalar rolini rad etgan xo'jalik yuritishning ma'muriy - buyruqbozlik tizimi chuqur tanazzulni boshidan kechirdi va barbod bo'ldi. Teskari aloqa mexanizmi har qanday iqtisodiy tizim turg'unligi va samaradorligining majburiy sharti ekanligi nazariy jihatdan isbotlangan va jahon tarixiy tajribasi bilan tasdiqlangan. Teskari aloqalarni ma'muriy - buyruqbozlik bilan almashtirishga urinishlar muqarrar ravishda nafaqat bozor buzilishlariga, shu bilan birga, butun iqtisodiy tizimning buzilishlariga aylanishiga, chuqur nomutanosibliklar vujudga kelishiga, iqtisodiy manfaatlar va ularning iqtisodiy rivojlanishning harakatga keltiruvchi kuch sifatidagi roli boy berilishiga olib keladi.


Shunday qilib, bozorning iqtisodiyotni tashkil etish va uni faoliyat yuritishining ijtimoiy shakli sifatidagi yana bir tushunchasini ajratib ko'rsatish

---

<sup>65</sup> "Василий Сергеевич Немчинов". Материалы к биобиблиографии ученых СССР. Серия экономики, вып. 3. Изд-во "Наука", 1964.

mumkin. Bunda ishlab chiqarish va iste'molning ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar faoliyatini boshqaruvchi vositachi institutlarsiz o'zaro hamkorligi, ishlab chiqarish va iste'molga to'g'ridan-to'g'ri va teskari ta'sir ta'minlanadi.

So'nggi vaqtlarda bozorning tovar va pul muomalasi o'zaro turg'un aloqasi zahirida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatidagi ta'rifi tobora tez-tez paydo bo'lmoqda<sup>66</sup>.



*1 - bozor - xo'jalik yuritishning mustaqil kichik tizimi sifatida;*  
*2 - davlat xo'jalik yuritishining kichik tizimi sifatida;*  
*3 - natura xo'jaligi xo'jalik yuritishning kichik tizimi sifatida.*

### **15.1-chizma. Aralash iqtisodiyot iqtisodiy tizimining tarkibiy tuzilishi**


Bozorning nafaqat oldi-sotdi bo'yicha, shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy (mulkning, ishlab chiqarishning, taqsimotning, iste'molning va hokazolarning) va tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni (bozorni tashkil etishning turli muayyan shakllarini va hokazolarni) o'z ichiga olishi bozorni iqtisodiy tizimda faoliyat ko'rsatuvchi mustaqil kichik tizim sifatida ko'rib chiqish uchun asos bo'la oladi. Butun iqtisodiy tizimning o'zi ham mustahkam o'zaro aloqadagi va bir-biriga uzviy bog'liq turli kichik tizimlarning yig'indisini tashkil etadi. Iqtisodiy tizimni 15.1-chizmasi tarzida tasavvur etish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, iqtisodiyot tizimida umuman, uch mustaqil kichik tizim o'zaro aloqa qiladi, qaysi bir kichik tizimning salmog'i kattaroq bo'lsa, butun iqtisodiy tizim ham shunday tavsiflanadi: agar bozor ustuvor bo'lsa, bu tizim-bozor tizimi bo'ladi, bozor iqtisodiyoti vujudga keladi; agar davlat ustuvor bo'lsa, bu holda tizim ma'muriy - buyruqbozlik tizimi bo'ladi; natura xo'jaligi ustuvor bo'lsa, bunda umuman tizim ham shunday bo'ladi.

Bozorning biz ko'rib chiqqan barcha ta'riflari bozorni ijtimoiy hodisa sifatida idrok etish tarixiy jarayonining turli bosqichlaridan dalolat beradi va

<sup>66</sup> Основы экономической теории и практики : учебно-методическое пособие / [М. М. Загорулько, В. М. Белоусов, Л. М. Васюнина и др.]. - Волгоград : Издательство Волгоградского государственного университета, 1994. - С.32.

uning turli qirralarini ochib ko‘rsatadi. Bozorning umumlashgan tavsifini 15.2-chizmasi ko‘rinishida tasavvur qilish mumkin.



**15.2-chizma. Bozorning umumlashgan tavsifi**

Ba‘zan tovarlarni realizatsiya qilish sharoitlarini yangilash bozor, deb tushunishadi. Aslini olganda, bozorda talab va taklifning nisbati bilan belgilanuvchi tovar va xizmatlarning realizatsiya qilish shart-sharoitlari tarkib topadi (talab va taklif nazariyasi keyingi boblarda ko‘rib chiqiladi). Talab va taklif nisbati nafaqat bozor jihatiga, shuningdek, ishlab chiqarish, taqsimot va iste‘mol jihatiga ham aloqador. Bozor shart-sharoitlari uning holatini emas, mazmun-mohiyatini tavsiflaydi.

### **15.1. Bozorning mazmun - mohiyati: tug‘ma jihatlari, ijtimoiy ishlab chiqarishdagi vazifalari va roli**

Bozor iqtisodiy kategoriya hisoblanadi, u almashuv, muomala, savdo, savdo xizmatlari bilan mustahkam bog‘liq. Biz uning ta‘riflari tahlilidan shuni bilamizki, bozor ayriboshlash va tovar xo‘jaligini vujudga keltirgan shart-sharoitlar tabiiy - tarixiy rivojlanishining natijasi bo‘lgan. Bozor bundan 6-7 ming yil muqaddam vujudga kelgan, rivojlanib borgan va hozir ham rivojlanishda davom etyapti. U sivilizatsiyaning natijasidir. Bozor bilan bog‘liq kategoriyalarning o‘xshash va farqli tomonlari nimalardan iborat?

Ayriboshlashni ikki tomonlama qarash mumkin:

- tovar va xizmatlar harakatining va buyumlarning ijtimoiy ayriboshlash jarayoni deb;
- muayyan ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayoni deb, individlar ana shu buyumlar ayriboshlovida bir - biri bilan aloqaga kirishadi.

Ayriboshlash iqtisodiy kategoriya sifatida ikkinchi tomonni ifodalaydi, ya'ni shaxsiy iste'mol uchun emas, boshqalar uchun, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun olingan mehnat natijalarining harakati munosabati bilan ishlab chiqaruvchilar sifatida odamlar bilan iste'molchilar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni o'zida aks ettiradi. Aynan ayriboshlash tufayli tarqoq xo'jaliklarga ko'ra bir - biridan ajralib qolgan tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'zaro aloqaga kirishadilar.

Keng ma'noda faoliyat, xizmatlar, tajribalar, natijalar va hokazolar bilan ayriboshlashni; tor ma'noda faqat mehnat natijalari bilan yoki mahsulotlar ayriboshlovidan iborat ayriboshlashdan farqlash zarur. Oxirgisi tovar xo'jaligi sharoitlarida tovar ayriboshlash (**T-T**) shaklini qabul qiladi.

Tovar muomalasi tovar ayriboshlashning nisbatan rivojlangan shakli hisoblanadi. Bu o'zaro zararlarni qoplash va ekvivalentlilik, mazkur jarayon qatnashchilarining o'zaro ahdlashuviga asoslangan pul vositasida (**T-P-T**) amalga oshiriladigan tovar ayriboshlashidir.

Savdo - bu odamlarning tovar ayriboshlash va oldi-sotdi harakatlarini amalga oshirish bilan bog'liq faoliyatdir. Tovar egalarining savdo bitimlari sotish (tovarni pulga ayriboshlash), sotib olish (pulni tovarga ayriboshlash) sifatida namoyon bo'ladi, ana shu ikki harakatning birligi va shunday bitimlarning tuzilishi savdo - sotiq faoliyatining mazmun - mohiyatini tashkil etadi.

Savdo xizmatlari tovarlar oldi - sotdisini amalga oshiruvchi odamlarning vositachilik faoliyati sifatida namoyon bo'ladi. Tovarlarining oldi - sotdisi (sof holdagi) bilan bog'liq operatsiyalar mahsulot yaratmasligi, shu bois tovarlar realizatsiyasi bilan bog'liq ijtimoiy ehtiyojlarni buyumlar tarzida emas, shunchaki faoliyat tarzida qondirishi bois ana shu faoliyatni xizmat, deb atash uchun asos bo'ladi. Savdo faoliyatini tovar ishlab chiqaruvchidan (unga o'z tovarini realizatsiya qilish, shu tovarni ishlab chiqarish uchun sarf-xarajatlarni iqtisodiy jihatdan tez qoplash bo'yicha xizmat ko'rsatiladi) va iste'molchidan (unga to'lov qobiliyatiga ega to'lovni qondirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatiladi) farqlash – savdo xizmatlari paydo bo'lishining boshqa bir muhim shart – sharoitidir, uni asosiy va qo'shimcha qismlarga taqsimlash mumkin.

Savdogarlar tomonidan xaridorlar talabining, tovar manbalarining o'rganilishini, reklamani, turli ko'rgazmalar tashkil etilishini, xo'jalik shartnomalari, bir marotabalik bitimlar tuzilishini, tovarlar ko'riklarini, malakali maslahatlar berilishini, tovarlar realizatsiya qilinishi uchun qulay shart - sharoitlar yaratishni, tovarlar realizatsiyasi bilan bog'liq pullarni qabul qilish, berish va saqlashni, turli hujjatlarning rasmiylashtirilishini, tovar

massasining harakatini hisob-kitob va nazorat qilishni hamda boshqa ko'pgina narsalarni asosiy savdo xizmatlari sirasiga kiritishadi.

Qo'shimcha savdo xizmatlariga muomala sohasida ishlab chiqarish jarayonini davom ettirish (transportda tashish, qadoqlash, saqlash va hokazo) bilan bog'liq xizmatlar kiradi, bu ishlab chiqarishning muomala sohasidan mutlaqo ajralganligi bilan izohlanadi.

Muomala sohasida moliya va kredit tizimlarining xizmatlari ham o'z o'rniga ega, ular qiymatning pul ko'rinishidagi mustaqil harakati ehtiyojlarini qondiradi, aslini olganda, savdo xizmati hisoblanmaydi.

Savdo kapitalining tovarlarni realizatsiya qilish jarayoniga kirib borishi uning qo'shimcha qiymat yalpi miqdori taqsimotida ishtirok etishi va savdodan daromad olishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Savdo kapitallarining harakati **P-T-P** formulasi bilan ifodalanadi, bunda **P** -pul, **T** -tovar, **P** esa, ko'payib qaytgan, savdo daromadi qo'shilgan pul. Savdodan olingan daromad xarid va sotuv narxlari o'rtasidagi farq sifatida, hisob - kitob kategoriyasi sifatida namoyon bo'ladi, savdodan keladigan daromadning olinishi savdogar faoliyatini belgilovchi sabab, deb hisoblanadi.

Savdo kapitalining ilk shakli savdogar kapitali ko'rinishida bo'lgan, uning paydo bo'lishiga hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajrab chiqishi, so'ngra shaharning qishloqdan ajralishi ob'ektiv asos bo'lgan. Pulning paydo bo'lishi va mahalliy bozorlarning vujudga kelishi natijasida odamlarning alohida bir guruhi - tovar almashuvi sohasida vositachilik operatsiyalariga ixtisoslashgan savdogarlar guruhi, ajralib chiqqan.

Savdogarlar kapitali ilk kapital jamg'arishning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qildi. Uning roli murakkab va ziddiyatlarga boy bo'ldi. Bir tomondan qaraganda, u pul mulkining sanoqli kishilar qo'lida jamlanib borishiga, ishlab chiqarishning o'sishi va markazlashuviga xizmat qildi, chunki ba'zi hollarda savdogarlar daromad olish maqsadida oddiy vositachilikdan ishlab chiqarishni tashkil etishga o'ta boshladilar. Boshqa tomondan qaraganda, tengsiz ayriboshlash hisobiga mo'may daromad olishar ekan, savdogarlar aholining ulardan tovarlarni sotib olgan aksariyat qismini ekspluatatsiyaga mahkum etishardi.

Erkin raqobat davrida savdo kapitali sanoat kapitalidan jiddiy ravishda farq qiladi. Hozirgi vaqtda qarama-qarshi tamoyil tobora sezilarli namoyon bo'lmoqda. Yirik sanoat kompaniyalari o'z tovarlarining realizatsiya qilinishi va iste'molini nazorat ostiga olishga intilib, o'z savdo shahobchalarini tashkil etishyapti.

Bozor - tovar ayriboshlovi va muomalasi namoyon bo'lishining muayyan shaklidir, unda savdo kapitali ham, boshqa kapitallar ham faoliyat ko'rsatadi.

Shunday ekan, bozor iqtisodiy kategoriya sifatida xaridorlar va sotuvchilar o'rtasidagi hamda tovarlar va pullar harakati munosabati bilan savdo vositachilari o'rtasidagi bozor munosabatlari sub'ektlarining iqtisodiy manfaatlarini aks ettiruvchi va mehnat mahsulotlarining ayriboshlovini ta'minlovchi muayyan iqtisodiy munosabatlar va aloqalarning yig'indisidir.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha kategoriyalar birligi shundaki, ular bir mohiyatni - tovarlar harakati jarayonida odatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni ifodalaydi, farqi esa (yuqorida aytib o'tilgan farqlardan tashqari), shundaki, har bir kategoriya ma'lum darajada bir - biriga tobe, asosiy mohiyatga yaqin yoki olis turadi (ayriboshlash birinchi darajali mohiyatga; muomala - ikkinchi darajali, bozor esa-uchinchi darajali mohiyatga ega).

Bozor munosabatlarining mazmun-mohiyati sotuvchilar (tovar ishlab chiqaruvchilar va savdogarlarning) xarajatlarini qoplash va ularning daromad olishini, shuningdek, o'zaro erkin kelishuv, ehtiyojlarni, o'zaro tenglik va raqobat asosida xaridorlarning to'lov qobiliyatiga ega talabini qondirishdan iborat. Aynan shular bozorning asosiy tug'ma jihatlarini va bozor munosabatlarining moddiy asosini esa, tovar va pul harakati tashkil etadi. Ammo bozor muayyan iqtisodiy tizimda faoliyat yuritishi va rivojlana borib, mustaqil yordamchi tizimga aylanishi bois, bu uning o'ziga xos namoyon bo'lish shakllarini (butun iqtisodiy tizimdagi bozor munosabatlarining turli solishtirma vaznini, bozorlar tashkil etilishidagi farqlarni, boshqaruvning turli shakllari, usullari, ko'lamlarini va hokazolarni izohlaydi. Har bir bozorning o'ziga xos jihatlarga (tovarlarning turlariga, bozorning tashkil etilishi, an'analari va hokazolarga) egaligi Rossiya, AQSh, Yaponiya va boshqa mamlakatlarning bozorlari xususida gapirish imkonini beradi.

Bozorning mazmun - mohiyati uning asosiy iqtisodiy vazifalarida o'z aksini topadi, bu vazifalar mazkur kategoriyaning asosiy vazifasini ifodalaydi va uning mazmun - mohiyatini aks ettiradi.

### **Bozorning quyidagi vazifalarini sanab o'tish mumkin:**

1) Turlar tarkibiy tuzilishida ishlab chiqarish va iste'molni muvofiqlashtirish, hajm va tarkibiy tuzilish bo'yicha talab va taklif muvozanatini saqlab turish. Nisbatlarni boshqarishning mazkur vazifasini bozor yuzlab va minglab mustaqil ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida tovar va xizmatlar oldi-sotdisi orqali aloqalarni o'rnatish yo'li bilan bajaradi;

2) Mahsulotlarni ayriboshlash uchun ularning qiymat bahosini belgilash. Ayni vaqtda bozor tovarlarni ishlab chiqarishga chakana mehnat sarflarini ijtimoiy etalon bilan qiyoslaydi, ya'ni xarajatlar va natijalarni solishtiradi, nafaqat mehnat sarfini, shu bilan birga, samarasini aniqlash vositasida tovarning qiymatini aniqlaydi;

3) Ishlab chiqarish samaradorligini iqtisodiy rag‘batlantirish, ishlab chiqaruvchilarni zarur tovarlarni kam chiqimlar bilan yaratish va yetarli foyda olishga da’vat etish; fan - texnika taraqqiyotini rag‘batlantirish va shu asosda ishlab chiqarishni intensivlashtirish, butun iqtisodiyot faoliyatini yanada samarali qilish. Bozorning rag‘batlantiruvchilik vazifasini bajarishi iqtisodiyotning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. «Agar bozor o‘z ta’sirini o‘tkazmasa, korxonalarining xodimlari eng yaxshi mutaxassislarni emas, nisbatan mashhur va talabchan bo‘lmagani kishilarni direktor qilib saylashadi» (O.Shik.). Bu ishlab chiqarish hajmining chakana moddiy farovonlik darajasigacha pasayishiga olib keladi;

4) Ijtimoiy mehnat taqsimoti chuqurlashib borayotgan, iqtisodiyotda baynalmilallashuv, integratsiya jarayonlarining o‘sish tamoyillari ko‘zga tashlanayotgan bir sharoitda ayrim mintaqalarning, viloyatlarning, hududlarning, milliy xo‘jaliklarning dinamik mutanosibligi ta’minlash. Mazkur vazifa hozir ko‘pchilik mamlakatlar uchun dolzarbdir, chunki u yagona bozor faoliyat ko‘rsatishi uchun shart - sharoitlarni yaratish bo‘yicha sub’ektlar o‘rtasida iqtisodiy bitimlar tuzilishi yo‘lida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi;

5) Iste’mol tejamliligini ta’minlash, iste’mol sohasidagi muomala sarf - xarajatlarini (xaridorlarning tovarlarni xarid qilishga xarajatlarini) qisqartirish va aholi talabini oylik maosh bilan muvofiqlashtirish.

Bozorning mazmun-mohiyati va uning vazifalaridan mantiqan uning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi roli kelib chiqadi. Bozorning «vazifalari» va «roli» bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Vazifalar va o‘ynaladigan rol yagona ob’ektiv jarayonni idrok etishning bamisoli bosqichlaridir. Vazifalar hodisaning bevosita mohiyatini ifodalab va kategoriyaning shu vazifalarni bajaruvchi rolini belgilaydi.

Bozorning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi roli quyidagilardan iborat:

1. Ishlab chiqarishga teskari «boshlang‘ich» aloqa yordamida: nimani, qancha miqdorda va necha xil turda ishlab chiqarish lozimligi haqida signal berish.

2. Talab va taklifni muvofiqlashtirish, iqtisodiyotning mutanosibligini ta’minlash.

3. Faoliyatning samaradorligidan va bozor talabini qondirishga yo‘naltirilganligidan kelib chiqib, tovar ishlab chiqaruvchilarni tabaqalashtirish.

4. Bozorning «sanitarlik» roli raqobat qobiliyatiga ega bo‘lmagan korxonalarni siqib chiqarish va eskirgan ishlab chiqarishlarni tugatishdan iborat.

Bozorning siyosiy iqtisod kategoriyasi sifatidagi mazmun-mohiyati ana shunday. Ammo bozorning muammolari nisbatan murakkab.

Bozor - bu sivilizatsiya taraqqiyotining barcha bosqichlariga u yoki bu darajada xos bo'lgan umumiy iqtisodiy kategoriyagina emas, ayni vaqtda u murakkab ijtimoiy-falsafiy tushuncha hamdir. U birgina iqtisodiy soha bilan chegaralanmaydi. Bozor insoniyat jamiyati tabiiy-tarixiy taraqqiyotining natijasi sifatida xalqlar taraqqiyotining tarixiy, milliy, madaniy, diniy, ruhiy xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Shu xususiyatlarda madaniy va iqtisodiy hayotni birgalikda qurishning ko'p asrlik an'analari barcha boyliklari bilan aks etadi. Bu turli mamlakatlardagi hozirgi zamon bozori va bozor tizimining o'ziga xos jihatlarini belgilaydi. Bozor barcha sivilizatsiyalarda mavjud bo'lgan, ammo uning roli bir-biridan farq qilgan. Bozor munosabatlari bugungi kunda ham mukammal emasligi ma'lum, ehtimol bu tabiatda mukammallika erishish mumkin emasligi bilan izohlansa kerak.

Mamlakat iqtisodiyotida bozor va davlat elementlarini uyg'unlashtirish ayrim iqtisodiy xatti-harakatlar amalga oshirilishi izchilligini ta'minlashning mezoni hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, mustaqil xaridorlar va sotuvchilar ko'p bo'lgan bozor narx-navoga jiddiy ta'sir o'tkazmaydi. Lekin bunday sharoitda davlat sektorining faoliyat yuritishi iqtisodiy ta'sir o'tkazish vositasi vazifasini o'taydi, u raqobat bozorining ham, davlat sektori kabi mavjud bo'lishi, faoliyat yuritishiga imkon beradi.

### **15.2 Bozorning turlari. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning shart-sharoitlari**

Bozorning rivojlanish tarixi bozorning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi: bular rivojlanmagan, erkin boshqariladigan va shaklan buzilgan bozorlardir.

Rivojlanmagan bozor tasodifiy, ko'pincha tovar (barter) xususiyati xos bo'lgan bozor munosabatlari bilan tavsiflanadi. Ammo shu bosqichning o'zidayoq bozor ma'lum rolni o'ynaydi, jamiyat a'zolari: tabaqalashuviga, u yoki bu tovarlar ishlab chikarishni rivojlantirishga ta'sir o'tkazadi.

Erkin (klassik) bozor quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

1) bozor munosabatlari qatnashchilarining soni cheklanmagan bo'ladi, ularning o'rtasidagi raqobat ham erkin bo'ladi;

2) jamiyatning barcha a'zolari xo'jalik faoliyatining har qanday turi, bilan mutlaqo erkin shug'ullana oladi;

3) ishlab chiqarish omillarining mutlaq safarbarligi; kapitalning erkin harakati cheklanmagan bo'ladi;

4) har bir qatnashchi bozor haqida (daromad me'yori, talab, taklif va hokozalar haqida) to'liq axborotga ega bo'ladi. Bozor sub'ektlarining maqsadga muvofiq hulqi tamoyillarini (daromadlar o'sishi natijasida yakka farovonlikni optimallashtirish: qimmatroq sotish, arzonroq sotib olishni)



axborotlarsiz amalga oshirish mumkin emas;

5) bir nomdagi tovarlarning mutlaqo bir xilligi (savdo tamg'alarining yo'qligi va hokazolar);

6) erkin raqobatning birorta ham jabhasi boshqasining qaroriga iqtisodiy bo'lmagan usullar bilan bevosita ta'sir o'tkazishga qodir bo'lmaydi;

7) narx-navo tabiiy ravishda erkin raqobat jarayonida belgilanadi;

8) monopoliyaning (bir ishlab chiqaruvchi), monopsoniyaning (bir xaridorning) va davlat boshqaruvining yo'qligi.

Erkin bozorning afzalligi shundaki, u o'z - o'zini boshqaruvchi mexanizm asosida faoliyat yuritadi, inson tomonga qaratilgan, talab asosida narx-navo orqali ishlab chiqarishga kapital mablag'lar solinishi uchun yo'l- yo'riqlar tashkil etadi. Erkin bozor - bu taqchillik bo'lmasligi oldindan ma'lum bo'lgan bozor mexanizmidir. U jamiyatda resurslarning samarali taksimlanishini; o'zgarib boruvchi shart-sharoitlarga yuksak darajada moslashuvni; bozor sub'ektlarining erkin ta'minlanishi va erkin harakat qilishini; fan-texnika inqilobi yutuqlaridan imkoni boricha keng foydalanilishini, rang-barang ehtiyojlarni qondirishga bo'lgan qobiliyatni; tovar va xizmatlar sifatining yaxshilanishini ta'minlaydi.

Bozor avtomatik ravishda ishlayotgandek tasavvur hosil qiladi, vaholanki shu o'rinda boshqaruv aslida sinov va xatolar usulida amalga oshiriladi. Shu bilan birga erkin bozor quyidagi jiddiy kamchiliklarga ham ega.

1. Bozor aholining turmush darajasi tabaqalashuviga olib keladi, bu aytarlik darajada yomon emas, chunki mehnat kilishga moyillikni ta'minlaydi. Shunisi yomonki, u aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlamaydi. Erkin bozorning ijtimoiy oqibatlari ishsizlikka, xonavayronlikka, aholi ayrim guruhlarining qashshoqlashishiga olib keladi. Umuminsoniy nuqtai nazardan qaraganda, bozor taqsimoti adolatli emas, chunki hammaning minimal turmush darajasini ta'minlamaydi. Bu demak, ijtimoiy muammolarni hal etish uchun davlatning aralashuvi kerak bo'ladi.

Bozorda taqsimot olingan daromadlar asosida amalga oshiriladi. Bozor munosabatlari nuqtai nazaridan qaraganda, erkin raqobat asosida qo'lga kiritilgan har qanday daromad adolatlidir. Ana shu daromadni olishga hozir bo'lmagan kishi (sog'ligining yomonligi, qariligi yoki boshqa sabablarga ko'ra) qashshoqlikda yashashga mahkumdir.

Bozor jamiyat barcha a'zolarining mehnat qilish huquqi amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlarni yaratishga qodir emas. Ixtisosligiga talab bo'lgan kishilargina ishga joylasha oladilar. Erkin bozor aholining, to'lik; ish bilan bandligini hamda narx-navoning barqaror darajasini kafolatlamaydi.

2. Erkin raqobat mexanizmi iqtisodiyotni ishlab chiqarishni rivojlantirish

uchun zarur miqdordagi pullar bilan ta'minlamaydi. Ba'zida pul yetishmovchiligi seziladi. Pul emissiyasi muammosini davlat banki timsolidagi davlat o'z zimmasiga oladi.

3. Erkin raqobatchilarning faoliyati ko'pincha ko'ngilsiz oqibatlarga olib keladi, atrof - muhitning bulg'anishi, oziq-ovqat mahsulotlarida pestitsidlarning va boshqa zararli moddalarning ko'payishi, giyohvandlikning, ichkilikbozlikning kuchayishi va hokazolar shular jumlasidandir. Bu demak, erkin bozor ko'pincha qabul qilingan qarorlar oqibatida ro'y berishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni inobatga olmaydi, takror ishlab chiqarilmaydigan resurslarning saqlanishiga xizmat qilmaydi.

4. Erkin bozor jamoa bo'lib foydalanish uchun mo'ljallangan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishi uchun maqbul sharoitlarni yaratmaydi, jamiyatni har bir kishi foydalanadigan, ammo hech qanday daromad keltirmaydigan xizmatlar (mudofaa, davlat boshqaruvi, tabiat muhofazasi va hokazolar) bilan ta'minlashga qodir emas.

5. Erkin bozor yirik tadqiqotlarni ta'sirchan dalillar bilan ta'minlamaydi. U mavjud bo'lgan fan - texnika yutuqlarini joriy etadi, ammo fan va texnika sohasidagi jiddiy tadqiqotlar uchun mablag'larni ajratmaydi, vaholanki bu istiqbolda jamiyatning rivojlanishi uchun g'oyatda zarur bo'lib qolishi mumkin.

6. Erkin bozor asosida faoliyat ko'rsatuvchi iqtisodiyot notekis rivojlanishga, vaqti-vaqti bilan tanazzullarga (tushkunlik yoki ishlab chiqarish o'sish sur'atlarining pasayishiga) va inflyatsiya jarayonlariga moyil bo'ladi.

7. Bozor tijorat manfaatlariga tobe bo'lmagan, ammo jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyat turlariga (sog'liqni saqlashga, maorifga, fanga, madaniyatga, yagona transport tizimiga, zarar keltiradigan ishlab chiqarishlarga) o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

Erkin bozor - mavhum bir narsa: hozirgi vaqtda ham, o'tmishda ham bozorni boshqarishda davlatning (turli darajada) o'rni bo'lgan, zero ekin bozor shart-sharoitlariga birorta ham davlat tizimi javob bermaydi.

Bugungi kunda ko'pchilik bozor iqtisodiyotiga o'tish erkin bozorning shakllanishini anglatadi, zero fakat erkin bozorgina odamlarning tashabbuskorligi va ishchanligining turli tizginlardan to'la xalos bo'lishini, ularning turmushi yaxshilanishini ta'minlaydi, deb hisoblaydi.

Aslini olganda, to'liq erkinlik hech qachon bo'lmagan va bo'lishi ham mumkin emas. O'z vaqtida iqtisodiy fanida xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z faoliyatini va xatti-harakatlarida ijtimoiy muhitga qaram bo'ladi, deb qayd etish, G.V. Plexanov esa erkin xo'jalik faoliyati o'z-o'zidan mavjud bo'lishi mumkin emas, u iqtisodiy qonunlarni tushunish oqibati hisoblanadi, ularga

bo'ysunish mahorati va o'z faoliyatini tegishli ob'ektiv o'zaro aloqalar bilan uyg'unlashtira olish oqibati hisoblanadi, deb ta'kidlagan. J.Gelbreyt esa bugungi kunda Adam Smit davridagi erkin bozor bo'lishi mumkin emas, bunga da'vat etayotgan kishi esa kasalxonada yotib davolan; ishi lozim bo'lgan ruhiy kasal kishidir, deb tasdiqlaydi.

Bu demak, to'la iqtisodiy ekinlik bo'lishi mumkin emas, ammo, ma'lum darajadagi, iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga xizmat qiladigan va maromidagi, madaniy, boshqariladigan bozorning rivojlanishi bilan ta'minlanadigan yetarli darajadagi iqtisodiy erkinlik bo'lishi kerak.

Boshqariladigan bozor - sivilizatsiyaning, jamiyatning insonparvarligi natijasidir, bunda davlat bozorning jamiyat ayrim a'zolari manfaatlariga yetkazadigan zarbalarini ma'lum darajada yumshatishga intiladi, ammo ijodiy, tashabbuskorlik bilan mehnat, qilishga, xo'jalik faoliyatida tavakkal qilishga da'vat etuvchi dallilarni bekor qilish darajasida emas. Bozorning salbiy oqibatlarini yo'qotish yoki ma'lum darajada cheklash uchun bozor boshqariladigan bo'lishi kerak.

O'z vaqtida N.D. Kondratev kapitalistik tizim doirasidagi boshqaruv davlat mulki bilan cheklangan va bilvosita amalga oshiriladi, deb ta'kidlagandi<sup>67</sup>.

Ba'zi mualliflar yaqin vaqtgacha "boshqariladigan bozor" atamasiga, yo'l qo'yib bo'lmaydi, deb hisoblashgan (uni "qaynoq muz", "to'rtburchak g'ildirak", ya'ni beburdlik deb atashgan), chunki bozor o'zini - o'zi boshqaradi, deb hisoblashgan. Ammo gap shundaki, bozorni boshqarish mumkin:

- bozor o'zini bozor mexanizmlari yordamida boshqarishi mumkin. Raqobat, foyda, narx-navo, talab-taklif va hokazolar uning tarkibiy qismlari hisoblanadi;

- davlat tomonidan bevosita yoki bilvosita davlat buyurtmalari, soliqlar va hokazolar orqali boshqarilishi mumkin.

V. Leontev ta'kidlaganidek, bozor va davlat boshqaruvining eng maqbul uyg'unligini topish bugungi kunda biz uchun g'oyatda muhimdir. Hozircha ana shu talabga to'liq javob beradigan birorta ham davlat mavjud emas.

Bozor boshqaruvining ana shu ikki tomoni o'zaro hamkorligi monitoring (ya'ni, kuzatuv) xususiyatiga ega, bu yoxud bozorning o'z mexanizmi, yoxud davlat boshqaruvi kuchayganligidan dalolat beradi.

Davlat ma'lum darajada bozor faoliyati shart - sharoitlarini ta'minlaydi, davlatning bozor munosabatlariga haddan ortiqcha aralashuvi ularning shaklan buzilishiga olib keladi. Mamlakatimiz iqtisodiyotidagi bozor shaklan buzilgan bozorning yorqin namunasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

---

<sup>67</sup> Кондратьев Н.Д. Проблемы экономической динамики . М.: Экономика, 1989.

Bozor faoliyatining shart - sharoitlari bizda shunday ediki, uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ijobiy rolini yo‘qqa chiqarilgandi, bizda bozor yo‘q deguvchilar voqelikni to‘g‘ri aks ettirishmaydi, chunki oldi-sotdi vaqealari mavjud bo‘lganini nafaqat bizning iqtisodchilarimiz, shu bilan birga g‘arb iqtisodchilari ham qayd etishadi (masalan, V. Oyken va boshqalar). Shaxsiy tomorqa xo‘jaligi turli yillarda turli tovar, darajasiga ega bo‘lgan, ammo dehqon tomorqasiz yashay olmaydi. Bu demak, bozor bo‘lgan va hozir ham mavjud, ammo u shaklan o‘zgargan.

Ma‘muriy - buyruqbozlik yoki ko‘rsatmali xo‘jalik tizimi sharoitlarida bozor shaklan buzilishining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1) o‘z xo‘jalik faoliyatini mulkchilikning turli ko‘rinishlari asosida tashkil etuvchi ko‘p sonli bozor sub‘ektlarining yo‘qligi;

2) tovar resurslari taqsimotida va ularning harakatida haddan ziyod markazlashuv mavjudligi, tijorat faoliyati sohasida mustaqillikning yo‘qligi;

3) ishlab chiqaruvchi va sotuvchining monopoliyasi;

4) talab va taklifning bir - biriga nomutanosibliigi, bu ahvol yildan-yilga kuchayib bormoqda;

5) narx-navoning haddan tashqari ko‘tarilib ketganligi, tizginlanmagan inflyatsiya, pul muomalasidagi buzilishlar, budjet kamomadi, pullarning ulkan emissiyasi va hokazolar;

6) xufyona iqtisodning, “chayqov” bozorlarining kengayib borayotganligi;

7) mintaqalardagi bozorlarni kuchaytirishga urinish, markazdan qochish kuchlarining avj olganligi;

8) nisbatan rivojlangan savdo - pul munosabatlari o‘rniga barter bitimlarining avj olganligi;

9) bozor munosabatlari sub‘ektlari iqtisodiy manfaatlarning aynishi (masalan, sotuvchilarda tovarni sotish o‘rniga yashirib qo‘yishga qiziqish paydo bo‘lmoqda), unumli mehnat qilish, xo‘jalik faoliyatida tavakkal qilish uchun dalillarning yo‘qligi;

10) iste‘molchining tovarni tanlab olish huquqi yo‘qligi.

Bozordagi buzilishlarni bartaraf etish, bozor iqtisodi kasalliklarini (ishsizlikni, inflyatsiyani, beqarorlikni) tugatish uchun bozor xo‘jaligiga o‘tish va keyinchalik uni rivojlantirishning shart - sharoitlarini yaratish zarur.

Buning uchun quyidagi shart - sharoitlar taqozo etiladi:

- iqtisodiyotda mulkchilikning turli ko‘rinishlari (mulkchilikning rang-barangligi) va xo‘jalik yuritishning turli usullari mavjudligi, shuningdek ular o‘rtasida erkin raqobat bo‘lishi, barcha xo‘jalik yurituvchilarning raqobatda ishtirok etish va undan chiqish erkinligi, ishlab chiqaruvchilarning yetarli miqdori mavjud bo‘lishi lozim, kamida 15-20 bir xil mahsulotni ishlab

chiqaruvchi bo‘lishi kerak (ishlab chiqaruvchilar 4-5 ta bo‘lsa - bu oligopoliya, agar 1-2 ta bo‘lsa - monopoliya bo‘ladi, bu bozorning rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin);

- xo‘jalik faoliyatini, xo‘jalik aloqalari bo‘yicha sheriklarni tanlash erkinligi, bozor sub’ektlarining mustaqilligi, xo‘jalik qarorlari uchun javobgarligi, ularning mustaqil ravishda bitimlar, shartnomalar tuzish huquqi, buyurtmalarni joylashtirish va qabul qilish; o‘z daromadlarining bir qismidan erkin foydalanish erkinligi ta‘minlanishi kerak; tovarlarning, fondlarning qat’iyat bilan ma‘muriy, taqsimlanishi (kartochkalar va talonlar bo‘yicha) bo‘lmasligi, ya‘ni oldi sotdi erkin bo‘lishi lozim;

- narx - navoning erkin shakllanish mexanizmi, bozor sub’ektlarining narx - navoni o‘zlari belgilash huquqi bo‘lishi kerak. Bu qat’iy bo‘lishi shart emas, chunki klassik bozorda xaridorlar va sotuvchilarga narx - navo bamisoli tashqaridan, “ko‘rinmas qo‘l” vositasida beriladi, narx - navoga o‘ziga xos munosabat tarzidagi ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilarning ittifoqlari mavjudligi bozorni inkor etmaydi;

- resurslarni erkin boshqarish, ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun omillardan (materiallardan, mehnat, moliya resurslaridan) foydalanishda safarbarlikni ta‘minlaydigan darajada ularning mavjudligi; ishlab chiqarishning shart-sharoitlarini, uning texnologiyasini o‘zgartirish imkoniyati, har qanday kapitalni istalgan sohaga o‘tkazish erkinligi; quvvatlardan to‘liq foydalanilmayotgan bo‘lishi kerak.

- bu sog‘lom bozor iqtisodiyoti faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur shart xisoblanadi;

- barcha xo‘jalik yurituvchilar uchun bozordagi ahvol haqidagi axborotlarni to‘liq va erkin qo‘lga kiritish imkoniyati;

- bozor infratuzilmasining mavjudligi, ya‘ni bozorga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar, tizimlar, xizmatlar, korxonalar majmui mavjud bo‘lishi kerak;

- bozor munosabatlarini kengaytirish bilan bir qatorda iqtisodiyotning bozorga aloqasi bo‘lmagan talaygina sektorlarini saqlab qolish;

- milliy iqtisodiyotning jahon xo‘jalik aloqalari tizimiga izchillik bilan integratsiya qilinishi;

- davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy kafolatlarning ta‘minlanishi, “mablag‘ ishlab topishda” barcha uchun teng imkoniyatlarni yaratish hamda jamiyatning mehnatga qobiliyatsiz va ijtimoiy kam ta‘minlangan a‘zolarini qo‘llab - quvvatlash.

Butun dunyoda bo‘lgani kabi, mamlakatimizda kam bozorning rivojlanishi odamlar erkin tanlash imkoniyatiga ega bo‘lmagan sharoitlarda,

qo‘l ostida mavjud bo‘lgan, ularga berilgan yoki o‘tmishdan meros qolgan sharoitlarda ro‘y bermoqda. Bu bozorni rivojlantirishning umumiy hamda mamlakatimiz uchun xos bo‘lgan qonuniyatlari va shart-sharoitlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Bozor iqtisodiyoti yuksak darajada va o‘rtacha rivojlangan mamlakatlarda tarkib topgan bozor xo‘jaligining hozirgi zamon modeli quyidagi umumiy konuniyatlar bilan tavsiflanadi: mulkni iloji boricha davlat tasarrufidan chiqarish, bozorlarning ochiqligi, umuman mamlakat iqtisodiyoti, jumladan bozor infratuzilmasi yuksak darajada rivojlanganligi, milliy iqtisodiyotni moliyaviy - budjet boshqaruv usullari tizimi rivojlanganligi, valyutalarning erkin almashuvi, iqtisodiy o‘sish va umuman iqtisodiyotning davriy rivojlanish xususiyati shular jumlasidandir.

Mamlakatimizning ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor xo‘jaligi tizimiga kirib borishining xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi: rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ishlab chiqarish kuchlari nisbatan past darajada rivojlanganligi; xalqaro xo‘jalik aloqalari hozirgi zamon, integratsiya jarayonlariga xos bo‘lgan butun ko‘lami va chuqurligi bo‘yicha susayganligi; xo‘jalik yuritish ma‘muriy - buyruqbozlik tizimining tarkibiy jihatlari hamon saqlanib qolayotganligi; kichik va o‘rta tadbirkorlik sohasiga qarama - qarshi ravishda ishlab chiqarishning haddan tashqari yuksak darajada markazlashuvi; iqtisodiyot va asosiy bozorlar tarkibiy tuzilishi chuqur monopoliyalashganligi; iqtisodiyotning muvozanatga keltirilmaganligi, insondan ajrab qolganligi (ishlab chiqarishdan soqit qilinganligi); respublika va mintaqaviy manfaatlarni uyg‘unlashtirish zarurati; qarama - qarshi jarayonlarning chatishib ketganligi; bozorlarni „mintaqaviylashtirish“ va ayrim viloyatlar, mintaqalar, tumanlar va hokazolarning iqtisodiyoti o‘zaro xo‘jalik bog‘liqligining kuchayishi; yagona iqtisodiy hududning zarurati shular jumlasidandir.

Bozorni rivojlantirishning asosiy qonuniyatlari tamoyil tarzida, namoyon bo‘lmoqda. Jamiyatni bozor tuzilmalariga o‘tkazish masalasi oson emas. Muammoni idrok etishdagi qiyinchilik shundan iboratki, bizning nazariy dunyoqarashlarimiz va jamiyat amaliyoti har doim ham bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi, ba‘zi mualliflar ularni bir-biriga zid deb hisoblanadi. Birovlar bozorni inqirozdan chiqishning asosiy yo‘li deb hisoblanadi, boshqalar esa jamiyatni aynan bozor boshi berk ko‘chaga olib kirib qo‘ydi deb tasdiqlashadi.

Bozor iqtisodiyotini shakllantirish - murakkab, ziddiyatli jarayon. Bozor iqtisodiyoti ijtimoiy tuzilmalarga xonavayron qiluvchi darajada ta’sir o‘tkazishi mumkin (XX asrning 30 - yillaridagi ulkan inqirozni eslaylik), ana shunda davlatning aralashuvi kerak bo‘ladi. Iqtisodiyotning haddan tashqari davlat izmiga berib qo‘yilishi teskari tamoyilni keltirib chiqaradi.

Bozor iqtisodiyoti tashkil etilishining ijtimoiy shakli sifatida, bir tomondan, insonni faollikka (tadbirkorlikka) da'vat etadi, boshqa tomondan - aholining ijtimoiy tabaqalashuvini, ishsizlikni, narx-navoning hamisha ham boshqarib bo'lmaydigan o'sishini keltirib chiqaradi. Mana shuning uchun ham iqtisod madaniyati, bozor madaniyati va ular sub'ektlarining tegishli darajada rivojlanishi g'oyatda zarur.

Shuning uchun mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlar dasturi ana shu jihatlarni inobatga olishi, ma'lum mantiqni aks ettirishi va bozor, iqtisodiyotini shakllantirishning quyidagi bosqichma-bosqich vazifalarini aks ettirishi zarur:

1) iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish; zaxiralar va ichki imkoniyatlarni izlanish va ulardan foydalanish;

2) bozorni va uning infratuzilmalarini shakllantirish, bozorga xos xo'jalik aloqalarini o'rnatish va tadbirkorlikni rivojlantirishning yangi daliliy mexanizmlarini qaror toptirish;

3) iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va ma'muriy – buyruqbozlik tizimi doirasida tarkib topgan va bozorning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan tashkiliy tuzilmalarni bartaraf etish;

4) asta-sekin narx-navo ustidan nazoratni cheklash, narx-navoning, erkin shakllanishiga o'tish;

5) muomaladagi pul miqdorini cheklashga qaratilgan qattiq kredit -pul va moliya siyosatini o'tkazish;

6) odamlarning bozor iqtisodiyoti shart-sharoitlariga ko'nikishini yengillashtiruvchi ijtimoiy kafolatlar va aholini qo'llab-quvvatlashning kuchli tizimini yaratish;

7) faol tarkibiy - investitsiya siyosatini amalga oshirish, bu ustuvor darajada iqtisodiy usullarga asoslanib, ijtimoiy qayta ixtisoslashish yo'nalishidagi xalq xo'jaligida zarur tarkibiy siljishlarni ta'minlagan bo'lar edi.

Shunday qilib, mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlar insonga, uning ehtiyojlarini qondirishga, uning shaxs sifatida kamol topishiga "yunaltirilgan" bo'lishi kerak<sup>68</sup>.

### **Qisqacha xulosa**

Hozirgi zamon bozori – bu ishlab chiqaruvchilarga va (sotuvchilar) xaridorlarga tovar hamda xizmatlarni erkin oldi-sotdi qilishga ijozat etish tizimidir. Bugungi kunda bozorning tuzilishi har xil tashkiliy shaklda amalga

---

<sup>68</sup> Экономическая теория (политэкономия): Учебник / Под общ. ред. акад. В.И. Видяпина, акад. Г.П. Журавлевой. - 4-е изд. М.: ИНФРА - М. 2008. -Б.80 - 87.

oshirilmoqda. Bu o‘z navbatida shahar maydonidagi an’anaviy bozor; tovarli, fondli, valyuta birjalari yoki huquqiy kompaniyalar; butun dunyoga mashhur kompyuterga oid univermag «INTYeRNYeT». Bularni uchta guruhga bo‘lish mumkin.

1. Qonun asosida harakat qiluvchi, ya’ni qonun asosidagi bozor; noqonuniy bozor.

2. Iqtisodiy ob’ektlar bo‘yicha tayinlangan bozor munosabatlari:

- ishlab chiqarish vositalari bozori;
- iste’mol tovarlari bozori;
- ish kuchi bozori;
- axborot bozori;
- moliya bozori.

3. Geografik (sathi) belgilari bo‘yicha:

- mahalliy bozor;
- milliy bozor;
- xalqaro hududiy bozor;
- jahon bozori.

### **Asosiy tushunchalar**

- ishchi kuchi bozori;
- iste’mol bozori;
- moliya bozori;
- valyuta bozori.

### **Seminar darslarida muhokoma uchun savollar**

1. Jamiyat va shaxsiy ehtiyojlar uchun ishlab chiqariladigan tovarlarni miqdori va sifati.

2. Bozor sharoitida nima, qanday va kim uchun ishlab chiqariladigan tovarlarning jamiyat uchun ham foydaliligi nimada?

3. Rejali iqtisodiyotning bozor iqtisodiyotidan farqi va umumiyligi.

### **Mustaqil ta’lim uchun savollar**

1. O‘tish davri iqtisodiyotining asoslari va mazmuni.

2. Rejali iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tish muammolari.

3. Rejali iqtisod va erkin bozor iqtisodiyotidagi asosiy farqlar va o‘xshashliklar.



## **16 BOB. TALAB VA TAKLIF. BOZOR MUVOZANATI**

### **16.1. Talab tushunchasi. Talab iqtisodiyoti. Talab o'zgarishining narxdan tashqari omillari**

Raqobatli bozorda tovar ayirboshlash jarayoni o'ziga xos qonunlarga ega. Ular bozor ishtirokchilarining ayirboshlanayotgan tovarlar miqdori va ularning narxi nisbatiga iqtisodiy ta'sir qilish xususiyatlarida namoyon bo'ladi.


Raqobatli bozorda tovar ayirboshlash va narx shakllanish jarayonini «boshqaruvchi» muhim qonunlardan biri talab qonunidir. Sotib olinayotgan tovar miqdorini uning narxi bilan bog'lovchi talab qonunidir. Sotib olinayotgan tovar miqdorini uning narxi bilan bog'lovchi talab tushunchadir. Talab qonunining o'ziga xosligiga shundaki, sotib olinayotgan tovar narxi va miqdori o'rtasida teskari bog'liqlik bor: narx qancha baland bo'lsa, iste'molchilar shuncha kam tovar sotib oladilar. Va aksincha, narx pasaysa, mazkur tovarni sotib oluvchilar soni ortib boradi. Agar mazkur tovar miqdori bozorda ko'paysa, boshqa teng sharoitlarda uniig intilish imkoni faqat pasayib boruvchi narxlarda mavjuddir. Xaridorlar o'rganib qolgan tovarlarning zarracha yetishmasligi ularning narxi oshishiga olib keladi.

Talab qonuni yana bir boshqa muhim xususiyatni namoyon qiladi: bir tovarga xaridorlar talabi sekin - asta kamayib boradi. Mazkur tovar xarid miqdorining kamayishi nafaqat narx oshishi natijasida bo'ladi, balki ehtiyoj to'yinishining oqibatidir. Odatda, bir tovarning ko'proq xarid qilinishi uning narxi pastligining oqibatidir. Ammo bunday xarid qilishning foydali samarasi ma'lum chegaraga ega, shu chegaradan so'ng narxlar pasayib boradi, tovarlarni sotib olish qisqaradi. Talab qonunining bu xususiyati bir tovarning har bir qo'shimcha xaridining kamayib boruvchi foydaliligida o'z ifodasini topadi. Xaridor uchun mana shu xaridlarga qilingan qo'shimcha sarflardan so'ng foydali iste'mol samarasining pasayishi aniq bo'lib qoladi va narxning tushishiga qaramasdan talab kamayib ketadi. Shunday qilib, talab qonuni bozorning quyidagi ikki muhim xususiyatini ifoda etadi:

1) narx-navo va sotib olinayotgan tovar miqdori o'rtasidagi teskari bog'liqlikni;

2) bozorda ayirboshlanayotgan har qanday tovarga talabning asta - sekin kamayishini.

Talab egri chizig'i narx-navo va xarid miqdori o'rtasidagi o'ziga xos bog'liqlik hamda talabning asta-sekin kamayish tamoyilini talab funksiyasi «deo» ataluvchi egri chiziq vositasida quyidagi chizmada ko'rsatish mumkin:



**16.1-chizma. Talab funksiyasi – dd egri chizig‘i.**

Absissa o‘qida (**Q**) tovar miqdori yoki uning sotuv hajmi ko‘rsatilgan. Ordinata o‘qida (**R**) shu tovarlar narxi **dd** egri chizig‘i -bu birinchidan teskari bog‘liqlikka xos salbiy egilishga ega egri chiziq bo‘lib, u sotib olinayotgan tovar miqdori narxining o‘zgarishini aniqlaydi. Ikkinchidan, egri chiziqning pastga qarab ketayotgan ko‘rinishi yuqorida aytilgan talabning asta-sekin kamayishini va o‘sha tovarning har bir qo‘shimcha xaridining kamayib boruvchi foydaliligini tasvirlaydi.

Talabga xos bo‘lgan bu xususiyatlarni **dd** egri chizig‘ida olingan bir qancha ixtiyoriy nuqtalar yordamida kuzatish mumkin. Ushbu nuqtalarning istalgani ikki o‘zgaruvchining narxi va shu narxda tovar xaridi miqdorining ma’lum ahamiyatiga mos keladi.

Istalgan nuqtadan ikkinchisiga o‘tilar ekan, narx va xarid teskari bog‘liqligining o‘zgaruvchan nisbatini kuzatish mumkin. **A** nuqtasi-narx va shu narxda sotib olinishi mumkin bo‘lgan eng kam miqdordagi tovar; **V** nuqtasi birmuncha pasaygan narx, bunda tovar xarid miqdori ko‘payadi; **S** nuqtasi va egri chiziqdagi undan keyingi istalgan nuqtada narxning pasayishi va shu narxdagi xarid miqdorining oshish tamoyilini kuzatish mumkin. Talab egri chizig‘i bo‘yicha harakat jarayonini teskari yo‘nalishda ham tasavvur qilish mumkin: pastdan yuqori yo‘nalishda narxning oshishi bilan xarid miqdorining kamayish tamoyili namoyon bo‘ladi. Masalan, **D** nuqtada eng past narx va tovarning eng ko‘p sotilgan miqdori. Ammo egri chiziq bo‘ylab **S, V, A** yuqori nuqtalarga o‘tilishi-bu tovar narxining to‘xtovsiz o‘shishiga mos ravishda tovar xaridi miqdorining kamayishi **dd** chizig‘ida nuqtalar bo‘ylab, yuqoriga va pastga qilingan harakat jarayonida talab o‘zgardimi? Yo‘q, talab

o'zgartirmadi va uni tasvirlovchi egri chiziq o'z o'rnini o'zgartirmadi. Narx va tovarlar miqdori o'zgardi, ammo bu talabga ta'sir qilmadi. Talab egri chizig'i bo'ylab bir nuqtadan istalgan boshqasiga harakat qilish shuni ko'rsatadiki, bir o'zgaruvchining o'zgarishi boshqa o'zgaruvchining teskari o'zgarishiga olib keladi. Narxning o'zgarishi tovarlar oldi-sotdi hajminigina o'zgartiradi, bozorda tovarlar miqdorining o'zgarishi esa, ular narxining teskari harakatiga va tovarlar kamyoqligi narxning oshishiga sabab bo'lsa, ortiqcha tovarlar mavjudligi narxlarning pasayishiga olib keladi. Talabning o'zgarishi degani nima? Bu savolga javob narxsiz omillar tahlili bilan bog'liq bo'lib, ular tovar bozorlari va xarid talabi funksiyasini talab qiladi.

**Talabning o'zgarish omillari.** Bozor narxining vujudga kelishi ko'p o'lchovli jarayon bo'lib, tovarlar ayirboshlashga nafaqat narxlar, boshqa narxsiz omillar ham ta'sir qiladi. Har bir vaziyatda sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdori nafaqat narxga, balki narxsiz omillar, deb ataluvchiga ham bog'liq. Ular narx ta'sirini betaraflashtiradi (neytrallashtiradi), har holda xarid qilinayotgan tovarlar miqdorining o'zgarishi o'zgarmagan narxda sodir bo'ladi va hatto ko'pincha ularning harakatiga bog'liq ham bo'lmaydi. Shunday omillar sirasiga:

**Birinchidan,** xaridorlar daromaddarini kiritish mumkin. Masalan, agar xaridorlarning pul daromadlari qandaydir sabablarga ko'ra oshgan bo'lsa, garchi bu tovarlar narxi o'zgarmasa ham sotib olinadigan tovarlar miqdori oshadi. Daromad shunga qadar ular iste'molchilar tomonidan qilingan, cheklangan xaridning asosiy sabablaridan biri bo'lib xizmat qilgan edi.


Aksincha xaridorlarning pul daromadlari kamaygan bo'lsa, tovarlarning o'sha narxda ham xarid miqdori pasayadi.

**Ikkinchidan,** tovarlar oldi-sotdisi miqdorining o'sha narxlar bo'yicha o'zgarishi xaridorlarning kutishi, deb atalmish omil ta'sirida ham sodir bo'lishi mumkin. Kutish o'zgarishining sabablari turlicha bo'ladi (masalan, ob-havo, bayram arafasi; mavsumiy sharoitlar). Ularning ta'siri ostida, xarid qilinayotgan tovarlar narxi darajasidan qat'iy nazar xarid miqdori ortishi ham, kamayishi ham mumkin.

**Uchinchidan,** narxidan qat'iy nazar (iste'molchilar tomonida) sotib olinayotgan ko'pgina tovarlar hajmi, masalan, bozordagi turdosh yoki bir-birining bosishi mumkin bo'lgan tovarlar mavjudligi yoki yo'qligi tufayli o'zgarishi mumkin. Masalan, go'sht mahsulotlarining boshqa turlari bo'lmasa, mol go'shtiga talab ortadi va aksincha, go'sht mahsulotlarning assortimenti bo'lishi bir guruh tovarlar kamchil bo'lishiga qaramay talabning kamayishiga olib keladi. Iste'mol bozorida bir-birining o'rini bosuvchi tovarlar sirasiga, masalan, shakar va boshqa shirinliklarni, choy yoki qaxva kabi ichimliklarni

kiritish mumkin. Shakarning yo'qligi choy va qaxvaga talabning tushib ketishiga olib keladi, chunki ko'p odamlar ularning foydali xususiyatidan qat'iy nazar shirasiz iste'mol qilishni istamaydilar. Deyarli har bir tovar o'zining «muqobilligi» va «o'rniga» ega, ularning tovar bozorlarida bo'lishi xarid talabini yaxshigina o'zgartirishi mumkin.

**To'rtinchidan**, xarid talabiga iste'molchilarning sub'ektiv afzaliklari va didlari ularning tovar dizayniga munosabatlari kabi narxsiz omillar ham ta'sir qilishi mumkin. Xaridorlar raqobati va xaridor psixologiyasining o'ziga xos jihatlari (masalan, to'da samarasi: ko'pchilik nima uchundir hamma olayotgan tovarni xarid qilishga intiladi va hokazo).



**16.2-chizma. Talabning narxsiz omillari ta'siri ostidagi o'zgarishi.**

Chizmada narxsiz omillar ta'siri tasvirlangan (16.2-chizma). Buning uchun avvalgi narxlar va tovarlar miqdori o'qlarida o'zimizga ma'lum talabning egri chizig'i **dd** ni joylashtiramiz, eslatib o'tish kerak, narxsiz omillar ta'sirida narx darajasidan kat'i nazar, tovarlarga bo'lgan talab o'zgaradi. Bunday vaqtda talab egri chizig'i qanday holga keladi? Javob bir xil: narxsiz omillarning o'zgarishi talabning butun egri chizig'i o'zgarishiga olib keladi va bu o'sha narx bilan sotilgan tovarlar miqdorining o'zgarishini ko'rsatadi. U yoki bu narxsiz omil tasirida yuzaga kelgan talabning o'sishi butun talab egri chizig'ining o'ngidan yuqoriga qarab joy o'zgarishi bilan ko'rsatilishi mumkin.

Va aksincha, agar narxsiz omillar bozorda iste'molchi talabining pasayishiga olib kelgan bo'lsa, buni talab egri chizig'ini chapdan pastga qarab joylashtirish bilan tasvirlash mumkin. Bizning jadvalimizda bu qayta

joylashuvlar nuqtali chiziqlar bilan **dd** oshgan talab va undagi **ABSD** nuqtalar o'zgarmagan narxda sotilgan tovarlar miqdori ortganini ko'rsatadi. **dd** nuqtali chizig'i kamaygan talabga xos bo'lib, unga taalluqli **A'' V'' S'' D''** nuqtalari o'zgarmagan narxda tovarlar xarid miqdorining kamayganini ifodalaydi.

Shunday qilib, talab funksiyasini quyidagicha yozish mumkin:

$$D = f(p, Z_1, Z_2, \dots, Z_n),$$

bu yerda, **R**-tovar donasining narxi; **Z<sub>1</sub>, Z<sub>2</sub>, ..., Z<sub>n</sub>** - narxsiz omillar.


## **16.2. Taklif tushunchasi. Tovarlarini taklif qilish iqtisodiyoti. Taklifning narxdan tashqari omillari**

**Taklif tushunchasi.** Talabga o'xshab tovarlarni taklif qilish -bozorda narxni shakllantirish jarayonining ajralmas va muhim qismidir. Ammo jarayonning bu ko'rinishida muhim rolni taklif qonuni o'ynaydi, bu qonun narx bilan tovar miqdori o'rtasidagi to'g'ridan - to'g'ri bog'liqlikni ifodalaydi.

Taklif (supply -inglizcha) -bu firmalar, tovar tayyorlovchi va sotuvchilarning bozorga ma'lum narxda, ma'lum miqdordagi tovarni yetkazib berishga tayyorligidir. Bu yerda narx va tovar miqdori bir tomonlama o'zgaradi va o'zaro harakat qiladi, narxning oshishi sotuvga taklif qilinadigan tovarlar miqdorining o'sishiga olib keladi. Va aksincha, narxning pasayishi ishlab chiqarish va bozorga tovar taklif qilishni qisqartirish zarurligini bildiradi. Narx shu o'rinda eng muhim va hal etuvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Sotuvchi va ishlab chiqaruvchi firma daromadlari tovarlarning bozor narxi darajasiga bog'liq bo'ladi.

Daromadlar qanchalik yuqori bo'lsa, tovarlarning bozor taklifi shunchalik jadal o'sadi va aksincha. Bu demak, ishlab chiqarish har qanday o'zgarishga yetarli darajada tez munosabat bildiradi va bozordagi iste'mol talabiga mos ravishda tez qayta ko'riladi. Ayni vaqtda bozor taklifi shunday mazmun kasb etadiki, taklif uni qondiruvchi narxlar bilan tasdiqlashi lozim. Qondirmaydigan narxlar yoki ularning pasayish tamoyillari vujudga kelsa, resurslar iqtisodiy va qayta oriyentatsiyasi bo'yicha, texnologiyalarning o'zgarishi va tovarlar chiqarish hajmining tahlili bo'yicha murakkab tadbirkorlik faoliyati talab qilinadi.

**Tovarlar taklifi va egri chizig'i.** Yuqorida qayd etilganidek, taklif jadvali va egri chiziq qonuni tovarlar ishlab chiqarish miqdori va ularning narxi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni tavsiflaydi. Narxlar va tovarlar hajmi o'rtasidagi ancha shu bog'liqlikni taklif funksiyasi deb ham atashadi. Agar taklif funksiyasi jadval o'qlarida tasvirlansa (16.3-chizma) vertikal o'qda bir tovar birligining narxlari -**R**, gorizontal o'qda esa, chiqarilayotgan tovarlar miqdori - **Q** bo'lsa, ijobiy qiyaqlik - **SS** ko'tarilgan egri chizig'iga ega bo'lamiz.



### 16.3-chizma. Tovarlar taklif qilish funksiyasining SS egri chizig‘i.

Shuni qayd etish muhimki, **SS**-taklif egri chizig‘idagi barcha (**A**, **V**, **S**) nuqtalar bozorda narxlar va tovarlar miqdorining o‘zgarishini ko‘rsatib, taklifning qo‘zg‘almas egri chizig‘i bo‘yicha harakatni tasvirlaydi. Taklif funksiyasi - bu tovar chiqarish bo‘yicha ishlab chiqarish funksiyasidir. Taklif funksiyasi shu xilda amalga oshadiki, agar chiqarilayotgan tovarlarning bozor narxi tadbirkorga **A**-sarflarni qoplash imkonini bersa, ya‘ni ishlab chiqarish tadbirkorlik faoliyati shu taqdirlash sifatida foyda keltirsa.

Egri chiziqdagi har bir nuqtaga «narx – tovarlar miqdori» kombinatsiyasi mos keladi: yuqoriroq holatta (masalan, **A** nuqtaga) oshgan narx tovarlarni yetkazish va sotishning kattaroq miqdori to‘g‘ri keladi, egri chiziqdagi boshlang‘ich nuqtalarning holati (xususan, **S** va undan pastdagi nuqtalar) - bozordagi tushayotgan narx taklif qilinayotgan tovar miqdorining qisqarishini ko‘rsatadi.

Taklif egri chizig‘ining umumiy ko‘rinishi biron-bir tasodifiy holda bo‘ysunmaydi: u tovarlar ishlab chiqarish funksiyasining oniy qiyofasida o‘zida aks ettiradi, ya‘ni firmalarning bozor narxi omili tomonidan, yo tasdiqlanadigan, yo rad etiladigan iqtisodiy maqsadga muvofiqlik bilan qat‘iy mos holda tovar chiqarishga ta‘sir ko‘rsatadi.

**Taklif o‘zgarishining narxsiz omillari.** **SS** taklif egri chizig‘ida tasvirlangan tovarlarning narxi bilan ularning bozorga keltirilgan miqdori o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni firmalarning resurs joylashtirish bo‘yicha muqobillari, deb qarash mumkin. Taklif egri chizig‘idan yuqoridagi maydon (16.3-chizmaga qarang) bu qo‘shuv belgili muqobil soha bo‘lib, u firmalar uchun foydalidir: shu egri chiziq ostidagi maydon esa, «ayiruv» belgili

muqobil, chunki u foyda keltirmaydi. Taklif vazifasining bunday talqini yana bir bor iqtisodiyotda harakat qiluvchi resurslarning cheklanganlik qonunini va ishlab chiqarish omillarining kamayib boruvchi daromadlilikini eslatadi. Firmaning har bir resurs joylashtirishi - bu muqobillar orasidagi tanlov bo'lib, u cheklangan resurslarning boshqa emas, aynan shu tovarlarni chiqarishga jalb etilganligini bildiradi. Bir tovarni chiqarish uchun boshqalaridan voz kechish o'zining ma'lum narxiga ega bo'lib, unga haq to'lanadi. Bu muqobil xarajat bo'lib, materiallashgan resurs joylashtirish sifatida talabga ega bo'lsa, tayyor tovar sifatida xaridor tomonidan haq to'lanadi. Faqat shu xoldagina firma «qo'shuv» belgili muqobil faktini qayd etishi mumkin. Boshqa vaziyatlar, ya'ni «ayiruv» belgili muqobillar – bu resurs joylashtirishning noto'g'ri tanlanishidir. Demak, «taklif» tushunchasi mazkur bozor narxida sotuvga taklif qilinadigan «tovar miqdori» tushunchasiga to'g'ri kelmaydi, taklifning o'zgarish omillari sifatida vaziyatga oid sharoitlar yig'indisi o'zgarishini hisoblash kerak, negaki, ular tovar ishlab chiqarish sohasiga taalluqli bo'lib, mazkur tovarning mavjud bo'lmagan bozor narxiga to'g'ri kelmaydi. Bu shartlar qanday shartlar?

Agar ular qisqacha shartlar, deb sanalsa avvalo, quyidagilarni ko'rsatish lozim:


**Birinchidan,** agar texnologiya yoki «yangi yechim» sifatida qo'llaniladigan ishlab chiqarish omillarining nisbati va sifati tushunilsa, mazkur tovar ishlab chiqarish texnologiyasining darajasi, sanaladi.

**Ikkinchidan,** taklif o'zgarishining jiddiy shartlaridan biri - bu davlat soliq siyosati, tadbirkorlikni subsidiyalar bilan qo'llab-quvvatlash va imtiyozli kredit siyosati va boshqalar. Sanab o'tilgan omillar ishlab chiqarish xarajatlari darajasiga sezilarli ta'sir qilishga qodir bo'lib, bu shu turdagi mahsulot chiqarishning kengayishiga yo chegaralanishiga turtki bo'ladi. Ma'lumki, soliq tayyor mahsulotning narxiga to'liq ko'shiladi. Iste'molchi bu tovarni sotib olish bilan soliqni ham to'laydi yoki soliq tufayli narxi oshgan tovardan voz kechib, soliq to'lamasligi mumkin. Sotilmagan mahsulot faqat bir narsani bildiradi: ishlab chiqarishning qisqarishini, ya'ni tovar taklifining qisqarishini. Ishlab chiqarish xarajatlari darajasiga qarama-qarshi yo'nalishda subsidiyalar, imtiyozli kreditlar kabi mahsulot chiqaruvchi firmalar va umuman tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash shakllari ta'sir qiladi. Bunday holda ular tomonidan bozorlarga tovarlar taklif qilish ortib boradi.

**Uchinchidan,** tovarlarni taklif qilish ko'p jihatdan bozorlarda bir-birining o'rnini bosadigan ishlab chiqarish resurslari va omillarining bor yoki yo'qligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Masalan, tabiiy xom ashyo resurslari energiya turlari narxi birmuncha arzon bo'lgan, mahsulot sifati standartlarini

pasaytirmaydigan sun'iy resurslar bilan almashtirilishi mumkin. Ularni qo'llash bilan ishlab chiqarish xarajatlarini anchagina pasaytirish, chaqirilayotgan mahsulotni arzonlashtirish mumkin. Bu xodimlar mehnati va avtomatika nisbatini ishlab chiqarishda o'zgartirish imkonini beradi, bu ham xarajatlar tejalishini ta'minlaydi.

**To'rtinchidan,** ishlab chiqarish resurslari va omillarining arzonlashayotgan narxlari ham xarajatlar iqtisod qilinishiga olib kelishi mumkin. Shunday yo'l tovarlar taklifining o'sishiga ham olib keladi. Agar yuqorida keltirilgan omillar chizma va **SS** taklif egri chizig'i orqali ko'rib chiqiladigan bo'lsa (16.4-chizma) taklif o'sishining barcha hollari shu egri chiziqning o'ng tomoniga o'tishi bilan ko'rsatish mumkin.



**16.4-chizma. Taklifning narxsiz omillar ta'siri ostida o'zgarishi.**

Bizning chizmamizda bu **S'S'** nuqtalar chizig'idir. Ko'rinib turganidek, taklif o'zgarishi narxsiz omillar ta'sirida sodir bo'ldi: narx o'zgarmay qoldi, bu egri chiziqdagi barcha nuqtalar (**A', B', C'...**) o'sha narx bilan sotiladigan katta miqdordagi tovarlar kombinatsiyasidir.

Jadvaldagi boshqa nuqtali chiziq **S'S'** taklif egri chizig'i va undagi barcha nuqtalar (**A'', V'', S'',...**) chapga joylashib, taklifning pasayganini ko'rsatadi. Bu vaziyatda yuqorida tasvirlangan narxsiz omillar ta'siri ostida, garchi ularning bozor narxi o'zgarmagan bo'lsada, tovarning kamroq miqdori taklif qilinadi. Sof nazariy tahlil nuqtai nazaridan tovarlar ishlab chiqarish va taklif qilish funksiyasini quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan algebrik tenglama ko'rinishida ifodalash mumkin:


$$S = f(P, V_1, V_2, \dots, V_n).$$



Bu yerda,  $S$ -tovarlar taklifi,  $R$ -bir dona tovar narxi;  $V_1, V_2, V_3, \dots, V_n$  - taklifning narxsiz omillari.

### 16.3. Talab va taklifning bozor muvozanati. Muvozanatli narx

Raqobat bozorida qaror topishi talab va taklifning umumiy tamoyillari va boshqa xususiyatlari ta'siri ostida sodir bo'ladi. 16.5-chizmada tovar va narxlar sohasida sodir bo'ladigan dinamik jarayonlar eng umumiy holatda ko'rsatilgan.




16.5-chizma. Talab va taklifning bozor muvozanati.

Muvozanatli bozor narxi, deb har bir tovar bo'yicha ortiqchasi ham, kami ham bo'lmagan narxga aytiladi. U talab va taklifni qat'iy, ma'lum miqdordagi tovarning pul ekvivalenti sifatida talab va taklifni muvozanatlashtirish natijasida qaror topadi. Talab va taklif bozorning raqobatli muhiti ta'siri ostida muvozanatlashadi, natijada, sotilayotgan tovarning narxi va miqdori talab va taklifning muvozanati sifatida namayon bo'ladi. Boshqa xuddi shunday teng sharoitlarda narx xaridorlar sotib olmoqchi bo'lgan, sotuvchilar esa, sotishga rozi bo'lgan miqdorga mos tushadi.

**E**-kesishuv nuqtasi talab va taklif muvozanati nuqtasidir. Muvozanat jadvalida ko'rsatilishi bo'yicha bozorga keltirilgan har qanday ortiqcha tovar pastga, muvozanat nuqtasiga suriladi. Va aksincha, bozorda taqchilik sezilmasa, ko'taruvchi tamoyil vujudga keladi va u yetishmayotgan tovarlarni yuqoriga, muvozanat nuqtasi tomon «ko'taradi». Natijada, muvozanat narxi qaror topib, vaqtning har bir soniyasida, ushbu bozorda, shu narx bo'yicha  $Q$  tovarlar sotiladi. Undan keyingi vaqtlarda ham (kun, hafta, oy, yil davomida) bozor muvozanati yangicha ko'rinishda qaror topishi mumkin. Shu bilan birga,

muvozanat bozorining shunday holatiki,  $Q_d < Q_s$  bo‘ladi. Bu qodir kuchlarni harakatga keltiradi: taqchilikni ( $Q_d < Q_s$ ) yo‘q qiladi yoki bozorda ortiqcha tovarlar bo‘lishiga ( $Q_d < Q_s$ ) yo‘l qo‘ymaydi. Narx arzonligi taklif o‘shishini bir maromga keltirib, bozorni ortiqcha tavalardan xolos etishi bilan muvozatlashtiruvchi funksiyasini bajaradi. Agar talab oshsa, bozor narxining yangi, yuqoriroq darajasi qaror topadi, tabiiyki, tovarlarning yangi kattaroq hajmi taklif qilinadi. Va aksincha, talabning pasayishi muvozanat narxining pastroq darajasi va taklifning kamroq hajmi qaror topishiga olib keladi (16.6-chizma).



**16.6-chizma. a) o‘zgarayotgan talab va o‘zgarmas taklifning muvozanat darajasi; b) o‘zgarayotgan taklif, o‘zgarmas talabning muvozanat darajasi.**

**Narxning muvozanatlashtiruvchi funksiyasi.** Chizmadan ko‘rinib turibdiki, narxning muvozanatlashtiruvchi funksiyasi o‘z ta‘sirini taklif o‘zgarmagan holda ham, taklif orqali o‘zgarmagan holda ham o‘tkazmoqda. O‘zgarayotgan taklif va o‘zgarmagan talabda ham bozor muvozanatining boshqacha darajasi qaror topadi. Sotilayotgan tovarlar miqdori o‘shib borganda taklifning o‘shishi yangi, biroz pastroq muvozanatlashgan narx nuqtasini beradi. Taklif kamaygan hollarda esa, kam sonli sotilgan tovarlar bilan yanada yuqoriroq darajada muvozanat qaror tonadi.

Muvozanat – har bir raqobatli bozorga xos qonun bo‘lib, u butun iqtisodiy tizimni muvozanatda saqlash imkonini beradi.

**Muvozanatlashgan narxni hisoblash misoli.** 1997 yilda avtomobil texnika bozorida O‘zbekistanda ishlab chiqilgan avtomobillarning taklifi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lgan:  $Q_s = 20000 + 4, 2R$ , bu yerda,  $R$ -narxi bo‘lib, 1 avtomobil uchun mln. so‘m hisobida  $Q$ -taklif hajmi bo‘lib, yiliga

dona hisobida. O'sha 1997 yilda shu avtomobillar uchun talab quyidagicha bo'lgan;  $Q_d = 40000 - 4,7R$ .

O'zbekistonda ishlab chiqarilgan avtomobillarning muvozanatlashgan narxini, 1997 yilda shu tovarga bo'lgan taklif va talabni muvozanatlashtirib, qo'yish mumkin: ( $Q_s = Q_d$ ).

$20000 + 4,2R = 40000 - 4,7R$ : yoki  $8,9R + 20000$ . Bitta avtomobil uchun muvozanatlashgan bozor narxi **4,4** mln. so'm bo'ladi.

#### 16.4. Talab va taklif o'zgaruvchanligi. Savdo foydasi

Talab va taklifni baholash nafaqat nazariy ahamiyatga ega, uni bir dona tovar narxi 1% o'zgarishi natijasida sotuv hajmi necha foizga o'zgarganini aniqlash uchun ham qo'llaniladi. Bunday o'lchash uslubi sodda bo'lib, hisob quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

$$Er = \frac{\text{tovarlar sotuv hajmining o'zgarishi, \%}}{\text{narxning o'zgarishi, \%}}$$


Bu yerda, **Er** - talabning narxli o'zgaruvchanligi.

*Talab o'zgaruvchanligi variantlari.* Talabning tannarxga oid kamida beshta qayishqoq varianti: qachonki, narxning biroz pasayishi natijasida sotuv hajmi sezilarli ortsa, talab o'zgaruvchanlik bo'ladi;

Talab faqat o'zgaruvchan bo'lsa, narxning 1% li o'zgarishi natijasi sotuv 1% ga o'zgaradi;

Agar narxlar anchagina pasaysayu, sotuv hajmi sezilarli o'zgarmasa, talab o'zgarmaydi.

Talab cheksiz o'zgaruvchan bo'lsa, narx bo'yicha iste'molchilar tovarni sotib olaveradilar.



16.7-chizma. Talab o'zgaruvchanligi variantlari.

**A** egri chizig'i -o'zgaruvchan bo'lmagan talab, bunda narxning 1% ga tushishi natijasida sotuv 1% ga ham yetmaydi;

**V** egri chizig'i birgina o'zgaruvchanlik – bu narxning 1% ga oshuviga olib keldi; **S** egri chizig'i – o'zgaruvchan talab, chunki narxning 1% tushishi natijasida sotuv hajmi 1% dan ko'pga ortadi.


Talab mutlaqo o'zgarmas bo'lganida, iste'molchilar narxidan qat'iy nazar qayd etilgan miqdordagi tovarlarni sotib oladi. Talab o'zgaruvchanligining barcha variantlari o'zlarining o'zgaruvchan variantiga ega. O'zgaruvchan bo'lmagan talab koeffitsenti kamlav; birgina o'zgaruvchan koeffitsenti birga teng; o'zgaruvchan talabda koeffitsiyent birdan ortadi. Masalan, tovar narxining 100% oshishi, sotuvning 50% qisqarishiga olib kelsa, talab o'zgaruvchanligi 50% ga teng va uni 100% ga taqsimlab 0,5 koeffitsiyentga bo'lamiz. Matematik jihatdan bu koeffitsent «ayiruv» belgisiga ega, chunki narx va sotuv miqdori qarama-qarshi yo'nalishlarda o'zgarimoqda (o'zgaruvchilarning teskari bog'liqligi). Ammo o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti o'sgan savdo ko'rsatkichida o'zining real ifodasini topadi va «ayiruv» belgisi bu yerda qat'iy ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Birgina o'zgaruvchanlikda esa, koeffitsiyent birga teng bo'lganda narxning pasayishi shunday hajmdagi sotuv bilan qoplanadi, u savdo tushumini o'zgartirmaydi. Qayishqoqlik bo'lmagan talab holatida esa, narxning pasayishi sotuvning davrli, ahamiyatsiz ko'payishiga olib keladiki, umumiy savdo tushumi (tushum) pasayadi.

### **Taklifning o'zgavchanligi**

Qayishqoqlik tushunchasi tovarlar taklifiga nisbatan qo'llash mumkinmi? Ha, qo'llash mumkin. Taklifning o'zgaruvchanligi tushunchasi tovarlar narxi va ularning sotilayotgan miqdori nisbiyligini tavsiflaydi. Bu o'zgarishlar intensivligi ham turlicha va amaliyotda quyidagi vaziyatlarda sodir bo'lishi mumkin: o'zgaruvchan taklif; birgana o'zgaruvchan taklif; o'zgarmas taklif.

Taklifning narxga oid o'zgaruvchanligi iqtisodiy o'zgaruv o'rtasida narx va sotuvga taklif qilinayotgan tovar hajmining foizli o'zgarishini ko'rsatuvchi to'g'ri chizikli botiqlik sifatida namoyon bo'ladi. Bu bog'liqliklar jadvalda (16.8- chizma) tasvirlangan taklif o'zgaruvchan egri chiziqlarning holatini shart qilib qo'yadi.



**16.8-chizma. Taklif o'zgaruvchanligi variantlari: A egri chizig'i - birgina o'zgaruvchan. O'zgaruvchan taklif. O'zgaruvchan bo'lmagan taklif.**

Taklifning birgina o'zgaruvchanligida tovarlar narxining 1% ga oshishi ular taklifining ham 1% ga oshishiga olib keladi. Bu holda taklif qilinayotgan tovarlar narxi va miqdorining kattalikdagi o'zgarishi sodir bo'ladi va bunda uning koeffitsiyenti birga teng. Taklifning o'zgaruvchanlik holatida esa, narxning 1% ga oshishi sotuvga taklif qilinadigan tovar miqdorini 1% dan ortiq ko'paytirishga qodirdir. Bu yerda o'zgaruvchanlik koeffitsenti birdan ortiq.

O'zgaruvchan bo'lmagan taklifda narxning oshishi sotuvga taklif qilinadigan tovarlar miqdori, ta'sir o'tkazmaydi.

Taklifning cheksiz o'zgaruvchanligi holatini nazariy jihatdan nazarda tutish mumkin va bu jadvalda gorizontaal chiziq ko'rinishiga ega bo'lishi mumkin. Bu tovarning juda oz o'zgarishiga javoban uning miqdorini oshirishi mumkin, bu jadvalda yuqorida aytilganidek, gorizontaal chiziq ko'rinishiga ega bo'ladi.

### **16.5. Narxlarning bozor muvozanati buzilishlari**


Bozorda shakllangan narxlar muvozanati turli sabablarga ko'ra talab va taklif qonunlari harakatining aralashishi bilan tartibga solib turilishi mumkin. Ba'zi hollarda bunday tartibga soluvchi aralashishlar raqobatli narx tashkil qilish mexanizmini buzishga qodir, bunday buzilishlar ayrim hollardagina sodir bo'ladi.

**Sotuvga soliq solish.** Soliq - bozor tizimini tartibga solib turuvchi kuchlardan biri bo'lsada, bunday tartibga solish talab va taklif qonunlari bo'yicha muvozanatli narxni shakllantirish qonunlarini buzmaydi. To'g'ri, har

qanday soliq, u bilvosita va bevosita bo‘lishidan qat’iy nazar, sotilayotgan tovar narxiga kiritiladi. Talabning shakllangan holatida (soliq tufayli) narxning har qanday oshishi qimmatlashgan tovarlar sotib olishning qisqarish samarasini beradi. Ishlab chiqaruvchilar bunday vaziyatda tovar ishlab chiqarishni qisqartirish bilan javob beradilar, chunki talab pasayadi. Ko‘rinib turibdiki, talab va taklif qonunining buzilishi sodir bo‘lmadi, ammo soliq narxli muvozanat nuqtasini yanada yuqori darajaga ko‘tarish zaruriyatini tug‘dirdi.

Shakllangan talabda soliq solish taklif egri chizig‘ini chapga suradi, natijada, muvozanatli narx yanada yuqori darajada talab egri chizig‘i bilan kesishadi. Yangi nuqtada qaror topadi (16.9-chizmaga qarang).


Tovarlar narxi va ishlab chiqarish hajmi harakat yo‘nalishlari jadval o‘qlari bo‘ylab chiziq bilan ko‘rsatilgan. Soliqni bevosita ishlab chiqaruvchi yoki tovarni sotuvchi to‘laydi. Davlatga to‘lanadigan soliq kattaligi chizmada nuqtalangan uchastka qismiga teng. Bu sotuvchining savdo tushumidan va bir vaqtning o‘zida soliq solingan tovarlarni sotib oluvchi -iste‘molchilarning shaxsiy daromadlaridan chegirmadir. Ammo soliq solishning asosiy salbiy samarasi tovarlar ishlab chiqarilishining umumiy pasayishi natijasida bu tovarlar xaridorlarga yetib bormasligi, ularni iste‘mol qila olmasligidir.



**16.9-chizma. Soliq solish va bozor muvozanati.**

**Narxni nazorat qilish.** Narx ustidan bunday nazoratni davlat qonunlar asosida olib boradi. Lekin u talab va taklif qonunlari bo‘yicha narx tashkil qilish bozor mexanizmini buzuvchi aralash ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bunday

aralashish yoki narxlar ustidan nazoratni har qanday monopolistik tuzilma amalga oshirishga kodirdir. Narxlar ustidan har qanday nazorat bozor tizimini nafaqat yaxshilaydi balki vayron qiladi. Bunga markazlashgan rejali usul bilan majburiy narx qo'yiluvchi iqtisodiyotning ma'muriy-buyruqbozlik modeli misol bo'ladi. Bozorlarning xarob va barcha tovarlarning yoppasiga taqchil bo'lishi, narx tashkil qilishning shunday modeli oqibatidir. Bozor narxini tashkil qilishga davlat aralashuvi ko'pincha talab va taklif bozor muvozanati darajasidan past bo'lgan majburiy narxlarning o'rnatilishida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy muammolar: resurs yoki iste'mol ne'matlariga yetishishning cheklanganligi, daromadlardagi tengsizlik va boshqalar odatda, bunday aralashuvga sabab bo'lib xizmat qiladi. Ammo hali hech qachon yo'q muammolarning birontasi narx tashkil qilish mexanizmiga aralashish usuli bilan hal etilgan emas. Narx ustidan nazorat qilish oqibatlari turlicha bo'lishi mumkin, lekin ularning barchasi ayniksa, uzoq qo'llanilsa, odatda, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda salbiy samaraga ega bo'ladi. Bunday oqibatlar tovar kamyobligida, tovar yetishmovchiligi va kam ishlab chiqarishda namoyon bo'ladi. Hukumat rioya etishga harakat qilgan jamiyatning kambag'al qatlamlari muammosi shu yo'l bilan hal bo'lganmi, yo'q hal bo'lgan emas, chunki ishlab chiqarishning qisqarishi va kamyoblik xufyona bozorlarni vujudga keltiradi, u yerda kamyob tovarlar yanada yuqori narxlarda sotiladi, chunki ularga chayqov ham qo'yiladi. Ijtimoiy jihatdan himoyalangan fuqarolar soni esa ortadi. Narxlarni nazorat qilish ishlab chiqarishning qisqarishi, turli sohalarda xufyona iqtisodiyotning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Xufyona tuzilmalarning xususiyati shundaki, ular davlat solig'ini to'lamaydi. Demak, ular aholi va budjet tarmoqlari uchun ijtimoiy himoyaning real imkoniyatlarini qisqartiradilar, chunki davlatga soliq to'lamaydilar (16.10-chizmaga qarang). Narxlar muvozanati buzilishining tashqi, muqarrar oqibatlari, bu tovarlarga iste'molchilarning navbatda turishi, bosqinchilik va hokimiyat siyosatidan umumroziligidir. Yetishmaydigan kamyob tovarlar iste'molini normallashtirish, ratsionallashtirish ularni kartochkalar, talonlar bilan taqsimlash kabi choralar talab qilinadi. Chizmada (16.10-chizma) bozor narx mexanizmiga davlat nazorati va aralashuvining salbiy oqibatlari ko'rsatilgan.



**16.10-chizma. Narxlar ustidan nazorat va ularning samarasi.**

Narx tashkil qilish qonunlarining buzilishi avvalo, shuning uchun sodir bo‘ladiki, talab narxning past darajasi ular uchun o‘rnatilgan ijtimoiy himoyalangan guruhlar bilan cheklanib qolmadi. Asosiysi shundaki, majburiy «pasaytirilgan» talab majburiy past narxlar tufayli tovar ishlab chiqarish va taklif qilish tamoyillarining qisqarishiga olib keldi. Ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarish xarajatlarini qoplamaydigan narxlar bo‘yicha tovarlar ishlab chiqarish va bozorga yetkazishdan manfaatdor bo‘lmaydi. Buning oqibatida vujudga keladigan tovarlar kamyobligi iste‘molchi uchun nihoyatda ortiqcha bo‘ladi va kuchayib boruvchi ijtimoiy keskinlikka olib keladi.

### **Qisqacha xulosalar**

«Talab» atamasi iqtisodchilar uchun o‘ziga xos ma’noga ega. Talab grafik ko‘rinishida ifoda e‘tiladi, ma’lum vaqt ichida iste‘molchilar bir qancha belgilangan narxda sotib olish qobiliyatiga tayyor bo‘lgan mahsulotlar miqdorini ko‘rsatadilar. Talab bir qator muqobil (alternativ) imkoniyatlarni ifoda etadi, bularni jadval shaklida tasavvur etish mumkin. Bu yerda u mahsulotlar miqdorini ko‘rsatadi, unga har xil narxlar bo‘yicha talab qo‘yadi. Bizning ifodamizdan kelib chiqqan holda, talab odatda, narx-navoning foydaliligi tomonidan ko‘rib chiqiladi; boshqacha qilib aytganda, biz bilamizki, ya’ni talab iste‘molchilar har hil imkoniyatli narxlarda sotib oladigan mahsulotlar miqdorini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, har qanday talab qarshisida taklif turadi. Bu o‘z navbatida ishlab chiqaruvchilar har hil miqdorda mahsulot ishlab chiqarishni hamda bozorda foydali narxlarda



iste'molchilarga aniq ko'rsatilgan vaqtlarda sotish uchun taklif qilinadi. Shu bilan birga, taklif, qanday miqdorda sotish uchun har xil foydali narxlarda mahsulotlarni ko'rsatadi.

Shunday qilib, talab hajmi faqat iste'molchilarning fe'l-atvori bilan ifoda etiladi, o'sha vaqtda sotib olingan tovarlar hajmi esa, xaridorlarga ham, sotuvchilarga ham bir xil hajmda bo'ladi. Mahsulotlarga narx-navo talab va taklifning o'zaro harakati natijasida belgilandi.

### **Asosiy tushunchalar**

Talab.

Talab qonuni.

Taklif.

Taklif qonuni.

### **Seminar darslari uchun savollar**

1. Talab va taklifning iqtisodiy mohiyati nimada?
2. Talab va taklif egri chizig'ini chizing va ularga xarakteristika bering.
3. Bozor muvozanati nimada?
4. Talab va taklifning narxli egiluvchanligini tasavvur eting.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Daromadlar bo'yicha talabning egiluvchanligini tavsif etib bering.
2. Talab va taklif qisqa va uzoq muddatli davrlarda nima bilan xarakterlanadi?
3. Egiluvchanlik nazariyasining amaliyotda qo'llanilishi qanday?

## 17 BOB. RAQOBAT VA MONOPOLIYA

*“Monopoliya” so‘zi aynan yakka-yagona sotuvchi ma‘nosini bildiradi. Ammo bir qancha sotuvchi yakkayu-yagona sotuvchi bo‘ladimi, bu albatta biz qanchalik tor yoki keng ma‘noda mahsulotni aniqlashimizga bog‘liq. Yetarli darajada keng ma‘noda aniqlash bo‘yicha har bir mahsulotning sotuvchisi sanoqsiz ko‘pligi mavjuddir. Biroq yetarli tor ma‘noda har qanday sotuvchining mahsulotini aniqlash bo‘yicha boshqa sotuvchining mahsulotidan farqlanadi. Shu bilan birga barcha sotuvchilar ham monopolistlar bo‘ladi.*

*Pol Keyne*

### 17.1. «Raqobat» tushunchasining mazmun-mohiyati

Bozor xo‘jalik mexanizmi bozor iqtisodiyoti sub’ektlari iqtisodiy manfaatlar tizimining namoyish bo‘lish shaklidir. Har qanday iqtisodiy shakl kabi xo‘jalik mexanizmi ham o‘z mazmun-mohiyatiga ega.

Xo‘jalik mexanizmi–jamiyat iqtisodiy manfaatlari va qonunlarining tizim sifatida amalga oshirilishini ta‘minlovchi va uning yangi sifat asosida qayta-qayta doimiy ishlab chiqarilishiga xizmat qiluvchi iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy usullarning majmuidir.

Xo‘jalik mexanizmi–eng murakkab iqtisodiy kategoriyalardan biridir. U iqtisodiy kategoriyalarning butun tizimini ularning turli nisbatlari bilan o‘z ichiga oladi. Mehnat, chiqimlar, narx-navo, daromad, ish haqi, foiz, renta, kapital, pullar, soliq, kredit va hokazolar-mazkur kategoriyalarning barchasi, shu jumladan, bu yerda qayd etilmagan, ammo amalda jamiyatning iqtisodiy hayotida foydalaniladigan boshqa kategoriyalar ham u yoki bu holda xo‘jalik mexanizmi tarkibiga kiradi.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘zgarishlar, avvalambor, xo‘jalik yurituvchi sub’ekt sifatida, iqtisodiy munosabatlar va qonunlar tizimida kelishuvlarni ta‘minlashga da‘vat etilgan davlat tomonidan iqtisodiy kategoriyalar va qonunlardan foydalanish borasidagi iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy normalarning o‘zgartirilishi zaruratini keltirib chiqaradi. Boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar xo‘jalik mexanizmidagi o‘zgarishlarni o‘z faoliyatlarida inobatga olishga majburdirlar.

Har bir ijtimoiy-iqtisodiy tizimga o'z xo'jalik mexanizmi xos. Bu ishlab chiqarish vositalariga hukmronlik xarakteri bilan belgilanadi. Bu tipdagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar doirasida esa, mamlakatlar o'rtasidagi xo'jalik yuritish mexanizmlarining muhim o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lishi mumkin. Xo'jalik yuritishning sobiq sovet modeli uchun ko'rsatma davlat qonuni kuchiga ega bo'lgan rejali xo'jalik mexanizmida asosiy element edi. Narx-navo, ish haqi, tannarx soliqlar, foiz va davlat tomonidan belgilanuvchi boshqa jihatlari uning tarkibiy qismi edi.

Bozor iqtisodiyotidagi xususiy mulkchilik, erkinliklar, tashabbuskorlik va tadbirkorlik sharoitida esa, raqobat xo'jalik mexanizmining asosiy elementi hisoblanadi. U ijtimoiy ishlab chiqarish barcha qatnashchilarining xatti-harakatlari, ehtiyoj, taklif, narx-navo, ishlab chiqarish sarf-harajatlari va hokazolar orqali muvofiqlashtirilishini ta'minlaydi.

Raqobat (lotincha *soncurrere*—birga yugurish, bellashish) bozor xo'jaligi sharoitida iqtisodiy munosabatlarning ifodasi hisoblanadi. U ishlab chiqarish omillarining rivojlanish shaklini yoki jamiyatning iqtisodiy resurslarini o'zida aks ettiradi. Raqobat munosabatlari bozor iqtisodiyotining barcha sub'ektlari (uy xo'jaliklari, firmalar va davlat) o'rtasida, talab va taklif agentlari o'rtasida, ne'matlarni (tovarlarni va xizmatlarni) iste'mol qiluvchilar bilan ishlab chiqaruvchilar o'rtasida vujudga keladi. Mazkur munosabatlar iqtisodiy hayotning asosiy sohalari: ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va ta'minotning ich-ichiga kirib boradi. Ular muhim, o'ziga xos «birlashtiruvchi to'qima» rolini bajaradilar, ularning mavjudligi tufayli bozor iqtisodiyoti murakkab va ko'p bo'g'inli tizim sifatida faoliyat yuritadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda «Raqobat» kategoriyasiga juda ko'p ta'riflar beriladi.

Klassik siyosiy iqtisodiyot ta'riflari bo'yicha raqobat bu daromad olish uchun musobaqalashish demakdir. Ammo ana shu musobaqa ob'ektining o'zi uni kurashga, turli-tuman, ba'zan juda qaltis shakl va usullarni qabul qiluvchi kurashga aylantiradi. Bu—ijtimoiy ishlab chiqarishda iqtisodiy hayot kechirish uchun kurashdir.

Xaridorning hamyoni uchun kurash va raqobatning boshqa soddamaishiy ta'riflari bilan bir qatorda, iqtisodiy adabiyotlarda uning iqtisodiy faoliyat natijalarini taqqoslashga doir xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi iqtisodiy mazmunga ega ta'riflari, bozor iqtisodiyotining ob'ektiv amal qiluvchi qonunlarini amalga oshirishning majburiy shakli ham keltiriladi.

Raqobat tushunchasi ta'riflarining ko'pligi ana shu kategoriyaning murakkabligini va serqirraligini aks ettiradi. Eng muhim bir narsani ta'kidlab

o'tish zarur: raqobatsiz bozor xo'jalik yuritish sub'ektlariga iqtisodiy tazyiqni o'tkaza olmaydi.

Bozor raqobati – bu ob'ektiv zaruriy muhit bo'lib, bozor iqtisodiyotining tizim sifatida maromida o'z-o'zini rivojlantirib borishini ta'minlaydi. Talab va taklifning ta'siri ostida shakllanib boruvchi bozordagi narx-navo ko'p sonli omillar va mexanizmlarning o'zaro ta'siri natijasi hisoblanadi, unda provard natijada raqobat kurashidagi muvaffaqiyatlar va muvaffaqiyatsizliklar ro'y beradi. U bozorga yetib bormasdan turib ko'p sonli omillar ta'siri ostida shakllanadi, ammo bozorda unga tuzatishlar kiritiladi.

Sub'ektlarning har biri bozorda o'z iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib faoliyat yuritadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hech narsa bilan tizginlanmagan shaxsiy g'arazli manfaatlarini bozor xo'jaligining maromida faoliyat ko'rsatishiga to'sqinlik qilishi, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin. Voqealarning ko'ngilsiz rivojlanishi yo'lida asosiy to'siq bo'lib raqobat yotadi. Raqobat sharoitida bir sub'ektning ko'proq foyda olishdek intilishiga duch keladi. Raqobat kurashida g'alabaga erishish uchun mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan sarf-xarajatlarni kamaytirish, narxini arzonlashtirish, uning sifatini yaxshilash, iste'molchilarning talablariga javob beradigan tovarlarni ishlab chiqarish va hokazolar ro'y beradi. Boshqacha qilib aytganda, raqobat tadbirkor xudbinligiga qarshi turuvchi qo'shimcha to'siq sifatida namoyon bo'ladi. U tadbirkorning xo'jalik faoliyatini butun jamiyat manfaatlariga yo'naltiriladi.

A. Smit qiymatning mehnat nazariyasini ishlab chiqdi, unga ko'ra tovarni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat ayriboshlash qiymatining haqiqiy o'lchovi sifatida namoyon bo'ladi. A.Smitning eng buyuk xizmati shundaki, u mehnat sarfi bilan belgilanuvchi bozor narxidan ajratdi. Aynan bozor narxining tannarxdan farqi raqobat kurashidagi muvaffaqiyat va omadsizliklarni, pirovard natijasida bozor munosabatlari agentlarining taqdirini belgilaydi. A.Smit mazkur mexanizmi juda tushunarli izohlaydi. U shunday deb yozadi: «Har qanday tovarning bozor narxi kamdan-kam hollarda tabiiy narxidan uzoq vaqt past darajada turadi, vaholanki, u uzoq vaqt nisbatan yuqori darajada saqlanib turishi mumkin. Uning qaysi qismi bir qismi o'z tabiiy me'yoridan past darajada qoplanmasin, manfaati bundan shikast ko'rgan shaxslar zarar ko'rayotganliklarini darhol his etadilar va shu zahoti ana shu tovarni ishlab chiqarishga ketadigan mehnat va kapitaldan xulosa chiqaradilar, bozorga yetkazib berilayotgan tovarning miqdori unga bo'lgan haqiqiy talabni qondirish uchungina yetarli bo'lib qoladi. Har holda to'la erkinlik mavjud bo'lgan taqdirda shunday bo'ladi».

Raqobatning chinakam bozor mexanizmi D.Rikardo va klassik yo‘nalishning boshqa iqtisodchilari tomonidan yanada to‘laroq va izchillik bilan rivojlantirilgan.

Raqobatning vujudga kelish sabablari ochib berilar ekan, har qanday iqtisodiy holatning o‘rganilishi uch xil: 1) sabab-oqibatli; 2) vazifali; 3) tizimli yondashuvlarga tayanilishi kerak.

Sabab-oqibatli yondashuv doirasida, jarayonlarning «birlamchi» va «ikkilamchi» ligi aniqlanayotgan bir paytda shu narsa ma’lum bo‘ladiki, tarixan raqobat mehnatning ijtimoiy taqsimoti va xususiy mulkchilik tufayli vujudga keladi, ular pirovard natijada bozor orqali xo‘jalik yurituvchi va bir-biri iqtisodiy mustaqil sub’ektlarning umumiy aloqasi tarkib topishiga olib keladi. Mazkur sub’ektlar o‘zaro aloqasining tabiati bevosita ochib beriladigan vazifali yondashuv asosida raqobat munosabatlari insoniyat jamiyati iqtisodiy hayotining rivojlanish yo‘lidagi oldindan ko‘ra bilingan qandaydir «ofat» emasligi, uning asosiy, ob’ektiv qonunlaridan biri ekanligi ochib beriladi. Va nihoyat, tizimli yondashuv raqobatni bozor munosabatlarining yaxlit tizimini tashkil etuvchi zarur usullardan biri, deb tariflash imkonini beradi.

Raqobat munosabatlarining ob’ektiv tabiati ta’kidlab o‘tilar ekan, ularning sub’ektiv jihatlarini ham unutmashlik kerak.

Iqtisodiyot fani boylikni samarali ko‘paytirib borish va insoniyat farovonligi asoslarini vujudga keltirishning muhim tamoyillarini tadqiq etar ekan, bozor sharoitlarida xo‘jalik yuritayotgan shaxsni tadqiq etishni ham uzviy ravishda o‘z ichiga oladi.

Ayni vaqtda shu narsa ayonki, ongli odamga (shu bilan birga, iqtisod bilan shug‘ullanuvchi odamga ham) turish-turmushning turli sohalarida kurashish, musobaqalashish va tadbirkorlikka moyillik kabi yaxshi fazilatlar xos. Shu o‘rinda gap hayot uchun qonli kurash xususida emas, shunchaki o‘z ichki qobiliyatlarini aniqlash va amalga oshirish yordamida o‘zini himoya qilishdek tabiiy fazilat xususida bormoqda. Bu ma’lum va mashhur «hammadan qobiliyatiga ko‘ra» tamoyiliga ishora bo‘lib, unga faqat ana shu qobiliyatlar oldindan teng emas va ana shu qobiliyat egalari o‘rtasida kurash bo‘lishi zarur, deb tuzatish kiritiladi.

Raqobatning paydo bo‘lish va rivojlanish omillari qatoridan tug‘ma raqobatchilik tuyg‘usi xos bo‘lgan insonning ichki tabiatini soqit qilib bo‘lmaydi. Bu tuyg‘u dastavval go‘daklikda paydo bo‘lib, insonning butun ongli hayoti davomida bilimlarni, qobiliyatni rivojlantirish omili bo‘lib, insonning muntazam takomillashib borishga da’vat etadi.

Ishdagi raqobat kurash tushunchasini – bozor sub’ektlari o‘rtasida ishlab chiqarishning va tovarlarni realizatsiya qilishning yanada foydali va iqtisodiy

optimal natijalari uchun, ayirboshlanayotgan ne'matlarning va iste'molchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati uchun, mehnatning ana shu ne'matlarda mujassam bo'lgan jamiyat e'tirofi uchun kurash tushunchasini ham doimo o'z ichiga olib kelgan. Va shunday bo'lib qolmoqda. O'tmishda uni bejiz «hammaning hammaga qarshi kurashi», deb atashmagan, ba'zan ana shunga tayanib uning favqulodda «yomon» tabiati, buzg'unchilik xarakteri haqida xulosa chiqarilgan.

Shak-shubhasiz, raqobatni (bozorning o'zini ham) ideallashtirish kerak emas. Jahon xo'jalik yuritish amaliyoti va jahon iqtisodiy fikri yutuqlariga asoslanib bozordagi raqobat munosabatlarining ijobiy va salbiy jihatlarini hushyorlik bilan baholashga urinish bilan bir qatorda, raqobat «hammaning hammaga qarshi kurashidan o'ziga xos hammaning barchaning manfaati yo'lidagi kurashi» ga o'sib o'tishga qodirmi, degan savolni ko'ndalang qo'yishi ortiqcha bo'lmasa kerak.

## **17.2. Raqobatning vazifalari**

Raqobatning mazmun-mohiyati uning vazifalarini tahlil qilish asnosida to'laroq ochiladi.

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida raqobatning olti asosiy vazifasini ajratib ko'rsatish mumkin: 1) tartibga solish; 2) allokatsion; 3) innovatsiyali; 4) ko'nikish; 5) taqsimlash; 6) nazorat qilish vazifalari shular jumlasidandir.

Tartibga solish vazifasi raqobatning ishlab chiqarishni talabga (iste'molga) eng maqbul darajada moslashtirish maqsadida taklifga va uning ortida yashiringan ne'matlarni ishlab chiqarishga ta'sir o'tkazishidan iborat. Aynan ana shu vazifa yordamida taklifni talab bilan belgilashdek ilg'or tamoyil (keyinchalik ishlab chiqarishni individual va ijtimoiy talablar bilan aniqlash) bozorning barcha ziddiyatlari orqali o'ziga yo'l ochib boradi. Pirovard oqibatda bu yerda gap hali hamon har qadamda uchrab turgan «ishlab chiqaruvchining suvereniteti» o'rniga rosmana «iste'molchi suvereniteti» ni vujudga keltirish haqida bormoqda. Sotib olishingiz mumkin bo'lgan narsalarnigina ishlab chiqaring, ishlab chiqara olgan narsalaringizni sotishga urinmang, degan tamoyil ana shu vazifaning shioridir.

Raqobatning allokatsion, boshqacha qilib aytganda joylashtirish (inglizcha allocation–joylashtirish so'zidan) vazifasi ishlab chiqarish omillarining o'zini (birinchi navbatda mehnatni, yerni va kapitalni) joylarda (xo'jalik tashkilotlarida va mintaqalarda) samarali joylashtirishda ifodalanadi, o'sha yerda ularning qo'llanilishi eng yuqori samara beradi.

Raqobatning innovatsion vazifasi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanadigan va bozor iqtisodiyoti sub'ektlarining amalda bir tekis

rivojlanishini belgilovchi yangiliklarning (yangiliklarni joriy etishning) turli ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi.

Ko‘nikish vazifasi korxonalarni (firmalarni) ichki va tashqi muhit shart-sharoitlariga ratsional moslashtirishga qaratilgan. Bu ularga oddiy o‘z-o‘zini himoya qilishdan (iqtisodiy mustaqillikdan) xo‘jalik faoliyati sohaslarini kengaytirishga o‘tish imkonini beradi.

Raqobatning taqsimotchilik vazifasi ishlab chiqarilgan jami ne‘matlarning (yalpi milliy mahsulotning) iste‘molchilar o‘rtasida taqsimlanishiga bevosita va bilvosita ta’sir o‘tkazadi.

Va nihoyat, raqobatning nazorat qiluvchi vazifasi bozorning bir agentlari boshqalarining ustidan monopolistik zug‘um o‘rnatishlariga yo‘l qo‘ymaslikka da’vat etilgan.

Sanab o‘tilgan, organik uyg‘unlikda olingan vazifalarning yig‘indisi bozor iqtisodiyoti faoliyatining umumiy samaradorligini (yaxshiroq yoki yomonroq) ta’minlashni, aynan raqobatning tartibi va mexanizmi bozorning o‘z-o‘zini boshqaruvchi va o‘z-o‘zini to‘g‘rilovchi tizim sifatida rivojlanishini belgilab berishini tushunish og‘ir emas.

Raqobat vazifalarining ko‘p jihatdan bozor vazifalariga o‘xshab ketishini payqash qiyinmas. Buni tushunsa bo‘ladi: chunki raqobat bozor va bozor iqtisodiyotining mazmun-mohiyatini ifodalaydi.

Vazifalarning ilg‘or ta’sirini va raqobat kurashidagi muvaffaqiyatni omillar butun bir tizimning o‘zaro hamkorligini ta’minlaydi. Raqobat omillarining eng muhim va aniq tizimi amerikalik tadqiqotchi M.Porter tomonidan ko‘rib chiqilgan. Jahon bozor iqtisodiyotining rivojlanish tajribalarini umumlashtirish muallifga bozor raqobatida iqtisodiy muvaffaqiyatni ta’minlaydigan bir qator asosiy omillarni ajratib ko‘rsatish imkonini berdi.

*Birinchi*dan, bu mazkur tarmoqda raqobatchilikni saqlab turish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit omillarining: yetarli darajadagi kapital, infratuzilmaning rivojlanganligi, malakali xodimlar, texnologiya, axborot va hokazolarning mavjudligi.

Shu o‘rinda ishlab chiqarish u yoki bu omillarining shunchaki mavjudligi yoki mavjud emasligimas, ularning xususiyati va sur’ati, foydalanish samaradorligi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bazaviy omillar (transport, ishchi kuchi, asosiy fondlar) ning o‘zigina emas, nisbatan zamonaviy va ixtisoslashgan omillar: maxsus malaka, ilmiy imkoniyatlar, muayyan faoliyat sohasidagi yutuqlar ham katta ahamiyatga ega. Masalan, 50-yillarning boshida Yaponiya aholi jon boshiga hisoblaganda boshqa mamlakatlarga qaraganda, ko‘proq muhandislarga ega edi. Bu sanoatdagi past ish haqiga nisbatan

raqobatga ko‘proq hissa qo‘shdi. Amerika voqeligidan shunga o‘xshash yana bir misol: amerikalik dasturchilar va informatika sohasidagi mutaxassislarning yuksak darajadagi malakasi ana shu tarmoqning rivojlanishigagina emas, boshqa bir qator tarmoqlarning axborotlar bilan ta‘minlanishiga va texnik darajasiga ta‘sir o‘tkazdi. Ishlab chiqarish omillariga imtiyozga ega bo‘lishning o‘zigina yetarli emas, ularning yuksak standartini muntazam saqlab turish va yaxshilab borish zarur.

*Ikkinchidan*, ichki talab shart-sharoitlari: talabning hajmi va tarkibi, farovonlik darajasi, uni oshirish imkoniyatlari (daromadlarni ko‘paytirish, ehtiyoj tarkibini o‘zgartirish, talabni internatsionallashtirish va hokazolar) muhim. Bu holda ichki talab xorijiy firmalar uchun emas o‘z firmalari faoliyati uchun ularga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratayotgan, xorijiy firmalar muvaffaqiyatga erishishi qiyinchiliklar tug‘dirayotgan mamlakatlar yutadi.

*Uchinchidan*, turdosh va xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar: bularning har biri raqobatga bardoshli bo‘lishi va asosiy tarmoqlar bilan bir tizimda raqobatda yutib chiqishga xizmat qilishi kerak. Masalan, Germaniyada kimyo va siyoh ishlab chiqarish; Italiyada ko‘nchilik va poyafzal ishlab chiqarish; AQSh da elektron-o‘lchov texnikasi va tibbiyot apparaturalari shular jumlasidandir.

*To‘rtinchidan*, firmalar strategiyasi va tarkibiy tuzilishi, shuningdek, ular o‘rtasidagi raqobatning xususiyati. Bozor iqtisodiyotidagi raqobatning asosiy sub’ekti firma hisoblanadi. Shu o‘rinda mulkchilik munosabatlarini tashkil etish va boshqarishning, tadbirkorlik madaniyatining tarixiy hamda milliy xususiyatlarini inobatga olish muhimdir.

*Beshinchidan*, tasodifning roli, kutilmaganda vujudga kelgan imkoniyat. Bu holda muayyan qonuniyat amal qiladi: kutilmaganda vujudga kelgan imkoniyatdan yuqorida bayon etilgan, raqobat kurashida muvaffaqiyatni ta‘minlaydigan to‘rt omilning qulay tizimiga ega bo‘lgan firmalar va mamlakatlar raqobat kurashida g‘olib chiqish uchun boshqalarga nisbatan yaxshiroq foydalanadilar.

*Oltinchidan*, davlat raqobatda ko‘makchi rolini o‘ynaydi. Davlat siyosati qanchalik yaxshi bo‘lmasin, agar u raqobatbardoshlikning birdan-bir manbai bo‘lib xizmat qilsa, muvaffaqiyatni ta‘minlay olmaydi. Agar raqobatchilik kurashida muvaffaqiyat qozonish uchun boshqa imkoniyatlar mavjud bo‘lsa, davlat esa, ularning ahamiyatini kuchaytirib borsa, davlatning roli muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Ushbu omillarning hammasi butun bir tizimni tashkil etadi. Ularning tanqidiy tahlili raqobat kurashida nega birovlar peshqadamlik qilishi, boshqalar muvaffaqiyatsizlikka uchrashi sabablarini tushunish imkonini beradi.



### 17.3. Raqobat va monopoliya

«Monopoliya» atamasi bozor tufayli kelib chiqqani ravshan (u yunoncha «monos» -birgina, yolg'iz va «pole» -sotaman so'zlaridan tarkib topgan) hatto Arastuning o'zi mashhur «Siyosat», deb nomlangan asarida iqtisodiy qarashlar zamiriga asos qo'yar ekan, monopoliyani «boylik orttirish san'ati» ning amaliy ko'rinishlaridan biri qatoriga kiritadi.

Monopoliya va raqobat bir-biriga zid birlikni tashkil etadi. Bu birlik shundan iboratki, har qanday tovar ishlab chiqaruvchi uchun mahsulot ishlab chiqarishga bo'lgan monopoliya maqsadga erishish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Eng yuqori daromad olish uchun tovarning narxini oshirish kerak. Bunga esa ishlab chiqaruvchi tovarni ishlab chiqarish va sotishda monopolist mavqega ega bo'lgan taqdirdagina erishish mumkin.

Monopoliya raqobat kurashining ichki, zaruriy, muhim xususiyati hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi har qanday sub'ektning bozordagi monopolistik mavqei boshqa sub'ektlar tomonidan qarama-qarshilik ko'rsatilmagan holda o'z xudbin manfaatlarini amalga oshirishini ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyoti amaliyotini umumlashtirish monopoliyaning ikki tomonini: ichki va tashqi tomonlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

**Tashqi monopoliya** - narx-navoni tashkil etish jarayoniga sezilarli ta'sir o'tkazish qobiliyati evaziga qarshi agentlarga iqtisodiy munosabatlarning alohida shart-sharoitlarini tiqishtirish imkoniyatiga ega bo'lish demakdir.

Bu tovar ishlab chiqaruvchi ega bo'lishga intiladigan, ammo oshkora bo'lgani sababli ta'qiqlanishi mumkin bo'lgan monopoliyadir. Tashqi monopoliya tovar ishlab chiqaruvchining iqtisodiy-huquqiy maqomini ta'riflaydi.

O'z maqsadiga erishish uchun tovar ishlab chiqaruvchida boshqa yo'l ham bor. Ilg'or texnologiyalardan foydalanish hisobiga tovarga ketadigan individual sarf-xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish yo'li bilan uning narxini arzonlashtirish hamda tovar ishlab chiqarishga ketgan ijtimoiy va individual sarf-xarajatlarning o'rtasidagi farq sifatida ko'proq daromad olish mumkin. Ayni vaqtda tadbirkor sarf-xarajatlarning past darajasiga yagona egalik qilishga, bunday ahvolni iloji boricha uzoq vaqt saqlab qolishga intiladi.

Mana shu texnologiyani yoki boshqa har qanday yashirin imtiyozlarni qo'llanishga bo'lgan ichki (boshqa tadbirkor uchun ko'rinmas) monopoliya raqobat kurashining va daromadning monopolistik foydasiga qayta taqsimlanishining vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Monopoliya musobaqani inkor etadi. Bunday vaziyat ishlab chiqarish omillarini yangilashga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotni arzonlashtirish va sifatini yaxshilashga rag'batni susaytiradi.

Raqobatning davomi bo'lgani holda monopoliyalarni shakllantirish tamoyili o'zi bilan ijobiy jihatlarni ham olib boradi. Ular turli xil yangiliklardan foydalanish hisobiga ishlab chiqarishning individual sarf-xarajatlarini kamaytirishga asoslangan ichki monopoliyani rivojlantirishda ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarish ko'lamlarining oshib borishini monopoliyaning ijobiy jihatlari sirasiga kiritisa bo'ladi. Bu monopolist firmaga ishlab chiqarish ko'laminin iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi, mavjud resurslardan foydalanilgan holda ko'proq mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Yirik monopolistik birlashmalarning afzalliklari oddiy firmalarning qo'li yetmaydigan qimmatbaho fan-texnika yutuqlaridan kengroq foydalanish imkoniyatlarida namoyon bo'ladi.

Sobiq ittifoqdagi monopolistik birlashmalarning mohiyati va shakllanishi bozor an'analari ko'p vaqtdan beri amal qilayotgan mamlakatlarda tarkib topayotgan monopolistik munosabatlardan farq qilardi.

Sobiq ittifoqda monopoliyalar iqtisodiyotni yalpi davlatlashtirish va unga xos bo'lgan boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi natijasida vujudga keldi. Sovet iqtisodiyotini monopoliyalashtirish jarayoni ishlab chiqaruvchilarning mahkamachilik manfaatlarini ma'muriy tizim manfaatlari bilan birlashtirish zamirida kechgan. Mamlakatdagi ishlab chiqarishning yuksak darajada markazlashuvi bozor tabiiy kuchlarining va tadbirkorlar raqobat kurashining ta'siri natijasi emas, davlat iqtisodiy siyosatining oqibati bo'lgan.

Ishlab chiqaruvchi sovet sharoitida, shu xildagi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi boshqa korxonalar faoliyat ko'rsatgan hollarda ham monopolistik bo'lib qolar edi. Bu ishlab chiqaruvchi va iste'molchi yuqoridan beriladigan ko'rsatmalar asosida bir-biriga biriktirib qo'yilganligi bilan izohlanadi. Rossiyadagi monopolistik munosabatlarning o'ziga xos jihatlarni idrok etish aksimonopolistik boshqaruv mexanizmini va raqobat muhitini shakllantirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanib, iqtisodiy munosabatlar murakkablashib borgan sayin, xom ashyoni sotib olish va ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishning eng qulay shart-sharoitlari uchun raqobat kurashi kuchayib boradi. Bu hozirgi zamon bozorida sotuvchi va xaridorlarning monopolistik mavqega erishish tamoyili kuchayib borayotganligini izohlaydi. Unga bozor iqtisodiyoti boshqa sub'ektlarining qarshi agent monopoliyasini barbod etish va o'z

monopoliyasini o'rnatish yo'li bilan shaxsiy imtiyozlarini amalga oshirishga bo'lgan intilishi qarama-qarshi turadi.

Shu munosabat bilan hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti raqobat munosabatlarining monopoliyalashtirish jarayonlariga chirmashib ketishi va mukammal bo'lmagan raqobat, deb atalmish yangi ko'rinishlari paydo bo'lishi bilan ta'riflanadi.

#### **17.4. Hozirgi zamon raqobat kurashining asosiy ko'rinishlari**

Raqobatning rang-barang turli-tuman ko'rinishlari ikir-chikirlariga kirib bormagani holda, iqtisodiyot nazariyasi raqobatni mukammal va mukammal bo'lmagan raqobatga taqsimlaydi.

Mukammal raqobat ko'rib chiqilar ekan, shuni ta'kidlash kerakki, uning mavhum, sof nazariy model ekanligini, xo'jalik yuritishning real amaliyotida hech qachon mavjud bo'lmaganligini ta'kidlash zarur. Ammo mazkur ilmiy abstraksiya aslida faoliyat ko'rsatayotgan mukammal bo'lmagan raqobat mexanizmini izohlash uchun, shubhasiz, zarurdir.

Mukammal raqobat erkin (mukammal) bozorning ajralmas unsuri bo'lib, to'la-to'kis mavhum konstruksiya hisoblanadi. Raqobatning mazkur ko'rinishi quyidagi oltita asosiy shart-sharoitlar (belgilar) mavjud bo'lishini nazarda tutadi: 1) har bir iqtisodiy sub'ektning nihoyatda oz bozor kvotasi holida sotuvchilar (polipoliya) va xaridorlarining g'oyatda ko'p sonligidan iborat bo'lgan bozorning to'liq atomizatsiyasi; 2) har bir agentning butun bozorning ahvoli (avvalombor, narx-navolar) haqidagi axborotni olishidan iborat bo'lgan bozorning mutlaq oydin-ravshanligi (transparantligi); 3) alohida olingan har bir bozor sub'ektining bozor o'yinlari qoidalaridan u yoki bu afzalliklar va imtiyozlarni istisno qilish vaqtida boshqalarning qaroriga ta'sir o'tkaza olmasligi; 4) ishlab chiqarish barcha omillarining to'la safarbarligi (ko'chirish imkoniyati); 5) realizatsiya qilinayotgan tovarlar va xizmatlarning to'la-to'kis bir xildagi (gomogenligi).

Shu munosabat bilan chet ellardagi ilmiy taqiqotlar sohasidagi ishlanmalar mamlakat iqtisodchilarida jiddiy ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi.

#### **17.5. Jahon iqtisodiy hamjamiyati raqobat va bardoshlilik muammolari**

20 yildan beri faoliyat ko'rsatib kelayotgan tadqiqotlar va noshirlik loyihasi o'zining 1997 yilgi sharhida mamlakatning raqobat qobiliyatini «doimiy narxlarda aholi jon boshiga hisoblaganda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari bilan o'lchanadigan aholi jon boshiga real daromadning yuksak o'sish sur'atini saqlab turish qobiliyati», deb ta'riflaydi.

Raqobat qobiliyatini baholash uchun uning alohida nisbatan tor ko'rsatkichlaridan (valyuta kurslari dinamikasi, ish haqi salmog'ining nisbiy darajasi, to'lov balansining ahvoli) foydalanuvchi boshqa tadqiqotchilardan farqli ravishda, jahon iqtisodiy anjumani loyihasining rahbarlari, ular qabul qilgan nisbatan kengroq umumiy yondashuv iqtisodiy o'sishining chuqur omillarini aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi, bu turli xil hukumat va korporativ samaradorligini baholash, ularning raqobat qobiliyati mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga haqiqiy ta'sirini ko'rsata bilish imkonini beradi, deb isbotlaydilar.

Har bir mamlakatning raqobat qobiliyati indeksi mamlakat raqobat qobiliyati darajasini aniqlaydigan va bir vaqtning o'zida uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga eng ko'p ta'sir o'tkazadigan sakkiz asosiy omilni ifodalovchi sakkiz yordamchi indeks ichidan saralab olishga o'rtacha ko'rsatkich sifatida hisoblab chiqiladi. 1) oshkoralik; 2) moliya; 3) raqobat texnologiyasi; 4) infratuzilma; 5) menejment; 6) mehnat; 7) instrukt shular jumlasidandir.

Sakkiz omilning oxirgisi mamlakatlarni huquqiy va iqtisodiy institutlari, shu jumladan, qonunlar ijrosi kafolati va huquqlarining himoya qilinishi darajasi bo'yicha bir-biriga aytib o'tilgan omillarning har biri, o'z navbatida, tegishli sohalarda ahvolni tavsiflovchi ko'p sonli ko'rsatkichlarni umumlashtirish, masalan, «texnologiya» omili alohida olingan 29 ko'rsatkichni, «ishqora» 22-ko'rsatkichni hisobga oladi va hokazo.

Yig'ma indeks bo'yicha Rossiyaning raqobat qobiliyati 1997 yilda tadqiq etilgan 53 mamlakat ro'yxatida eng oxirgi o'rinni egallagan omil va unga tegishli yordamchi indekslar nuqtai nazaridan olganda O'zbekiston so'nggi o'rinlardan birini (49-52) egallaydi. Faqat «Mehnat» omili bo'yicha O'zbekiston 36 o'rinni egalladi, bu ishchi kuchi tashkil etilishi nisbatan yuqori darajani, tadbirkorlar nuqtai nazaridan mehnat haqidagi qonunlarning qulayligini, unda xodimlarning darajasiga ta'sir o'tkazishning real dastaklari yo'qligini aks ettiradi.

Raqobatning yig'ma indeksi bo'yicha O'zbekistonga berilgan past baho mamlakat boshdan kechirayotgan chuqur tanazzulni aks ettiradi. Qariyb 1990 yil davomida O'zbekistonning ijtimoiy - iqtisodiy o'sish sur'atlari oshmay pasayib borganligi, bozor o'zgarishlarining so'nggi 10 yilligi mobaynida mamlakatda milliy daromadni ishlab chiqarish teng yarmiga kamaygani inobatga olinadigan bo'lsa, jahon iqtisodiy anjumanining O'zbekiston iqtisodiyotining raqobat qobiliyati tadqiq etilgan, jahon ishlab chiqarishining 95 foizidan ko'prog'i, ulushiga to'g'ri kelgan o'z mamlakat ichidan nihoyatda past baho berilgan xulosalarga e'tiroz bildirishi adolatdan bo'lmaydi.

Bundan tashqari jahon iqtisodiy anjumani mamlakat raqobat qobiliyati darajasini aniqlash uchun foydalangan iqtisodiy ko'rsatkichidan alohida firmaning raqobat qobiliyatini yakuniy miqdoriy baholash uchun ham to'la qo'llansa bo'ladi. Agarda firma raqobatga layoqatli bo'lsa, bu demak, u texnologiyalardan foydalanadi, o'z xodimlari kasb malakasi o'sishiga yordam beradi, ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytiradi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilab bormoq nisbatan yuqori darajada o'z ishlab chiqarishiga investitsiyalarini ko'paytirish imkonini beruvchi daromad oladi va hokazo.

Iqtisodiy o'sishning turg'un sur'atlari, ichki bozordagi mustahkam mavqe va o'z mahsuloti bilan tashqi bozorga chiqishning chinakam imkoniyatlari uning raqobat qobiliyati pirovard natijasi bo'ladi. Rossiyaning jahon bozoridagi raqobat qobiliyati darajasining oshishi milliy iqtisodiyot ochiqligi to'g'risidagi masalani, demak, raqobat bilan iqtisodiyotning tashqi dunyoga ochiqligi o'rtasidagi nisbat muammolarini hal etish masalasini o'rtaga qo'yadi.

Mazkur sharoitlarda davlat ikki nihoyatda murakkab vazifani:

1) raqobatni rivojlantirish, ichki bozorda barcha tovar ishlab chiqaruvchilar uchun teng raqobat imkoniyatlarini vujudga keltirish va qo'llab-quvvatlash;

2) tashqi bozorda milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash vazifalarini muntazam hal etib borishga da'vat etiladi. Milliy manfaatlardan kelib chiqadigan va ayni vaqtda bozor xo'jaligini rivojlantirishda jahon tamoyillari inobatga olingan davlat raqobat siyosatining eng maqbul modelini aniqlash muhim amaliy ahamiyatga ega.

Shunday qilib, raqobat qobiliyati g'oyatda murakkab, ko'p omilli, tizimli tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakat darajasida ham, alohida firma darajasida ham raqobat qobiliyatiga erishish atroflicha o'ylab chiqilgan, muntazam yangilab boriladigan aniq maqsadga qaratilgan siyosatning natijasi hisoblanadi.

Umuman, bozor munosabatlari sharoitida, ayniqsa, o'tish davri iqtisodiyotida davlat ham ichki bozorda, ham tashqi bozorda o'z tovar ishlab chiqaruvchilarining raqobat qobiliyatini saqlab turish maqsadida muntazam rivojlanib borishini ta'minlovchi bosh raqobat muhitini shakillantiruvchi sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi.

### **17.6. Monopoliyaga qarshi siyosat va monopoliyaga qarshi boshqaruvning iqtisodiy mazmuni va xususiyatlari.**

Monopoliyalarni tashkil etish tamoyili bozor munosabatlari sharoitida raqobat kurashining qonuniy oqibati sifatida namoyon bo'ladi. XIX – XX

asrlar chegarasida erkin raqobat iqtisodiyotidan ustuvor monopolistik iqtisodiyotga yalpi o'tish jarayoni bilan bog'liq muammolar birinchi marta keskin shaklda paydo bo'ldi.

Iqtisodiyot fani monopolizmning turli nazariyalarini (Pero Sraffa, Joan Vayolet Robinson, Genrix fon Shtakelberg, Edvard Chamberlin) solishtirib tahlil qilish asosida monopolizm – hozirgi zamon bozor xo'jaligi rivojlanishidagi ob'ektiv, ammo raqobatni istisno qilmaydigan tamoyil, deb e'tirof etadi.

Iqtisodiyot fani va amaliyoti oldida monopoliyaga salbiy ko'rinishlarni aniqlash va raqobatni rivojlantirish sharoitlarni ta'minlash vazifasi turadi. Shu maqsadda iqtisodiy adabiyotlarda «monopoliya» va «monopoliyalashtirish» tushunchalarini farqlash borasida urinishlar qilinmoqda. Bunday farqlash nazarimizda monopoliyalarga qarshi siyosatni amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Monopoliyalarga qarshi *siyosat davlat* faoliyati u samaradorlik va raqobatning mazkur joy va vaqt uchun eng maqbul ko'rinishiga erishishga qaratilgan bozor munosabatlari sub'ektlari faoliyat ko'rsatishining shart-sharoitlarini shakllantirish bilan bog'liq.

Monopoliyani o'z-o'zidan qonunga xilof, deb e'tirof qilib bo'lmaydi, chunki bozordagi yakka hokimlik mavqeiga oshkora yo'l bilan, yangiliklardan foydalanib, mehnat unumdorligini oshirish zamirida va hokazo yo'llar bilan qo'lga kiritish mumkin. Pirovard natijada hozirgi zamon bozor iqtisodiyotidagi raqobatning o'zi faqat monopolistik raqobat ko'rinishida faoliyat ko'rsatadi.

Amerikaning monopoliyaga qarshi huquqiga «monopoliyalashtirish» tushunchasi birinchi marta 1890 yil Sherman qonuni tayyorlanayotgan vaqtda kiritilgan edi. Trestlarning suiste'mollaridan bezovta bo'lgan, ayni vaqtda ularning faoliyati ko'pincha ishlab chiqarish ko'lamlaridan iqtisod qilib qolish va iste'molchilar uchun imtiyozlarga olib kelishini idrok qilish Sherman qonuni mualliflari matniga faqat monopoliyalashtirishga taqiqni kiritdilar xolos. Qonun chiqaruvchilar ana shu atama bilan monopolistik hukmronlikka erishish va iqtisodiy samaradorlikning eng yuqori ko'rsatkichlarini qo'lga kiritish hisobiga ana shu hokimiyatni iste'mol qilishga qaratilgan faol xatti-harakatlar, deb belgiladilar.

Mamlakatimiz iqtisodiyot fanida monopoliyaga qarshi siyosat muammosi va monopoliyaga qarshi boshqaruv yetarli darajada aks etgan emas, o'tish davri uchun esa, bu yangilik.

Mazkur muammoga bag'ishlangan xorijiy adabiyotlar orasida ko'pgina nashrlar mavjud, ularda monopoliyaga qarshi siyosat va monopoliyaga qarshi boshqaruv puxta va chuqur, rivojlangan bozor tizimi bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Shu sababli tahlil qilishda ayniqsa, O'zbekiston sharoiti uchun

monopoliyaga qarshi siyosatni ishlab chiqishda amaliy qo‘llanma sifatida ularning hammasidan foydalanib bo‘lmaydi.

G‘arb mamlakatlarida monopoliyaga qarshi siyosatning rivojlanish evolyutsiyasini tadqiq qilish bozor iqtisodiyotida monopoliyaga qarshi siyosat doimiy harakatda mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlar, shuningdek, xalqaro bozordagi kuchlar nisbati o‘zgarishi bilan u yangilanib boradi, deb xulosa chiqarish imkonini beradi.

G‘arb mamlakatlaridagi monopoliyaga qarshi siyosat evolyutsiyasini tadqiq etish unga bozor iqtisodiyoti nazariyasining qo‘llanishi sezilarli ta’sir o‘tkazadi, deb qayd etish imkonini beradi.

Monopoliyaga qarshi siyosatni shakllantirishda 1923 yil va undan keyingi, 1929 – 1933 yillardagi kuchli iqtisodiy inqirozning tugashi bilan bog‘liq yillar burilish bosqichi bo‘ldi. Ushbu inqiroz o‘z-o‘zidan vujudga kelgan bozor iqtisodiyotining bundan keyingi faoliyati haqidagi, ochiq bozorning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlaridagi salbiy avvalambor, monopoliya ko‘rinishlarining oldini olish va kuchini qirqish maqsadida bozorni boshqarish zarurligi haqidagi masalani o‘rtaga qo‘ydi. Shu yillarda monopoliyaga qarshi siyosat monopoliyaga qarshi boshqaruvning amaliy tajribalarini bozorning nazariy tadqiqotlar sohasidagi eng yangi yutuqlari bilan birlashtirishga urinishdan iborat bo‘ldi. Monopoliyaga qarshi siyosatga bozorning, monopoliya va raqobatning iqtisodiy nazariyalari ta’siri ostida jiddiy tuzatishlar kiritiladi. Davlatning monopoliyaga qarshi siyosatidagi asosiy o‘zgarishlar J.Keynsning bozor iqtisodiyotida vaqti-vaqti bilan ro‘y berib turadigan inqirozlarning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan tadqiqotlari bilan bog‘liq.

60-yillar iqtisodiyot nazariyasining sezilarli ta’siri natijasida ro‘y bergan, bozor qatnashchilari raqobat munosabatlariga davlatning faol aralashuvi bilan tavsiflanadi. Jumladan, 30-yillarda Chikago maktabining tadqiqotchilari ta’siri ostida davlat boshqaruvi usullarini liberallashtirish ro‘y berdi. Ana shu maktab iqtisodchilarining fikriga qaraganda, bozordagi sub’ekt faoliyatining salbiy ta’sirini aniq belgilash, davlat aralashuvi amalga oshirilishi kerak. Hozirgi bosqichda rivojlangan bozor iqtisodiyotida monopoliyaga qarshi siyosatning qayta ko‘rib chiqilishiga qadrsizlanish nazariyasi, o‘yinlar qit’alararo voqealar chiqimi nazariyasi jiddiy ta’sir etmoqda.

Bugungi kunda resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish samaradorligini ta’minlash monopoliyaga qarshi boshqaruvning asosiy maqsad sifatida tobora ko‘proq ahamiyat kasb etmokda.

O‘zbekiston uchun raqobatga qobiliyatli bozor tizimi va O‘zbekistonda monopoliyaning o‘ziga xosligi zamirida mamlakat ishlab chiqarishini qayta

tiklashga xizmat qiluvchi monopoliyaga qarshi siyosat nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Monopoliyaga qarshi siyosatni belgilash asosida unga qarshi boshqaruv usullari ham ishlab chiqilmoqda.

Monopoliyaga qarshi boshqaruv - davlat vazifasi bo'lib, u monopoliyaga qarshi siyosat, uning maqsadlari amalga oshirilishini ta'minlashga da'vat etilgan.

Monopoliyaga qarshi boshqaruv bozor iqtisodiyotida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'zaro hamkorligi qoidalari (tartibi) tizimini tashkil etadi. Monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimi mamlakatda boshqaruv usullari ko'rinishlarining elementlari (yordamchi tizimlari) yig'indisi nazorati ostidagi (Prezident, hukumat, ijroiya va sud hokimiyati organlari nazorati ostida) monopoliyaga qarshi siyosatning huquqiy va ahloqiy me'yorlari hamda maqsadlariga muvofiq ravishda harakat qiluvchi muayyan mexanizmlar ko'rinishida faoliyat ko'rsatish tartibi mavjud bo'lishini taxmin qiladi.

Monopoliyaga qarshi boshqaruv - murakkab jarayon, u juda ko'p miqdordagi turli - tuman axborotlarni yig'ish va qayta ishlash, uni tashkil qilish, xulosalar chiqarish va bashoratlash, qarorlar qabul qilish, ularning ijrosi ustidan nazoratni ta'minlash asosida boshqariladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning huquqlarga zid monopolistik faoliyati monopoliyaga qarshi boshqaruvning ob'ekti hisoblanadi. Ammo huquqlarga zid monopolistik faoliyat deganda nimalarni tushunish kerak, huquqlar zid faoliyat darajasini qanday ko'rsatkichlardan kelib chiqib baholash zarur, degan masala bir xilda hal etilmaydi. Odatda, monopoliyaning xatti - harakatlari monopolistik hukmronlik jihatlariga ega bo'lgan taqdirda huquqqa zid deb hisoblanadi. Bunday javobni aniq javob, deb e'tirof etish qiyin, u izohlarni va monopolistik hukmronlik darajasini miqdoriy baholash ko'rsatkichlarini talab qiladadi.

Iqtisodiyot ma'nosida olganda, bozordagi hukmronlik narx-navoni uzoq muddat raqobat darajasidan yuqori darajada saqlab turish imkoniyati tushuniladi. Ammo mukammal raqobatning bozor modelidan chekinishlar rivojlangan bozor iqtisodiyoti qonuniydir, bu ko'p sonli firmalar bozordagi hukmronlikning muayyan ulushiga ega ekanligidan dalolat beradi. Shuning uchun monopoliyalashtirishni tahlil qilish vaqtida bozordagi hukmronlikning qay darajasi shunday ahamiyatga ega ekanligini, nimalar mazkur korxonalar ustidan kuzatuv va nazoratni oqlashini aniqlash kerak. Ammo monopolistik hukmronlik o'lchovlarini ham yetarli, deb hisoblash mumkin emas: hukmronlikdan foydalanish va suiste'mollarni tadqiq etish jiddiyroq ahamiyatga ega.



Monopoliyaga qarshi amaliyotda bozordagi ustuvorlik darajasi ko'rsatkichidan monopolistik hukmronlik ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi uni aniqlash uchun tovar va bozor geografiyasi kategoriyalaridan foydalaniladi. Rossiya qonunlarida ustuvorlik mavqei, «xo'jalik» yurituvchi sub'ektning yoki xo'jalik yurituvchi bir nechta sub'ektning turdoshi, yoxud o'rniga foydalanish, tovar bo'lmagan tovar bozoridagi favqulodda aholi, shu tovar bozoridagi tovar muomalasining shart-sharoitlariga hal qiluvchi ta'sir o'tkazish yoki bozorga boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning kirib kelishini qiyinlashtiruvchi favqulodda ahvoli sifatida tavsiflanadi<sup>69</sup>.

Bozorda yirik firmaning mavjudligi uning yetakchi mavqeini egallab turishni anglatmaydi. Agar firma ana shu tovar bozorida raqobatchilardan qat'iy nazar mustaqil harakat qila olsa, u ustuvor ahvolini saqlab turadi. Boshqacha qilib aytganda, firma bozorda hukmronlik qilsa, ustuvor mavqeini egallaydi. Ana shu hukmronlikni miqdor bilan o'lchash mushkul. Bozorning firmaga tegishli bo'lgan ulushi bozordagi ustuvorlikning birinchi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Agar firma bozor ulushining nisbatan kichik qismiga ega bo'lsa, tabiiyki, bu holda, u hukmronlik qila olmaydi.

Iqtisodiyot nazariyasi firma (ustuvorlik qilishi uchun bozorning qanday ulushga ega bo'lishi kerakligini ta'riflovchi aniq qoidalarni taklif qila olmaydi. Agar har bir firma bozorda kichik ulushga ega bo'lsa, unda firmalardan birining ustuvorlik qilishi, hatto bozorga kirib borishning yuksak to'siqlari mavjud bo'lgan holda ham amri mahol. Shu bilan birga, bozordagi ulushning monopoliyalashgan darajasini baholashning yagona omili bo'lib xizmat qila olmaydi.

Bozor ulushi bilan bir qatorda, daromadlilik (yoki firma faoliyatining samaradorlik darajasi), talab va taklifning qayishqoqligi, raqobatchilarning soni, bozorga kirib borish shartlari kabi ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi. Sanab o'tilgan barcha omillar ichida ko'pincha bozorga kirib borish shart-sharoitlari yoki bozorga kirib borishdagi «to'siqlar» va raqiblarning unga bildirishi mumkin bo'lgan munosabatlari ustuvorlik qiladi.

Mazkur omilni tahlil qilishda bozorga kirishdagi to'siqlar o'lchami hisobga olinadi. Agar bozorga kirib borishda, to'siqlar bo'lmasa (yoki ular juda past bo'lsa), bozorning katta ulushiga ega bo'lgan firma ham bozorda hukmronlikka ega bo'lmaydi. Bu holda boshqa firmalar bozorga tez, keng ko'lamda va arzimagan yo'qotishlar bilan kirib borishi mumkin. Yo'qotishlar

---

<sup>69</sup> Закон РСФСР от 22.03.1991 N 948-1 (ред. от 26.07.2006) "О конкуренции и ограничении монополистической деятельности на товарных рынках".  
[http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_51/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_51/).

deganda, bozorga kirish uchun qilinadigan, bozordan chiqmay turib qaytarib olish mumkin bo'lgan xarajatlar nazarda tutiladi.

Bozorga kirib borishdagi to'siqlarni yengib o'tishdagi yo'qotishlarga raqobatchilar bildirishi mumkin bo'lgan munosabatlar sezilarli ta'sir etadi. Agar ular katta firmaning monopoliyaga qarshi fe'l-atvoriga tez, sezilarli va katta sarf-xarajatlarsiz munosabat bildira olishsa, katta firma ustuvor mavqeini saqlab qola olmaydi.

Iqtisodiyot nazariyasi firma hamisha ustuvor, deb hisoblanishi uchun ega bo'lishi kerak bo'lgan bozor ulushining aniq miqdorini bermaydi. Masalan, Yevropa Ittifoqi Komissiyasi basharti firma bozorning 40-45 foiziga ega bo'lsa, uni ustuvor mavqeiga ega, deb hisoblaydi, agar 20-40 foizga ega bo'lsa, bunday deb hisoblamaydi. AQShda sudlarning aksariyati bozordagi ulush 70 foizdan kamroq bo'lsa, buni monopolistik hukmronlik uchun yetarli, deb hisoblashga moyil emas. Rossiya qonunlariga ko'ra xo'jalik yurituvchi sub'ektning ahvoli, agar u ma'lum tovar bozori ulushining 65 foiziga va undan ko'prog'iga ega bo'lsa, ustuvor deb hisoblanadi, xo'jalik yurituvchi sub'ekt aytib o'tilgan ko'rsatgich yuqori bo'lishiga qaramay bozordagi ahvol ustuvor emasligini isbotlagan hollar bundan istisno. Aksincha, bozor ulushi 65 foizdan kam bo'lsa ham firmaning bozordagi ahvoli ustuvor, deb e'tirof etilishi mumkin, buning uchun monopoliyalarga qarshi kurashuvchi organlar tomonidan bozorga kirishdagi to'siqlar aniqlangan bo'lishi kerak.

Shunday qilib, monopoliyaga qarshi boshqaruv -nihoyatda murakkab va miqdoriy o'lchash qiyin bo'lgan jarayondir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda monopoliyaga boshqaruv muammolarini hal etishga ana shu muammolarni amaliy hal etishning yuz yildan ko'proq davr mobaynida to'plangan tajribasi hamda monopoliyaga qarshi xatti-harakatlarni amalga oshirishning sozlangan mexanizmi yordam beradi. Shunga qaramay mazkur mamlakatlardagi monopoliyaga qarshi siyosat va monopoliyaga qarshi boshqaruv har bir tarmoqda o'z xususiyatlariga ega, vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi.

Hozirgi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun «monopoliyani cheklash» tushunchasi unga bozor iqtisodiyoti rivojlanmagan mamlakatlarda singdirilgan ma'noga nisbatan kengroq ma'noga ega, davlatning monopoliyaga qarshi faoliyati rivojlangan bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan tushuncha ma'nosida monopoliyani cheklashdan iborat bo'libgina qolmay, iqtisodiyotni monopoliyalardan xalos etish dasturlarini amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Bozorga o'tish davridagi iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish deganda, avvalambor, ma'muriy monopoliyaning bozorga aloqador bo'lmagan turi

vujudga kelish manbalarini va uning mamlakat iqtisodiyotidagi oqibatlarini bartaraf etish tushuniladi.

O‘zbekistonda monopoliyadan chiqarish monopoliyaga qarshi boshqaruvning barcha zarur dastaklarini o‘z ichiga olishi lozim. Shu bilan birga, O‘zbekiston iqtisodiyotini monopoliyadan chiqarishni, avvalambor boshqaruvning ma‘muriy - buyruqbozlik tizimini qayta montaj qilish yo‘li bilan uni davlat tasarrufidan chiqarishni tadbirkorlik tashabbuskorligini va raqobatni keltirib chiqaruvchi dastaklarni shakllantirish asosida iqtisodiyot sub’ektlarining fe‘l-atvori sabablarining o‘zgartirilishini; davlat organlari va xo‘jalik oboroti qatnashchilarining monopolistik harakatlarini istisno qiluvchi huquqiy me‘yorlar qaror toptirilishini anglatadi.

O‘zbekistondan farqli ravishda G‘arb mamlakatlarida monopoliyani chegaralash bozor raqobatini rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga va bozor mexanizmlari faoliyatining salbiy oqibatlarini bartaraf etishga davlat boshqaruvining turli usullari ko‘rinishida kechgan.

O‘zbekiston iqtisodiyotining hozirda amal qilayotgan monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimi tanazzul holatida turibdi, chunki uni shakllantirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining o‘ziga xos jihatlarini hisobga olmagan holda kechmoqda. O‘zbekistonda monopoliyaga qarshi boshqaruvning hozirgi tizimi, ayniqsa, unda qo‘llanilayotgan usullar XX asr o‘rtalarida AQShda qo‘llanilgan boshqaruv tizimining dastaklaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirma hisoblanadi, amaliyotda bu o‘zining samarasiz ekanligini ko‘rsatdi. Bu, avvalambor, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish, monopoliyachilarni majburiy taqsimlash usullariga, hozirgi O‘zbekistonda kichik va o‘rtacha tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash usullarining roli va ahamiyatini oshirib yuborishga taalluqlidir.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda monopoliyaga qarshi kurashda samaradorlikka erishish yo‘lidagi asosiy to‘siqlardan biri iqtisodiyotning tanazzul holatida ekanligi, barcha sohalarda makroiqtisodiy muvozanatga erishilmaganligi hisoblanadi. Monopoliyaga qarshi siyosatni alohida, iqtisodiy o‘zgarishlarning boshqa yo‘nalishlaridan farqli mustaqil yo‘nalishga ajratish maqsadga muvofiq bo‘lmasa kerak. Makrodarajada O‘zbekistondagi monopoliyaga qarshi siyosat iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarning yalpi tizimida soliq, eksport-import, pul-kredit, investitsiyalarining umumiy tizimida iqtisodiy boshqaruvning hozirgi to‘g‘ridan-to‘g‘ri usullari monopoliyaga qarshi boshqaruvning bilvosita usullari bilan qo‘shib olib boriladigan, bozor tizimi qatnashchilarining birgalikda hayot kechirish qoidalarining hamda ularning buzilishi uchun iqtisodiy jazolarning majmui ishlab chiqilishi zarur.

Umuman, bevosita va bilvosita usullar raqobatning asossiz cheklanishiga va bozordagi, hukmronlikning iste'mol qilinishiga qarshi qaratilgan bo'lishi va monopoliya ko'rinishlari paydo bo'lishiga qarshi shart-sharoitlar va chora-tadbirlar yaratilishiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Hozirgi O'zbekistonda monopoliyaga qarshi siyosatning ta'sirchan vositasi monopoliyaga qarshi qaratilgan qonunlarni shakllantirish hisoblanadi. Ammo qonunlarning qabul qilinishi ularning samaradorligi ko'pincha firmalar faoliyati uchun monopoliyaga qarshi shart-sharoitlar yaratilishiga, ya'ni raqobat muhiti vujudga keltirilishiga bog'liq. Shu sohadagi kamchiliklar hamda o'zgarib borayotgan iqtisodiyotdagi iqtisodiy jarayonlarning kechishi qonunlarning samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Jumladan, narx-navolarning erkinlashtirilishi mamlakat iqtisodiyoti shunday o'zgarishlarni keltirib chiqardiki, ularni qonunlar yo'li bilan bartaraf etib bo'lmasdi.

Monopoliyaga qarshi qonunlar raqobatlashuvchi sub'ektlar amaliy faolligini so'ndirmasligi uchun ma'lum darajada qayishqoq bo'lishi kerak. O'tish iqtisodiyotida monopoliyaga qarshi boshqaruv davlat tomonidan institutlar huquqiy faoliyat vositasida amalga oshirilishi lozim. Hozircha O'zbekistondagi institutlar tizimi bozor elementlari yetarli darajada rivojlanmagan institutlarning bir-biriga qarama-qarshi termasidan iborat.

Shu bilan birga, institutlar qurilishi hukmronlik va tobelikning qattiq munosabatlari asosida tavsiflanuvchi institutlar tizimini tashkil etish bilan cheklanishi kerak emas. Bozor munosabatlari rivojlangani sayin fuqarolar faoliyatining erkin uyushmalari shartnomalar tuzish va ularni sidqidildan bajarish tamoyillarida tashkil etilgan institutlar tobora katta ahamiyat kasb etib boradi.

Bu demak, O'zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyotining hozirgi bosqichida davlatning ichki bozorda raqobat rivojlantirilishini rag'batlantirishga va bir yo'la xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning monopolistik tamoyillarini tizginlashga da'vat etilgan boshqaruvchi organ sifatidagi roli monopoliyalarni cheklashdan (ammo buni istisno qilib ham bo'lmaydi), raqobatni va iqtisodiy mustaqillikni rag'batlantiruvchi, amaliy faollikni qo'llab-quvvatlovchi, raqobat kurashidagi tengsizlikni bartaraf etuvchi, teng imkoniyatlar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning qonun doirasida erkin faoliyat tamoyillariga rioya etilishini qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar va ularni amalga oshirish mexanizmlarini yaratishdan iboratdir.

## **Qisqacha xulosalar**

Har qanday bozorning harakat qilishdagi umumiy sharoitlarini ko'rsatib beradigan asosiy omil bo'lib, uning raqobatli munosabatlarining rivojlanish darajasi hisoblanadi.

1. Hozirgi zamon «raqobat» atamasi, lotincha bozorda oldi-sotdi jarayonlarida yuz beradigan xaridorlarning, sotuvchilarning o'rtasida, xaridorlar bilan xaridorlarning, sotuvchilar bilan sotuvchilar o'rtasida ro'y beradigan to'qnashuvlar, musobaqalar, tortishuvlar hisoblanadi. Bozor raqobati, deb iste'molchilarning firmalar o'rtasida ularning bozorga kirish mumkin bo'lgan qismlaridan cheklangan talablar uchun kurashiga aytiladi. Bozor iqtisodiyotida raqobat bozor sub'ektlarining individual bir vaqtda va qarama-qarshi qo'shimcha asosiy vazifalarni bajaradi. U iste'molchilarning manfaatini hisobga olishni majburlaydi, demak, butunlay jamiyat mafaatini ham.

2. Raqobat vaqtida bozor haqiqatan ham, ko'pchilik tovarlardan faqat iste'molchilarga keragini tanlab oladi. Aynan ularni sotish mumkin. Qolganlari esa, talab qilinmasdan qoladi va ularning ishlab chiqarilishi to'xtatiladi. Raqobatdan tashqari muhitda individ o'zining manfaatini, begonalarniki bilan hisoblashmasdan qondiradi. Raqobat sharoitida esa, o'zining manfaatini qondirishning yagona usuli boshqa shaxslarning manfaatini hisobga olishdan iborat bo'ladi. Raqobat mexanizmi uning yordami bilan bozor iqtisodiyoti «nima ishlab chiqarish kerak?», «qanday ishlab chiqarish kerak?», «kim uchun ishlab chiqarish kerak?» kabi fundamental savollarni hal etishni tasavvur qiladi.

3. Raqobat munosabatlarining rivojlanishi iqtisodiy hukmronlikning stixiyali yorilishi bilan chambarchas bog'langan. Uning yo'qligida iste'molchi tanlashdan mahrum bo'ladi va ishlab chiqaruvchilar ko'rsatgan tartibga yoki to'liq rozi bo'ladi, yoki mutlaqo o'ziga kerakli ne'matlarsiz qoladi. Aksincha, iqtisodiy hukmronlik qachonki parchalangan bo'lsa va iste'molchi shunday tovarlarni yetkazib beradiganlarning ko'pchiligi bilan ish olib boradi, u o'zining ko'proq darajada uning muhtojligiga va moliyaviy imkoniyatlariga muvofiq keladiganini tanlab olishi mumkin.

4. Raqobatchilik rivojlanish darajasi bo'yicha iqtisodiyot nazariyasi bozorining kelgusi tiplarini ajratadi:

- a) mukammal raqobat bozori;
- b) nomukammal raqobat bozori, bu o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:
  - monopoliyaga oid raqobat;
  - oligopoliyaga oid raqobat;
  - monopolistik raqobat.

## **Asosiy tushuchalar**

1. Raqobat.
2. Sof raqobat.
3. Mukammal raqobat.
4. Nomukammal raqobat.
5. Monopolistik raqobat.
6. Monopoliyaga oid raqobat.

## **Seminar darslarida muhokama qilinadigan savollar**

1. Raqobat tushunchasi.
2. Raqobat turlari va bozorning tovarlar bilan ta'minlanishini aytib bering.
3. Raqobat va monopoliya deganda nimani tushunasiz?

## **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Raqobat va monopoliya, bularning iqtisodiy aloqasining o'ziga hosligi va hususiyatlari.
2. Raqobatning turlari, narxli va narxsiz raqobat.
3. O'zbekistonda raqobat muhitining kuchayishi va uning o'ziga xosligi.
4. Jahon bozorida raqobatdoshlikni oshirishda O'zbekistonda ishlab chiqilgan tovarlarning ustunligi va kamchiligi.

## 18 BOB. NARXNING MOHIYATI VA SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

*Raqobatli narx-navo cheklangan miqdordagi tovarlarni taqsimlashda bular orasida bunga ehtiyojni sinash pul ovozi bilan mustahkamlanganlarni ta'minlaydi. Muammoni hal qilishda yordam berib: tovarlar kimlar uchun tainlangan, u shu bilan bir qatorda masalalarni xal qilishda nima ishlab chiqarish kerak va tovarlar qanday ishlab chiqarilishi kerakligi to'g'risidagi o'zgarishlarni kiritishga xabar beradi.*

*Pol Samuelson*

### Umumiy tushuncha

Narx-navoning shakllanish mexanizmi va uni tamoyillash; narx-navo darajasi talab va taklif tebranishlariga bog'liqligi, va aksincha, talab va taklifning narx-navo darajasiga qaramligi siyosiy iqtisodning eng asosiy, shu bilan birga eng munozarali masalalari hisoblanadi. Jahon iqtisod tafakkuri mazkur muammoni hal etishga doir turli yondashuvlarni ishlab chiqqan.

Narx-navo qiymatning puldagi ifodasidir -amalda deyarlik barcha ilmiy maktablar vakillarining fikri shunday (to'g'ri, iqtisod darsligida narx-navo har bir tovar yoki xizmat uchun to'lanadigan yoki olinadigan pul miqdori sifatida ta'riflanadi). Ammo iqtisodchilarning qiymat tushunchasiga ta'riflari bir-biridan jiddiy farq qiladi. Shu munosabat bilan qiymatning asosiy ta'limotlari bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Qiymatning mehnat nazariyasini «mehnatsiz» deb atalmish nazariyadan farqlaydilar. Qiymatning mehnat nazariyasi siyosiy iqtisod klassiklari (birinchi navbatda **D.Rikardo**)ning uslubiy xulosalaridan kelib chiqib, **K.Marks** tomonidan ta'riflangan edi. Markscha qiymatning mehnat nazariyasi narx-navoning asosi sifatida mahsulot ishlab chiqarishga zarur bo'lgan ijtimoiy mehnat sarf-xarajatlarini ko'rib chiqadi. Bozor narxining talab va taklif o'zgarishlari bilan bog'liq ijtimoiy zarur mehnat sarfidan (qiymatdan) chekinishi bilan kapitalning bir tarmoqdan ikkinchisiga oqib o'tishini keltirib chiqaradi, bu ichki va tashqi (tarmoqlararo, davlatlararo) raqobat qonunlariga rioya qilingan holda daromadning nisbatan yuqori me'yorini ta'minlaydi.

Tarmoqlararo raqobat rivojlanib borgan sari qiymat ishlab chiqarish chiqimlari qo'shuv o'rtacha daromadidan iborat bo'lgan ishlab chiqarish narxi sifatida turlanadi. Bu safarbar etilgan kapitallar kattaligi bir xil (organik tuzilishidan qat'iy nazar) o'rtacha daromad keltirishi tufayli shunday bo'ladi.

Ishlab chiqarish narxi qiymatdan shakli va hajmi bilan farq qilgan holda, qiymatga asoslanadi, ishlab chiqarish narxining barcha tarkibiy qismlari qiymat bilan belgilanadi, ishlab chiqarish narxi o'zgarishlari esa, qiymat o'zgarishlaridan kelib chiqadi. Jamiyat ko'lamidagi tovarlar ishlab chiqarish narxining yig'indisi ularning qiymatlari yig'indisiga teng, chunki narx-navoning qiymatdan barcha og'ishlari turli tarmoqlarda o'zaro muvozanatga keladi.

Ijtimoiy qayta, takror ishlab chiqarishda narx-navo quyidagi vazifalarni bajaradi:

- hisob-kitob - qiymat vazifasini (mahsulot ishlab chiqarishga jonli mehnat va buyumga aylantirilgan mehnat chiqimi bir xilligini ta'minlaydi);

- rag'batlantiruvchi vazifani (narx-navo vositasida sifatning yaxshilanishi va ishlab chiqarilayotgan tovar turlari takomillashib borishi, yangi yuksak samarali mahsulotni ishlab chiqarishga joriy etish va hokazolar rag'batlantiriladi);

- qayta taqsimlash vazifasini (narx-navo yaratilgan qiymatni, shu jumladan milliy daromadni ham, iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalari, jamg'arma va iste'mol fondlari), mamlakat mintaqalari, aholining turli qatlamlari va guruhlari o'rtasida qayta taqsimlanadi);

- talab va taklifni muvozanatga keltirish vazifalarini bajaradi.

Qiymatning «mehnatsiz» nazariyasi mehnat nazariyasining muqobili hisoblanadi, ular qiymatni tovar taklifi tomonidan tahlil qiluvchi ishlab chiqarish chiqimlari nazariyasidan va qiymatni talab tomonidan ko'rib chiquvchi eng yuqori naflilik nazariyasining turli modifikatsiyalaridan kelib chiqadi.

Ishlab chiqarish chiqimlari nazariyasiga ko'ra qiymat mehnat yer va kapitalning (keyinchalik ana shu omillarga tadbirkorlik faolligini ham qo'shdilar) o'zaro hamkorligi natijasi hisoblanadi. Qiymatning tashkil topish mexanizmidan kelib chiqib, ishlab chiqarish chiqimlari nazariyalarini unumdorlik nazariyasi va qurbonlik nazariyasiga taqsimlash mumkin. Unumdorlik nazariyasida qiymat ishlab chiqarishning turli omillari faoliyat ko'rsatishi oqibatida olingan daromadlar yig'indisi sifatida ta'riflanadi (ish haqi, daromad va renta asosiy daromadlar sirasiga kiradi). Fransuz iqtisodchisi **J-B.Sey (1767-1832)** va ingliz iqtisodchisi **J.Mill (1773-1835)** ana shu ta'limotning eng taniqli tarafdorlari qatoriga kiradi.



Qurbonlik nazariyasida qiymatning manbalari sifatida mehnat bilan bir qatorda kapitalning «tiyilishi» ham eʼlon qilinadi. Mehnat - bu ishchining oʻz boʻsh vaqti va osoyishtaligini qurbon qilishi, kapitalistning shaxsiy ehtiyojlardan tiyilib, oʻz mablagʻlarini ishlab chiqarishni kengaytirishga yoʻnaltirayotgan qurbonligidir. Ishchi va kapitalistning «qurbonliklari» ish haqi va daromad bilan ragʻbatlantiriladi. Ingliz iqtisodchisi **N.U.Senior (1790-1864)** tiyilish nazariyasining asoschisi hisoblanadi; keyinchalik shu nazariyaning asosiy qoidalariga **A. Marshall** ham qoʻshilgan.

Qiymatni u yoki bu neʼmat soʻnggi birligining nafliligiga isteʼmolchi bergan baho, eng katta naflilik sifatida talqin etuvchi eng katta naflilik nazariyasi ham qiymatning mehnatsiz nazariyasi turlaridan biri hisoblanadi.

Nemis olimi **G.G.Gossen** 1854 yilda oʻzining «Ijtimoiy ayirboshlash qonunlarining rivojlanishi va undan kelib chiquvchi ijtimoiy savdo-sotiq qoidalari»<sup>70</sup> asarini nashr etdi, bu asarning asosiy qoidalari «Gossenning ikki qonuni» degan nom oldi. Birinchi qonunga muvofiq neʼmatlarning har bir qoʻshimcha birligi isteʼmol qilib borilgani sayin qanoatlantirish miqdori toʻla toʻyintirish nuqtasida nolga tenglashgunga qadar kamayib boradi; ikkinchi qonunga koʻra, neʼmatlar zahirasi toʻliq toʻyintirish uchun yetarli boʻlmagan sharoitlarda ehtiyojlarni eng koʻp qondirish uchun barcha neʼmatlarning isteʼmol qilinishini isteʼmoldan qoniqish intensivligi bir xil boʻlgan nuqtada toʻxtatish zarur. Bu demak, subʼekt uchun neʼmatlar zarur kam miqdorda boʻlgan taqdirdagina qiymatga ega, ana shu qiymat neʼmatning har bir qoʻshimcha birligi qoʻshilgani sayin kamayib boradi.

XIX asrning 70-yillarida avstriyalik **K.Menger** va isteʼdodli shogirdlari **Oygen fon Byom-Báverk** va **Fon Vizerlar Gossen** qonunini acoc sifatida qabul qilib, chinakam marjinalistik inqilob (goh uni boshqacharoq qilib subʼektiv inqilob, eng katta naflilik inqilobi, deb ham atashadi) amalga oshirdilar.

Eng katta naflilik nazariyasining asoschilari taxminan quyidagicha mulohaza yuritishgan. Odamlarning ehtiyojlari miqdor jihatidan qaraganda cheksiz tigʻizlikning turli darajasiga ega bir xil ehtiyojlar, masalan, «oziq-ovqat va kiyim kechak, boshpanaga ehtiyoj» birlamchi boʻlib, ularni kechiktirib boʻlmaydi, boshqalarga nisbatan tigʻiz emas, ikkilamchidir. Inson ehtiyojlarini qondirishga daʼvat etilgan iqtisodiy neʼmatlar, aksincha, hamisha yetarli miqdorda boʻlmaydi.

---

<sup>70</sup> Gossen. «Entwicklung der Gesetze des menschlichen Verkehrs und der daraus fließenden Regeln für menschliches Handeln», 1854

Ehtiyojni qondirish darajasi ne'matlarning mavjud miqdoriga bog'liq. Ehtiyoj qondirilgani sayin bu boradagi keskinlik kamayib boradi, demak, ehtiyojni qondirish qobiliyati sifatida ne'matning nafliligi ham ayni vaqtda kamayib borishi lozim. Ne'mat mavjud qismlarining eng so'nggisi, shu xildagi ne'matga eng kuchli ehtiyojni qondiruvchi qismi sub'ektiv nafdorlik, ya'ni eng katta nafdorlikni, ne'matning qiymatini belgilaydi.

**K.Mengerning** ta'rifiga ko'ra qiymatlilik - bu xo'jalik yurituvchi odamlarning o'z hayotlari va farovonliklarini saqlab turish uchun o'z ixtiyorlarida bo'lgan ne'matlarning ahamiyati haqidagi mulohazalaridir, shu sababli ular shu odamlarning ongidan tashqarida mavjud bo'lishi mumkin emas. **Brokgaуз** va **Yefronning** «Qomusiy lug'ati»<sup>71</sup>da qiymatlilik sifatida inson ongining mahsuli, ruhiy fakt tushuniladi, u buyumning tabiiy xususiyatlariga emas, ana shu xususiyatlar qanday idrok etilishiga bog'liq.

Marshallning fikriga ko'ra, talab va taklif mos kelgan nuqtada muvozanat narxi qaror topadi, u ishlab chiqarishning pul chiqimlariga moyilroqdir. Ammo chiqimlarning o'zi qiymat bilan emas, ishlab chiqarishning ana shu chiqimlarni keltirib chiqaruvchi omillariga talab va taklif nisbati bilan belgilanadi.

Eng katta naflilik talab egri chizig'i o'zgarishining hal qiluvchi omili sifatida, eng katta chiqimlar o'zgarishi - taklif egri chizig'i o'zgarishidagi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lishi bois, mukammal raqobat sharoitlarida muvozanatning narxi bir tomondan eng katta naflilikka, boshqa tomondan – o'z navbatida ishlab chiqarish omillari eng ko'p mahsulotlarga bog'liq bo'lgan eng katta chiqimlarga teng bo'ladi. Ayni vaqtda eng ko'p chiqimlar deganda, tovarning qo'shimcha birligining ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha chiqimlari tushuniladi, eng ko'p mahsulot - bu boshqa barcha omillar kattaligi o'zgarmay qolgani holda muayyan ishlab chiqarish omilini bir mahsulotga ko'paytirish natijasida olingan qo'shimcha mahsulotdir. Eng ko'p mahsulot tushunchasi o'zgarmas texnik shart-sharoitlarda ishlab chiqarish omillaridan birini izchillik bilan bittaga ko'paytirib borish, boshqa omillar kattaligi o'zgarmay qolgani holda, qo'shimcha mahsulotning kamayishiga olib boradi.

**A.Marshall** tomonidan ba'zi tushunchalar, masalan, narx-navo bo'yicha talab va taklifning qayishqoqligi tushunchasi joriy etildi. Tovarga talabning miqdoriy o'sishi (yoki qisqarishi) uning narxi pasaygan (yoki ko'paygan) holda narx-navoning ko'tarilishi (yoki kamayishi)ga nisbatan, yoxud tovarga talab foiz o'zgarishining uning narxi foiz o'zgarishlariga nisbatan narx-navo bo'yicha talabning qayishqoqligi deb ataladi.

---

<sup>71</sup> Брокгауз Ф., Ефрон И. Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона. В 86 т.

Talab qayishqoqligi darajasidan kelib chiqib barcha tovarlar uch guruhga: qayishqoqligi past bo'lgan (talab narx-navo o'zgarishiga sust munosabat bildiradigan tovarlar); qayishqoqligi o'rtacha (talab narx-navo o'zgarishiga mo'tadil munosabat bildiradigan tovarlar) va qayishqoqligi yuqori bo'lgan (talab narx-navo tebranishlari sezilarli munosabat bildiradigan tovarlar)ga bo'linadi. Birinchi guruh uchun qayishqoqlik koeffitsiyenti odatda 1 dan kam bo'ladi; ikkinchi guruh uchun qayishqoqlik koeffitsiyenti taxminan 1 ga teng; uchinchi guruh uchun qayishqoqlik koeffitsiyenti 1 dan anchagina oshishi mumkin.

Talabning narx-navo o'zgarishlariga bog'liqligini tadqiq etish uchun **A.Marshall** tomonidan matematik usullar ishlab chiqildi. U qayishqoqlik kichik yoki birga teng bo'lgan darajaga ega talab egri chizig'i turli ko'rinishlarining muallifi hisoblanadi. Qayishqoqlik barcha nuqtalarda birga teng bo'lgan yoki tovarning barcha narxlari uchun bir xil bo'lgan qayishqoqlik egri chizig'iga ayniqsa ko'proq e'tibor berilgan. Sababi, bu holda narx-navoning har bir pasayishiga talabning muayyan darajada oshishi to'g'ri keladi, xaridorning jami xarajatlari o'zgarishsiz qolaveradi.

Basharti talab qayishqoq bo'lsa, tovar narxining pasayishi mahsulotni realizatsiya qilishdan olinadigan yalpi tushum ko'payishiga olib keladi. Sababi, buyum birligining narxi past bo'lgan holda ham realizatsiya hajmining ko'payishi sotuvchining narx-navo pasayishidan ko'radigan yo'qotishlarini qoplash uchun yetarli bo'ladi. (Bozorda narx-navo o'zgarganidan so'ng haqiqatan ham sotib olinadigan tovarlar miqdori G'arb iqtisodiy adabiyotlarida samarali talab deb ataladi). Basharti talab qayishqoq bo'lmasa, narx-navoning pasayishi yalpi tushumning qisqarishiga olib keladi.

Iste'molchilar xarajati dinamikasi talab qayishqoqligining indikatorini hisoblanadi (18.1 - jadvalga qarang).

### 18.1 jadval

Narx-navoning o'zgarishi	Qayishqoq bo'lmagan talab	Qayishqoqlik birga teng	Qayishqoq talab
Narx navoning ko'tarilishi	Xarajatlarning o'sishi	Sarf - xarajatlar bir xil	Sarf-xarajatlar kamayadi
Narx navoning tushishi	Sarf xarajatlarning kamayishi	Sarf - xarajatlar bir xil	Sarf-xarajatlar o'sadi

**A. Marshall** narx-navo shakllanishini tahlil qilishga vaqt omilini birinchi bo'lib kiritdi. U narx-navo shakllanishida talab va taklif muvozanatining bir

necha davrini: qisqa muddatli, o'rtacha va davomli davrlarni farqladi. Qisqa muddatli muvozanat davrida narx-navo talabga jiddiy bog'liq bo'ladi, davr muddati uzaygani sayin ishlab chiqarish chiqimlarining ta'siri kuchayib boradi, ayni vaqtda «ichki» va «tashqi» tejamkorlik bois tovarning narxi muayyan «me'yordagi» darajasiga qadar pasayadi. Keyinchalik narx-navoning shakllanish nazariyasini rivojlantirishga **J.Keyns, E.Chemberlin, J.Robinson, M.Fridmen** kabi yirik g'arb olimlari katta hissa qo'shishdi.

Jumladan **E.Chemberlin** o'zining mashhur «Monopolistik raqobat nazariyasi»<sup>72</sup> kitobida qiymatni sub'ektiv naflilik yoxud mehnat sarfi ruhida mavhumiy talqin etishdan voz kechdi, ammo talab va taklif nisbatini bevosita shakllantiruvchi, muvozanatli narx-navoni boshqaruvchi haqiqiy omillarni yangicha ochib berishga harakat qilib ko'rdi. U narx-navoning shakllanish sohasi umuman «sof» raqobat hukmron bo'lgan bozorlar va monopolistik omillar turli ravishda bir-biri bilan chatishib ketgan bozor majmui ekanligini ko'rsatdi... Monopolistik omilning xatti-harakatlari sof raqobat mavjud bo'lgan sharoitdagidan yuqoriroq narx-navoni o'rnatishga yo'naltirilgan bo'lgani sababli narx-navo tizimining sof raqobatli tabiati haqidagi tasavvurlar asossiz ekanligi ma'lum bo'ladi. U narx-navoning butun tizimida monopolistik omil u yoki bu darajada o'zini namoyon etishi faktini inkor etibgina qolmaydi; u narx-navoni umuman olganda anchagina past darajaga «intilayotgan» qilib tasvirlab, mutlaqo buzib talqin etadi. Haqiqiy ahvol shundayki, manzaradagi ikki elementdan birini olib tashlash talab qilinadigan bo'lsa, monopoliyaning hamma joyda albatta mavjudligi haqidagi farazni saqlab qolish uchun nisbatan ko'proq asos mavjuddir.

O'tkazilgan tahlil E.Chemberlinga, birinchidan, monopolistik raqobat sharoitida raqobatli daromadlar hech qachon narx-navolar raqobati mavjudligidan dalolat bermaydi, chunki mazkur sohaga resurslar oqib kelishida namoyon bo'luvchi darajadagi raqobat daromadni raqobat darajasigacha pasaytiradi, ammo narx-navoni nisbatan yuqori darajada qoldiradi, narx-navoning raqobat darajasidan yuqori darajasi monopoliya elementlarining kuchiga bog'liq; ikkinchidan, monopolistik raqobat sharoitida narx-navo muqarrar yuqori bo'ladi, ishlab chiqarish ko'lami esa albatta sof raqobat darajasiga qaraganda past bo'ladi; uchinchidan, narx-navoning bir xilligi raqobatning monopoliya elementlaridan holi ekanligidan aslo dalolat bermaydi, deb tasdiqlash imkonini berdi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, sof raqobat yo'qolib borgan sayin erkin narx-navoning qo'llanish sohasi ham torayib boradi. 1929-1933 yillardagi

---

<sup>72</sup> Чемберлин Э. Теория монополистической конкуренции. М.: Экономика. 1996. С. 93-94.

halokatli inqirozdan so‘ng ko‘pgina mamlakatlar narx-navoga birinchi navbatda iste‘molchilar huquqini himoya qilishga qaratilgan davlat boshqaruvini joriy etadigan bo‘lishdi.

Masalan, AQShda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining narxini boshqarishda qishloq xo‘jaligi vazirligi timsolida davlat bevosita ishtirok etadi. Fermerlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida markazlashgan tartibda eng past narx-navo belgilanadi, birjalar yoki boshqa vositachilar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ana shu narxdan arzonga sotib olishlariga yo‘l qo‘yilmaydi. 40-60-yillarda Angliya, Kanada, Shvetsiyada xalq iste‘moli sanoat tovarlariga nisbatan «qayd etilgan narx-navo» tamoyilidan foydalanilgan. Oxirgi iste‘molchiga sotish narxi sotuvchi tomonidan, bevosita ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan. Na chakana savdoda, na ulgurji savdoda ana shu «qayd etilgan» narxni oshirish mumkin emas edi. Natijada belgilangan narx ishlab chiqarilgan barcha mahsulotning sotilishini rag‘batlantirar, ammo vositachilar daromadi oshib borishiga yo‘l qo‘ymas edi.

Hozirgi vaqtda G‘arbda barcha oziq-ovqat mahsulotlariga dotatsiya ajratiladi, uning hajmi turli mamlakatlarda turlicha. Masalan, Yevropa iqtisodiy hamjamiyatida fermerga go‘sht narxining yarmi davlat tomonidan to‘lanadi, AQShda -10 foizi to‘lanadi, ammo bu mamlakatda yemga ishlatiladigan g‘allaga dotatsiya anchagina katta. Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga kiruvchi davlatlarda qand lavlagi ishlab chiqarishga davlat tomonidan fermer narxining 142 foizini tashkil etadigan miqdorda dotatsiya berilgan hollar ham ma‘lum. Shuningdek, Kanadada fermerlarga sut narxining 96,7 foizi miqdorida dotatsiya berilgan. Yaponiyada fermerlar daromadining 70 foizini, YeIH mamlakatlarida - 50 foizdan ziyodini, Kanadada 40 foizini, AQShda 25 foizini davlat dotatsiyalari tashkil etadi.

Bir vaqtlar, sobiq ittifoqda jamoatchilikni oziq-ovqat mahsulotlari narxiga dotatsiya 1 oyda aholi jon boshiga 11 rublni tashkil etdi, degan «xavfli» raqam bilan «qo‘rqitilgan» edi. Qiyoslash uchun quyidagi raqamni keltiramiz: iqtisodiy rivojlangan 24 mamlakatda qishloq xo‘jaligiga budjetdan ajratiladigan mablag‘lar ana shu mamlakatlar aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga sarf-harajatlarining qariyb yarmini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mutaxassislarning aksariyati mamlakat iqtisodiyotining kelajagi talab va taklif tebranishlaridan kelib chiqib, muomala sohasida tabiiy ravishda tarkib topuvchi erkin narxlar bilan bog‘liq, deb ishonar edi. O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati va iqtisodchilar tomonidan «muvozanatli narxlar» foydasiga quyidagi dalillar keltirildi.

1. Erkin narxlar xalq xo‘jaligidagi nomutanosibliklarni va ayirboshlash ekvivalentligi tamoyillari buzilishlarini yengib o‘tish imkonini beradi, ular

jamiyatni tovar ocharchiligidan va keraksiz tovarlar ishlab chiqarishdan qutqaradi. Davlat budjetidan past rentabelli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun dotatsiyalar berishdek og'ir tashvishni soqit qiladi.

2. Erkin narxlar, birinchi navbatda do'konlarda navbat kutishlarni yo'kotish evaziga iste'mol chiqimlarini qisqartiradi.

3. Narxlarni erkinlashtirish ortidan muqarrar ravishda pul daromadlariga kompensatsion qo'shimchalar to'lash amalga oshiriladi, bu iste'mol tanlovi erkinligini oshiradi va iste'molning ratsional tarkibiy tuzilishi shakllanishiga xizmat qiladi.

4. Erkin narxlar past darajadagi turg'un narxlar keltirib chiqaruvchi ijtimoiy foydali mehnatga rag'batning susayishi, chayqovchilik, yashirin «chayqov» bozorlari faoliyat ko'rsatishi odob va ahloq tamoyillarining buzilishlari kabi jamiyatga zid hodisalarni tugatish imkonini beradi.

Mazkur loyihani amalga oshirish mamlakatimizda 1992 yil 1 yanvardan boshlandi. Dastavval narx-navo 2 - 3 oy mobaynida oshib boradi, keyinchalik u barqarorlashadi, deb taxmin qilingan edi. Ammo haqiqiy hayotda liberallashtirish narx-navoning uzluksiz, ko'p marotaba o'sish ko'rinishini kasb etadi va g'oyatda kuchli inflyatsiya to'lqinlarini keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda shu narsa mutlaqo ayonki, erkin narxlarning joriy etilishi bozorning tovar va xizmatlar bilan to'yinishiga olib kelmadi. Buning ustiga haqiqiy ishlab chiqarishning ko'payishi ro'y bergani yo'q. Aksincha jamuljam taklif qisqardi. Jumladan, 1991 - 1995 yillar mobaynida non mahsulotlarini ishlab chiqarish 8,7 million tonnaga, go'sht yetishtirish - qariyb 3 barobar, kolbasa mahsulotlari ishlab chiqarish - 2 barobar, sut mahsulotlari ishlab chiqarish - 3 barobardan ko'proqqa qisqardi. Ishlab chiqarishning misli ko'rilmagan inqirozi ishlab chiqarish tarkibiy tuzilishining yomonlashuvi bilan bir vaqtda sodir bo'ldi.

Aholining qondirilmagan talabi chindan ham qisqardi, ammo bu bozorni yuqori sifatli mahsulotlar bilan to'yintirish hisobiga emas, haqiqiy daromadlarning keskin kamayishi natijasida ro'y berdi. Ayni vaqtda aholi talabining tarkibiy tuzilishida salbiy tamoyillar avj olib bordi. Rossiya fanlar akademiyasi ijtimoiy tamoyillar siyosiy tadqiqotlar institutining ma'lumotlariga qaraganda rossiyaliklarning xarajatlarida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi tobora salmoqli bo'lib bordi. O'rtacha statistik oila daromadlarining 75-80 foizi ana shu maqsadlarga sarflangan. «Qashshoqlarning mahsulotlari» deb atalmish mahsulotlarning (non, un, sut, kartoshka) narxi xaddan tashqari ko'tarilishi aksincha ana shu tovarlarga talabning o'sishiga olib keldi, chunki aholining shu toifasida boshqa mahsulotlarni sotib olish uchun mablag'lar qolmas edi. (Bunday hodisalar iqtisodiy adabiyotlarda Engel qonunlari va

Giffen hodisasi nomi bilan ma'lum. Engelning qonuniga muvofiq oziq-ovqatga sarflanuvchi oila daromadining bir qismi shu oilaning daromadi oshganida qisqaradi, va aksincha, daromad kamaysa oshib boradi. Diffen hodisasini past razryadli tovarlarni realizatsiya qilish vaqtida ularga talab narx-navo ko'tarilganiga qaramay oshib boradigan vaziyatga nisbatan qo'llasa bo'ladi). Narx-navo sohasidagi islohot narx-navoning ayrim turlari o'rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etgani yo'q. Sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi o'rtasidagi tovar ayirboshlashning oshib borishi va ko'p sonli vositachilarning mavjudligi ulgurji xarid va chakana narxlar o'rtasidagi juda katta farqlarga olib keldi.

Zararli sohalarni budjetdan moliyaviy ta'minlashning qisqarishini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga salbiy ta'sir etdi. Masalan, qishloq xo'jaligi va ko'mir qazib chiqarish ob'ektiv sabablarga ko'ra, davlat budjeti mablag'larisiz umuman faoliyat ko'rsata olmaydi. Yuqorida biz iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda fermerlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi haqida aytib o'tgan edik. Kon - boyitish sanoati ham deyarli butun dunyoda (ikki-uch mamlakat bundan mustasno) davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Narx-navoning realizatsiya qilinayotgan tovarlar va xizmatlar darajasi va sifatiga mos emasligi ham jiddiy muammo hisoblanadi. «Financial Times» gazetasining ma'lumotlariga qaraganda katta shaharlarda 4 va 5 yulduzli mehmonxonalar dunyodagi eng qimmatbaho mehmonxonalardir, bu kamtarin xizmat ko'rsatish darajasiga to'g'ri kelmaydi.

Aholi pul daromadlari va chakana narxlarning tarkib topayotgan dinamikasi talabning jismoniy hajmi va rossiyaliklar xarid qobiliyati pasayishi va pirovard natijada iste'mol tovarlari realizatsiya qilinishining susayishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga iste'mol bozorini tovar resurslari bilan ta'minlashda importning roli oshib borishda davom etdi.

Birinchidan, talab va taklifni muvozanatga keltirish yagona maqsad emas. Talab va taklifning muvozanati birinchi navbatda xalq farovonligining oshishini ta'minlashi kerak. Ikkinchidan, tovar tanqisligi sharoitida erkin narxlardan foydalanish aholining turmush darajasi pasayishiga olib keladi, shu sababli bozor mexanizmini normallashtirishning samarali vositasi deb e'tirof etilishi mumkin emas. Uchinchidan, talab va taklif nisbati butun qayta ishlab chiqarish davri mobaynida shakllanadi; u rivojlanish darajasi va ishlab chiqarish tarkibiy tuzilishi, rivojlanishning mutanosibliigi, sanoat va qishloq xo'jaligi o'sishining dinamikasi, ijtimoiy qayta ishlab chiqarishning birinchi va ikkinchi bo'linmalari, jamg'arma fondi va iste'mol fondi kabi bir qator omillarning belgilovchi ta'siri ostida turadi. Shu munosabat bilan bozordagi

muvozanat kelajakda talab va taklifni hiyla-nayranglar vositasida avtomatik ravishda muvozanatga keltirish hisobiga emas, mamlakat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish zamirida ta'minlanishi mumkin.

### **Qisqacha xulosalar**

Narx – navo qiymatning puldagi ifodasi. Tovar - qiymatning puldagi ifodasi. Bu o'z navbatida narx–navo iqtisodiy kategoriya sifatida tovarlarni ishlab chiqarishga sarflangan ijtimoiy–zaruriy ish vaqtining bevosita o'lchami. Aynan talab va taklifning miqdoriy o'zaro nisbati. Narx–navo almashuv qiymatining takomillashishi natijasida pulning kelib chiqishi, tovar qiymati vazifasini bajaradi; narx–navo almashuv qiymatining puldagi ifodasini aniqlaydi. Tovar muomalasi ikkita sohasining chakana va ulgurji savdosiga muvofiq narx–navoning ikkita turi – chakana va ulgurji bahosi mavjud. Ma'lumki, har qanday tovarning narxi uning qiymati bilan bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Talab va taklifning ta'siri ostida ular qiymat doirasida tebratiladi.

Faqat narx–navoning barqarorligida va egiluvchanligida ishlab chiqarishning kengaytirilishi, tovar aylanmasining o'sishi va uning strukturasi mukammallashtirish yo'li bilan tovarlarni talab va taklif o'rtasidagi zaruriy muvofiqlikni ta'minlash mumkin. Tovar narxining birinchi vazifasi tovar ishlab chiqarishdagi ijtimoiy – zaruriy sarf – xarajatlarni hisob-kitob qilishdan iborat.

Narx–navoni taqsimlash vazifasi o'z navbatida tovarlarni bunday yoki boshqa yo'nalishlarga narx–navo yordamida taqsimlashni anglatadi. Shu bilan birga kammi yoki ko'pmi, narxning ancha-muncha qiymatdan og'ishi ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarni kengaytirish yoki toraytirish bunday yoki boshqa tovarlarni ishlab chiqarishni va iste'mol qilishni rag'batlantiradi. Shuning uchun narx–navoni rag'batlantirish vazifasi ancha–muncha ahamiyatga ega. Albatta narxning yuqori bo'lishi hamma vaqt tovar ishlab chiqaruvchilarga foydali bo'lgan. Bir vaqtlarda narx–navoning yuqori va past chegarasi to'g'risida iqtisodiy adabiyotlarda gap yuritilgan edi, ya'ni narx–navoning yuqori chegarasi ishlab chiqaruvchilar uchun foydali, iste'molchilar uchun zararli bo'lishi yoki uning aksinchasi narx–navoning pastligi iste'molchilar uchun foydali, ishlab chiqaruvchilar uchun zararli bo'lishi mumkin. Shuning uchun ikkala tomon o'rtasida narx–navo juda ham barqarorlashgan qiymatdan uzoqlashmasdan – begonalashmasdan muvozanatni saqlab turishi kerak. Iqtisodiyot nazariyasi fanining asosiy ilmiy vazifalaridan biri qiymatning mehnat nazariyasi – qiymat – narx–navo – sarf–xarajat – ish haqi – kapital va boshqalar to'g'risidagi ijobiy munosabatlarga bag'ishlangandir.



## **Asosiy tushuchalar**

1. Narx –navo
2. Chakana narx
3. Ulgurji narx
4. Qiymat
5. Pul
6. Talab va taklif

## **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Narx–navoning iqtisodiy kategoriya sifatidagi vazifasi.
2. Narx–navoning vazifalarini aniqlab bering.
3. Narx–navo va uning talab–taklif bilan bog‘liqligi.
4. Narx–navoning nomukammal raqobat sharoitida o‘zaro nisbatlari.

## **Mustaqil ta’lim uchun savollar**

1. Narx–navoning iqtisodiy vazifasi va sarf–xarajatlar bilan qarama–qarshiligi nimada?
2. Talab va taklifning ulgurji va chakana baholar bilan o‘zaro nisbati.
3. Narx–navo va talab–taklif.
4. Narx–navo qiymatning puldagi ifodasini tushuntirib bering.

## 19 BOB. ISHLAB CHIQRISH OMILLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

*Afsuski, haqiqatdan ham eski kapitalni yangisi bilan almashtirmoq va mehnatni kapital biln almashtirmoq juda ham muammoli hamda murakkab, erishib bo'lmasa kerak.*

*Kempbell R.Makkonnel, Stenli L.Bryu*

### Umumiy tushuncha

Yuqorida aytib o'tilganidek, har qanday mahsulot ishlab chiqarishni boshlashdan oldin uni kim ishlab chiqaradi va nimadan ishlab chiqariladi, degan vazifani hal etishi lozim. Iqtisodiyot nazariyasi fanida odatda ishlab chiqarishning to'rt omili - mehnat, kapital, yer va tadbirkorlik ko'rsatiladi.

Ushbu bobda birinchi navbatda ishlab chiqarish omillarini batafsil ko'rib chiqamiz. Har kanday ishlab chiqarish omili o'z egasiga ma'lum turdagi daromadni keltirishi lozim.

Resurslar	Ishlab chiqarish omillari	Daromad turi
tabiiy resurslar	er	renta
mehnat resurslari	mehnat	ish haqi
kapital resurslari	kapital	foiz
tadbirkorlik	biznes	foyda

### 19.1-chizma. Resurslar, ishlab chiqarish omillari va ular keltiradigan daromad

#### 19.1. Yer ishlab chiqarish omili sifatida.

Ularni shu ko'rsatilgan shaklda ko'rib chiqamiz. Yerning asosiy tavsiflaridan biri uning maydoni cheklanganligidir. Inson yerning holati, maydonini o'z hoxishicha o'zgartira olmaydi, uni ishlab chiqara olmaydi. Yerning o'rnini hech bir resurs bosa olmaydi, shu jihatdan u o'ta noyob va har tomonlama asosiy resurs hisoblanadi. Lekin foydalaniladigan yer uchun ma'lum miqdorda investitsiya sarflab, hosildorligini oshirish mumkin.

Umuman «er» degan so'zning o'zi keng ma'noda ishlatiladi. U tabiatdagi hamma foydali narsalarni ma'lum hajmda o'rab turadi. Inson

yerning o'zini, suv resurslarini yoki qazilma boyliklarni o'z xohishicha o'zlashtirishga qodir emas.

Inson yer uchastkasining ma'lum ustki qatlamlaridan qandaydir ishlab chiqarish faoliyatida foydalanadi. Masalan, dengiz va daryolarda baliq ovlanadi; yer osti qazilma boyliklari sanoat xom ashyosi sifatida qazib olinadi; yerning qandaydir quruqlik qismidan qurilish uchun foydalaniladi.

Lekin hamma vakt yer to'g'risida gap borganida, biz birinchi navbatda undan qishloq xo'jaligida foydalanishni tushunamiz.

Fermerlar uchun yer uchastkalaridan qishloq xo'jaligida ekin maydoni, chorvachilik uchun yaylov sifatida foydalanishadi. Tuproq unumdorligi uning kimyoviy va mexanik xususiyatlari bilan belgilanadi. Yer o'zining mexanik xususiyati bo'yicha o'simlik o'stirish uchun yumshoq bo'lishi kerak. Kimyoviy xususiyati bo'yicha o'simliklar o'sishi uchun yer uchastkalari o'zida anorganik elementlarni saqlashi kerak. Inson yerga ishlov berib, unga anorganik va kimyoviy ozuqalar solib, tuproq qatlamlari ahvolini yaxshilashi mumkin.

Yer tabiat mahsuli bo'lganidan uning sifati jiddiy tabaqalashadi, yer uchastkalari turli tabiiy iqlim mintaqalarida joylashadi, tuproqning tarkibi har xil bo'ladi. Shu sababdan ularning tabiiy hosildorligi keskin farqlanadi. O'ta yaxshi, yaxshi, o'rtacha, yomon va nihoyat o'ta yomon yerlar mavjud. Qishloq xo'jaligida yerning sifati mehnat unumdorligining muhim omili hisoblanadi. Bu sohada unumdorlik, binobarin, ishlab chiqarish samaradorligi tuproqning tarkibi, yerning iqlim sharoiti va nihoyat, yer uchastkalarining geografik joylashuviga bog'lik. Yer qa'ridagi qazilma boyliklar zahirasi, ularning geologik sharoiti, sifati ham bir-biridan farqlanadi. Yer o'zi bilan bog'liq ishlab chiqarish sharoitini farqlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi maydonlari 3 mintaqaga bo'linadi: tog' va tog' oldi mintaqasi — respublika hududining 20% dan ortikrog'ini tashkil etadi. Asosan lalmikor dehqonchilik (bug'doy, arpa, no'xat, zig'ir), bog'dorchilik va uzumchilik tarakqiy etgan bu mintaqada mavsumiy bahorgi-kuzgi yaylovlar bor, chorvachiligi go'sht-jun yetishtirishga ixtisoslashtirilgan. Sug'oriladigan dehqonchilik mintaqasi respublika hududining qariyb 20%ni tashkil etadi. Bu mintaqqa Farg'ona vodiysi, Mirzacho'l, Dalvarzin cho'li, Chirchiq-Ohangaron, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxon-Sherobod vodiylari, quyi Amudaryoni o'z ichiga oladi. Asosan, paxta, shuningdek, kanop, don (bug'doy, makkajo'xori, sholi) kartoshka, sabzavot ekinlari (qovun - tarvuz, qovoq), yem-xashak ekinlari (beda, qo'shaloq barglar va boshqalar) yetishtiriladi. Bog' va tokzorlar, tutzorlar, rezavor, meva maydonlari bor, go'sht-sut chorvachiligi rivojlangan.

Cho'l-yaylov mintaqasi respublika hududining 60%ini tashkil etadi. Asosan cho'l va suvsiz tekisliklardan iborat. Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari, Qoraqalpog'iston va Farg'ona vodiysining markaziy qismi shular jumlasidandir.

## 19.2. Yer fondi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yer davlat mulki hisoblanadi. Davlat qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan korxonalar va xo'jaliklarga, shuningdek, fuqarolarga muddatsiz yoki vaqtincha foydalanish uchun yer ajratib beradi. Davlat yer fondi yer egalari yoki yerdan foydalanuvchilar ixtiyoridagi barcha yerlarni - haydalma yerlar, daraxtzor, yaylov, pichanzor, o'rmonzor, quruq yer, qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlarning jamini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining umumiy yer maydoni 448,97 ming ga, barcha qishloq xo'jaligi yerlari 24057,1 ming ga, shundan haydaladigan yerlar 3 988,4 ming ga, ko'p yillik o'simliklar ekiladigan yerlar 400,1 ming ga, pichanzor va yaylovlar 14 983,5 ming ga, boshqa yerlar 4 685,1 ming ga.ga teng (19.1-jadvalga karang).

### 19.1 -jadval

#### Qishloq xo'jaligi yerlarining tarkibi<sup>73</sup> (ming gektar)

	Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi yerdan foydalanuvchilar ixtiyoridagi yer maydoni	Shu jumladan:			
		Haydaladigan yerlar	Ko'p yillik ekinzorlar	Pichanzor va yaylovlar	boshqa yerlar
2018	20 261,6	3 999,0	376,8	11 091,5	4 794,3
2019	20 236,3	3 988,5	383,1	11 028,3	4 836,4
2020	20 761,6	3 998,5	388,7	11 559,7	4 814,7
2021	24 057,1	3 988,4	400,1	14 983,5	4 685,1

O'zbekiston Respublikasi yer fondining asosiy qismi (57,1%) qishloq xo'jaligida band, qolgan qismi fuqarolar yerlari - tomorqa (1,6%), o'rmon va to'qayzorlar (7,9%), bog'lar, uzumzorlar, sabzavot ekinzorlari (0,02%) va boshqa yerlardan (33,3%) iborat. (19.2-jadval)

<sup>73</sup> Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 2017-2020. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Қўмитаси, Тошкент 2021. - Б.24

**19.2-jadval**

**O‘zbekistonda foydalaniladigan yer maydonlari<sup>74</sup>**  
**(2020 yil, ming ga)**

Umumiy yer maydoni	44892,4
Jami qishloq xo‘jaligi yerlari	25639
Ekin maydonlari	4033,5
Ko‘p yillik ekinzorlar	403,8
Yer osti boyliklari maydonlari	83,7
Pichanzorlar va yaylovlar	21118
tomorqa yerlar	726
o‘rmonzorlar	3433,9
Bog‘lar, uzumzorlar, sabzavot ekinzorlari	7,2
Butazorlar	155
Boshqa yerlar	14931,3

**19.3-jadval**

**O‘zbekiston Respublikasi yer fondi maydonlarining o‘zgarishi<sup>75</sup>**  
**(1991-2020 yy., ming ga.)**

	1991	2010	2016	2020	2020 y.da 1991 y.ga nisbatan %
Umumiy yer maydoni	44797,7	44410,3	44892,4	44892,4	1,0
qishloq xo‘jaligi yerlari	32555,3	21453,2	20388,8	20761,6	0,6
Aholi yashash punktlari	207,6	220,4	219,2	223,4	1,1
Sanoat, transport, aloqa, mudofaa yerlari	1831,7	1995,8	909,6	867,4	0,5
Tabiatni muhofaza qilish, rekreatsion	15,5	75,9	76,0	731,7	47,2

<sup>74</sup> Земельный фонд страны и его категории. <https://staff.tiiame.uz/storage/users/443/presentations/IE3stmlaq2bAkJFFotdfspJVc07b6H8tySUdmCr9.pdf>

<sup>75</sup> Земельный фонд страны и его категории. <https://staff.tiiame.uz/storage/users/443/presentations/IE3stmlaq2bAkJFFotdfspJVc07b6H8tySUdmCr9.pdf>

Tarixiy-madaniy obidalar	-	1,1	13,7	14,6	13,3*
O‘rmon fondi	2860,1	9462,3	9773	12020,8	4,2
Suv fondi	628,1	821,1	833,3	835,2	1,3
Zaxira	6999,4	10380,5	12678,8	9437,7	1,3

\*- 2010 yilga nisbatan

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik davrida umumiy yer maydoni 1,0% ga, qishloq xo‘jaligi yerlari 0,6% ga, aholi yashash punktlari 1,1% ga, sanoat, transport, aloqa, mudofaa yerlari 0,5% ga, tabiatni muhofaza qilish, rekreatsion yerlar 47,2% ga, tarixiy-madaniy obidalar 13,3% ga, o‘rmon fondi 4,2% ga, suv fondi 1,3% ga, zaxira yerlar 1,3% ga ko‘paydi.

Yerlardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini tiklash, tabiiy muhitni asrash va yaxshilash, xo‘jalik yuritishning hamma shakllarini teng huquqlilik asosida rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish maqsadida respublikada yer munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi bilan tartibga solindi.

### 19.3. Yer va renta munosabatlari


**Renta munosabatlari.** Yer, uning qazilma resurslari va ko‘chmas mulklar narxini tashkil qilish va ulardan foydalanishdan keladigan daromadni taqsimlash bo‘yicha munosabatlar renta munosabatlari, deb ataladi.

Torroq ma‘noda iqtisodiy renta, deganda ijarachi tomonidan yer egasiga unumli foydalanish va foyda olish imkoniyati uchun to‘lanadigan yer bahosi nazarda tutiladi. Renta shu foydaning bir qismi bo‘lib, yer egasi foydasiga uni taqsimlash yo‘li bilan to‘lanadi. Yerga, uning tabiiy resurslari, ko‘chmas mulk ko‘rinishidagi qurilgan binolarga egalik sof, ya‘ni absolyut renta hamda ijara haqi sifatida daromad olishga asos bo‘ladi. Ko‘pincha renta agar yer uchastkasi u yerda qurilgan binolardan xo‘jalik maqsadida foydalanish uchun ijaraga olinsa, ijara haqini ham o‘z ichiga oladi. Ijara haqi mustaqil shakl sifatida chiqadi va bunda faqat ko‘chmas mulk, ya‘ni inshootlar, binolardan foydalaniladi.

Ishlab chiqarish omillari bozorida yer, uning resurslari va ko‘chmas mulklari xo‘jalik yuritishning ko‘pgina sohalarida o‘zaro almashinish muqobiliga ega bo‘lmagan resurslar sifatida tovarlar aylanmasiga kiritilgan. Ularning taklifi bozorlarda qayishqoq bo‘lmaganligi yoki yetarli darajada qayishqoq bo‘lmaganligi uchun ular iqtisodiy renta keltiradi.

Agar chizmada yer taklifi egri chizig‘i tasvirlansa, u absolyut vertikal chiziq ko‘rinishiga ega bo‘ladi. (19.2-chizma). Yerning unumdorligini oshirish, uning sifatini yaxshilash mumkin, ammo yer bahosi sifatida rentaning bozor darajasini oshirish mumkin emas. Sof iqtisodiy renta yerning bozordagi talab va taklifining nisbati bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish omili sifatida yer, uning resurslari va ko‘chmas mulklari nisbatan qayishqoq bo‘lmagan taklif sharoitlarida bozor talabi bahoni tashkil qilishning muhim sharti sifatida chiqadi.




**19.2-chizma. Yerning talab va taklifi.**

Tadbirkor uchun yerga talab va u bilan bog‘liq ishlab chiqarish omillarining puldagi ifodasi olinayotgan eng yuqori mahsuldorlik o‘lchami bilan mos kelishi kerak. Talab egri chizig‘ining og‘ishi daromadning asta-sekin pasayib borishini bildiradi, unga yerdan foydalanish usullarini yaxshilash, ilg‘or texnologiyalarni, shuningdek, ishlab chiqarish omillaridan foydalanishning ilg‘or usullarini qo‘llash bilan qarshilik qilish mumkin.


**SS** - yerning qayishqoq, bo‘lmagan taklifi; **DD** - yerga potensial talab; **D<sub>1</sub>D<sub>1</sub>** - yer renta keltirmagan sharoitdagi yerga talab; **Ye** -erning muvozanatli bozor narxi, u talab va taklifga asosan **R** darajasida qaror topdi.

#### **19.4. Differensial renta.**

Differensial renta - bu yerning qulayroq foydali uchastkasidan olinadigan rentadir. U daromadning ba‘zi ijobiy jihatlariga ega, bu jihatlar yerning hosildorligi, ancha qulay joylashganligi, qazilma resurslarning ko‘pligi hamda sayozroq joylashganligidan vujudga keladi.




**19.3.a-chizma. Differensial renta neft narxi va uni uncha chuqur bo‘lmagan qatlamlardan qazib olish xarajatlari o‘rtasidagi farq sifatida tasvirlangan**





**19.3.b-chizma. Bu yerda differensial renta yo‘q, chunki neft qatlamlarining ancha chuqur joylashuvi sharoitida neft narxi va uni qazib olish xarajatlari mos keladi.**



**19.3.v-chizma. Bu yerda differensial renta yo‘q. Neft qatlamlari g‘oyat chuqur joylashgani tufayli uni qazib chiqarish zarar keltiradi, qazib chiqarish xarajatlari neft narxidan yuqori.**

19.3 a, 19.3 b va 19.3 v chizmalarida differensial renta ishlab chiqarishning eng yuqori xarajatlari egri chiziqlari yordamida va neft qazib chiqaruvchi uch kompaniyaning o‘rtacha harajatlari orqali ko‘rsatilgan. O‘ziga xoslik shundaki, har bir kompaniyaning neft qatlamlari turli chuqurlikda joylashgan.

Differensial rentaning vujudga kelishi (19.3.a chizmaga qarang). Bu yerda neft qatlamlarining joylashuvi chuqur emas, qayd etilgan bozor narxlarida 1 tonna qazilgan neftning eng yuqori va o‘rtacha xarajatlari eng past bo‘ladi. Demak, faqat shu holda mahsulotning bozor narxi va yuqorida aytilgan neftni qazish xarajatlari o‘rtasidagi farq sifatida differensial renta paydo bo‘ladi.

**19.5. Mehnat – ishlab chiqarish omili sifatida**

**Mehnat** — aniq maqsadga yo‘unaltirilgan inson faoliyati bo‘lib, uning yordamida inson o‘z talabini qondirish uchun tabiatni o‘zlashtiradi va o‘ziga moslashtiradi.

Iqtisodiyot nazariyasida mehnatga ishlab chiqarish omili, kishilarning xo‘jalik faoliyati jarayonida sarflaydigan har qanday aqliy va jismoniy mehnati, kuch-g‘ayrati, deb qaraladi.

Kishilarning ma'lum vaqt mobaynida mehnat qilishi ish kuni yoki ish vaqti deb ataladi. Ish vaqtining davomiyligi o'zgaruvchan bo'ladi, lekin u ham ma'lum chegaraga ega. Uning maksimal davomiyligi ikki omil bilan belgilanadi: birinchidan, inson sutkasiga 24 soat ishlay olmaydi, sababi uning uxlashi, dam olishi, ovqatlanishi, ya'ni mehnat qilish qobiliyatini tiklashi uchun kerak. Ikkinchidan, ish vaqtining chegarasi ahloqiy va ijtimoiy xususiyatga ega talablar bilan belgilanadi. Axir vaqt insonga faqat jismoniy kuchini tiklash uchun emas, balki qandaydir ma'naviy ehtiyojini kondirish uchun ham zarur. Zarur ish vaqtining davomiyligiga, shuningdek, mehnatning intensivligi, sanoat siklining harakat fazasi, ishsizlar miqdori kabi omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Mehnat to'g'risida gapirganda ya'ni **mehnat unumdorligi** va **mehnat intensivligi** kabi tushunchalarga ham to'xtab o'tish zarur. Mehnat intensivligi mehnatning tig'izligi bilan xarakterlanadi, ya'ni ish vaqtining birligida jismoniy va aqliy energiyaning sarf qilingan darajasi bilan aniqlanadi. Mehnat intensivligi konveyerlar ishining tezlashishi bilan ortadi, bir vaqtda ko'p sonli asbob-uskunalarda ishlashning ortishi, ish vaqti behuda sarfining kamayishi bilan belgilanadi.

Ishchilarning jismoniy quvvat sarflashi fan-texnika inqilobi sharoitida kamayadi, shu tufayli ishlab chiqarishni kompleks avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash bilan bog'liq aqliy va ruhiy quvvatlarning sarflanishi oshadi. Mehnat intensivligi ish vaqtining ko'payishi bilan bir xil ahamiyatga ega. Mehnat unumdorligi ish vaqti birligida qanday hajmda mahsulot ishlab chiqarilganligini ko'rsatadi. Mehnat unumdorligining o'sishida fan-texnika taraqqiyoti asosiy hal etuvchi ahamiyatga ega.

Fan-texnika inqilobi mehnat xarakterining o'zgarishiga olib keladi. Hozirgi zamonda mehnat yuqori malakani talab qiladi, kadrlarni kasbiy tayyorlashga sarflanadigan vaqt ko'paydi, jismoniy mehnat ishlab chiqarish jarayonlarida kam ahamiyatga ega bo'lmoqda, u ancha murakkablashmokda, shu sababli insonga murakkab mashina va mexanizmlar bilan ishlashga to'g'ri kelmokda, ishchining texnologik jarayonlar mohiyatini tushunishi, qimmatbaho, murakkab asbob-uskunalar bilan ishlashni bilishi, tashabbuskorlik ko'rsatmog'i lozim bo'lmoqda.


## 19.6. Mehnat bozori

**Mehnat bozorining xususiyatlari.** Mehnat bozori muvozanatga intiladi, shu muvozanatda ishchi kuchining har bir kategoriyasiga yalpi talab taklif bilan mos keladi. Bu muvozanat shu bilan birga, boshqa omillar: yer, xom ashyo, texnika, texnologiya, iste'mol tovarlari bozorlari holatiga ham bog'liq bo'ladi. Mehnat bozorining o'zida raqobat muhitining ham mavjudligi muhim

holat sifatida chiqadi, talab va taklifning qaror topgan muvozanatida mehnatga haq to'lashning o'sishi yoki kamayishining jiddiy tamoyillari paydo bo'lmaydi.

Ishchi kuchi bozorlarining va xususan mehnat taklifining xususiyati shundaki, ko'p hollarda xodim yoki ishchi qancha vaqtni mehnatga, qanchasini bandlikning muqobil turiga va dam olishga bag'ishlashini o'zi hal qiladi. Agar to'lov darajasi ishchi yoki xodim uchun qoniqarli bo'lsa, iqtisodiyotning istalgan sektorida yollanish to'g'risidagi shartnomaning davomiyligi shu bilan belgilanadi.

«Ish - bo'sh vaqt» ikki imkoniyatdan biri (dilemmasi) mehnat bozoriga nisbatan qo'llanilgan holda «almashinish samarasi va daromad samarasi» nomini oladi, uni grafikda o'ziga xos og'ishga ega bo'lgan yuqoriga qarab ko'tarilgan mehnat taklifi egri chizig'i bilan namoyish qilish mumkin (19.4-chizma). Mehnat taklifi egri chizig'ining xarakterli og'ishi oshib borayotgan ish haqi ishchini ma'lum vaqtgacha rag'batlantiradi. Shu davr davomida bo'sh vaqt yuqori ish haqiga qurbon qilinadi. Yuqori darajada moddiy ta'minlangan va farovonlikka erishgan ishchi yoki xodim o'z mehnatini taklif qilishni to'xtatadi va hatto ish haqining oshishi davom etayotgan bo'lishiga qaramay qo'shimcha bandlikdan voz kechadi. Mazkur xodim uchun «daromad samarasi» «bo'sh-vaqt samarasi» bilan almashinadi.



**19.4-chizma. Mehnat bozori. «Daromad samarasi»ni «bo'sh vaqt samarasi» bilan almashtirish tarzi bo'yicha mehnat taklifi.**

Umuman olganda, mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi quyidagi shartlarning birgalikdagi ta'siri ostida shakllanadi:

- aholining umumiy soni;
- faol mehnatga qobiliyatli aholining soni;
- yil davomida ishlangan vaqt miqdori;
- mehnatning sifat o'lchamlari, uning malakaliligi, mahsuldorligi, ixtisoslashuvi.

Mehnat unumdorligining umumiy darajasi kapital, resurslar, texnologiyalar, ishlab chiqarish usullarining kooperatsiyasiga bog'liq mehnatga haq to'lashning umumiy darajasi ham shularga bog'liq, ammo u mehnat taklifi ishlab chiqarishning boshqa omillari va ishchi kuchiga qayd qilingan talabga nisbatan cheklangan bo'lganda ham oshadi.

### **19.7. Mehnat narxi yoki ish haqi**

Raqobatli bozorlarda mehnat narxi, ya'ni ish haqi xodimlarning turli kategoriyalari bo'yicha, ish turlari bo'yicha, mehnatning talab va taklifga ta'sir qiluvchi va o'z xodimlari ish haqini oshirishga harakat qiluvchi kasaba uyushmalarining bor yoki yo'qligiga qarab, talab va taklifning raqobatli muvozanati sifatida belgilanadi. Ish haqiga har qanday iqtisodiyotda daromadning eng muhim va eng ommaviy shakli deb qaraladi. Bozor tizimida ish haqi yana shuning uchun ham muhim kategoriyadirki, u rivojlangan mamlakatlarda milliy daromadning taxminan  $\frac{3}{4}$  qismiga yetadi. Iqtisodiyotda ko'pgina jarayonlarni tartibga solish ish haqi bilan bog'liq. Masalan, nominal va real ish haqi o'rtasidagi tafovut inflyatsiya darajasining ko'rsatkichlaridan biridir. Nominal ish haqi — bu pul to'lovlari summasi, real ish haqi pul summasiga har bir oila sotib oladigan tovarlar va xizmatlar narxi darajasi bilan belgilanadi.

Ish haqidagi farqlar. Ko'p hollarda ish haqidagi farqlar xodimlarning kasb mahorati va u bajarayotgan ish turiga bog'liq bo'ladi. Mehnatga haq to'lashda farqlar bajarilayotgan vazifaning sifati, bajarilayotgan ishning yoqimli yoki yoqimsizligi, murakkab yoki oddiy bo'lishi mumkinligi bilan belgilanadi. Ish haqiga qo'shimcha uning asosiy stavkasini tungi vaqtda bajargan ishi uchun beriladi, ish haqi stavkasiga oshirilishi noqulay yoki sog'liq uchun zararli sharoitdagi ishga ham taalluqlidir. Yuqori malakali mehnat yuqoriroq ish haqi bilan taqdirlanadi, chunki, birinchidan, bunday mehnat olinadigan foydaga kattaroq hissa qo'shadi. Ikkinchidan, malakali mutaxassislarning yuqori ish haqi ta'lim va kasbiy tayyorgarlikka ketgan vaqt, mablag' va xarajatlarning avvalgi sarflarini qoplaydi.

Po'lat erituvchilar va vrachlar, raqqoslar va matematiklar, yuk mashinasi haydovchilari va tarbiyachilar kabi xodimlar kasbiy guruhlarida o'rtasida raqobatning yo'qligi tufayli ularning ish haqlarida jiddiy farqlar bo'lishi

mumkin. Shunday kategoriya xodimlarning vakillari bir guruhdan ikkinchisiga o'tishi amalda mumkin emas, demak, ular orasida raqobat ham vujudga kelmaydi. Raqobatli muhit yo har bir kasbiy guruh ichida yoki o'zaro almashinishi mumkin bo'lgan kasblar va mutaxassisliklar guruhlari ichida vujudga keladi.

Alohida iste'dod yoki iqtidorga ega bo'lgan sohalar: musiqachilar, olimlar, grossmeysterlar, davlat arboblari va boshqalar alohida guruhni tashkil etadi. Ular mehnatiga haq to'lashga iqtisodiy renta elementi, ularning tabiiy iqtidorlari uchun to'lov ham kiradi.

### **19.8. Mehnat bozorlarida muvozanatdan chetga chiqish va ishsizlik**

Umuman olganda, agar mehnat bozorlarida raqobat muhiti mavjud bo'lsa, har bir kasbiy guruh uchun ish haqi darajasi ishchi kuchiga o'zaro muvozanatlashuvchi talab va taklif ta'siri ostida bo'ladi. Ammo real vaziyat mehnatning to'liq raqobatli bozorlari ideal sharoitlaridan ko'pincha farq qiladi. Bir tomondan, bu ish beruvchilarning xodimlarni yollash va ularga ish haqini belgilash sohasidagi siyosati tufayli, boshqa tomondan, masalan, kasaba uyushmalarining harakatlari bilan tug'iladigan mehnat taklifi va unga haq to'lash sohasidagi monopoliya tamoyillari tufayli sodir bo'ladi. Natijada, bozor muvozanati yoki ish haqining oshishi va ishsizlikning ko'payishi yoki bandlikning oshishi va ish haqining nominal o'suvchi va real pasayuvchi inflyatsiyasi bilan buzilishi mumkin.

Real ish haqi asosli oshishining iqtisodiy shartlari har bir ishlovchi birligiga to'g'ri keladigan ratsional va samarali foydalaniladigan tabiiy resurslarning yuqori o'lchov birligi hamda kapital ko'payishi, texnologiyalarning yaxshilanishi hisobga ishlab chiqarish usullarining takomillashganligi mehnat samaradorligi va uning mahsuldorligi o'sishiga turtki bo'ladi. Bunday sharoitlarda raqobat bozorida ish haqi darajasi o'sib boradi va ishchi kuchiga yalpi talab va taklifning muvozanat nuqtasi yuqoriga ko'tariladi.

Talab va taklif muvozanatining buzilishi ko'pincha kasaba uyushmalarining monopoliyaga ta'siri ostida sodir bo'ladi, birinchidan, ko'pincha boshqa iqtisodiy sharoitlarni xisobga olmay ish haqini oshirishni; ikkinchidan, boshqa iqtisodiy sharoitlarni hisobga olmay mehnatning kapital bilan almashishini tezlashtirishni yoqlashadi, bu esa, ishchi kuchiga talabning nisbatan kamayishiga olib keladi; uchinchidan, kasaba uyushmalari tomonidan egallangan sohada mehnat taklifini cheklovchi chegaralar qo'yilishini talab qiladi va h.k.

Ish haqi ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiradi va chiqarilayotgan mahsulot – tovar narxining oshishiga olib keladi, buning oqibatida

iste'molchilar talabi pasayishi mumkin. Tovar narxining oshishi kapital jamg'armalarining va fuqarolar jamg'armalarining kamayishiga olib kelishi mumkin. Ammo ishsizlikning o'sishi eng jiddiy va noxush oqibat bo'lishi mumkin.

### 19.9. Kapital – ishlab chiqarish omili sifatida

Ishlab chiqarishning navbatdagi omili - kapitaldir. Shuni eslatmoq kerakki, «kapital» atamasi (oldingi boblarda ham bir necha bor tilga olingan) juda ko'p ahamiyatga ega: u moddiy boylik zahiralari sifatida o'ziga nafaqat moddiy buyumlarni, balki nomoddiy elementlarni ham, ya'ni insonlarning qobiliyati, bilimini ham olishi bilan izohlanishi mumkin.

Iqtisodchilar kapitalni ishlab chiqarish omili sifatida ta'riflash va uni ishlab chiqarish vositalari bilan tenglashtirishadi. Bunday yondashuv klassik siyosiy iqtisodchilardan meros bo'lib keladi: A.Smit kapitalga jamg'arma, mehnat deb qaragan, D.Rikardo kapitalni ishlab chiqarish vositasi, deb hisoblagan.

Kapital uzoq vaqt davomida foydalaniladigan, boshqa tovarlarni ishlab chiqarish uchun iqtisodiy tizimlar yaratgan moddiy boyliklardan iborat. Bu son-sanoqsiz stanoklarni, yo'llar, kompyuterlar, bolta-bolg'alarni, yuk tashuvchi mashinalarni, prokat stanoklari, inshootlar va boshqa ming xil moddiy boyliklarni o'z ichiga oladi.

Kapitalning boshqa kategoriya sifatidagi ko'rinishi uning pul shaklidagi ko'rinishi bilan bog'liq. Masalan, J. Robinsonning aytishicha, kapital – bu huddi investitsiya moliyasida o'zini mujassam etmagan pul summasidir. Umuman, kapitalga bo'lgan dunyoqarashlar har xil, lekin ularning hammasi bir fikrda yakdil: ya'ni kapital daromad olib kelish qobiliyatiga ega. Kapitalni tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, ularni iste'molchilarga yetkazib berishda foydalanadigan investitsiya resursi sifatida ta'riflash mumkin.

A.Smit, J.S.Mill va boshqa iqtisodchilar kapitalni importda va inshootlarda, stanoklarda, asbob-uskunalarda moddiylashgan, ishlab chiqarish jarayonida bir necha yil, bir necha ishlab chiqarish sikllarida harakat qiluvchi omil, deb farqlashgan. Uni **asosiy kapital** deyishadi. Kapitalning boshqa biri bu xom ashyo, materiallar, energiya resurslari, bir ishlab chiqarish siklida to'liq sarf qilinadigan, ishlab chiqarilgan mahsulotlarda mujassamlangan turidir. U **aylanma kapital** deyiladi. Aylanma kapital mahsulotlar realizatsiya qilinganidan keyin to'liq tadbirkorga qaytadi. Asosiy kapitalga sarf qilingan xarajatlar shunday tezlikda qoplanmaydi.

Ishlab chiqarish jarayonlariga sarflangan asosiy kapital jismoniy va ma'naviy eskiradi. Jismoniy eskirish deganda asosiy kapitalning elementlari

ishlab chiqarishda foydalanishga jismoniy jihatdan eskirishi va yaroqsiz bo‘lib qolishi tushuniladi. Jismoniy eskirish bir necha omillar bilan izohlanadi. Mehnat vositalarining nimadan tayyorlanganligi, asosiy kapital qo‘llanayotgan atmosfera ta‘siri bilan materiallarda ro‘y beradigan ichki jarayonlar, mashina va asbob-uskunalaridan uzoq vaqt davomida intensiv foydalanish, ishlab chiqarish texnologiyasining asosiy xususiyatlari shular jumlasidandir.

Jismoniy eskirish darajasi bilan asosiy kapitaldan uzoq vaqt davomida foydalanish o‘rtasida to‘g‘ri proporsional bog‘liqlik bor: mashina va asbob-uskunalarni qanchalik ko‘p vaqt ekspluatatsiya qilinsa, ular shunchalik ko‘p darajada jismoniy eskiradi.

Asosiy kapitalga jismoniy eskirishdan tashqari ma‘naviy eskirishiga ham xosdir. Asosiy kapitalning qadrsizlanish jarayoni, arzon yoki ko‘proq zamonaviy asbob-uskunalarining paydo bo‘lishi shular jumlasidan. Asosiy kapitalning ma‘naviy eskirishi asosan, fan-texnika taraqqiyotining yuqori darajada rivojlanishi bilan bog‘liq. Ma‘naviy eskirish ikki xil bo‘ladi: birinchisida, asosiy kapital asbob-uskunalarni ishlab chiqarishga kamroq sarf-xarajat qilinishi, ularning arzonlashishi bilan bog‘liq, ikkinchida, fan-texnika taraqqiyoti natijasida ko‘proq zamonaviy unumdor asbob-uskunalar paydo bo‘ladi. Hozirgi vaqtda sanoat tarmoqlarida fan-texnika taraqqiyotini belgilaydigan yangi texnologiyaga o‘tish o‘rtacha uch yilni egallaydi. Ma‘naviy eskirgan asbob-uskunalar iqtisodiy samarasiz bo‘ladi, shunday ekan, ular ishlab chiqargan mahsulot raqobat kurashiga bardosh beraolmaydi. Shuning uchun ham mamlakatimizda mustaqillik yillarida zamonaviy fan-texnika asosida qurilib ishga tushirilgan yangi zavodlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sifatli, raqobatbardoshligini jahon bozori talablari darajasiga yetkazish muhimdir.

Ma‘naviy eskirgan asbob-uskunalar texnikani modernizatsiya qilish dasturi asosida yangilanmoqda, albatta, bu asosiy kapitallarga katta xarajat talab qiladi.

Jismoniy va ma‘naviy eskirgan asbob-uskunalarni yangilash amortizatsiya ajratmalari hisobiga o‘tkaziladi (asosiy kapital qiymatining bu qismi har yili ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga kiradi). Amortizatsiya summasining asosiy kapital foizida ifodalangan qiymatiga munosabati amortizatsiya me‘yori deb ataladi.

### **19.10. Kapital aktivlari bozori. Diskontlash**

*Kapital va kapital aktivlari bozorining xususiyatlari.* Kapital va kapital aktivlari bozori – ishlab chiqarish omillari bozorining tarkibiy qismidir. Kapital aktivlariga: bino va inshootlarning barcha turlari, texnika va ishlab

chiqarish yoʻnalishidagi mashinalarning barcha turlari; uskuna va asboblarning barcha turlari; yer, xom ashyo va materiallar; energiya va gʻoyalar; kompyuterlar dasturiy taʼminoti va iqtisodiy mazmundagi turli-tuman axborotlar kiradi.

Ushbu fikrdan koʻrinib turibdiki, hozirgi zamon iqtisodiyotida kapital tushunchasining chegaralari keng, u jismoniy va aql-zakovat obʼektlariga tarqaladi. Ishlab chiqarish omillari bozori va u yerda amal qiluvchi talab va taklif qonunlarining xususiyati kapital aktivlarining har qanday turi narxini belgilaydi. Ularning narxini ulardan foydalanish va ularni qoʻllash natijasida keladigan daromad chiqaradi. Kapital va kapital aktivlarining umumlashgan daromadidan yillik foiz stavkasi belgilanadi, yaʼni qoʻllanilayotgan kapital kattaligiga foiz nisbatida teng, odatda, maʼlum vaqt uchun, koʻpincha bir yillik daromad kattaligi kelib chiqadi. Olinayotgan daromad hajmi kapital va kapital aktivlari narxi sifatida, hatto, omad keltiradigan naqd pullar, qimmatbaho qogʻozlar shaklida belgilanadi. Kapital va kapital aktivlarining shakllari turli-tumandir, ularni koʻpincha natura – buyum koʻrinishida hisoblash (jamlash) mumkin emas. Ammo bozor ularni bir tarzda baholashni va oʻlchashni talab qiladi, chunki busiz asosli investitsion qarorlar qabul qilish daromadlar hisob-kitobini amalga oshirish mumkin emas.

Har qanday aktiv shaklidagi kapital qiymatining umumiy mahraji sifatida uning puldagi bahosi chiqariladi. Hidrostansiyalar, traktor va kompyuterlar, qurilish materiallari va konserva zavodlari uchun xom ashyo qiymatini pul koʻrinishida hisoblash mumkin.

Obligatsiyalar, aksiyalar va boshqa har qanday qimmatbaho qogʻozlar nominal pul oʻlchamida ifodalanadi. Amalda ishlab chiqarish maqsadlariga moʻljallangan barcha iqtisodiy neʼmatlarning pul shaklidagi ifodasi bozorda muomala qiladigan kapital aktivi koʻrinishini oladi.

**Foiz.** Ishlab chiqarish omillari sifatida muomalaga kiritilgan kapital aktivlari koʻrinishidagi real iqtisodiy neʼmatlarning mahsuldorligi qancha yuqori boʻlsa, kapital aktivlaridan keladigan daromad sifatidagi foiz ham shuncha yuqori boʻladi.

Murakkab ishlab chiqarish jarayonlarini darhol yoki kelajakda amalga oshirish uchun pul mablagʻlari jamlanishi kerak, chunki ular real kapitalga aylantirish davomida yuqori darajada unumdor boʻlib boradi, demak, kelajakda ancha yuqori daromad keltiradi. Aynan ana shu maqsad bilan kapitalni jangʻarish va uni investitsiyalash amalga oshiriladi. Daromadlilikni baholash sof kapital unumdorligi asosida amalga oshiriladi; sof unumdorlik esa, birinchidan, foyda hisobidan amalga oshiriladigan barcha toʻlovlardan keyin, ikkinchidan, amalga oshiriladigan sarf-xarajatlar solishtirilib



hisoblanadi. Samarali investitsiya loyihasi – bu shunday loyihaki, undan keladigan yillik daromad bank stavkasini qo‘shganda har qanday boshqa kapital aktivining bozor me‘yoridagi foizidan past bo‘lmasligi kerak.

**Diskontlash.** Daromadni hisoblash yoki kapitalning sof unumdorligini hisob-kitob qilish diskontlash, deb ataladi. Bankning foiz stavkasi bu hisob-kitoblarda belgilovchi ahamiyat kasb etadi. Uning asosida daromad hisob-kitobi foiz shaklida amalga oshiriladi, foizlar esa, bo‘lajak investitsion loyihalaridan olinishi mumkin. Diskontlash quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:  $D=Dt/(1+r)$ , bunda, **D** – aktivning joriy diskontlangan qiymati; **Dt** – yilga teng davrga investitsiya qilingan aktivning yillik bo‘lajak daromadi; **r** – bank foizining me‘yori.

Sanoatga va boshqa investitsiyalar shunday iqtisodiy ma‘noga ega bo‘ladiki, ulardan keladigan yillik daromad bank depozitlari bo‘yicha foizdan yuqori bo‘lishi kerak. Investitsiya xavfi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa barcha aktivlar daromadi ham shunday. Investitsiya tovarlari, ya‘ni uskunarlar, xom ashyo va materiallarning narxi diskontlash yordamida hisoblanadi, investitsiya tovarlaridan unumli foydalanishdan keladigan bo‘lajak daromadlarga bog‘liq holda belgilanadi. Bozorda sotib olinadigan tovarlar esa, shu tovarlarni qo‘llashdan keladigan daromadning yillik darajasi, foiz me‘yori, xizmat muddati oxiridagi qoldiq qiymat bo‘yicha realizatsiya qilinishi mumkin.

### **19.11. Tadbirkorlik ishlab chiqarish omili sifatida**

Tadbirkorlik faoliyati bozor xo‘jaligining ajralmas qismi sifatida paydo bo‘lgan. Shunday bo‘lsa ham tadbirkorlik tarixi asrlarning chuqur qa‘riga kirib boradi. Uning hozirgi zamondagi tushunchasi kapitalizmning paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan bog‘liq.

Iqtisodiyot nazariyasida «tadbirkor» tushunchasi XVIII asrda paydo bo‘lib, ko‘pincha «mulkdor» tushunchasi bilan birgalikda ishlatilgan. Birinchi bo‘lib «tadbirkor» atamasini iqtisodiyot nazariyasiga ingliz iqtisodchisi R.Kantilon kiritgan. Kantilonning ta‘biricha, tadbirkor – manbai noaniq, qayd qilinmagan daromadga ega odam (dehqon, savdogar, hunarmand, qaroqchi, va boshqalar). U begonalarning tovarini ma‘lum narxda sotib oladi, o‘zining tovarini o‘ziga ham noma‘lum narxda sotadi. Bu yerda tavakkalchilik tadbirkorga xos xususiyat yotadi, uning asosiy iqtisodiy vazifasi tovar bozorida talabga mos taklifni keltirishdan iborat.

A.Smit ham tadbirkorni foyda olish uchun qandaydir tijorat g‘oyasi, tavakkal qilishga undaydigan mulkdor sifatida ta‘riflaydi. U o‘z g‘oyasini rejalashtiradi, ishlab chiqarishni tashkillashtiradi, uning natijalarini idora etadi.

J.B.Sey tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlarini batafsil ta'riflab, daromadning bir qismini tadbirkorlik qobiliyati uchun to'lov, deb ta'kidlaydi.

Nemis iqtisodchisi V.Zombart va avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeter tadbirkorlik nazariyasini ishlab chiqishga o'zlarining katta hissalarini qo'shdilar. Zombart bo'yicha tadbirkorlik – bu «zabtkor» (tavakkal qilishga tayyor, ma'naviy erkin, g'oyalarga boy, irodali va qat'iyatli, talabchan odam), «tashkilotchi» (ko'p kishilarni birgalikda ishlashga birlashtira oladigan) va «savdogar» (kishilarni o'z tovarlarini sotib olishga ishontira biladigan, ularda manfaatdorlik uyg'otadigan, ishonchini qozonadigan) inson. Tadbirkor maqsadini ta'riflab Zombart ularning ravnaqqa intilishini, o'z ishining o'sishiga, foydaning ko'payishiga harakat qilishni ta'kidlaydi.

Y.Shumpeter ishlab chiqarish omillarini yangi kombinatsiyada yuzaga chiqarishni ko'zlaydigan va shu bilan iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi odamni tadbirkor, deb atash mumkin, deydi. Shumpeter shu bilan birga, tadbirkor ishlab chiqaruvchi mulkdor bo'lishi shart emas, u individual kapitalist – bank boshqaruvchisi yoki aksiyadorlik jamiyatining boshqaruvchisi ham bo'lishi mumkin, deb hisoblaydi.

Mohiyatiga ko'ra, mulkdorni va tadbirkorni bir-biridan farqlash kreditning paydo bo'lish vaqtiga duch keladi. Har qanday tijorat banki o'zi oborotga kiritadigan hamma kapitalning egasi bo'la olmaydi. Krida bo'yicha, uning mulkdorligi uncha katta miqdorda bo'lmagan ustav fondi bilan o'lchanadi.

Kredit munosabatlarining rivojlanishi va milliy boylikning individual xususiy mulk shaklidan korporatsiya mulki shakliga o'tishi mulkchilikni idora etishning tadbirkorlikdan ajratilishiga olib keldi.

Shunday qilib, biz tadbirkorlik va mulkdorlik o'rtasida qat'iy bog'liqlik yo'qligini aniqladik, ya'ni tadbirkorlik asosida faqat mulkdorlik vazifasi bo'lmaydi, unda bevosita mulkdorlik huquqiga ega bo'lmagan sub'ektlar qatnashishi mumkin.

Unda iqtisodiy aniq nuqtai nazarda tadbirkorlik nimani bildiradi? Ilmiy adabiyotlarda uning uch jihatini ko'rib chiqish taklif etiladi: iqtisodiy kategoriya sifatida; xo'jalik yurgizish uslubi sifatida; iqtisodiy fikrning bir turi sifatida.

Tadbirkorlikni **iqtisodiy kategoriya** sifatida ta'riflashda markaziy muammo uning sub'ektini va ob'ektini aniqlash bo'ladi. Hammasidan avval xususiy shaxslar (yakka xo'jalikni, oilaviy hamda ancha katta ishlab chiqarishni tashkil etuvchilar) tadbirkorlik sub'ekti bo'lishi mumkin. Bunday tadbirkorlarning faoliyati o'zlari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va yollangan ishchilarni jalb etish bilan amalga oshiriladi. Tadbirkorlik faoliyatini o'zaro

shartnoma munosabatlari va iqtisodiy manfaatlar bilan bog‘liq guruhlar ham amalga oshirishi mumkin. Tadbirkorlik sub’ektlari bo‘lib aksionerlik jamiyati, ijara jamoasi, kooperativlar va boshqalar qatnashadilar.

Tadbirkorlik ob’ekti shlab chiqarish omillarini yuksak samarali kombinatsiyalarda yuqori daromad olish maqsadida amalga oshiradi. Tadbirkorlar yangi noma’lum ne’matlarni ishlab chiqarish maqsadida: yangi ishlab chiqarish; yangi ishlab chiqarish usullarini (texnologiyalarni) joriy etish; bor tovarlardan tijoratda foydalanish; yangi savdo-sotiq bozorlarini yangi xom ashyo manbalarini o‘zlashtirish va hokazo maqsadlarda resurslarni kombinatsiya qiladilar.

Xo‘jalik yurituvchi tadbirkorlar uchun asosiy shart mustaqillik bo‘lib, ular tadbirkorlik faoliyati turlarini tanlash, ishlab chiqarish dasturlarini shakllantirish, moliyalashtirish manbalarini tanlash, resurslarga chiqish, foydani idora etish va boshqalarda erkin huquqqa ega bo‘lish kerak.

Tadbirkorlik iqtisodiy fikr turi sifatida amaliy faoliyatda realizatsiya qilinadigan original dunyoqarashlar va kutilmagan yechimlarni qabul qilishi bilan xarakterlanadi. Bu borda markaziy rolni tadbirkor shaxsining o‘zi o‘ynaydi. Tadbirkorlik – bu mashg‘ulot turi emas, balki tafakkur va fe‘l-atvor xususiyatidir qobiliyatga ega bo‘lib, yangilikni topish va undan imkoniyati boricha foydalanishdir. Muvaffaqiyat sari intilish, kuchli iroda, kurashishga istak tadbirkor mehnatining asosiy xususiyatidir.

Kelgusi bobda ishlab chiqarish omillariga narx belgilashni batafsil tadqiq qilishdan oldin yuqorida aytilganlardan qisqacha xulosalar chiqaramiz.

### **Qisqacha xulosalar**

Ushbu bobda tadqiq etilgan ishlab chiqarish omillari (resurslari) albatta, hech qanday mamlakatda tekin bo‘lmagan, hamda ularning yordamida ishlab chiqarilgan tovarlar ham tekin bo‘lishi mumkin emas. Uning ustiga hamma ishlab chiqarish resurslari cheklangan, dunyoda hech qanday mamlakat yo‘qki hamma ishlab chiqarish resurslariga boy bo‘lsin. Hammasini o‘z hududidan yuz foiz olib ishlatadigan davlat hozircha yo‘q va umuman bo‘lmasligi ham mumkin. Hamma ishlab chiqarish omillari (resurslari) o‘zining bozor narxiga ega, hammasi sotiladi va sotib olinadi, tekinga tortiq qilib berilmaydi. Sobiq ittifoqda markazdan taklif qilingan pulning qudrati kuchliligi, hayosizlarcha hisob-kitoblar va nafs balosiga uchragan «tantilar» tovar va xizmatlar, ishlab chiqarish omillari markazdan taqsimlanadi degan ma’noni bildirar edi.

Bozor narxi, bu kimningdir irodali qarori bo‘lib xizmat qilishi kerak emas, uning asosida har xil tovar va xizmatlar harakati ro‘y beradi.

Qanday bo‘lmasin, ishlab chiqarish omillari – mahsulot, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan elementlar bo‘lib xizmat qiladi. Iqtisodiyot fanida qabul qilingan tasnifga binoan ishlab chiqarish omillari: ishlab chiqarish vositalari (mashinalar, asbob-uskunalar, imoratlar), materiallar (xom ashyo, yordamchi va ishlab chiqarishga oid materiallar) va mehnatga muvofiq faoliyat ma’nosida ajratiladi.

Ishlab chiqarish omillarining mahsulot ishlab chiqarish uchun kombinatsiyasi – menejment funksiyasidir, u to‘rtinchi ishlab chiqarish omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Korxonada iqtisodiyoti to‘g‘risidagi fan «ishlab chiqarish omillari asosida yondashuv» doirasida tuzilgan, bunday tadqiqot markazida ishlab chiqarish omillarini kombinatsiya qilish jarayoni turadi. «Resurs», deganda shubhasiz, ishlab chiqarish omillarini va ularning miqdoriy ifodasini tushunish mumkin. Korxonaning ixtiyoridagi kadrlar, korxonaning maqsadini realizatsiya qilish uchun moddiy va moliyaviy vositalar shular jumlasidan.

Resurslarni taqsimlash iqtisodiy faoliyat sohasida asosiy muammo hisoblanadi, bu cheklangan resurslarni muqobil variantlar o‘rtasida taqsimlash, ulardan foydalanish zaruriyati bilan bog‘langan.

### **Asosiy tushunchalar**

**Resurslar** – pul vositasi, qimmatbaho narsalar, zahiralar, imkoniyatlar, vositalar manbai, daromad (iqtisodiy resurslar).

**Iqtisodiy resurslar** – korxonada va firmalarda ixtiyoridagi foyda olish uchun foydalaniladigan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, boshqa qimmatbaho narsalar, pul vositalari va hokazolar.

**Ishlab chiqarish omillari** – mahsulot, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan elementlar, ular jumlasiga: – mehnat, yer, kapital va tadbirkorlik (menejment) kiradi.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Ishlab chiqarish omillari, mulkchilik daromadlarining turi va resurslardan foydalanish tamoyillari.
2. Firmaning ishlab chiqarish vazifasi va uning ishlab chiqarish omillari bozoridagi talabi.
3. Yerga mulkchilik va renta munosabatlari. Renta turlari va yerdan foydalanish, ijara haqi.
4. Mehnat bozori va ish haqi.
5. Kapital aktivlari bozori, investitsiya jarayonlari va diskontlash.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Ishlab chiqarish omillari bozori: nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish, degan savolga ta'sir ko'rsatadimi? Javoblaringizni asoslab bering.
2. Ishlab chiqarish omillariga talab nima bilan bog'langan?
3. Ishlab chiqarish omillariga narx qanday belgilanadi va uning asosi nimada?

## **20 BOB. BOZORNING TASHQI SAMARASI VA JAMIYAT TOVARLARINI ISHLAB CHIQRISH. ASSIMETRIK AXBOROTLASHUV**

Ushbu bob bilan mikroiqtisodiyot bo'limini yakunlaymiz. Ma'lumki, A.Smitning «Ko'rinmas qo'l» prinsiplariga qaramasdan, har qanday bozor yuz foiz avtonom bo'lishi mumkin emas. Bunda har xil murakkab holatlar uchraydi, buni faqat davlat uddalay olishi mumkin. Bularning kelib chiqish sabablariga iqtisodchilar bozorning tashqi samarasining mavjudligini, ya'ni jamiyat uchun zarur bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishni hamda bozor iqtisodiyoti qatnashchilari o'rtasida axborotlarni assimetrik taqsimlashni aytadilar. Jamiyat ne'matlarining ishlab chiqarish hajmi va turlarini davlatning siyosiy usullar bilan ovozga qo'yish yo'li orqali aniqlanadi. Shuning uchun ushbu bobda biz bir qancha jamiyatning tanlab olish nazariyasini ham ko'rib chiqamiz.

### **20.1. Iqtisodiyotda tashqi samaralar**


**Tashqi samara tushunchasi.** Tashqi samaralar tovarlarni ishlab chiqarishda yoki iste'mol qilishda bevosita uchinchi shaxsga ta'sir qiladigan, ya'ni tovarlarni oldi-sotdi jarayonlarida qatnashmaydigan holatlarda yuz beradi. Shu bilan birga, tashqi samaralar bozorning narx-navolarida aks ettirilmaydi va uchinchi shaxsning sarf-xarajatlarini va foydasini tasavvur etadi. Tashqi samaralar bir tomondan boshqasiga sarf-xarajatlar qo'shtirsa, u salbiy bo'ladi va bir tomondan boshqasiga foyda keltirsa, u ijobiy bo'ladi. Bozorning salbiy tashqi samarasi klassik misol bo'lib atrof-muhitni ifloslashi mumkin. Masalan: kimyo kombinati birlashmalari o'zlarining chiqindilarini yaqinda turadigan ko'llarga tashlaydilar.

Bu chiqindilar suvni ifloslaydi, baliqlarni va qush-parrandalarni nobud qiladi, insonlarning salomatligiga haqiqiy zarar keltiradi. O'z navbatida kimyo kombinatlarining tashqi qo'mita sarf-xarajatlarini hisob-kitob qilish, baliqchilar, ovchilarning zarari, boshqa kishilarning hayot sifatini pasaytirish kabilarni ifodalashi uchun rag'batlantirish vositalari yo'q, sababi ular ushbu kombinat mahsulotlarini bozor narxida hisoblamaydi. Natijada, korxonalar atrof-muhitni ifloslantiradigan mahsulotlarni haddan tashqari ko'p miqdorda ishlab chiqaradi. Bozorning salbiy tashqi samarasi sifatida ishlab chiqarish jarayonlariga ilmiy yutuqlarni joriy etish natijasida ishsizlar sonining ko'payishini ham aytish mumkin. Tashqi ijobiy samara yuzaga keladi, masalan, qachonki fermerlar o'zlarining yer uchastkalarida sug'orishga oid ishlanmalarni qo'rsalar bu, o'z navbatida, uning fermerlarga yaqin hududlarda tuproq qatlamlari sifatining yaxshilanishiga olib keladi. Bundan qo'shni

fermer tekin foydalanadi. O‘zining faravonligini ko‘paytiradi. Yoki masalan, himoya qilinmagan ilmiy tadqiqot va tajriba konsentratli ishlarining natijalaridan uchinchi shaxs va boshqalar foydalanishi mumkin. Biz yuqorida qayt etgandek, tashqi samarada bozorning narxi aks ettirilmaydi. Shuning uchun ular samarasining sababi bo‘lishi mumkin. Uning qanday bo‘lishini ko‘rib chiqamiz.

**Tashqi samaraning paydo bo‘lishi.** Tashqi samaraning ta‘sirini ko‘rsatish uchun yaqin joylashgan suv omborlariga chiqindilarni tashlaydigan barcha kimyoviy kombinatlarning faoliyatini ko‘rib chiqamiz. Taxmin etadigan bo‘lsak, kombinatlar ko‘rsatilgan miqdorda ishlab chiqarish omillaridan foydalanadi, ya‘ni chiqindilarning hajmi faqat ishlab chiqarish hajmining pasayishi hisobiga qisqarishi mumkin.

20.1-chizmada kombinat mahsuloti talab egri chizig‘ining **D**–egri chizig‘i ko‘rsatilgan. Buning yordami bilan istemolchilarning yuqori foydasi o‘lchanadi, ya‘ni bu yuqori daromadning egri chizig‘i bilan to‘g‘ri keladi. Yuqori sarf-harajat egri chizig‘i **MS**–bu tarmoq taklifining egri chizig‘ini tasavvur etadi.



**20.1-chizma. Bozor tashqi samarasining salbiy mavjudligida iqtisodiy samara.**

**Q<sub>1</sub>**– tarmoqli mahsulot ishlab chiqarish yuqori daromad va yuqori sarf-xarajat egri chizig‘i nuqtalarning kesishuvida aniqlanadi.

Bozor bo‘yicha **R<sub>1</sub>** ga teng bo‘ladi. Baliqchilar, ovchilar va boshqa shaxslarning tashqi qo‘shimcha sarf-xarajatlari (**MEC**) yuqori tashqi sarf-xarajat egri chizig‘ida ko‘rsatiladi, u tashqi salbiy samaraning ko‘pchiligi uchun tepaga bukilgan bo‘ladi, sababi firmalar qo‘shimcha o‘lchamda mahsulotlarni qanday ishlab chiqarsa, atrof-muhitga shunchalik qo‘shimcha chiqindilar tashlanadi.

Shuning uchun tashqi sarf-xarajatlari ko‘payadi. **MSC** egri chizig‘i jamiyatning sarf-xarajatlari tasavvur etadi, bu o‘z navbatida (**MS**) yuqori sarf-xarajatlari yig‘indisiga va (**MEC**) yuqori tashqi sarf-xarajatlarga teng, ya‘ni **MSC=MS+MEC**. Jamiyat uchun ishlab chiqarish xajmi **Q** jamiyatning


yuqori sarf-xarajati (MEC) egri chizig'ini kesib o'tishda va yuqori daromad egri chizig'ida turadi.

Shu bilan birga, mahsulot ko'proq yuqori  $R_2$  narxda sotiladi. Biz ko'rib turibmizki,  $Q_1$  tarmoqning ishlab chiqarish hajmining samarasi  $Q_2$  tarmoqning ishlab chiqarish hajmi samarasidan ko'proq, ya'ni iqtisodiy samaradorlik ancha ko'proq chiqindilarni chiqaradigan ortiqcha ishlab chiqarish kabilarda ro'y beradi. Aynan tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha haddan tashqari miqdordagi resurslardan foydalanadigan kombinatlarga e'tibor qaratilgan. Buning ustiga samarasizlikning sababi narx-navoning noto'g'ri belgilanishidir.

Bozor narxi ( $R_1$ ) juda ham past, u faqat firmalarning xususiy yuqori sarf-xarajatlarini aks ettiradi, samaradorlik narx esa, firmaning yuqori jamiyat sarf-xarajatlarini aks ettiruvchi  $R_2$  narx bo'ladi. Bilishimizcha, bu, yuqori tashqi sarf-xarajatlarni ham o'z ichiga oladi. Ijobiy tashqi samaradorlik, aksincha, haddan tashqari kichik hajmdagi ishlab chiqarishga va narxning yuqori bo'lishiga olib kelishi mumkin.


**Bozorning tashqi samaradorlik muammolarini hal qilish yo'llari.** Bozorning tashqi samaradorlik muammolarini hal etish yo'llari to'g'risida savol tug'iladi, ya'ni qanday qilib tashqi samaradorlik natijalari bo'ladigan samarasini davom ettirish mumkin? Bozorning tashqi salbiy samaradorlik muammolarini hal qilishning asosiy yo'llariga quyidagilar kiradi:

1. Davlat tomonidan zararli chiqindilarni tashlaydigan korxonalariga soliqni joriy etish. Chiqindi uchun to'lov – bu firma korxonalaridan har bir zararli chiqindilar hajmi uchun to'lov. Aytaylik kimyo kombinati mahsulot ishlab chiqaradi va zararli chiqindilarini yaqin suv havzalariga tashlaydi, u yerda jamiyat nuqtai nazaridan haddan tashqari ko'p miqdorda  $R_1$  narxli mahsulot chiqaradi.



**20.2-chizma. Chiqindilarga soliq chiqarish yo'li bilan mahsulot ishlab chiqarish hajmini pasaytirish.**





**20.3-chizma. Litsenziya bozorida muvozanatlik.**

*Chiqindilarni tashlashga soliq to'lashni tashkil qilish.* Kimyo kombinatining egiluvchan taklif chizig'ini chapga suradi.  $S$  dan  $S_1$  gacha. Natijada, mahsulot ishlab chiqarishni pasayishi  $F_1$  dan  $F_2$  gacha va bozor narxining ko'tarilishidagi  $R_1$  dan  $R_2$  gacha, shunday qilib, kimyo kombinatining chiqindilarni tashlashi kamayadi, ya'ni salbiy tashqi samaradorlik kamayadi.

2. Chiqindilar bo'yicha standartlarni belgilash—bu qonun bilan belgilangan zarar sanoat chiqindi narsalarini cheklashdir. Agarda firma chiqindi standartlaridan oshib ketsa, unda pul to'lash jarimasiga uchraydi, ularning rahbarlari esa jinoiy javobgarlikka tortiladi. Bunda jarima hajmi tozalanadigan inshoatlar qiymatidan ko'p bo'lishi shart.

3. Bozor litsenziyalaridan chiqindilar tashlashda foydalanish. Boshlanishida ifloslangan joylar hajmi aniqlanadi (idealida chiqindilarning optimal bo'lmagan darajasi). Keyinchalik ular cheklangan miqdor litsenziyasiga bo'linadi va barcha korxonalar o'rtasida tarqatiladi. Keyin bu litsenziyalar oldi-sotti predmeti bo'ladi.

Katta miqdordagi, yuqori darajadagi sarf-xarajatlarga ega firmalar chiqindilar darajasini pasaytirish uchun bunday sarf-xarajatlarni past firmalardan qo'shimcha sotib oladilar. Qachonki, yuqori sarf-xarajatlar ifloslangan firmalar darajalari bir xil darajaga yetganda barcha firmalar uchun muvozanat tug'iladi.

Chiqindilar tug'ilishida bozorni har zamonda tashqi samaradorlik huquqiga ega bozor, deb ham ataladi. Endi litsenziya qiymati qanday shakllanishini ko'rib chiqamiz. Bu yerda  $R$ —litsenziya narxi,  $F$  — esa litsenziya soni. Egiluvchan  $D$  litsenziyasiga egiluvchan talabni yoki ifloslanish huquqini ifoda etadi.

Umuman, litsenziya miqdori o'zgarmaydi va optimallik ifloslanish darajasida o'rnatiladi, yani egiluvchan taklif litsenziyasi elastik emas. Muvozanatli litsenziya narxi  $R_0$  darajada o'rnatiladi.

Aholi soni o‘shish sur‘atida litsenziyaga talab ko‘payadi, ya‘ni egiluvchan talab  $D_1$  holatida unga so‘riladi. Ammo litsenziya taklifi hajmi o‘zgarmaydi. Shunday qilib, litsenziyaga talab faqat narxning oshishi  $R_1$  gacha olib keladi, chiqindilar umumiy o‘zgarmasdan qoladi. Kouz teoremasining qo‘llanilishi – bozorning tashqi samaradorligi muammolarini hal etishning yana bir yo‘li teoremaning birinchi marotaba shakllanishi 1960 yilda yuz bergan va ingliz iqtisodchisi Ronald Kouz nomi bilan atalgan.

Buning ma‘nosi shunday, qachonki, tashqi samaradorlik ko‘p miqdorda bo‘lmagan shaxslarga tegishli bo‘lsa, bitim qiymati katta emas, mulkka egalik esa, oldindan shartlangan bo‘lsa, unda tashqi samaradorlik muammolarini xususiy kelishuvlar bilan davlatning aralashuvisiz hal etish mumkin.

Qachonki, ancha-muncha miqdordagi shaxslarga tegishli bo‘lsa hamda bitim qiymati juda ham yuqori bo‘lsa xususiy kelishuvlar tashqi samaradorlik muammosini hal etolmaydi (masalan, kislota yomg‘irlar muammosi). U holda davlatning aralashuviga to‘g‘ri keladi. Shunday qilib, biz bozordagi qiyinchiliklarning paydo bo‘lish sabablaridan biri– tashqi samaradorlik ekanini bilib oldik. Shunga o‘xshagan boshqa sabablar, bu, jamiyatga zarur bo‘lgan tovarlarni ishlab chiqarishdir.

## 20.2. Jamiyat ne‘matlari

*Jamiyat va xususiy ne‘matlar tushunchasi.* Jamiyatga ishlab chiqariladigan tovarlarning ko‘pchilik qismi bu xususiy ne‘matlarni tasavvur etish, ya‘ni shaxsiy iste‘mol uchun tanlangan. Tovar xususiy deb ataladi, agarda uni iste‘mol qilinsa, uni bir payt ichida boshqa shaxs iste‘mol qilishi mumkin emas. Masalan, kiyim: qachonki bu yoki boshqa kiyimni bitta kishi kiyib yursa, unda bu vaqtda boshqa hech kim kiyib yurishi mumkin emas. Ammo boshqa ne‘matlar ham mavjud, uni biz bir vaqt ichida iste‘mol qilishimiz mumkin. Buning ustiga biz bunga to‘laymizmi yoki yo‘qmi baribir. Tovar jamiyat uchun deb ataladi. Agarda oldindan bir shaxs iste‘mol qilsa, uni boshqa shaxs iste‘mol qilishi mumkin. Bunga jamiyat tovarlariga toza havo, dengiz bo‘yi, milliy mudofaa kuchlari tinchligini himoyalash kabilar misol bo‘la oladi. Jamiyat ne‘matlari o‘z xususiyatlariga ega, aynan: 1) ular bo‘linmaydi, ya‘ni ular bir necha katta birliklardan iborat bo‘ladiki, ularni yakka xaridorlarga sotish mumkin emas; 2) ular o‘chirilmaydi, ya‘ni aholidan bittasi ham iste‘mol sohasidan o‘chirilmaydi. Xususiy ne‘matlar o‘chiriladi. Masalan, muzlatgichni bir kishiga sotishda boshqa kishilarga uni sotib olish imkoniyati yo‘q bo‘ladi.

3) Yuqori sarf-xarajatlar qo‘shimcha iste‘mol uchun nolga teng. Masalan, agarda mayoq qurilgan va foydalanishga topshirilgan bo‘lsa, bu mayoq

energiyasidan qo‘shimcha kema foydalansa hech narsa mayoq sarf-xarajatlariga qo‘shilmaydi.

**Frirayder muammosi.** Jamiyat ne‘matlarining ancha qismini xususiy ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarmaydi, ya‘ni bu yerda bir necha muammolarning borligi «chiptachilar», yoki «frirayder» (freerider problem) – bu ne‘matlardan tekin chiptasiz foydalanishi. Kishilar, yo‘lovchilar sifatida – «quyonlar», ular albatta, yo‘l haqini to‘lashni tushunadilar lekin to‘lashni hoxlamaydilar. Shu sababli xususiy firmalar tomonidan jamiyat ne‘matlar yetarli darajada ishlab chiqarilmaydi. Mayoq yorug‘i hammaga ko‘rinadiki, agarda kema egasi buning uchun pul to‘lamasa, unda kapitanga bari-bir mayoq signalidan foydalanishni man etmaydi.

Shuning uchun xususiy firmalarning mayoqni yoki boshqa jamiyat ne‘matlarini qurishga rag‘bati yo‘q, sababi uni hech kim sotib olmaydi.

Axir har bir kema egasiga keladigan foyda, mayoqni qurishga ketadigan sarf-xarajatni qoplamaydi. Lekin agarda har bir jamiyat ne‘matlaridan foydalanuvchi kimdir birov to‘laydi, deb kutsalar, unda mayoq ham, milliy mudofaa, jamiyatni tartibga solishni himoya qilish ham kerakli darajada bo‘lmaydi, davlat jamiyat tovarlarini ishlab chiqarishni majburiy soliq shakli hisobiga ta‘minlashi zarurdir.

### **Jamiyat tovarlarini optimal hajmda ishlab chiqarish**

Jamiyat tovarlariga talabni oshishida qandaydir qiyinchiliklar mavjud bo‘ladi, sababi, odamlar ulardan foydalanganligi uchun to‘ladimi yo‘qmi ularning haqiqatligini aniqlash qiyinroq. Shuning uchun jamiyat tovarlariga bozor talabi ko‘rsatkichlari umuman, mavjud emas yoki ular juda ham pasaytirilgan. Agarda e‘lon qilingan talab birga, jamiyat tovarlaridan foydalanganligi uchun aholidan soliq undirish joriy etilgan bo‘lsa, unda kishilarda talabni chiqarganlarni aldash uchun rag‘batlantirish paydo bo‘ladi. Ammo jamiyat tovarlarini ishlab chiqarish uchun uning hajmini nazariy jihatdan aniqlash mumkin. Bu yerda iqtisodchilar xususiy ne‘matlarga qo‘llanilgan umumiy prinsipdan foydalanishi mumkin.

Jamiyat uchun tovarlar ishlab chiqarish hajmining samaraliligini bu jamiyat uchun yuqori sarf-xarajatlar uning yuqori foydasiga tegishlidir. Jamiyat tovarlarini ishlab chiqarishga ketgan yuqori sarf-xarajatlar egiluvchan taklifni, yuqori foydani esa, egiluvchan talab ko‘rsatmoqda. Jamiyat tovarlarigi bo‘lgan egiluvchan talab xususiy tovarlarga bo‘lgan egiluvchan talabdan farqlanadi. Agarda xususiy ne‘matga ya‘ni talabni aniqlashga gorizontal bo‘yicha yakka egiluvchan talab qo‘shilsa, ya‘ni bu ne‘matlarning umumiy miqdori sababli, bu yerda ushbu ne‘matlarga qo‘yilgan talab kishilar o‘rtasida ne‘matlar qisman taqsimlanishi shart. Agarda vertikal bo‘yicha

jamiyat tovarlarini yakka egiluvchan talab bilan qo'shish kerak bo'lsa, ya'ni barcha iste'molchilar bu tovar uchun narxini to'lashga tayyor bo'lsa, sababi har bir kishi o'zining iste'moli uchun butun ishlab chiqarilgan jamiyat ne'matlari hajmini oladilar.

### **Jamiyat tovarlari**

Davlat nazorati ostidagi ishlab chiqarilgan tovarlarning barchasi jamiyatniki emas. Bularga kirmaydigan prinsiplarni qo'llash mumkin: ko'chalar, avto magistralar, kutubxonalar, muzeylar, tibbiy xizmatlar, ta'lim va boshqalar. Bularga narx belgilash mumkin va unda xususiy ishlab chiqaruvchilar bozor tizimi orqali ne'matlarni ta'minlash qobiliyatiga ega bo'ladi. Ammo bozor yetarli ravishda ularga pul ajratmaydi, sababi, bu yerda yetarli darajada tashqi samaradorlik bor. Unda davlat bularning bir qismini moliyalashni va ishlab chiqarishni o'z zimmasiga oladi. Bunday tovarlar jamiyatniki, deb ataladi. Masalan, o'rta maktablarda ta'lim olish jamiyatning tovari, deb bo'lmaydi, sababi, ta'limni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha o'quvchilarga yuqori sarf-xarajatlar oshadi va qo'shilishi bo'yicha, boshqa o'quvchilarga kamroq e'tibor qaratiladi. Shu bilan bir vaqtda, biz bilamizki, o'qitish tekin hamda, pulli bo'lishi mumkin. O'qitish uchun to'lov tizimini kiritish ma'lumki bir qancha o'quvchilarga maktabda ta'lim olish imkoniyatini bermaydi. Jamiyat ne'matlarining turlarini va ishlab chiqarish hajmini davlat tamonidan saylab – tanlash yo'li bilan aniqlanadi, shuning uchun endi biz jamiyatning tanlov nazariyasini ko'rib chiqishga o'tamiz.

### **20.3. Jamiyatning tanlov nazariyasi**

**Jamiyatning tanlov nazariyasi mohiyati.** Jamiyatning tanlov nazariyasi kishilarning hukumat idoralarini o'zlarining shaxsiy foydasiga erishish uchun foydalanish yo'llarini ko'rib chiqadi. Bu nazariya 1987 yil tan olingan, buning asoschisi esa Nobel mukofoti sovrindori Jeyms Byukenen hisoblanadi. Jamiyatning tanlov nazariyasini asosiy prinsiplari shulardan iboratki, ya'ni kishilar xususiy shaxs rovida ham, siyosiy arenada ham bir xil harakat qiladi. Ular iste'molchilar roli sifatida naflilikni sifatlashtiradi, ishlab chiqaruvchilar rovida esa, foydani maksimal ko'paytiradi, ya'ni ham jamiyat lavozimlarini egallab turib, ham ular foydasini o'ylab tanlov qiladi. Buning ustiga har bir aniq odamga qo'llanadigan pastulat sifatida tushunilmaydi. Balki ishchi gipotezasi sifatida faraz qilinadi, ya'ni jamiyat tanlov nazariyachilari, hamma siyosatchilar o'zlarining ovozlari mutlaqo sotadi, deb tasdiqlamaydilar. Ammo hammaga ma'lumki, har xil tashkilotlar ularning saylov kompaniyalarini moliyalashtiradi, nomzodlarning voyajini, qatnashganlari va boshqalari uchun gonarar to'laydilar, ushbu xizmatlari uchun ular biror narsa

olishga ishonch bildiradilar. Haqiqatan ham qonunchilar saylov kompaniyasini o'tkazishda moliyaviy tashkilotlardan qandaydir yordam olib, bu guruhlarning kelgusida tezda qo'llab-quvvatlaydilar. Ular bu bergan yordamlari uchun foydali qarorlar qabul qiladilar, hatto vaqti kelganda jamiyat manfaatiga zarar keltirsa ham. Shuning uchun shaxsiy foyda to'g'risidagi qarorlar qabul qilish gipotezasi hukumatda to'liq adolatli deb hisoblanadi .

### **Asosiy manfaatlar samarasining orqasidan quvish amaliyoti**

Shunday qilib, hukumat optimal qaror qabul qilishda tez asosiy manfaatlar samarasiga halaqit beradi. Tadbirkorlar doimo ijobiy iqtisodiy foyda olishni qidirishadi, hukumatga tez-tez murojaat qiladi. Firmaga o'zining mahsulotini ko'pincha foydali narxda sotish, resurslarni esa, pastroq narxda sotib olishga soliqlarni kamroq to'lashga, imtiyoz olishga va boshqalarga yaxshi sharoit yaratish imkoniyatini beradi. Hukumat yordami bilan olinadigan rentalar himoyasi siyosiy rentalarni qidirish yoki oddiy qilib aytganda, rentalarni qidirish, deb ataladi. Renta uchun harakat qilishda yaxshi axborot olgan kam sonli kishilar o'zlarining qandaydir dasturlarini realizatsiya qilishda juda ham ko'p sonli kishilar hisobiga katta foyda oladilar, ular yakka tartibda kamroq zarar ko'radilar va shu bilan birga, yomon axborot olganlari ushbu dasturga befarq qaraydilar.

Jamiyatning tanlov nazariyasiga muvofiq saylovchilarni qo'llab-quvvatlashni olish maqsadida siyosiy arboblarning har xil dasturlardan optimalini tanlab olish uchun sarf-xarajat va foydalarning ob'ektiv ravishda solishtirmaydilar. Qoidaga binoan, ular shunday dasturlar, ya'ni haqiqiy foyda hamda alohida sarf-xarajatlarning uchun kurashadilar. Sababi, siyosiy arboblarning sessiyalarda tez-tez uchrashib turadilar bu ularga savdo qilish va ovozlarni almashib turishi bilan yoki logrolning bilan, ya'ni o'zaro yordam qilish bilan shug'ullanishiga imkoniyat yaratadi. Logrolning ma'nosi shundayki, bu parlament a'zolari o'zlarining okruglari uchun kerakli bir nechta dastur tanlab oladilar. Qoida bo'yicha, bu dasturlar bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) ovoz berishda qabul qilinmaydi. Logrolning yordami bilan birinchi rejada mahalliy manfaat oldinga chiqariladi, ba'zan umummilliy hisobiga ham logrolning variantlaridan biri bu «ko'p yog' bilan to'ldirilgan bochkachadan» yoki «jamiyat kemasi»dan katta bo'magan mahalliy loyihalardan tuzilgan qonunlar ana shunday, deb ataladi. Masalan, aniq bir joyda avtomobil yo'llarini qurish, aloqa tizimi montaji va boshqalar, ammo barcha soliq to'lovchilar, ya'ni davlat budjeti hisobiga qurilgandir. Ushbu «bochkachaga» hamma vaqt «qo'y yog'i» hozircha ishonch tug'ilmaguncha uning ustiga yana qo'shilaveradi, ya'ni ko'proq ovoz olguncha, u ovoz ham bitta qonun sifatida ko'rsatiladi.

**Afzallik va ovoz berishni ko'rsatish.** Qanday yo'li bilan jamiyat tovarlarini ishlab chiqarishga qaror qabul qilinadi? Masalan, bu ovoz berish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Biz bilamizki, jamiyat tovarlarining optimal miqdorini aniqlash uchun, qoida bo'yicha yuqori foyda va yuqori sarf-xarajatlar tengligini saqlash zarur. Ammo ovoz berish yordami bilan qaror qabul qilish tez-tez iqtisodiy samarasiz bo'lib qoladi. Jamiyatning tovarlarini tanlov nazariyasiga muvofiq jamiyatning tovarlarini ishlab chiqarish to'g'risidagi qarorni qabul qilish ovoz beruvchilarning shaxsiy manfaati bilan bog'liq.

Bu yerda quyidagi xodisalar bo'lishi mumkin:

1. Agarda jamiyatning tovarlarini ishlab chiqarish ovoz beruvchilar o'rtasida ularning har birining oladigan foydasidan qat'iy nazar teng bo'linsa, jamiyat uchun bu zarur bo'lsa, unda pulni kamroq sarflash kerak bo'ladi, ya'ni jamiyatning tovarlari buning zarurligiga qaraganda kamroq ishlab chiqariladi. Masalan, bir nechta kishidan iborat bo'lgan jamiyat, ular yashayotgan ko'chani yoritish umumiy ovoz berish yo'li bilan qaror qabul qiladi. Jamiyat a'zolarining barchasiga bu loyiha foyda keltiradi, ammo bu foyda har biri uchun har xil bo'ladi hamda bular yashayotgan uyning qayerda joylashganligi sutkaning qorong'i vaqtida odamlar tez-tez ko'chaga chiqishi bilan ham bog'liq bo'ladi. Soliqni hamma teng to'laydilar. Endi sarf-xarajatlar va foyda tahlili ko'rsatadiki, jamiyat uchun optimal fonarlar soni yettita bo'ladi. Ammo ovoz berish yo'li bilan faqat oltita fonarni o'rnatishga qaror qabul qilingan.

2. Agarda sarf-xarajatlar tengsiz taqsimlansa, foydasi esa teng bo'lsa, unda jamiyat tovarlari jamiyatga zarurligidan ko'proq ishlab chiqariladi. Bizning holatimizda sakkizinchi fonarni o'rnatishga qaror qabul qilinadi.

3. Endi faqat har bir ovoz beruvchining oladigan foydasiga ketgan sarf-xarajat proporsional bo'lsa, jamiyat uchun optimal qaror qabul qilinadi. Bizning misolimizda jamiyat yettita fonar o'rnatishga qaror qabul qiladi. Shu bilan har biri baribir o'zining shaxsiy foydasini o'ylab ish qiladi.

### **Ovoz berish paradoksi. O'rtacha saylovchi nazariyasi**

Shunday qilib ko'rib turibmizki, ko'pchilik ovoz berish yo'li orqali qabul qilingan qarorlar bilan bog'liq murakkablik mavjud. Ammo yana bir muammo bor, bu ovoz berish paradoksi, deb ataladi. Bu vaziyat, ovoz berish yo'li bilan jamiyatning afzalligi ustuvorligini aniqlab bo'lmaydi. Faraz qilaylik, jamiyat uchta saylovchidan (1,2,3) iborat, ularning jamiyat tovarlarini ishlab chiqarishga milliy mudofaa, tunnel qurish va to'g'on o'rnatishga o'zining afzalligini qaysi biriga nisbatan beradi. Birinchi saylovchi oldingi o'ringa milliy mudofaani, ikkinchisi tunnel qurishni, uchinchi esa, to'g'on o'rnatishni qo'yadi. Ikkinchi saylovchi birinchi o'ringa tunnel qurishni, ikkinchisiga

to'g'on o'rnatishni, uchinchi o'ringa esa, milliy mudofaani qo'yadi. Uchinchi saylovchi birinchi o'ringa to'g'on o'rnatishni, ikkinchisiga milliy mudofaani, uchinchisiga esa, tunnel qurishni.

### Ovoz berish paradoksi jadvali

Jamiyat tovarlari	Saylovchilar		
	I	II	III
Milliy mudofaa	1	2	3
Tunnel qurish	2	1	3
To'g'on o'rnatish	3	2	1

Ovoz berish natijalarini tahlil qilamiz.

1. Birinchi bosqichda saylovchilar yoki milliy mudofaa uchun yoki tunnel qurishga ovoz beradilar. Unda birinchi saylovchi milliy mudofaa uchun ovoz beradi. Sababi unda milliy mudofaa birinchi o'rinda turibdi. Tunnel qurish esa, ikkinchi o'rinda turibdi. Ikkinchi saylovchi tunnel qurish uchun ovoz beradi, sababi unda tunnel qurish birinchi o'rinda turadi. Milliy mudofaa ikkinchi o'rinda turadi. Uchinchi saylovchi milliy mudofaa uchun ovoz beradi, sababi milliy mudofaa ikkinchi o'rinda, tunnel qurish uchinchi o'rinda turadi. Birinchi bosqich saylov natijasida: ikkitasi bittaga qarshi milliy mudofaa uchun ovoz beradi, ya'ni milliy mudofaa masalasi ko'proq. Tunnel qurishga nisbatan ustuvordir.

2. Ikkinchi bosqichda saylovchilar yoki tunnel qurish uchun yoki to'g'on o'rnatish uchun ovoz beradilar. Ko'rib turibmizki, birinchi saylovchi tunnel qurish uchun ovoz beradi, sababi unda tunnel qurish ikkinchi o'rinda turadi. To'g'on o'rnatish esa, uchinchi o'rinda. Ikkinchi saylovchi tunnel qurish uchun ovoz beradi, sababi u tunnel qurishni birinchi o'ringa qo'ygan, to'g'on o'rnatishni ikkinchi o'ringa qo'ygan. Uchinchi saylovchi esa, to'g'on o'rnatishga ovoz beradi, sababi to'g'on o'rnatish birinchi o'rinda, tunnel qurish esa, faqat uchinchi o'rinda. Shunday qilib, ikkinchi bosqichning natijasi bo'yicha ikki saylovchi bittasiga qarshi bo'lib, tunnel qurishga ovoz beradi, ya'ni tunnel qurish, to'g'on o'rnatishga nisbatan zarurroq bo'ladi.

Bu yerda mantiq nuqtai nazari bo'yicha agarda ko'pchilik saylovchilar mudofaani tunnel qurishdan ustunroq, tunnel qurishni esa, to'g'on o'rnatishdan afzalroq ko'rsalar, shunday qilib, milliy mudofaa masalasi to'g'on o'rnatishdan muhimroq ekanligi ma'lum bo'ladi.

3. Endi ko'ramizki, uchinchi bosqichni ovoz berish natijasi qanday bo'ladi, bu yerda saylovchilar yoki milliy mudofaa uchun yoki to'g'on o'rnatish uchun birinchi saylovchi milliy mudofaa uchun ovoz beradi, sababi

milliy mudofaani birinchi o'ringa qo'ygan, to'g'on qurishni esa, uchinchiga qo'ygan edi. Ikkinchi saylovchi to'g'on qurish uchun ovoz beradi (u to'g'on qurishni ikkinchi o'ringa, milliy mudofaani esa uchinchiga qo'ygan edi). Uchinchi saylovchi ham to'g'on qurishga ovoz beradi, sababi buni u birinchi o'ringa qo'ygan milliy mudofaani esa faqat ikkinchi o'ringa qo'ygan edi. Ko'rinib turibdiki, ko'pchilik saylovchilar to'g'on qurishni milliy mudofaa muammosidan afzal ko'radi, bu mantiqqa ziddir.

Shunday qilib, ko'pchilik ovoz bilan bo'lgan saylov qarama-qarshi natijalarga olib kelishi mumkin, sababi bu yerda tranzitivlikning afzalligi yo'q. Ovoz berish tez-tez kelishilgan saylov o'tkazishga ijozat bermaydi.

Yana biz e'tibor beradigan vaziyat, bu saylovchining o'rtacha moddali (tsentrizm saylovchi). U faraz qiladiki, qaror qilishda o'rtada xolis pozitsiyada turgan shaxs ovozni qanday berishini aniqlovchi markaziy figura bo'lib qoladi. Faraz qilaylik, ya'ni bizning uchta saylovchilarimiz tunnel qurish uchun ovoz berdi, ammo ularning har birini o'zining loyihasi bor: birinchi saylovchi 500 pul birligiga qurishni taklif qiladi, ikkinchisi 700 ga, uchinchisi esa, 300 pul birligiga. Bulardan qaysi birining taklifi qabul qilinadi. Birinchi tur ovoz berishda o'rtacha qiymat loyihasi hamda qaysi bir boshqasi, misol, baholangan 500 ga 700 pul birligi qatnashadi. Unda 500 pul birligi uchun birinchi va uchinchi ovoz beradi, u tunnel qurishga 300 pul birligini taklif qilgan edi, shu sababli, tabiiyki, 500 pul birligi summasi uchun ovoz beradi. Ikkinchi turda ovoz berishda yana qiymati bo'yicha o'rtacha va qolgan, ya'ni 500 pul birligida va 300 pul birligida baholangan loyihalar qatnashadilar. Endi 500 pul birligidagi loyiha uchun birinchi hamda ikkinchi saylovchilar ovoz beradilar. Ikkinchi 700 pul birligi loyihasiga, shunday bo'lsa ham 500 pul birligi loyihasi uchun «ha», deb ovoz bergan. Biz ko'rib turibmizki, markazchi-saylovchi g'alaba qozonadi. Bu yerda o'rtacha saylovchiga (markazchiga). Qarab ishni yuritish qo'pincha hal qiluvchi qarorni qo'llashni tutib turadi. Bu ham muhim, ammo hamma vaqt kafolat bermaydi, qilingan qaror optimal bo'lishi mumkin.

Biz hamma vaqt mikroiqtisodiyot kursini o'rganish bo'yicha iste'molchi va ishlab chiqaruvchilar ularni tanlab oladigan o'zgarib, turadigan iqtisodiyot to'g'risidagi axborotga to'liq egaligidan kelib chiqqan edik. Hozir bir, agarda bozorning har xil qatnashchilari boshqalarga qaraganda katta hajmdagi axborotga egaligini ko'rib chiqamiz, ya'ni axborotlarning assimetrik holatida taqsimlanishini tahlil qilamiz.

#### **20.4. Assimetrik axborotlashuv**

Assimetrik axborotlashuv atamasi iqtisodiyotda vaziyatlarni ko'rsatish ishlariga aloqador korxonalar qatnashchilari qismi ahamiyatga ega bo'lgan



axborotlarga ega, shu vaqtda boshqa qismlar unga qiziqqan shaxslar bunday axborotga ega emas. Assimetrik axborot iqtisodiyotdagi ko‘p vaziyatlarga ega: qoidaga muvofiq tovarlarni sotuvchilar xaridorlarga nisbatan ancha ko‘proq uning sifati to‘g‘risida biladilar; ishchilar o‘zlarining qobiliyatlarini tadbirkorlarga qaraganda yaxshi biladilar; boshqaruvchi rahbarlar esa, o‘zlarining qobiliyatlarini, korxonalar egalariga qaraganda yaxshiroq biladilar. Assimetrik axborotlashuv nazariyasi iqtisodiyotda harakat qiluvchi ko‘p qoidalarni bizga tushuntirib berishi mumkin: nimaga, masalan, muzlatkichlarni, televizorlarni va boshqa tovarlarni ishlab chiqaruvchilar xaridorlarga kafolat taklif qiladi; korxonalar egalariga boshqaruvchilarning xulqlarini nima uchun nazorat qilish kerak; nima uchun firmalar ishchilar bilan rag‘batlantiruvchi tizimni va boshqalarni nazarga oladigan shartnoma tuzadi. Assimetrik axborotlashuvni biz sotuvchilar xaridorlarga qaraganda, tovarlarning sifati to‘g‘risida ko‘proq aniq axborotga egaligini vazifasidan boshlashni ko‘rib chiqamiz. Birinchi marotaba tovarlarning sifati to‘g‘risidagi assimetrik axborotlashuv ahamiyati Jordj Akerlof tomonidan tahlil qilingan edi.

### **Sug‘urtalash va assimetrik axborotlashuv**

Kundalik hayotda kasal bo‘lib qolish, talon-taroj kabilar juda ham ko‘p. Havf-xatar omillari mavjud bo‘ladi. Bunday voqealar oqibatida kishilar o‘zlarini havf-xatarli kamaytirishni sug‘urta qilish yo‘li bilan himoya qilishlari mumkin. Ammo sug‘urta bozori axborotlashuvning sifati to‘g‘risida xarakter yordamida olish ham mumkin.

Sug‘urta bozorining ishlarini assimetrik axborotlashuv oqibatida paydo bo‘ladigan muammoli noxush tanlov qilishi mumkin. Kishilar, sug‘urtani sotib oluvchilar, o‘zlarining sog‘lig‘i to‘g‘risida ko‘proq sug‘urta majmuasiga qaraganda yaxshi biladilar. Sababi, aynan qandaydir kasal bilan qiynalib yurgan kishilar ko‘proq darajada sug‘urta qilishni xohlaydilar, unda ularning sug‘urta qiladiganlar miqdorida o‘sib boradi.

Bu sug‘urta narxini oshiradi, kishilar o‘zlarining tavakkalini solishtirib, sug‘urta qilmaslikni afzal ko‘radilar. Shunday qilib, insonlarning qandaydir kasal bilan qiynalib yurganlari ulushi yanada ko‘paymoqda, sug‘urta bozorida faqat bu shaxslar qolguncha sug‘urta narxini va boshqalarni yanada oshirishga olib keladi.

Shunday qilib, qachonki assimetrik axborotlashuv sug‘urta qiluvchilarni tanlab olguncha sug‘urta kompaniyasining faoliyati foydasiz bo‘lib qoladi. Shuning uchun ko‘pincha bir qancha mamlakatlarda 65 yoshdan oshganlar tibbiy sug‘urta qilishda ancha qiyinchiliklar bilan to‘qnashadilar. Bunday vaziyatlar davolashni tibbiy sug‘urta masalalariga aralashishlarini

majburlaydi, ayniqsa, kekxa kishilarga tegishli bo‘lib, noqulay tanlovlarning oqibatini baravarlashtiradi.

Axborotlarni assimetrik taqsimlash sug‘urta kompaniyalarining axloqini tavakkallikni to‘liq nazorat qila olmasligining sababi bo‘ladi. Bunday muammolar shunday paydo bo‘ladiki, agarda sug‘urta polisini sotib olgandan keyin, ya‘ni keltirilgan zarar sug‘urta hisobiga qoplanishini bilib turib, sug‘urta qilingan beparvolik bo‘yicha tavakkalchilik zararini ko‘paytiradi. Masalan, agarda mashina birovlar tomonidan haydab ketilishidan yoki talantaroj qilinishidan sug‘urta qilingan bo‘lsa, yoki fuqarolik mas‘uliyatida sug‘urta qilinib yo‘llarda e‘tiborsiz yursalar, u mashinaning turar joyda eshigini bekitmasdan qoldirishi mumkin.

Sug‘urta kompaniyalari axborotlarning assimetrik taqsimlanishi hisobiga yomon sug‘urta qilingan kishilarni to‘liq nazorat qila olmaydilar. Natijada, ahloqiy tavakkalchilik sug‘urta badallarini ko‘taradi va tartibga aniq rioya qiluvchi va vijdonli kishilar hisobiga betaraf kishilarga foyda olib keladi. Shuning uchun, masalan, o‘g‘rilab haydab ketishga qarshi mexanizmlarni qo‘yish, avtomobillarni sug‘urta qilish, shartnoma tuzishdan oldin sug‘urta kompaniya qilishi hamda avtomobil egasining mashinasi turadigan garajni talab qilishi mumkin va boshqalar. Mana shulardan sug‘urta qiymati belgilanadi. Boshqacha aytganda, sug‘urta bozori mavjud bo‘lmasligi mumkin.

### **Assimetrik axborotlashuv va kredit bozori**

Assimetrik axborotlashuv kredit bozorining harakat qilishiga ham to‘sqinlik qilishi mumkin, masalan, kredit kartochkalari bozor, agarda ularni ishlab chiqaruvchi kompaniyalar va banklar axborotlashuvga kirishi bo‘lmaganda  $X_2$  markaziy kompyuterlarda saqlanayotgan va insofli ham noinsofli qarzdorlarni farqlashga ijozat beradi.

$X_1$  faraz qilsak, kredit kartochkalari bozorida nima bo‘lardi? Agarda bu axborotlashuv bo‘lmaganda Axborotlashuvning assimetrlashuvi kredit bozorida shundan iboratki, ya‘ni qarzdorlar kreditlarga qaraganda qarzni qaytarib berishni yoki bermaslikni yaxshi biladilar.

Kompaniyalar barcha qarzdorlar uchun bir xil foiz belgilaydilar, bu o‘z navbatida shunday kategoriyani ham jalb qiladi, ular to‘lashni xohlamaydilar. Bu foizni kredit uchun ko‘tarishga olib keladi, bu o‘z navbatida to‘lamaydiganlar ulushini ko‘paytiradi, (to‘lovchilar yuqori foizni to‘lashni xohlamaydilar va shartnoma tuzmaydilar), kredit uchun foiz yanada oshadi va boshqalar. Natijada, berilayotgan kreditlar juda ham qimmatlashib ketardi va xususiy qarzdorlar undan foyda ololmasdan qoladilar. Shuning uchun assimetrik axborotlashuv muammolarini qisman hal etishi uchun va kredit bozorida noqulay tanlab olish noinsofli mijozlar to‘g‘risida axborotlarni

almashuv juda ham katta rol o'ynaydi. Busiz kredit bozorining mavjudligi mumkin bo'lmay edi.

Agarda sotuvchilar tovarlar yoki xizmatlarning sifati to'g'risida axborot bermasalar, sifatsiz tovarlar yuqori sifatli tovarlarni siqib chiqaradi va bozorlar ishlamasdan qoladi. Shuning uchun sotuvchilar o'z tovarlarining yuqori sifatiga xaridorlarni ishonitirishga juda ham qiziqadilar. Bu ko'pincha firmalarning obro'si hisobiga erishiladi. Masalan, kishi aynan manashu do'konda xarid qiladi, sababi ushbu do'kon xizmat ko'rsatish sifatining yaxshiligi bo'yicha shon-sharafga ega, tadbirkor firmaga aynan shu ishchining ishini yollab oladi, sababi uni ishonchli kishilar tavsiya etgan va boshqalar. Ba'zi vaqtda tovarlar sifatining noaniqlik muammolarini standartlash hal qilishi mumkin. Masalan, sayyohatchilar tez yuradigan shosse tezda tushlik qilish o'zining sifati bo'yicha hech kimga ma'lum bo'lmagan kafega kirmasdan hammaga ma'lum bo'lgan kafega kiradi. Shunday qilib biz ko'rdikki, ya'ni davlat ham, xususan tibbiyot sug'urta bozorida ham kredit kompaniyalari o'rtasida ham xizmat ko'rsatish bozorining obro'si axborotlar almashinuvida tovarlar sifatining noaniqlik muammolarini qisman hal qilishga yordam berishi mumkin. Assimetrik axborotlarni ustunlik bilan yengishda ijozat beradigan boshqa mexanizmlar **bozor signali** bo'lib hisoblanadi.

### **Bozor signali tushunchasi. Mehnat bozori signallari**

Bozor signali konsepsiyasi birinchi marotaba Maykl Spens tomonidan ishlab chiqilgan edi, uning ko'rsatishicha, bir qancha bozorlarda sotuvchilar xaridorlarga tovarning sifati to'g'risida axborot beradi. Assimetrik axborotlashuv ta'minlangan bozorlar uchun yaxshi misol bo'lgan mehnat bozorini ko'rib chiqamiz: ishchilar o'z mehnatining sifati to'g'risida ancha ko'proq biladilar. Signal ahamiyatli bo'lishi uchun u shunday bo'lishi kerakki, yani uning yordami bilan yuqori malakali ishchini past malakali ishchidan farqlashi mumkin bo'lar edi. Mehnat bozorida ahamiyatli, ma'noli signal bo'lib ta'lim hisoblanadi. Bu yerda katta ahamiyatga ega bo'lib, ham o'qigan yil miqdori, ham olingan ilmiy unvon, ham diplom bergan oliy o'quv yurtining obro'si va boshqalar hisoblanadi. Firmalar ta'limni unumdorlik haqidagi signal sifatida ko'rib chiqadi. Yuqori unumdorlikdagi ishchilar ta'lim olishni xohlaydilar, hatto agarda bu ularning ishlari samarasini oshirishga yordam bermasa ham. Ular uni o'zining mehnatining sifati haqida signal berish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun (ammo pirovard natijada esa, ta'lim unumdorligini ko'taradi va qo'shimcha bilim beradi).

Signal boshqa assimetrik axborot bilan ta'minlangan bozorlarda ham bo'lishi mumkin: televizorlar, sovutkichlar, avtomobillar va boshqa narsalarning bozorlarida. Yuqori sifatli, ishonchli mahsulotlarni ishlab

chiqaruvchi firmalar kafolat va kafillik yordami bilan iste'molchilarga signal beradi (agarda, qachonki istemolchilar qanday marka yaxshiligini aniqlashni bilmasalar). Ishlab chiqaruvchilarga sifati past tovarlarni ishlab chiqarish qimmat bahoga tushib ketadi, axir uni tez-tez firma hisobiga (remont qilish) tuzatish va ular tekin remont qilishda xarob bo'lishi mumkin. Shunday qilib, kafolatlarni tovarning yuqori sifatiga signal sifatida baholash mumkin va iste'molchilar shunday tovarlar uchun ancha yuqori narx to'lashga rozi bo'ladilar.

### **Qisqacha xulosalar**

Shunday qilib, mikroiqtisodiy bo'limini o'rganishni tamomlab, biz bozorlarda tashqi samaradorlik muammolarini jamiyatga kerak tovarlarni ishlab chiqarish zarurligini ham axborotlashuvni assimetrik taqsimlashda paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni tahlil qildik.

Shu bilan birga, ushbu bobda bozorning tashqi samaradorlik tushunchasiga to'xtadik, ularning kelib chiqishini tushundik, bu muammolarni atrof-muhitni ifloslantirish misolida hal qilish yo'lini hamda jamiyatning tovarlariga xos xususiyatlarni ko'rib chiqdik.

Bozorda qanday qiyinchilik paydo bo'lishini bilib oldik. Ularni ishlab chiqarish zarurat bilan bog'liq bo'lgan va jamiyat ne'matlarini, ishlab chiqarish hajmini va turlarini jamiyatda qanday aniqlanishini ham, ya'ni jamiyat tanlov nazariyasini ko'rib chiqdik. Ushbu bobda biz hamda assimetrik axborotlashuv tushunchasiga shu bilan birga, bozorda yuz beradigan muammolarga to'xtab o'tdik. Shu bilan birga asosiy e'tiborni tovar sifatining noaniqligiga qaratdik.

### **Asosiy tushunchalar**

1. Bozorning tashqi samarasi.
2. Jamiyat tovarlari.
3. Assimetrik axborotlashuv.

### **Seminar darslarida muhokama qilinadigan savollar**

1. Nima uchun jamiyat tovarlari nazariyasi mikroiqtisodiyot bo'limida ko'rib chiqiladi?
2. Logrolling mohiyati nimadan iborat?
3. Sug'urta va kredit bozorlarini misollarda ko'rsatib bering.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Bozorning qanday signallarini bilasiz?
2. Assimetrik axborotlashuv deganda nimani tushunasiz?
3. Bozorning tashqi samarasi va jamiyat tanlov nazariyasi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. 8 декабрь 1992 йил. 2017 йил 6 апрель № ЎРҚ-426. <https://lex.uz/ru/docs/20596>
2. Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик ва тадбиркорлик фаолиятининг кафолатлари тўғрисида”ги қонуни. 1999 йил 14 апрель, 755-I-сон. <https://lex.uz/ru/docs/66268>
3. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида мулкчилик тўғрисида”ги қонунининг 4-моддаси. 1990 йил 31 октябрь, 152-XII-сон. <https://lex.uz/ru/docs/111466>
4. Ўзбекистон Республикасининг “Деҳқон хўжалиги тўғрисида”ги 2021 йил 1 апрелдаги ЎРҚ-680-сон Қонуни
5. Ўзбекистон Республикасининг “Ер солиғи тўғрисида”ги 1993 йил 6 майдаги 831-XII-сон Қонуни
6. Ўзбекистон Республикасининг “Ижара тўғрисида”ги 1991 йил 19 ноябрдаги 427-XII-сон Қонуни
7. Ўзбекистон Республикасининг “Меҳнатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги 1993 йил 6 майдаги 839-XII-сон Қонуни
8. Закон РСФСР от 22.03.1991 N 948-1 (ред. от 26.07.2006) "О конкуренции и ограничении монополистической деятельности на товарных рынках".  
[http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_51/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_51/).

### О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

9. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 592 б.
10. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. 15.01.2017
11. Mirziyoyev, Shavkat. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.- Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. -416 bet.

### О‘quv adabiyotlari

12. Gossen. «Entwicklung der Gesetze des menschlichen Verkehrs und der daraus fließenden Regeln für menschliches Handeln», 1854
13. Iqtisod nazariyasi. Vahobov A., O‘lmasov A. 2014.

14. А.Смит. «Исследование о природе и причинах богатства народов». М.: Директ-Медиа,  
[https://biblioclub.ru/index.php?page=book\\_red&id=560822014](https://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=560822014)
15. А.Ўлмасов, М.Шарифхўжаев. Иқтисодиёт назарияси. Т.: Меҳнат, 1995. - 265 б.
16. Алексей Михайлович Волков. Швеция: социально-экономическая модель. Справочник. М.: Мысл, 1991
17. Альфред Маршалл. Принципы политической экономии. В трех книгах. М.: Прогресс, 1983
18. Анн Робер Жак Тюрго. Размышления о создании и распределении богатства
19. Аристотель. Политика. М.: АСТ, 2018. 320 стр
20. Артур Сесил Пигу. Экономическая теория благосостояния. В двух томах. М.: Прогресс, 1985
21. Бекнозов Н. ва бошқалар. Бозор иқтисодиёти назарияси. Т., 1993.
22. Борисов, Е. Ф. Основы экономики: учебник и практикум для СПО / Е. Ф. Борисов. — 7-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2017. — 383 с.
23. Василий Васильевич Леонтьев. Экономические эссе: Теории, исследования, факты и политика. М.: Издательство политической литературы, 1990.
24. Давид Рикардо. Начала политической экономии и налогового обложения. Москва : Эксмо, 2007 – 953 с.
25. Дж.Робинсон. Экономическая теория несовершенной конкуренции. М., 1986
26. Джон Бейтс Кларк. Распределение богатства. М.: Гелиос АРВ, 2000
27. Джон Гэлбрейт. Новое индустриальное общество. М.: АСТ, 2004
28. Джон Р. Хикс. Стоимость и капитал. М., 1988
29. Зайдель Х., Теммен Р. Основы учения об экономике. Пер. с нем. - М. : "дело Лтд". - 1994. - 400 с.
30. Й. Шумпетер. Теория экономического развития. М. — «Эксмо», 2007.
31. Казаков А.П., Минаева Н.В. – «Экономика». Курс лекций. Упражнения. Тесты и тренинги. М.: Изд-во ЦИПКК АП, 1996 г., 392 стр.
32. Каримов И.А. «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари». Т., 1997.

33. Каримов И.А. Дехқончилик фаровонлик манбаидир. Т., 1994.
34. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. Т., 1995.
35. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида, Т., 2011.
36. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Т., 1997.
37. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т., 1992.
38. Кейнс, Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег.-М.: Гелиос, 2002
39. Клас Эклунд. Эффективная экономика. Шведская модель. М.: Экономика, 1991
40. Кондратьев Н.Д. Проблемы экономической динамики . М.: Экономика, 1989.
41. Корнаи Я. Путь к свободной экономике: страстное слово в защиту экономических преобразований. Пер. с англ. М.: Экономика, 1990
42. Котлер Ф. Основы маркетинга: пер. с англ.-М.: «Бизнес-книга», «ИМА-Кросс. Плюс», 1995.-702 с.
43. Коуз Р. Фирма, рынок и право / пер. с англ. Б. Пинскера. - М.: Дело ЛТД, 1993. - 192 с.
44. Курс экономической теории: учебник – Под общей редакцией проф. Чепурина М.Н., проф. Киселевой Е.А. 6-е исправленное, дополненное и переработанное издание – Киров: «АСА», 2009 г. - 848 с.
45. Қодиров А. ва бошқалар. Иқтисодий назарияси. ТДТУ. 1997.
46. Л. Харрис. Денежная теория. М.: Прогресс, 1990. – 728 с.
47. Людвиг фон Мизес. Бюрократия. Запланированный хаос. Антикапиталистическая ментальность. — М.: Дело, Catallaху, 1993  
Бюрократия. — Челябинск: Социум, 2006
48. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономика: Принципы, пробелы и политика. т.1-2. Пер. с англ. - М., Республика. 1992
49. Маркс. Капитал. 1-, 2-, 3-томлар, Т., 1993.
50. Ойген фон Бем-Баверк, Карл Менгер, Ф. Визер. Австрийская школа в политической экономии. М.: Экономика, 1992. – 496 с.
51. Основы экономической теории и практики: учебно-методическое пособие / [М. М. Загорюлько, В. М. Белоусов, Л. М. Васюнина и др.] -

- Волгоград: Издательство Волгоградского государственного университета, 1994. - 342 с.
52. П.Х. Линдерт. Экономика мирохозяйственных связей. М.: Прогресс, 1992.- 518 с.
53. Пиндайк Р., Рабинфельд Д. Микроэкономика. / Пер. с англ. - СПб.: Питер, 2002. - 608 с
54. Пол А. Самуэльсон, Вильям Д. Нордхаус. Экономика: Пер. с англ. — М.: «БИНОМ», «Лаборатория Базовых Знаний», 1997. — 800 с.
55. Пол Хейне. Экономический образ мышления. М.:Новости, 1991
56. Политическая экономия. Учебное пособие. М.: Издательство политической литературы, 1988. – С.511.
57. Посошков И. Т. Книга о скудости и богатстве: монография. М.: Директ-Медиа, 2007
58. Пьер Лепезан Буагильбер. «Рассуждения о природе богатств, денег и налогов» (1707)
59. Раймон Барр. Политическая экономия: В 2-х тт.: Т. 1: Пер. с фр.- М.: Междунар. отношения, 1995.- 608 с.
60. С. Фишер, Р. Дорнбуш, Р. Шмалензи. Экономика (ECONOMICS). М.: ДЕЛО Лтд, 1995. – 864 с.
61. Тожибоева Д. Иқтисодиёт назарияси. -Т.: «Шарқ» 2003.
62. Томас Ман. Богатство Англии во внешней торговле или баланс нашей внешней торговли, как принцип нашего богатства. (1664г.)
63. Ўлмасов А., Ваҳобов А. Иқтисодиёт назарияси. Т., «Иқтисод-Молия» 2014.
64. Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодиёт назарияси. Т., 1995.
65. Хайек, Фридрих Август фон Дорога к рабству / Пер. с англ. М.: Новое издательство, 2005. — 264 с.; Фридрих Август фон Хайек. Пагубная самонадеянность. Ошибки социализма. М.: Новости, 1992. – 304 с.
66. Чемберлин Э. Теория монополистической конкуренции. М.: Экономика. 1996. С. 93-94.
67. Ш.Шодмонов, М.Раҳматов. Иқтисодиёт назарияси: Дарслик.-Т.: Замин нашр, 2021.-856 б.
68. Экономическая теория (политэкономия): Учебник / Под общ. ред. акад. В.И. Видяпина, акад. Г.П. Журавлевой. - 4-е изд. М.: ИНФРА - М. 2008. -640 стр.
69. Экономическая теория (политэкономия): Учебник / Под общ. ред.



акад. В.И. Видяпина, акад. Г.П. Журавлевой. - 4-е изд. М.: ИНФРА - М. 2008. -Б.80 - 87.

70. Яковец Ю.В. Революция в экономике: ключевые проблемы, противоречия, перспективы перестройки. М.: Издательство: "Экономика" (1990).- 191 стр.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

71.Брокгауз Ф., Ефрон И. Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона. В 86 т.

72.Василий Сергеевич Немчинов. Материалы к биобиблиографии ученых СССР. Серия экономики, вып. 3. Изд-во "Наука", 1964.

73.Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка: В 4 т. - Спб., 1863-1866.;

74.Сергей Ожегов: Толковый словарь русского языка. М.: Оникс, 2010 г.

75.Земельный фонд страны и его категории.  
<https://staff.tiiame.uz/storage/users/443/presentations/1E3stmlaq2bAkJFFoftdfspJVc07b6H8tySUdmCr9.pdf>

76.Пул агрегатлари. <https://cbu.uz/oz/statistics/dks/134763/>

77.Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. Статистик тўплам. 2017-2020. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Қўмитаси, Тошкент 2021. 287 б.

## Mundarija

	Kitobxonlarga	3
	Fanimiz haqida	5
	O‘zbekiston haqida umumiy ma’lumotlar	8
	SO‘Z BOSHI	15
<b>I BO‘LIM.</b>	<b>IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI</b>	
<b>1 BOB.</b>	<b>IQTISODIY NAZARIYAGA MUQADDIMA. INSON IQTISODIYOT DUNYOSIDA</b>	
1.1.	Inson va iqtisod	31
1.2.	Iqtisodiyot nazariyasida inson modeli	32
1.3.	Iqtisodiyot nazariyasi fanining paydo bo‘lishi	38
1.4.	Qadimgi Gretsiya iqtisodiy ta’limoti	40
1.5.	Qadimgi Rim iqtisodiy ta’limoti	42
1.6.	Arab mamlakatlaridagi feodalizmning iqtisodiy g‘oyalari	43
1.7.	Feodal Rossiyaning iqtisodiy g‘oyalari (IX - XVI asrlar)	43
1.8.	Markaziy Osiyoda iqtisodiy tafakkurning rivojlanishi	44
	Qisqacha xulosalar	45
	Asosiy tushunchalar	46
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	46
	Mustaqil o‘qish uchun savollar .	46
<b>2 BOB.</b>	<b>IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING RIVOJLANISHI, UNING PREDMETI VA BILISH USULLARI</b>	
2.1.	Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida paydo bo‘lishi va rivojlanishi	47
2.2.	Iqtisodiyotning odamlar o‘rtasidagi munosabatlar tizimi	
2.3.	Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti	49
2.4.	Iqtisodiyot nazariyasi ilmiy tizimining qaror topishi	51
2.5.	Iqtisodiyot nazariyasi asosiy yo‘nalishlarining shakllanishi va ularning tadrijiy rivojlanishi	55
2.6.	Keynschilar va neokeynschilar	70
2.7.	Yangi iqtisodiyot nazariyasi	72
2.8.	Mustahkam rivojlanish nazariyasi	72
2.9.	Iqtisodiy kategoriyalar va qonunlar .	73
2.10.	Iqtisodiyot nazariyasi usullarining tavsifi	74
2.11.	Iqtisodiyot nazariyasining umumiy usullari	75
	Qisqacha xulosalar	84
	Asosiy tushunchalar	85

	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	85
	Mustaqil o'qish uchun savollar	85
<b>3 BOB.</b>	<b>IQTISODIYOT ASOSLARI. IQTISODIYOT NAZARIYASINING UMUMIY ASOSLARI</b>	
3.1.	Ehtiyojlar, resurslar, ne'matlar	86
3.2.	Resurslar va ne'matlarning cheklanganligi	89
3.3.	Tanlov muammosi	90
3.4.	Ishlab chiqarish	91
3.5.	Taqsimot	93
3.6.	Ayirboshlash	94
3.7.	Iste'mol	96
3.8.	Xo'jalik yuritish va samaradorlik	97
3.9.	Iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish	100
3.10.	Iqtisodiy rivojlanish	100
	Qisqacha hulosa	104
	Asosiy tushunchalar	105
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	105
	Mustaqil o'qish uchun savollar	105
<b>4 BOB.</b>	<b>ISHLAB CHIQRISH NAZARIYASI ASOSLARI</b>	
4.1.	Ishlab chiqarishning qisqa muddatli funksiyasi	107
4.2.	Pasayib borish - samaraning qonuni	108
4.3.	Ishlab chiqarish omillarining o'rin almashishi	114
	Qisqacha hulosalari	118
	Asosiy tushunchalar	118
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	119
	Mustaqil o'qish uchun savollar .	119
<b>5 BOB.</b>	<b>ISTE'MOL NAZARIYASI ASOSLARI</b>	
5.1.	Iste'molchi afzalliklari va foydalilik	120
5.2.	Naflilik funksiyasi	123
5.3.	Budjet cheklashlari	129
	Qisqacha hulosa	130
	Asosiy tushunchalar	130
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	131
	Mustaqil o'qish uchun savollar	131
<b>6 BOB.</b>	<b>ISHLAB CHIQRISH JARAYONI VA UNING NATIJALARI</b>	
6.1.	Ishlab chiqarish	132
6.2.	Ishlab chiqarishning omillari va imkoniyatlari	132
6.3.	Mahsulot	136
6.4.	Ishlab chiqarishning taraqqiyot bosqichlari	136
6.5.	Ishlab chiqarishda inson omili	140

6.6.	Hozirgi zamon ishlab chiqarishi sharoitida boshqa omillar	145
	Qisqacha hulosa	152
	Asosiy tushunchalar	152
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	153
	Mustaqil o'qish uchun savollar	153
<b>7 BOB.</b>	<b>IJTIMOY-IQTISODIY TIZIMLAR. ARALASH IQTISODIYOT. MILLIY IQTISODIYOT</b>	
7.1.	Iqtisodiy tizimlarni tasniflashning mezonlari va turlari	155
7.2.	Fanni tashkil etuvchi mezonlarga asoslangan tasnif	156
7.3.	Ijtimoiy-iqtisodiy mezonlar asosida tasnif	157
7.4.	Tizimlarning murakkabligi va o'zgaruvchanligi mezoniga asoslangan tasnif	162
7.5.	Aralash iqtisodiyot va uning o'lchamlari	164
7.6.	Aralash iqtisodiyot modellari	167
7.7.	Milliy iqtisodiyot	167
	Qisqacha hulosa	168
	Asosiy tushunchalar	170
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	170
	Mustaqil o'qish uchun savollar	170
<b>8 BOB.</b>	<b>MULKCHILIK VA MULKIY MUNOSABATLAR</b>	
8.1.	Mulkchilik munosabatlarining tarkibiy tuzilishi. Mulkning iqtisodiy mazmuni va mulkka egalik qilish huquqi	171
8.2.	O'zbekiston Respublikasida mulkning turlari va shakllari	176
8.3.	Mulk va bozor	183
8.4.	Davlat tasarrufidan chiqarish	184
8.5.	Xususiylashtirish	188
	Qisqacha hulosalar	192
	Asosiy tushunchalar	196
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	196
	Mustaqil o'qish uchun savollar	196
<b>9 BOB.</b>	<b>TOVAR VA PUL MUNOSABATLARI BOZOR IQTISODIYOTINING ASOSIDIR</b>	
9.1.	Natural ishlab chiqarish	197
9.2.	Tovar ishlab chiqarish	199
9.3.	Qiymat va narxning mehnat asosida yaratilishi	201
9.4.	Tovar va uning xususiyatlari	202
9.5.	Mehnatning ikki yoqlama xarakteri	203
9.6.	Pulning mohiyati va funksiyalari	204

9.7.	Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari	204
9.8.	Qiymatning oddiy shakli	207
9.9.	Qiymatning umumiy shakli	209
9.10.	Pulning turlari	211
9.11.	Pul massasi va pul aylanmasi tushunchasi. Pul muomalasi qonunlari	217
	Qisqacha hulosalar	223
	Asosiy tushunchalar	224
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	224
	Mustaqil o'qish uchun savollar	224
<b>10 BOB.</b>	<b>IQTISODIYOT FANINING QIYMAT TO'G'RISIDAGI TURLI ILMYIY NAZARIY KONSEPSIYALARI</b>	
10.1.	Qiymat - iqtisodiyot fanining asosiy muammosi	225
10.2.	Marjinalistik inqilobning asoschilari va o'tmishdorlari	227
10.3.	So'nggi qo'shilgan naflilik qiymat nazariyasi inqilobiy g'oya sifatida	228
10.4.	Kamayib boruvchi me'yoriy naflilik qonuni. Foydalilik miqdorini o'lchash	231
10.5.	Naflilikning umumiy maksimallasuvi	235
10.6.	Eng yuksak naflilik nazariyasining evolyutsiyasi	236
10.7.	Marjinalizm: qanday yangilik bor?	238
	Qisqacha hulosa	239
	Asosiy tushunchalar	241
	Mustaqil o'qish uchun savollar	241
<b>II BO'LIM.</b>	<b>MIKROIQTISODIYOT</b>	
<b>11 BOB.</b>	<b>BOZOR IQTISODIYOTINING MAZMUNI VA AMAL QILISHI</b>	
11.1.	Bozor iqtisodiyoti iqtisodiyot nazariyasini o'rganishda ob'ekt sifatida	242
11.2.	Bozor tushunchasi	249
11.3.	Bozorning tarkibiy tuzilishi	252
11.4.	Bozor iqtisodiy sub'ektlari o'zaro harakat qiluvchi mexanizm sifatida	259
11.5.	Bozor infratuzilmasi	260
11.6.	Erkin bozor	261
11.7.	Bozorning afzalliklari va kamchiliklari	265
	Qisqacha hulosalar	266
	Asosiy tushunchalar	268
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	268
	Mustaqil o'qish uchun savollar	268

<b>12 BOB.</b>	<b>BOZORGA O‘TISH DAVRI VA UNING O‘ZBEKISTONDAGI XUSUSIYATLARI.</b>	
12.1.	O‘zbek modeli va uning tamoyillarini jahon tizimida tan olinishi	269
12.2.	Nazariyalar va natijalar	272
12.3.	Xususiylashtirishdan keyingi mulk shakllari	275
12.4.	Milliy g‘oya. Milliy g‘urning milliy iqtisodiyot o‘sishi konsepsiyasidagi mezoni	278
12.5.	Ichki iste‘mol talablarini oshirish	279
	Qisqacha hulosa	292
	Asosiy tushunchalar	293
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	294
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	294
<b>13 BOB.</b>	<b>O‘TISH IQTISODIYOTI NAZARIYASI</b>	
13.1.	O‘tish jarayonlari va hozirgi O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘ziga xos jihatlari	295
13.2.	Rejali iqtisodiyot o‘tish jarayonlarning boshlang‘ich holati sifatida	298
13.3.	Haqiqiy bozor munosabatlarini shakllantirish - o‘tish iqtisodiyotning mazmun-mohiyati	302
13.4.	O‘tish iqtisodiyotida xususiy mulk tarkibiy tuzilishini o‘zgarishi	307
13.5.	Makroiqtisodiy beqaror muvozanat va uni bartaraf etish yo‘llari	312
	Qisqacha hulosa	319
	Asosiy tushunchalar	319
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	320
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	320
<b>14 BOB.</b>	<b>BOZOR IQTISODIYOTINING UCHTA ASOSIY MUAMMOLARI</b>	
14.1.	Nima ishlab chiqarish kerak?	321
14.2.	Qanday ishlab chiqarish kerak?	322
14.3.	Kim uchun ishlab chiqarish kerak?	322
	Qisqacha hulosalar	324
	Asosiy tushunchalar	325
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	325
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	325
<b>15 BOB.</b>	<b>BOZOR VA UNING TUZILISHI</b>	
15.1.	Bozorning mazmun-mohiyati: tug‘ma jihatlari, ijtimoiy ishlab chiqarishdagi vazifalari va roli	330

15.2.	Bozorning turlari. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning shart-sharoitlari	335
	Qisqacha xulosalar	342
	Asosiy tushunchalar	343
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	343
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	343
<b>16 BOB.</b>	<b>TALAB VA TAKLIF. BOZOR MUVOZANATI</b>	
16.1.	Talab tushunchasi. Talab iqtisodiyoti. Talab o‘zgarishining narxdan tashqari omillari	344
16.2.	Taklif tushunchasi. Tovarlarni taklif qilish iqtisodiyoti. Taklifning narxdan tashqari omillari	348
16.3.	Talab va taklifning bozor muvozanati. Muvozanatli narx	352
16.4.	Talab va taklif o‘zgaruvchanligi. Savdo foydasi	356
16.5.	Narxlarning bozor muvozanati buzilishlari	359
	Qisqacha hulosalar	360
	Asosiy tushunchalar	360
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	360
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	360
<b>17 BOB.</b>	<b>RAQOBAT VA MONOPOLIYA</b>	
17.1.	“Raqobat” tushunchasining mazmun-mohiyati	361
17.2.	Raqobatning vazifalari	365
17.3.	Raqobat va monopoliya	368
17.4.	Hozirgi zamon raqobat kurashining asosiy ko‘rinishlari	370
17.5.	Jahon iqtisodiy hamjamiyati raqobat va bardoshlilik muammolari	370
17.6.	Monopoliyaga qarshi siyosat va monopoliyaga qarshi boshqaruvning iqtisodiy mazmuni va xususiyatlari	372
	Qisqacha hulosalar	380
	Asosiy tushunchalar	381
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	381
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	381
<b>18 BOB.</b>	<b>NARXNING MOHIYATI VA SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI</b>	
	Umumiy tushuntirish	382
	Qisqacha hulosalar	391
	Asosiy tushunchalar	392
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	392
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	

<b>19 BOB.</b>	<b>ISHLAB CHIQRISH OMILLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI</b>	
	Umumiy tushuncha	393
19.1.	Yer ishlab chiqarish omili sifatida	393
19.2.	Yer fondi	395
19.3.	Yer va renta munosabatlari	397
19.4.	Differensial renta	398
19.5.	Mehnat - ishlab chiqarish omili sifatida	400
19.6.	Mehnat bozori	401
19.7.	Mehnat narxi yoki ish haqi	403
19.8.	Mehnat bozorlarida muvozanatdan chetga chiqish va ishsizlik	404
19.9.	Kapital - ishlab chiqarish omili sifatida	405
19.10.	Kapital aktivlari bozori. Diskontlash	406
19.11.	Tadbirkorlik ishlab chiqarish omili sifatida	408
	Qisqacha hulosa	410
	Asosiy tushunchalar	411
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	411
	Mustaqil o'qish uchun savollar	412
<b>20 BOB.</b>	<b>BOZORNING TASHQI SAMARASI VA JAMIYAT TOVARLARINI ISHLAB CHIQRISH. ASSIMETRIK AXBOROTLASHUV</b>	
20.1.	Iqtisodiyotda tashqi samaralar	413
20.2.	Jamiyat ne'matlari	417
20.3.	Jamiyatning tanlov nazariyasi	419
20.4.	Assimetrik axborotlashuv	423
	Qisqacha hulosa	427
	Asosiy tushunchalar	427
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	427
	Mustaqil o'qish uchun savollar	427
	<b>ADABIYOTLAR RO'YXATI</b>	428



**H. Mamedov, N. Muminov, A. Umarov, Ismailov, A.**

# **IQTISODIYOT NAZARIYASI**

**(darslik)**

**I tom**

**“Bookmany print” nashriyoti**

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 31.10.2022.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>

Nashriyot bosma tabog‘i 25. Shartli bosma taboq 25,6.

Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: [bookmany\\_print@mail.ru](mailto:bookmany_print@mail.ru)



t.me/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10